investment in human capacity and the importance of an appropriate mix of technological and social advancement for development. The implications of the research were relevant within the fields of rural development, gender studies and for transformative learning and adult education theory. Further, the study contributed knowledge on how to measure empowerment in the poverty setting. The farming systems in the study area were diverse. Rice and vegetables in the lowlands and upland rice and perennial crops (rubber, fruits and agro-forestry) in the mountainous areas have been widely promoted. Higher cropping index and increasing households' gross income were evidence in the project villages compared to non-project villages. Mostly rice was combined with duck or fish in lowlands and perennial crops combined with maize or upland crops was introduced to uplands in the project supported areas. In the non-project areas, lowlands occupied by lowland rice, and uplands by either rubber or upland rice and some extents of maize. There was no difference in livestock types and systems between the two areas. There were many additional crops introduced (lychee, mango, pineapple, tangerine) and growing in the project area. Most of the farmers in project participating villages had better understanding on recommended farming practices and activities compared to that in the non-project area. There were gaps in knowledge and technology dissemination in the non-project areas, and the farmers in the project area received farmer training, study tours and information. Some recommended technologies by the project with on-farm experiments were not adopted by participating farmers in project area, while some abandoned and old technologies are seen still being used in these farms indicating that farmers select suitable technologies that match with their needs and resources. Farmers in the project area had opportunities to attend farmer trainings and study tours to other outstanding on-farm research locations in the country, but that opportunity was scanty for those in the non-project area. The knowledge and awareness among the farmers were better with participating in agricultural activities than listening to researchers' views and presented at seminars alone and hence farmers in the project area appeared to be better in the adoption of technologies with on farm research activities than those in the non-project area. Therefore, on-farm trials were conducted with the farmer participation, which will improve farmers' knowledge and exposure to technologies targeted by the project. A constraint for the continuation of promoted technologies is the non-availability of some key inputs, such as seeds, specific varieties, etc. The arrangement of these inputs in the farming areas would enable to increase agricultural productivity and farmers'

incomes and livelihood.

This paper evaluated the impact of a pilot farmer-field-school (FFS) program on farmers' knowledge of integrated pest management (IPM) practices related to potato cultivation. They used both re-aggression analyses controlling for participation and a propensity score matching approach to create a comparison group similar to the FFS participants in observable characteristics. Results were robust across the two approaches as well as with different matching methods. They found that farmers who participate in the program have significantly more knowledge about IPM practices than those in the non-participant comparison group. They also find that improved knowledge about IPM practices has a significant impact on productivity in potato production. This paper found that FFS participation significantly enhances knowledge on pests, fungicides, and resistant varieties - all instrumental in implementing IPM practices. The robustness of the positive results of FFS participation on knowledge is demonstrated by the fact that two separate approaches used for estimating the effect of FFS yield the same result: a fourteen-percentage point increase in knowledge score for FFS participants. While samples of participants were too small to detect statistically significant differences, they also found suggestive evidence that the FFS approach was more effective than the traditional transfer-of-technology approach in imparting knowledge of technical issues related to IPM to farmers. Gains in knowledge were 86% higher with FFS than with the traditional approach used in the program. They showed that farmers with higher levels of knowledge have significantly higher levels of productivity, and estimated that, by increasing knowledge, FFS participation can raise the average potato seed output/input ratio by 4.1, or approximately 52% of the average value in a normal year. Finally, they end with a cautionary note that because the FFS pilot in Peru was started only recently, they did not examine the extent of knowledge diffusion from FFS participants to other farmers.

METHODOLOGY OF OUTCOME RESEARCH

The survey was designed and undertaken as a composite of sample survey exercises of focus group interviews on key informant panel settings and household interview of different units of samples, selected through multi-stage random sampling techniques. This section of the report describes the methods used in carrying out the outcome monitoring.

CONCLUSION

This study provides important insights into and important evidence on the impact of farmer field schools in Kabul province. The research was designed using a quasi-experimental design technique - a combination of provisions for comparing the findings under “*Before-and-After*” and “*With-and-Without*” approach, the study evaluated and FFS project of National Horticulture and Livestock Project funded by World Bank. The objectives of the study was to Examine the type livestock improved practices received by the target farmers, to examine the number of the livestock farmers confirm understand the practices and to find out the number of the farmers adopted the improved practices.

REFERENCES

1. Database of NHLP, Ministry of Agriculture and Livestock Project 2021
2. World Bank, Technical Annex for the Emergency Horticulture and Livestock Project, May 2006
3. According to UN Comtrade. See World Bank, “Understanding Gender in Agricultural Value Chains: the Cases of Grapes/Raisins, Almonds, and Saffron in Afghanistan”, June 2011
4. Abdul Samad Nazari – Regional Coordinator of NHLP MAIL 2020 (Focus on different agricultural sectors in Afghanistan)
5. Dr. Hamed Parsa, Lecturer in Balkh University – Microbiology
6. According to UN Comtrade. See World Bank, “Understanding Gender in Agricultural Value Chains: the Cases of Grapes/Raisins, Almonds, and Saffron in Afghanistan”, June 2011
7. Central Statistics Office. <http://cso.gov.af/Content/files/12-4.pdf> Accessed in December 2011.
8. Central Asia One Health Project, National Economic Impact Report, Tajikistan, September 2011
9. The four pillars are: (i) Natural Resource Management; (ii) Agriculture Production and Productivity; (iii) Economic Regeneration; and (iv) Program Support and Change Management.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI RAQAMLASHTIRISH

Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar
sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat hududiy
inspeksiyasi boshlig'i*

O'zbekiston, 180100, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar,

Mustaqillik ko'chasi, 19 uy

E-mail: zafargis@umail.uz

***Annotatsiya:** Maqolada mahalliy davlat hokimiyat faoliyatini raqamlashtirish orqali ular tomonidan chiqariladigan qarorlar «E-qaror» elektron tizimi orqali tayyorlab, qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yilishi masalasi yoritilgan. Bugungi kunda fuqarolarning huquq va manfaatleri himoya qilinishini, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirilishi dolzarb masalalardan biri sifatida belgilandi.*

***Kalit so'zlar:** mahalliy davlat hokimiyati organlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi, Tartibga solish gilotinasini, shaffoflik, normativ huquqiy hujjatlar, qarorlar.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы цифровизации деятельности органов местного самоуправления и практики подготовки и принятия решений через электронную систему «Электронное решение». Одним из наиболее актуальных вопросов сегодня является защита прав и интересов граждан, прозрачность местного самоуправления, совершенствование механизмов общественного и парламентского контроля.*

***Ключевые слова:** местное самоуправление, противодействие коррупции, регуляторная гильотина, прозрачность, нормативные акты, решения.*

***Abstract:** The article deals with the issue of digitalization of local government activities and the practice of preparing and making decisions through their electronic system "E-decision". One of the most pressing issues today is the protection of the rights and interests of citizens, the transparency of local government and public*

administration, and the improvement of mechanisms for public and parliamentary oversight.

Keywords: *local government, anti-corruption, regulatory guillotine, transparency, regulations, decisions.*

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta‘minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rilishini taqozo qilmoqda.

Sir emas, barcha sohalarni isloh qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish qonun hujjatlari sonining yanada ortishiga olib keldi. Hujjatlarining ko‘pligi, tarqoqligi amaliyotda ularni tushunishni qiyinlashtirib, huquqiy tafovut va haddan tashqari tartibga solish va byurokratiyaga zamin yaratmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi” metodologik manba sifatida foydalanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlarini raqamlashtirish jihatlari obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur muammoni hal qilish uchun xalqaro tajribada «**tartibga solish gilotinasini**» usulidan foydalaniladi.

«**Tartibga solish gilotinas**» amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish orqali ularni saralash, tasdiqlash, o‘zgartirish yoki bekor qilish demakdir.

YA’ni iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, qonuniyligi va zarurati nuqtai nazaridan asossiz bo‘lgan, shuningdek, qonuniy va zarur hisoblansa-da, jamiyat va biznes uchun qulay bo‘lmagan har qanday tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni maksimal darajada soddalashtirish «**tartibga solish gilotinas**»ning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Jahon tajribasi: Tartibga solish gilotinas tamoyilining asosiy g‘oyasi samarasiz, ishlamaydigan, qonunchilikka zid bo‘lgan qoidalarni aniqlash maqsadida me‘yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish natijalari asosida qisqa muddatlarda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan hujjatlarni to‘liq yoki qisman bekor qilishdir. Ushbu usul SHvetsiyada biznesni rivojlantirish va sarmoyalarni jalb qilishga to‘sqinlik qiladigan qoidalarni olib tashlash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik Italiya, Xorvatiya, Vengriya, Janubiy Koreya, Meksika, Rossiya va kabi ko‘plab mamlakatlarda nazorat faoliyatini isloh qilishning samarali vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Yaponiya tajribasi tartibga solish choralari sinovdan o‘tkazish yoki ma‘muriy xarajatlarni kamaytirish maqsadida «maxsus hududiy zonalar»ni shakllantirgan. Avstraliyada 2003 yilda «Qonunchilik vositalari to‘g‘risida»gi (Legislative Instruments Act 2003, LIA) qonun qabul qilingan.

Janubiy Koreyada 1998 yili «tartibga solish gilotinas» loyihasini amalga oshirish, shuningdek, tartibga solishni isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri mamlakat Prezidenti oldida hisobdor bo‘lgan Qo‘mita tashkil etilgan. Meksikada ham 1989 yili Iqtisodiy deregulyasiya bo‘limi tomonidan «tartibga solish gilotinas» loyihasi amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda huquq ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirishga, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga ta‘sirini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoniga 1-Ilova bilan «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish KONSEPSIYASI» hamda 3-Ilova bilan «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha komissiya TARKIBI» tasdiqlangan. Farmon bilan Komissiyaga bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, ikki oy muddatda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar normalarini yuqori

yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlariga o'tkazish va «tartibga solish gilotinasi» usulini qo'llash orqali qolgan hujjatlarni, shu jumladan, qonunchilikni tizimlashtirish doirasida har bir idoraning vakolatini bosqichma-bosqich kamaytirish va bekor qilishni nazarda tutuvchi, ular tomonidan qabul qilinayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning aniq ro'yxatini belgilash bo'yicha taklif kirish. SHuningdek, Konsepsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2019 yil 1 yanvarga qadar quyidagilarni ta'minlash belgilangan:

a) Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimini ishlab chiqish va sinov tariqasida ishga tushirish, bunda:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishish jarayonini boshqarish va nazorat qilish, shu jumladan, mas'ul idoralar, boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan loyihalarga elektron ko'rinishdagi viza qo'yishni amalga oshirish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va kelishish bo'yicha idoralararo elektron hamkorlikni, shuningdek, ularni ishlab chiqish jarayoni monitoring qilinishini ta'minlash;

loyihalarni jamoatchilik va kasbiy doirada muhokama qilish, shu jumladan, foyda, xarajat va kutilayotgan natijalar tahlilini hamda ularning jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlariga, ijtimoiy sohaga, tadbirkorlik faoliyatiga, atrof-muhit holatiga ta'sirini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini baholash imkonini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomalarida **«oxirgi ikki yilda hokimlarning 2,5 mingga yaqin qarori sudlar tomonidan bekor qilingani bundan buyon ularning qaror qabul qilishida ochiqlikni ta'minlash zarurligini taqozo etmoqdaligi, shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati idoralarining qarorlarini hisobga qo'yish va e'lon qilish bo'yicha elektron axborot tizimi joriy etilishi»** ta'kidlangan. Shuningdek, **«Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqilishi»** ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslari jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar» deb belgilab qo'yilgan. Davlatimizning eng birinchi vazifasi xalq irodasini ifoda etish, xalq

manfaatlarini himoya qilish va ularga xizmat qilishdir. 30-moddasida «O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim»ligi qayd etilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan fuqarolar va keng jamoatchilikni axborot bilan ta‘minlash borasida amalga oshiriladigan islohotlar, jumladan yangi qonun hujjatlarini qabul qilish, mavjud qonunlarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish, joylarda yaratilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirishga qaramasdan ko‘p ma‘lumot va axborotlar aholiga etkazilmasdan yopiqlicha qolmoqda.

Bu viloyat, tuman va shahar hokimliklarning jamoatchilik bilan bo‘ladigan munosabatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida bu hol ijtimoiy-maishiy muammolarni operativ tarzda bartaraf etish, shuningdek, ushbu organlar faoliyati ustidan jamoat nazoratini o‘rnatish imkonini bermaydi.

Qonun hujjatlarining ko‘pligi nafaqat aholi, yuridik shaxslar, balki huquqni qo‘llovchi davlat xizmatchilarining o‘zlariga ham noqulaylik tug‘diradi.

Hozirgi kunda mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda quyidagi muammolarni sanab o‘tish mumkin:

Birinchidan, Mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda yagona yondashuv mavjud emasligi va murakkabligi;

Ikkinchidan, Ochiqligi va shaffofligi ta‘minlanmaganligi;

Uchinchidan, Qonuniylikni ta‘minlash va nazorat qilishda AKT echimlaridan foydalanilmaganligi;

To‘rtinchidan, Mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda tahlil qilish uchun ob‘ektiv ma‘lumotlarning mavjud emasligi;

Beshinchidan, Mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda ortiqcha vaqt va qog‘oz sarfi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlariga putur etkazilishi, davlat hokimiyati idoralariga nisbatan fuqarolarning ishonchi pasayishiga olib kelmoqda hamda noqonuniy qabul qilingan qarorlarni huquqni muhofaza qiluvchi, prokuratura va sud organlari tomonidan bekor qilinishiga olib kelmoqda.

Adliya organlarining taqdimnomalariga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining 2019 yilda **1 752 ta**, 2020 yilda **1 370 ta** qaror va farmoyishlari bekor qilingan.

Bosh prokuratura ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha prokuratura organlarining protestlariga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining 2019 yilda **3 592 ta**, 2020 yilda **8 292 ta** qaror va farmoyishlari bekor qilingan.

Yuqoridagi kabi hokimliklar tomonidan noqonuniy hujjatlar qabul qilinishini oldini olish, ular faoliyati ochiq va oshkorlagini ta'minlash, sohaga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 apreldagi 218-son «Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingan. Qarorga asosan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron — «E-qaror» tizimini 2021 yil 1 yanvarga qadar sinov tariqasida ishga tushirilishi, 2021 yilning yanvar – may oylarida Qashqadaryo viloyatida aprobatsiya qilish yuzasidan huquqiy eksperiment o'tkazilishi, 2021 yil 1 iyuldan boshlab huquqiy eksperiment natijalari asosida «E-qaror» elektron tizimi respublikaning barcha darajadagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etilishi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «YOshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni bilan 2021 yil 1 iyulga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qarorlarni faqatgina maxsus «E-qaror» elektron tizimi orqali tayyorlab, qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yish belgilangan.

«E-qaror» elektron tizimini Qashqadaryo viloyatida aprobatsiya qilish yuzasidan huquqiy eksperiment o'tkazilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Adliya vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda hokim qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron «E-qaror» tizimi ishlab chiqildi hamda Qashqadaryo viloyatidagi manfaatdor tashkilotlar tizimga ulanib, elektron raqamli imzolar bilan ta'minlandi;

hokimliklar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar tahlil qilinib, hokimlikning namunaviy qaror loyihalari ishlab chiqildi va «E-qaror» elektron tizimga

joylashtirilib, Qashqadaryo viloyatidagi viloyat hamda tuman darajasidagi hokimlik va davlat idoralariga onlayn seminar-treninglar o'tkazildi hamda videodarslar tayyorlandi;

Qashqadaryo viloyati hokimligi, tuman (shahar) hokimliklarida ushbu elektron tizim joriy etilib, hokimlik tomonidan hujjatlarni (qaror, farmoyish) tayyorlashdan tortib, hokim tomonidan imzolangan qadar bo'lgan jarayon ushbu tizim orqali bo'lishi ta'minlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

«E-qaror» elektron tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

Birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori, farmoyishi va kengash qarorlarini yaratish, manfaatdor idoralar bilan kelishish, huquqiy ekspertizaga kiritish va rasman nashr etishni yagona manzildan turib amalga oshiriladi;

Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori, farmoyishi va kengash qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda shaffoflikni ta'minlangan holda, tadbirkorlarga biznes jarayonlarini tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi;

Uchinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori, farmoyishi va kengash qarorlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha bir xillikni ta'minlanadi;

To'rtinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori, farmoyishi va kengash qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda inson omilini kamaytirish, qabul qilingan hujjatlar bilan Internet tarmog'ida tanishish imkoniyatini beradi;

Beshinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini qabul qilish jarayonida muddatlarni qisqaradi;

Oltinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori, farmoyishi va kengash qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda, mahalliy davlat hokimiyati vakillari tomonidan xizmat vazifasini suiiste'mol qilish(korrupsiya)ga qarshi kurashish va oldini olish;

Yettinchidan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza qilish.

«E-qaror» elektron tizimini Respublikamizning barcha hokimliklarida joriy etish orqali fuqarolarimizning mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qarori, farmoyishi va kengash qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda shaffoflik ta'minlanadi, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlari uchun asossiz xarajatlar qilishga olib keluvchi ortiqcha ma'muriy cheklovlarni joriy etadigan qoidalar va normalar o'rnatilishi oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/20596>;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
3. Adliya vazirligi. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi. «Mahalliy davlat hokimiyati organlarini qarorlarining huquqiy ekspertizasi: amaliyot va muammolar». <https://huquqiportal.uz/news/2021/01/07/mahalliy-davlat-hokimiyati-organlari-qarorlarining-huquqiy-ekspertizasi-amaliyot-va-muammolar/971>;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «YOshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5260791>;
5. Adliya vazirligining mas‘ul xodimi Xudoyor Meliev. «Tartibga solish gilotinasini qonunchilikda nimani saqlab qolish va nimadan voz kechish kerak». <https://huquqiportal.uz/news/2020/09/24/tartibga-solish-gilotinasi-qonunchilikda-nimani-saqlab-qolish-va-nimadan-voz-kechish-kerak/674>;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3858817>;
7. Adliya vazirligining Ma‘muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va monitoringini yuritish boshqarmasi boshlig‘i. B.AZIZOV. «Qonun hujjatlari ta‘sirini baholash: xorij va O‘zbekiston tajribasi». <http://hudud24.uz/%D2%9Bonun-%D2%B3ujjatlari-tasirini-ba%D2%B3olash-horij-va-%D1%9Ezbekiston-tajribasi/>;
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 apreldagi 218-son «Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. <https://lex.uz/docs/478764>;

GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIK MASALALARI

Qurbonova Marg‘uba Boltayevna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va bu jarayon ortidan yuzga kelayotgan turli tahdidlar haqida fikr yuritiladi. Yoshlarni mana shu globallashuv jarayoni bilan bog‘lab turadigan axborot xurujlaridan, yot ma‘naviy ta‘sirlardan ximoya qilishda milliy urf-odatlar va qadriyatlarning ahamiyati masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, axborot, demokratiya, madaniyat, kommunikatsiya, milliy o‘zlik, texnologiya, integratsiya, ommaviy madaniyat

Аннотация: В этой статье обсуждается глобализация и различные угрозы, связанные с этим процессом. Анализируются вопросы важности национальных традиций и ценностей в защите молодых людей от информационных атак и чуждых духовных влияний, связывающих их с этим процессом глобализации.

Ключевые слова: глобализация, информация, демократия, культура, коммуникация, национальная идентичность, технологии, интеграция, массовая культура.

Abstract: This article discusses globalization and the various threats that follow this process. The issues of the importance of national traditions and values in protecting young people from information attacks and alien spiritual influences that connect them with this process of globalization are analyzed.

Keywords: Globalization, information, democracy, culture, communication, national identity, technology, integration, popular culture

KIRISH

Bugungi kunda “Globallashuv” atamasi atrofida kechayotgan bahslarda turlicha munosabatlar kuzatilmoqda. Ayrimlarning fikricha, bu jarayonlarni bo‘lajak xalqaro fuqarolik jamiyatining alomati, yangi dunyo va demokratiya davrining boshlanishi deb hisoblaydi. Boshqalar uchun globallashuv G‘arbning, asosan Amerikaning iqtisodiy va siyosiy gegemoniyasi bo‘lib, uning natijasida madaniyat butun dunyoda bir xil shaklga kirib, Disneylendning o‘ziga xos jalalangan ko‘rinishini kasb etadi.

Albatta, bunday qarashlar asosga ega bo‘lsa-da, alohida olinganda hozirgi dunyoning manzarasini to‘liq aks ettirmaydi. Masala anchayin murakkab. Ammo

shunisi shubhasizki, globallashuvning voqe bo'lishiga sabab bo'lgan iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar jiddiy ijtimoiy va siyosiy muammolarini keltirib chiqardi.

Globallashuv jarayonlari eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, texnik va boshqa, odamlar hayot-faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotni jamlash va taqsimlash, mehnat unumdorligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuviga, jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlarini faollashtirishga hizmat qilmoqda. Ammo globallashuv jarayonlarining hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihitlarini ham e'tibordan qochirish mumkin emas. Bular qatorida avvalo madaniyat va uning bosh tomirini tashkil etgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat jiddiy e'tiborni talab etadi. Bugungi kunda ular har qayday mamlakat, xususan, O'zbekiston uchun olg'a harakat qilishning samarali sharti, jamiyat ma'naviy-axloqiy sog'lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga bo'lgan umid tayanchini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida Sh.M. Mirziyoyevning asarlari va A.V. Klubov, M.S. Xalikov, O.A. Klubovalarning "Глобализация социально-экономической жизни: история и современность" nomli asari metodologik manba bo'lib belgilandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ma'naviy yuksalish yo'lidagi tahdidlar va ularni bartaraf etish yo'llarining bugungi kundagi vazifalari haqida tahlil olib borildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gap shundaki, globallashuv jarayonlari bilan bog'liq ziddiyatlar avvalo madaniyat sohasida ko'proq namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan globallashuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob deya ta'rif berish ham mumkin. "Bugungi kunda butun dunyo milliy madaniyatlarni qayta ishlovchi alohida ulkan "domna pechi"ga aylanmoqda".

Shu o'rinda savol tug'iladi. Globallashuv faqat tarixiy taraqqiyot mantig'i bilan bog'liq tabiiy jarayonmi yoki uni kimningdir irodasi ham boshqaryaptimi? Bugungi kunda kuchli, yetakchi davlatlar qatoriga asosan G'arb davlatlari kirishi hamda ikki qutbli dunyo barham topishi bilan G'arb yakka hukmronlikka intilayotgani ma'lum. Rus olimi V.L.Inozemsev bu borada shunday yozadi: "Globallashuv, aslini olganda, ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan "umuminsoniy

qadriyatlarga tayanuvchi yagona tamaddunning shakllanish jarayonini emas, balki mutlaqo o'zga holatni – jamiyatning “g'arbona” modelining ekspansiyasini va dunyoning ana shu modelga moslashishini ifodalaydi. Jahondagi ko'plab olimlar tomonidan “axborot neokolonializmi” “axborot urushlari”, “madaniy imperializm”, “madaniy gegemoniya”, “axborot ekspansiyasi” kabi atamalarning tez-tez qo'llanilayotgani bejiz emas.

Shakllanib kelayotgan global madaniyatning o'z tarqalish vositalari mavjud. Mutaxassislar buning to'rt asosiy vositasini qayd etishadi. Birinchisini dunyoning etakchi ishbiarmon va siyosiy arboblarning doirasining xalqaro madaniyati. Uni Semyuel Xantington “Davos madaniyati” deb ataydi. Bu global iqtisodiy tizimning ishtirokchisi bo'lishga, muvaffaqiyat qozonishga intilganlar doirasida shakllanayotgan madaniyatdir.

Ikkinchi doira sifatida g'arb ziyolilarining global madaniyati. Uni Piter L. Berger “intellektuallarning klub madaniyati” deb ataydi. Bu madaniyatning asosini g'arb, asosan Amerika intellektuallari ilgari surgan va ommalashtirishga harakat qilayotgan g'oya va xatti-harakat qoidalari (masalan, inson huquqlari to'g'risidagi g'arbona ta'limotlar, atrof muhitni muhofaza qilish, feminizm, gender tenglik kabi g'oyalar hamda mazkur mafkuraviy tushunchalarga muvofiq keladigan yashash tarzi va siyosat yurgizish qoidalari) tashkil etadi.

Uchinchisi – u yoki bu shakl va ko'rinishdagi ommaviy harakatlar (diniy-konfessional harakatlar, Grinpis, feminizm harakati va h.k.).

Va nihoyat, global madaniyatni nisbatan ayon ko'zga tashlanadigan va, aytish mumkinki, eng havfli tarqatish vositasi bo'lmish “ommaviy madaniyat”. Global madaniyatni dunyoga yoyuvchi bu vosita va kanallar ko'p jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'liq hamda alohida tadqiqotni talab etadi. Shuning uchun mazkur maqolada ularga batafsil to'xtalishning imkoniyati yo'q.

Globallashuv jarayonlarining natijalaridan biri sifatidagi amerikacha andoza asosida madaniy unifikatsiyalash, turli xalqlarning rang-barang madaniyatini inkor etish asnosida yagona jahon madaniyatini shakllantirishga bo'lgan harakatlar muayyan darajada o'z hosilini bermoqda. Bu borada amerikalik siyosatshunos Z.Bzejnskiy shunday yozadi: “Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o'zining estetik qadriyatlari haqida qanday fikrda bo'lmasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi ehtimol shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir. Amerika televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb to'rt dan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari, hattoki, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar. Internet ingliz tilida va kompyuterdagi so'zlarning aksariyat qismi Amerikadan

bo‘lib, global muloqotning mazmuniga ta‘sir o‘tkazadi. Va nihoyat, Amerika zamonaviy ta‘lim olishga intilayotganlar uchun Makkaga aylangan...”.

Shunga hamohang tarzda nemis olimi U.Bek “Globallashuv nima?” kitobida “Hozirgi dunyoni, uning inqiroz va o‘lg‘a siljishlarini “madaniy siyosat”, “madaniy kapital”, “madaniy o‘ziga xoslik”, “madaniy gomogenlik”, etnik, irqiy va jinsiy mansublik kabi tayanch so‘zlar bilan ifodalanadigan voqealarning mazmuniga e‘tibor qilmasdan, tushunish mumkinligi” haqidagi fikr hamda qarashlarni bema‘nilik deb ataydi.

Mazkur fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, keng yoyilib borayotgan global madaniyat o‘z kelib chiqishi va mazmuniga ko‘ra amerikacha madaniyatdir. Bu hozirgi dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning kuchli bo‘lsa-da, yagona yo‘nalishi emas, albatta. Ammo bu holatni e‘tibordan qochirish jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Birgina madaniyatning tarqalish omili bo‘lgan tilni olaylik. Bugungi kunda ingliz tili, aniqrog‘i, amerika tili dunyoga kelayotgan global madaniyatning tiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda ham qator olimlar tilning hokimiyatga erishishdagi o‘rni masalasiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Xususan, fransuz olimi Per Burde tilning siyosiy maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylanishini kuzatib, “legitim”(qonuniy) yoki “to‘g‘ri” til hodisasiga e‘tibor qaratadi.

Til siyosiy qurolga aylangan ekan, bu “qurol”ni “ishlab chiqaruvchilar” hamda unga egalik qiluvchilarning bo‘lishi tabiiy. Shu fikr asosida P.Burde “lingvistik bozor”, “lingvistik kapital” va “lingvistik kapital egalari” tushunchalarini kiritadi. Ayni “lingvistik kapital egalari” “til bozori”da narx-navo belgilash qoidalarini joriy etadi. Ular, fransuz sotsiologining fikriga ko‘ra, o‘zlari ishlab chiqqan sanksiyalar tizimi orqali “rasmiy til”ni qonunlashtiradi, ya‘ni qaysi so‘zlar qadrli va kerakli, uning ma‘no ko‘lami qanday ekanligini belgilaydi. Per Burde bu holatni “ramziy hokimiyat” hodisasi bilan bog‘laydi. Ramziy hokimiyat, uning nazdida, «nutq orqali mavjud holatni qonunlashtiradi, odamlarni ko‘rish va ishonishga majbur etadi, dunyoni muayyan idrok etish usulini tasdiqlaydi yoki o‘zgartiradi va u orqali dunyoga ta‘sir o‘tkazadi. Bu odamlarni deyarli sehrlab qo‘yuvchi hokimiyat bo‘lib, u odatda, jismoniy yoki iqtisodiy kuch bilan erishiladigan natijalarga kuch ishlatmay ega bo‘lish imkoniyatini beradi”.

Globallashuvning zamonaviy “liberallari” “demokratiya”, “inson huquqlari” kabi muqaddas qadriyatlarni niqob qilib olib, xalqlarni mahalliy manfaatlari, azaliy qadriyatlari, axloq normalari va an‘analaridan izchillik bilan uzoqlashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlamogda.

Milliy madaniyat o'rniga "umumjahon madaniyati" sifatida taqdim etilayotgan "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi bu madaniyatni amerikacha yashash tarzi, daromadni maksimal ko'paytirish g'oyasiga sadoqat asosida shakllangan, Makdonald yoki Koka-kola singari kompaniyalar ramzida o'z ifodasini topgan "iste'molchilik madaniyati" deb nomlash mumkin. Shu o'rinda "iste'mol", "iste'molchi" bilan "iste'molchilik madaniyati", "iste'molchilik kayfiyati" tushunchalari o'rtasidagi chegarani belgilash kerak bo'ladi. Albatta, inson avvalo iste'molchi ekanligini rad etib bo'lmaydi. Biroq iste'molchilik madaniyati kishidagi eng past instinktlarga suyanadi, ularni qo'zg'aydi, iste'molchilik kayfiyatini uyg'otishga qaratiladi. Iste'molchilik kayfiyatiga berilgan inson esa barcha narsaga foyda nuqtai nazaridan yondoshadi. Ezgulik, muruvvat, mehr, muhabbat, Vatan, xalq, o'zgalor taqdiri uchun javobgarlik va h.k. tuyg'u va tushunchalar "qorinni to'ydirmaydigan" behuda dardisarga aylanadi.

Inson faoliyatining asosiy mazmunini o'zini erkin ijodkor shaxs sifatida ro'yobga chiqarish, o'z insoniy dunyosini yaratish va shu orqali dunyoni insonparvarlashtirish tashkil etadi. Shunday ekan, iste'molchilik kayfiyati o'zagini tashkil etgan ommaviy madaniyat asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini butunlay buzadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o'zga maqsadi bo'lmagan jonzod, hayvon darajasiga, tushiradigan xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir.

YUNESKO tashkilotining so'nggi yillarda turli xalq va hududlarning moddiy madaniy yodgorliklarini saqlash bilan bir qatorda milliy urf-odat, an'ana kabi nomoddiy madaniyatini asrab-avaylash masalasiga alohida e'tibor qaratayotgani bejiz emas. G'arb libosidagi ommaviy madaniyat intervensiyasi, tabiiy ravishda millatlarning, xalqlarning, milliy madaniyatlarning himoyalanihga chog'laydi va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Faqat yuksak ma'naviyatga, minglab yillik madaniy merosga suyangon xalq, davlatgina taraqqiyotga erishishi mumkinligi bugungi kunda tobora ravshan haqiqatga aylanmoqda. O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridayoq ayni shu yo'lni tanladi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, Amerika va umuman, G'arb mutaxassisleri bu haqiqatni tan olishga majbur bo'lmoqda. Masalan, amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy sharhlovchi P.J.Byukenen "G'arbning halokati" kitobida o'z yurtining (va umuman G'arb dunyosining) tanazzulini avvalo, madaniyatning emirilayotgani, azaliy urf-odatlarining yo'qolayotgani, asrlar davomida e'zozlab

kelingan qadriyatlarning toptalayotgani bilan bog'laydi va bunday ishlarning tepasida turgan "madaniy inqilobchilar"ni "zamonamiz tolibonlari" deb ataydi.

Turli millat va xalqlarning keng ma'nodagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik ideallari mavjud va ularni avaylab-asrash, ularga tayangan holda odamlar hayotini tartibga solish insonparvar jamiyatning asosiy belgilaridan birini tashkil etgan. Ayniqsa, bugungi kunda, etakchilikni da'vo qilayotgan davlatlar daromad olish va iste'molchilik kayfiyatiga qaratilgan tuban qadriyatlarni asl qadriyat sifatida dunyo xalqlariga taqdim etayotgan bir sharoitda unga qarshilik ko'rsatish hamda milliy madaniy-ma'naviy ildizlarni saqlashga intilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Umuman olganda, globallashuvning eng dolzarb bo'lgan madaniyatlararo munosabatlardagi bu tendensiyalari bizning davrimizda ziddiyat ko'rinishini kasb etmoqda. Shunday ekan, unutmazlik lozimki, bugungi kundagi jahon tarixi – taqdiri umumiy bo'lgan er kurrasidagi barcha xalq, mamlakat va hududlarni o'z ichiga olgan umumtamaddun oqimdir. Bu oqimga ular o'z noyob madaniyati, an'analari, betakror tarixiy tajribasi bilan qo'shiladi.

Insoniyat dunyoning rang-barangligi asosidagi birligini anglasa, tan olsa, milliy va umuminsoniylikni optimal darajasida birlashtira olsa, integratsiyalashuv jarayonining zamini yashovchan va mustahkam bo'ladi. Olomon didiga mos "ommaviy madaniyat" esa kishini insonlik martabasidan mahrum etadigan va demak, insoniyat tamadduni zaminini o'ldiradigan zahri qotildir. Shunday ekan, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri – fuqarolarimizni, avvalambor yoshlarimizni ana shundan mafkuraviy og'udan himoyalash, xalqimizning madaniy indentivligi saqlashdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Клубов А.В., Халиков М.С., Клубова О.А. Глобализация социально-экономической жизни: история и современность// ВМУ. Сер. 18. Социология и политология. 2005. № 1. С. 138.
2. Монайло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. – М., Горячая линия-телеком, 2003. С. 67-69.
3. Почепцов Г.Г. Психологические войны. – М., Рефл-бук, 2000.
4. Удовик С.Л. Глобализация. Семиотические подходы. – М., Рефл-бук, 2002. С. 317.

5. Макбрайд У.Л.нинг юқорида тилга олинган мақолалари.
6. Почепцов Г.Г. Теория и практика коммуникации. – М., Центр, 1998. С. 304.
7. Бзежинский З. Великая шахматная доска. Господство Америка и геостратегические императивы – М., 1998. С. 38.
8. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. -М., Прогресс-Традиция,2001. С. 91-92.
9. Bourdieu P. The Production and Reproduction of Legitimate Language – language and Symbolic Power. Cambridge: Harvard University Press, 1991. P. 51.
10. P.J.Byukenenning mazkur kitobidan ayrim lavhalar B.Umarov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va “Jahon adabiyoti” jurnalining 2007 yil 1-, 2-sonlarida chop etildi.
11. Kitob haqida yana qarang: Umarov B. “G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // “Tafakkur” jurnali 2007 yil 2-son. 12-23-betlar.

QADRIYATLAR VA YOSHLAR TARBIYASI

Inamov Qodir Tursunovich

NamDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada "Qadriyat" kategoriyasini mazmun mohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini ochib berish orqali ilmiy asoslangan ta'riflar keltirilgan. Milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashda muhim ma'naviy omilligi va ularning qudratli manbai haqida ma'lumotlar berilgan. Qadriyatlarimizni qadrlaydigan erkin va ozod hayotning qadr-qimmatini e'zozlaydigan yoshlarni tarbiyalashdagi hamkorlik ko'rsatilgan. Qadriyatlarimizga qarshi buzg'unchi g'oyalarning bartaraf etishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Qadriyat, qadriyatlar, milliy qadriyat, millat, elat, axloqiy tushuncha, ijtimoiy guruhlar, ibratli qadriyatlar, oila, egotsentrizm, individualizm, jamoaviylik, shaxs erkinligi.

Аннотация. В статье дается научно обоснованное определение категории «Ценность», раскрывается сущность содержания и его влияние на социальное развитие. Национальные ценности - важный духовный фактор обновления общества и мощный источник информации. Это партнерство в воспитании молодых людей, которые ценят наши ценности и живут свободной жизнью. Были даны рекомендации по устранению деструктивных идей, противоречащих нашим ценностям.

Ключевые слова. Ценности, ценности, национальные ценности, нация, этническая принадлежность, моральное понимание, социальные группы, образцовые ценности, семья, эгоцентризм, индивидуализм, общность, индивидуальная свобода.

Abstract: The article provides a scientifically based definition of the category "Value" by revealing the essence of the content and its impact on social development. National values are an important spiritual factor in the renewal of society and a powerful source of information. It is a partnership in nurturing young people who value our values and live a free life. Recommendations have been made to eliminate destructive ideas against our values.

Keywords: Values, values, national values, nation, ethnicity, moral understanding, social groups, exemplary values, family, egocentrism, individualism, community, individual freedom.

KIRISH

Kelajagimizning munosib vorislari-yoshlarimizning barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” deb nomlangan kitobida “Biz yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”, deb ta’kidlaydi. Zero, Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo‘lib belgilandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ma’naviy yuksalish yo‘lidagi tahdidlar va ularni bartaraf etish yo‘llarining bugungi kundagi vazifalari qadriyat tushunchasiga borib taqalishi obyektiv ochib berildi. Respublikamizning taniqli olimlaridan E. Yusupov, J. Tulenov, Z. G‘ofurov va rus faylasuflari A.G. Zdrovomislov va G. Drabnitskiy ham risolarida o‘z fikrlarini bildirganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma’naviy narsa yoki hodisa o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy mahsulidir.

Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari majmuidir. Qadriyatlar ahloqiy qoida va me’yorlar, g‘oyalar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o‘zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o‘zaro yordam va adolatliligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas’uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo‘ladi.¹³

Qadriyat-boshqa bir ta’rifda esa qadriyat bu atrof muhitdagi narsalarni, hodisalarni ularning inson va jamiyat uchun ahamiyatga qarab, ijobiy yoki salbiy deb

¹³. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойилла ва атамалар (киска изоҳли тажрибавий луғат) –Т.: “Янги аср авлоди”, 2002. б- 177.

baholash ularni muhim yoki nomuhim, zaruriy yoki keraksiz, qadrli yoki beqadr asosiy yoki ikkinchi darajali deb belgilash natijasida vujudga keladigan tushuncha yoki nuqtai nazarlarda aks etuvchi ob'eklardir, deb belgilangan.

Fikrimizcha, qadriyat–bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o'sishini rag'batlantirish omilidir.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi¹⁴.

Milliy qadriyatlar–millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklardir.¹⁵

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi. Zero, o'z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Xullas, Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borish ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Milliy qadriyatlarning qudratli manbai va azaliy urf-odatlarimizdan biri-oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

¹⁴. Тинчлик ва бағрикенглик атамалари изоҳли луғати. -Т.: 2005, Б -103-104.

¹⁵. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. -Тошкент: 2006. Б -233.

“Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda.” 1998 yil 2 fevralda Respublika xotin qizlar qo‘mitasi xuzurida “Oila” ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taalluqli milliy an’analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lida katta qadam qo‘yildi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoylashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, kamolga etkazish, rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida insonni tarbiyalash, unga ta’lim berish, yuksak qadratli, dunyoqarashi keng qamrovli chuqur, bilimdon hamda sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ayniqsa, dolzarbdir.

Xalqimiz mustaqillikning o‘z hayotida va taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini tobora teranroq anglab yetmoqda. Bugun O‘zbekistonda yashayotgan har bir yosh mustaqillikning bergan ne‘matidan barhamand bo‘lmoqda, deb ayta olamiz. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston yoshlari o‘z taqdirini o‘zi hal etish huquqini qo‘lga kiritdi. Bugun O‘zbekiston bировga qaram emas, o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilab, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib bormoqda. Yoshlar ko‘z o‘ngida iqtisodiy hayot o‘zgarimoqda. Mulkning xilma- xilligiga o‘tilgani har bir yoshga o‘z xohishiga ko‘ra iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini berdi. Bir tomonlama, rejali iqtisodiyot o‘rnida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin mehnat faoliyati shakllanmoqda. Tadbirkorlik, fermerlik, kichik va o‘rta biznes bilan shug‘ullanish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugun O‘zbekiston o‘ziga qarashli bo‘lgan, xalqning mehnati bilan yaratilgan boylikni o‘zi o‘z ixtiyori bilan tasarruf etmoqda. Unga o‘zi egalik qilmoqda. Bugun izlanuvchan, tadbirkor, yangicha fikrlaydigan har bir kishining hayot tarzi ham o‘zgarib borayotgani shubhasiz. Bu borada davlatimiz raxbari tomonidan mamlakatimizda 2021 yilni “Yoshlarni qo‘llab- quvvatlash va aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash yili” deb e‘lon qilinishi ayniqsa diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston respublikasi “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, milliy o‘zlikni anglash bo‘yicha so‘ralgan 46,6 foiz yoshlar xalqning urf- odatlari va an‘analariga, 28,9 foizi O‘zbekistonning milliy mustaqilligiga, 28,4 foizi o‘z xalqining boy tarixiga, 21,7 foizi ona tili va milliy madaniyatiga, 19,5 foizi o‘z millatining ma’naviy o‘ziga xosligi, 16,6 foizi o‘tmish avlodlarning buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ega ekanini bildirishgan. Demak, O‘zbekiston yoshlari xalqining tarixi va an‘analari, milliy madaniyati, avlodlar o‘rtasidagi aloqa, o‘zlikni anglash va o‘ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi.

Mustaqillik sharoitida yoshlar o‘z hayotiy tajribalarida mustaqillikning afzalligini his etib, unga ishonch bildirmoqda. Mustaqillik milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti sifatida qadrlanmoqda hamda o‘zligini namoyon etish omili sifatida baholanmoqda. Masalan, respublikamizda yashayotgan axolining 20-24

yoshdagilarining 30,6 foizi, o'zbeklarning 30,3 foizi, markaziy osiyo xalqlari vakillarining 32,4 foizi, to'liqsiz o'rta ma'lumotlilarning 30,1 foizi milliy o'z- o'zini anglashni O'zbekistonning milliy mustaqilligi bilan bog'lab, uni muhim omil deb biladi.

Ayni paytda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan slavyan millatiga mansub yoshlarning 8,9 foizi, boshqa millat vakillarining 14,4 foizi ham milliy o'zlikni anglashni ona tili va milliy madaniyat bilan (51,1 foiz), xalq urf-odatlarini bilan (33,8 foiz) bog'laydilar.²⁶

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo'lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallashuv jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaymoqda. O'zbekiston ham undan chetda turgani yo'q. Turli xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlar O'zbekiston yoshlari hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muhit xalqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, turli xil kino ko'rsatuvlari bilan bog'liq asarlar yoshlar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishi, turli xil qadriyatlarning kirib kelishiga sharoit hozirlaydi.

Uning qaysi jihatlaridan foydalanish yoki foydalanmaslikni yoshlar yaxshi bilishlari lozim. Qadriyatlarni bir-biridan farqlash, milliy qadriyatlarni yo'qotmagan holda munosabatda bo'lishlari muhimdir.

Ijtimoiy hayotda, ayrim yoshlarning xatti-harakatlarida milliy qadriyatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan holatlarni kuzatish mumkin. Ayrim yoshlarning diniy ekstremizm, aqidaparastlik g'oyalarining tarafdori bo'lib sodir etgan qilmishlari bilan milliy qadriyatlarimiz o'rtasida o'zaro to'g'ri kelmaydigan holatlarni kuzatish mumkin. Toshkent, Buxoro, Andijonda bo'lib o'tgan voqealar oldimizda yoshlar dunyoqarashiga milliy qadriyatlarimizni singdirish va unga sodiq qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar turganini ko'rsatadi. Aksariyat yoshlarimiz esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan o'zlarining to'g'ri munosabatlarini shakllantirgan. Qadriyatlarni targ'ib etadigan urinishlarga, xususan, aqidaparastlikka nisbatan o'zlarining salbiy munosabatlarini bildirishlarini yuksak baholash lozim. Bugun jahon axborot maydonida yoshlarni milliy qadriyatlarga qarshi tarbiyalashga urinish kuchaymoqda. Qadriyatlarga munosabatni o'zgartirmasdan demokratik jamiyat qurib bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlar ostida qanday yashirin maqsadlar yotgani tobora ayon bo'layotir. Bunday harakatlar yoshlarni o'z xalqi, vatani va milliy qadriyatlarga nisbatan bepisand ruhda tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ularda ko'proq

²⁶ Эргашев И. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги. –Т.: “Академия”, 2020. 16- 17 бетлар.

g'arbona qadriyatlarga moyillikni uyg'otishga bo'lgan yashirin maqsadlar mujassam bo'ladi.

Yoshlar hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini muhim; milliy qadriyatlarni yaxshi bilmagan yoshlarning xatti-harakatlarida nosog'lom aqidaparastlik holatlari tezroq joy oladi. Mustaqillik yangi qadriyatlar tizimiga, milliy-madaniy meros va an'analarga tayanish orqali yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri baholashlari yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Mustaqillik yoshlar hayotida yangi davrni belgilab berdi va yoshlarning buni chuqur his etishlari maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlariga tayanib yashashga o'rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib, mamlakatning o'ziga hos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir.

Bundan tashqari, milliy- ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab- avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu mamlakatning istiqboldagi rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Mustaqillik sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zining haqqoniy mazmuniga ega bo'lmoqda. Yoshlarning u to'g'risidagi qarashlari va munosabatlari ham o'zgarib borib, milliy-ma'naviy qadriyatlarga umuminsoniy qadriyatning negizi sifatida qaralayotgani muhim yutiqdir.

Hozirgi davrda qo'lga kiritilgan muhim yutiqlarimizdan biri ta'lim- tarbiyada milliy, ma'naviy qadriyatlarning ustivorligiga erishganimizdadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Zero Abdulla Avloniy aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir".²⁷

Globalashuv jarayonida kechayotgan voqea- hodisalarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqelikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmog'i lozim. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2006-yil 25-avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori ham milliy qadriyatlarimizni yanada hurmat qilishga qaratilgan xujjatlardan biri bo'ldi.

²⁷ Баркамол авлод орзуси. –Т.; "Шарқ", 2019, 39-бет

XULOSA

Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har omonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizimini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globallashuv sharoitida, bir tomondan, milliy qadriyatga, ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy- huquqiy yangilish jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbek xalqining ibratnomuz, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda katta ta'sir eta oladigan urf-odatlar, an'analari, rasm-rusumlari va marosimlari borki, bularni bugungi kunda oilada balalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy taxdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishdag muxum vazifalarimizdan biri xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: "Akademiya", 2020. 5-bet.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7-jild. -T.: "O'zbekiston", 1999. 304-bet.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7- jild. -T.: "O'zbekiston", 1999. 306-bet.
4. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. - T.: "O'zbekiston", 2007. 38-bet.
5. Milliy istiqlol g'oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020
6. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston, 2019.
7. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.

BANAX FAZOSIDA OSHKORMAS FUNKSIYA HAQIDAGI TEOREMANING TATBIQLARI

Saipnazarov Jonibek Muxammadiyevich

(Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi filiali)

jsaipnazarov@mail.ru

Anotatsiya. Ushbu maqolada oshkormas funksiya haqida teorema, uning isboti va teorema isbotidan foydalanib uning yechimlarini topish, hamda chegaraviy masalalarni yechishdagi tadbirlari, Banax fazolarida teskari funksiya haqidagi teorema keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Banax fazo, Freshe, gomeomorfizm, biyektiv akslantirish, chegaraviy masala, chiziqli gomeomorfizm

Аннотация. В статье представлена теорема об обратной функции, ее доказательство и поиск решений с использованием доказательства теоремы, а также ее применение при решении краевых задач, теорема об обратной функции в банаховых пространствах.

Ключевые слова: банахово пространство, Фреше, гомеоморфизм, объективное отражение, краевая задача, линейный гомеоморфизм..

Abstract. This article is presents the theorem on the unknown function, its proof and finding its solutions using the proof of the theorem, as well as its application in solving boundary value problems, the theorem on the inverse function in Banach spaces.

Keywords: Banach space, Freshe, homeomorphism, objective reflection, boundary value problem, linear homeomorphism.

KIRISH

1. Mavzu bo'yicha qo'yilgan maqsad va muammolar.

Oshkormas funksiya haqidagi teorema standart usulda teskari funksiya haqidagi teoremadan keltirib chiqariladi [1]. Lekin biz bu teoremani mustaqil isbotlaymiz va uni chegaraviy masalalarni yechishga tadbiriq etamiz.

X, Y, Z – Banax fazolari bo'lsin. $L(Y;Z)$ bilan Y fazoni Z fazoga o'tkazuvchi uzluksiz chiziqli akslantirishlar fazosini belgilaymiz, $W = \{(x, y) \in X \times Y \mid \|x - x_0\| < \alpha \wedge \|y - y_0\| < \beta\}$ ($x_0 \in X, y_0 \in Y$) deylik. $F : W \rightarrow Z$ akslantirishni qaraylik. Tayinlangan $x \in \{x \in X \mid \|x - x_0\| < \alpha\}$ uchun $F(x, \cdot) : \{y \in Y \mid \|y - y_0\| < \beta\} \rightarrow Z$ akslantirishning Freshe ma'nosidagi hosilasini

(differensial)ni $D_y F(x, y)$ deb belgilaymiz, $(x, y) \mapsto D_y F(x, y) \in L(Y; Z)$. $C(W; Z)$ bilan barcha $f : W \rightarrow Z$ uzluksiz akslantirishlar sinfini belgilaymiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

2. Muammoni yechish metodlari.

Teorema 1. Faraz qilaylik, $F : W \rightarrow Z$ akslantirish quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

1. $F(x_0, y_0) = 0$.
2. $F \in C(W; Z)$.
3. $D_y F(x_0, y_0)$ – chiziqli gomeomorfizm.

U holda x_0 nuqtaning X dagi shunday U atrofi va y_0 nuqtaning Y dagi shunday V atrofi topiladiki, $\forall x \in U$ uchun y ga nisbatan $F(x, y) = 0$ tenglamaning yagona $y = f(x) \in V$ yechimi mavjud. Bunda $f : U \rightarrow V$ akslantirish uzluksiz.

Isboti. Ushbu

$$G(x, y) = y - D_y^{-1} F(x_0, y_0) \cdot F(x, y)$$

akslantirishni qaraylik. Ravshanki, $F(x, y) = 0$ tenglamani yechish $G(x, y) = y$ tenglamani yechishga teng kuchli. Oxirgi tenglamadagi $G(x, y)$ funksiya quyidagi xossalarga ega:

1. $G(x_0, y_0) = y_0$.
2. G va $D_y G$ lar uzluksiz.
3. $D_y G(x_0, y_0) = 0$.

$D_y G$ uzluksiz bo'lganligi uchun y_0 nuqtaning shunday $V_r(y_0) = \{y \in Y \mid \|y - y_0\| \leq r\} \subset \{y \in Y \mid \|y - y_0\| < \beta\}$ atrofi mavjudki, ixtiyoriy $\{y_1, y_2\} \subset V_r(y_0)$ uchun:

$$\|G(x, y_1) - G(x, y_2)\| \leq \left(\sup_{0 \leq t \leq 1} \|D_y G(x, y_1 + t(y_2 - y_1))\| \right) \cdot \|y_1 - y_2\| \leq \frac{1}{2} \|y_1 - y_2\| \quad (1)$$

bo'ladi [2]. G uzluksiz bo'lganligi uchun esa x_0 nuqtaning shunday $U_\delta(x_0) = \{x \in X \mid \|x - x_0\| \leq \delta\} \subset \{x \in X \mid \|x - x_0\| < \alpha\}$ atrofi topiladiki, $x \in U_\delta(x_0)$ uchun

$$\|G(x, y_0) - G(x_0, y_0)\| < \frac{r}{2}. \quad (2)$$

x_0 ning va y_0 ning topilgan shu atroflari biz izlayotgan atroflar bo'ladi:

$$U = U_\delta(x_0), V = V_r(y_0).$$

Haqiqatan ham, ixtiyoriy $x \in U, y \in V$ lar uchun

$$\begin{aligned} \|G(x, y) - y_0\| &= \|G(x, y) - G(x_0, y_0)\| \leq \\ &\leq \|G(x, y) - G(x, y_0)\| + \|G(x, y_0) - G(x_0, y_0)\| \leq \\ &\leq \frac{1}{2}\|y - y_0\| + \frac{r}{2} \leq \frac{r}{2} + \frac{r}{2} = r. \end{aligned} \quad (3)$$

M bilan $f \in C(U; Y)$, $f(x_0) = y_0$, $\|f(x) - y_0\| \leq r$, $\sup_{x \in U} \|f(x)\| < +\infty$ shartlarini qanoatlantiradigan akslantirishlar to'plamini belgilaylik. M yopiq to'plamdir. Chunki, agar f uning limit nuqtasi bo'lsa, M to'plamni elementlaridan f ga yaqinlashuvchi f_1, f_2, \dots ketma-ketlik topish mumkin. U holda f ham $C(U; Y)$ sinfga tegishli bo'ladi. Buni ko'rsatish uchun $\{x_1, x_2\} \subset U$ ga ko'ra $\|f(x_1) - f(x_2)\|$ ifodani baholashimiz kerak. Shunday $n \in N$ nomer topish mumkinki,

$$\|f_n(x_1) - f(x_1)\| < \frac{\varepsilon}{3}, \|f_n(x_2) - f(x_2)\| < \frac{\varepsilon}{3}$$

bo'ladi. Bu yerda ε - oldindan berilgan ixtiyoriy musbat son. f_n ning uzluksiz bo'lganligi uchun topilgan $n \in N$ nomer va ε ga bog'liq ravishda x_1 nuqtaning U dagi shunday η - atrofini topish mumkinki, $\|x_1 - x_2\| < \eta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha x_2 larda

$$\|f_n(x_1) - f_n(x_2)\| < \frac{\varepsilon}{3}$$

bo'ladi. U holda x_1 nuqtaning shu η - atrofi uchun

$$\begin{aligned} \|f(x_1) - f(x_2)\| &\leq \|f(x_1) - f_n(x_1)\| + \|f(x_2) - f_n(x_2)\| + \|f_n(x_1) - f(x_2)\| < \\ &< \frac{\varepsilon}{3} + \frac{\varepsilon}{3} + \frac{\varepsilon}{3} = \\ &= \varepsilon. \end{aligned}$$

Shuningdek, $f(x_0) = y_0$ bo'ladi, zero

$$\lim_{n \rightarrow \infty} f_n(x_0) = \lim_{n \rightarrow \infty} y_0 = y_0 = f(x_0).$$

O'z navbatida $\forall x \in U$ uchun $\|f(x) - y_0\| < r$, chunki, agar $x \in U$ bo'lsa,

$$\forall \varepsilon > 0 \exists n_0 \forall n > n_0 \|f_n(x) - f(x)\| < \varepsilon,$$

ya'ni

$$\|f(x) - y_0\| \leq \|f(x) - f_n(x)\| + \|f_n(x) - y_0\| < \varepsilon + r.$$

ε ning ixtiyoriyligidan $\|f(x) - y_0\| \leq r$ ligi kelib chiqadi. Endi $\|f(x)\| \leq y_0 + r$ bo'lganligi uchun $\sup_{x \in U} \|f(x)\| < +\infty$ bo'ladi. Demak, $f \in M$. M to'plam Banax

fazosining yopiq qism to'plami bo'lganligi uchun M ham Banax fazosi bo'ladi va unda

$$f(x) = G(x, f(x))$$

tenglama aniqlanadi. $G(x, y)$ funksiyaning xossalari va (1), (2), (3) dan $G: M \rightarrow M$ ning qisqartirib akslantirish ekanligi kelib chiqadi. Banaxning qisqartirib aks ettirish prinsipiga ko'ra yagona $f \in M$ element mavjudki, $\forall x \in U \quad f(x) = G(x, f(x))$ bo'ladi. Teorema isbot bo'ldi.

Eslatma. Agar teoremani shartlari bilan birgalikda F n marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa, topilgan $f: U \rightarrow V$ akslantirish ham n marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'ladi.

3. Yechimlar bo'limi.

Masala 1. Quyidagi noxiziqli chegaraviy masalani qaraylik:

$$y'' + \lambda f(t, y) = 0, \quad 0 < t < \pi, \quad y(0) = y(\pi) = 0. \quad (4)$$

Biz ko'rsatamizki, agar f uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa, nolga yaqin $\lambda \in R$ lar uchun bu masala yagona yechimga ega bo'ladi.

Ushbu

$$X = R, \quad Y = \{f: [0; \pi] \rightarrow R \mid f \in C^2[0; \pi] \wedge f(0) = f(\pi) = 0\}, \quad Z = C([0; \pi])$$

fazolarni kiritaylik. Bu fazolar o'zlarining odatiy normalariga ega deb hisoblanadi. $F: X \times Y \rightarrow Z$ akslantirishni

$$F(\lambda, y) = y'' + \lambda f(t, y)$$

formula bilan aniqlaylik. F uzluksiz va $F(0,0) = 0$, ya'ni $\lambda = 0$ da (4) masala $y \equiv 0$ trivial yechimga ega. Shuningdek, agar $y_0 \in Y$ bo'lsa,

$$D_y F(\lambda, y_0)(z) = z'' + \lambda \frac{\partial f(t, y_0)}{\partial y} z,$$

ya'ni

$$(\lambda, y) \mapsto D_y F(\lambda, y)$$

akslantirish uzluksiz.

Endi ushbu $T = D_y F(0,0): Y \rightarrow Z$ chiziqli akslantirishni qaraylik. Biz shu akslantirishni chiziqli gomeomorfizm ekanligini ko'rsatishimiz kerak. Ma'lumki [3], har bir $h \in C([0; \pi])$ uchun

$$v'' = h(t), \quad 0 < t < \pi, \quad v(0) = v(\pi) = 0$$

chegaraviy masala yagona yechimga ega va u

$$v(t) = \int_0^{\pi} Q(t, s)h(s)ds, \quad Q(t, s) = \begin{cases} -\frac{1}{\pi}(\pi - t)s, & 0 \leq s \leq t \\ -\frac{1}{\pi}t(\pi - s), & t \leq s \leq \pi \end{cases} \quad (5)$$

formula bilan beriladi. (5) munosabatdan T^{-1} ning in'ektiv va uzluksizligi kelib chiqadi, chunki

$$\|v\| = \|T^{-1}h\| \leq c \|h\|, \quad c - const.$$

Demak, oshkormas funksiya haqidagi teoremani barcha shartlari bajariladi. Shuning uchun nolning yetarlicha kichik atrofidagi $\lambda \in R$ larda (4) tenglama yagona $y \in Y$ yechimga ega.

Teorema 2. Aytaylik, X, Y – Banax fazolari, $U - a \in X$ nuqtaning ochiq arofi bo'lsin. $f : U \rightarrow Y$ akslantirish uzluksiz differensiallanuvchi va $Df(a) : X \rightarrow Y$ – chiziqli gomeomorfizm ham bo'lsin. U holda a nuqtaning shunday U' atrofi, $f(a)$ ning shunday V atrofi mavjud va bir qiymatli aniqlanadigan shunday g funksiya topiladiki, ular uchun

- a) $f : U' \rightarrow V$ – biyektiv akslantirish,
- b) $g : V \rightarrow U'$ – biyektiv akslantirish va $\forall x \in U' \quad g(f(x)) = x$,
- c) $g \in C^1(V; U')$ va $Dg(f(a)) = D^{-1}f(a)$

xossalar o'rinli bo'ladi.

Teskari funksiya haqidagi bu teorema oshkormas funksiya haqidagi teoremadan standart usulda keltirib chiqariladi.

Masala 2. Ushbu

$$x'' + \lambda x + f(t, x) = g, \quad x(0) = x(2\pi), \quad x'(0) = x'(2\pi) \quad (6)$$

chegaraviy masalani qaraylik. Bu yerda $g - 2\pi$ davrga ega bo'lgan uzluksiz funksiya va $\lambda \in R$ – parametr. Quyidagi fazolarni qaraylik:

$$X = C^2([0; 2\pi]; R) \cap \{x \mid x(0) = x(2\pi) \wedge x'(0) = x'(2\pi)\}, \quad Y = C([0; 2\pi]; R).$$

Bu fazolarda odatiy normalar kiritilgan deb hisoblanadi.

Agar f uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa, u holda biror ba'zi λ lar uchun barcha g larda (6) masala yagona yechimga ega.

Isboti. Aytaylik $F : X \rightarrow Y$ funksiya

$$F(x) = x'' + \lambda x + f(t, x)$$

formula bilan berilgan bo'lsin. Ushbu

$$x \mapsto DF(x) \in L(X; Y)$$

akslantirish uzluksiz, ya'ni F akslantirish C^1 sinfga tegishli. Differensial tenglamalar nazariyasidan ma'lumki [3],

$$x'' + \lambda x = h$$

tenglama $\lambda \neq n^2, n=1,2,\dots$ bo'lganda har bir 2π davrli uzluksiz h funksiya uchun 2π davrga ega bo'lgan yagona yechimga ega va $\|x\| \leq C\|h\|$, C – faqat λ ga bog'liq o'zgarmas. Demak, $DF(0) - X$ ni Y ga o'tkazuvchi chiziqli gomeomorfizm . Teorema 2 ga ko'ra har bir $g \in Y$ va berilgan $\lambda \neq n^2$ uchun (6) yagona yechimga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aytaylik $F: X \rightarrow Y$ funksiya

$$F(x) = x'' + \lambda x + f(t, x)$$

formula bilan berilgan bo'lsin. Ushbu

$$x \mapsto DF(x) \in L(X; Y)$$

akslantirish uzluksiz, ya'ni F akslantirish C^1 sinfga tegishli. Differensial tenglamalar nazariyasidan ma'lumki [3],

$$x'' + \lambda x = h$$

tenglama $\lambda \neq n^2, n=1,2,\dots$ bo'lganda har bir 2π davrli uzluksiz h funksiya uchun 2π davrga ega bo'lgan yagona yechimga ega va $\|x\| \leq C\|h\|$, C – faqat λ ga bog'liq o'zgarmas. Demak, $DF(0) - X$ ni Y ga o'tkazuvchi chiziqli gomeomorfizm . Teorema 2 ga ko'ra har bir $g \in Y$ va berilgan $\lambda \neq n^2$ uchun (6) yagona yechimga ega.

Ushbu

$$x'' + \lambda x + f(t, x) = g, \quad x(0) = x(2\pi), \quad x'(0) = x'(2\pi) \quad (6)$$

chegaraviy masalani qaraylik. Bu yerda $g - 2\pi$ davrga ega bo'lgan uzluksiz funksiya va $\lambda \in R$ – parametr. Quyidagi fazolarni qaraylik:

$$X = C^2([0; 2\pi]; R) \cap \{x \mid x(0) = x(2\pi) \wedge x'(0) = x'(2\pi)\}, \quad Y = C([0; 2\pi]; R).$$

Bu fazolarda odatiy normalar kiritilgan deb hisoblanadi.

Agar f uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa, u holda biror ba'zi λ lar uchun barcha g larda (6) masala yagona yechimga ega.

XULOSA

Agar teoremani shartlari bilan birgalikda F n marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa, topilgan $f: U \rightarrow V$ akslantirish ham n marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. J. Milnor. Analytic proof of the hairy ball theorem and the Brouwer fixed point theorem. Am. Math. Mon., 85, 521-524.
2. F. Hartman. Obiknovenniye differentsialniye uravneniya. -M.:Mir, 1973
3. V.A. Trenogin: „Funksionalniy analiz”. -M.: Nauka, 1980.
4. V. Xatson, Dj. Pim. Prilojeniya funktsionalnogo analiza i teorii operatorov. M.: Mir, 1983.
5. Н. Дилмуродов. Кўпхилликларда математик анализ. Қарши, 2003.
6. Ж.-П. Обен, И. Экланд. Прикладной нестандартный анализ. М.: Мир, 1988.

SULFIDLI KOLLEKTIV BOYITMANI SUV BUG'I BILAN ISHLOV BERIB, GIDROMETALLURGIK QAYTA ISHLASHGA TAYYORLASH

Abdurahmonov S.A.

*I.Karimov nomidagi ToshDTU Olmaliq filiali Metallurgiya kafedrası professori,
t.f.d (DSc).*

Masidiqov E.M.

*I.Karimov nomidagi ToshDTU Olmaliq filiali Metallurgiya kafedrası katta
o'qituvchisi*

Nurmatov M.A.

I.Karimov nomidagi ToshDTU Olmaliq filiali Metallurgiya kafedrası magistranti

Аннотация. Dunyo amaliyotida sulfidli polimetall Zn-Pb-Cu li va Zn-Pb li rudalarni flotatsiya usulida boyitish ancha keng tarqalgan. Bunda rudani dastlab kollektiv so'ngra selektiv flotatsiyalab, Zn, Pb va Cu boyitmalari olinadi. Keyinchalik bu boyitmalar tarkibidan metallar turli usullar (gidrometallurgik, pirometallurgik) bilan ajratib olinadi. Quyidagi maqolada sulfidli kollektiv boyitmalarni qizdirilgan suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish orqali gidrometallurgik qayta ishlashga tayyorlash haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xomashyoni kompleks qayta ishlash bo'lib, shuningdek bir qancha qimmatbaho metallarni to'liq ajratib olish texnologiyasini yaratish hisoblanadi.

Калит so'zlar: Xondiza koni, kollektiv boyitma, issiq bug'li qayta ishlash, termonazorat, desulfirizatsiya darjasi, Gibbs energiyasi, metall sulfidlari.

Аннотация. В мировой практике более распространено флотационное обогащение сульфидных полиметаллических руд Zn-Pb-Cu li и Zn-Pb li. Руда сначала коллективно, а затем выборочно флотаруется для получения концентратов Zn, Pb и Cu. В дальнейшем металлы из этих концентратов отделяют различными методами (гидрометаллургическим, пиromеталлургическим). В данной статье представлена информация о подготовке сульфидных коллективных концентратов для гидрометаллургической переработки термической обработкой в присутствии нагретого водяного пара. Основная цель этого - комплексная переработка сырья, а также создание технологии полного извлечения нескольких драгоценных металлов.

Ключевые слова: месторождение Хандиза, коллективное обогащение, обработка горячим паром, термоядерный контроль, скорость обессеривания, энергия Гиббса, сульфиды металлов.

Abstract. In world practice, flotation enrichment of sulfide polymetallic ores Zn-Pb-Cu li and Zn-Pb li is more common. The ore is first collectively and then selectively flotated to obtain Zn, Pb and Cu concentrates. Subsequently, metals are separated from these concentrates by various methods (hydrometallurgical, pyrometallurgical). The following article provides information on the preparation of sulfide collective concentrates for hydrometallurgical processing by heat treatment in the presence of heated water vapor. The main purpose of this is the complex processing of raw materials, as well as the creation of technology for the complete extraction of several precious metals.

Keywords: Khandiza deposit, collective enrichment, hot steam processing, thermonuclear control, desulfurization rate, Gibbs energy, metal sulfides.

KIRISH

“Xondiza” kon boshqarmasi tarkibiga, zamonaviy kon va boyitish dastgohlari bilan jihozlangan shaxta va boyitish fabrikasi kiradi. 2015 yilda korxonada polimetallik rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha o‘zining loyihaviy quvvatiga erishdi, bu ko‘rsatgich yiliga ruda bo‘yicha 650 ming tonnani tashkil etdi. “Xondiza” kon boshqarmasi boyitish fabrikasining yillik ishlab chiqarish unumdorligi, rux boyitmasi bo‘yicha 60 ming tonnani, qo‘rg‘oshin boyitmasi bo‘yicha 30 ming tonnani va mis boyitmasi bo‘yicha 3 ming tonnani tashkil etadi. “Xondiza” kon boshqarmasi tomonidan ishlab chiqariladigan rux boyitmasi, rux zavodi ishlab chiqarish quvvatining faqat 25% qondiradi.[1]

Maqsad. Metall sulfidlarini noan‘anaviy (suv bug‘i ishtirokida) usul bilan kuydirish texnologiyasini ishlab chiqish.

Vazifa. Sulfidli kollektiv boyitmani kimyoviy va moddiy tarkibini aniqlash, Turli xil parametrlar orqali kollektiv boyitmani oksidlanishiga bog‘liqligini o‘rganish, tajriba natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash.

Tadqiqot obyekti. OlmaliqKMK AJ ga qarashli Xondiza KB boyitish fabrikasida kollektiv boyitish natijasida olingan boyitma.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada bilishning obyektivlik usuli hamda “Xondiza” kon boshqarmasi tarkibiga kirgan polimetallik rudalarni qiyosiy-tavsifiy metodidan foydalanilgan holda mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, polimetallik rudalarni

shakllanish davri, rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlar o‘rganildi. S.R. Xudoyarov, S.B. Mirzajonovalarning “Metallurgiyaga kirish” nomli o‘quv qo‘llanmasi hamda siyosiy nutqqa oid ilmiy maqolalar mantiqiy izchillik jihatidan tahlilga tortilgan.

Tadqiqot metodikasi. Tajriba ishlarini bajarish uchun 20 kg sulfidli polimetall kollektiv boyitma suv bug‘i yordamida aylanma quvurli elektr pechda qayta ishlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xomashyodan qimmatbaho metallarni ratsional va kompleks qayta ishlab ajratib olish rangli metallurgiyada muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda Xondiza KB dan olingan ruda namunasi kimyoviy tahlil natijalari keltirilgan.

1-jadval

Ruda namunasi o‘rtacha kimyoviy tahlil natijalari.

№	Komponent	Ulushi, % da	Komponent	Ulushi, % da
1	Kremnezyem	71,80	Pb	2,54
2	Temir oksidi (3+)	3,00	Zn	5,12
3	Temir oksidi (2+)	1,80	Cu	0,60
4	Titan oksidi	0,10	Uglevodorod oksid	–
5	Marganets oksidi	0,01	- H ₂ O _{titr}	0,80
6	Glinozyem	5,20	S _{umumiy}	6,00
7	Kaltsiy oksid	0,20	Oltinugurt oksid (6+)	–
8	Magniy oksid	–	Oltin	0,00
9	Kaliy oksid	0,15	Kumush	40,00
10	Natriy oksid	0,08		

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki namunada qimmatbaho komponentlar miqdori : Pb – 2.54 %, Zn – 5.12 % va Cu – 0.6 % ni tashkil etmoqda. Sulfidli Pb-Zn li rudalarni dastlabki kollektiv flotatsion boyitish natijasida olingan kollektiv boyitma tarkibi esa quyida keltirildi [2].

2-jadval

Optimal rejimda boyitmani ikki bosqichli tozalash orqali olingan flotatsiya mahsulotlarining miqdoriy natijalari.

№	Mahsulot	Chiqishi, %	Miqdori, %			Ajrati b olish darajasi, %		
			Pb	Zn	Cu	Pb	Zn	Cu
1	Kollektiv konsentrat	15.5	18.15	30.12	2.85	85.9	91.2	74.6
2	Oraliq mahsulot 1	6.8	0.69	1.14	0.29	1.4	1.5	3.3
3	Oraliq mahsulot 2	2.7	3.52	5.98	0.38	2.9	3.2	1.7
4	Xvost (chiqindi)	75.0	0.44	0.28	0.16	10.1	4.1	20.4
5	Ruda	100.0	2.48	5.10	0.59	100.0	100.0	100.0

Ma'lumki xomashyoni boyitilgan kislorodli havo yordamida pirometallurgik qayta ishlash vaqtida haroratning ortib ketishi pech futerovkasining yemirilishini tezlashtiradi. Mana shu muammo metall sulfidlarini qizdirilgan suv bug'i bilan qayta ishlash ustida tadqiqot olib borishga turtki bo'ldi (*bu yerda qizdirilgan suv bug'i termonazorat vazifasini bajaradi va jarayonda endotermik reaksiya ketadi*).

Amaliyotda Fe,Cu,Pb,Zn sulfidlarini suv bug'i bilan ta'siri tog'risida bir qancha ma'lumotlar to'plangan shuningdek past haroratlarda metal sulfidlarini suv bug'ida qayta ishlab oksid formaga o'tqazish jarayonlar kimyosi ham keltirilgan [3, 4].


Past haroratlarda metal sulfidlarining suv bug'lari bilan o'zaro ta'sirini Tompson va Tillinglar tadqiq qilishga olimlarning aniqlashicha harorati 430 °C gacha oshirish kuyindida eruvchi sulfatlarning miqdori oshib boradi. Agarda harorat 680 °C dan ko'tarilsa u holda temir sulfatlari parchalanadi. Mana shu ma'lumotlar jiddiy tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'la oladi.

Rux sulfidining suv bug'i va O₂ ishtirokida qayta ishlangandagi reaksiyasi quyidagicha [5]:



Rux sulfidining reaksiyalari quyidagicha kechadi:





Jarayonda CaO ning haddan ortiq miqdorda ko'pligi butun kechadigan reaksiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


3-jadval

Metall sulfidlarining suv bug'i bilan o'zaro ta'sirlashish reaksiyalarining Gibbs energiya qiymatlari.


Reaksiya	Me _x S	Gibbs energiyasi ΔG°, kDj/mol		
		900 K	1000 K	1100 K
CaO + H ₂ S(g) = CaS + H ₂ O(g)	-	-75,1	-70,4	-66,4
Me _x S + H ₂ O = Me _x O + H ₂ S	MoS ₂	56,2	55,1	54,1
	ZnS	65,0	64,8	64,2
	NiS	75,6	77,6	79,5
	Cu ₂ S	150,4	155,2	159,1
	FeS	50,2	51,0	51,6
	PbS	107,2	108,0	109,0
MeS + CaO = Me _x O + CaS	MoS ₂	-19,2	-15,3	-12,3
	ZnS	-10,4	-5,6	-2,2
	NiS	-0,2	7,2	13,1
	Cu ₂ S	-75,0	84,8	92,7
	FeS	-25,2	-19,4	-14,8
	PbS	-31,8	37,6	42,6

Yuqoridagi holatlardan ko'rinib turibdiki rangli metal sulfidlarini eritmasdan turib ham oksid formaga o'tqazish imkoniyati mavjud buning uchun oksidlovchi sifatida suv bug'i ishlatilsa bo'ladi. Qo'shimcha qilib aytish mumkinki atrof muhitga zaharli SO₂ gazlarni ajralishini oldini olish ham mumkin ya'ni tovar holida CaS ajratib olishning imkoniyati mavjud.


PbS ning erish harorati 1114 °C bo'lib oddiy sharoitda 400-500 °C da qizdirilsa quyidagi reaksiyalari kechadi:




Pb vodorod bilan 600 °C haroratda tiklanadi.




Temir (II) sulfidini suv bug'i bilan oksidlanishi haqida bir qancha tadqiqotchilar izlanishlar o'tkazgan. Ma'lumotlarga ko'ra FeS va H₂O_(g) o'zaro ta'sirlashish reaksiyasi quyidagicha kechadi:




Xalkopiritni suv bug'i bilan qayta ishlash jarayonida harorat 400 °C dan ortiq bo'lishi kerak. Shunda xalkopirit magnetit Fe₃O₄, bornit Cu₅FeS₄ va Cu_{4,96}S larni hosil qildi.




1.1-rasm. Haroratga S miqdorining bog'liqlik grafigi.



1.2-rasm. Jarayon davomiyligiga S miqdorining bog'liqlik grafigi



1.3-rasm. Havoni berish tezligiga S miqdorining bog'liqlik grafigi.



1.4-rasm. Bug'- gazli aralashmadagi suv bug'lari ulushining S miqdoriga bog'liqlik grafigi.

Suv bug'ining metal sulfidlari bilan reaksiyasi juda past muvozanat koefitsiyentiga ega. Shu sababli chiqayotgan gazlarni o'ziga yutish uchun jarayonga CaO qo'shildi. (3-jadval)

Metall sulfidlarining suv bug'lari bilan o'zaro ta'sirlashish reaksiyalarini o'rganish uchun biz metal sulfidlarini tabletka holda oldik va uni CaO ishtirokida qayta ishlash esa o'z navbatida olingan namunani (tabletka holdagi) g'ovaklik darajasiga kata ta'sir ko'rsatdi. Ta'sirlashish jarayonlari quyida keltirilgan.

FeS ni oksidlanish darajasining haroratga bog'liqligi shuni ko'rsatdiki 750-850°C da FeS va suv bug'ining ta'sirlashishi quyidagi tartibda boradi:

$$\frac{dx}{d\tau} = K$$

Bu yerda:

x – moddaning ta'sirlashgan miqdori, mol/1000 gr

k – reaksiyalarning tezlik konstantasi (4 jadval)

Harorat ko'tarilishi bilan reaksiya ham tezlashadi. Masalan (1 rasm a,b) tajriba boshlangandan keyin 2 daqiqa o'tib haroratni 750 °C dan 850 °C gacha oshirilganda FeS ning desulfirizatsiya darajasi 29 dan 75 % gacha yetdi.

Oksidlanish tezligi ushbu tenglama bilan belgilanadi:

$$V = 0.244 + 0.00362 (t - 1150)$$

Bu yerda:

V – oksidlanish tezligi, mg/s

t – harorat °C

Kislorod bilan boyitilgan havo tarkibidagi suv bug'ining miqdori oksidlanish tezligiga bog'liq (1 rasm a,b diagramma). Agarda harorat 850 °C da namlantirish 10 dan 50 % gacha oshirilganda formula quyidagicha bo'ladi:

$$V = 0.206 + 0.0131 (C_{H_2O} - 10)$$

Bu yerda : C_{H_2O} - kislorod bilan boyitilgan havo tarkibidagi suv bug'ining ulushi, %.

4-jadval

**FeS ning suv bug'i ishtirokida oksidlanish reaksiya tezligining konstanta ko'rsatkichlari.
(Bug'ning sarfi 1 l/min)**

Kislorod bilan boyitilgan havo tarkibidagi H ₂ O hajmi, %	t, °C	- lg K
10	750	1,221
	850	1,045



	900	0,833
35	750	0,986
	850	0,581
	900	0,658
50	750	0,670
	800	0,574
	850	0,444
	900	0,134



Xomashyoning mineralogik tarkibida shu aniqlandiki FeS ning oksidlanishi 1 reaksiya bo'yicha kichadi. Jarayonga ortiqcha suv bug'ining berilishi va SiO₂ ning ishtirokisiz FeS magnetit Fe₃O₄ gacha oksidlanadi.

Mis sulfidining suv bug'i va O₂ ishtirokida qayta ishlangandagi reaksiyasi quyidagicha [6] :



Cu₂S ning suv bug'i yordamida oksidlanishining natijalari 1-rasm d,e diagrammalarda tasvirlangan.





1-rasm. FeS (a,b) va Cu₂S (d,e) larning desulfirizatsiya darajasining o'zgarishini tajriba ishining davomiyligiga bog'liqligi.

a,d: 1-10, 2-35, 3-50, 4-70 % H₂O (t=850 °C)




b,e: 1-750, 2-800, 3-850 900°C (C_{H₂O} = 50 %)

FeS kabi Cu₂S ham desulfirizatsiya darajasining tezligi xomashyo tarkibidagi S konsentratsiyasining o'zgarishiga amalda umuman aloqasi yo'q. (4 va 5 jadval). Aktivlanish energiyasi FeS da 120-136 kDj/g-mol va Cu₂S da esa 180-200 kDj/g-molni tashkil etdi.

Sulfidlarni aktivlanish energiyasining tabiatini 2 xil izohlash mumkin:

1. Me-S o'zaro bog'langan atomlarni bir biridan ajratishning amalda murakkabligi.
2. Suv molekularining sulfidli birikmalarni adsorbsiyalanish xususiyatini bir xilda emasligi.

Ko'pchilik olimlarning ta'kidlashicha jarayonni boshlanish vaqtida quyidagi reaksiyalar kichadi:



FeS konsentratsiyasining keskin tushib ketishi esa 1 va 6 reaksiyalarni borishi kuzatiladi.

Laboratoriya sharoitida tajriba ishlari 2-rasmda ko'rsatilgan qurilmada olib borildi. Namuna og'irligi 750 gr. Qurilma asosan parogenerator, sovitish va vozgonlarni tutib qoluvchi tizim, vakuum nasos va ichki diametri 53 mm uzunligi 517 mm li aylanma quvurli elektr pechdir. Pechning ichki qismi futerovkasi kvarqli quvurli bo'lib, kojux esa metallardan tayyorlangan [7].

5-jadval

**Turli xil harorat hamda suv bug'larida FeS ning desulfirizatsiyalanish tezligi
(36.5 % S)**


$C_{H_2O}, \%$	$t, ^\circ C$	Desulfirizatsiya darajasi, %		$V \cdot 10^6, g\text{-atom}/(sm^2 \cdot c)$	
		Tajriba 1	Tajriba 2	Tajriba 1	Tajriba 2
10	750	33.62	27.10	0.70	0.95
	850	33.12	26.21	1.00	1.46
	900	32.71	25.48	1.72	2.15
35	750	33.62	23.11	1.09	1.85
	800	33.30	22.12	2.02	2.51
	850	33.12	22.61	2.84	4.74
50	750	32.94	23.11	2.25	3.60
	800	33.39	23.78	2.75	4.57
	850	33.67	23.49	3.55	6.46
	900	34.21	23.84	7.56	12.20

Kvarsli quvurning ustki qismi slyuda bilan qoplangan va pechni qizdirish uchun slyuda ustidan nixromli sim bilan o'ralgan. Kojux hamda futerovka oralig'i issiqlikni o'zida saqlab qoluvchi material – asbest bilan to'ldirilgan[8].

Pech tayanchga mahkamlangan, 2 tomoni tuynukli qopqoq bilan berkitilgan. Bu tuynuklar orqali asosan xomashyoni yuklash, mahsulot chiqarish, bug' berish va ajralib chiqayotgan vozgonlarni chiqishi uchun xizmat qiladi. Pechni qiyalik darajasi esa 0 dan 12 ° gacha bo'ladi va uni elektrodvigatel orqali tishli uzatgich yordamida tezligi daqiqasiga 8 marta aylantiriladi [9].

Tajriba ishi quyidagi ketma ketlikda bajariladi. Boyitma 110-115 °C haroratda dastlab quritiladi so'ngra aylanma quvurli elektr pechga yuklanadi. Pechda harorat 275 °C ga yetganda parogeneratoridan suv bug'i beriladi. Jarayondan chiqayotgan chiqindi gazlar $CuSO_4$ va H_2O_2 solingan adsorberlardan o'tadi [10]. Tajriba ishi boshlanishida va oxirida adsorberlardagi H_2S va SO_2 larni miqdorlarini aniqlash uchun namuna olib tekshirib turiladi. Adsorbsion eritmadagi S miqdoriga qarab kollektiv boyitmani parchalanish darajasi aniqlanadi. Tajriba ishlari yakunlangandan keyin qurilma sovitilib ichidan kuyindi chiqariladi kuydirishdan oldingi namuna massasi va jarayon tugagandan keying kuyindi massasini aniqlash uchun kuyindini

tarozida tortib ko'rdi, shundan so'ng oksidlanish darjasi topildi. Olingan kuyindi esa keying bosqichga qayta ishlash uchun yo'naltirildi [11].



2-rasm. Sulfidli kollektiv boyitmani kuydirish uchun dastgoh sxemasi.

- 1- Aylanma quvurli pech, 2- xalqali kontakt, 3- grafitli kontakt, 4- dvigatel, 5- paroregenerator,
- 6- quvursimon spiral, 7- ACOH transformatori, 8- muzlatkich, 9- manometr, 10- Havoli nasos,
- 11- Havoni so'rib olishni muvozanatlovchi shishali shar, 12- pech qiyaligini ko'rsatkich,
- 13- kvartslı quvur, 14- nixromli spiral.

XULOSA.

Tajriba ishini bajarish natijasida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Suv bug'i bilan qayta ishlashning optimal sharoitlari aniqlandi: harorat – 850 °C; suv bug'ining sarfi 18-20 ml/min; kuydirish davomiyligi – 60 – 80 min.
2. Suv bug'i bilan qayta ishlashda olingan kuyindi tarkibida oltingugurtning umumiy ulushi 1.3 % dan kam bo'ldi. Amalda qo'llaniladigan a'naviy kuydirishda bunday ko'rsatkichga erishish qiyin kechadi.
3. Jarayon natijasida ajralib chiqayotgan zararli gazlarning utilizatsiya qilish imkoniyatining mavjudligi.
4. Suv bug'ining qo'llanilishi pech futerovkasini uzoqroq muddat xizmat qilishini ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- [1] - Xudoyarov S.R., Mirzajonova S.B. Metallurgiyaga kirish. Ma'ruza matni. – Toshkent: ToshDTU, 2017
- [2] - Умарова И. К., Аминжанова С. И., Салижанова Г. К., Каландаров К. С. Технологические исследования на обогатимость полиметаллической руды месторождения Хандиза // Известия вузов. Горный журнал. 2020. № 4. С. 70–79. DOI: 10.21440/0536-1028-2020-4-70-79
- [3]- Аскарлова Н.М., А.У.Самадов. ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРЕРАБОТКИ ШЛАКОВ МЕДНОГО ПРОИЗВОДСТВА ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКИМ СПОСОБОМ. // Вестник науки и образования. №10 (88). 2020. С. 36-39.
- [4] - Toshqodirova R.E. RUX ISHLAB CHIQRISH TEXNOGEN CHIQRINDISI - KLINKERNI QAYTA ISHLASH // International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences. 2020. №2. С.46-51. DOI: 10.24412/2181-144X-2020-2-46-51
- [5] - Абдурахмонов С.А. О механизме взаимодействия сульфидов с парами воды. Материалы научно теоретической и технической конференции Истиклол-5. Навоий, май 1997, часть1.– С.51-52.
- [6]-Абдурахмонов С.А., Курбанов Ш.К., Холикулов Д.Б., Ахтамов Ф.Э.,Рахмонов И.Ю. ПОДГОТОВКА СУЛЬФИДНЫХ РУД И КОНЦЕНТРАТОВ К ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКОЙ ПЕРЕРАБОТКЕ МЕТОДОМ ТЕРМОПАРООБРАБОТКИ Горный вестник Узбекистана №4 91-95 с
- [7]- SA Abdurahmonov, QH Komilovich, NM Abdakim o'g'li - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2021. POLIMETALL SULFIDLI KONSENTRATLARNI QAYTA ISHLASHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI.
- [8] - Xoliqulov D.B., Xaydaraliev X.R., Qarshiyev H.K. “OLMALIQ KMK” AJ RUX ISHLAB CHIQRISH ZAVODI SHAROITIDA RUX KEKLARINI GIDROMETALLURGIK QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARINI TAHLIL QILISH. // © Journal of Advances in Engineering Technology Vol.2(2), Dec, 2020 DOI: 10.24412/2181-1431-2020-2-54-58 14.
- [9] - E. M. Masidiqov., S. Karshiboev. POSSIBILITIES OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE TECHNOLOGY OF HYDROMETALLURGICAL PROCESSING OF LEAD CONCENTRATES // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385

[10] - Qarshiyev H. K., Shaymanov I. I. RUX ISHLAB CHIQRISH ZAVODIDA HOSIL BO'LAYOTGAN ORALIQ MAHSULOTLARDAN KOBALTNI AJRATIB OLISH IMKONIYATLARINI O'RGANISH //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 3.

[11] - Baxtiyorovich, Xoliqulov Doniyor, and Qarshiyev Humoyun Komilovich. "“OLMALIQ KMK” AJ RUX ISHLAB CHIQRISH ZAVODI SHAROITIDA RUX KEKLARINI GIDROMETALLURGIK QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARINI TAHLIL QILISH." *Journal of Advances in Engineering Technology* 2 (2020).

БАЗАЛИ ЕР ТЕКИСЛАГИЧНИНГ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ

**Кўчқоров Журъат Жалилович.
ТИҚХММИ Бухоро филиали.
Жўраев Азамат Жалил ўгли.
ТИҚХММИ Бухоро филиали.
Ибодов Ислон Низомий ўгли.
ТИҚХММИ Бухоро филиали.
Нажимов Дилишод Қувонч ўгли.
ТИҚХММИ Бухоро филиали.**

Аннотация: Ушбу мақола ишчининг юмшатувчи дискларининг технологик жараёнини, чизилган призманинг шаклини, қаттиқлигининг ўзгаришини, ҳажмнинг оғирлигини, тупроқ агрегати таркибини, дала сиртини текислашни ва тортишни қаришлигининг ўзгаришини ўрганиш бўйича тажрибаларни ёритади. Унинг ҳаракатланиш тезлиги.

Калит сўзлар : Грейдер, сферик диск, тезлик, тортишни кучи, тупроқ катталиги, фракция, текислаў сифати. Сувни тежаш, жўякларни суғориш, инновацион технологиялар, механик, узоқ вақт режаслаштириш.

Аннотация: В статье описаны эксперименты по изучению технологического процесса размягчения рабочих дисков, формы нарисованной призмы, изменения твердости, веса объема, состава почвенного агрегата, выравнивания поверхности поля и изменение силы тяжести. Его скорость передвижения.

Ключевые слова: грейдер, сферический диск, скорость, сила тяжести, крупность почвы, фракция, качество выравнивания. Водосбережение, орошение траншей, инновационные технологии, механика, долгосрочное планирование

Abstract: This article describes the experiments to study the technological process of worker softening discs, the shape of the drawn prism, the change in hardness, the weight of the volume, the composition of the soil aggregate, the leveling of the field surface and the change in gravity. Its speed of movement.

Keywords: Grader, spherical disk, speed, gravity, soil size, fraction, leveling quality. Water saving, trench irrigation, innovative technologies, mechanical, long-term planning.

КИРИШ

Бугунги кунда қишлоқ хўжалигининг энг асосий муаммоси – кам энергия сарфлаб, юқори ҳосил олиш ҳисобланади. Энергияга бўлган талабнинг ортиб бориши эса бу муаммонинг тезроқ ҳал қилиниши кераклигини англатади. Шундай экан техникаларнинг кувватидан унумли фойдаланиш, иш сафатини яхшилаш ва бажариладиган ишдан ҳосил бўладиган салбий таъсирларни имкон қадар камайтириш мақсадга мувофиқдир.

Суғориладиган ерларни сифатли текислаш – қишлоқхўжалиги экинларини ҳосилдорлигини оширилишига, майдонларни суғориш вақтида меҳнат сарфи ва сувнинг кўп исроф бўлишини олдини олинишига, қатор ораларига сифатли ишлов бериш ва машина билан ҳосилни йиғиштириб олишни юқори сифатли бажарилишига шароит яратади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Мақоланинг кўриб чиқилган мавзуси муаммоли-хронологик принтсипга мувофиқ контсептуал ва услубий ёндашувлар асосида ўрганилади. Мазкур мақолани таҳлил қилиш жараёнида илмий билишнинг мантиқийлик, тарихийлик, изчиллик ва обективлик усулларида кенг фойдаланилди. Тадқиқот мавзусига оид барча илмий тадқиқот адабиётлари, архив материаллари, монографиялар, рисоалар, мақолаларни шартли равишда қиёсий таҳлил қилинди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тупроқга бир неча марта ишлов бериш ва суғориш натижасида қуйидаги кўринишдаги майдон нотекисликлари вужудга келади: шудгорлаш жараёнида узун эгат ва жўякчалар, суғоришдан сўнг баланд-пастликлар ва ўтган йилдаги қолдиқ нотекисликлар ҳосил бўлади. Бундан ташқари, майдоннинг маълум бўлақларида такрорий суғоришлардан тупроқнинг ўтириб, чўкиб қолиши кузатилади. Бундай нотекисликларнинг барчасини, майдонларни экишга тайёрлаш жараёнидаги жорий (эксплуатацион) текислашни амалда қўллаш орқали бартараф этиш мумкин. Базали ер текислагичларни текислаш жараёнида сифатли иш бажарилиши учун уларнинг иш умумдорлиги ва бошқа кўрматкичларини назарий таҳлил этган ҳолда фойдаланиш уларни қўллашдаги таннархини ва бажарадиган текислаш турини танлашга асос бўлиб хизмат қилади. Шуларни инобатга олиб маълум бир текислагични назарий жиҳатдан таҳлил қилиб ўтамыз.

Чўмични тўлдирадиган ер текислагичнинг асосий параметрларига асос машинасининг массаси, машинанинг максимал массаси ва чўмичнинг геометрик ҳажми, юритма қуввати ва иш унуми киради.

Ер текислагичнинг тўлик массаси қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$m = \left[(p_{e \max} - p_{eo}) - \frac{v_{p \max}}{367 \cdot \eta_m} \cdot \frac{k \cdot \omega \cdot A_l \cdot v_{p \max}^2}{3,62} \right] \frac{367}{f \cdot v_{p \max}}, \text{ кг} \quad (1)$$

бу ерда $p_{e \max}$ -тортгичнинг двигател қуввати, кВт;

p_{eo} -гидронасосларга сарфланадиган қувват, кВт;

$v_{p \max}$ -грунт ташиш тезлиги, км/соат;

η_m -трансмиссиянинг Ф.И.К.

k -аэродинамик коэффициент;

A_l -машинанинг шамолга қарши қисмининг юзаси, м².

$$A_l = B \cdot h, \text{ м}^2$$

Ер текислагичнинг юкини оғирлиги

$$m_2 = \frac{\eta_m \cdot m}{1 + \eta_m}, \text{ кг} \quad (2)$$

бу ерда $\eta_m = 1,1$ оғирликдан фойдаланиш коэффициенти

Ер текислагичнинг ўз оғирлиги

$$m_c = m - m_2$$

Ер текислагич чўмичининг геометрик сизими

$$g = \frac{m_2 \cdot k_{p(\gamma)}}{\gamma_2 \cdot k_{n(T)}}$$

бу ерда $k_{p(\gamma)}$ -грунтнинг юмшатиш коэффициенти.

γ_2 -грунтнинг ҳажмий (ҳисоблаш) массаси.

$k_{n(\gamma)}$ -чўмич (чўмич) нинг грунт билан тўлдириш коэффициенти.

Ер текислагич ғилдиракларига таъсир этувчи оғирликлар

$$m_1 = (50 \dots 65) / m$$

$$m_2 = (50 \dots 85) / m$$

Ер текислагич ғилдирагидаги ҳаракланиш қуввати

$$P_K = \frac{(0,7 \cdot F_\phi \cdot F_f) \cdot v_p}{\eta_m}, \text{ кВт} \quad (3)$$

бу ерда F_ϕ -торткичнинг максимал тортиш кучи, кН;

F_f -ҳаракатланишга қаршилик кучи, кН;

$$F_f = f \cdot m \cdot g, \text{ кН}$$

v_p -чўмични тўлдириш тезлиги, м/сек.

Ер текислагичнинг иш унуми

$$\Pi_T = \frac{60 \cdot g_K \cdot K_{H(T)}}{T_{Ц} \cdot K_{P(Ю)}}, \text{ м}^3/\text{соат} \quad (4)$$

бу ерда g_K -чўмичнинг сигими, м^3 ;

K_H -чўмични грунт билан тўлдириш коэффиценти;

K_P -грунтнинг юмшалиш коэффиценти;

$T_{Ц}$ -ер текислагич битта циклининг давомийлиги, сек.

$$T_{Ц} = \frac{l_T}{v_T} + \frac{l_{ТАА}}{v_{ТАА}} + \frac{l_{БУШ}}{v_{БУШ}} + \frac{l_{СХ}}{v_{СХ}} + t_n + 2 \cdot t_{КАЙТ}, \text{ сек} \quad (5)$$

бу ерда l_T -чўмични тўлдириш узунлиги, м;

v_T -чўмични тўлдириш тезлиги, м/сек (м/мин);

$l_{ТАА}$ -ер текислагич грунтни ташиш йўли, м;

$v_{ТАА}$ -грунтни ташиш тезлиги, м/мин;

$l_{БУШ}$ -грунтни бўшатиш узунлиги, м;

$v_{БУШ}$ -грунтни бўшатиш тезлиги, м/мин;

$l_{СХ}$ -ер текислагичнинг салт юриш узунлиги, м;

$v_{СХ}$ -ер текислагичнинг салт юриш тезлиги, м;

t_n -шатакчи узатмаларини алмаштириш учун сарфланган вақт, мин;

$t_{КАЙТ}$ -битта қайтиш учун сарф бўлган вақт, мин.

Ер текислагичнинг қувват баланси

$$N_{об} = P_{тор} + P_n + P_3, \quad (6)$$

бу ерда $P_{тор}$ -машинанинг юриш учун сарфланадиган қувват, кВт;

P_n -насосларга сарфланадиган қувват, кВт;

P_3 -юмшатгич га сарфланадиган қувват, кВт.

$$P_{тор} = \sum F \cdot v_p, \text{ кВт}$$

$$P_3 = \sum F_3 \cdot v_3 = (F_{сх} + F_1 + F_2 + F_3 + F_4) \cdot v_3, \text{ кВт} \quad (7)$$

бу ерда $F_{СХ}$ - салт юришга қаршилик кучи, Н;

F_1 -қирғичлар билан грунт суришга қаршилик, Н;

F_2 -грунтни алоҳида заррачаларга (бўлакга) бўлиниб кетишга қаршилик, Н;

F_3 -қирғичнинг чўмич билан алоҳида ўзаро таъсири пайтидаги қаршилик, Н;

Ф₄-грунтнинг қаршилиги, Н.

ХУЛОСА

Юқоридаги таҳлиллар асосида келтирилган назарий формулалар ер текислаш жараёнида ишлатиладиган текислагичларни асосий кўрсаткичларини ҳисоблашда ва уларни текислаш турига қараб танлашда кенг фойдаланиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар: (REFERENCES)

1. И.Ҳасанов., Ж.Қўчқоров., У.Ҳасанов «Ерларни экишга тайёрлаш техникаларидан самарали фойдаланишга оид» тавсиялар. Бухоро – 2013й.
2. И.С.Ҳасанов, Ж.Ж.Қўчқоров, У.И.Ҳасанов. ФАП 01235. Узун бўйли текислагич номли фойдали моделга патент. Тошкент, 2017 йил.
3. Летошнев М. И. Қишлоқ хўжалиги машиналари, Селхозгиз, 1995 йил.
4. Қишлоқ хўжалигини механизациялаш ва электрлаштириш масалалари. ВИИсон."Фан" нашриёти Тошкент 1970 йил.
5. I Khasanov 1 , J Kuchkarov and H Nuriddinov. Efficiency of irrigated land meliorativity through the usage of fixing softening disk device to base leveler. IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 883 (2020) 012174.
6. Kuchkorov J J, Musurmanov R K, The research results of fixing disc device in base land straightener scoop. International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology Vol. and others 2019.

QON TOMIR DEVORLARI UCHUN ELASTIK O'ZGARUVCHAN MODELNI QURISHDA QON OQIMIGA PATOLOGIYALARI TA'SIRIDA ENERGIYA QONUNI QO'LLASH VA MODELLASHTIRISH

Nurjabova Dilafruz Shukrullayevna

TATU Qarshi filiali "Dasturiy injiniring" kafedrası kata o'qituvchisi,

dilyaranur1986@gmail.com

[Ro'ziyeva Madinaxon Shuxrat qizi](#)

TATU Qarshi filiali "TT va Kasbiy ta'lim" fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qon aylanishning yurak-qon tizimi uchun matematik modelining tavsifi berilgan va umumiy tomir sohasi, qon hajmi, o'z-o'zini regulatsiya qilishi, yurakning ustki va ichki holatiga ta'siri kabi jamlangan tibbiy parametrlarni matematik ko'rishga keltirish uchun asosiy tushunchalar berilgan. Matematik tushunchalardan chiziqli bog'liqlik, differensial, integraldefferensial shunigdek mantiqiy-dinamik tenglamalar, Navier –Stoks masallari hamda ularni amalda qo'llash uchun matematik apparat berilgan hamda aniq shu matematik model asosida dasturning ishlash prinsipi UML diagrammalaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: chiziqli bog'liqlik, integral defferensial tenglamalar, mantiqiy-dinamik tenglamalar, umumiy tomir sohasi, o'z-o'zini regulatsiya qilishi, yurakning ustki va ichki holatiga ta'siri, tibbiy parametrlar.

ПРИМЕНЕНИЕ И МОДЕЛИРОВАНИЕ ЗАКОНА ЭГЕРГИИ ПРИ ПАТОЛОГИИ КРОВОТОКА ПРИ ПОСТРОЕНИИ УПРУГИХ ПЕРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ СТЕК КРОВО СОСУДА

Нуржабова Дилафруз Шукруллаевна

Ташкентский Университет Информационных Технологии

**Каршинского филиала, старший преподаватель кафедры «Программный
инжиниринг»**

dilyaranur1986@gmail.com

Рузиева Мадинахон Шухрат кизи

Ташкентский Университет Информационных Технологии

Каршинского филиала студент Факультета "ТТ И ПО"

At the same time, we must remember that today, through both traditional and new media, including those that fall into the collections of libraries, there is a conscious spread of a subculture alien to us (culture of drug addicts, criminal and gay culture, etc.). So, for example, through the Internet you can get a variety of information, including those that threaten the moral and physical health of people.

REFERENCES

1. "Raising a Difficult Child: Children with Deviant Behavior: Textbook. Manual "edited by M.I. Rozhkov.
2. Almazov B.N. "Mental environmental maladjustment of minors."
3. Zakharov A.I. "Deviations in the behavior of the child."
4. I.A. Nevsky "To a teacher about children with behavioral disabilities."

MAKTAB VA TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FIZIKANI O'RGANISH MUAMMOLARI

Irkabayev Djumanali Usmanovich

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Annotatsiya: maqolada fizikaning texnika yo'nalishdagi fanlar bilan aloqasi, ilmiy tadqiqotlarning innovatsion yo'nalishlari bo'yicha yangi kurslarni joriy etish zarurligi e'tirof etilgan. Maktablarda o'quvchilarining fizika va matematikadan bilimlarining puxta emasligi, oliy ta'limdagi o'qitiladigan kurslar materiallarini etarli darajada o'zlashtirishlariga imkon bermayotganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kompetensiya, mehnat bozori, tushuncha, qonuniyat, miqdor, kognetiv, axborot, kommunikativ.

Abstract: The article recognizes the relationship of physics with the technical sciences, the need to introduce new courses in innovative areas of scientific research. It was noted that schools do not have enough knowledge of physics and mathematics, and do not allow students to master the materials of higher education courses.

Keywords: innovation, competence, labor market, concept, regularity, quantity, cognitive, information, communicative.

Аннотация: В статье признается взаимосвязь физики с техническими науками, необходимость введения новых курсов в инновационных областях научных исследований. Было отмечено, что в школах не хватает знаний по физике и математике, что не позволяет студентам усваивать материалы курсов, преподаваемых в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: инновация, компетенция, рынок труда, понятие, закономерность, количество, когнитивный, информационный, коммуникативный.

KIRISH

Fizika fan sifatida o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishga quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

1. Fizika - bu talabalarning dunyoqarashini shakllantiradigan juda keng bilimlar majmuasi bo'lib, aynan fizika bilan bevosita bog'liq bo'lgan fanlar kimyo, biologiya, falsafa, tarix va boshqalardan tashqari chuqur va juda keng tushunchalarni qamrab olgan fan hisoblanadi.

2. Fizikadagi katta hajmdagi materiallar, juda ko'p miqdordagi tushunchalar, qonunlar, ta'riflar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, tezlik, tezlanish, kuch, energiya, ish, impuls kabi tushunchalar fizikaning hamma bo'limlarida, shu jumladan

eng zamonaviylarida (elementar zarralar, fizikasidagi spin tushunchalari va boshqalar) ham o‘rinlidir.

3. Fizika bo‘limlari orasidagi bu chambarchas bog‘liqlikni modellashtirilgan tushunchalardan foydalanishda ham yaqqol kuzatish mumkin: mexanikada real jismning modeli - moddiy nuqta; elektr zaryadini tashuvchi moddiy nuqta (zaryadlangan jismning modeli) - elektrostatikadagi nuqtaviy zaryad; Lorens va Drude metallarning elektron nazariyasini yaratishda foydalangan gazlarning molukulyar-kinetik nazariyasidagi -ideal gaz modeli. Fizikani mustaqil o‘rganayotgan o‘quvchi uchun bu bog‘liqlikni sezish, kuzatish ilg‘ab bo‘lmas qiyin masala hisoblanadi[1].

4. Fizikaning kirish qismida "Kinematika" bo‘limini o‘rganishga kirishishdan oldin talaba vektor algebra elementlaridan, differensial va integral hisoblashlardan xabardor bo‘lishi kerak bo‘ladi. Vektorlar yo‘nalishini aniqlashning o‘ng vint ("parma") qoidasi yoki vektorlar ustida amallar qoidasiga ko‘ra vektorlarning yo‘nalishini topish fizikaning deyarli barcha sohalarida (masalan, elektronning atomdagi orbital magnit va mexanik momentlari yo‘nalishi) uchraydi. SHu tarzda, fizikaning har bir keyingi bo‘limi o‘quvchidan ko‘proq matematik bilimga ega bo‘lishini talab qiladi. Fizika fan sifatida uni o‘rganish uchun oliy matematikaning deyarli barcha bo‘limlarini puxta bilishni talab qiladi.

5. Fizikaning har bir bo‘limi har qanday boshqa fanlarning bo‘limi singari ma‘lum bir ma‘noda o‘zlashtirilibgina qolmay, balki o‘rganuvchi fizikaning oldingi bo‘limidan keyingi bo‘limiga qanday tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar va hokazolarni o‘tishini aniq tushunishi va anglashi kerak. Bu ham muhimdir, chunki fizikadagi masalalar yuqorida aytib o‘tilgan o‘ziga xoslikdan kelib chiqib, boshqa bo‘limlardagi fizik tushunchalar, qonunlar va boshqalarni e‘tiborga olib tuziladi, bu esa masalalar echimini ancha murakkablashtiradi, ammo murakkablik darajasi, masalan, birinchi bo‘lib qolaveradi. Talaba ilgari o‘rganilgan boshqa bo‘limdagi kattaliklardan xabarsiz bo‘lsa, o‘z-o‘zidan ma‘lumki muammoni hal qilolmaydi.

6. Talabanning masalani yechishda tushuntirish chizmasini to‘g‘ri chizishi, vektorlar yo‘nalishini aniqlash qobiliyati, grafikni o‘qish qobiliyati, agar kerak bo‘lsa grafik tuzishi va h.k. katta ahamiyatga egadir.

7. Bundan tashqari, ko‘pchilik fizik kattaliklar o‘lchov birliklariga yoki o‘lchamlarga ega bo‘lib, masalani echish davomida ular to‘g‘ri aniqlanishi va ko‘rsatilishi kerak[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, mantiqiylik, analiz va sintez usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida maktab va texnika oliy ta'lim muassasalarida fizikani o'rganish muammolari obyektiv ochib berildi. Bugungi kundagi ta'lim sohasida fizika fanini o'qitish texnologiyalari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida U.SH. Begimqulovning "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi metodologik manba bo'lib olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fizika darsligi "Fizika–eksperimental fan" degan so'zlar bilan boshlanadi. Darslikdagi nazariy materiallar va ularning tavsiflari juda batafsil, tajribalar asosida qanchalik yaxshi namoyish qilingan bo'lmasin, u hali ham hodisaning to'laqonli, ko'p qirrali va vizual ko'rinishini aks ettirmaydi. Buni faqat tajriba, kuzatish yo'li bilan, undan ham yaxshiroq eksperimentni mustaqil ravishda o'tkazish yo'li bilan olish mumkin. SHuning uchun tajriba fizik bilim asoslarining asosi bo'lib qolmoqda, bu albatta kompyuter modellaridan foydalanishni istisno etmaydi. O'quvchilarda fizik tushunchalarini shakllantirish bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lishi tabiiydir, ular ham o'ziga xos xususiyatlarga ega[2].

Talabalarda fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasining xususiyatlari:

Oliy ta'limdagi talabalar o'rta maktab, litsey va kollejda fizikani o'rganish jarayonida ma'lum boshlang'ich bilim va tushinchalar bazasiga ega bo'lishadi. SHuning uchun oliy ta'limda berilayotgan materialni to'liq qayta ko'rib chiqish barcha talabalar uchun shart bo'lmay qoladi.

SHunday qilib, tekis va tekis o'zgaruvchan harakat, shuningdek, aylana bo'ylab harakatlanish kabi mavzular oliy ta'limda qayta takrorlanmasligi mumkin. Maktab matematika kursi differensial va integral hisoblash elementlarini o'z ichiga oladi, shuning uchun tezlanish va tezlanishning oniy va o'rtacha qiymatlari umumiy holatda ham kiritilgan. SHuningdek, kinematika misolida, notekis harakatning kinematik tenglamalaridan qanday qilib tekis va tekis o'zgaruvchan harakat tenglamasini olish ham ko'rsatib berilgan[3].

Oliy ta'lim fizika kursida Nyuton qonunlari o'rta maktab fizikasi kursida bo'lgani kabi taqdim etiladi, Nyutonning ikkinchi qonuni bundan mustasno, koordinata o'qida uchta proeksiyaga ega bo'lgan harakatning dinamik tenglamasi sifatida taqdim etilishi kerak. Termodinamikada - gaz qonunlari, elektrostatikada - Kulon qonuni va boshqalar sezilarli qo'shimchalarsiz ko'rib chiqiladi.

Oliy ta'limdagi kirish testlari u yoki bu materialni talabalarga qay darajada taqdim etish kerakligini hal qilishda katta ahamiyatga ega. Darslarning boshida talabalarni sinash natijalari o'qituvchiga nima qilish kerakligini aniqlab olishda yordam beradi: ushbu bo'lim mustaqil baholash uchun ijobiy baho ololmagan talabalarga berilishi kerakmi yoki ushbu bo'lim to'liq qayta o'tilishi kerakmi, chunki o'quvchilarning aksariyati topshiriqni bajara olmagan.

Fizika tushunchalari yuqori darajadagi mavhumligi bilan ajralib turadi, bu ayniqsa fizikaning zamonaviy tarmoqlariga xosdir (nisbiylik nazariyasi, spin tushunchasi, Maksvell, SHredinger tenglamalari va boshqalar), shuningdek yuqorida aytib o'tilgan ideallashtirish, modellashtirish tushunchalaridir. Pedagogik jarayonning illyustrativ-tushuntirishini kuchaytiruvchi qismida fizik jarayonlarni modellashtirishning roli tobora ortib bormoqda. Modellar, harakatlanuvchi animatsion chizmalar tushuntirish jarayonini osonlashtiradi, lekin, kompyuter xotirasida katta hajmini egallaydiki, buni hisobga olmaslikning iloji yo'q.

Fizikani o'rganish metodologiyasida tushunchalar va ko'nikmalarni shakllantirishda, asosiy rol muammolar echimiga tegishli bo'ladi. Aynan muammolarni echishda tushunchalarning mazmuni aniqlanadi. Birinchi murakkablik darajasining oddiy masalalari, ular orasidagi aloqalar va munosabatlarni chuqurroq anglash (ikkinchi daraja), amaliy va ijodiy xarakterdagi muammolarni hal qilishda tushunchalar bilan to'g'ri ishlash qobiliyatini rivojlantirish (sifat masalalar, uchinchi daraja) va nihoyat, vazifaga muvofiq vazifani tuzish-to'rtinchi daraja murakkablik. Tushunchalarning muhim xususiyatlarini ochib berish, ularni ahamiyatsiz bo'lgan narsalardan ajratish, har qanday tarzda o'xshash tushunchalarni ajratish, shakllanayotgan konsepsiya bilan ilgari o'rganilganlar o'rtasida aloqalar va aloqalarni o'rnatish uchun maxsus mashqlar va testlar (savollar) tuziladi bu vazifalar talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish vositasi sifatida ishlaydi.

SHuningdek, fizik kattaliklar ta'riflarining xususiyatlari haqida ham aytish kerak. "To'liq" aniqlangan (masalan, elektr maydonining kuchi) yoki ba'zi bir ixtiyoriy doimiyga (masalan, potensial va potensial energiya) nisbata aniqlik bilan aniqlangan fizik kattaliklar haqidagi savolga tegmasdan, biz fizik miqdorni aniqlash nimani anglatishini ko'rsatishga harakat qilamiz. "To'liq" so'zi qo'shtirnoqqa olingan, chunki bu erda o'lchov xatosi hisobga olinmaydi. Mantiqda ta'rifning oltita usuli mavjud: ko'rsatma, tavsif, tushuntirish, tavsiflash, taqqoslash va farq.

Fizik miqdorni aniqlash quyidagilarni anglatadi:

1. Moddaning qaysi real xususiyatlarini va jarayonini tavsiflaydi.

2. Oldindan kiritilgan qaysi qiymatlar bilan u bog'langan.
3. Ushbu qiymatni qanday hisoblash mumkin (hisoblash formulasi).
4. Ushbu miqdorni o'lchash usullari va o'lchov birliklari qanday.
5. Bu kattalik vektor kattalikmi yoki skalyar.
6. Agar vektor bo'lsa, uning yo'nalishini qanday aniqlash mumkin.

Maktab o'quvchilarining fizika va matematikaga tayyorgarligi pastligi ularga universitet kurslari materiallarini to'g'ri o'zlashtirishga imkon bermaydi. Va bu muammo, ayniqsa, muhandislik ta'limida juda muhimdir. SHuning uchun texnik universitetlar bilimlarni talab darajasiga etkazish uchun turli noan'anaviy metodlarga murojaat qilishadi. Turli horijiy texnika universitetlarida o'rta maktab fizikasi va universitetning asosiy kurslarini bir-biriga bog'lab o'tiladigan "Fizikadan propedevtik kurs"] metodik qo'llanmalar yaratilgan. Kursdagi nazariy material talabalar kontingentiga moslashtirilgan, masalalarni echish oliy matematikaning amaliy elementlarini tushuntirish bilan birga olib boriladi, chunki masala echishdagi qiyinchiliklar ko'pincha matematikadan xabardor bo'lmaganligidan kelib chiqadi.

Texnik universitetda o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyati o'rganilayotgan fanlarning amaliy yo'nalishidir, fizika esa texnik yo'nalish (elektrotexnika, mikroelektronika, materialshunoslik, materiallarning qarshiligi, amaliy mexanika, nazariy mexanika, geofizika va boshqalar)ning fundamental asosidir. Fizikani o'qitish jarayoni eng zamonaviy elektron texnologiyalar, zamonaviy ilmiy uskunalarlardan foydalangan holda uzluksiz bo'lishi kerak[4].

Texnik universitet bitiruvchisini tayyorlashning (yuqori darajadagi bilim darajasiga ega) kamchiliklari shundaki, yosh mutaxassis har doim ham vaziyatga etarlicha javob bera olmaydi, o'ta muhim vaziyatda ishonchli harakat qila olmaydi, jamoada ishlashni, uni boshqarishni ya'ni nafaqat "yaxshi mutaxassis", balki g'arbda aytilganidek, yaxshi xodim bo'lishni bilmaydi. Va buning sabablarining hammasi shundaki, u mashg'ulotlar paytida o'zini bunday holatlarda ko'rmaganligidir.

XULOSA

Shu munosabat bilan kelajakdagi mutaxassisning noaniqlik sharoitida harakat qilish qobiliyatini shakllantiradigan kompetensiyaga asoslangan yondashuv texnik universitetda o'quv jarayonini to'ldirishga va takomillashtirishga qodir bo'ladi. Texnik universitetning o'quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni kiritish maqsadi, muallifning fikriga ko'ra, universitet talabalarining asosiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan:

- ilmiy va kognitiv (fanlar bo'yicha asosiy bilimlari-bilim kompetensiyalari);

- axborot (har qanday ommaviy axborot vositalari bilan ishlash qobiliyati);
- kommunikativ (guruhda ishlash, tahlil qilish, taqqoslash qobiliyati; o'xshash fikrlaydigan odamlar guruhini yaratish, loyihani ma'lum bir qurilmani yaratishga etkazish, harajatlar va raqobatbardoshlikni baholash, natijalarni taqdim etish va boshqalar);
- ijodiy (ular muammoli va loyihaviy o'rganish paytida shakllanadi, talabalar loyihalarida ishlashda ilmiy va kognitiv, axborot-kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi)[5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar bilimlarini talab darajasiga etkazish uchun turli noan'anaviy murojaat qilishi, fizikani o'qitishni axborot texnologiyalari va elektron o'quv vositalaridan foydalanishi talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va ijodkorlikni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent, Fan. 2007. – 159 b.
2. Bloch I. The Physics of Oscillations and waves. – New York. Springer. 1997. – 220 r.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Канд.пед.наук...дисс. – Москва. 2003. – 350 с.
4. Irkabayev Dj.U. Information technologies in teaching physics in a technical higher education institution. Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April 2021.
5. Sheraliyev S.S.,Irkaboyev J.U. Uzluksiz ta'limda noan'anaviy metodlarning yutuqlari. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar: filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari. Xalqaro ilmiy amaliy masofaviy konferensiya. –Toshkent. 2020. –B. 284-287. CONFERENCES.UZ

ЕР ТЕКИСЛАГИЧНИНГ ТОРТИШ КУЧИНИ АНИҚЛАШ НАЗАРИЯСИ

Кўчқоров Журъат Жалилович.

Жўраев Азамат Жалил ўгли

Ибодов Ислон Низомий ўгли.

Фармонов Нозим Қосимович.

ТИҚХММИ Бухоро филиали.

Аннотация : Ушбу мақола чизилган призманинг шаклини, қаттиқлигининг ўзгаришини, ҳажмнинг оғирлигини , тупроқ агрегати таркибини, дала сиртини текислашини ва тортишини қаришлигининг ўзгаришини ўрганиш бўйича тажрибаларни ёритади.

Калим сўзлар : Сферик диск, тезлик, тортишини кучи, грейдер, тупроқ катталиги, фракция, текислаў сифати. Сувни тежаш, жўякларни суғориш, инновацион технологиялар.

Abstract: This article describes the experiments to study the shape of the drawn prism, the change in hardness, the weight of the volume, the composition of the soil aggregate, the flattening of the field surface, and the change in gravity.

Keywords: Spherical disk, speed, gravity, grader, soil size, fraction, leveling quality. Water saving, furrow irrigation, innovative technologies.

Аннотация: В статье описаны эксперименты по изучению формы нарисованной призмы, изменения твердости, веса объема, состава почвенного агрегата, выравнивания поверхности поля и изменения силы тяжести.

Ключевые слова: сферический диск, скорость, сила тяжести, грейдер, крупность почвы, фракция, качество выравнивания. Водосбережение, полив по бороздам, инновационные технологии.

KIRISH

Ҳозирги кунда қишлоқ хўжалигида кенг фойдаланилаётган мавжуд П-2,8А, П-4, ПА-3 , ППА-3,1 текислагичлардан қўлланилганда талабга жавоб берадиган майдон текислиги текислагич агрегатининг 3...4 ва ундан кўпроқ маротаба бир издан юриши натижасига ҳосил бўлади. Бу эса экиш фонини бузилишига сабаб бўлади ва кейинги бажариладиган механизация ишларини сифатини пасайтиради. Ҳозирги вақтда лазер текислагичларни қўллашга доир тадқиқотлар давом этаётган бўлсада бу муаммолар тўлиқ бартараф этилмаган.

Ушбу таъкидланганлардан келиб чиқан холда ўтказилган адабиётлар таҳлили ва олиб борилган изланишлар шуни кўрсатдики, узун бўйли текислагичларни иш самарадорлигини ошириш учун етарли тадқиқотлар илмий

жихатидан ўрганилмаган, шу сабабли базали текислагичларнинг иш тезлиги ва қамров кенглигини асослаш ва текислагичга юмшатувчи қурилмасини такомиллаштириш ва унинг ишлаш технологик жараёни устида тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Мақоланинг кўриб чиқилган мавзуси муаммоли-хронологик принтсипга мувофиқ контсептуал ва услубий ёндашувлар асосида ўрганилади. Мазкур мақолани таҳлил қилиш жараёнида илмий билишнинг мантиқийлик, тарихийлик, изчиллик ва обективлик усулларида кенг фойдаланилди. Тадқиқот мавзусига оид барча илмий тадқиқот адабиётлари, архив материаллари, монографиялар, рисоалар, мақолаларни шартли равишда қиёсий таҳлил қилинди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ушбу мақолада экин майдонларини жорий текислашда базали текислагичнинг иш сифатини ошириш мақсадида унга таъсир этадиган асосий қаршиликлари назарий жихатдан таҳлил этилиб ўрганилди.

текислагичнинг ишлаш пайтидаги

Умумий қаршилик:

$$\sum F = F_p + F_{\text{ПР}} + F_k + F_B, \text{кН} \quad (1)$$

бу ерда: F_p —кесишдаги қаршилик, кН;

$F_{\text{ПР}}$ — чўмич (чўмич) олдидаги тупроқнинг суришдаги қаршилиги, кН;

F_k — чўмич (чўмич)нинг тўлишидаги ва тупроқ қириндисининг кўзғатиш қаршилиги, кН;

F_B —юкланган ер текислагичнинг ҳаракатланишдаги қаршилик, кН;

Тупроқнинг кесишдаги қаршилик:

$$F_p = K \cdot v_k \cdot h, \text{кН} \quad (2)$$

бу ерда: v_k —чўмич (чўмич)нинг эни, м);

h —кесишиш чуқурлиги, м);

K —кафлашдаги солиштирма қаршилик, КПа

Чўмичнинг олдидаги тупроқнинг суришдаги қаршилиги:

$$F_{\text{ПР}} = v_{\text{ПР}} \cdot H_{\text{ГР}}^2 \cdot \rho_{\text{ГР}} \cdot f \cdot K_{\text{ПР}} \cdot g, \text{кН} \quad (3)$$

бу ерда: $H_{\text{ПР}}$ —тупроқ уйиши охирида қириндисининг чиқиш баландлиги, м ($H_{\text{ПР}}=0,4 \dots 0,8$ м);

$K_{\text{ГР}}$ –қопқокнинг олдидаги тупроқни суришда ҳосил бўлувчи коэффициент,
($K_{\text{ГР}}=0,5\dots0,7$).

Чўмичнинг тўлишидаги ва тупроқ қириндисининг кўзғатишидаги қаршилиқ:

$$F_k = e_k \cdot H_{\text{ГР}} \cdot \rho_{\text{ГР}} \cdot g \cdot (K_c \cdot h + H_{\text{ГР}} \cdot K_x \cdot f), \text{ кН} \quad (4)$$

бу ерда K_c -қиринди қалинлигининг катталаш иш коэффициент и
($K_c=0,06\dots0,16$);

K_x -тупроқ қириндисининг ҳаракатидаги қаршилиқ коэффициент и,
($K_x=0,27\dots0,44$).

Юкланган ер текислагичнинг ҳаракатига кўрсатилган қаршилиқ:

$$F_o = (m_c + m_r) \cdot (g \cdot f_m \pm i), \text{ кН} \quad (5)$$

бу ерда K_c -қиринди қалинлигининг катталаш иш коэффициент и
($K_c=0,06\dots0,16$);

K_x -тупроқ қириндисининг ҳаракатидаги қаршилиқ коэффициент и,
($K_x=0,27\dots0,44$).

m_c -ер текислагичнинг массас и (оғирлиги), т);

m_r -ер Ер текислагич чўмичидаги тупроқнинг массас и (оғирлиги), т.

$$m_r = \frac{K_n}{K_p} \cdot g_k \cdot \rho_{ep}, \text{ Т} \quad (6)$$

бу ерда K_n -чўмични тупроқ билан тўлдир ил иш коэффициент и ($K_n=0,8\dots1,3$);

K_p -тупроқни юмшати л иш коэффициент и


g_k -ер текислагич чўмичининг ҳажми, м^3);

i -жойнинг қиялиги ($i=0\dots0,1$).

текислагични юривчи (транспорт) ҳолатида

Умумий қаршилиқ:

$$\sum F = F_{\text{ГР}} + F_{\text{ИИ}} + F_{\text{ВЕТ}}, \text{ кН}=41,4\text{кН}(7)$$



Расм. Ер текислагичга тик текисликда таъсир этувчи кучлар тасвири:
а) тиркамали ер текислагич (олд ғилдирагига таянч), б) тортиш мосламасига таянчли тиркамали ер текислагич, в) ғилдиракли трактордаги ярим осма тиркамали ер текислагич.

ХУЛОСА

Юқорида келтирилган назарий таҳлиллардан келиб чиққан ҳолда ва олиб борилган илмий тадқиқот ишларининг натижаларига таянган ҳолда базали ер текислаш машиналарини тортишдаги қаршиликларини камайтириш ҳамда улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш борасида ишларни давом эттириш лозимлигини кўришимиз мумкин.

Бу борада Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Бухоро филиали олимлари томонидан базали текислагични ковш олди қисмига дискли юмшаткич ўрнатилган бўлиб, яъни унга 1-2 ўтишда агротехник талабга жавоб берувчи майдон юза текислигини таъминловчи сферикдисклар ўрнатилган, унинг конструктив схемасини ва параметрларини асослаш, тажриба нусхаларини тайёрлаш ва дала синовларини ўтказиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш ишлари режали амалга оширилмоқда. Текислагич ковши олди қисмига ўрнатилган юмшатовчи дискли қурилма экин майдонларини сифатли текисланишини таъминлаш ва пичоқни кесишдаги қаршиликни камайтиришга йўналтирилган.

Фойдаланилган адабиётлар: (REFERENCES)

7. И.Ҳасанов., Ж.Қўчқоров., У.Ҳасанов «Ерларни экишга тайёрлаш техникаларидан самарали фойдаланишга оид» тавсиялар. Бухоро – 2013й.
8. И.С.Ҳасанов, Ж.Ж.Қўчқоров, У.И.Ҳасанов. FAP 01235. Узун бўйли текислагич номли фойдали моделга патент. Тошкент, 2017 йил.
9. Летошнев М. И. Қишлоқ хўжалиги машиналари, Селхозгиз, 1995 йил.
10. Қишлоқ хўжалигини механизациялаш ва электрлаштириш масалалари. VII сон. "Фан" нашриёти Тошкент 1970 йил.
11. I Khasanov 1 , J Kuchkarov and H Nuriddinov. Efficiency of irrigated land meliorativity through the usage of fixing softening disk device to base leveler. IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 883 (2020) 012174.
12. Kuchkorov J J, Musurmanov R K, Hasanov I S. The research results of fixing disc device in base land straightener scoop. International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology Vol. and others 2019.

FIZIKANI O‘QITISHNI NI LabVIEW DASTUR TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Irkabayev Djumanali Usmanovich

(Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali)

Annotatsiya: Fizika ta’limida axborot va kompyuter texnologiyasini qo‘llanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda modellashtirish hisoblanadi. O‘qituvchining dars o‘tishiga ko‘pgina engilliklar tug‘diradi, fizikaviy jarayonlarni oydinlashtiradi. Jarayonlarni namoyish etish va ixtiyoriy marta takrorlab ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so‘zlar: modellashtirish, kompleks dasturlar, axborot texnologiyalari, animatsiya, dinamik modellar.

Аннотация: Одним из перспективных направлений применения информационных и компьютерных технологий в физическом образовании является компьютерное моделирование физических процессов и экспериментов. Это облегчает обучение учителя и проясняет физические процессы. Позволяет демонстрировать процессы и повторять их по желанию.

Ключевые слова: моделирование, сложные программы, информационные технологии, анимация, динамические модели.

Abstract: One of the promising areas of application of information and computer technology in physics education is computer modeling of physical processes and experiments. It facilitates the teacher's teaching and clarifies the physical processes. Allows you to demonstrate processes and repeat them at will.

Keywords: modeling, complex programs, information technology, animation, dynamic models.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 19 martdagi № PQ-5032 qarori asosida «Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘quv jarayoni va uni takomillashtirishda axborot texnologiyalari va kompyuterlarni jamiyat hayotiga, kishilarning turmush tarziga, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga jadallik bilan olib kirish g‘oyasi ilgari surilgan. [1]

Fizika ta’limida axborot va kompyuter texnologiyasini qo‘llanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda modellashtirish hisoblanadi. Kompyuter modellari bu an’anaviy va noan’anaviy dars

jarayonlarini faollashtiradi va o'qituvchining dars o'tishiga ko'pgina engilliklar tug'diradi, fizikaviy jarayonlarni oydinlashtiradi, effektlarni saqlashga, monitorda (ekranda) o'quvchilarga namoyish etib va bir necha marta takrorlab ko'rsatish uchun katta imkoniyatlar yaratadi[4].

Kompyuter yordamida o'qitishda modellashtirish vaqt masshtabini, parametrlarni keng oraliqda tanlab va tajriba shartlarini o'zgartirishga, tajribada mumkin bo'lmagan hollarni nomoyish etish imkoniyatlarini yarata oladi. Ayrim hollarda tajribani xarakterlovchi kattaliklarning vaqtga bog'liqlik grafigini ekranga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu grafiklar o'tkazilayotgan tajriba bilan bir vaqtda ekranga chiqadi, unga maxsus ravshanlikni beradi va o'rganilayotgan jarayonning umumiy qonuniyatini tushunishni osonlashtiradi. Bu vaqtda kompyuter yordamida noan'anaviy o'qitish natijalarini grafik usulda aks ettirishi (tasvirlanishi), olinayotgan ma'lumotning katta hajmini o'zlashtirishni engillashtiradi (ixchamlashtiradi)[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, mantiqiylik, analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida fizikani o'qitishni *NI LabVIEW* dastur texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari obyektiv ochib berildi. Bugungi kundagi ta'lim sohasida fizika fanini o'qitish texnologiyalari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qitishning metodlariga ko'rgazmali (namoyishli) o'quv qurollari, texnikaviy o'qitish metodlari, didaktik materiallar va h.k. kiradi. Bugungi kunda o'qitish usullari takomillashib bormoqda. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borishi bilan muammoli o'qitish jarayonining yangi, kompyuterlashtirilgan muammoli o'qitish turi yuzaga keldi.

O'qitishning boshqa metodlarini qo'llash kabi o'qitish jarayoniga axborot texnologiyalarini qo'llashda pedagogik-psixologik holatlar bilan bog'liq bir qator muammolar yuzaga keladi. Ilmiy bilimni tahlil etish o'qitishni kompyuterning quyidagi funksiyalarini tizimlashtirishga va ajratishga imkoniyat yaratadi:

- texnika-pedagogik (o'rgatadigan va boshqaradigan dasturlar, tashxislovchi, ekspertiza yurituvchi, tahlik qiluvchi suhbatlashuvchi, maslahat beruvchi, hisobli-mantiqiy) dasturlar;

- didaktik (kompyuter-trenajer sifatida, repetitor sifatida, assistent sifatida, ma'lum bir xollarni namayon etuvchi uskuna sifatida, kompyuter o'qitish jadalligini muvofiqlashtirish usuli sifatida, o'qituvchi mahoratining optimizatsiyasi sifatida, kompyuter ma'lum funksiyalarni bajaruvchi vosita sifatida, o'quv ma'lumotlarini jadallik bilan tuzatuvchi, nazorat qiluvchi va baholavchi sifatida).

SHunga bog'liq ravishda pedagogikaning vazifasi yuqorida ko'rsatilgan funksiyalar haqiqiy natijaga erishish holatini aniqlash va ta'minlashdan iborat.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llanishning maqsadga muvofiqligi, bugungi kunda o'qitishning mazmuni, formasi va metodlari bilan bog'liqligini quyidagi maqsadlar bilan ajratish mumkin:

- vaqtni tejash;
- o'quv jarayonida o'quvchilarning «o'zlashtira olish» darajasi;
- o'quvchilarning yakka yondoshishini amalga oshirish;
- pedagogik usullarni «mexanizatsiyalashtirish» darajasi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib noan'anaviy o'qitish ta'limning mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtiradi, o'qitishni tezkor, sifatli, faol va ilg'or usullaridan, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish, fanni o'zlashtirish imkoniyatlarini oshirishning ilmiy – uslubiy asoslarini yaratish, o'qitish texnologiyasi vositasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. SHuning uchun, zamonaviy o'qitish texnologiyasini amalga oshirish, noan'anaviy o'quv manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Quyida noan'anaviy yangi o'quv turlarini tashkillashtirishga yordam beradigan kompyuterda modellashtirilgan dasturlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rgatuvchi kompleks tizimlardan "NILabVIEW" dasturi yordamida yaratilayotgan virtual laboratoriyalar o'quv laboratoriyalarimiz sharoitida bajarish imkoni bo'lmagan jarayonlarni modellaridan foydalanib talabalar bilimini oshirish va murakkab fizikaviy jarayonlar haqida ma'lumot beramiz[3].

Kompyuterdan foydalanuvchi tajribaning dastlabki shartlarini o'zgartira borib, kerakli fizik tajribalarni o'tkazadi va natija asosida xulosalar qilish imkoniga ega bo'ladi. Ayrim hodislarni tajriba jarayonida ekranda uni tasvirlab berish bilan bir qatorda fizik kattaliklarning o'zaro bog'liqlik diagrammasini kuzatishga imkon beradi. Tajribalarning videoko'rinishi dars jarayonining o'zgacha jonli va qiziqarli o'tishiga yordam beradi. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu o'rgatuvchi kompleks dasturlar yordamida fizik hodisa va jarayonlarda kuzatiladigan fizik qonuniyatlarni bog'lab tushuntirish qator afzalliklarga ega. Yaratilgan kompyuter taqdimotlari,

animatsiyali dinamik modellar fizik qonuniyatlarni o'rganish, zarur bo'lganda qog'ozga tushirish va fizik jarayonning borishini ovozli tarzda eshitish imkoniyatlari mavjudligi yanada samara beradi.

Elektr zanjiriga parallel, ketma-ket hamda aralash turda ulash va shu kabi fizik tajribalarni o'tkazishga mo'ljallangan "NLABVIEW" dastur texnologiyasidan o'quv jarayonida foydalanishning imkoniyatlarini qaraylik.

LabVIEW (Laboratory Virtual Instrument Engineering Workbench) - National Instruments (AQSH) firmasi tomonidan yaratilgan kompleks dasturiy ta'minot. Unda intuitiv grafik dasturlash tili G dan foydalanilgan, uni o'zlashtirish uchun an'anaviy dasturlash tillarini bilish talab qilinmaydi. *LabVIEW* dasturi hisoblash ishlarini bajarishda va matematik modellashtirishda juda keng imkoniyatlarga ega bo'lganligi bois MATLAB, MathCAD, Mathematica, MAPLE kabi mashhur matematik kompleks dasturlar bilan bimalol raqobatlasha oladi.

Ushbu dastur yordamida fizik tajribalarni laboratoriya sharoitida bajargandek elektr zanjirlarini yig'ish, ishdan chiqqan qismlarni (rezistor, batareya, kondensator va h.k.) almashtirish kabi amallarni bajara olish imkoniyatiga ega. Dastur yordamida o'tkazilgan tajriba asosida ketma-ket, parallel va aralash hollarda ulangan, uchta qarshilikdan iborat zanjirlarni (1a, b, s-rasm) o'rganish uchun yaratilgan modelni ko'rib chiqamiz:

Birinchi sxemani o'rganishda (1a-rasm) quyidagi masalani echish talab qilinadi:

a) har bir qarshilikdan o'tuvchi tok kuchini o'lchash I ;

b) har bir qarshilikda va zanjirning uchlaridagi kuchlanishni o'lchash

$$U = U_1 + U_2 + U_3;$$

v) har bir qarshilikni o'lchash.

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuniga binoan:

$$U_1 = R_1 I, \quad U_2 = R_2 I, \quad U_3 = R_3 I \quad \text{va} \quad U = RI$$

bu erda zanjirning to'la qarshiligi $R = R_1 + R_2 + R_3$

Ikkinchi sxemani o'rganishda (1b-rasm) quyidagi masalani echish talab qilinadi:

a) har bir qarshilikdagi va umumiy potensial tushishni aniqlash

$$U = U_1 = U_2 = U_3;$$

b) Zanjirdan o'tuvchi to'la tok kuchini o'lchash:

$$I = I_1 + I_2 + I_3.$$

Bu holda zanjirning bir qismi uchun Om qonuniga binoan:

$$U = R_1 I_1; \quad U = R_2 I_2; \quad U = R_3 I_3 \quad \text{va} \quad U = RI,$$


Uchinchi xolat esa (1s-rasm) yuqorida muhokama etilgan ikki hollarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Bu tajribalarda ishlatilgan elementlardan o'tuvchi tok kuchini, qarshilik, kuchlanishni va o'tkazgich qarshiligini multimetrning o'lchash rejimlarini o'zgartirib va mos ravishdagi rejimga quyib o'lchaymiz.

Kompyuter monitorida yaratilgan virtual tajriba zanjiri va 1a,b,s- rasmlardan ko'rinadiki, bu tajribani real tajriba zanjirida bajaradigan bo'lsak, u holda yuqoridagi tajribani bir o'quvchi bajarishi uchun to'rtta ampermetr, to'rtta voltmetr va qarshiliklar to'plami kerak bo'ladi. Laboratoriyada kompyuter texnologiyasini qo'llab esa kichik guruhda frontal uslubda laboratoriya mashg'ulotini tashkillashtirish va o'tkazish uchun 1 dona kompyuterdan foydalanish kifoya bo'ladi.

Kompyuterda "NILabVIEW" o'rgatuvchi kompleks dasturi yordamida modellashtirilgan virtual tajriba standining ko'rinishi 1d-rasmda tasvirlangan. Rasmda faqat to'liq zanjir orqali o'tuvchi tok kuchini va zanjir uchlaridagi kuchlanishni o'lchashga mo'ljallangan sxema tasviri keltirilgan. Zanjining bir qismiga tutashgan qarshilikni, kuchlanishning tushishini va undan o'tuvchi tok kuchini o'lchash uchun multimetrning qisqichini mos elementning sxemadagi tuguniga tutashtirish talab etiladi.

SHunday qilib "NILabVIEW" dasturi fizika fani bo'yicha aniq o'lchash sxemasi bilan solishtirib, laboratoriya ishini bajarishda darsning didaktik maqsadi va vazifalarini saqlagan holda foydalanish imkonini beradi[4].

SHunday qilib, fizika ta'limi mazmunini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanilsa, ijobiy samara berishiga ishonch hosil qilish mumkin. Kompyuterda yaratilgan har bir fizikaviy jarayon modelini o'quvchi tomonidan kuzatilishi va bajarilishi o'quv materialini engil o'zlashtirishga olib keladi, o'quvchida darsga bo'lgan qiziqish yanada ortadi, tasavur qilish qobiliyati kuchayadi mustaqil fikrlash va ishlashga o'rgatadi.



rasm(a,b,s,d). Elektr zanjrlarini o‘rganishga oid elektron zanjir.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizikani o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda fizika ta’limini va ta’lim-tarbiya jarayonini noan’anaviy o‘qitish metodlari va texnologiyasi asosida tashkil etish o‘quvchilarda politexnik bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi, ularning fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. SHuningdek, Internet tarmog‘ini mustaqil o‘zlashtirishga va undan olingan yangi mavzularni o‘rganishga bo‘lgan o‘ziga xos tadqiqot sifatidagi yondashishiga zamin hozirlaydi.

XULOSA

Fizika fanini o‘qitishda an’anaviy uslublardan yuz o‘girmagan holda ularni zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va dasturlashtirilgan pedagogik vositalar bilan boyitib, faollashtirib virtual laboratoriya ishlarini yaratib, ulardan unumli foydalanish metodlari bilan fizika ta’limi mazmunini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi[5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fizika ta'limida (aniq va tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha) foydalanishi mumkin bo'lgan darsliklar, metodik qo'llanmalar va bir qancha bajarilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, fizikani o'qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2021 yil 19 martdagi № PQ-5032 qarori asosida «Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
2. Губернаторова Л.И., Потехин К.А. Новые информационные технологии в процессе преподавания физики. Потехин, 2017.
3. Дьячук П.П., Лариков Е.В. Применение компьютерных технологий обучения в средней школе. – Красноярск: Изд-во КГПУ, 2016. 167 с.
4. Irkabayev Dj.U. Information technologies in teaching physics in a technical higher education institution. Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April 2021.
5. Лупов С.Ю., Муякшин С.И., Шарков В.В. LabVIEW в примерах и задачах. Учебно-методические материалы по программе повышения квалификации «Обучение технологиям National Instruments». Нижний Новгород, 2007, 101 с.

ОБ ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

*Шадманбекова Камола, старший преподаватель
кафедры «Иностранные языки»,
Ташкентский Финансовый институт,
Узбекистан*

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы об оценке эффективности использования электронных образовательных ресурсов, об аспектах их применения, дается определение их соответствия управленческим, методическим, организационным, технологическим требованиям, о том, что электронные образовательные ресурсы (ЭОР) сокращают время о учебного освоения материала, их преимущества и недостатки., а также о системах синхронного электронного взаимодействия.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, педагогическая эффективность, информатизация, обучение

Abstract: the article discusses the issues of assessing the effectiveness of the use of electronic educational resources, aspects of their application, a determination of their compliance with managerial, methodological, organizational, technological requirements is given, that electronic educational resources (EER) reduce the time of learning advantages and disadvantages., as well as systems of synchronous electronic interaction.

Key words: electronic educational resources, pedagogical efficiency, informatization, training

ВСТУПЛЕНИЕ

Электронные образовательные ресурсы повышают значимость самостоятельной образовательной деятельности учащихся. Комплексное использование традиционных и электронных средств обучения поможет сформировать целостную образовательную траекторию, а, следовательно, достичь желаемого результата.

Меняется основная образовательная цель, которая заключается не столько в знаниевой подготовке, сколько в обеспечении условий для самоопределения и самореализации личности. Это утверждение базируется на изменении отношения к человеку как сложной системе и к знанию, которое должно быть обращено в будущее, а не в прошлое.

Важным аспектом их применения является определение их педагогической эффективности, а также определения их соответствия управленческим, методическим, организационным, технологическим требованиям.

Современный учебный процесс, протекающий в условиях всеобъемлющей информатизации, предполагает разработку и использование электронных образовательных ресурсов (ЭОР), которые способны обеспечить реализацию новых форм и методов обучения, поддержку получения учебно-методической информации всех организационных форм обучения, включая самостоятельную работу, перевод обучаемого в субъекты обучения, индивидуальную траекторию обучения. Электронная информационно-образовательная среда образовательной организации включает три основных блока:

1. Официальный сайт образовательной организации.
2. Электронная библиотека.
3. Электронная образовательная среда. Согласно требованиям законодательства, предъявляемым к сайтам, сведения об образовательной организации должны содержать следующие подразделы (на примере профессиональной образовательной организации):

ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ И МЕТОДЫ

В рамках реализации проекта информатизации системы образования были созданы электронные образовательные ресурсы (ЭОР). Опыт их использования в образовательном процессе показал, что ЭОР сокращают время освоения учебного материала, оптимизируя учебную деятельность за счет структурирования, четкости заданий, предотвращают отставание пропустивших занятия, предоставляют дополнительные материалы для повышения уровня развития желающих, усиливают мотивацию за счет индивидуальных настроек, адаптации, разных видов эмоционального восприятия информации, мыследеятельности и игровых ситуаций. При использовании ЭОР в образовательном процессе выделяют следующие аспекты: мотивационный, содержательный, учебно-методический, организационный, контрольно-оценочный.

К перспективным системам синхронного электронного взаимодействия удаленных пользователей, в образовательной среде вуза можно отнести следующие:

- онлайн-видеолекция (происходящий в режиме реального времени видеодиалог преподавателя и студента и осуществляемый посредством систем видеоконференции, трансляции веблекций);
- интерактивная видеолекция с синхронной демонстрацией слайдов обеспечивает возможность удаленного взаимодействия преподавателя и студентов;
- семинарское занятие с использованием онлайн-технологий в режиме реального времени (чат, аудиоконференция, видеоконференция);
- консультация, проводимая преподавателем учебной дисциплины с использованием программы обмена мгновенными сообщениями при рассмотрении наиболее значимых и сложных проблемных ситуаций;
- учебное чат-занятие – текстовое или голосовое общение преподавателя и студентов с использованием веб-технологий, которые проводятся синхронно (индивидуально или в составе группы, участники которой имеют одновременный доступ к чату);
- вебинар (от англ. «webinar», сокр. от «Web-based seminar») – онлайн-конференция, проведение которой со стороны преподавателя лимитировано односторонней зрительно-звуковой связью (ведущий веб-конференции осуществляет комментирование отображаемой на экране информации).

ЭОР становятся одним из элементов образовательного процесса. Они вносят изменения в образовательную среду; так что информационные ресурсы большинства образовательных организаций высшего образования органично интегрируют традиционные и электронные средства обучения, в том числе, включая, с появлением открытой модели образования на базе ЭОР нового поколения, открытые онлайн курсы (ООК).

Подготовка современного специалиста в значительной степени зависит от качества учебно-методического обеспечения, технической оснащённости образовательных организаций высшего образования и разносторонней подготовки преподавателей. ЭОР: компьютеризированные задания, обучающие компьютерные программы, моделирующие программы, электронные учебники и пособия, Интернет-сервисы, компьютерное тестирование – органично дополняют традиционные методы и «печатные» ресурсы.

Преимущества использования системы электронного обучения

1. Гибкость Одним из самых главных преимуществ системы электронного обучения является ее гибкость и возможность учитывать индивидуальные

особенности каждого обучающегося. Он может самостоятельно выбирать подходящий для него темп, время и место занятий.

2. Экономическая выгода Система позволяет избежать расходы на оснащение и содержание учебных помещений.

Вне зависимости от квалификации и мастерства преподавателя, образовательный процесс носит субъективный характер. Одна и та же тема различными преподавателями будет представлена абсолютно по-разному. Ответственность за образовательные результаты Электронное обучение требует, чтобы обучающиеся были самомотивированными на обучение.

Недостатки использования системы электронного обучения могут быть разделены на две группы в зависимости от того, кто из субъектов образовательного процесса (педагог или обучающийся) сталкивается с той или иной трудностью.

Возможные трудности для педагога:

1. Финансовые затраты На начальном этапе реализация системы электронного обучения может требовать больших инвестиций. 2. Технологические барьеры Важную роль играют технологические факторы. 3. Содержание В режиме традиционной системы обучения педагог незамедлительно реагирует на реакцию обучающегося, корректирует курс, средства и методы работы в режиме «живого» общения. Изменение содержания электронного ресурса требует времени.

Возможные трудности для обучающегося:

1. Проблема мотивации. Электронное обучение во многом рассчитывает на самостоятельную мотивацию обучающегося, его умение распределять внимание и оперировать тайм-менеджментом. 2. Отсутствие живого взаимодействия. Важной частью образовательного процесса является взаимодействие между обучающимися (обсуждение, дебаты, взаимная помощь и пр.). Данная составляющая может быть потеряна для системы электронного обучения.

Потребность в интеграциях характерна для состояния высшей школы в целом, о чем свидетельствуют происходящие на ее различных уровнях процессы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, Электронные образовательные ресурсы заметно активизируют и стимулируют творческие способности обучающихся,

побуждают их к настойчивому самостоятельному добыванию знаний. Новая информационно-образовательная среда образовательной организации имеют огромный потенциал для повышения качества обучения, в том числе являясь неотъемлемой частью инклюзивного обучения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Бим-Бад, Б.М. Педагогический энциклопедический словарь / Б.М. Бим-Бад // — М., 2002. С. 259-260
2. Johns, N. The development of socialization in on-line learning environment / N.Johns // Journal of Interactive Online Learning –2005. – №3.
3. Ходакова Н.П. Актуальные вопросы обучения в вузе // Фундаментальные исследования. 2009. № 5. С. 115-116.

**“LIBOS DIZAYNI TA’LIMIDA EKOLOGIK – INNOVATSION
MATOLARNING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY MODA – KOSTYUM
DIZAYN SANOATIGA TADBIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI”**

Yusupova Shohista Maqsud qizi

2-kurs magistrant, Nizomiy nomidagi TDPU

Xodjayeva Umida Muratovna,

Dotsent, Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI

Annotatsiya. Maqolada moda sanoatining ekologik barqarorlikka ta’siri, natijalari, kamchiligi va uning alternativ yechimlari o’rganilgan. Ekologik, innovatsion matolarning rivojlanishi, ahamiyati, afzalliklari keltirib o’tilgan. Etik va barqaror moda dizaynining tahlili, rivojlanish ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Ekologik material, barqaror moda, alternativ, vegan, charm, ekstrakt, etik moda, innovatsiya, barqaror to’qimachilik, toksik, kimyoviy moddalar.

Аннотация: В статье исследуется влияние индустрии моды на экологическую устойчивость, его результаты, недостатки и альтернативные решения. Дается описание развития, важности и преимуществ экологических инновационных тканей. Анализ этичного и устойчивого дизайна моды, важность развития объясняется.

Ключевые слова. Экологичный материал, устойчивая мода, альтернатива, веган, кожа, экстракт, этическая мода, инновация, экологичный текстиль, токсичные вещества, химические вещества.

Abstract. The article examines the impact of the fashion industry on environmental sustainability, its results, shortcomings and alternative solutions. The development, importance and advantages of ecological, innovative fabrics are described. An analysis of ethical and sustainable fashion design, the importance of development is explained.

Key words. Eco-friendly material, sustainable fashion, alternative, vegan, leather, extract, ethical fashion, innovation, sustainable textile, toxic, chemicals.

KIRISH

Kostyum dizayn sanoatida barqaror to’qimachilik innovatsiyalari tez suratlarda rivojlanmoqda. Bozorga kirib kelayotgan yangi matolar mavjud variantlarga qaraganda ekologik jihatdan ancha barqaror va ishlash sifatiga ega. “Pinatex” kabi yuqori sifatli matolar – bu ushbu kostyum dizayn sanoatining innovatsion to’qimachilik mahsulotlarining saralaridan hisoblanadi. Maqolada aynan shu barqaror modaning ekologik tola va matolari tahlil qilindi. Ushbu qiziqarli va

barqaror alternativlar yordamida resurslarni ko'p sarflaydigan paxta va plastik o'tkazuvchan poliesterdan uzoqlashish mumkin. Shu kunlarda kiyim-kechak do'koniga borilganda, shunisi aniq-ki, kiyimlarning aksariyati paxtadan, poliesterdan yoki ikkalasining aralashmasidan tayyorlangan bo'ladi. Qimmatroq do'konlarda esa zig'ir va junni topish mumkin, ammo aksariyat hollarda kostyum dizayni sanoati hozirgi kunda kiyimlarni tikish mumkin bo'lgan bir nechta matolargagina ega holos.

Bu holat esa yaqin yillarda o'zgarishi mumkin. To'qimachilik dunyosida ajoyib kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Dizaynerlar va ixtirochilar har bir kir yuvish (poliester) bilan plastik mikrofiber ifloslanish dispersiyasi (yoyilishi) yoki ko'p miqdorda suv va pertistidlar (masalan, paxta) talab qilmaydigan yanada ekologik matolarni yaratish metodlarini kashf etmoqdalar.

Yangi moda standartini joriy etilish jarayoni va tasdiqlanishi, ya'ni moda sikllarining almashishi, "moda innovatsiyasi" hisoblanadi.

Bizning kiyimlarimiz qanchalik barqaror holatdaligi aslida, ularning aksariyati ular nimadan tayyorlanganiga bog'liqligidir. Materiallar, matolar – insoniyatning eng qadimgi texnologiyalaridan biri, ammo ularning aksariyati "hayvonot, o'simlik yoki mineral"lardan biz kiyadigan kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlarga aylanib, ulkan miqdordagi resurslarni sarf etadi.

Matoning hayot siklida neft, quruqlik va suvdan tortib pestitsidlar, kimyoviy vositalar va bo'yoqlargacha bo'lgan son-sanoqsiz manbalardan foydalaniladi. E'tibor bilan o'ylab qaralsa, qanday qilib paxmoq paxta, g'adir-budur yog'och va gouey moylari teriga yaxshi ta'sir ko'rsatadigan va kunni yorqinlashtiradigan silliq, yumshoq, rang-barang matolar bo'lib qolishi mumkin, aslida, bu matolarni haridor qo'lga tushgunga qadar boshqaradigan qo'llar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Bugungi kunda "Libos dizayni ta'limida ekologik – innovatsion matolarning ahamiyati va zamonaviy moda – kostyum dizayn sanoatiga tadbiiq etishning istiqbollari" ning ahamiyati haqida tahlil olib borildi. Maqolani yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tarixi va ma'naviy merosini o'rganishga oid bergan uslubiy ko'rsatmalari hamda, M.V. Kokovinaning "Эко дизайн на стыке наук. Дизайн костюма, материаловедение, бионика, культурология, экология" nomli asari metodologik nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

1970 yillarda texnologik inqilob negativi natijasida insoniyat oldida “real ekologik xavf” to`g`risida muammolar yuzaga kela boshlandi. Loyihalashni printsiplial yangi ekologik nuqtai nazaridan yaratish, dizayn sanoati oldida mutlaqo yangi vazifalarni vujudga keltirdi. 1980 yilda dizaynda qat`iyan yangi kontseptsiyalar muqim o`rnashdi: “alternativ dizayn”, “metaforik dizayn”, “antifunksionalizm”, “yangi dizayn”, ular dizaynni sotsiomadaniyat funktsiyalarning asosi deb hisoblanadi.

“Tabiiy muhitning inqirozi dunyoviy jarayonga aylandi, u inson faoliyatida keskin o`zgarishlarni talab qiladi. Ekologik krizis odamzotdan maqsadga erishish uchun vositalarni va usullarni qayta ko`rib chiqishga talab qiladi, chunki muammolar faqat moddiy sabablari emas, balki ruhiy sabablari ta`sirida ham sodir bo`ladi. “Ekologik loyihalash”ning aniq chegarasi yo`q – dizaynda har qanday yo`nalish ekologik bo`lishi mumkin, ular ekologik etika printsiplarini da`vo qiladi va insonni tashqi muhit bilan uyg`un munosabatda bo`ladi.

Kostyum dizaynerlar ijodida ham ekologik muammolar inobatga olina boshladi. Dastlab 1970 yillar oxiri-1980 yillar boshida “ekologik uslub” paydo bo`lishi bilan ekologik mavzu ro`y berdi, modaga tabiiy toladan, asosan zig`ir va ip matolar, tabiiy ranglar, qo`lda ishlangan bezaklar va boshqalar kirib keldi. 1993–1994 yillarda “ekologik uslub” yana modaga kirdi. Ammo, ekologik muammolarni kiyim dizayniga ta`siri uni loyihalash printsiplarida katta o`zgarishlarni ro`y berishiga olib keldi.”²⁸

Dizaynning ekologik yo`nalishlari quyidagilar:

- iste`molni ekologizatsiyalash;
- yangi “ekologik” material va texnologiyalarni qidirish;
- ongni ekologizatsiyalash;
- inson va madaniyatning ekologiya bilan bog`liq muammolarini yechish.

Iste`molni ekologizatsiyalash. “Sivilizatsiyali” inson haddan tashqari moddiy boyliklarini iste`mol qilishi ekologik krizisni ro`y berish sabablaridan biridir. Talabning o`sishi yangi ehtiyojlarni paydo bo`lishiga sabab bo`ldi, shu bilan birga yaqinda ba`zilar uchun bashang bo`lgan buyumlar ko`plar uchun kundalik buyumga aylanib qoldi. Yangi talablarning paydo bo`lishi va ularni qondirish tabiiy tizimga shikast etkazib, global ekologik krizisga olib keldi. Dunyoda o`tqazilgan ko`p ilmiy tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosa ayon bo`ldi: turmush sifati va iqtisodning

²⁸ “Kostyum dizayni” fanidan ma`ruza matni, Joldasov Furqat, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, 2019.

o`lish surati, iste`mol hajmi va insonning o`z turmushi bilan mamnun bo`lishi bilan bevosita bog`liqlik yo`q. Demak, turmush tarzini o`zgartirishga eng muhim yo`nalish – bu “iste`molni ekologizatsiyalash”, ya`ni iste`molni oqilona kamaytirish, mutanosib ekologik iste`mol me`yorlarni tarqatish va uzoq vaqt davomida foydalanadigan buyumlarga qaytish. Iste`molni ekologizatsiyalash muammosi dizayn vazifalarini quyidagicha o`zgarishiga olib keldi:

- dizayn mollarni iste`mol qilishni kamaytirish;
- materiallar va texnologiyalarni qaytadan ko`rib chiqish;
- iste`molning yangi tarkibini tuzish.

Iste`molning ekologik to`g`ri uslubini yaratish faqat uni kamaytirishni nazarda tutmasdan, balki ekologik xavfsiz buyumlar bilan foydalanishga yo`naltirish, ular bezarar va chiqindilarsiz texnologiyalar qo`llanib ishlangan bo`lishi lozim.

Iste`molchilar to`g`ri muamola etishi uchun ekologlar quyidagi yo`nalishlarni tavsiya etadilar:

- iste`molni kamaytirish;
- ekologik bezarar buyumlar foydasiga talabni yo`naltirish;
- ekologik samarali buyumlarni harid etish;
- retsirkulyatsiya, ya`ni chiqindilarni qayta ishlash maqsadida utilizatsiya etish;
- ekologik masalalar bo`yicha shikoyat va noroziliklar bildirish;
- buyumlarni o`rashni (upakovkasini) kamaytirish dasturlari - jildini ortiqcha qatlamlarini yo`qotish, kerakli jild elementlarini qayta foydalanishni maksimalizatsiyalash; va h.k.

Ishlab chiqarishni ekologizatsiyalash. Bu yo`nalish texnologik jarayon bilan bog`liq quyidagi muammolarni yechadi:

- tabiiy boylikni tejash;
- bezarar va chiqindisiz texnologiyalarni qo`llash;
- buyumlar bilan qayta foydalanish;
- ekologik “aylanish” bilan shug`ullanish.

Kostyumda ushbu muammolar quyidagicha yechiladi:

- birinchidan, tashqi muhitda o`zlashtirilmaydigan sun`iy sintetik materiallardan foydalanmaslik, chunki ularni ishlab chiqarilishi tashqi muhitni iflos qiladi va insonni sog`ligiga putur yetkazadi (masalan, statik elektrni to`playdi);

- sintetikaning o`rniga ana`naviy tabiiy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Masalani yechishda tabiiy materiallarning o`rnini bosuvchilar kiyimda qanday qo`llanilishi kerakligi to`g`risida bir ma`noli javob yo`q. Yangi xossali, ayniqsa yuqori ekspluatatsion xossalaridan tashqari o`zi irish xossasiga (biodegradabli) ega bo`lgan materiallarni va ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida bezarar va chiqindisiz texnologik jarayonlarni yaratish perspektiv deb hisoblanadi.

“Alternativ ekonomika”ning tarafdorlari ekologik ishlab chiqarishda qiziqarli g`oyani tavsiya etadilar. Ularning fikri bo`yicha xom ashyoni minimal talafotini ta`minlaydigan mukammal texnologiyaga asoslanish zarur va aholini kichkina guruhining talablarini qondirish uchun buyumlarni kam seriyali ishlab chiqarish, ular resurslarni katta tejamligiga olib keladi, chunki faqat kerakli mahsulot ishlanadi. Mantiqqa zid ravishda uslublar ko`pligi, loyihalash differentsiatsiyasi, bir xil buyumlarni ommabop seriyali ishlab chiqarishdan ancha tejamli bo`lib chiqadi.

O`z qadriyatlar asosida materiallarni tanlash. Modadagi materiallar va tolalar murakkab masala ekanligi ma`lum. Ekologik toza materiallar ro`yxati statik emas va doimiy ravishda rivojlanib boradi, chunki kun sari ko`p tadqiqotlar va ma`lumotlar paydo bo`ladi. Albatta, tovar belgilari nafaqat materiallarga tegishli bo`lishi kerak. Masalan, organik paxtadan foydalanadigan, ammo yetkazib berish zanjiridagi issiqxona gazlari chiqindilari, to`qimachilik chiqindilari yoki mehnat huquqlari muammolarini hal qilmaydigan brend eng yaxshi amaliyotdan yiroq, ammo eng barqaror materiallardan foydalanish yaxshi asosdir.

Tezkor modadan tortib to paxtagacha bizning atrof-muhitimizga va boshqa turlarga salbiy ta`sir ko`rsatadigan modani iste`mol qilish usullari ro`yxati juda uzoq davom etadi. Kam iste`mol qilish, qayta ishlash va ta`mirlashdan tashqari, barqarorroq kiyim va to`qimachilik mahsulotlarini toppish mumkin. Yangi kiyim sotib olish kerak bo`lganda, qaysi matolarga e`tibor berish zarur. Ushbu maqolada bayon etilgan ekologik innovatsion material yoki yangilik, bu barqaror hayot tarziga yordam berishi mumkin.


1. “Pinatex” (Pinateks)



1-rasm. Ananas barglari.

Pinatex asosini tashkil etadigan xom ashyo ananas hosilining qo`shimcha mahsulotidir. Pinatex – bu Filippinda yetishtirilgan ananas barglaridan tayyorlangan material. Uning ishlab chiqarilishi an’anaviy teriga qaraganda ancha barqaror va umuman jonivorlardan foydalanilmaydi.

Pinatex matosi qo`shimcha suv yoki kimyoviy moddalarni talab qilmaydi, chunki u qoldiqlar ya’ni - ananasning qolgan barglaridan paydo bo`ladi. Masalan, buning uchun suv kamroq va yovvoyi hayot uchun ekologik jihatdan toksik bo`lgan zararli kimyoviy moddalar talab qilinmaydi. Barglarning qoldiqlari qayta ishlanib, o`g`it yoki biomassa uchun ishlatiladi. Har yili 40 ming tonnaga yaqin barglar ishlab chiqariladi va ularning aksariyati yoqib yuboriladi yoki chirishga qoldiriladi. Tolalar barglardan olinadi va charmga ajoyib tarzda alternativga, noto`qima matoga aylanadi. Bu plastmassa asosidagi vegan terisidan yaxshiroq, deb ta’kidlash mumkin, chunki u biologik parchalangan va qazilma yoqilg`isidan tayyorlanmaydi. Hozirda ushbu material Londondagi birinchi vegan mehmonxonalar to`plamini qoplash uchun ishlatilmoqda.



2-rasm. Pinatexning hayot sikli.

“Pinatex asoschisi doktor Karmen Xijosa Filippinda charmning ommaviy ishlab chiqarilishining atrof-muhitga zarar etkazishining keng tarqalganiga guvoh

boʻlgan. Bu doktor Xijosani ijtimoiy va ekologik jihatdan masʼuliyatli, charmni keng miqyosda takrorlashi mumkin boʻlgan notoʻqimaa toʻqimachilik mahsulotlarini yaratishga olib keladi, bu esa natijada atrof muhitga minimal taʼsir koʻrsatishi mumkinligi isbotini koʻrsata boshlaydi. U yetti yil davomida Pinateksni barcha bilgan va maʼqul koʻrgan mahsulotga aylantirish boʻyicha tadqiqotlar olib borgan va u nihoyatda noyob toʻqimachilik mahsulotlarini doimiy takomillashtirish bilan shugʻullanib kelmoqda.”²⁹

Dizaynerlar pinateksni yaxshi koʻradilar, chunki u rulonli boʻlib, ular tartibsiz shakldagi hayvon terilari yordamida hosil boʻlgan chiqindilar sonini kamaytiradi. U bardoshli, yengil va unda kashta tikish va chop etish oson.

Dezeenning habar berishicha: “Terining taqqoslanadigan miqdoriga nisbatan kam yuk bosgan va baho qiymati kam boʻlgan Pinateksning bir kvadrat metrini yaratish uchun taxminan 480 barg ketadi.”³⁰

Ananas barglaridan hamda qishloq xoʻjaligi chiqindilaridan foydalanish, atrof-muhitga minimal taʼsir koʻrsatadigan fermer jamoalarini yetishtirish uchun keng miqyosli savdo sanoatini yaratishning imkoniyatini beradi.

Pinateksni tayyorlanish jarayonida, ananas barglari yigʻib olingach, ananas barglaridan dekortikator – oʻsimlik tolalari va yogʻoch kabi xom ashyolardan poʻstloq yoki qobiqni olib tashlaydigan mashina yordamida tolalar olinadi. Bu jarayonda hech narsa isrof qilinmaydi, chunki biomassaning qoldigʻi bioyoqilgʻi yoki tabiiy oʻgʻit sifatida ishlatilishi mumkin.



3-rasm. Tola ekstrakti.




4-rasm. Tozalash.

²⁹ “Barqaror dizayn va etik modada 5 innovatsion tolalar”, <https://medium.com/@madetrade/5-innovative-fibers-in-ethical-fashion-and-sustainable-design-29f4f6138ddf>

³⁰ “Ananas barglaridan tayyorlangan alternative char – Pinatex”, <https://www.dezeen.com/2016/06/09/pinatex-ananas-anam-vegan-leather-alternative-ethical-recycled-pineapple-leaves-sustainable-materials-design-camper>

Ekstraktsiya qilingan bu ananas barglari tolalari keyinchalik noto`qima to`r sifatida ishlab chiqarishdan oldin degum – ya`ni qaynatib ajratib olinadi. Keyinchalik moslashuvchan, ammo bardoshli materialni yaratish uchun noto`qima to`r Ispaniyaga tayyor mahsulotga aylantirish uchun yuboriladi.



5-rasm. Degumdan keying jarayon



6-rasm. Pinafelt



7-rasm. Tugatish jarayoni



8-rasm. Pinatex – tayyor mahsulot holati

Yakuniy mahsulot Pinateks nomli ananas terisidan olingan mato bo`lib, hozirda butun dunyo dizaynerlari tomonidan teriga alternativ sifatida ishlatilyabdi, undan poyabzal, aksessuarlar va qoplamalar ishlab chiqarishda keng foydalanilmoqda.


Pinateks mahsulotidan foydalangan brend sifatida *Tooche* – Latviyadagi mohir hunarmand, har bir poyafzalni ehtiyotkorlik bilan qo`l mehnatida yaratadigan poyabzalchilardan poyabzal brendi sifatida mashhur. Hunarmandlar uchun yashash harajatlari qoplanadigan bu brend, har bir poyabzalni tabiiy jun va pinateks kabi ekologik toza tabiiy materiallardan ishlab chiqaradi.



9-rasm. Tooche brendining Pinatex mahsulotidan ishlab chiqargan poyabzallari.

Hugo boss krossovkalari va Pinateks.

“Dunyoga mashhur Hugo BOSS brendi mas’uliyatli moda dizaynida dadil qadam tashlaydigan yangi krossovkalarni taqdim etdi. Cheklangan modellar ananas barglari tolalaridan tayyorlangan, teriga innovatsion alternativ boʻlgan Pinateks bilan yaratildi. Natija esa sayyorada minimal iz qoldiradigan va nafis BOSS koʻrinishini beradigan erkaklar va ayollar uchun poyabzal kolleksiyasi dunyoga keldi.



10-rasm. Hugo BOSS krossovkasi.

Detal tafsilotlariga eʼtibor berilsa, ‘Vegan’ poyabzalida paxtaning organik shnurlari bilan birgalikda, yengil qayta ishlangan TPU tagligi mavjud. Har bir tus tabiiy ravishda boʻyalgan boʻlib, ushbu yangi kumush uslub, ishlatiladigan komponentlar miqdorini kamaytirish uchun poyabzalga folga termal biriktirish orqali yaratilgan.”³¹

³¹ “Pinatex shoes from BOSS. Innovation meets responsible design” <https://www.hugoboss.com/uk/men-vegan-shoes/>



11-rasm. Pinatex matosidan Hugo BOSS krossovkasini tayyorlash printsiplari.

Diqqat bilan qarasa, krossovka tayyorlash haqidagi mahoratni hosilni to tayyor mahsulotga aylangunga qadar bilib olish imkoni mavjud. Mavjud qishloq xo`jaligining ikkinchi darajali mahsuloti, ushbu noyob to`qimachilik mahsulotlarini yaratish uchun ishlatiladigan ananas barglari, yetishtirish uchun qo`shimcha resurslarni talab qilmaydi va fermer jamoalariga qo`shimcha daromad keltiradi.

H&M – Ongli ekslyuziv.



12-rasm. Pinatex mahsulotidan tayyorlangan H&M brendi kurtkasi.

“H&M brendining ushbu mahsuloti metallik qoplamali sun’iy charm – pinateks bilan ishlov berilgan parcha matodan naqshli kalta kurtkasi bo`lib, yoqaning old qismi molniya taqilmali va tepa qismi strazlar (sun’iy qimmatbaho toshlar) bilan dekorativ parchinlangan. Uzun yenglarida esa molniya bilan manjetga ishlov berilgan. Astar qismi qayta ishlangan poliesterdan tikilgan. Pinateks bu qishloq xo`jaligidan qolgan ananas barglari tolalaridan tayyorlangan innovatsion materialdir. Undan dizayn sanoatida charmga alternativ sifatida foydalanish mumkin.”³²

³² https://www2.hm.com/en_us/productpage.0737623001.html

Barqarorlik – bu ma’lum vaqtdagi trendli soʻzlardan ancha koʻproq ahamiyatni kasb yetadi. Barqarorlikning uchta asosiy elementi:

- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ularning har biri boshqalarga nisbatan koʻrib chiqilishi kerak.

Barqarorlik juda muhim, chunki u dunyodagi xilma-xillik va ekotizimlarni turli yoʻllar bilan himoya qilish bilan odamlarning hayot sifatini saqlaydi, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, energiya tejashni taʼminlash, chiqindilar miqdorini kamaytirish, qayta ishlash va qayta ishlatish bilan kelajakka va iqtisodiyotga sarmoyalar kiritadi. Zamonaviy va xavfsiz sanoat muhiti inson huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy adolatni taʼminlash va barqarorlik doirasida mehnat huquqlarini himoya qilish orqali yaratiladi. Ekologik ishlab chiqarish shunchaki shov-shuv emas, balki barqarorlikni taʼminlashning asosiy yondashuvlaridan biridir. Bu energiya va xom ashyoning samarasiz ishlatilishiga olib keladigan ifloslanishni keltirib chiqaradigan jarayonlar va texnologiyalarni aniqlash, takomillashtirishga muhtoj boʻlgan nuqtalarni aniqlash va toza ishlab chiqarish imkoniyatlarini amalga oshirishni oʻz ichiga olgan tizimli yondashuv demakdir.

XULOSA

Dizayn sanoati va toʻqimachilik mahsulotlarining umrbod ekologik taʼsiriga ishlab chiqarish usullaridan tashqari xom ashyo, ularning kelib chiqishi va mahsulotning chidamliligi taʼsir qiladi. Umumiy surʼatda toʻqimachilik mahsulotlarini xom ashyodan foydalanish va ularning atrof-muhitga taʼsiri, kimyoviy, energetik, suvdan foydalanish, qadoqlash va qattiq chiqindilarni ishlab chiqarish, yoqimsiz hidlarning paydo boʻlishi va shovqin bilan ifloslanishi tufayli juda hayratlanarli oʻzgarishlarga olib kelishi tabiiy. Dunyo aholisining yaxshilanishi va turmush darajasining yaxshilanishi tufayli toʻqimachilik isteʼmolining koʻpayishi, toʻqimachilikning ekologik taʼsiri bilan bir qatorda, ushbu sanoatning ekologik koʻrsatkichlarini yaxshilashni talab qiladi. Shu maʼnoda, barqarorlik kontsepsiyasi toʻqimachilik sohasida tashvishga soladigan masalaga aylanib ulgurgan.

Toʻqimachilik dunyodagi eng barqaror boʻlmagan mahsulotlardan biri boʻlishi mumkin. Xom ashyoni yetishtirishdan yoki uni neftdan tortib to ishlab chiqarish, sotish va yoʻq qilishgacha boʻlgan butun umr davomida ular jiddiy muammo tugʻdirishi mumkin.

Organik va ekologik toza matolar savdosining hayot siklining turli bosqichlarida isteʼmolchilar uchun ham, ishlab chiqaruvchilar uchun ham foydalar

bor. Bunday eko matolarning talabi tobora ortib borayotganligi sababli, dizaynerlarning ushbu sohaga kirib borishi uchun katta imkoniyatlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI: (REFERENCES)

1. М.В.Коковина, “Эко дизайн на стыке наук. Дизайн костюма, материаловедение, бионика, культурология, экология.” Сборник трудов международной научно-практической конференции “Инновации и дизайн”. 2020 г.
2. Н.Ю.Митрофанова, “Современное текстильное искусство в поисках новых форм, смыслов и средств выразительности.” Вестник Академии русского балета им. А. Я. Вагановой, 2019 г.
3. Ю.В.Назаров, В.В.Попова, “Инновационный текстиль. Основные виды и области применения.” Международный научно-исследовательский журнал, 2016 г.
4. “Kostyum dizayni” fanidan ma’ruza matni, Joldasov Furqat, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, 2019.
5. Sandy Black, “The Sustainable Fashion Handbook”, 2012.
6. Kirsi Niinimäki, “Sustainable Fashion in a circular economy”, 2019.
7. Ritu Pandey, Pintu Pandit, Amarish Dubey, “Sustainable solutions for fashion & textile industry”, 2020.
8. Eleonora Trivellin, Giuseppe Lotti, Marco Marseglia, Elisa Matteucci, “Textile Historical Sustainability and Innovative Textile Products”, 2020.
9. <https://www.dezeen.com/2016/06/09/pinatex-ananas-anam-vegan-leather-alternative-ethical-recycled-pineapple-leaves-sustainable-materials-design-camper/>

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNI STATISTIK BAHOLASH

*Sayfullaev Siddik Nosirovich,
O‘zbekiston, Toshkent moliya instituti
Uzbekistan, Tashkent Financial Institute
e-mail: sayfullayev1980@mail.ru*

Annatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga kiritilgan investisiyalarni hududlarga taqsimlanishi statistik tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes faoliyatini investisiyalashni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: YaIM, YaHM, statistik tahlil, investisiya, kichik biznes, tadbirkorlik.

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ИНВЕСТИЦИЙ В МАЛЫЙ БИЗНЕС И ЧАСТНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО

Аннотация: В статье рассмотрен статистический анализ распределения объёма инвестиции в малый бизнес и частное предпринимательство в разрезе регионов. А также, научные предложения и рекомендации по улучшению инвестиционной деятельности малого бизнеса.

Ключевые слова. ВВП, ВРП, статистический анализ, инвестиции, малый бизнес, предпринимательство.

STATISTICAL ASSESSMENT OF INVESTMENTS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Abstract: The article considers a statistical analysis of the distribution of the volume of investment in small business and private entrepreneurship in the context of regions. And also, scientific proposals and recommendations for improving the investment activities of small businesses.

Key words: GDP, GRP, statistical analysis, investments, small business, entrepreneurship.

KIRISH

Butun dunyoda iqtisodiyotni xarakatlantiruvchi kuchi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) sohasini asosiy o‘rinni egallab kelmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, AQSh davlatlarida YaIMdagi KBXTning ulushi 50-60 foiz atrofida bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2020 yil

O‘zbekistonda esa 53,9 foizni tashkil qilmoqda. KBXTni yanada rivojlantirishda investisiyalarning o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimiz hududlariga ajratilayotgan investisiya miqdorini qanday taqsimlanayotganini statistik o‘rganish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investisiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”[1]. Bu esa kelgusida barcha sohalar kabi hududlarda KBXT sohasiga ham investisiyalarni keng jalb etib, aholining ish bilan bandligi va aholi pul daromadlari oshirish natijasida aholi turmush farovonligini yaxshilashga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, uning rivoji va yo‘nalishlarini o‘rgangan xorijiy olimlar: A.Marshall [4], Y.Shumpeter [5], V.Vales [6] lar tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi.

Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov B.T. [7] tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investisiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov [8]lar mamlakatimizda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llarini o‘rgangan. B.K.G‘oyibnazarov, H.O.Rahmonov, Sh.I.Otajonov, D.S.Almatova [9]lar KBXT faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud bo‘lgan muammolar va ulani bartaraf etish yo‘llari, kichik biznes sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotimizda ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, xalqaro bozorda o‘z o‘rni, mavqeiga ega bo‘lishi, raqobatbardosh hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun KBXT sohasiga investisiyalar jalb qilish, ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan – mana shu raqamga e’tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar

o'sdi. Investisiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi" [2] – deb ta'kidlab o'tdi.

KBXT sohasiga kiritilayotgan investisiyalar hozirgi koronavirus pandemiyasi sharoitida inqirozli jarayonlarni yumshatish va ularni boshqarishning eng muhim vositalaridan biridir, chunki aynan investision faollikni oshirish orqali KBXT sohasidagi qator inqirozli jarayonlarni hamda inqiroz paytida bo'lgan kichik korxonalarining daromad darajasi, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, ular iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beruvchi omillardan sanaladi.

Shunday ekan, hozirgi paytda mahalliy kichik korxonalar tomonidan to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keskin muammolarga duch kelmoqda. Investisiya qarorlar sifatini ta'minlash orqali investision faoliyat samaradorligini oshirish har qanday korxonalar faoliyati va uning inqirozdan chiqish jarayonini me'yorlashtiradigan ta'minlaydigan mexanizmlardan biridir.


Kichik korxonalar investision faoliyatini amalga oshirish bosqichlari orasida, quyidagi uchta asosiy qoidani ajratib ko'rsatish mumkin: investisiya to'g'risida qaror qabul qilish, investisiyalarni amalga oshirish va yangi tashkil etilgan investisiya faoliyati ob'ektini tanlash.

Ma'lumki, dunyodagi taraqqiy topgan davlatlarda KBXT yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o'rinni egallab kelmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda tizimli dasturlar asosida bu sohani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga va YaIMni ko'paytirishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-sonli Qarori qabul qilindi. Unda mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to'g'risida xabardor qilish, xorijiy investisiyalarni jalb etish va o'zlashtirish sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash ko'zda tutilgan [3].

Shu nuqtai nazardan, KBXT sohasini rivojlanishi hududlar miqyosida har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning innovasion rivojlanishini ta'minlash uchun, hamda YaIM, YaHMDagi ulushini oshirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish

kabi yoʻnalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Biroq, respublikamizning barcha hududlarida KBXTni rivojlantirish jarayonlari barqaror yuksalyapti deb boʻlmaydi.



1-rasm. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi, %da³³

Kichik biznesning YaIMdagi ulushi koʻpayishi ular tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasidir. Darvoqe, soʻnggi yillar (2010 – 2020)da kichik biznesning YaIMdagi ulushi 25,5 foiz bandga oshib, 2020 yilda 53,9 foizni tashkil qilgan (1-rasm).

Shu sababli, hududlarda KBXTni rivojlantirish jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi rolini kuchaytirish, aholini ish bilan bandligini taʼminlash orqali daromadlarini koʻpaytirish imkoniyatlaridan toʻlaqonli foydalanish, hududlarda KBXT subʼektlarining turli darajalarda rivojlanish omillari va tendensiyalarini zamonaviy statistik usullarda baholab, hududlarning innovasion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Hududlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmidagi ulushi, %³⁴

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Oʻzbekiston Respublikasi	28,5	31,9	35,3	32,7	35,4	40,3	40,9	38,1	38	47
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	33	26,7	53,9	17,9	12,3	12,2	17,4	36	28,4	32,1
Andijon	45	43,9	41	47,2	52,1	58	60,9	63,9	57,7	67,3
Buxoro	12,8	18,3	16,7	19,4	21	24,9	17,7	11,6	28,1	54,4
Jizzax	50,1	47,7	47,6	38,9	44	62,9	60,8	60,1	45,1	69,2

³³Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси 2010-2020 йиллар маълумотлари.

³⁴Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси 2010-2019 йиллар маълумотлари

Qashqadaryo	23,3	18	15,1	14,1	13,9	19	21,4	14,4	12,6	29,7
Navoiy	12,7	22,6	23	24,8	27	33,2	22,2	26	14,3	19,3
Namangan	40,7	54,2	55,5	51,9	39,7	49,6	55,7	50,5	37,3	54,2
Samarqand	42,7	49,7	50,8	48,2	57,5	65,7	65,2	65,3	59,8	62,3
Surxondaryo	31,8	33,6	40,9	37,7	45,1	54,6	56,3	38,6	39,6	74,7
Sirdaryo	31	25,6	29,9	29,1	25,7	37,4	44,9	48,5	54,2	61,2
Toshkent	25,9	28,2	38,7	29,2	36,2	36,8	42,4	45,8	39,5	33,9
Farg‘ona	37,5	40,4	41,1	33,8	42,3	57,9	55,3	55,2	54,3	60,6
Xorazm	55,5	47,4	49,5	32,9	45,8	59,8	64,6	57,5	48,9	65
Toshkent sh.	32,8	36,1	38,3	49,2	56,4	58,2	51,8	52,2	53,6	46,6

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining statistik tahlili natijalari mazkur soha viloyatlar kesimida notekis investisiyalar ajratilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizga 2019 yilda jami asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarda KBXTning ulushi 47 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, hududlar bo‘yicha esa respublika ko‘rsatkichidan past viloyatlarga Qoraqolpog‘iston Respublikasi (32,1), Qashqadaryo (29,7), Navoiy (19,3), Toshkent (33,9), Toshkent shahri (46,6) foizni tashkil qilgan. Qolgan viloyatlar esa respublika ko‘rsatkichidan katta ekanligini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

Hududlarga ajratilayotgan investisiyalarni qanday taqsimlanganligini ko‘rish masadida hududlarning ulushini statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun 2010-2019 yillar oralig‘idagi ulushining o‘rtachasini hisoblab chiqamiz. Hisoblangan o‘rtacha bo‘yicha uchta guruhga ajratamiz. Ya‘ni, eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar, o‘rta ulushga ega bo‘lgan hududlar, eng past ulushga ega bo‘lgan hududlarga ajratib statistik tahlilni amalga oshiramiz.

2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarda hududlarning ulushi, %³⁵

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	O‘rtacha
Eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar											
Toshkent sh.	24,9	22,2	25,9	26,1	27,0	22,1	22,9	25,7	30,0	21,7	24,8
Samarqand	9,1	9,9	8,7	9,8	10,4	11,8	11,3	10,4	8,9	6,8	9,7
Toshkent	8,9	10,3	9,0	9,3	10,9	9,0	8,6	9,9	9,4	6,4	9,2
O‘rta ulushga ega bo‘lgan hududlar											
Farg‘ona	7,3	8,1	7,1	6,8	6,8	8,1	7,0	5,9	6,4	6,2	7,0
Qashqadaryo	9,0	6,6	5,4	5,3	5,0	6,2	7,5	5,8	4,4	7,8	6,3
Andijon	5,7	6,2	5,9	6,5	5,9	6,3	6,4	6,9	5,8	6,2	6,2

³⁵Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси 2010-2019 йиллар маълумотлари асосида ҳисобланди

Namangan	5,0	5,7	5,2	5,8	5,2	6,1	7,5	6,6	6,4	7,4	6,1
Buxoro	6,1	6,4	5,3	5,9	5,7	5,6	5,0	4,9	5,7	6,0	5,7
Surxondaryo	4,2	4,0	4,3	5,0	4,8	5,6	5,8	5,0	6,1	10,2	5,5
Eng past ulushga ega bo'lgan hududlar											
Xorazm	4,5	4,5	4,3	4,0	5,4	5,1	4,8	4,5	3,1	4,1	4,4
Qora.Res.si	3,5	4,2	7,8	4,5	3,9	4,1	3,1	3,7	4,1	3,0	4,2
Jizzax	4,1	3,9	4,0	4,2	3,7	4,5	4,2	3,9	3,4	6,1	4,2
Navoiy	4,9	5,4	4,7	4,3	3,6	3,3	3,1	3,8	3,2	3,8	4,0
Sirdaryo	2,7	2,5	2,3	2,5	1,9	2,2	2,8	2,9	3,1	4,2	2,7

2010-2019 yillarda KBXT sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarda hududlarning o'rtacha ulushi eng yuqori ko'rsatkichga Toshkent shahri (24,8 %) va Samarqand (9,7 %), Toshkent (9,2 %) viloyatlari kiradi. O'rtacha ulushga ega bo'lgan hududlarga Farg'ona (7 %), Qashqadaryo (6,3 %), Andijon (6,2 %), Namangan (6,1 %), Buxoro (5,7 %), Surxondaryo (5,5 %) viloyatlari kiradi. Eng past ulushga ega bo'lgan hududlarga Qoraqolpog'iston Respublikasi (4,2 %), Xorazm (4,4 %), Jizzax (4,2 %), Navoiy (4,0 %), Sirdaryo (2,7 %) viloyatlari kiradi (2-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizning investision faoliyatini samarali olib borishda amaldagi mavjud qonunchilikni isloh etish, investisiyalardan hududlarni rivojlanirishda xalqaro tajribalardan keng foydalanish, iqtisodiyot uchun avvalo ichki manbalardan ko'proq foydalanishga qaratilgan davlat siyosatini yuritish, mavjud kamchilik va muammolarni ijobiy hal etish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz hududlarida KBXTga investision siyosat samaradorligini oshirish qulay investisiya muhitini ta'minlash va xorijiy kapital oqimini yanada ko'paytirish uchun asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni tadbiriq qilish kerak bo'ladi:

- KBXTni rivojlantirish maqsadida chet el investisiyalarini yanada ko'paytirishda ularning samarali faoliyatini ta'minlovchi xuquqiy baza ta'minotini takomillashtirish va o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish lozim;

- mamlakatimizda faoliyati yo'lga qo'yilgan kichik qo'shma korxonlarning erkin faoliyati ko'rsatishi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yanada kuchaytirish;

- xududlarning barqaror rivojlanishi uchun barcha viloyatlarga teng taqsimlangan holda ichki va tashqi investisiyalarni kiritish. Shuningdek, xududlarning salohiyati va keng imkoniyati haqidagi ma'lumotlar bilan investorlarni

tanishtirish hamda ular uchun ko‘proq manfaatdorlik, moyillik yaratish mexanizmini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2018 y. 29 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2020 y. 25 yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-sonli Qarori.
4. Маршалл А. Принципы политической экономии. – М.: Прогресс, 1993. – 415 с.
5. Шумпетер Й. Теория экономической развития. – М.: Прогресс, 1985. – 159 с.
6. Vales W.J. Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W.J. Wales, V.K. Gupta, F.T. Mousa // International Small Business Journal. – 2013. - №31(4). – P. 357-383.
7. Bayxonov B.T. “O‘zbekiston iqtisodiyotida investisiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyanini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. – 76 b.
8. Abulqosimov H.P., Qulmatov A.A. O‘zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llari. Monografiya. – T.: Universitet, 2015. – 126 b.
- 9 G‘oyibnazarov B.K., Rahmonov H.O., Otajonov Sh.I., Almatova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 184 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2010-2020 yillar ma‘lumotlari. //stat.uz.

QONUN LOYIHALARI JAMOATCHILIK MUHOKAMASINING AHAMIYATI

Sherov Quvondiq Polvonnazarovich
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
quvondiq_2017@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasi, qonun loyihalarining axborot texnologiyalari orqali onlayn muhokamasini takomillashtirish masalasi, qonun loyihalari yuzasidan jamoatchilik ekspertizasi kabi tushunchalar, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish bo'yicha xorijiy tajriba muhokama qilingan. Maqolada qonun loyihalarining muhokamalarini tashkil etish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish, yurtimizda qonun loyihalarining keng muhokamalarini joriy etish bo'yicha ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikri, jamoatchilik nazorati, qonun loyihasi, portal, normativ-huquqiy hujjat, taklif, tavsiya.

Abstract: The article discusses such concepts as public discussion of bills, improving online discussion of bills using information technology, public examination of bills, foreign experience in public discussions of bills. The article contains scientifically substantiated and important proposals and recommendations for improving legislation on organizing the discussion of bills, introducing a broad discussion of bills in our country.

Key words: public discussion, public examination, public opinion, public control, draft law, portal, normative legal document, proposal, recommendation.

Аннотация: В статье обсуждаются такие понятия, как публичное обсуждение законопроектов, улучшение онлайн-обсуждения законопроектов с помощью информационных технологий, общественная экспертиза законопроектов, зарубежный опыт проведения публичных обсуждений законопроектов. В статье содержатся научно обоснованные и важные предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства по организации обсуждения законопроектов, введению широкого обсуждения законопроектов в нашей стране.

Ключевые слова: общественное обсуждение, общественная экспертиза, общественное мнение, общественный контроль, законопроект, портал, нормативный правовой документ, предложение, рекомендация.

KIRISH

Demokratiya sharoitida xalqning, jamoatchilikning jamiyat hayoti bilan bog‘liq xodisalarning borishiga qiziqishi ortadi, olib borilayotgan huquqiy islohotlarga, o‘z haq-huquqlariga taalluqli masalalarga erkin fikr bildirishi oshadi. Jamiyatda kechayotgan siyosiy jarayonlarga fuqarolarning erkin munosabat bildirishi davlatning barcha sohalarda amalga oshirayotgan islohotlarining samarali kechishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda fuqarolarning demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirok etish shakllari kengayib bormoqda. Bunday shakllardan biri bu mamlakatda qabul qilinayotgan barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalariga erkin munosabat bildirishi, o‘z fikrini erkin bayon qila olishi, norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirishda bevosita ishtirokidir.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning qonunlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlari uchun mustahkam zamin yaratildi. Fuqarolar ham mazkur islohotlarni chuqur anglagan holda har bir qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari muhokamalarida faol ishtirok etmoqdaki, bu bilan o‘zlarining jamiyatdagi turli o‘zgarishlarga beparvo emasliklarini yaqqol namoyon etimoqda.

Shunday ekan, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolada kuzatish, analiz va sintez, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, mutaxassislar X.Azizov, X.Xayitov va A.Yo‘ldoshevlarning “Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslari risolasi”, Sh.Shodmonovning “Qonunlar loyihalarini tayyorlashda fuqarolarning keng ishtirok etishi hususida” nomli, P.Rustamovning “Aktualnie voprosi i prinsipi osustestvlenie obshchestvennoy ekspertizi zakonoproektov. Qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish muammolari.” nomli, Sh.Zulfiqorovning “Mamlakatimizda qonun loyihalarini tayyorlash va qonunlar ijrosini nazorat qilishda deputatlar hamda keng jamoatchilikning ishtiroki” nomli maqolalaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda yurtimizda qonun loyihalarining keng jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 2017 yil 12 iyul kuni parlament palatalari, siyosiy partiyalar, O'zbekiston ekologik harakati, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari faoliyatining tahlili hamda istiqboldagi vazifalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida qonun ijodkorligida ijtimoiy hamkorlikning muhim bir masalasiga to'xtalib o'tdilar: "Qonunlarni qabul qilishda jamoatchiligimiz, saylovchilarning keng ishtiroki sezilmayapti. Qonunlar qabul qilinishi bilan xalqimizning og'iri yengil bo'ldimi, uning hayotidagi muammolar hal bo'ldimi, degan savollar bilan, afsuski, hech kim qiziqmayapti. Shuning uchun ham **qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim — aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozim**, deb hisoblayman" [1].

Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan mazkur taklifning amaliyotga keng joriy etilishi avvalambor, qonun ijodkorligi jarayonining yanada rivojlanishi, bu borada jamoatchilikning faol ishtiroki ta'minlanishi hamda yuksak darajadagi qonunlarning qabul qilinishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonunida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasini o'tkazish batafsilroq tartibga solindi [2]. Jumladan, Qonunning 24-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirish va muhokamasini o'tkazishga oid asosiy qoidalar belgilandi.

Shu bilan birga, muhokama degani barcha manffatdor shaxslarning o'z fikrini erkin bildirish jarayoni bo'lgani tufayli 2021 yil 20 apreldagi O'RQ-682-son Qonunida jamoatchilik muhokamalari ishtirokchilarining qabul qilingan yoki qilinmagan takliflari to'g'risidagi ma'lumotnomalarni tayyorlash va taqdim etish bilan cheklanish emas, balki loyiha ishlab chiquvchi o'z munosabatlarini har bir tushgan taklifga bildirishi maqsadga muvofiqligi to'g'risida bildirilgan fikrlarning [3, 352] inobatga olinmagani e'tirozlidir. Bunday muhokama jarayonida fikrlar tiniqlashtirilib, loyihalarning puxta tayyorlanishi ham, fuqarolar huquqiy madaniyatining o'sishiga ham xizmat qilishi shubhasiz.

Shuningdek, 2021 yil 20 apreldagi O'RQ-682-son Qonunida jamoatchilik muhokamalarining onlayndan boshqa shakllariga e'tibor qaratilganda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tadqiqotchi Sh.Shodmonovning fikricha, fuqarolar qonun loyihalari muhokamasida erkin ishtirok etish, loyihalar yuzasidan takliflar va mulohaza

kiritishi, tegishli organlar, deputatlar bilan tashkil etilgan uchrashuvlarda va boshqa tadbirlarda qatnashish imkoniyatlaridan samarali foydalanishi mumkin [4, 8]. Shu jihatdan Qonunchiligimizda mavjud jamoatchilik muhokamalariga oid me'yorlar ularni bevosita va bilvosita turlariga tasniflash, bilvosita jamoatchilik muhokamalari onlayn barobarida, gazeta va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishini nazarda tutishiga qo'shilish mumkin [5, 50].

Yuqoridagi mutaxassislar fikrlarini davom ettirgan holda aytish mumkinki, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalari nafaqat fuqarolarning qonun loyihalari muhokamasida erkin ishtirok etishiga va loyihalar yuzasidan takliflar va mulohazalarni erkin bildirishlariga, balki yanada pishiq, mustahkam, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlariga xizmat qiladigan qonunlar yaratilishiga zamin yaratadi.

Ayrim mutaxassislar tomonidan jamoatchilik muhokamalari va ekspertizasi o'rtasida aniq farq yo'qligini ham ta'kidlashadi [6, 80]. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-son Qonunida jamoatchilik nazoratining shakllaridan biri sifatida jamoatchilik ekspertizasi tushunchasi keltirilgan bo'lib, Qonunning 12-moddasida "Jamoatchilik ekspertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o'rganish hamda baholashdan iboratdir.", - deb belgilangan [7].

Qonun loyihalarining jamoatchilik ekspertizasi ham alohida ahamiyatga ega jarayon bo'lib, huquqshunos X.Xayitov bu borada quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: jamoatchilik ekspertizasining xulosasi, avvalo, maxsus bilimga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassislar tomonidan tayyorlanishi, qolaversa, bayon etilayotgan yondashuvning ishonchli dalillarga asoslanishi va qonun loyihasi bo'yicha aniq taklif va tavsiyalardan iborat bo'lishi lozim. Bu birinchi navbatda qonun loyihasining mualliflariga mazkur loyihaga yangicha ko'z bilan qarash, uning matnini takomillashtirish imkonini beradi. Zero, jamoat ekspertizasi natijasida tayyorlangan xulosa va unda ifodalangan taklif-tavsiyalarning vaziyatga mosligi, amalga oshirish mumkinligi – bu ekspertiza ta'sirchanligining muhim omilidir [8, 48].

Qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasini tashkil qilish masalalasi xorijiy mamlakatlar tajribasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQShda jamoatchilik muhokamalari qonun loyihalarini kelishish jarayoni bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi [9, 46]. Belgiyada keng jamoatchilikning fikr-mulohazalarini olish

va qonun loyihasi yuzasidan ularning munosabatini o'rganish maqsadida qonun loyihalarining mazmun-mohiyati qisqacha tarzda bir varaqda chop etilib, aholi o'rtasida tarqatiladi. Latviyada jamoat tashkilotlari parlament qo'mitalarining ochiq yig'ilishlarida ishtirok etib, o'z taklif va tavsiyalarini muhokamaga tashlash huquqiga egalar. Estoniyada qonun loyihalari parlamentning rasmiy veb-sahifalarida muhokama etiladi. Rossiyada esa, jamoat muhokamalarini tashkil etish bevosita Jamoat palatasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xorvatiya qonunchiligiga muvofiq, barcha ishlab chiqilayotgan qonun loyihalari jamoat muhokamasidan o'tishi shart [10, 24].

Demak, xalqaro tajribadan ham ko'rish mumkinki, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish – qonun chiqarish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yurtimizda qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish imkonini berdi.

Birinchidan, qonun ijodkorligi yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish, bu yo'nalishda oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarining mavzulari ro'yxatini shakllantirib, ilmiy tadqiqot ishlarini yanada jadallashtirish zarur.

Ikkinchidan, qonunchilikda bir-birini istisno etadigan, bir-biriga zid normalari mavjud bo'lgan qonunchilikni unifikatsiyalash va sohada yagona bo'lgan normativ-huquqiy hujjatni yaratish lozim.

Uchinchidan, hozirgi globallashtirish sharoitida qonun loyihalari jamoatchilik muhokamalarini o'tkazishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha internet resurslaridan yanada samarali foydalanish, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali – regulation.gov.uz saytini yanada takomillashtirish zarur.

Muhtasar qilib aytganda, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalari masalasiga katta e'tibor qaratish, tizimni yanada isloh qilish nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda sohani yanada takomillashtirish fuqarolarimizning jamoatchilik muhokamalarida yanada faol ishtirok etishlari va bu orqali mustahkam va takomillashgan qonunlar qabul qilinishiga zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak. //Xalq so‘zi. - 2017. - 13 iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni.// <https://lex.uz/docs/5378966>
3. Юлдошев А. Э. Онлайн-перспективы общественных обсуждений законодательных предложений в Республике Узбекистан //Информационные технологии и право: Правовая информатизация-2018. – 2018. – С. 352.
4. Shodmonov Sh. Qonunlar loyihalarini tayyorlashda fuqarolarning keng ishtirok etishi hususida. // - Toshkent. Fuqarolik jamiyati – Grajdanskoye obshchestvo – Civil society. – 2014. – № 3. – B.8.
5. Azizov X., Xayitov X., Yo‘ldoshev A. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslari. / Mas‘ul muharrir: prof. O.Xusanov. – Toshkent: DBA nashriyoti, 2019. – B. 50.
6. Черногор Н. Н., Залоило М. В. Совершенствование правового регулирования общественного обсуждения проектов нормативных актов //Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2018. – №. 4. – С. 80.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-474-son Qonuni.// <https://lex.uz/docs/3679092>
8. Xayitov X.S. Qonun loyihalari jamoatchilik ekspertizasi – jamoatchilik nazoratining muhim shakli sifatida. Yuridik fanlar axborotnomasi. – Toshkent. – 2017. №1. B.48.
9. Юлдошев А. Состояние и перспективы согласования актов законодательства с институтами гражданского общества в Узбекистане // Review of law sciences, vol. 3, no. Спецвыпуск, 2020. – С. 46.
10. Zulfiqorov Sh.X. Mamlakatimizda qonun loyihalarini tayyorlash va qonunlar ijrosini nazorat qilishda deputatlar hamda keng jamoatchilikning ishtiroki // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2020. – B. 24.

JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FOLKLOR ETNOGRAFIJMLARINING O'RGANILISHI

Buronova Nigora To'lqin qizi, Ergasheva Rayhon O'tkir qizi

Termiz davlat universiteti

I bosqich magistrantlari

Annotatsiya: *Etnografizmlar — milliy ekzotikaning yorqin namunasi. Ularni ekzotik leksika ham deyish mumkin. O'zbek tili etnografizmlarga boy. Bu ularning turli hududda yashashlari, turli xalqlar bilan madaniy aloqalarga egaligi bilan bog'liq.*

Kalit so'zlar: *etnografizm, etnologiya, etnomadaniyat, to'y marosim nomlari, urf-odat, ekzotika, ekzotik leksika.*

Аннотация: *Этнография — яркий пример национальной экзотики. Это экзотическая лексика. Узбекский язык богат такими примерами. Это потому, что носители языка живут в разных регионах и имеют культурные связи с разными народами.*

Ключевые слова: *этнография, этнология, этнокультура, свадебные название, традиции, экзотика, экзотическая лексика.*

Abstract: *Ethnography is a vivid example of national exoticism. This is an exotic vocabulary. The Uzbek language is rich in such examples. This is because native speakers live in different regions and have cultural ties with different peoples.*

Key words: *ethnography, ethnology, ethnoculture, wedding name, traditions, exoticism, exotic vocabulary.*

KIRISH

Globalashuv kuchayishi bilan o'zligi — tili, urf-odati va madaniyatini saqlab qolishga intilayotgan, ularning bu umumiy girdobda omon qolishini xohlayotgan xalqlar etnografiya va etnolingvistikaga alohida e'tibor qaratadilar. Ma'lumki, etnolingvistika — tilshunoslikning xalq (millat, elat) va uning tili orasidagi aloqa va munosabatni etnolisoniy (etnik madaniyat va etnik til mushtarakligi tamoyili) asosda o'rganuvchi soha. U, asosan, ikki yo'nalishda ish ko'radi:

– xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o'rganish;

– xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsivyaviy asosda o'rganish.

Birinchi maqsadni shartli ravishda tashqi va ikkinchisini ichki maqsad deyish mumkin. Til va etnik xususiyat munosabati, ularning bir-biriga ta'siri ikki yo'sinda kechadigan jarayon:

- etnik omil (urf-odat, an'ana, falsafiy, diniy qarashlar va h.) ning til rivojiga ta'siri;
- lisoniy omilning etnos (va etnik xususiyat) rivojiga ta'siri.

Bir xalqda etnik xususiyat (urf-odat, an'ana, falsafiy, diniy qarashlar) unutilib, bunga mos ravishda ularni ifodalovchi til birliklari ham faol lisoniy xazinadan chiqib, o'tmish voqeligiga aylana boradi. Natijada millat, xalq, elatning o'zligiga putur yeta boshlaydi. Millat, xalq, elat o'z ma'naviyatidan mahrum bo'lib boradi. Bu, muqarrar ravishda, faol leksikada ham o'z aksini topadi. Til leksikasida etnografik mikrosistema tanazzulga uchray boshlaydi. Bu etnik omillarning tilga ta'siridir. Pirovardida etnografik leksikaga ega bo'lgan millat farzandlari ongidagi etnolisoniy bo'shliq g'ayrietnolisoniy unsurlar bilan to'lib boradi. Til va etnik xususiyat ta'sirini ajratish faqat tadqiqiy maqsadda bo'lib, bu ajratish nisbiy tabiatga ega, aslida ular yaxlit sodir bo'ladigan uzluksiz va uzviy jarayon. Etnolingvistika til va uning rivojiga etnik guruhlarning qanchalik xissa qo'shganini ham, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini ham tadqiq qiladi. Bu yuqorida aytilgan birinchi, tashqi maqsad uchun ahamiyatliroq. Birinchi maqsadda ko'proq tavsifiy tadqiq metodikasi asosida ish ko'riladi. Tilshunoslikning etnik nomshunoslik (onomastika), areal (hududiy) lingvistika, lingvistik jo'g'rofiya, dialektologiya (shevashunoslik), til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohaları etnolingvistikaning mazkur tavsifiy usulda qo'lga kiritgan ilmiy natijalardan foydalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, an'ana va qadriyatlaridan ajratgan holda tassavvur etib bo'lmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizlarni o'rganish milliy urf-odat va qadriyatlarni tadqiq etishda ahamiyatli. Urf-odatlar muayyan etnosning o'ziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografik sistemada lisoniy belgi sifatida faol o'ringa ega, shu jihati bilan tilshunoslik uchun muhim. Har bir til leksik makrosistemasida alohida bir mikrosistemani tashkil etuvchi, etnografik tushunchani ifodalovchi leksemalar

tizimi mavjud. Ushbu leksemalarni o'rganish uchun tilshunoslikning maxsus sohasi — etnolingvistika shakllangan, u lingvistik soha sifatida lingvistik universalialarni ham, xususiy jihatlarni ham o'rganadi. Shuning uchun umumiy va xususiy etnolingvistika farqlanadi. Umumiy etnolingvistika etnografik til hodisalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi kabi umumiy masalalar bilan shug'ullansa, xususiy etnolingvistika ayrim tillarga xos etnografizmlarni shu nuqtai nazardan tadqiq qiladi. Tilshunoslikda etnografik tahlil uchun aksar hollarda xalq urf-odatlarini, an'analariga tegishli tushuncha nomlari obyekt sifatida olinadi. O'zbek tilshunosligida etnografizmlar tadqiqiga, asosan, XX asrning 70–80-yillarida kirishildi. Sobiq Ittifoq davrida xalq urf-odatlariga yetarli darajada e'tibor berilmasdan, ularning eskilik sarqiti deya baholanishi bu muammoga doir ilmiy tadqiqotlar doirasini ham cheklab qo'ygan. Bu boradagi ilk tadqiqot ishlarini A.Jo'raboyev va Z.Husainovalar amalga oshirdilar. A.Jo'raboyev tadqiqotda xalqimizning xilma-xil ko'rinishga ega urf-odati mavjudligi va ularning tilimizdagi nomlari hamda ularni o'rganishning nazariy-amaliy ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. Bundan tashqari, urf-odat, an'ana ifodalari bo'lgan etnografizmlar Sh.Nurullayeva, Y.Bobojonov kabi tadqiqotchilarning ishlarida formal tadqiq usullarida keng o'rganilgan. M.Qahhorova esa etnografizmlarni lison nutq musanniyati asosida sistemaviy tadqiq qilgan. Aynan yuqorida sanab o'tilgan ilmiy izlanishlar, dissertatsiya, darslik va o'quv qo'llanmalar adabiyot sifatida tadqiqqa tortildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Etnografiya xalq og'zaki ijodiga qiziqishning paydo bo'lishi folklor yig'uvchilar bilan bog'liqdir. Etnografiya yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, "etnos"—xalq, "grafiya"—tavsiflash degan ma'nolarni anglatadi. Folklor ijodiyotiga qiziqish XVIII asrda G'arbiy Yevropada kuchayib bordi va XIX asr boshlarida fan va san'at falsafasida romantik tendentsiyaning paydo bo'lishi butun ilmiy yo'nalish – folklorning shakllanishiga turtki bo'ldi. Rossiyada bu jarayon Yevropaga qaraganda biroz kechroq XIX asrning birinchi o'n yilligida sodir bo'ldi. 1846-yilda Rus geografiya jamiyatining tuzilishi natijasida Rossiyada etnografiya yo'nilishidagi dastlabki tadqiqotlarga asos solingan. Ushbu jamiyatning asosiy maqsadlaridan biri o'sha davrda Rossiyaning mustamlaka mintaqalari tabiati, tabiiy boyliklari, o'tmish tarixini tadqiq etish bilan birga mazkur mintaqalarda yashovchi xalqlarning etnik xususiyatlarini, milliy qadriyatlarini o'rganish bo'lgan. Ayniqsa, Chor Rossiyasi ma'murlarining Sibir,

O'rta Osiyo, Kavkazga bo'lgan qiziqishlari natijasida mazkur hududlarni o'rganish uchun tashkil etilgan qator kompleks ekspeditsiyaning hukumat tomonidan moliyaviy ko'mak berilishi mustamlaka turmush tarzi, milliy an'analarini va etnografiyasiga oid muhim ma'lumotlarning yig'ilishiga sabab bo'lgan. Shu ekspeditsiya asosida Rossiyada rus etnografiyasi maktabi shakllangan uning asoschisi Mikluxo Maklayning xizmati beqiyosdir. Shuningdek, Rossiyada Etnografiya institutlari ham ochilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. U o'z tadqiqotlarida insoniyatning ajdodlari bir ekanligini, turli irq va xalqlar orasida jismoniy va psixologik farqlar nisbiy emasligini isbotlashga harakat qilgan. Olimning yozishicha, xalqlar orasidagi farq ularning tabiiy va ijtimoiy sharoitlari bilan izohlanadi. Etnografik manbalarida o'z aksini topgan tarixiy ma'lumotlardan tadqiqotlarda tayanch dalil sifatida foydalanish tajribasi uzoq o'tmishga tegishli bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, urf-odatlari, diniy e'tiqodi, tili xususidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan antik davr tarixchilari Gerodot, Teziy, Polien singari olimlarning asarlarida, shuningdek, Sharqning Hamza Isfahoniy, Tabariy, Mas'udiy, Beruniy, Saolibiy, Bal'amiy hamda Abulg'oz Bahodirxon singari yetuk mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlarda tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodi namunalari tahliliga ham keng o'rin berilishi buning yaqqol misolidir. Xususan, O'zbekistonda 1870- yilda Samarqand, Buxoro, Urganch bo'yicha uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya (N.N.Karazin, N.YE.Simanov) lar o'z davri uchun muhim etnografik ma'lumotlar to'plash imkonini bergan. 1921-yilda esa etnograf olimlardan tashkil topgan "Turkiston tub aholisining maishiy turmushini o'rganish ilmiy komissiyasi" tashkil topgan. 1928—30 yillarda yirik o'zbek folklorshunoslari G'oz Olim Yunusov va Hodi Zaripov hamda mashhur rus etnografi L.P.Potapov tomonidan o'zbek xalqining madaniyati, etnografiyasi va folklorini o'rganish borasida maxsus ekspeditsiya uyushtirilgan va mahalliy xalqning o'ziga xosligi jihatidan juda boy materiallar to'plaganlar. Etnografiya fani tadqiqotchilaridan biri tarix fanlari doktori A.Doniyorovning yozishicha, o'sha yillarda etnograf va tarixchilar o'zbek hamda qoraqalpoq xalqlari va ular ajdodlarining kelib chiqishi—etnogenezi muammosini faol o'rganishga kirishganlar. XX asrning 20—30 yillariga qadar etnografiya muammolari bilan faqat rusiyzabon olimlari shug'ullangan bo'lsalar, 30—yillar oxiriga kelib Sh.Inog'omov, T.Mirg'iyosov, M.Yusupov, H.Husanboyev, G.Alimov, Aboltayev, MSaidjonov kabi mahalliy mutaxassis-etnograflarning

yangi avlodi shakllangan. Barcha millatlarning o'ziga xos noyob etnografiyasi mavjud va har bir millatning o'z madaniyatini aniqlash va tadqiq qilishda eng samarali etnografik texnikasi va usullarini ishlab chiqishi va takomillashtirilishi kerak. Qolaversa, turkiy xalqlar uchun umumiy bo'lgan «Urxun-Enasoy» va Uyg'ur bitiglarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», «Hasanxon», «Avazxon», «Malikayi ayyoy», «Rustamxon», «Kuntug'mish» «Alpomish singari folklorshunoslikning etnografiya yozma manbalarida «tarixiy qo'shiq, hikmatli so'zlar, hatto qadimiy dostonlarning xarakterini aks ettiruvchi parchalarni uchratish mumkinligi», og'zaki ijod manbalarining qadimda badiiy ijod jarayoniga ham kuchli ta'sir o'tkazish qudratiga ega bo'lganligidan dalolat beradi. A.S.Rahimov tamonidan « O'zbek xalq dostonlari leksikasining til sistemasida tutgan o'rni» nomli (monografiya) va Bobojon Yo'ldoshning «Janubiy Xorazm etnografik leksikasi» nomli (Avtorefarati), A.Gulshat tamonidan «Qoqaalpog'iston qozoqlari etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili» nomli dissertatsiya avtorefarati kabi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'zbek etnograflari tamonidan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Lekin, «Alpomish» turkumidagi dostonlarning etnografizmlari va uning leksik-semantik jihatlari bo'yicha bironta ilmiy tadqiqotlar qilinmagan. Bu muazzam asarlar o'zi mansub millatning tarixidan tortib kelajak orzularigacha qamrab olgan. O'zbek xalq eposlari ona tilimizning beqiyos boyliklari, cheksiz imkoniyatlari hamda uning umumturkiy va milliy bosqichlariga xos tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini aks ettiruvchi lingvistik lavhalarini o'zida asrab kelayotgan mumtoz badiiy manbalardandir. Zotan, Respublikamiz marhum Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanada so'zlagan nutqida: «Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh baytidir», - deb ta'riflashi ham bejiz emas. Ayni paytgacha xalqimizning bu boy xazinalari asosida folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, etnografiya hamda tilshunoslikka ulkan hissa bo'lib qo'shiladigan qator ilmiy tadqiqotlar yaratilib kelinmoqda. Ayniqsa, ularning badiiy tili, uslubiy xususiyatlari va leksikasini o'rganish bo'yicha qo'lga kiritilgan samarali yutuqlar eposlar tilini yanada chuqurroq tahlil etish borasida olib boriladigan yangi-yangi ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Biroq ko'pgina tadqiqotlarda so'z san'atining ilk namunalari sifatida baholangan folklor asarlarining barcha etnolingvistik, ya'ni

etnografizm imkoniyatlari to‘laligicha ilmiy tahlil qilingan deb bo‘lmaydi. Xususan, bu manbalar so‘z san’atining ibtidosi sifatida tan olinar ekan, demak, ular jonli tilni qayta ishlashning ilk badiiy vositasi sifatida ham muhim tarixiy ahamiyatga egadir. Shu bois ularning etnolingvistik sistemada tutgan o‘rni, ahamiyati hamda umumxalq tilining quyi va yuqori sathlari bo‘lgan dialektlar (jonli so‘zlashuv tili) va adabiy tilga munosabati hamda o‘ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari bilan aloqador masalalar tarixiy izchillik asosida atroflicha tadqiq etilmog‘i lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir til leksik makrosistemasida alohida bir mikrosistemani tashkil etuvchi, etnografik tushunchani ifodalovchi leksemalar tizimi mavjud. Ushbu leksemalarni o‘rganish uchun tilshunoslikning maxsus sohasi — etnolingvistika shakllangan, u lingvistik soha sifatida lingvistik universalialarni ham, xususiy jihatlarni ham o‘rganadi. Shuning uchun umumiy va xususiy etnolingvistika farqlanadi. Umumiy etnolingvistika etnografik til hodisalarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi kabi umumiy masalalar bilan shug‘ullansa, xususiy etnolingvistika ayrim tillarga xos etnografizmlarni shu nuqtai nazardan tadqiq qiladi. Urf-odatlar muayyan etnosning o‘ziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografik sistemada lisoniy belgi sifatida faol o‘ringa ega, shu jihati bilan tilshunoslik uchun muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азадовский А.К., История русских фольклористов, т. 1-2, М., 1958-1963;
2. Музыкальный фольклор в Узбекистане, Т., 1963;
3. Землянова Л.М., Современная американская фольклористика, М., 1975;
4. Hodi Zarif, O‘zbek folkloristikasi tarixidan //O‘zbek folklori masalalari, Т., 1970;
5. Mirzayev Т., Hodi Zarif, Т., 1967;
6. Qodirova М., Muzayyana Alaviya, Т., 1968.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KOMPRATIV IBORALAR

Bobur Jo'rayevich Eshboltayev

**Termiz davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-kurs
magistranti**

eshboltayevboburbek@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada iboralarlarning turli tillar doirasida qiyosiy o'rganish, ularning til va nutq bosqichlaridagi umumiylik va xususiylik dialektikasini yoritish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Iboralarni har ikkala til doirasida o'rganish, ularning semantik-grammatik va funksional stilistik xususiyatlarini ochib berish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi. Ma'lumki, iboralar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Iboralar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ibora, qiyosiy ibora, frazeologik birlik, semantik tahlil, sinonim ibora

Abstract: One of the topical problems of linguistics is the comparative study of expressions in different languages, their coverage of the dialectics of generality and specificity at the stages of language and speech. The study of phrases in both languages, the identification of their semantic-grammatical and functional-stylistic features determines the relevance of this work. It is well known that expressions are inextricably linked with spiritual culture, customs, professions, living conditions, aspirations and views of people who speak this language. Phrases are important tools for creating images and expressiveness, and they serve to enhance the expressive effectiveness of fiction, political and journalistic texts.

Key words: phrase, comparative phrase, phraseological unit, semantic analysis, synonymous phrase.

Аннотация: Одной из актуальных проблем лингвистики является сравнительное изучение выражений в разных языках, охват их диалектикой общности и специфичности на стадиях языка и речи. Изучение фраз на обоих языках, выявление их семантико-грамматических и функционально-стилистических особенностей определяет актуальность данного произведения. Хорошо известно, что выражения неразрывно связаны с духовной культурой, обычаями, профессиями, условиями жизни, стремлениями и взглядами людей, говорящих на этом языке. Фразы являются важными инструментами для создания образов и выразительности, и они служат для

повышения выразительной эффективности художественных, политических и публицистических текстов.

Ключевые слова: фраза, сравнительное словосочетание, фразеологизм, семантический анализ, синонимическая фраза.

KIRISH

Tilshunoslikda o'zining alohida o'rniga va salmog'iga ega soha –frazeologiya sohasi ham yangi bosqichga ko'tarildi. Iboralar til egasi hisoblangan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash joy va tarkibi, intilishi, voqelikka munosabati bilan chambarchas bog'liqdir.

Frazeologizmlar ixcham, ma'no jihatdan salmoqli til birligi bo'lib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda so'zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Quyida biz frazeologizmlar mohiyatini anglashga harakat qilib o'tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunosligida frazeologik iboralarni o'rganish bo'yicha juda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ingliz va o'zbek tilshunosligida bu sohada talaygina ishlar yuzaga keldi. Shunga qaramay frazeologiya mustaqil lingvistik soha sifatida ikki til materiallari asosida qiyosiy o'rganishni taqazo etadi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi ingliz va o'zbek tilshunosligida frazeologik iboralarning uslubiy tarkiblanishi, matn tarkibidagi vazifalarini o'rganish sohasidagi ishlar sirasiga kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iboralar kelib chiqishi jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani qariyb ikki yuz yillik tarixga ega [2; 6].

Frazeologiya ilmining asoschisi shveysariyalik olim Sharl Ballidir. U o'zining "Fransuz stilistikasi" (1909) nomli asarida so'z birlashishlari, ya'ni frazeologik birliklarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Ferdinand de Sossyur esa sintagma, uning belgilari haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Tilda shunday tayyor birliklar borki, ularning lisoniy tabiati ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi, bunday birliklar tayyor holda an'anaga ko'ra qo'llanadi, degan edi [9;66].

Frazeologiya tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tez rivojlangan sohalardan biridir. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha oldin o'rganila boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu sohaning sistemali ravishda tadqiq etilishi o'tgan asrning 40-70 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Sh.Rahmatullayev(1969), G.A.Bayramov (1970), G.X.Axunzyakov(1974), V.G.Uraksin (1975),

L.K.Bayramova (1983), M.F.Chernov (1986)larning doktorlik dissertatsiyalari frazeologizmlarning tadqiqiga bag'ishlangan.

Shuningdek, bir qancha olimlarning monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari nashr qilinib, frazeologiyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Sh.Raxmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida tildagi frazeologik iboralarni lug'aviy birlik sifatida o'rganishni asosladi.

Jahon tilshunosligida frazeologizmlar keng va tor ma'noda tushuniladi. Frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqolalar, matallar, aforizmlarni kiritadilar[7; 10], tor ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa frazeologik birliklarni ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganish bilan cheklanadilar[11;35].

V.V.Vinogradov rus frazeologizmlari klassifikatsiyasini ingliz frazeologizmlariga ham joriy etgan. Uning frazeologizmlar tasnif usuli ba'zi hozirgi zamon tilshunoslariga ma'lum bo'lmasada, bu usul semantic printsipga asoslangan birinchi tasnif usulidir [9;34]. G.V.Antrushina shuni ta'kidlaydiki, frazeologizmlarda semantic tasnif muhim sanaladi [27;31].

Frazeologizmlar ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nolaridan qanchalik ko'p farq qilsa, semantik birikuv darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. V.V.Vinogradov frazeologizmlarni uch sinfga tasniflaydi:

1. Frazeologik chatishmalar (phraseological fusions).
2. Frazeologik qo'shilmalar (phraseological units).
3. Frazeologik birikmalar (phraseological collections or combinations).

Frazeologik chatishmalar – komponentlarining ma'nosi butun birikmalar ma'nosiga aloqador frazeologizmlardir. Frazeologizmlarning birinchi guruhi komponentlarining ma'nolari butun birliklarining ma'nolariga aloqador bo'lmagan birliklardir.

Masalan: **heavy father** – teatr asaridagi asosiy rol; **to kick the bucket** – o'lmoq; **red tape** – byurokratik metod kabi frazeologizmlar yaxlit holda bir ma'no beruvchi frazeologizmlardir.

Frazeologik chatishmalar ma'nosi butunlay o'zgargan so'z birikmasidir. Ammo frazeologik qo'shilmalardan farqli o'laroq ularning ma'nolari tarkibiy qismlarining ma'nolaridan anglashilmaydi.

Frazeologik qo'shilmalar ma'nosi bir butun frazeologizmning frazeologik ma'nosidan anglashiladigan frazeologizmlardir. Metaforaga asoslangan ma'no

ko'chish aniq va oydindir. Frazeologik qo'shilmalarning leksik komponentlari eng turg'un iboralar hisoblanadi.

Masalan: *to look a gift horse in the mouth* (to eramine a person critically; to find fault with smth one gained without effort); *to ride the high horse* (to behave in a superior, haughtily, overbearing way); *a big bug* (a person to importance); *to fish out of water* (a person situated uncomfortably outside his usual or proper environment).

Bu tasniflar frazeologik birikmalarning funksional-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, shu asosda frazeologik lug'atlar tuzish, ularni nutqni ixcham va jozibali bayon etishda foydalanish yo'l-yo'riqlarini belgilaydi. Frazeologik birikmalarni ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy o'rganish madaniyatimiz qadriyatlarini o'zga xalq madaniyati, urf-odatlarini o'rganish bilan chog'ishtirish, uni yana yuksak pog'onaga ko'tarishni davr taqozo etmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik iboralarning qiyosiy – tipologik tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keldi: Ikkala tilda ham frazeologik iboralar semantik xususiyatlari va ma'no turlariga ko'ra guruhlariga ajratilishi ma'lum bo'ldi. Hozirgi kunda bu soha bo'yicha keng ko'lamda ish olib borish davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand. 2007.
2. Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. – T.: O'TA. 1992. 3-4 son. 37-42 b.
3. Kunin A.V. Курс фразеологии современного английского языка. – М. 1986.
4. Kunin A.V. Англо-русский фразеологический словарь. – М. 1967.
5. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. – T. 1997.
6. Mamatov A. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T.: O'TA. 2001. № 3.
7. Mamatov A., Almamatova Sh. Farzeologik transpozitsiya va uni o'rganish haqida. Uslubshunoslik va frazeologizmning dolzarb mummolari. Ilmiy-nazariy konfidentsiya materiallari. – Samarqand. 2007. 68-70 b.
8. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Dokt. diss. avtoref. – T. 1999. 50 b.

SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA HAYOT HAQIQATI VA TALQIN MAHORATI

Shomurodova Dilorom Husanmurotovna

QarDu Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Adabiyotshunoslik kafedrası 1-bosqich magistranti

dilorom.shomurodova.92@inbox.ru

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Imomova Gulchehra Muhammadiyevna

Annotatsiya: Maqolada dramaturgiyada makon va zamoni aniq, yorqin tasvirlash, personajlar surati va siyratini aks ettirishdagi o'ziga xosliklar haqida so'z boradi. Bunda Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asari asosida hayotiy haqiqatlarni ijodkor estetik ideali asosida talqin qilish, detallar, dialoglar orqali qahramon yaratish badiiy mahoratini ochishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: tragikomediya, estetik ideal, detal, dialog, portret, qahramon nutqi, psixologizm, xarakter, hayotiy reallik, davr muammolari.

Abstract: The article deals with the peculiarities of dramaturgy in the accurate and vivid depiction of space and time, the portrayal of characters and biographies. At the same time, we tried to reveal the artistic skills of Sharof Boshbekov's work "Iron Woman" to interpret the realities of life on the basis of creative aesthetic ideals, to create a hero through details, dialogues.

Keywords: tragicomedy, aesthetic ideal, detail, dialogue, portrait, heroic speech, psychologism, character, life reality, period problems.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности драматургии в четком, ярком изображении пространства и времени, изображении персонажей и биографий. При этом мы постарались раскрыть художественное мастерство произведения Шарофа Бощбекова «Железная женщина», осмыслить жизненные реалии на основе творческих эстетических идеалов, создать героя через детали, диалоги.

Ключевые слова: трагикомедия, эстетический идеал, деталь, диалог, портрет, геройская речь, психологизм, характер, жизненная реальность, проблемы периода.

KIRISH

Har bir ijodkor biror asar ustida ishlar ekan, ma'lum bir g'oya asosida ma'lumotlar to'plab, ularni hayotiy tajribalari bilan boyitgan holda ruhiy va ma'naviy

olami prizmasidan o‘tkazib, saralaydi, estetik ideali asosida umumlashtirib jozibador, ta’sirchan asar namunasini yaratadi. Ijodkorning mahorati ham aynan hayotiy reallikni badiiy tasvirlashida namoyon bo‘ladi. Zero, “Badiiy mahorat, bir tomondan — real hayotdagi yangilikni ko‘ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san’ati bois, ikkinchi tomondan — san’atning sirlarini, texnikasini, minglab hissiy-tasviriy vositalarni chuqur bilishga bog‘liqdir.”³⁶

Dramatik asarlar yaratishda nafaqat kitobxon, balki tomoshabin nuqtai nazari hisobga olinib, soha dramaturgdan muayyan tayyorgarlikni, nazariy bilimlarni, mazkur janrga xos bo‘lgan badiiy shartlilik tizimlarini puxta o‘zlashtirishni talab qiladi. Chunki bu turda tasvir imkoniyati chegaralangan bo‘lib, asosan qahramonlar harakati, dialog va monologlar, detallar orqali badiiy reallik ko‘rsatib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada “badiiy adabiyotning gulto‘ji” sanalgan dramaturgiya haqidagi yirik adabiyotshunos olimlarning fikrlariga tayangan holda mohir dramaturg SHarof Boshbekovning "Temir xotin" tragikomediyasida talqin muammosi, shuningdek qahramon yaratishdagi mahoratini tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik, psixologik, tavsifiy yondashuvlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dramaturg Sharof Boshbekov sahna asarlarida hayot va uni badiiy ifodalashdagi yuksak mahoratni ko‘rish mumkin. Xususan, mustaqillikning ilk shabadalari esa boshlagan, biroq mustabid tuzum hali ham o‘z siyosatini yurgizayotgan bir davrda yozilgan “Temir xotin” tragikomediyasida voqealar o‘sha zamondagi hayotiy muhitdan kelib chiqqan holda yaratilib, bunda qishloq tasvirlari, Qo‘chqorning yashash sharoiti aniq keltirib o‘tiladi. “Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli. To‘g‘rida bir necha ustunli peshayvon, o‘ngda pastakkina ko‘cha eshigi, oldinroqda yog‘och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo‘yalgan, yarmining rangi o‘chib ketgan; yog‘och karavotning bitta oyog‘i yo‘q, o‘rniga g‘isht terib qo‘yilgan; ko‘rpa-yostiqqa yamoq tushgan; piyolalarning labi uchgan yoki chegalakgan, choynakning jo‘mragiga tunuka kiygazilgan va hokazo.”³⁷ Bu chizgilar orqali kitobxonda davr haqida aniq tasavvur uyg‘onsa, asar davomida Olimjon tilidan aytilgan “hozir «oilani planlashtirish» degan bir gap chiqib turibdi.” degan so‘zlari orqali hodisalar sodir bo‘layotgan zamonning ham aniq ko‘rsatilganini, ya’ni 80-yillar o‘rtalari aks etganini ilg‘aydi.

³⁶Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.79-b.

³⁷ Boshbekov Sh. Temir xotin. www. Ziyouz.com kutubxonasi 1-b. (Keyingi o‘rinlarda mazkur elektron kitobning sahifalari ko‘rsatiladi)

Taniqli adabiyotshunos olim V. Xalizev shunday yozadi: “dramatik asarlarda bayon etuvchi parchalar qanchalik muhim o‘rin tutmasin, tasvirlanayotgan asar qanchalik bo‘laklarga bo‘linmasin, personajlar aytayotgan so‘zlar ularning ichki nutqiga qanchalik muvofiq bo‘lmasin, baribir drama zamon va makon jihatidan o‘zaro muvofiqlashtirilgan manzaralarni tasvirlashga moyildir.”³⁸

Sharof Boshbekov qalamga olgan mazkur zamon va makonga uyg‘un tarzda jonli, kitobxon yoxud tomoshabin qalbidan chuqur joy oladigan obrazlarni yaratadi. Ayniqsa sodda, to‘pori, beg‘am, hazilkash qishloq odami Qo‘chqorning xatti-harakatlari, so‘zlari drama pardalaridagi ko‘rinishlar davomida dastlab kulgi uyg‘otsa, ammo asar yakunida uning taqdiriga hamdardlik, achinish hissi uyg‘onadi.

Dramaturgning mahorati shundaki, asarning boshidayoq qahramon tutqun, erkidan mahrum kishi ekanligi arqon bilan bog‘langan holda ishora qilinadi. Buni qarangi, asar so‘nggi pardasida ham shu holatda ko‘rsatiladi. Mazkur detal orqali ijodkor o‘sha davrda o‘zbek xalqi qullik, mutelik iskanjasida bo‘lganini Qo‘chqor obrazi aynan mana shunday kishilardan biri ekanligini ta‘kidlaydi va qahramonlar nutqi davomida bu fikrlar mustahkamlanadi.

Drama janrining murakkab jihatlaridan biri qahramon portretini yaratish masalasi bo‘lib, asarda muallif nutqining yo‘qligi sababli ba‘zi sahna asarlarining boshida har bir obrazga ta‘rif berilsa, ba‘zan bir qahramonning surati va siyrati haqida boshqa bir qahramon nutqi orqali bilib olish mumkin. Xususan, Sharof Boshbekovning ushbu asarida Qo‘chqor obrazi o‘sha davr insonlarining tipiklashtirilgan timsoli bo‘lib, uning tashqi ko‘rinishi, ruhiy hamda ma‘naviy olami to‘g‘risida Olimjon, Alomat, Qumri nutqi orqali kitobxon tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Ayniqsa, Alomat va Qumri o‘rtasidagi dialogda bu yaqqol namoyon bo‘ladi: “Alomat:... Aft-angoringizga bir qarang, qirqqa kirgan qirchillama yigitsiz-u, ko‘rgan odam sizni ellikdan oshgan, deb o‘ylaydi. Qurib-qaqshab boryapsiz... Esingizni tanibsizki, tinmay mehnat qilasiz, lekin hech biringiz ikki bo‘lmaydi. Ro‘zg‘or, bola-chaqa tashvishi, deysiz, afsuski, bu tashvishlarning cheki yo‘q. Ertalabdan-kechgacha chumoliday g‘imir-g‘imir qilasiz-u, rohatini ko‘rmaysiz. «Paxtakorman» deb ko‘kragingizga mushtlaysiz-u, ko‘rpangizga paxta topolmaysiz! Kiyib olgan kiyimingizni qarang, yengil sanoat yetishtirayotgan hamma brak mahsulot siz va sizga o‘xshaganlarga nasib qiladi. Manavi nima? Shu issiqda kim neylon ko‘ylak kiyadi?.....

³⁸ Xalizev V.E. Drama kak rod literature. M.1986,s. 46 (Q. Yo‘ldoshev, M. Yo‘ldosh Badiiy tahlil asoslari. T.: Kamalak, 2016 kitobidan olindi)

Bu dunyoga kelib nima ko'rdingiz, Qo'chqor aka? «Ikki marta Toshkentga borganman» deb maqtanasiz, odamlar «Oq dengizu Qora dengiz» qilib yurishibdi! «Ha endi, ular boshqacha odamlarda» deysiz. Qanaqa, boshqacha? Nimasi boshqacha? Nahotki, oddiygina insoniy g'urur bo'lmasa?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo'ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz!.....

To'y-ma'rakalarda poygakda o'tirasiz! «Ulug'larga» tayyorlangan dasturxonga yaqinlasholmaysiz! Joyingizni bilib o'tirishga majbursiz, chunki «mehnatkash» degan mansab bilan to'rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni haqoratlashi, tahqirlashi mumkin!»³⁹

Yuqoridagi o'tkir, achchiq kinoyali so'zlar (real hayotiy faktlar) orqali Qo'chqorning faqirona kiyinishi, achinarli hayoti, tinmasdan mehnat qilsa-da rohatini ko'rmagani, insoniy g'ururi ham allaqachon so'ngani, o'zidan katta mansabdorlar oldida bosh egib o'tirishi hatto orzu qilishdan, yaxshi yashash umididan-da kechgan o'sha davrning jismonan va ma'nan tutqun kishisi ekanligini sezgan kitobxon beixtiyor qahramon dardiga sherik bo'ladi.

Alomat so'zlaridagi Qo'chqor tashqi ko'rinishiga xos (neylon ko'ylak, kalish), mansabdorlarga xos (shlyapa, galstuk) detallar zamon kishilari o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Umuman olganda, «Har bir badiiy asar kishilarning yashash sharoiti, xarakterlar, qahramonlarning psixologiyasi va ularning to'xtovsiz o'zgarib turishiga, rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy detallar yig'indisidan iboratdir.»⁴⁰ Ayniqsa, dramaturgiyada detallar muhim o'rin egallaydi. Chunki haqqoniy keltirilgan detallar vositasida tomoshabin-kitobxon davr ruhini, qahramonlarga xos xususiyatlarni aniq ko'z oldiga keltira oladi.

Asardagi hayotiy reallikni voqealar, tuyg'ular asosida emas, xarakterlar to'qnashuvi tutib turadi. Qo'chqor va Qumri, Qo'chqor va Olimjon, Qo'chqor va Alomat o'rtasidagi dialoglarda zamon ruhiyatini, millat miqyosidagi muammolari ochib beriladi.

Komediyaning kulminatsiyasi o'ziga xosdir, dramaturg Qo'chqor va Alomatning o'zaro suhbat jarayonida gipnoz holatini qahramon ruhiyatining qirralarini, Qo'chqor tan olishni istamagan haqiqatlar Alomat tilidan aytiladi va ularni inkor qilolmagan qahramonning bu jarayondagi ruhiy azob po'rtanalari yig'i bo'lib vulqon kabi otiladi. »ALOMAT. Hamma gap shunda-da — nolimaysiz. Ko'nikib

³⁹ 39-40-b.

⁴⁰ I. Sulton Adabiyot nazariyasi. T.: O'qituvchi, 1986, 193-b.

ketgansiz. Yaralar toshga aylangan — og‘riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku qo‘lingizdan kelmas, hech qursa ingrab qo‘yishga ham qodir emasmisiz, Qo‘chqor aka? «Hayot deganlari shunaqa bo‘lar ekan» deb umringizni o‘tkazyapsiz. Qalbingizning unut bo‘lib ketgan, o‘zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo‘rqasiz, uyalasiz, uni sezmaslikka olasiz! To‘g‘ri, qadr-qimmatingiz oshkora haqoratlanganida o‘sha miltillayotgan cho‘g‘ alanga olganday bo‘ladi va siz uni aroq bilan o‘chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko‘zlar bilan qarab taskin topasiz, bir qadar yupanasiz ham. Lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi! Shunda o‘zingizni qo‘yarga joy topolmaysiz, hadsiz-hududsiz olamda mushtdekkina jussangizni qo‘ygani joy yo‘q! So‘ng yig‘lamoqdan o‘zga chorangiz qolmaydi va o‘ksib-o‘ksib yig‘laysiz...”

Ushbu o‘rinda ijodkor psixologizmning yutuqlaridan biri gipnozni bejizga qo‘llamaydi. Chunki erkaklar ayniqsa, Sharqda o‘zlari uchun to‘g‘ri deb bilgan haqiqatni inkor etib, o‘z turmushidan nolib yig‘lamaydi. Shu sababdan gipnoz, ya‘ni kimningdir ruhiy ta‘siri natijasida beixtiyor bu holat sodir bo‘ladi. Alomatning so‘zlari orqali Qo‘chqorning asar davomidagi har bir xatti-harakatining sabablari ochiladi. Ana shu o‘rinda kitobxon toshga aylangan yaralar og‘rig‘ini his qiladi.

Asar so‘nggida ilm-yutug‘i sanalgan Alomat tanazzulga uchraydi, zero bu mantiqan muvofiqdir. Bu davr uchun allaqachon o‘ylashni, tafakkur qilishdan uzoqlashgan, yuqoridan berilgan har qanday topshiriqni robot kabi bajarishga odatlangan xalq uchun bunday ixtirolar begona edi.

Asarda ayollar obrazi alohida e‘tiborga molikdir, aslida bu komediyani mehnatkash o‘zbek ayoli sha‘niga qo‘yilgan haykal desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi shuni tan olish kerakki, bu davrda xotin-qizlarimizga juda qiyin bo‘lgan. Qo‘chqor, Olimjon nutqi davomida ayollarning mehnat-u chekkan zahmatlari tilga olinadi. Qo‘chqor butun ko‘rinishlar davomida Alomat va Qumrini o‘zaro qiyoslaydi hamda aynan ana shu jarayonda ularning xarakter qirralari ochila boradi. Asr boshida Qumrini muallif “U o‘ttiz-o‘ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko‘rinadi.” Deb ta‘riflanadi, keyinchalik esa uni qaritgan cheksiz jismoniy va ruhiy qiyinchiliklar ayonlasha boshlaydi. Qo‘chqor ko‘rinishlar davomida “Ayol kishining joni temirdan bo‘ladi, hamma ishni bajaraveradi” degan aqidani bir necha bor ta‘kidlab o‘tadi. Vaholanki, temir-da ayollarimizning achchiq qismatiga chidolmadi, kuyib bir uyum temir bo‘lagiga aylandi. Olimjon Qo‘chqorga jahl ustida Alomatga ortiqcha yumushlarni buyurib, uni halokatiga sabachi bo‘lganini ta‘na qilib aytganlari: “Ertalabdan kechgacha tinmadi-ya! Bir minut dam olgani yo‘q, bechora,

bir minut! Yuv, tozala, tik, yama, supur! Bir chaqirim naridan suv olib kelib, kir yuvadi! Manavi tezak yoqiladigan la'nati o'chog'ingizda ovqat qiladi! Yeb to'ymaydigan ochofat mollaringiz bor: ertalabdan kech-gacha o't ber, yem ber, suv ber! Xamir qoradi, sigir sog'adi, kuvi pishadi! E, bu uyingizning ishi tugaydimi o'zi, yo'qmi?! Bundan tashqari, dalaga chiqadi! Ming chanoqqa ming egilib paxta teradi! Qirq-ellik kilo narsani ko'tarib, xirmonga olib boradi! Axir, bu do'zax azoblariga qanday dosh bersin, qandoq chidasin?!⁴¹ aslida Qumrining har uni nolimay bajaradigan ishlarining bir qismi edi, xolos. Buni hattoki, butun asar mobaynida turmush o'rtog'ining mehnati qadriga yetmagan Qo'chqorning: "Tavba... Alomatga biron-bir ortiqcha yumush yurgan bo'lsam, til tortmay o'lay... Nima ish qilib qo'yibdi .?.. Hali qatorlashtirib yetti-sakkizta bolani tug'ib qo'ygani yo'q, kechalari uxlamay beshik quchoqlab chiqqani yo'q, har bolasi bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'ayganiyam yo'q... Axir u bitta o'zbek ayoli qiladigan ishning yarmini qildi, xolos-ku!.. Qanaqasiga men o'ldirgan bo'lay?.." ⁴² degan so'zlarida ayollarning matonatiga, irodasiga, har qanday azoblarga sabr-u toqatiga qoyil qolganini, ularning borligiga shukronalik hissini anglash mumkin. Qumrining o'zbek ayoliga xos mehribonligi Qo'chqor mast holda kelib, uni har qancha haqoratlasa ham, chanqaganida suv tutadi, qilgan xizmatlarini biror marta ta'na, minnat qilmaydi va oxirida uni arqon bilan bog'lab ketgani uchun, turmush o'rtog'ini azobga qo'yganidan qiynaladi. Qumri sadoqatli, oilasi uchun har qancha azobga bardosh bera olgan ayollarimizning yorqin siymosidir.

Komediya Bozorboy ismli bir personaj borki, biror o'rinda sahnada ko'rinmaydi, ishtirok etmaydi. Biroq uning asardagi o'rni sezilib turadi. Qo'chqor siqilganida, quvonganida, o'zini yolg'iz sezganida, hattoki o'ksib yig'laganida ham Bozorboyni chaqiradi. Lekin xotini har safar uni goh sabzi, goh turp, goh baqlajon olib bozorga ketganini aytadi. Dramaturg aynan Bozorboy obrazi orqali o'z qobig'idan chiqa olgan, yaxshi yashash uchun intilayotgan, tinib-tinchimas, tadbirkor, yangi zamon kishisini tasvirlaydi.

Umuman,"san'at muayyan hayotiy qarashni tasdiqlashdir. Bu tasdiqlangan qarash esa san'atkorning estetik idealiga bog'liq. Hayot haqiqatini buzish, undan yuz o'girish axloqsizlikni targ'ib qilishga olib keladi. San'at hayot haqiqatini buzsa, u o'z axloqiy qimmatini yo'qotadi. Italiyalik kinorejissor F.Fellini : "Men shunday film

⁴¹ 48-b.

⁴² 48-b.

yaratayki, u kishilarga jasorat ato qilsin. Faqat haqiqatning ko‘ziga tik qaray olgan taqdirdagina bunga erishish mumkin, xolos”, – degan edi.”⁴³

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytganda, jasoratli dramaturg Sharof Boshbekov o‘zi teran his qilgan hayotiy haqiqatlarni, davrga xos muammolarni chuqur anglagan holda taraqqiyotdan orqada qolgan, og‘ir sharoitda yashayotgan, eng achinarlisi buni his qilmagan, insoniyligini unutgan, xalqimiz fojiasini Qo‘chqor, Qumri, Alomat, Olimjon singari qahramonlar taqdirida badiiy ifodasini yorqin ko‘rsatib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hotamov U. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 79-b.
2. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., O‘qituvchi, 1986
3. Boshbekov Sh. Temir xotin. (komediya). www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Q.Yo‘ldoshev, M.Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T., Kamalak, 2016
5. S.Mirvaliyev. Adabiyot – ma’naviyat demakdir. Muloqot. 2001, №6, 35-36-betlar

⁴³ S.Mirvaliyev Adabiyot –ma’naviyat demakdir. Muloqot, 2001/6, 35-36-b.

O‘ZBEK FALSAFASINING SHAKLLANISHIGA BO‘LGAN E‘TIBOR, XXI ASR O‘ZBEK FAYLASUFLARI VA ULARNING ILMIIY MEROSI

Xudoyorova Farangiz - Samarqand davlat chet tillari instituti 3 bosqich talabasi

xudoyorova0208@gmail.com

Sitora Rahmonberdiyeva - Samarqand davlat universiteti 1 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr o‘zbek faylasuflari va ularning ilmiy merosini tadqiq etishga alohida e‘tibor berilib, xususan uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rniga e‘tibor qaratilgan. Bulardan tashqari, o‘zbek falsafasining shakllanishi, maqsadi va faoliyati, uning ahamiyati hamda rivojini yoritilgan. O‘zbek falsafasining shakllanish jarayonini, uning yo‘nalishlari tarixini tahlil qilgan holda, XXI asr o‘zbek falsafasining ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek falsafasi, falsafiy dunyoqarash, Falsafiy tafakkur, milliy istiqlol g‘oyasi, falsafiy ildizlar.

Аннотация: В статье особое внимание уделяется изучению узбекских философов XXI века и их научного наследия, в частности его роли в воспитании молодежи. Кроме того, освещаются становление, цели и деятельность узбекской философии, ее значение и развитие. Анализируется процесс становления узбекской философии, история ее направлений, роль и значение узбекской философии в общественной жизни XXI века.

Ключевые слова: узбекская философия, философское мировоззрение, философское мышление, идея национальной независимости, философские корни.

Abstract: The article pays special attention to the study of Uzbek philosophers of the XXI century and their scientific heritage, in particular its role in the education of young people. In addition, it highlights the formation, goals and activities of Uzbek philosophy, its significance and development. The process of formation of Uzbek philosophy, the history of its directions, the role and significance of Uzbek philosophy in the social life of the XXI century are analyzed.

Key words: Uzbek philosophy, philosophical worldview, philosophical thinking, the idea of national independence, philosophical roots.

KIRISH

Mustaqillikning taraqqiyot yo‘li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan falsafa o‘zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda o‘zbek falsafasini ham qaysi davrlar rivojlanganligi, bugungi Yangi O‘zbekistondagi faoliyati va takomillashi bizning bevosita muvvafoqiyatimizdir. Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bugungi kunda o‘zbek falsafasining vujudga kelishi falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma’naviy muhitning, balki har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi hamdir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov [1] ta’kidlaganlaridek:

“Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam - medisina yoki ta’lim, san’at yoki madaniyat sohasi vakili bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar – hayotning, o‘z kasbining ma’no mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olish kerak. Shu bois har bir soha vakili bo‘lishi uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo‘lish darkor” allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo‘sha oladi.

“Falsafa” fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Mazkur fanni mohiyatini o‘rganishimiz jarayonida, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o‘z-o‘zini va o‘zini qurshagan dunyoni anglab yetishida qanday rol o‘ynashini tushuna boshlaymiz. Zero, birinchi Prezident Islom Karimov

ta'kidlaganidek: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik orqali namoyon bo'ladi"

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev aytganlaridek[2]:

"Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish" - davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak va uning o'zidan ham puxtaroq egallashimiz lozim"

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining teran ildizlari mavjud bo'lib, istiqlol mafkurasining shakllanishida uning tarixiy ildizlari bilan birgalikda falsafiy ildizlari ham uning shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. Mustaqillik davrida milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi bilan bir vaqtda uning falsafiy ildizlarini o'rganish va tadqiq etish ijtimoiy sohaning eng dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Mustaqilligimiz tufayli xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan – kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning falsafiy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoiy komil insonlar etib tarbiyalash hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. O'zbekistonda milliy tiklanish bir tomondan milliy o'zlikni anglash, boshqa tomondan, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini yaratish, uchinchi tomondan esa bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish asnosida yuz bermoqda. Mustaqillik davrida bu borada katta ishlar bajarildi. Biroq, hali bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'p. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish eng avvalo uning falsafiy asoslarini mustahkamlashni talab etadi. Hozirgi kunda madaniy rivojlanishda milliy ma'naviy merosimizni chuqur o'zlashtirish, boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati fani, falsafasi yutuqlaridan bahramand bo'lish va shu asosda milliy madaniyatimizning umumjahon madaniyatining yutuqlari bilan

doimo boyib borishiga erishish nihoyatda muhimdir. Falsafa tarixini doktorant va tadqiqotchilarga o'qitishdan maqsad ularda falsafaning kelib chiqishi, evolyusiyasi, bugungi holati, insoniyat hayotida tutgan o'rni to'g'risida chuqur ilmiy tushunchalar hosil qilish, shuningdek, ularda turli xil mifologik, diniy falsafiy oqimlarning kelib chiqishi, rivoji va yo'nalishlari to'g'risida ilmiy xulosalar chiqara oladigan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, falsafiy ta'limotlarni asosli tahlil qilishga imkon beradigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishishda o'tmishdagi mutafakkirlarning asarlari, turli tarixiy manbalar, xususan, arxiv xujjatlari, maxsus adabiyotlar doktorantlar, tadqiqotchilar ilmiy ishlari uchun zaruriy nazariy asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

O'zbek falsafasining bir qator yetuk namoyondalari bo'lib, ular o'z izlanishlari va say harakatlari bilan vatanimizdagi falsafiy qarashlar va o'zgarishlarga ulkan hissa qo'shganlar. Ulardan biri O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi respublika Davlat mukofotining laureati, O'zbekiston Fanlar akademiyasining vise-prezidenti, O'zbekiston "Bilim" jamiyati boshqaruvi raisi, «O'zbek sho'ro Ensiklopediyasi» va «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnalining bosh muharriri, davlat va jamoat arbobi, "Buyuk hizmatlari uchun" ordenining nishondori Ibrohim Mo'minov bo'lib, 1908 yil 7 sentyabrda Buxoroning Shofirkon tumanida dehqon oilasida dunyoga keladi. 1922-1927 yillarda boshlang'ich maktabda, so'ng Buxoro Maorif institutida o'qiydi. Shu institut yo'llanmasi bilan 1928 yil Samarqand Oliy Pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Biroz o'tmay bu institut Samarqand Pedagogika akademiyasiga aylantiriladi. 1931 yil u Samarqand Pedagogika akademiyasining ijtimoiy-iqtisodiy fakultetini a'lo baholarga tamomlab, shu akademiya o'qituvchilik lavozimiga ishiga olib qolinadi. 1933 yil shu akademiya bazasida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti tashkil qilinadi. Ibrohim Mo'minov universitetda avval filologiya, keyinchalik tarix fakultetlarining dekani lavozimida ishlaydi, ijtimoiy kafedraga mudirlik qiladi. Ibrohim Mo'minov yoshligidan tarix, ijtimoiy fanlar, ayniqsa falsafa ilmiga qiziqdi, shu sohada maqola, risolalar yozdi va ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Ibrohim Mo'minov falsafa ilmini o'rganish jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini ham amalga oshirdi. U 1941 yil o'zbeklar orasida birinchilardan bo'lib "Gegel dialektikasining rasional mag'zi" mavzusida nomzodlik ilmiy ishini himoya qildi. 1943 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil qilinadi. Uning ta'sis majlisidayoq Ibrohim Mo'minov akademiyaning muxbir a'zosi qilib saylanadi. 1946 yil Samarqandda "Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari" monografiyasi rus tilida

bosilib chiqdi. 1950 yilda “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti tarixidan” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. U 50-yillar boshlarida SamDUda ijtimoiy kafedraga rahbarlik qildi. Bu kafedra Respublikada falsafa yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlashda asosiy markazlardan biri bo‘lib qoladi. Ibrohim Mo‘minov 1955 yil O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti direktorligiga tayinlanadi. 1956 yil Ibrohim Mo‘minov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi va vise-prezidenti qilib saylanadi. To umrining oxirigacha 18 yil davomida vise- prezidentlik lavozimida faoliyat ko‘rsatdi.

Baratov Mubin 1933 yil 9 sentyabrda Nurota tumanida tug‘ilgan, faylasuf olim. O‘zbekiston FA akademigi (2000), falsafa fanlari doktori (1972), professor (1973). O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini tugatgan (1956). 1959-1975 yillarda O‘zbekiston FA Falsafa va huquq institutida ishlagan 1970-1975 yillarda direktor, umrining oxirgi yillarida xorijiy sharq falsafasi bo‘limi mudiri, O‘zbek ensiklopediyasi Bosh muharriri (1975- 1976), O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti direktori (1976-1980), ToshDU huzuridagi Oliy o‘quv yurtlari ijtimoiy fanlar o‘qituvchilarining malakasini oshirish instituti direktori (1980-1993), 1993 yildan O‘zbekiston FA Falsafa va huquq institutida bo‘lim mudiri sifatida faoliyat olib borgan. Ilmiy faoliyati O‘rta Osiyo va xorijiy sharq xalqlari falsafasi tarixiga bag‘ishlangan. Uning “Xorijiy sharq xalqlari ilg‘or ijtimoiy-falsafiy fikrlari ocherklari” (monografiya), -T., 1971; va “Hindistonda ijtimoiy fikrlar” (hammualliflikda), -T., 1973. asarlari mashhur bo‘lib, falsafiy bilimlarni boyitishga katta xizmat qiladi. Ustoz Mubinjon Baratov 2003 yil Toshkent shahrida vafot etgan.

Taniqli faylasuf olim, akademik Muzaffar Xayrullaev [3] XX asrda akademik Ibrohim Mo‘minov asos solgan milliy o‘zbek falsafa maktabining yorqin vakili edi. Uning ilmiy merosi rang - barang va serqirra bo‘lib, milliy falsafamiz tarixida alohida o‘rin va ahamiyat kasb etadi. Muzaffar Muhiddinovichning “falsafa daryosiga” kirib kelishi ham o‘ziga xos bo‘lib, bu jarayon ustoz Ibrohim Mo‘minov ko‘magi va maslagida amalga oshgan. Muzaffar Xayrullaev falsafa ilmiga uning eng mashaqqatli sohasi bo‘lgan mantiq ilmi orqali kirib keldi. U 24 yoshida “Dialektik materializm mantiqiy qonunlarining ob‘ektiv xarakteri haqida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bu yo‘nalish keyinchalik uni O‘zbekistonda ilk mantiqshunos olimlardan biriga aylantirdi. 1986 yil M. Haqberdiev bilan hammualiflikda “O‘qituvchi” nashriyotida “Logika” o‘quv qo‘llanmasini chop etilishiga olib keldi. Bu kitob mustaqillik yillarida “Mantiq” nomi bilan qayta nashr

etilib, hozirgacha oliy o'quv yurtlarida mantiq fanidan asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. U 1966 yili 35 yoshida Ibrohim Mo'minov rahbarligida "Forobiy dunyoqarashi va uning falsafa tarixidagi ahamiyati" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Muzaffar Xayrullaev yurtimizda Markaziy Osiyo uyg'onish davrini o'rgangan dastlabki faylasuf olimdir. U A.Mes, Sh.Nusubidze, V.Chaloyan, I.Filishtinskiy, I.Braginskiy, V.Nikitina, I.Borodina, N.Konrad kabi uyg'onish davri tadqiqotchilari kabi O'rta Osiyo uyg'onish davri yoki Markaziy Osiyo uyg'onish davrini [4] o'rgandi va ilmiy asoslab berdi.

Said Shermuxamedov [5] falsafa fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, taniqli faylasuf. U respublikada falsafa fani rivojiga, ilmiy-pedagogik kadrlar - fan nomzodlari va doktorlari tayyorlashga salmoqli hissa ko'shib kelmokda. Said Shermuxamedov falsafada o'ziga xos ilmiy maktabga, jumladan "Ijtimoiy falsafa" va "Madaniyat tarixi va nazariyasi" bo'yicha fundamental ilmiy maktablarga asos soldi. Bu yirik olimning bir qancha ulkan falsafa anjumanlarida qilgan ma'ruzalari, matbuot sahifalaridagi chiqishlari, tayyorlayotgan ko'plab pedagogik kadrlari tufayli Said Shermuxamedovning nomi nafaqat o'z Vatanida, hattoki Rossiya, Fransiya, BAA, Yaponiya, Keniya, Kanada, Meksika, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston, Kipr, Nikaragua, Polsha, Bolgariya, Singapur, Koreya, Turkiya hamda boshqa ko'plab xorij mamlakatlarida ma'lum va mashhurdir.

- d. intellektual mulkni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning paydo bo'lishi;
- e. xususiy mulkni bekor qilish yoki sezilarli darajada cheklash bilan bog'liq sotsialistik nazariyalarning paydo bo'lishi va amalga oshirilishi;
- f. mulkning ekologik funksiyasini tan olinishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida xususiy mulk instituti va huquqini konstitutsiyaviy tartibga solishning tarixiy rivojlanishi haqida fikrlar tahlil qilindi. Bugungi kundagi xususiy mulkning shakllantirish bosqichlari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xususiy mulkchilik alomatlari insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumida paydo bo'lgan bo'lsada, ammo xususiy mulkni konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tartibga solish XVIII asrda vujudga kelgan birinchi konstitutsiyalar bilan bevosita bog'liq. Ayni paytda xususiy mulk huquqi instituti uzoqroq rivojlanish tarixiga ega. An'anaga ko'ra, xususiy mulk kech ibtidoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ibtidoiy jamiyatning parchalanishi davrida paydo bo'lgan deb hisoblanadi.

Xususiy mulkning paydo bo'lishi va to'planishi, xususan, ko'plab arxeologik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. Masalan, Qadimgi Misrning (Amrat madaniyati) suloladan oldingi dafnlarida topilgan narsalar allaqachon mulkchilik belgilari bilan belgilangan [1.351-b.]. Rivojlanishning ushbu bosqichida xususiy mulk instituti urf-odatlar va an'analar bilan tartibga solingan.

Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, jamoaviy mulkning asta-sekin parchalanishi, qadimgi davlatlar va sinfiy jamiyatning shakllanishi yangi davr davlatlari paydo bo'lishiga hamda huquqiy davlatning qonunlari, urf-odatlari va an'analarini vujudga keltirgan. SHunday qilib, asta-sekinlik bilan amalda bo'lgan norasmiy munosabatlar va jamiyatning mavjud ijtimoiy tuzilmasi qonunchilik normalarida rasmiylashtirish jarayoni amalga oshirilgan. Bu qonunlar to'plami va davlat boshqaruvi bo'yicha ko'rsatmalarda aks ettirilgan: «Gerakelopol shohining o'g'liga ta'limoti» (miloddan avvalgi III ming yillik), «Duaf o'g'li Axtoyning o'g'li Piopiga ta'limotlari» (miloddan avvalgi II ming yillik), Tutmos III va Vilbur papirusi yilnomalari

(miloddan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmi); «Ipuserning nutqi» - va boshqa hujjatlar[2.].

Ko'rib turinganidek, qadimgi dunyo davrida xususiy mulk instituti va huquqini tartibga solish shakllandi. O'sha davr tartibga solishning eng ajoyib xususiyati shundaki, unda nafaqat narsalar, balki inson - qul ham mulk ob'ekti sifatida harakat qiladi. Bunga Qadimgi Bobildagi Xammurapi qonunlarini (miloddan avvalgi 1760 y.) keltirish mumkin, unda xususiy mulk huquqi instituti va uning himoyasini tartibga soluvchi juda ko'p sonli qoidalar mavjud. Xususan, Xammurapi qonunlarida: «Agar kishi odamning o'g'li yoki qulidan kumush, oltin, qul, ho'kiz, qo'y yoki eshakni guvohlar yoki shartnomalarsiz sotib olgan bo'lsa yoki saqlash uchun qabul qilingan bo'lsa, u o'g'ri hisoblanadi va o'ldirilishi kerak bo'lgan[3.11-b.]. Xammurapi qonunlari xususiy mulkni va qul egasining mavqeini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Xususiy mulk huquqi instituti Rim qonunchiligida eng batafsil tartibga ega bo'ldi. Rim huquqshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy normalarning mazmuni hali ham Evropa (kontinental) huquq tizimining zamonaviy huquqida xususiy mulk huquqi institutini huquqiy tartibga solishni aniqlaydi. Aynan Rimliklar birinchi marta mulk instituti, xususiy mulk huquqini batafsil va konseptual ravishda ishlab chiqdilar.

Rim huquqshunoslari birinchi marta mulk egasining asosiy vakolatlarini ishlab chiqdilar: narsaga egalik qilish huquqi (ius possidendi), narsadan foydalanish huquqi va daromad va mevalar olish huquqi (ius utendi, ius fruendi), tassaruft etish huquqi(ius abutendi) [4.120-123-b.]. SHuningdek, ob'ektlar, sub'ektlar, xususiy mulk huquqini olish va bekor qilish asoslari bilan bog'liq masalalar etarlicha hal qilindi.

Bundan tashqari, hamma narsa ham xususiy mulk huquqining ob'ekti bo'lishi mumkin bo'lmagan. Masalan, Rimda ibodatxonalar, qurbonlik o'tkaziladigan joylar, davlat mulklari – qal'alar, qamoqxonalar, jamoat yo'llari bo'lsa, Xitoyning Tan sulolasining (618-907) – «Tan lyu shu yi» kodeksida erga cheksiz miqdorda egalik qilish mumkin bo'lmagan [5.].

Birinchi konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlar paydo bo'lishi bilan xususiy mulk huquqi jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. O'rta asrlarda xususiy mulk institutining rivojlanishi erkin mulklarning, shu jumladan xususiy mulk huquqini hukumatning o'zboshimchaliklaridan himoya qilishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq. Angliya qiroli Ioan unga nisbatan ko'tarilgan qo'zg'alondan so'ng 1215- yilda «Buyuk erkinlik xartiyasi» deb ataluvchi hujjatga imzo chekkan. Bu hujjatning 39-moddasiga ko'ra, hech bir erkin odam o'z mulkidan mamlakat qonuni yoki unga teng hujjat bilan chiqarilgan hukmdan tashqari mahrum qilinishi mumkin emasligi qayd etilgan [6.292-b.].

Birinchi konstitutsiyalarda mulk huquqi muqaddas ekanligi ta'kidlangan. Masalan, 1789 yildagi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 17-moddasi, 1830 yildagi Urugvay Konstitutsiyasining 114-moddasida mulk «daxlsiz va muqaddas» huquq sifatida belgilangan. Ayni paytda, «daxlsiz va muqaddas» deb e'lon qilingan xususiy mulk huquqi hech qachon mutlaq bo'lmaganligini yodda tutish kerak. Agar

1789 yildagi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 17-moddasida xususiy mulk huquqi «daxlsiz va muqaddas» deb e'lon qilingan bo'lsa, shu deklaratsiyaning 4-moddasi «erkinlik boshqalarga zarar etkazmaydigan hamma narsani qilish qobiliyatidan iborat: demak, har kimning tabiiy huquqlarini amalga oshirish jamiyatning boshqa a'zolari bir xil huquqlardan foydalanishni ta'minlaydigan chegaralarga ega»[7.133-b.].

Xususiy mulk huquqini konstitutsiyaviy tartibga solishning rivojlanishi xususiy mulk huquqining ob'ekti doirasidagi tarixiy o'zgarishlarda ham namoyon bo'ladi. 20-asrning o'rtalariga qadar asosan moddiy narsalar xususiy mulk huquqlari ob'ekti sifatida tan olingan. SHu bilan birga, 18-19 asrlarda mualliflarning intellektual huquqlari birinchi marta konstitutsiyalarda tan olingan, intellektual mulkni konstitutsiyaviy huquqiy tartibga solish bosqichi boshlangan. AQSHning 1787 yildagi Konstitutsiyasidagi yondashuv keyinchalik Fransiya (1791, 1795), Ispaniya (1812), Gollandiya (1798, 1815), Portugaliya (1822), SHvetsiya (1809-1812), Lyuksemburg (1868), Kanada (1867 y. Konstitutsiyaviy qonuni) va boshqalarga kirib bordi[8.46-b.].

XIX - XX asr boshlari qullik konstitutsiyaviy darajada taqiqlandi. Odamlar (qullar) xususiy mulk huquqining ob'ekti qatoridan chiqishdi. 1864 yildagi Gretsiya Konstitutsiyasining 13-moddasi, 1878 yildagi Bolgariya knyazligi Konstitutsiyasining 61-moddasi odam savdosiga yo'l qo'yilmasligi hamda qullchilik bekor qilinganligini mustahkamlagan.

XX asrda xususiy mulk huquqi institutini konstitutsiyaviy tartibga solish rivojlanish tarixi xususiy mulk huquqining mohiyati va maqsadini yangicha tushuntirib beradigan yangi nazariyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ulardan biri ijtimoiy mulk nazariyasidir. L. Dyugi, «egasining huquqi unga yuklatilgan ijtimoiy vazifasiga ko'ra oqlanadi yoki cheklanadi» deb yozgan [9.22-b.]. Keyinchalik, mulkning ijtimoiy funksiyasi ko'plab davlatlarning konstitutsiyaviy aktlarida aks etdi: Meksika (1917), Finlyandiya (1919), Germaniya (1919), Irlandiya (1937), Germaniya (1949), Braziliya (1988), Ispaniya (1978), Xorvatiya (1990), Makedoniya (1991), Ruminiya (1991), Kolumbiya (1991), CHexiya (1992), Ukraina (1996), Iroq (2005), Janubiy Sudan (2011) va boshqalar.

2011 yilgi Janubiy Sudan Konstitutsiyasining 28-moddasida ta'kidlanishicha, hech qanday xususiy mulk qonunda ko'zda tutilgan hollardan tashqari, ya'ni mulk

jamiyat manfaati uchun olinishidan tashqari sud qarorisiz olib qo'yilmasligi kerak. Bunday normalar Iroqning 2005 yildagi Konstitutsiyasining 23-moddaning 2-qismida, 2003 yil Qatar Konstitutsiyasining 27-moddasida o'z aksini topgan.

XX asrda xususiy mulkning tarixiy rivojlanish yo'nalishlaridan yana biri mulk shakllarining sotsialistik nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra xususiy mulk huquqi yo'q qilinishi yoki sezilarli darajada buzilishi kerak edi. Xususiy mulk huquqini yo'q qilish 1917 yildagi Ishchi va askar deputatlari Sovetlarining qurultoyi to'g'risidagi dekreti bilan boshlandi, unga ko'ra Rossiyada xususiy mulk huquqi abadiy bekor qilindi, er, o'rmonlar, suv, ot va chorvachilik va boshqa fabrikalar musodara qilinishi kerak edi [10.10-11-b.].

Keyinchalik, ushbu postulatlar 1918 yil 10 iyuldagi RSFSR Konstitutsiyasida, RSFSR Konstitutsiyasida 05.11.1925 yilda o'z aksini topdi [11.]. 1937 yilgi RSFSR Konstitutsiyasida mulkchilikning ikki shakli - davlat va kooperativ-kolxoz tashkil etildi. Keyinchalik davlat mulki sotsialistik mulk nomi bilan mashhur bo'ldi. SHuningdek, fuqarolarning shaxsiy mol-mulki ularning mehnat daromadlari va jamg'armalariga, turar joy va yordamchi xo'jaliklarga, uy-ro'zg'or buyumlari va uy-ro'zg'or buyumlariga, shaxsiy iste'mol va qulayliklarga, shuningdek fuqarolarning shaxsiy mulkiga meros qilib olish huquqi tan olindi. SHu bilan birga, er, uning ostki boyliklari, suvlari, o'rmonlari, fabrikalari, konlari, temir yo'l, havo transporti, banklar, aloqa inshootlari, davlat tomonidan tashkil etilgan yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini (sovxozlar, mashina-traktor stansiyalari va boshqalar), shuningdek shaharlarda va sanoat markazlarida kommunal xizmatlar va asosiy uy-joy fondlari davlat mulki bo'lgan [12.]. SHunga o'xshash qoidalar 1978 yilgi RSFSR Konstitutsiyasida 1990 yilgacha bo'lgan.

20-asrning oxirida sotsialistik mamlakatlarda xususiy mulk huquqi instituti asta-sekin tiklana boshladi. SHunday qilib, 1990 yilda RSFSR Konstitutsiyasida fuqarolar er uchastkasiga egalik qilish huquqiga ega bo'ldilar. Bir qator davlatlarda xususiy mulk institutini tiklash sotsializmning qulashi bilan bog'liq. Ammo sotsializmga sodiq qolgan bir qator mamlakatlarda ham xususiy mulkka ularning konstitutsiyalari (Vetnam, Xitoy) ruxsat bera boshladi.

SHuningdek, XX asrda xususiy mulkni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish tendensiyalaridan biri bu «nomoddiy», «ideal» narsalar xususiy mulk huquqi ob'ekti sifatida tan olinishni boshlaganligidir. Bu, avvalambor, ma'lumot, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk to'g'risidagi normalar ko'proq ishlab chiqilmoqda. Turli mamlakatlar konstitutsiyalarida intellektual mulkni tan olish va himoya qilishni ta'minlaydigan normalar tobora ko'payib bormoqda.

Masalan, 1994 yilgi Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida «fuqarolarning intellektual mulkka bo'lgan huquqi, ularning

intellektual ijodkorlikning turlari bilan bogʻliq holda yuzaga keladigan moddiy va maʼnaviy manfaatlari qonun bilan himoya qilinishi» belgilangan [13.316-b.]. Ozarbayjon Respublikasining 1995 yilgi Konstitutsiyasining 47-moddasi, Gruziyaning 1995 yildagi Konstitutsiyasining 23-moddaning 1-qismi, Armanistonning 1995 yildagi Konstitutsiyasining 36-moddasi, 1996 yilgi Belorussiya Konstitutsiyasining 51-moddasi va 2010 yilgi Qirgʻiziston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddalarida intellektual mulk qonun bilan himoyalanganligini belgilaydi.

Xususiy mulkni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning navbatdagi tarixiy tendensiyasi 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida mulkning ekologik funksiyasini belgilaydigan konstitutsiyaviy normalarning paydo boʻlishi bilan bogʻliq.

Xususan, 21.11.1991 yildagi Ruminiya Konstitutsiyasining 41-moddasi, 6-bandida: «mulk huquqi atrof-muhit bilan bogʻliq vazifalarni bajarishga majbur qiladi» deb belgilangan[14.226-229-b.]. Armanistonning 1995 yildagi Konstitutsiyasining 8-moddasi «mulk huquqini amalga oshirish atrof-muhitga zarar etkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi»ni belgilab qoʻygan[15.]. Bunday normalar koʻplab davlatlarining asosiy qonunlarida oʻz aksini topgan.

XULOSA

Xususiy mulk konstitutsiyaviy qonuni rivojlanishining qisqacha tarixiy sxemasi ushbu institutning ijtimoiy-iqtisodiy omillar va siyosiy-falsafiy qarashlar taʼsiri ostida doimiy dinamikada ekanligidan dalolat beradi. Vaqt oʻtishi bilan xususiy mulkning alohida roli va ahamiyati tan olindi. MulK munosabatlarini huquqiy tartibga solish bugungi kunda nafaqat tarmoq, balki konstitutsiyaviy va huquqiy darajada ham amalga oshirilmoqda. Xususiy mulk egalarining huquqlarini xususiy mulkni noqonuniy tortib olishdan himoya qiladigan normalar oʻrnatilgan. SHu bilan birga, xususiy mulkdorlarning jamiyat oldidagi alohida javobgarligi toʻgʻrisidagi taʼlimot tasdiqlanib, mulkning ijtimoiy, keyinchalik ekologik funksiyasi asoslanadi. Xususiy mulk huquqi obʻektlari roʻyxati doimiy ravishda takomillashib boradi: ularning baʼzilari chiqarib tashlanadi (masalan, qullar), boshqalari ularning oʻrnini egallaydi (maʼlumotlar, intellektual mulk obʻektlari). Doimiy evolyusiya xususiy mulkning doimiy rivojlanib borayotgan iqtisodiyotdagi muhim roli bilan, shuningdek xususiy mulkning subʼektiv huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri ekanligi, shu sababli uning mazmuni va kafolatlarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Алексеев В. П., Першиц А. И. История первобытного общества: Учеб. для вузов по спец. «История».— М.: Высш. шк. - 1990.— 351 с.

2. Гуров М.П. Становление неформальных экономических отношений в странах Западной Европы и Востока в докапиталистический период (историко-экономический аспект) // История государства и права. - 2006. - N 6.- СПС Консультант Плюс (23.01.2015 holatiga).
3. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран (Древность и Средние века). - М.: Издательство ЗЕРЦАЛО. - 2000. - С. 11.
4. Андреева Г.Н. О влиянии теорий собственности на ее конституционное регулирование // Журнал российского права. - 2008 - N 10 - СПС Консультант Плюс; Скловский К.И. Собственность в гражданском праве. - М. - 2002. - С. 120 - 123.
5. У Ган. Развитие гражданско-правового регулирования отношений частной собственности в КНР // Законодательство. - N 5 - 2005. - СПС ГАР АНТ.
6. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран (Древность и Средние века). - М.: Издательство ЗЕРЦАЛО. - 2000. - С. 292.
7. Конституции зарубежных государств: Великобритания, Франция, Германия, Италия, Соединенные штаты Америки, Япония, Бразилия: учеб. Пособие / [сост. сб., пер., авт. введ. и вступ. ст. В.В. Маклаков]. - 7-е изд., перераб. И доп. - М.: Волтере Клувер. - 2010- С.133
8. Халипова Е.В. Конституционно - правовые основы интеллектуальной собственности. Дис...докт. юрид. наук: 12.00.02/Халипова Е.В. -М. - 1999. - С. 46.
9. Дюги Л. Конституционное право. - М. - 1908. - С. 22.
10. Хрестоматия по истории отечественного государства и права. 1917 - 1991 гг. - М.: Зерцало. - 1997. - С. 10-11
11. Конституция РСФСР 1918г. // СПС Консультант Плюс
12. Статьи 5,6,10 Конституции (Основного Закона) РСФСР от 21.01.1937 г. // Сайт Конституции Российской Федерации.[Электронный ресурс] URL: <http://www.rusconstitution.ru/term/32/> (murojaat qilingan sana 03.04.2021)
13. Конституция Республики Молдова от 29 июля 1994 г. // Новые конституции стран СНГ и Балтии. Сборник документов. Вып.2.- М.: Манускрипт, Юрайт. - 1998. - С. 316.
14. Конституции Румынии от 21.11.1991 г.// СПС ГАРАНТ [Elektron manba]URL:http://www.constitution.garant.ru/DOC_3864899.htm#sub_para_N_202 (murojaat qilingan sana: 18.03.2021); Андреева Г.Н. Указ. Соч. - С. 226 - 229.
15. Конституция Армении от 05 июля 1995 г. // СПС ГАРАНТ [Elektron manba]URL:http://www.constitution.garant.ru/DOC_3864869.htm#sub_para_N_200 (murojaat qilingan sana: 18.03.2021).

**ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ ЎЗГАРИШИ ВА АҲОЛИ
САЛОМАТЛИГИ ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО БОҒЛАНИШЛАРНИ
СТАТИСТИК ЎРГАНИШ**

**Жамаллидинова Асал
ТФИ, Ўзбекистан
asalzamaldinova@gmail.com**

Аннотация: Мақолада демографик жараёнлар ва статистик маълумотларнинг ўзгариши кўриб чиқилади. Демографик жараёнларни ўрганишни ривожланишида XVI асрдан XIX асрнинг бошларига қадар бўлган давр алоҳида аҳамиятга эгадир. Чунки бу даврда демографик билимлар пайдо бўлиши учун шароит яратилди. Аҳоли ҳаракатида катта ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар юз беради.

Калим сўзлар. География, демографик жараёнлар, буюк географик кашфиётлар, аҳолининг кўпайиши, тугилиш, ўлим, қиёсий демография.

Аннотация: В статье исследуются изменения демографических процессов и статистики. Период с XVI по начало XIX века имеет особое значение в развитии изучения демографических процессов. Потому что в этот период были созданы условия для появления демографических знаний. В движении населения произойдут большие социально-экономические изменения.

Ключевые слова. География, демографические процессы, великие географические открытия, воспроизводство населения, рождаемость, смерть, сравнительная демография.

Abstract: The article examines changes in demographic processes and statistics. The period from the XVI century to the beginning of the XIX century is of special importance in the development of the study of demographic processes. Because during this period the conditions were created for the emergence of demographic knowledge. There will be great socio-economic changes in the population movement.

Keywords. Geography, demographic processes, great geographical discoveries, population reproduction, births, deaths, comparative demography,

КИРИШ

Жамият тараққиёти тарихида сайёрамиз ва унинг турли ҳудудларида аҳоли сони, таркиби, демографик жараёнлар, жумладан, аҳоли такрор барпо бўлишига оид маълумотлар қадимги даврлардан бошлаб мавжуддир. Страбон томонидан 17 жилддан иборат “География” китоби ёзилган бўлиб, унда табиат, хўжаликлар, этнография ва аҳолига оид қимматли маълумотлар берилган. Ўрта

асрларга оид манбаларда ҳам хўжаликлар, аскарлар сони, урушларда очлик ва турли эпидемиялардан ўлганлар ҳақида маълумотлар мавжуд. Демографик жараёнларни ўрганишни ривожланишида XVI асрдан XIX асрнинг бошларига қадар бўлган давр алоҳида аҳамиятга эгадир. Чунки бу даврда демографик билимлар пайдо бўлиши учун шароит яратилди. Аҳоли ҳаракатида катта ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар юз беради. XVI-XVIII асрларда жаҳон мамлакатларида йирик аҳоли миграцияси (кўчиши) кузатилади. Ушбу даврда дунёнинг турли ҳудудларидан аҳоли Америка Кўшма Штатларига кўчиб кела бошлади. Бошқача қилиб айтганда, аҳолининг миграцияси Шимолий Америка томон йўналган эди. Илмий манбаларда қайд этилишича, 1610-1800 йилларда АҚШ аҳолиси 210 минг кишидан 5,3 миллион кишига этди. Салкам икки аср давомида АҚШ аҳолиси 25 баробар кўпайди.

Ўзбекистон Республикаси бўйича демографик ҳолат дастлабки маълумотлар бўйича, 2020 йилнинг 1 октябрь ҳолатига кўра республика доимий аҳолиси сони 34 382,7 минг кишини ташкил этиб, йил бошидан 477,5 минг кишига ёки 1,4 % га ўсди.

Шу билан бирга, шаҳар аҳолиси сони 17 401,9 минг кишини (жами аҳоли сонига нисбатан 50,6 %), қишлоқ аҳолиси сони 16 980,8 минг кишини (49,4 %) ташкил этди.




Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг табиий ҳаракати: Туғилиш 2020 йилнинг январь-сентябрь ойларида 614,7 минг нафар бола туғилганлиги (фақат тирик туғилганлар) қайд этилган бўлиб, 2019 йилнинг мос даврига (589,8 минг

нафар бола) нисбатан 24,9 минг нафар болага кўпайди. Туғилиш коэффициенти 24,0 промиллени ташкил этди.

<i>Кўрсаткичлар</i>	<i>Минг киши</i>		<i>1000 аҳолига нисбатан</i>	
	<i>2019 йил</i>	<i>2020 йил</i>	<i>2019 йил</i>	<i>2020 йил</i>
Туғилганлар	589,8	614,7	23,5	24,0
Никоҳлар сони, <i>минг бирлик</i>	195,2	184,0	7,8	7,2
Ажримлар сони, <i>минг бирлик</i>	23,6	20,0	0,9	0,8


**Ўзбекистон Республикаси бўйича тирик туғилганлар сони
(2020 йил январь-сентябрь)**



2020 йил мобайнида энг кўп туғилганлар сони сентябрь (89,4 минг киши) ойларида кузатилди. Аксинча, энг кам туғилганлар апрель (55,2 минг киши) ойларида қайд этилди.

Никоҳ. 2020 йилнинг январь-сентябрь ойларида ФХДЁ органлари томонидан 184,0 минг никоҳ қайд этилиб, мос равишда 1000 аҳолига нисбатан никоҳ тузиш коэффициенти 7,2 промиллени ташкил этди.

**Ўзбекистон Республикаси бўйича тузилган никоҳлар сони
(2020 йил январь-сентябрь)**



2020 йил мобайнида энг кўп тузилган никоҳлар сони сентябрда (45,3 минг бирлик), энг кам никоҳлар сони эса апрелда (0,9 минг бирлик) кузатилди.

Дастлабки маълумотларга кўра, 2020 йилнинг январь-сентябрь ойларида жами қайд этилган никоҳдан ажралишларнинг 49,8% и фарзандларсиз, 29,6% и битта фарзанд билан ва 20,6% и икки ва ундан ортиқ фарзандлар билан ажрашганларга тўғри келган.

Миграция. Дастлабки маълумотларга кўра, 2020 йилнинг январь-сентябрь ойларида республика бўйича кўчиб келганлар сони 137,3 минг кишини, кўчиб кетганлар сони эса 139,7 минг кишини ташкил этди.

Миграция сальдоси минус 2,4 минг кишини ташкил этди. 2019 йилнинг мос даврида миграция сальдоси минус 8,3 минг кишини ташкил этган.

Ўзбекистон Республикаси аҳолиси сони ва аҳолининг демогафик жараёни ўртасидаги боғланишни кўриб чиқамиз.

Республикада пандемия туфайли карантин чекловлари таъсирида оила даромадлари ва озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талаб бўйича сўровнома ўтказилди. Сўровнома натижасида куйидаги маълумотлар олинди(1-жадвал).

1-жадвал

№	Вилоятлар	Бир оиланинг ўртача ойлик даромади, млн. сўмда (x)	Бир оиланинг ўртача ойлик ҳаражати, млн. сўмда (y)
1	Тошкент	4,7	4,2
2	Бухоро	4,6	4
3	Хоразм	4,4	3,9
4	Андижон	4,3	4,1
5	Навоий	4,3	3,9
6	Фарғона	3,8	3,7
7	Қарақолпокистон Республикаси.	3,8	3,5
8	Қашқадарё	3,7	3,6
9	Жиззах	3,6	3,4
10	Самарқанд	3,6	3,5
11	Наманган	3,5	3,2
12	Сирдарё	3,4	3,2
13	Сурхондарё	3,3	3,1

Жадвалда келтирилган маълумотларга асосан бир оиланинг ўртача ойлик даромади ва бир оиланинг ўртача ойлик ҳаражати ўртасидаги боғланишни тўғри чизиқли тенглама орқали тасвирланг ва моҳиятини тушунтириб беринг.

Ечилиши:

Нормал тенгламалар системасининг параметрларини ҳисоблаш учун ёрдамчи жадвални тузамиз(2-жадвал).

Жадвал маълумотларига асосан қуйидагиларги кўрсаткичларга эга бўламиз.

$$\sum x = 51, \quad \sum y = 47,5, \quad \sum x^2 = 202,78, \quad \sum xy = 188,19 \text{ у ҳолда,}$$

$$\begin{cases} 13a_0 + 51a_1 = 47,5 & (1) \end{cases}$$

$$\begin{cases} 51a_0 + 202,78a_1 = 188,19 & (2) \end{cases}$$

Нормал тенгламалар системасидаги (1) тенгламани 13 га, (2) тенгламани 51 га бўлиб қуйидаги нормал тенгламалар системаси ҳосил қиламиз.

$$\begin{cases} a_0 + 3.92a_1 = 3.65 & (1) \\ a_0 + 3.98a_1 = 3.69 & (2) \end{cases}$$

(2) тенгламадан (1) тенгламани айириб қуйидагини ҳосил қиламиз.

$$(3.98 - 3.92)a_1 = 3.69 - 3.65$$

$$0.06a_1 = 0.04$$

$$a_1 = \frac{0.04}{0.06} = 0,67$$

(1) тенгламага a_1 ни қўйиб a_0 параметрни аниқлаймиз.

$$a_0 + 3.92 \cdot 0.67 = 3.65$$

$$a_0 = 3,65 - 2,63 = 1,03$$

У ҳолда тўғри чизиқли боғланиш тенгламаси

$$\hat{y}_x = 1.03 + 0.67x$$

ХУЛОСА

Республикада пандемия туфайли карантин чекловлари таъсирида бир оиланинг ўртача ойлик даромади 1 бирликка ошиши бир оиланинг ўртача ойлик харажати 0,67 бирликка ошишига олиб келган.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Фан ва технология», 2014.-368 б.

2. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б

[www..mf.uz](http://www.mf.uz) – Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти.

[www..lex.uz](http://www.lex.uz) – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

THE LIVE VOICE OF THE PEOPLE IN THE WORK OF MUHAMMAD YUSUF

Nishonova Jumagul Ibrahimjon kizi
First year master's degree from UzDSMI
Abdullaeva Nasiba Ibrahimjon kizi
UzDSMI "Socio-cultural activities"
Student of education

Abstract: *This article is dedicated to the life and work of Muhammad Yusuf, the work carried out at the Uzbek State Institute of Arts and Culture, and the expression of Uzbek national values in the work of the poet.*

Keywords: *Ancestral heritage, optimism, pavilion, UzDSMI news, creative heritage, great literature, Writers' Alley.*

Аннотация: *Статья посвящена жизни и творчеству Мухаммада Юсуфа, работе, проводимой в Узбекском государственном институте искусства и культуры, а также выражению узбекских национальных ценностей в творчестве поэта.*

Ключевые слова: *Родовое наследие, оптимизм, павильон, новости УзДСМИ, творческое наследие, великая литература, Аллея писателей.*

INTRODUCTION

“Literature reflects the heart of the people, the spirituality of the people. In today's complex world, it is important to use the power of literature to find a way into people's hearts and inspire them to noble goals. We will create all conditions to study the heritage of our ancestors, to create a great literature worthy of our great culture”.⁴⁹In May 2020, the President turned the Alley of Writers into a place of literature, enlightenment and culture, , where specific recommendations were given for open lessons, educational activities. At the same time, the importance of studying the works of writers, creating books and films about their exemplary lives, and writing new works was emphasized.

Today, the Uzbek State Institute of Arts and Culture is carrying out a number of good deeds on these recommendations and tasks. In particular, the institute has introduced a special online course on the life and work of Muhammad Yusuf, which teaches students the life and work of the writer. The school also has a creative circle for students called "Followers of Muhammad Yusuf", which is headed by People's

⁴⁹ Speech by Sh.M.Mirziyoyev. Gazeta.uz.2020-year.20-may

Poet of Uzbekistan Iqbol Mirzo. The central pavilion in the courtyard of the institute is named after the poet and is equipped. A special section of Muhammad Yusuf's works has been set up at the Institute's Information Resource Center to keep young people informed about the poet's work and provide him with spiritual nourishment. The next issue of the scientific-theoretical, practical-methodological, spiritual-enlightenment magazine "UzDSMI Khabarlari" is dedicated to the exemplary life and work of Muhammad Yusuf.

REFERENCES AND METHODS

Logical, historical, coherent and objective methods of scientific knowledge were widely used in the analysis of this article. An analysis was made of the live voice of the people in the case of Muhammad Yusuf. Muhammad Yusuf's epic "Black Sun" has been identified as a methodological source.

DISCUSSION AND RESULTS

The Institute specializes in the study of graduate works, master's dissertations in connection with the life and work of Muhammad Yusuf, the translation of the poet's poems into Turkic languages, the organization of international scientific conferences dedicated to his work. 1 maps were developed. It is planned to do good deeds, to make a short film "Muhammad Yusuf - the singer of the homeland", to hold poetry evenings of poems by the poet, to hold a competition of songs performed by the poet.

When we remember Muhammad Yusuf, our dear teacher Abdulla Aripov wrote about the fiery poet: "I have never seen such a great artist, who gained so many fans in his youth" ^[50] Scholar Ozod Obidovich Sharafiddinov said, "Our literature does not even notice how a poet named Muhammad Yusuf entered poetry. But he quickly, to everyone's surprise, fell into his mouth"⁵¹ Muhammad Yusuf's poems have become the property of our people, and songs based on his poems are still sung in every Uzbek household. Said Ahmad wrote: "Muhammad Yusuf was quickly silenced. No poet has made such a name for himself. Frankly, he touched Muhammad's eye. In fact, original poets do not live long. But they leave behind a legacy that will last forever. He left such an immortal legacy. Muhammad touched the hearts of the fans of the poem. The poet is no more. But there is a poem called Muhammad Yusuf. This poetry will never fail" ^[52]

⁵⁰ In memory of Muhammad Yusuf's contemporaries. Tashkent.: Adib Publishing House. 2014. B.9

⁵¹ In memory of Muhammad Yusuf's contemporaries. Tashkent.: Adib Publishing House. 2014. B.6

⁵² In memory of Muhammad Yusuf's contemporaries. Tashkent.: Adib Publishing House. 2014. B.5

Muhammad Yusuf ate a patriotic poet. As he said: “He took swords sharper than diamonds, knew the soil as a bed, divided the horse's saddle, lived in a world like Jalaliddin, spent half of his life in the mountains and on the rocks, We must protect our Motherland as much as possible, honoring our ancestors who sacrificed their lives for this country and this land, shielding them, shrouding them in white blankets and sheltering thickets”. [53]

There is a saying in our language, “optimism” [54] It means pure, clean, sincere feelings. Muhammad Yusuf, through his creative legacy, sang such optimism and pearls in the vernacular.

In short, the poems of the poet, who placed the country in the heart, will still ring in the hearts of poetry lovers for many years to come. Hero of Uzbekistan Halima Khudoyberdiyeva skillfully described the following four about Muhammad Yusuf.

Not just walking in hearts
Ox, a bird that knows from fire
The heart of every Uzbek
The bird he made. [55]

REFERENCES:

1. Speech by Sh.M.Mirziyoyev. Gazeta.uz.2020.20.May
2. In memory of Muhammad Yusuf's contemporaries. Tashkent:. Adib Publishing House. 2014. B.9
3. Muhammad Yusuf. The epic "Black Sun". Tashkent:. Sharq Publishing House. 2016.
4. Annotated dictionary of the Uzbek language. Edited by A.Madvaliyev. State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan". Tashkent. 2006-2008. ISBN 5-89890-132-9
5. Khalima Khudoiberdiyeva "Selection". Editor-in-chief of Sharq Publishing and Printing Concern. Tashkent. 2000

⁵³ Muhammad Yusuf. The epic "Black Sun". Tashkent:. Sharq Publishing House. 2016.

⁵⁴ Annotated dictionary of the Uzbek language. Edited by A.Madvaliyev. State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan". Tashkent. 2006-2008. ISBN 5-89890-132-9

⁵⁵ Khalima Khudoiberdiyeva "Selection". Editor-in-chief of Sharq Publishing and Printing Concern. Tashkent. 2000

ANALYSIS OF POMEGRANATE JUICE CHARACTERISTICS AND QUALITY INDICATORS

Eshmatov Fozil Khidirovich

Ph.D., Associate professor

Madaminova Zilola Tohirjon kizi

Masters of Tashkent Chemical-technology institute

Tashkent, Uzbekistan

fozil.eshmatov.79@mail.ru

Abstract: Pomegranate juice is a rich source of beneficial ingredients; the demand for its consumption is growing all over the world. Production of pomegranate juice on an industrial scale involves fruit pressing. [1] The purpose of this study was to study the quality characteristics, value level of pomegranate juice produced. Pomegranate fruits are harvested by hand and mechanically processed to extract juice, which is processed using a throwing machine, a peristaltic pump, and a pneumatic press. Chemical analytical determination was performed on various juice samples. The analysis of trademark and organoleptic quality indicators of the pomegranate juice taken for the sample was carried out.

Key words: net weight, marking, organoleptic, sign, antioxidant

Аннотация: Гранатовый сок - богатый источник полезных ингредиентов; спрос на его потребление растет во всем мире. Производство гранатового сока в промышленных масштабах связано с прессованием фруктов. [1] Целью данного исследования было изучение качественных характеристик и уровня ценности производимого гранатового сока. Плоды граната собирают вручную и механически обрабатывают для получения сока, который обрабатывается с помощью метательной машины, перистальтического насоса и пневматического пресса. Химико-аналитическое определение проводилось на различных образцах сока. Проведен анализ товарных и органолептических показателей качества отобранного на пробу гранатового сока.

Ключевые слова: масса нетто, маркировка, органолептик, знак, антиоксидант.

INTRODUCTION

Pomegranate juice is rich in beneficial trace elements such as iron, calcium, magnesium, phosphorus, selenium and valuable potassium. Due to its beneficial properties and antioxidant content, it has anti-inflammatory effect. In addition,

pomegranate juice has antipyretic and antiseptic properties. Regular use helps to strengthen the cardiovascular system. It is important to choose the right manufacturer to be sure of the benefits of pomegranate juice.

REFERENCES AND METHODS

The methods of logic, analysis, synthesis, coherence and objectivity of scientific knowledge were widely used in the research process. In this article, opinions on the characteristics of pomegranate juice and the characteristics of quality indicators were analyzed. A.J. ChoriyeV's book "Technology of canning and storage of agricultural products" is a methodological resource.

DISCUSSION AND RESULTS

Analysis of pomegranate juice symptoms

Analysis GOST R 51074-2003 «Food products. Consumer information from various producers of pomegranate juice.⁵⁶

Table 1

Evaluation of marking data of test samples

GOST R 51074 -2003 "Consumer information"	"DENA" pomegranate juice
Product name	"DENA" pomegranate juice
Net weight	1 liter
Manufacturer's trademark	"MARWIN BRANDS" OOO
Manufacturer's name and location	"MARWIN BRANDS" OOO Uzbekistan, Tashkent Yukorichyrchyk district. Bardankul street, 15
Product content	concentrated pomegranate juice
Food additives, fragrances	Not available
Date of manufacture and packaging	23.02.2021
Best before	12 months
The designation of the document in accordance with it	GOST 52186 - 2003

Based on Table 1, it can be seen that there is no deviation in the sample in the positions required in accordance with GOST R 51074-2003 "Consumer Information".

⁵⁶ <https://docs.cntd.ru/document/1200022632>

The label shall indicate: product name, manufacturer's name and location, net weight, product composition, nutritional value, date of manufacture and date of packaging, expiration date, the designation of the document in accordance with this paragraph shall be indicated on all manufactured labels. lib demonstrates the good intentions of these manufacturers to provide consumers with complete information about the product. [2]

Analysis of organoleptic indicators of pomegranate juice quality

Pomegranate juice must be prepared in accordance with the requirements of this standard in accordance with sanitary norms and rules, recipes and duly approved technological instructions. [3] According to organoleptic properties, pomegranate juice GOST 52186-2003 «Canned. Recovered fruit juices. Specifications ».

Table 2

Comparison of pomegranate juice with GOST on organoleptic characteristics

Indicator name	Pomegranate juice "DENA"	GOST R 52186 - 2003
Appearance	Not transparent liquid.	“Canned food. Juice products. Reconstituted fruit and vegetable juices. TU ”
Consistency	Liquid, homogeneous, non-sticky.	Not transparent liquid
Taste	No foreign tastes.	Liquid, homogeneous, non-sticky.
Smell	Peculiar to this product, without foreign odors.	No foreign tastes.
Color	Red-burgundy color.	Peculiar to this product, without foreign odors.

Table 2 provides an expert description, which is in accordance with GOST 52186-2003 «Canned food. Recovered fruit juices. Specifications. ”All organoleptic indicators of pomegranate juice quality passed in accordance with the generally accepted standard. From the above indicators, it can be seen that the manufacturer controls the quality of the products and the observance of safety for the consumers.

CONCLUSION

Evaluation of marking data of pomegranate juice "Dena" GOST R 51074-2003 «Food products. Consumer information. "No deviations were found on the basis of this standard. Thus, the manufacturer takes care of the products purchased by

customers, all the necessary positions GOST R 51074-2003" Food products. Consumer Information ". An organoleptic evaluation of the quality of the studied sample of Dena pomegranate juice was also conducted.

REFERENCES

1. ЧОРИЕВ А.Ж., ДОДАЕВ Қ.О., ИСМОИЛОВ Т.А., ҚОРАБОЕВ Д.Т. “қишлоқ хўжалик маҳсулотларини консервалаш ва сақлаш технологияси “ Toshkent - 2010
2. Электронный фонд правовых и нормативно-технических документов
3. Богатырев С. Технология хранения и транспортирования товаров – М.: Дашков и К., 2011
4. Богатырёв С.А. Технология хранения и транспортирования товаров: учеб. пособие /С.А. Богатырёв, И.Ю. Михайлова – М.: Дашков и К., 2012
5. Брилевский О.А. Товароведение продовольственных товаров – Минск: БГЭУ, 2009
6. Бровка О.Г., Гордиенко А.С., Дмитриев А.Б. Товароведение пищевых продуктов – М: Экономика, 2009

CHET TILLARINI O'RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK TOMONLARI

Hayitova Umida Mardon qizi

Samarqand davlat chet tillari institutining 2 bosqich talabasi

Soyibova Feruza Azamat qizi

Samarqand davlat chet tillari institutining 2 bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Boltaqulova Gulnoza

Annotatsiya: *Maqolada innovatsion texnologiyalarning tasiri hamda til o'rganishning oson usullari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, til o'rganishda innovatsion texnologiyalarning roli haqidagi malumotlarni olish mumkin.*

Kalit so'zlar: *interaktiv metod, ongli-qiyoslash metodi, lingvistik bilimlar, eshitish sezgisi-analizator, magnitofon, visual.*

Аннотация: *В статье показано влияние инновационных технологий и простых способов изучения языка. Вы также можете узнать о роли инновационных технологий в изучении языка.*

Ключевые слова: *интерактивный метод, когнитивно-сравнительный метод, лингвистические знания, слуховое восприятие, магнитофон, визуал.*

Abstract: *The article discusses the effectiveness of innovative technologies and way for easy language learning and also, give the informations of the role of innovative technologies in improving learning skills.*

Key words: *interactive method, method of conscious comparison, linguistic knowledge, auditory sense-analyzer, recorder, visual ability*

KIRISH

O'tgan asrning 70-yillarida O'zbekistonda chet tillar o'qitishda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu yilda o'zbek maktablari uchun original darsliklar mazmunini takomillashtirish bo'yicha ish olib borildi. O'tgan asrda chet tillarini o'rgatishda gramatik, talaffuz va ongli qiyoslash metodikasidan foydalanilgan bo'lsa hozirgi texnika rivojlanib borayotgan zamonda chet tillarini o'rganish ham ilgari boryapti, ya'ni yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish izchil yo'lga qo'yilgan. Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam

tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 13- dekabrda PQ1875 –sonly qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmonida ham ta'lim va ilm fan sohalarini rivojlantirish borasida ham alohida urg'u beriladi. Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv - metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Innovatsion texnologiyalarni darsda qo'llash haqida so'z ketar ekan dars haqida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazku maqolada chet tillarini o'rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzallik tomonlari haqida fikrlar tahlil qilindi. . Jamol Jalilovning "Chet tili o'qitish metodikasi" nomli kitobi metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dars bu ta'limning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Dars jarayonida guruhga ajratilgan va individual tarzda bo'lishi mumkin. Bu har ikki holatda ham albatta innovatsion texnologiyalarning o'rni bor. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda

chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ko'rinishlari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va akademik litsey o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Mutaxassislar fikricha, axborot - kommunikatsiya texnologiyalari talabalarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Xo'sh innovatsion texnologiyalarni va undan qanday qilib dars o'tish kerak degan savol tug'iladi. Innovatsion texnologiya ta'lim tarbiya shakllari, metod va usullariga yangicha yondoshish degan manoni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan (hamkorlikjarayoni) to'liq foydalaniladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tsa dars o'quvchining xotirasida qolishi osonlashadi hamda asosiysi o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish va axborot texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rganishdir. Hozirgi kunda chet tili ixtisosini egallamoqchi bo'lgan talaba o'rganayotgan til bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zashtiradi.

I. Nutq faoliyat turlari(4 asosiy)

II. Til matreali(leksika,gramatika,fonetika)

III. Lingvistik bilimlar(leksikologiya,gramatika,fonetika)

IV. Chet tili o'qitish metodikasi.(pedagogik amaliyot)(Д.Д.Джалолов,Методическаяразработкадлягрупповыхуроков одителей)Hozir bizning oldimizda turgan masala esa chet tillarida innovatsion texnologiyalaridan qanday qilib foydalaniladi va qanday samaradorlikka erishiladi degan savolga javob berishdir.

Ingliz tili fanini rivojlantirish uchun mamlakatimizda 1- sinfdan boshlab ingliz tili fani o'tilmoqda. 1-sinflar uchun o'yin shaklidagi kompyuter matereallardan foydalangan holatda dars o'tilsa o'quvchi uchun dars jarayoni qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Inson ma'naviy kamolotga odatda, eshitish, ko'rish,va qolaversa, o'qish orqali erishadi. Chet tillarini o'rgatishda ham 4 bosqich eshitish (listening), gapirish(speaking), o'qish(reading), yozish(writing) mahoratini oshirish kerak bo'ladi. Bu mahoratni oshirishda esa innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

ESHITISH(LISTENING)-bu mahoratni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan qanday foydalaniladi? Avvalo tinglab tushunish 3 boqichli faoliyat bo'lib, umumiy eshituv idroki,so'zlarning tovush tomonini farqlash va mohiyatni anglash orqali nutqdagi mazmuni idrok etadi(Jamol Jalolov,Chet tilio'qitish metodikasi 221b)Tinglash uchun audio matnlarni tanlashda yoki yaratishda gap ko'p.Buning uchun esa innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta.Eshitish sezgisi va analizator orqali axborot olishning asosiy manbalariga auditiv texnikaviy qurollardan magnitofon va grammafondan, radio, kinofilm va television ko'rsatuvlar xizmat qiladi.

Gapirish(speaking) da ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanamiz ya'ni ijtimoiy tarmoqlardan (by talk, speaky,English speaking practice,talk now)nafaqat mamlakatingizdagi til o'rganuvchilar balki milliy tili ingliz yoki boshqa chet tili bo'lgan odamlar bilan gaplashib speaking mahoratni oshirish mumkin. Bu tarmoqlar orqali nafaqat speking skillni balki chat xizmati orqali writing mahoratini ham oshirish mumkin.Dars jarayonida esa texnologiyalardan o'yin orqali gapirish mahoratini oshirish mumkin. Masalan kompyuterda 1 dan 30 gacha raqamlar berilgan bo'lib, raqamlar ostida malum mavzuda topic yashiringanbo'ladi.Biror bir talaba chiqib istalgan raqamni tanlab mavzu

bo'yicha o'z fikrlarini gapirib beradi. Mavzu tanlashda esa o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi hisobga olingan bo'lishi shart.

O'QISH(READING)-zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda reading mahoratimizni oshirish imkoniyatida video, film, multifilm va boshqa ko'rsatuvlarini ko'rish orqali yani videolar ostida ko'rsatiladigan yordamchi matnlardan foydalangan holda rivojlantirishimiz mumkin. Bazibir talabalarimizda visual (ko'rish orqali o'rganish) qobiliyati rivojlangan bo'ladi va ular ko'rib, o'qib olish orqali o'rganadilar.

YOZISH(WRITING)-mahoratida ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning o'rnini beqiyos. Misol uchun, telegram yoki electron pochta orqali chet tilini o'rganishda do'stlarimiz orqali suhbatlashamiz. Email orqali xat, taklif va murojatnomalar yuboramiz. Bu esa writing mahoratining oshishiga yordam beradi. Internet orqali keladigan writing mashqlar va kitoblar ham biz uchun foydali.

Til o'rganishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini katta hisoblanadi. Nafaqat o'z yurtimizdagi maktab, litsey, universitetlarda o'qish uchun balki chet el bilim maskanlarida o'qish uchun foydali. Chet elga bormasdan ham online zamonaviy texnologiyalar orqali masofaviy o'qish mumkin. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi 21- asr texnologiyalar rivojlangan asrda 7 yoshdan 70 yoshgacha til o'rganish va o'rgatishda qulay, oson va zamonaviy o'qitish metodlari ishlab chiqilgan va yo'lga qo'yilgan va yana ham ko'proq izlanishlar olib borilyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Jamol Jalilov, Chet tili o'qitish metodikasi, Toshkent. 2012
2. O'zbek maktablarida chet tilini o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlari, O'qituvchi-1979, Zaripov R.A
3. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. P.

Отабоева. - Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. - 2017.

4. Д.Д.Джалолов, Методическая разработка для групповых руководителей 1977.

5. Azamat Abdurahimovich Djumaqulov, The difference modular teaching technology and traditional teaching, 2020

MEDIATSIYA – YAKKA MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA

*Tursunov Nuriddin Qurosh o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini taminlash, hamda ularning mehnat huquqi sohasida muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Shuningdek, yakka mehnat nizolarini hal qilishning mediatsiya usuli Xalqaro mehnat tashkilotining ilmiy markazi tomonidan sohaga doir olib borilgan tadqiqot ishlari va rivojlangan davlatlar tajribalari asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *mehnat huquqi, mehnat nizolari, yakka mehnat nizolari, tendensiya, zamonaviylik, muqobil usullar, mediatsiya,*

Аннотация: *В статье описывается проводимая работа по обеспечению надежной защиты прав и свобод граждан, а также внедрение современных механизмов решения их проблем в сфере трудового права. Также медиативный метод разрешения индивидуальных трудовых споров был проанализирован на основе исследований, проведенных Научным центром Международной организации труда и опыта развитых стран.*

Ключевые слова: *трудовое право, трудовые споры, индивидуальные трудовые споры, тенденции, современность, альтернативные методы, медиация,*

Abstract: *This article describes the work being done to ensure reliable protection of the rights and freedoms of citizens, as well as the introduction of modern mechanisms to address their problems in the field of labor law. Also, the mediation method of resolving individual labor disputes was analyzed on the basis of research conducted by the Scientific Center of the International Labor Organization and the experience of developed countries.*

Keywords: *labor law, labor disputes, individual labor disputes, trends, modernity, alternative methods, mediation,*

KIRISH

Mamlakatimiz mehnat munosabatlari jarayonida bir qator zamonaviy tendensiyalarning rivojlanishi mehnat nizolari hal qilishning boshqa (muqobil) usullarini qo'llash, jumladan mediatsiya institutidan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga ko'ra mehnat nizolari mehnat nizolari komissiyasi va sud tartibida hal etib kelingan.

Mehnat nizolarini hal qilishning bu kabi an'anaviy usullari xodimlar va ularning oila a'zolari bo'lgan millionlab fuqarolarning, shuningdek ish beruvchilarning manfaatlarini to'la ta'minlay olmaydi.

Hozirgi vaqtda sud hokimiyati xodim va ish beruvchi o'rtasidagi nizolarni hal qilishning yagona yo'li bo'lmasada, rivojlangan davlatlardan farqli o'laroq, muqobil nizolarni hal qilish uchun juda keng vositalar mavjud emas. Vaholanki, yakka tartibdagi mehnat nizolarini muqobil usullar orqali hal etish mehnat huquqi sub'ektlarining o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish shakllaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada mediatsiya – yakka mehnat nizolarini hal etishning muqobil usuli va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muqobil nizolarni hal etish - nizolashayotgan taraflar tomonidan davlat sudlariga murojaat qilmasdan kelishmovchiliklarni hal qilish uchun qo'llaniladigan metod va usullar majmui[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya instituti, hakamlar sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish makadlari belgilab olindi[2].

2018 yil 3 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni bilan mamlakatimiz qonunchiligiga nizolarni mediatsiya tartib-taomillari vositasida hal qilish usuli kirib keldi. Qonunning 3-moddasida mediatsiya tartib-tamoillari yakka mehnat nizolariga nisbatdan qo'llanilishi belgilangan[3].

Mediatsiya — kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida meriator ko'magida hal qilish usulidir. Bu nizolarni hal qilishning ixtiyoriy jarayoni bo'lib, unda tomonlar qanday masalalarni

ko‘rib chiqish va natija qanday bo‘lishini o‘zlari hal qilishadi – bu jarayonda tomonlar neytral uchinchi tomonni, muzokarlarda ularga yordam berish uchun vositachini taklif qilishadi.

Mehnat nizolarini hal etishning boshqa (muqobil) usullari qo‘llanila boshlashi bilan huquqimizga yangi tushuncha va atamalar kirib keldi. Bu esa, ularni ilmiy va amaliy ishlar doirasida o‘rganishni taqozo etmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarida mediyasiyaning quyidagi yondoshuvlari taklif etiladi:

kelishuv vositachiligi - vositachi tomonlarni o‘z pozitsiyalaridan chekinib, murosaga kelishlari uchun harakat qiladi;

engillashtirilgan vositachilik - asosan manfaatlar, ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradigan va o‘zaro maqbul kelishuvga erishish uchun tomonlar o‘rtasidagi aloqani osonlashtiradi. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nizo tomonlariga echimlarni taklif qilmaydi;

baholash vositachiligi - vositachi nafaqat muloqotni osonlashtiradi, balki tomonlarning pozitsiyalarini qonuniy-huquqiy va huquqlariga muvofiq baholashga asoslangan echimlarni taklif qilishi mumkin;

terapevtik vositachilik - vositachi kelajakda tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun muammoning asosiy sabablarini bartaraf etishga e‘tibor qaratishga intiladi[4].

Mediatsiyaning maqsadi aybdorlik yoki aybsizlikni belgilash yoxud javobgarlikka tortish emas, balki tomonlarga yordam berishdir. Mediator tomonlarga muammoning asl ildiziga borish va tomonlarning o‘zlari echim topishlariga yordam beradi, echim taklif qilmaydi. Bu mediator vositachilik qiladi, lekin qaror qilmaydi degani. Mediatorning nizoni hal qilishdagi roli jarayonni nazorat qilishi bilan belgilanadi. Taraflar mediatorga ishonishlari uchun neytrallik va xolislik zarur, ammo bunga erishish qiyin, chunki mediatorlar bu o‘tmishi va kelajagiga ega odamlardir[5].

Yakka mehnat nizolarini mediatsiyada ko‘rib chiqishda mediatorning roli:

- jarayonda ish munosabatlarini o‘rnatish va tomonlarni yechim topish uchun murosaga va hamkorlikka yo‘naltirish, bir-birlari bilan muloqatiga yordam berish;

- tomonlarga ularning manfaatlarini va ehtiyojlarini (ularning pozitsiyalari, talablari ortida) aniqlashga yordam berish va ikkala tomon uchun ham umumiy foyda olish variantlarini yaratish;

- mediator tomonlarni kelajakka e‘tibor qaratishga undashi kerak, chunki o‘tmish haqidagi suhbat munozaralar va his-tuyg‘ularni ayblovga qaratadi.

Mehnat nizolarini hal qilishning mediatsiya vositasi nizoni hal qilishning boshqa usullariga qaraganda quyidagi bir qator afzalliklarga ega:

- mediatsiya jarayoni qisqa muddatlarda amalga oshirilishi.

"Mediatsiya to'g'risida"gi qonunning 23-moddasiga asosan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvda belgilanadi. Bunda mediator va taraflar mediatsiya tartib-taomili o'ttiz kundan ortiq bo'lmagan muddatda tugallanishi uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rish kerak. Zarur bo'lgan taqdirda, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati taraflarning o'zaro roziligi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin. Qonun normasidan ham ko'rishimiz mumkinki, mediatsiya jarayoni muddati taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lib, kelishmovchilik yuzaga kelgan kunning o'zida ham hal qilinishi mumkin.

- ishga taalluqli barcha ma'lumotlar mutlaqo sir tutilishi.

Mediatsiya maxfiy xarakterga egadir. Odatda, tanlangan qoidalarda mediatsiya (davomida oshkor etilgan hollarda nizoning keyingi bosqichida, ya'ni sud jarayonida foydalanilmaydi, degan qoida mavjud bo'ladi. Agar qoidalarda bu nazarda tutilmagan bo'lsa, mediatsiya uchun ishlab chiqilmagan hujjatlarda keladigan doiradan tashqari, mediatsiya jarayonida oshkor qilingan har qanday narsani keyingi bosqichda qo'llash mumkin emasligi to'g'risida yozma ravishdagi kelishuv bo'lishi kerak[6].

-mediatsiya natijasida ikkala taraf uchun maqbul kelishuvga erishilishi.

Yakka mehnat nizolari mehnat nizolari komissiyasi yoki sudda ko'rib chiqilganda nizoni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror qabul qilinadi. Qaror qaysidir tarafning manfaatlarini ta'ninlashi, boshqa tarafga majburiyatlar yuklashi mumkin. Mediatsiyada esa ikkala taraf o'z manfaatlaridan kelib chiqib kelishuv tuzadi. Shuning uchun, mehnat nizolari komissiyasi va sud huquqlarga asoslangan jarayon sifatida qaralsa, mediatsiya manfaatlarga asoslangan jarayon sifatida qaraladi.

Shuningdek, mediatsiyani qo'llash sudlarda ish hajmining qisqarishiga, sud jarayoni bilan bo'g'liq protsessual harakatlar va xarajadlarning qisqarishiga olib keladi.

Vositachilik qilishning aniq usuli yo'q, ko'p narsa muayyan ish, vaziyat va tegishli masalalarga bog'liq. Yakka mehnat nizosini ko'rib chiqishda mediator vositachilik jarayoniga:

kirish va boshlanish bosqichida, tomonlarning ma'lumotlari, vositachilik maqsadi (qaror, tergov emas), ishtirokchilarning roli, muzokaralar mavzusini aniqlashi;

nizolarni aniqlashtirish uchun ma'lumot to'plash bosqichida, kelishmovchiliklarda ikkala tomon manfaatlarida qanday farqlar borligi va qanday ehtiyojlar qondirilmasligi to'g'risida o'zaro tushunishga erishish uchun tomonlar bilan qo'shma va yopiq muhokamalar o'tkazishi;

qiziqishlarga oydinlik kiritishda tomonlar bilan birgalikdagi va shaxsiy mashg'ulotlar o'tkazish, har bir tomon nima sodir bo'lishini istashini muhokama qilish va nizoning umumiy natijasi uchun har ikkala tomonning umumiy manfaatlarini topishga urinishi;

echimlarni ishlab chiqishda tomonlarni tinglash va har ikkala tomon bilan ular qanday qarorga kelishlari mumkinligi va qanday muammolar nizoni hal qilinishiga xalaqit berishi mumkinligini muhokama qilish, ikkala tomon uchun ham manfaatli echimni topishga harakat qilishi lozim[7].

Mediator qanday ko'nikmalar bo'lishi lozim?

Inson resurslarini boshqarish qobiliyatlari:

- yarashish va vositachilik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi va qo'llab-quvvatlaydi;

- muloqot ko'nikmalaridan foydalangan holda tushunishni shakllantiradi.

Jarayonlarni boshqarish bo'yicha ko'nikmalar:

- jarayon uchun xavfsiz va samarali asosni o'rnatadi va saqlaydi;

- mediatsiyaning barcha bosqichlarida samarali va tizimli ishlaydi.

Muammoni boshqarish qobiliyatlari:

- tomonlarga nizoning mazmuni va natijasini aniqlashga imkon beradi;

- tarkibni o'rganadi, tomonlarga variantlarni yaratishda yordam beradi va muzokaralarni osonlashtiradi.

Tomonlar kelishuvning imkoni yoq deb hisoblasa mediatsiya jarayonining har qanday bosqichida undan voz kechishi mumkin. Yakka mehnat nizolari bo'yicha mediatsiya jarayonida kelishmovchilikni hal qilish nizo tomonlariga bog'liq. Shuning uchun, nizo tomonlari bo'lgan ish beruvchi va xodim o'z talablari to'g'riligi haqida mediatorni emas, balki ikkinchi tomonni ishontirishga urinishi lozim. Mediator buni jarayon davomida tomonlarga eslatib turishi muhimdir. Mediatsiya kelishuvida vositachilik jarayonining asosiy qoidalarini aniqlab olish zarur (yozuvlarni yuritish, talablarni bildirish navbati, bir-biriga hurmat, jarayonning vaqtini yoki boshqa cheklolvarini kelishib olish, jarayonda tanafuslar, mediatsiya natijalarini rasmiylashtirish va boshqalar).

Mediatsiya nizolarni hal qilishning tez va samarali usuli bo'lsada, u ham kemchiliklardan holi emas:

Birinchidan, mediatsiya adolatni ta'minlash uchun emas, balki tomonlar uchun maqbul bo'lgan kelishuvni topishga intiladi. SHuning uchun, mediatsiya ko'pincha mehnat to'g'risidagi qonunchilik maqsadlariga mos kelmaydi (masalan, muvaffaqiyatli vositachilik murosaga kelishni talab qiladi va huquqlar bo'yicha tortishuvlarda bu ko'pincha huquqlarning cheklanishiga olib keladi).

Ikkinchidan, mediatsiya ko'pincha asosiy muammo yoki sababni emas, balki muammolarning belgilarini hal qilish bilan bog'liq. Natijada, ish beruvchilar kuchlar nisbatidagi farqdan foydalanib, ko'p hollarda muammoni hal qilish uchun xodimga bosim o'tkazishi yoki pul taklif qilishi mumkin;

Uchunchidan, mediatorlarning ko'nikma va malakalaridagi tengsizlikning mavjudligi. Mediatsiyaga tayyorgarlikdan qat'i nazar, mediatorlar ko'pincha avvalgi ko'nikmalarini aks ettiradigan vositachilar sifatida harakat qilishadi.

To'rtinchidan, mediativ amaliyot standartlari juda farq qiladi; qonuniy ravishda tasdiqlangan amaliyot standartlari va mediator sifatida harakat qilish standartlari yo'q[8] kabi kamchiliklarni aytib o'tish mumkin.

Mamalakatimiz qonunchiliga yangi kirib kelgan mediatsiya instituti bugungi kunda aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda nizolarni hal qilishning eng ko'p qo'llaniladigan va samarali usuliga aylangan. Masalan, hozirda AQSH da ko'rib chiqilgan nizolarning 5 foizdan kamrog'i to'liq sud muhokamasiga to'g'ri keladi. Ushbu statistikaning muhim omili mediatsiyadan muvaffaqiyatli foydalanish bo'lib, mediatsiyada ko'rilgan nizolar taxminan 80 foiz tomonlarning kelishuvi bilan ijobiy hal etilishiga olib kelgan[9].

Mediatsiya vositasida nizolarni hal qilish Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Yaponiya, Xitoy kabi jahonning ko'pchilik mamlakatlarida tashkil etilgan va samarali faoliyat olib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, mehnat qonunchiligimizda mehnat nizolarini hal qilishning yarashtirish va vositachilik usuli faqat umumiy normalar doirasida belgilanishi, mehnat nizolarini hal qilishning hakamlik usuli joriy etilmaganligi bugungi kunda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. SHularni inobatga olib, mehnat qonun hujjatlarining mehnat nizolarini ko'rib chiqish va hal etish bilan bog'liq normalarini qayta ko'rib chiqish, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rgangan holda mehnat qonunchiligiga mehnat nizolarini hal etishning yarashtirish, vositachilik

va hakamlik usullarini belgilovchi normalar kiritish lozim bo‘ladi. Chunonchi, mehnat nizolarni hal etish xodimlarning mehnat huquqlari himoya qilinishini ta’minlashning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Бережнов.А.А. Досудебный порядок разрешения индивидуальных трудовых споров. дисс. . канд. юрид. наук. 2012.
2. Шумова.К.А. Принципы медиации дисс..канд. юрид. наук. Саратов – 2015
3. Елисеев.Д.Б. Роль медиации в разрешении правовых конфликтов: теоретико-правовой анализ. дисс. . канд. юрид. наук. 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020 y., 07/20/4754/0771-son)
5. O‘zbekiston Respublikasining Mediatsiya to‘g‘risidagi qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son)
6. <https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public>. A.Kumar. Mediation in Labour Relations. ILO. Bangkok.
7. Margaret L.Mozes. Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amalyoti. Uchunchi nashr./ T.: Lesson press, -502 bet.
8. <https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/> Resolving individual labour disputes: a comparative overview / edited by Minawa Ebisui, Sean Cooney, Colin Fenwick ; International Labour Office. - Geneva: ILO, 2016.
9. <https://www.skuld.com/topics/legal/> US vs UK - a comparison of mediation processes

НАУЧНОЕ ОБОСНОВАНИЕ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ НА БОЛЬШИХ ВЫСОТАХ В УСЛОВИЯХ КАЛЬМАКЫР КОНИ

*Алмалыкский филиал МТТУ «МИСиС»
к.э.н., проф. Носиров Уткир Фатидинович
Усмонова Хумора Султон кизи
Магистр Алмалыкского филиала Ташкентского
государственного технического университета*

***Аннотация:** В статье рассматривается обоснование технической возможности повышения эффективности буровзрывных работ на карьерах за счет оптимизации параметров в различных горно-геологических условиях, а также создание новых конструкций скважинных зарядов, снижающих вредное воздействие на окружающую среду.*

***Ключевые слова:** Технология, разработка, месторождение, дробление горной массы, карьер, скважинные заряды, буровзрывные работы, охрана окружающей среды.*

***Abstract:** The article discusses the substantiation of the technical feasibility of increasing the efficiency of drilling and blasting operations in open pits by optimizing parameters in various mining and geological conditions, as well as the creation of new designs of borehole charges that reduce the harmful impact on the environment.*

***Key words:** Technology, development, deposit, crushing of rock mass, quarry, borehole charges, drilling and blasting operations, environmental protection.*

ВСТУПЛЕНИЕ

Проблема управления взрывом в горных породах для достижения необходимых технологических эффектов для горнодобывающих предприятий является основной.

Использование энергии ВВ на полезные формы работы до сих пор остается недостаточным, составляя не более 10-12% потенциальной энергии зарядов. Повышение энергоотдачи в массив может увеличивать сейсмоколебания, представляющих опасность для наземных сооружений. В настоящее время снижение вредных воздействий взрыва достигается ограничением массы заряда ВВ в блоках, что в итоге снижает экономическую эффективность БВР в целом. Следовательно, совершенствование методов управления энергией взрыва является актуальной научно-технической задачей.

При массовых промышленных взрывных работах образуются сейсмические, ударно-воздушные волны и пылегазовое облако, которые отрицательно воздействуют на окружающую среду, здания, сооружения и людей. Поэтому правильное прогнозирование подобных явлений является актуальной проблемой.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ

В процессе написания статьи использовались методы логики, анализа, синтеза и объективности научного знания. В условиях месторождения Калмакир объективно проанализировано научное обоснование проведения буровых работ в верхней шестерке.

Анализ технологии открытых горных работ позволяет выделить две наиболее существенные проблемы, связанные с БВР, - обеспечение требуемой степени дробления пород и устойчивости долговременных откосов уступов и бортов карьеров и горно-строительных выработок.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Необходимость достижения требуемой степени дробления обусловлена отмеченным выше влиянием качества взорванной горной массы на производительность последующих горно-технологических процессов. Кроме того, в промышленном строительстве требования к качеству взорванной массы нередко ужесточаются техническими условиями, исходя из функциональных особенностей строящихся объектов. Например, в гидротехническом строительстве для отсыпки конструктивных призм плотин необходимо использовать горную массу заданного гранулометрического состава, обеспечивающего высокую плотность её укладки.

В результате исследований отечественных и зарубежных учёных установлены механизм взрывного разрушения горных пород и характер зависимости степени их дробления от структуры массива, крепости пород, технологических факторов. Но применяемые в настоящее время эмпирические формулы для расчёта параметров БВР являются весьма ориентировочными, а рассчитанные по ним параметры корректируются путём проведения дорогостоящих опытно-промышленных работ.

АО «Алмалыкский ГМК» является одним из крупнейших горно-металлургических предприятий в Республике Узбекистан.

Производственные мощности комбината базируются на запасах группы медно-порфировых, свинцово-цинковых и золото-серебряных месторождений, располагающихся на территориях Ташкентской, Джизакской, Наманганской

областей Республики Узбекистан. Медно-порфировые золото и молибден содержащие месторождения «Кальмакыр» и «Сары-Чеку» обеспечивают сырьем медную ветвь комбината где перерабатываются руды «Кальмакыр» на медной обогатительной фабрике (МОФ), руды Сары-Чеку на медной обогатительной фабрике 2 (МОФ-2), концентраты которых перерабатываются на медеплавильном заводе. Месторождение Дальнее - резервное.

В состав комбината входят: восемь горнодобывающих предприятий, четыре обогатительные фабрики, два металлургических завода, сернокислотные производства, ремонтно-механический и известковый заводы, автотранспортное управление с четырьмя автобазами, управление железнодорожного транспорта, управления по производству товаров народного потребления, а также более двадцати вспомогательных цехов.

АО «Алмалыкский ГМК» горно-металлургическое предприятие в городе Алмалыке Ташкентской области, одно из крупнейших горно-металлургических предприятий в Узбекистане, производитель порядка 90 % серебра и 20 % золота в Узбекистане, крупнейший производитель меди в Центральной Азии.

Основополагающим производством на карьере «Кальмакыр» является добыча полезных ископаемых. Осуществляется добыча руды месторождения меднопорфировые. Распределение меди и попутных компонентов в пределах штокверка неравномерное. Основную промышленную ценность руд месторождения Кальмакыр составляют медь, молибден, благородные металлы, а также сера, селен, теллур, рений.

Рудное тело месторождения Кальмакыр представляет собой штокверк, по форме напоминающий гигантский опрокинутый конус, несколько удлиненный в северо-западном направлении, с практически безрудной внутренней частью, сложенной гранодиорит-порфирами. Границы штокверка определяются только по данным опробования. Вертикальный размах оруднения измеряется сотнями метров.

На глубине рудное тело разбивается на отдельные «языки» и выклинивается. Однако скважины, пройденные до глубины 800 м, полностью безрудных пород не достигли. Наиболее богатые руды на каждом горизонте располагаются непосредственно вблизи «безрудного ядра». По мере движения к периферии они сменяются кольцевыми полями более бедных руд. Отрабатываемый карьер «Кальмакыр» относится к типу нагорных карьеров. Вскрышные породы карьера представлены суглинками, глинами и гравийно-

песчаными отложениями. Карьер вскрыт полутраншеей, пройденной по склону балки. От полутраншеи устроены заезды на горизонты. Направление продвижения фронта работ - с севера на юг, высота рабочих уступов 7 м, количество рядов скважин при ведении буровзрывных работ - 2-8 штук.

Угол откоса добычного уступа - 75°.

Тип добычного оборудования- экскаватор ЭКГ-5А, фронтальный пневмоколесный погрузчик Caterpillar-980G(H).

Длина фронта уступа равна 280 м.

Среднее годовое продвижение фронта добычных работ составит 360м. Полезное ископаемое карьера, подлежащее рыхлению буровзрывным способом, относится к IV-V группе грунтов по ЕНиР, вскрышные породы в карстах - к II группе по ЕНиР.

Взрывные работы на карьере ведутся с ЗВМ АО «АГМК».

Буровые работы производятся хозяйственным способом силами персонала карьера, ведутся в две смены.

В качестве бурового оборудования на карьере используются буровые станки вращательного бурения шнековые и с погружным пневмоударником типа СБШ-250, СБР-160, ВР Titon-30QR, с диаметром скважин 90-160 мм.

Учитывая горно-геологические условия, необходимый объем добычи, требуемую степень дробления, наличие бурового оборудования и имеющийся опыт работы в качестве основного метода взрывных работ принимается метод наклонных скважинных зарядов . Количество рядов при короткозамедленном взрывании зависит от технологии работы в карьере. Взрывание зарядов короткозамедленное (КЗВ). Схема КЗВ - порядная.

Под КЗВ понимают поочередное взрывание зарядов или группы зарядов взрывчатого вещества (ВВ) с интервалами замедления до 250 м/сек.

Применение КЗВ позволяет:

- снизить сейсмический эффект взрыва;
- улучшить качество дробления взрываемого массива;
- уменьшить выход негабарита;
- увеличить выход горной массы с единицы длины скважины или
- уменьшить расход ВВ в тех случаях , когда улучшение дробления не требуется и др.

В последнее время на карьере Узбекского комбината развивается горнотехническое компьютерное моделирование, позволяющее видеть

практически все технологические процессы горного производства и спроектировать или откорректировать их на математической модели.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В карьере широкое развитие компьютерных технологий управления открытыми горными работами коренным образом изменило характер горнодобывающего комплекса, адаптировало его к изменяющимся горнотехническим условиям. Перспективы открытых разработок месторождений связаны с оптимизацией параметров горных работ и оборудования, применением техники непрерывного действия, комплексным использованием добытой горной массы, переходом на большие глубины, широким применением автоматизированных систем и методов управления, внедрением малоотходных и ресурсосберегающих технологий.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Правила безопасности при разработке месторождений полезных ископаемых открытым способом. Ташкент, 2016г.

2. Мирзаева Ф.Ж. Исследования методов борьбы с пылегазовыми выбросами при массовых взрывах в глубоких карьерах. «Горный вестник Узбекистана», № 5, 2014г

UDK:57(07)+370.152

**O'RTA TA'LIM MUASSASALARINING 11-SINF VA O'RTA MAXSUS,
KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARI O'QUVCHILARI UCHUN
"BIOLOGIYA" DARSLIGINING METODIK KOMPONENTLARI HAQIDA
BA'ZI MULOHAZALAR**

Ahmedova Odinoxon Hatamovna

Assistent teacher in Andijan State University

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna

Assistent teacher in Andijan State University

Sobirov Ozodbek Tojimatovich

*Senior Lecturer, Andijan State University, Doctor of Philosophy in
Biological Sciences (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablari 11-sinf biologiya darsligi metodik komponentlari, o'quvchilarni mavzularni o'rganishda mustaqilliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyati ko'rsatiladi. Jumladan, darslikda "Bilimlaringizni qo'llang", "Atamalar ma'nosini yozib oling", "O'z fikringizni bayon eting", 5-ta laboratoriya mashg'uloti o'tkazishning yo'riqnomalari, 74 ta rangli rasmlarni berilishi mavzular mazmunini oson tushunishga xizmat qilishi kabilar darslikning metodik komponentlari talab darajasida ekanligini ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: darsliklarning yangi avlodi, axborot tizimi va modeli, "Ekologiya va hayot", Organik olam filogenezi, iyerarxik tuzilish, Biogeotsenoz, ekosistema, Sun'iy ekosistema, avtotrof, geterotrof.

Аннотация: В статье освещены методические компоненты учебника биологии для 11 класса в общеобразовательных школах, важность развития у учащихся самостоятельности в изучении тем. В частности, в учебнике показано, что методические компоненты учебника востребованы, такие как «Примените свои знания», «Запишите значение терминов», «Выскажите свое мнение», инструкции для 5 лабораторных занятий, 74 цветных рисунка на сделать содержание более понятным.

Ключевые слова: учебники нового поколения, информационная система и модель, «Экология и жизнь», Филогения органической Вселенной, Иерархическая структура, Биогеоценоз, Экосистема, Искусственная экосистема, Автотрофный, Гетеротрофный.

Abstract: The article highlights the methodological components of the 11th grade biology textbook in secondary schools, the importance of developing students' independence in learning topics. In particular, the textbook includes "Apply your

knowledge", "Write down the meaning of terms", "Express your opinion", instructions for 5 laboratory classes, 74 color pictures. it is indicated that the methodological components of the textbook are at the required level.

Keywords: *new generation of textbooks, information system and model, "Ecology and life", phylogeny of the organic world, hierarchical structure, biogeocenosis, ecosystem, artificial ecosystem, autotroph, heterotroph.*

KIRISH

Respublikamizda Davlat ta'lim standartlari talablari asosida darsliklarning yangi avlodini yaratish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi zamon ta'limi nazariyasiga ko'ra, darslik-ko'p qirrali axborot tizimi va o'quv jarayonini tashkil qilish vositasi hisoblanadi. Endilikda darsliklar o'quvchilarga bilim berishnigina emas, balki, o'quvchilarni tarbiyalash, axborot berish, rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash, o'quvchi o'z bilimlarni tekshirish, baholash kabi vazifalarni ham amalga oshirishga xizmat qilishi talab qilinmoqda. Undan tashqari, darslik o'quvchilarga fan asoslarini mustaqil o'rganishga ularning darslik ustida amaliy ishlash qobiliyatlarini rivojlanishiga xizmat qiladigan vosita bo'lishi kerakligiga e'tibor kuchaymoqda.

MATERIAL VA TADQIQOT USLUBLARI

Adabiyotlarda darsliklar va ularning tuzilishlari, vazifalariga oid turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, D. D.Zuev [7] "Turli fan sohalariga oid bilimlarni ayni zamon fani va ishlab chiqarishidagi yutuqlarini o'zida ma'lum xajm va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qiluvchi o'quv kitobidir", deb ta'riflaydi. V.P Bepalko [6] mustaqillik insonlarning bir ishni boshqa kishi yordamisiz bajarishi ekanligi, jumladan, o'qituvchining yangi o'rganilgan mavzuni o'quvchilar yanada puxta o'zlashtirishi uchun bir qator amaliy ish bajarishga yo'naltirilgan topshiriqlari ekanligi ko'rsatadi.

S. G.Antonova va L.G. Tyurinalar [4] esa darsliklarni metodik komponentlarni ishlashda mazkur darsliklarni oldingi yillarda chop etilganlaridagi ijobiy metodik komponentlaridan foydalanish zarurligini takidlashadi. O.Ahmedova va K.Zokirovlar [5] 10-sinf biologiya darsligida berilgan metodik komponentlarni yutuq va ba'zi kamchiliklar to'g'risida o'z mulohazaalarini bildirishadi. Z.A. Mendubaeva esa [9] Darsliklarni metodik komponentlarni ishlashda mavzularni mantiqiy bog'lanishlari, o'quv ularning vositalarini to'g'ri tanlash, darslarning tiplari, tarkibini hisobga olish muhim vazifalardan ekanligini ko'rsatishadi. E.S. Sikalo [10] darsliklar tarkibi asosiy, qo'shimcha va izohlovchi matnlar va matndan tashqari komponentlardan tashkil topishini ko'rsatsa, T.N. Glubsheva va S.D. Chernyaevskixlar [6] esa darsliklarning ta'lim jarayonidagi vazifalari to'g'risida mulohazalarni bildirishadi

Avvalgi yillarda nashr qilingan darsliklarning ko'pchiligida o'quvchilarni undagi tayyor bilimlarni o'rganib ulardagi mavzularni aytib berishnigina ko'zda tutilib dars mazmuni mustaqil o'rganish, fikrlash, ijodiy izlanish kabi xususiyatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik komponentlariga etarli e'tibor berilmas edi. SHu sababli zamon talabarlari darsliklarning yangi avlodini yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ayniqsa O'zbekiston respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805 sonli qarori [1] hamda O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 05.04.2019 y. № 281 sonli qarori [2] darsliklarning zamon talablariga to'la javob beradigan yangi avlodlarni yaratishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi.

Ta'limda "Yomon o'qituvchi mavzuni bayon qiladi. Yaxshi o'qituvchi esa o'quvchiga mavzu mazmunini o'zi mustaqil izlab topishga yo'naltiradi" degan naqlga ko'ra ta'limda o'quvchilarning mustaqil ishlarini nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Fransuz yozuvchisi Anatol Frans romanidagi qaxramonlardan biri: - "Bilimlarni hazm qilish uchun ularni ishtaxa bilan eyish kerak" degan fikri ham ta'limda mustaqillikni ahamiyatini ko'rsatishga misol bo'ladi. SHu sababli endilikda darsliklardan o'quvchilarni mustaqil, samarali foydalanishga xizmat qiluvchi metodik komponentlarini yaxshilash borasida ishlarga e'tibor tobora kuchaymoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyotlarda darslikka ta'lim jarayonining axborot tizimi va modeli deb ta'rif beriladi. Hozirgi zamon ta'limi nazariyasiga ko'ra darslik-ko'p qirrali ahborot tizimi va o'quv jarayonini tashkil qilish vositasidir. Shu sababli darsliklar zamon talablariga mos ravishda o'quvchilarga bilim berish vazifasinigina emas, balki, o'quvchilarni tarbiyalash, axborot berish, rivojlantiruvchi, bilimlarni asoslovchi mustahkamlovchi, o'quvchi o'z bilimlarni tekshirish, baholash kabilarni bajarish kabilarni amalga oshirishga ham xizmat qilishi kerak.

Boshqa fanlarda bo'lgani kabi biologiya ta'limida ham darsliklar eng muhim o'qitish vositasi hisoblanib, undan o'quvchilar muayyan fanlar bo'yicha ilmiy bilimlarni o'rganib olishadi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda biologiya darsligi-tirik organizmlarning turli xil vakillarining tarqalishi, tuzilishi, hayot jarayonlari, xilma-xilliklari, ahamiyati, kabi bilimlarni tizimli aks etgan namunasi sanaladi. Darslikda biologiya sohasidagi ayrim o'simlik, hayvon, odam, sitologiya va genetika, biologiya fanlarni o'rganishda o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalarning tizimi, mazmuni, xajmi kabilarni ko'rsatiladi. Darslik-o'quv kitobi bo'lib u ma'lum yosh va tayyorgarlikdagi o'quvchilarga mo'ljallanib, tirik organizmlarning muayyan guruhlari

bo'yicha zamonaviy fan qo'lga kiritgan ma'lumotlar, ishlab chiqarishdagi yangiliklardan tanlab olingan materiallardan tashkil topadi.

Ma'lumki, darsliklar tarkibi matn, matndan tashqari komponentlardan tashkil topadi. Matn ham o'z navbatida asosiy va qo'shimcha matnlarga ajraladi. Darslikning asosiy matni Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablari bo'yicha turli fanlarni zamonaviy yutuqlarini o'z ichiga olgan, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan asosiy tushunchalarning guruhlaridan iborat bo'lsa, qo'shimcha matn esa o'quvchilar o'zlashtirishlari shart bo'lmagan, biologiyaga qiziqqan o'quvchilar o'zlashtirib olishlari uchun beriladi. Qo'shimcha materiallarga misol sifatida fanda ba'zi kashfiyotlarni ochilish tarixi, ayrim olimlar, ularning hayoti, ijodi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ta'limda mavzularni o'rganishda o'quvchilarning mustaqilliklarini rivojlantirishda darsliklardagi matndan tashqari qismi-metodik komponentlari muhim ahamiyat kasb etadi. Darsliklarning metodik komponentlari darslik bilan ishlash qoidalari, shartli belgilar, rasmlar, jadvallar, mundarija, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar, uy vazifalarini bajarishga oid yo'riqlar kabi uslubiy ko'rsatmalardan tashkil topadi. Matndan tashqari komponentlar o'quvchilarni darslikda berilgan mavzularni mustaqil, amaliy ravishda o'rganishlariga, darslik bilan ishlash malakalarini rivojlanishiga imkon beradi. SHu sababli endilikda mualliflar darsliklarning yangi avlodlarini yaratishda ularda berilgan nazariy materiallarni o'quvchilar qiynalmay, osonlik bilan o'zlashtirib olishlariga xizmat qiluvchi metodik komponentlarini tubdan yaxshilash, takomillashtirishga harakat qilmoqdalar. Yuqoridagi fikrlarimizga dalil sifatida biz umumta'lim maktablari 11 sinflari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun chop etilgan biologiya darsligining **(Biologiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik:1-nashr /Mualliflar: A. G'afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova. – T.: «Sharq», 2018. – 240b.)** metodik komponentlari to'g'risida ba'zi mulohazalarimizni bayon qilamiz .

Darslik 240 sahifadagi "Ekologiya va hayot", Hayotning ekosistema darajasining umumbiologik qonuniyatlari", "Hayotning biosfera darajasining umumbiologik qonuniyatlari", "Organik olam filogenezi" kabi to'rtta bob, 42 ta paragraf materiallaridan tashkil topgan.

Mavzular tizimli tanlanganligi tufayli barcha bob, paragraflarda berilgan o'quv materiallari bir-birlari bilan mantiqan bir butunlikni hosil qilgan.

Mualliflar darslikning metodik unsurlari masalasiga jiddiy e'tibor berganlar. Avvalo ular darslikdagi har bir bob materiallarini boshlanishida o'quvchilarga qarata mazkur bob materiallarni o'rganishda ular qanday ilmiy bilimlarga ega bo'lishlarini

ko'rsatishadi. Masalan, birinchi bob boshlanishida o'quvchilarga qarata: "1-bob mazmuni bilan tanishib Siz:

- tirik organizmlarning tizimli tuzilishi, asosiy xususiyatlari va ahamiyatini tavsiflay olishingiz;

-biologik sistemalarning iyerarxik tuzilishi va umumiy xossalarini tushuntira olishingiz;

-ekologiyaning vazifalarini tahlil qila olishingiz;

-tirik organizmlar tuzilish darajalarining o'ziga xos jihatlari o'zaro qiyoslay olishingiz zarur deyilgan. Bu esa o'quvchilar bob materiallarni o'rganishga kirishganlarida undagi eng muhim ilmiy materiallarni nimalardan iborat ekanligini bilib, ko'rsatilgan bu bilimlar tizimini o'zlashtirib olishlariga chorlaydi.

Darslikning metodik komponentlaridan yana biri har bir mavzu boshlanishidagi o'quvchilarga qarata "Bilimlaringizni qo'llang" deyilgan ko'rsatmasidir. Masalan, darslikning ikkinchi paragrafi " Ekologiyaning rivojlanishi,bo'limlari va metodlari" deb nomlangan. Unda o'quvchilarga qarata: Nima uchun insonga atrofdagi organizmlarning hayot tarzi haqidagi bilimlar zarur deb o'ylaysiz?

• *Bu bilimlardan qayerda foydalaniladi?*

• *Qanday ekologik muammolarni bilasiz?*

• *Nima uchun jamiyatning har bir a'zosi ekologik bilimlarga ega bo'lishi kerak?* degan ko'rsatmalar berilgan.

Har bir o'quv fani ma'lum tartibga keltirilgan tushunchalar mushtarakligidan iborat bo'ladi. Mazkur tushunchalar esa asta rivojlanib mavzudan mavzuga, boblardan boblarga, fanlardan boshqa fanlarga o'tganda ham takrorlanib, rivojlanib ma'lum xajmdagi bilim zahiralarga ega bo'ladi. Masalan, 7-sinf zoologiyasidagi turli hayvonlarning tarqalishi, yashash xususiyatlari, 10-sinf biologiyasidagi "Biologik tizimlar xaqida", "Hayotning organizm darjasidagi umumbiologik qonuniyatlar" kabi mavzular 11 sinfdagi "Ekosistemalarning tarkibiy qismlari" mavzusini o'rganishda foydalanishni taqazo etadi. Binobarin, yangi mavzuni o'rganishda o'quvchilardan boshqa fanlardan o'zlashtirib olgan bilimlarni eslash, bu bilimlarni esa yangi o'rganiladigan mavzu bilan bog'lash didaktikaning bilimlarni o'zlashtirishda sistemalili tamoyilini amalga oshirish, ta'limda biologik tushunchalarni rivojlantirib o'rganishdek muhim talablarni amalga oshirishga xizmat qiladi. YUqoridagi fikr mulohazalarga asoslanib biz darslikdagi o'quvchilarga qarata: "Tayanch bilimlaringizni qo'llang" deyilgan ko'rsatmasini mualliflar va darslikning yutuqlaridan biri deb hisoblaymiz.

Darslikdagi “Atamalarning ma’nosini yozib oling” ko’rsatmasi ham darslikning metodik komponentlarini sifat jihatdan yanada takomillashuviga hamda mualliflarning o’rganilgan mavzu bo’yicha o’quvchilarni bilim va malakalarini analiz-sintez qilib rivojlantirishga qaratilgan savollar tuzganliklarida ko’rinadi. Masalan, “Ekosistemalarning tarkibiy qismlari” mavzusi o’rganilgandan so’ng o’quvchilarga

1. «Biogeotsenoz» va «ekosistema» tushunchalarini taqqoslang. Ular o’rtasidagi umumiylik va farqni aniqlang.

2. Produtsentlarning ekosistemadagi ahamiyatini aytib bering? Fototrof va xemotrof organizmlarga misol keltiring.

3. Redutsentlarning ekosistemadagi vazifalarini misollar asosida izohlang.

4. Biogeotsenozlarning o’z-o’zini tiklashi va barqarorligi kabi ko’rsatkichlarining mohiyatini tushuntiring.

5. Biogeotsenozlarning o’z-o’zini boshqarishi deganda nimani tushunasiz?

kabi berilgan topshiriqlarga javoblar topishda albatta mazkur mavzudagi materiallar ichidagi eng muhim tushunchalarni ajaratib, ularni mohiyatlari, bu tushunchalar orasidagi o’zaro bog’lanishlarni topishlari, mazkur bog’lanishlar natijasida mavzudan kelib chiqadigan ilmiy-nazariy xulosalar qilishlariga xizmat qilishi tayin.

Darslikdagi “O’z fikringizni bayon eting” deb nomlangan topshiriqda o’quvchilarni mavzuni yanada teranroq o’rganib, shaxsiy fikr-mulohazalar chiqarishga yo’naltirilgan jadvallarni to’ldirishga qaratilgan topshiriq ham o’quvchilarning ayni mavzularni mustaqil, puxta o’zlashtirib olishlariga imkon beradi, deb hisoblaymiz

Ma’lumki, insonning bilish qobiliyati dastlab uning sezgilari orqali amalga oshadi. Binobarin, darsliklardagi mavzularni tushuntirishda matnlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, ularga ilova qilingan rasm, sxema, jadvallar ham o’z vazifalari, ahamiyatlariga ko’ra xuddi shunday qimmatli bo’lib, ular o’quv materiali mazmunini ko’rgazmali ravishda isbotlash, mavzuda berilgan asosiy tushunchalarni oson o’zlashtirish, murakkab biologik tuzilmalarning tarkiblarini bilib olish, o’rganilayotgan mavzudagi o’simlik va hayvonlarning morfologik, anatomik, tuzilish xususiyatlarni idrok qilish kabi muhim ta’limiy vazifalarni bajarishiga xizmat qilishi ayni haqiqatdir. Zero darsliklardagi bilim manbai vazifasini o’tashida matnlar qanchalik ahamiyatga ega bo’lsa, ularga ilova qilingan rasmlar ham o’z vazifasiga ko’ra xuddi shunday qimmatga ega bo’ladi. SHu sababli biz mazkur darslikdagi asosiy matnni o’rganishga ilova qilingan rasmlar to’g’risida ba’zi mulohazalarga to’xtalamiz

Darslikda asosiy matnni tushuntirish va izohlashga mo'ljallangan 74 ta rangli rasmlar berilgan. Mualliflar darslikni rasmlar bilan bezalishiga anchayin ko'p mexnat qilganliklari, tanlagan rasmlar o'rganiladigan mavzular mazmuniga mos ekanligini ko'rinadi. Mualliflar mavzu materiallari va undagi eng asosiy tushunchalarni ko'rgazmali izohlanishiga xizmat qiladigan rasmlar tanlashgan. Darslikda berilgan rangli rasmlarning o'quvchilar o'rganadigan mavzu to'g'risida dastlabki tasavvurlar hosil bo'lishiga xizmat qilishi tayin (jadval).

Jadval

Darslikda paragraflarga ilova qilingan rasmlar soni

№	11 – sinf darsligida berilgan boblar	Boblardagi paragraflar soni	Paragraflardagi rasmlar soni	
			rangli	rangsiz
1	I BOB. Ekologiya va hayot	2	1	-
2	II BOB. Hayotning ekosistema darajasidagi umumbiologik qonuniyatlar	21	33	1
3	III. BOB. Hayotning biosfera darajasining umumbiologik qonuniyatlari	11	22	
4	VI. BOB. Organik olam filogenezi	10	17	

Jadvaldan ko'rinib turganidek darslikdagi to'rtta bob, 34 ta paragraf mazmunini boyitishga 74 ta rangli, bitta rangsiz rasm ilova qilingan. Rasmlarning barchasi o'quvchilarni o'rganiladigan mavzu mazmunini oson tushunishga xizmat qilishi shubhasizdir. Xususan hayotning ekosistema darajasidagi umumbiologik qonuniyatlar bobidagi 21 ta paragraf mavzulari uchun berilgan 3-rasm o'quvchilarni avtotrof, geterotrof organizmlarni yaqqol ajaratib o'rganib olishlariga, 5-rasm esa o'quvchilarni suv muhiti hayvonlari to'g'risidagi mavzu materiallarini ko'rgazmali idrok etishlariga, 6-rasm quruqlik va havo muhiti tirik organiizmlari to'g'risidagi mavzu materiallarini mazkur muhitda tarqalgan turli hayvonlar misolida puxta o'zlashtirib olishlariga imkon beradi. Ulardan tashqari "Biosferada modda va energiyaning almashinuvi" mavzusi uchun ilova qilingan 44, 45, 49, hayvonlarning teri qoplamlarining tuzilishini o'rganish uchun tanlangan 63-67 rasmlar ham mavzular mohiyatini yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz

Darslikda 5 ta laboratoiya mashg'ulotlari mavzulari berilgan. Ushbu laboratoriya mashg'ulotlarni bajarish o'quvchilarni mavzu materiallarni amaliy ishlar

vositasida mustahkam o'rganish, fikriy, malakaviy, salohiyatlarni yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Darslik ohirida asosiy terminlar lug'ati berilgan. Mundarijada mavzuga kiritilgan 4 ta boblarni ko'k rangda berilishi o'quvchilarni o'zlariga kerakli bob, mavzularni oson topib olishlariga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda darslikning metodik unsurlarida ba'zi noaniqroq topshiriqlar borligini ko'rdik. Jumladan, oltinchi paragraf "Quruqlik, havo, tuproq, tirik organizmlar yashash muhitlari sifatida" mavzusida berilgan mustaqil ishda jadval to'ldirish berilgan. Unda manta, qizilto'sh, tillarang erqazar, rishta, omar, aureliya nereida kabi hayvonlarni yashash muhitlarini aniqlab jadvalga tushirish topshirilgan. Biroq, mazkur mavzudagi matnda yuqorida ko'rsatilgan hayvonlar to'g'risida materiallar berilmay, mustaqil ish topshirig'ini qanday bajarish ko'rsatilmagan. Bizningcha mualliflar ushbu topshiriqda berilgan hayvonlar qaysi adabiyotlar berilganligini ko'rsatib qo'ysalar bo'larmidi, degimiz keldi. SHunday noaniqroq topshiriqlar darslikdagi 1-laboratoriya mashg'ulotini bajarishga oid ko'rsatmada ham uchradi. Ko'rsatmada "O'simliklarni o'sishi va rivojlanishi ustida kuzatish olib boring. Kuzatish natijalarini har hafta jadvalga yozib boring" deyilgan. Biroq o'simliklarni o'sishi va rivojlanishini o'quvchilar qanday tashkil qilishlari, o'tkazish metodikasi to'g'risida yo'riqlar berilmagan. Masalan, 21 paragraf "Sun'iy ekosistemalar "mavzusidagi metodik komponentlardagi "O'z fikringizni bildiring" ruknidagi "SHaxar florasi va va faunasi uchun xos bo'lgan asosiy belgilarni aytib bering. Ulardagi moslanishlar qanday paydo bo'lgan? deyilgan topshiriq o'quvchilar uchun anchayin qiyin, mushkulroq emasmi? Bizningcha bu topshiriqni o'quvchilarga soddaroq, tushunarliroq berilib, unga javob topishda qanday materiallar, vositalardan foydalanish ko'rsatilsa maqsadga muvofiq bo'larmidi.

XULOSA

Bizningcha darslikdagi yuqoridagi fikrlarimiz darslikning metodik komponentlarning sifati, qiymatiga aslo ta'sir etmaydi. Mulohazalarimiz mualliflarga manzur bo'lsa ularni darslikning keyingi nashrida e'tiborga olinar, deb o'ylaymiz. Zero, Respublikamiz Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805, O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 05.04.2019 y. № 281 sonli qarorlari ham mualliflarni zamon talabalariga to'la javob beradigan darsliklarning yangi avlodlarini yaratishdek hayrli, dolzarb vazifalarni bajarishga undaydi.

YUqoridagi fikr-mulohazalarga asosan biz umumta'lim maktablari 11-sinf o'quvchilari uchun chop etilgan biologiya darsligi mualliflarining darsliklarni yangi avlodlarini yaratish, takomillashtirishga qo'shgan salmoqli xissalari deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Sh.Mirziyoyev “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805 sonli qaror
2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining “Umumta‘lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 05.04.2019 y.№ 281 sonli qarori
3. A. Abdulkarimov, J. Tolipova, O. Ishonqulova, M. Umaraliev, I. Abdurahmonova. Biologiya O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririya, Toshkent-2018.
4. Антонова С.Г., Тюрина Л.Г. Современная учебная книга. Создание учебной литературы нового поколения. Москва 2001
5. O.Ahmedova, K.Zokirov. O‘rta ta‘lim 10-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilari uchun “Biologiya darsligining metodik komponentlari haqida ba‘zi muloxazalar” Collection of Scientific Works WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "Science", 2021.114-119 betlar
6. Беспалько, В.П. Качество и эффективность учебника. Народное образование. 2007. - № 8.
7. Д. Д. Зуев. Некоторые проблемы структуры школьного учебника. М., Просвещение, 1975
8. Т.Н. Глубшева, С.Д. Черняевских. «Лабораторные работы по методике преподавания биологии. Методические рекомендации Белгород, НИУ БелГУ» 2016
9. Мендубаева, З. А. Структура учебно-методического комплекса Актуальные задачи педагогики : материалы I Междунар. науч. конф. Чита : Издательство Молодой ученый, 2011
10. Е.С. Цикало. Практикум по методике обучения биологии. Москва. Владимир: – 2013

NUTQ MADANIYATI VA RADIOJURNALIST NUTQI

Qobilova Mahbuba Mo'minjonovna

TerDu, Lingvistika:

o'zbek tili I bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq madaniyati tushunchasi va uning radiojurnalistikadagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Bugungi kun radiojurnalistik nutqi aniq va lo'nda, qat'iy tartiblangan, barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ayniqsa jurnalist fikr va so'z odobini chuqur egallagan bo'lishi lozim. So'zlarni o'z o'rnida ishlatish so'zning ta'sirchanligini oshiradi, voqea mohiyatini tez ilg'ab olishga xizmat qiladi*

Kalit so'zlar: *Til, nutq, nutq odobi, notiqlik san'ati, adabiy til*

Abstract: *This article discussed the concept of speech and its importance in radio journalism. Today's radio journalism speech should be clear and concise, strictly organized, understandable to all. In particular, the journalist must have a deep understanding of thought and etiquette. Using words in their place increases the effectiveness of the word, helps to quickly grasp the essence of the event*

Keywords: *language, speech, etiquette, oratory, literary language*

Аннотация: *В этой статье обсуждается концепция речевой культуры и ее значение в радиожурналистике. Сегодняшнее выступление радиожурналистов должно быть четким и лаконичным, строго организованным, понятным для всех. В частности, журналист должен хорошо разбираться в мышлении и этикете. Использование вместо них слов повышает действенность слова, помогает быстро уловить суть события.*

Ключевые слова: *Язык, речь, речевой этикет, ораторское искусство, литературный язык*

KIRISH

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish yo'lidan jadal borayotgan mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi, ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli fuqarolarni yetishtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" bugungi kunda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Yurtimizda shaxs, inson, jamiyat, davlat yangilanmoqda, barcha ijtimoiy jarayon ta'lim va madaniyat, ma'naviyat o'ziga xos tarzda shakllanib bormoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "...oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash bizning eng birinchi vazifamiz", deb ta'kidlagan fikrlarining negizida, yurtimizdagi barcha OTMlari oldida O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga yetkazish masalasi yotadi. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "... Keyingi paytlarda ommaviy axborot vositalari xodimlarining demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va nufuzini, mahalliy gazetalar, tele-radiokanallarning moddiy texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, matbuotda fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta'minlash bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilgani sizlarga ma'lum, albatta. Gazetalarimiz, tele-radiokanallarimizda oshkoralik, tahlil va xolis tanqid ruhi kuchaygani, bevosita xorijiy mamlakatlardan tayyorlanayotgan materiallar soni ortib borayotganini biz har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz", degan fikrlardan ko'rinib turibdiki, jurnalistlarning oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun nutq madaniyatini chuqur egallash talab etiladi

Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisalardir. Til nutq uchun moddiy material, bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo'ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud bo'lib, so'zning kishilar xotirasidagi obrazli ruhiy material, nutq yaratilish jarayonida qo'llaniladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy material hisoblanadi. Tilning ruhiy hodisa ekanligi uning ongda saqlanishi bo'lsa, moddiy hodisaligi undagi til vositalari orqali belgilanadi.

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq harakatdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z shakllari, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Nutq madaniyati, madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalq tillarida qadimdan mavjud hodisadir. Bu tushuncha ma'lum lingvistik me'yorlar, etikaviy va estetikaviy talablar bilan aloqador bo'lgan tushuncha hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirda nutq madaniyati atamasi biklan yuritiladigan hodisa va ilmiy muammo ancha keng mazmunga ega. Nutq madaniyati faqtagina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq ma'yorlashga qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarga ma'lum "til didi" («языковой вкус») ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati atamasi hozirgi zamon tilshunoslik talqinida uch xil hodisaning nomi sifatida qo'llanmoqda. Bular : 1) madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi; 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi; 3) nutq madaniyati muammosini o'rganish bilan maxsus shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi. Keltirilgan uchta hodisaning har birini bir-biri bilan qorishtirib yubormaslik lozim.

Nutq madaniyati tushunchasini tushunish va ta'riflashda tilshunoslikda quyidagi qarashlar ko'zga tashlanadi:

1. Nutq madaniyati – adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri (Praga lingvistik maktabi).

2. Nutq madaniyati (til madaniyati) – bu adabiy til me'yorlarining shakllanishi va silliqanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojioga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi)

3. Nutq madaniyati tilni ravshan, ifodali tuza olish mahoratidir. (A. Gurevich)

4. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir, (B.N.Golovin)

5. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqninggina emas, balki nutqiy chechanlik hamdir. (G.O. Vinokur)

6. Nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir. (A.N.Efimov).

7. Nutq madaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir. (D. E. Rozental)

8. Milliy o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir. (M. Afganova).

Ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati – tilni aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Radiojurnalistlar bu noyob quroldan foydalanishga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham yuqori saviyada bo'ladi.

O'zbek va jahon tilshunosligida jurnalistika sohasiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, bu borada Mo'minov.F.A , S.Sodiqov, V.V.Smirnov kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borish talab qilinadi. Bunday oqilona yo'lda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi".

O'zbekiston mustaqilligi ommaviy axborot vositalari oldiga yangidan–yangi vazifalar qo'ydi. Jurnalistika sohasida qalam tebratayotgan ijodkorlarning so'zi millatning ijtimoiy–siyosiy ongini, ma'naviy, axloqiy dunyoqarashini shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligi fani o'tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog'liq muammolarning o'rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko'rsatib turibdi. O.A.Vni biz "to'rtinchi hokimiyat" deb ataymiz. Uning jamiyatda tutgan o'rni katta. Jurnalistikani nafaqat mafkura yaratadigan, uni shakllantiradigan dargoh, qurol sifatida, balki turli ijtimoiy-siyosiy qarashlarni jamiyatga yetkazadigan vosita sifatida qarashadi.

Keyingi yillarda jurnalistik nutqning individual xususiyatlarini o'rganish hamda tadqiq qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jurnalistika sohasida so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki aynan mana shu jihat orqali jurnalistning individual uslubi yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun tilshunosligimizda jurnalist nutqining o'ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Radiojurnalist nutqini uslubiy jihatdan tahlil qilish, jurnalistning tilning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, umuman tildan foydalanishdagi mahoratini va bu orqali uning o'zbek tili rivojidagi o'rnini belgilashdan iboratdir.

Radiojurnalist nutqini uslubiyatini o'rganish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Jurnalistik janrlar orasida radiojurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Jurnalistikaning o'zbek tilshunosligida o'rganilish holatini ilmiy-tanqidiy baholash;
- Radiojurnalistikani fonetik xususiyatlarini tahlil etish;
- Radiojurnalistikaning lingvistik tamoyillarini o'rganish
- Radiojurnalistikaning morfemik xususiyatlarini o'rganib, uni tahlil qilish
- Radiojurnalistikani grammatik-stilistik jihatdan tahlil qilish

Aholini turli voqea-hodisalardan voqif qilish, aholi madaniyatini oshirish, ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining axborot tarqatish, madaniy-ma'naviy, birlashtiruvchi, tashkilotchilik, ma'rifiy, mafkuraviy vazifalarining ahamiyat ko'lami kengayib bormoqda.

Mana shunday bir yuksalish va taraqqiyot bosqichida xalqimizga ona tilini mukammal bilish va muloqot jarayonida umuminsoniy hamda umummilliy nutq madaniyati tamoyillari va qadriyatlariga asoslanish chuqur mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Nutq madaniyati nima? degan savolga yuzlanadigan bo'lsak, tilshunos olimlarning fikrlari quyidagicha:

Ojegov S.I.: "Yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrlarini til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. To'g'ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqatgina me'yorga rioya qilishdan iborat emas. U yana fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bo'lib qolmasdan, birmuncha ta'sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topish uquvini ham o'z ichiga oladi"

Skvorsov L. I.: "Nutq madaniyati" tushunchasi bir tomondan nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomondan tilshunoslik fanining madaniyat quroli bo'lgan adabiy tilni mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchi sohadir"

Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki nutq madaniyati, nutqning grammatik to'g'riligi hisoblanadi. U uslubiy jihatdan ham to'g'ri bo'lishi kerak, ya'ni qisqalik, aniqlik va soddalik uning o'lchovi bo'lishi lozim. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va obrazlilikni ifoda etadi. Shu o'rinda chinakam jurnalist notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat, shuningdek, o'z tili, nutqi ustida tinimsiz ishlashi natijasida erishadi. Ba'zi insonlarda notiqlik san'ati shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiladigan san'at hisoblanadi. Notiqlikda qobiliyat va mahorat chambarchas bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Demak, bugungi kun radiojurnalistik nutqi aniq va lo'nda, qat'iy tartiblangan, barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ayniqsa jurnalist fikr va so'z odobini chuqur egallagan bo'lishi lozim. So'zlarni o'z o'rnida ishlatish so'zning ta'sirchanligini oshiradi, voqea mohiyatini tez ilg'ab olishga xizmat qiladi. Rahimboy Jumaniyozov ta'biri bilan aytganda, "jurnalistika jamiyatning davriy barometridir. Taraqqiyotga zamin hozirlovchi biror yangilik yoxud aksincha, unga zid narsa haqidagi ilk ma'lumotni tezlikda qabul qilamizki, buning uchun jurnalist so'zi va o'zi o'tkir, fikri zikri teranlik kasb etishi kerak".

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. Ш.М.Мирзиёев “Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”.-Т.: “Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони”. ПФ-5847. 08.10.2019-й.
3. Sh.M.Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. “Xalq so'zi” 27.06.2018
4. Karimov.I Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T. Ma'naviyat. 2008. – b 29.
5. R. Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. Toshkent 2005. – b 15
6. P.Расулов. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. - Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
7. Eltazarov J. Tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv. - Samarqand, 2004.

ХУДУД ДАРОМАД САЛОҲИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА “БЮДЖЕТ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” ВА “МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ”

*Қобулов Хотамжон Абдукаримович
Тошкент молия институти доценти
Тошкент, Ўзбекистон
hqobulov@rambler.ru*

***Аннотация:** мақолада ҳудуднинг даромад салоҳиятини шакллантиришида “бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” категорияларини илмий асосланган ва тўғри талқин қилишнинг роли ва аҳамияти кўриб чиқилган, Ўзбекистон Республикасида маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усулларининг моҳияти, амалга ошириш механизми, тамойиллари очиқ берилган, ҳудуднинг даромад салоҳиятини шакллантиришида маҳаллий бюджетларни тартибга солишни алоҳида услубининг аҳамияти тадқиқ қилинган.*

***Калим сўзлар:** маҳаллий бюджетлар, ўз даромадлари, тартибга солувчи даромадлар, бюджетлараро трансфертлар, маҳаллий бюджетларнинг баланслилиги, бюджет орқали тартибга солиш, маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари, салоҳият, ҳудуднинг даромад салоҳияти.*

«МЕТОДЫ БЮДЖЕТНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ» И «МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ» В ФОРМИРОВАНИИ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА

***Аннотация:** в статье рассмотрены роль и значение научно-обоснованной и правильной интерпретации категорий «методы бюджетного регулирования» и «методы регулирования местных бюджетов» в формировании доходного потенциала региона, раскрыта сущность, механизм реализации, принципы методов регулирования местных бюджетов в Республике Узбекистан, были изучены значение отдельного метода регулирования местных бюджетов в формировании доходного потенциала региона.*

Ключевые слова: местные бюджеты, собственные доходы, регулирующие доходы, межбюджетные трансферты, сбалансированность местных бюджетов, бюджетное регулирование, методы регулирования местных бюджетов, потенциал, доходный потенциал региона.

“METHODS OF BUDGETARY REGULATION” AND “METHODS OF REGULATING LOCAL BUDGETS” IN FORMING THE PROFITABLE POTENTIAL OF THE REGION

Abstract: the article examines the role and significance of scientifically grounded and correct interpretation of the categories “methods of budget regulation” and “methods of regulating local budgets” in the formation of the region's revenue potential, discloses the essence, implementation mechanism, principles of methods for regulating local budgets in the Republic of Uzbekistan, the importance of a separate method for regulating local budgets in the formation of the region's revenue potential.

Key words: local budgets, own revenues, regulating revenues, interbudgetary transfers, balance of local budgets, budgetary regulation, methods of regulating local budgets, potential, income potential of the region.

КИРИШ

Маълумки, бутун дунёда маҳаллий бюджетлар даромадлари ва харажатларини тартибга солишнинг самарали механизмини шакллантириш бўйича кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ушбу тадқиқотларда маҳаллий бюджетларнинг даромадлар базасини шакллантириш, маҳаллий солиқлар ва йиғимларни аниқлаш, бюджет харажатларининг мақсадга мувофиқлиги ва манзиллилигини таъминлаш, ижтимоий трансфертларни тақсимлаш ва бюджет тизимининг бюджетлари ўртасидаги молиявий алоқаларни тартибга солиш масалалари алоҳида ўрин тутди. Шу билан бирга, маҳаллий бюджетларни тартибга солиш, уларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш, бюджет тизимининг бўғинлари ўртасида даромадлар ва харажатлар ваколатларини тақсимлашнинг самарали тизимини шакллантириш, айрим ижтимоий ва иқтисодий харажатларни номарказлаштиришга турли хил ёндашувлар муаммолари ҳалигача ҳал қилинмаган.

Буларнинг барчаси ҳудудларнинг даромад салоҳиятини мустаҳкамлаш бўйича бошқарув қарорларини қабул қилиш учун асос бўлган маҳаллий

бюджетларни тартибга солиш усуллари *тадқиқ қилишнинг долзарблигини* белгилайди.

Ушбу илмий мақоланинг мақсади - бюджет орқали тартибга солиш усуллари ва маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари *нинг моҳияти бўйича* олим-иқтисодчиларнинг полемикаларини таҳлил қилиш, уларнинг ҳудуднинг даромад салоҳиятини шакллантиришдаги аҳамиятини очиб беришдан иборат.

Ушбу илмий мақолада мақсадга эришиш учун тадқиқот олдида бир *қатор вазифалар* кўйилди:

- маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари *нинг моҳияти* ва бюджет орқали тартибга солиш усуллари *нинг ушбу механизм тизимидаги ўрни* бўйича назарий ёндашувларни тадқиқ қилиш;

- муаллифларнинг “бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” категорияларининг моҳиятини уларнинг даромад салоҳиятини шакллантиришдаги аҳамияти нуқтаи назаридан изоҳлаш масаласида мавжуд бўлган тортишувларининг хусусиятларини очиб бериш;

- “бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” категорияларининг умумий хусусиятлари ва фарқларини аниқлаш.

Ўзбекистон Республикасида маҳаллий бюджетларнинг харажатларини молиялаштириш учун ўз даромадларининг етишмаслиги сабабли маҳаллий бюджетларнинг юқори бюджетларга боғлиқлиги уларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш муаммоларини ҳал қилиш, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш чораларининг самарадорлиги учун ҳудудларнинг даромад салоҳиятига салбий таъсир кўрсатмоқда.

2017 йил 7 февралда қабул қилинган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида учинчи устувор йўналиш макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва иқтисодиётни юқори суръатларда ўсишини сақлашга, вилоятлар, туманлар ва шаҳарларнинг ҳар томонлама ва мутаносиб ижтимоий-иқтисодий ривожланишига қаратилган иқтисодиётни ривожлантириш ва эркинлаштириш ҳисобланади [1]. Шунингдек, ушбу йўналишда ҳар қандай даражадаги бюджетнинг реаллиги, кўп жиҳатдан, бюджет даромадлари прогнозининг

тўғрилигига, асосан, солиқ тушумларига боғлиқлиги белгиланган, чунки улар умумий бюджет таркибида энг катта улушни эгаллайди.

2020 йилги бюджетни тасдиқлаш янги амалиётни жорий қилиш билан боғлиқ бўлди. Биринчи марта Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети Олий Мажлис томонидан қонун шаклида қабул қилинди [2], яъни халқаро стандартлар ва бюджет маълумотларига мувофиқ “Ўзбекистон Республикасининг 2020 йилги Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонунни тайёрлашнинг очиклиги ва шаффофлигини янада ошириш, бюджет маблағларини шакллантириш ва харажатлари устидан парламент ва жамоатчилик назоратини кучайтириш тартиби белгиланди.

Бюджет сиёсати 2020 йилдан бошлаб пухта ўйланган фискал сиёсатни амалга оширишга, иқтисодий кўрсаткичларнинг мутаносиб ўсишига ва мамлакат молия тизимининг барқарорлигини таъминлашга қаратилган. Маҳаллий ваколатли органлардан ҳудуд имкониятларидан оқилона фойдаланиш, маҳаллий бюджетлар даромад манбаларини мустаҳкамлаш ва мустақиллигини изчил ошириб боришни ҳисобга олган ҳолда бюджет даромадларининг тўлиқлигини таъминлаш ишларида фаол иштирок этиш талаб қилинади.

Шу нуқтаи назардан, маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари масалалари ҳудудларнинг даромад салоҳиятини шакллантиришда, уларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда, иқтисодиёт тармоқларининг фаол ривожланишини таъминлашда, инфратузилмани яхшилашда, аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашни таъминлашда, маҳаллий бюджет харажатларини ўз вақтида молиялаштиришда алоҳида аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ ВА МЕТОДЛАР

Маҳаллий бюджетларни тартибга солиш кўплаб иқтисодчилар томонидан ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири сифатида ўрганилади. Хусусан, маҳаллий бюджетларнинг молиявий асослари, маҳаллий бюджетларни тартибга солиш масалалари Ж. Боден, Т. Хоббс, Ж. Юсти, Ж. Локк, В. Петти, А. Смит, А. Шумпетер, З. Берд, Р. Будвей, А. Бабиш, Г. Барабашев, С. Галицкая, А. Годин С. Гурумурти, А. Игудин, В. Лексин, Ж. Ма, Р. Масграве, В. Оатес, А. Улюкаев, А. Швецов каби хорижий олимлар томонидан ўрганиб чиқилган.

Маҳаллий бюджетларни тартибга солишнинг назарий ва амалий жиҳатлари А. Вахобов, А. Джўраев, Ж. Қўчқоров, Х. Қурбонов, Х.Қобулов, Т. Маликов, А. Маманазаров, О. Олимжонов, Ш.Тошматов, К. Тожибоева, Н. Хайдаров, А. Хайриддинов каби ўзбек олимларининг илмий ишларида ўрганилган. Хусусан, А.Исломқуловнинг илмий-тадқиқот ишларида бюджетлараро мувозанатни таъминлашда солиқ тизимини такомиллаштириш йўллари, Л.Хазратқулова ишларида бюджетлараро муносабатлар самарадорлигини ошириш усуллари таклиф қилинган.

Иқтисодий адабиётларда маҳаллий бюджетларни тартибга солишни таърифлаш учун турли хил талқинлар мавжуд. Қуйида уларни кўриб чиқамиз:

“Бюджетлараро трансфертлар тизими орқали маҳаллий бюджетларнинг молиявий баланслилигини таъминлаш жараёни” [3].

“Бир даражали бўғиннинг бюджетлари контекстида вертикал, юқори даражадаги ҳокимият томонидан амалга ошириладиган минимал даражадан паст бўлган ҳудудий субъектларни бюджет таъминоти жараёни” [4].

“Харажат мажбуриятлари ва даромад манбаларини чегаралаш асосида бюджетларни баланслаштириш жараёни. Уларни амалга ошириш усуллари тартибга солинадиган ҳудудларнинг иқтисодий, географик, иқлим шароитларига қараб юқори органлар томонидан белгиланади” [5].

“Маҳаллий бюджетларни ҳудудларнинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланиши учун ажратиладиган минимал даромад даражаси билан таъминлаш мақсадида маблағларни қайта тақсимлаш” [6].

“Бюджет даромад базаларини минимал талаб даражасида таъминлаш мақсадида даромадларни тақсимлаш ва маблағларни турли даражадаги бюджетлар ўртасида қайта тақсимлаш жараёни” [7].

“Ўзаро манфаатли вазифаларни ҳал қилиш учун молиявий ресурсларни бирлаштириш мақсадида бир хил даражадаги бюджетлар доирасида маблағларни қайта тақсимлаш” [8].

“Бюджет жараёнининг иштирокчилари томонидан бюджет ҳуқуқларига риоя қилиш шароитида даромад манбаларини таъминлаш ва харажатлар ваколатларини тақсимлаш жараёни” [9].

“Бюджетлараро тартибга солиш тизими икки йўналишда амалга оширилади, биринчиси, умумдавлат солиқлари ва йиғимларидан норматив ажратмалар, иккинчиси молиявий тенглаштириш сиёсати бўйича молиявий ёрдам шакллари назарда тутади” [10].

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими қурилмаси Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосланади. Демак, Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ (XXV боб Молия ва кредит, 122-модда): “Ўзбекистоннинг Давлат бюджети Республика бюджетидан, Қорақалпоғистон Республикаси бюджетидан ва маҳаллий бюджетлардан иборат” [11]. Мамлакат бюджет тизимининг бир қисми сифатида барча бюджетлар бюджетлараро муносабатлар доирасида ўзаро боғлиқдир.

Мамлакатдаги маҳаллий бюджетларни бюджет орқали тартибга солишнинг амалдаги усуллари ўзгартиришга ёрдам берадиган асосий шартлар Н.В.Юлдашевнинг тадқиқотларида тегишли равишда қайд этилган. (1-расм) [12].



1-расм. Маҳаллий бюджетларни бюджет томонидан тартибга солиш усуллари ўзгартириш шарт-шароитлари

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимининг шаклланиши ва ривожланишининг бутун даврида маҳаллий бюджетлар, қуйи бўғин сифатида, уларга юклатилган функциялар билан ортиқча юкланган.

Маҳаллий бюджетларнинг молиявий имкониятлари доимо ўзгариб, баъзан маҳаллий солиқлар ва йиғимлар кўплиги туфайли кўпайиб, баъзан камайиб борган, лекин солиқ қонунчилиги бюджетларнинг даромад базасининг фақат бир қисмини турли даражадаги бюджетлар учун доимий асосда таъминлайди. Шунинг учун даромад ва харажатларни мувозанатлашнинг яна бир қўшимча тартиби мавжуд - бюджет орқали тартибга солиш.

Бюджет кодексида [13] ҳали ҳам “бюджет орқали тартибга солиш” тушунчаси аниқланмаган ва бюджетлараро муносабатларни ташкил этиш муаммоларидан бири бўлган уни амалга ошириш усуллари тавсифланмаган.

Иқтисодий адабиётларда кўплаб замонавий талқинлар мавжуд: бу “тегишли воситалар тўпламидан фойдаланган ҳолда бюджет тизимининг вертикал ва горизонтал номуносибликларини тенглаштириш бўйича ҳокимиятнинг фаолияти”; “...моддий ёрдам кўрсатиш шакли”; “минтақавий ва маҳаллий ҳокимият органларига молиявий ёрдам кўрсатишнинг объектив равишда асосланган тизими” ёки “бюджет тизимини мувозанатни таъминлаш мақсадида бошқариш (тартибга солиш) механизмлари тўплами”.

Юқоридаги таърифларни тадқиқ этиш ва қиёсий таҳлил қилиш асосида биз қуйидагиларни шакллантирдик: бюджет сиёсатининг қонунчилик билан белгиланган ўзига хос механизмлари орқали амалга ошириладиган бюджет тизими бюджетларининг баланслигини таъминлаш жараёни бюджетни тартибга солиш деб аталади. Аммо бюджетни тартибга солишнинг моҳияти ва мазмунини ўрганиш жараёнида унинг янги ўзига хос жиҳатлари ва хусусиятлари пайдо бўлиши мумкин.

Шуни таъкидлаш кераки, “бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” категориялари умумий жиҳатлар ва фарқларга эга (1-жадвал).

1-жадвал.

“Бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” категориялари ўртасидаги умумийлик ва фарқлар

Умумийлик ва фарқлилик сифатлари таснифи	«Бюджет орқали тартибга солиш усуллари»	«Маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари»
---	--	---

<p><i>Категорияларнинг умумий жиҳатлари</i></p>	<p>1. Ҳар икки категория тўлалигича бюджет-солик қонунчилигига асосланади ва маҳаллий бюджетларнинг балансли барқарор ривожланишини таъминлашга йўналтирилади.</p> <p>2. Ҳар икки усул ҳам бир-бирини тўлдиради ва бир-бирига зид келмайди, лекин баъзида иккинчи категория назарда тутмаган чоралар маҳаллий бюджетларнинг тегишли бўғинларини тартибга солиш чораларига тузатишлар киритилишида ҳисобга олиниши мумкин. Улар ўзининг ижобий ва салбий томонларига эга.</p>	
<p><i>Категорияларнинг фарқли жиҳатлари</i></p>	<p>1. Агар бюджет орқали тартибга солиш усулларининг маҳаллий бюджетларга йўналтирилганлигини ҳисобга оладиган бўлсак, ушбу категория иккинчисига қараганда торроқ тушунча ва ўзи маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усулларининг таркибига киради.</p> <p>2. Ушбу категориядан фойдаланиш бюджет тизимининг барча бўғинларига нафақат маҳаллий бюджетларга, республика бюджетига) ҳам тегишли.</p>	<p>1. Биринчисига қараганда кенгроқ тушунча ва бюджет орқали тартибга солиш усулларини (бюджет орқали тартибга солиш усуллари ва улар билан тенг равишда ишлайдиган маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари - оператив (тактик) ва истикболли (стратегик) маҳаллий молияни молиявий бошқарув усулларини, меъёрий-ҳуқуқий тартибга солишни, ЭИЗларни ривожлантириш бўйича давлат сиёсатида худудларнинг бюджет ҳолатини яхшилаш бўйича чора-тадбирларни, давлатнинг инвестиция дастурларида ҳисобга олинмаган чет эл инвестицияларини жалб қилиш ва улардан</p>

		<p>фойдаланишни, ҳудудларда амалга оширилган ташаббусли дастурлар, лойиҳалар ва бошқаларни ўз ичига олади.</p> <p>2. Ушбу категорияларни қўллаш фақат маҳаллий бюджетларга тегишли.</p>
--	--	--

Бизнинг фикримизча, бюджет орқали тартибга солиш таърифини қуйидагича шакллантириш мумкин.

Маҳаллий бюджетларни тартибга солиш - бу харажатлар мажбуриятлари ва даромад манбаларини дифференциацияси асосида бюджетларни баланслаштириш жараёни бўлиб, уларни ижро этиш усуллари тартибга солинадиган ҳудудларнинг иқтисодий, географик, иқлим шароитларига қараб юқори органлар томонидан белгиланади.

Маҳаллий бюджетларни тартибга солишдан мақсад ҳудудларнинг молиявий мустақиллигини мустаҳкамлаш ва ўз даражасида қабул қилинадиган қарорлар учун уларнинг масъулиятини оширишдир. Бизнинг фикримизча, маҳаллий бюджетларни тартибга солиш жараёнида нафақат тақчилликсиз бюджетга эришиш, балки даромадлар ва харажатлар баланси таъминланиши керак. Белгиланган чегаралар доирасида маҳаллий бюджет тақчиллигининг мавжудлиги ва уни молиялаштириш манбаларини таъминлаш баланслашган бюджет тамойилига зид келмайди, чунки иккинчиси харажатлар унинг тақчиллигини молиялаштириш манбаларидан келадиган даромадлар ва тушумларнинг умумий миқдорига тўғри келади.

Ҳудудлар зиммасига юклатилган функцияларни бажарилишини таъминлаш учун маҳаллий бюджетларга бундай даромад манбаларини бериш Ўзбекистон Республикасида бюджет орқали тартибга солишнинг ва умуман бюджетлараро муносабатларнинг энг муҳим муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда.

Замонавий шароитда маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усулларини тизимли равишда тушуниш ва ўрганиш уларни бир вақтнинг ўзида учта даражадаги фаолият кўрсатадиган муносабатлар мажмуи сифатида кўриб чиқишни талаб қилади: давлатнинг бюджет сиёсати воситаси сифатида,

маҳаллий ҳокимият органларининг ўз бюджет муаммоларини ҳал қилиш бўйича манфаатларини қондириш воситаси сифатида, харажат мажбуриятлари ва даромад манбаларини чегаралаш асосида маҳаллий бюджетларни баланслаштириш жараёни сифатида (2-расм).



2-расм. Замонавий шароитда маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари тизимли равишда тушуниш

Маҳаллий бюджетларни тартибга солишнинг замонавий тизими тақдим этилган чизма шуни кўрсатадики, бюджетларни баланслаштиришнинг у ёки бу йўлини танлаш учун усуллар, шакллар ва воситалар тўплами катта эмас. Шу билан бирга, ушбу жараённинг энг муҳим элементи айнан бюджет орқали

тартибга солиш мақсадлари ҳисобланади ва бир вақтнинг ўзида санаб ўтилган барча мақсадларга эришишга интилиш керак.

Бюджетларни тартибга солиш ёки бюджет орқали тартибга солиш - бу турли хил бюджетларнинг даромадлари ва харажатларини баланслаштириш жараёнидир, бу пировардида унитар давлат бюджет тизимининг барча бўғинлари яхлитлиги ва бирлиги шароитида бюджет тизимининг мавжудлигини таъминлайди.

Солиқ тушумларининг республика бюджетида марказлаштирилиши маҳаллий бюджетларнинг ўз даромадлари ҳажмининг доимий равишда пасайиб кетишига олиб келди, бу эса, шунга мувофиқ қуйи бюджетларга солиқ тўлаш нормаларини камайтира бошлади.

Натижада маҳаллий бюджетларнинг тақчиллиги бюджет йилида ҳажми ўзгариши мумкин бўлган беғараз ўтказмалар билан қопланади.

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимининг ўзига хос хусусияти ва асосий муаммоси унинг баланслашмаганлигидир.

Бюджет орқали тартибга солишга объектив эҳтиёж мавжуд. Бироқ, амалдаги бюджет орқали тартибга солиш механизми давлатнинг бюджет тизимидаги баланслашмаганлик муаммосини ҳал қилмайди, чунки бу амалда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини рағбатлантирмайди. Бюджетлараро ўтказмаларнинг ўсиши фақат мамлакат ичидаги маблағлар ҳаракати устидан назоратни марказлаштиришга олиб келади.

Бюджетни шакллантириш назариясида бюджет маблағларини қайта тақсимлашнинг турли усуллари мавжуд ва бюджет тадбирлари самарадорлигини баҳолаш усуллари ишлаб чиқилмоқда. Шу билан бирга, ушбу муаммони ҳал қилишда биринчи навбатда бюджет маблағларини бюджет тизимининг бўғинлари ўртасида қайта тақсимлаш жараёнини оптималлаштириш, маҳаллий бюджетларнинг молиявий ресурсларини тўлиқ ҳисобга олиш ва уларни бюджетга жалб қилиш имкониятларини объектив баҳолаш керак. Бюджет орқали тартибга солиш натижаларини баҳолашга имкон берадиган услубий ёндашув ҳозирги кунда энг кам ривожланганлардан биридир.

Бюджет орқали тартибга солишнинг иқтисодий моҳиятини биз иккита позициядан очиб берамиз: иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг ажралмас қисми сифатида ва бюджет жараёнининг элементи сифатида.


Бунда, етакчи маҳаллий олимлар ва мутахассислар, хорижий иқтисодчилар томонидан олиб борилган тадқиқотлар таҳлили, ҳозирги кунда “бюджет орқали тартибга солиш” тушунчасининг ягона қабул қилинган таърифи йўқ деган хулосага келиш имконини берди. Бюджет орқали тартибга солиш ёки бюджет тизимининг алоҳида даражасига нисбатан кўриб чиқилади ёки у давлатнинг бюджет тизимидаги даромадларни қайта тақсимлаш билан аниқланади, бу унинг моҳиятини аниқлашга хусусий ёндашувлардир.

“Бюджет орқали тартибга солиш” тушунчасининг таърифи Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимининг ягоналиги принципини акс эттириши керак, яъни Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимининг республика даражасида ҳам, маҳаллий даражаларида ҳам бюджет орқали тартибга солишни тавсифлаш учун мақбул бўлиши керак ва бюджет орқали тартибга солиш турли даражадаги бюджетлар ўртасида молиявий ресурсларни ҳар қандай қайта тақсимлашни ўз ичига олиши керак.

Шундай қилиб, бизнинг фикримизча, *бюджет орқали тартибга солиш* - бу давлат ҳокимияти органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан ўз ваколатларини амалга ошириш учун зарур бўлган, тегишли ҳудудда ўз даромадларининг етишмаслигидан келиб чиқадиган турли даражадаги бюджетлар ўртасида молиявий ресурсларни қайта тақсимлаш жараёни.

Бюджет орқали тартибга солиш механизми биз томонидан молиявий механизмнинг бир қисми сифатида кўриб чиқилади ва давлатнинг бюджет сиёсатининг тактик ва стратегик мақсадларига эришишга қаратилган бюджет ресурсларини жамлаш, тақсимлаш ва улардан фойдаланиш бўйича ташкилий, иқтисодий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар мажмуаси сифатида белгиланади.

Ўрганиш жараёнида биз томондан бюджет орқали тартибга солиш механизмнинг тузилиш аниқлаштирилди, *бюджет орқали тартибга солиш механизмининг* ривожланиш йўналишлари ва истикболларини белгилайдиган муаммоли элементлари ажратиб кўрсатилди (3-расм).



3-расм. Бюджет орқали тартибга солиш механизмининг асосий элементлари


Бюджет орқали тартибга солишда Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимининг тамойилларига риоя қилинмаслигини ҳисобга олган ҳолда, бюджет ваколатларини қайта тақсимлашга марказлашган ёндашув туфайли бюджет орқали тартибга солишнинг чекланган имкониятлари, шунингдек бюджет орқали тартибга солишнинг қониқарсиз самараси бюджетни тақсимлаш усулларининг камчиликлари туфайли юзага келган бўлса, бюджетни тартибга солиш услубларига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Бюджет орқали тартибга солиш усуллари деганда биз бюджет жараёни доирасида субъектларнинг молиявий-иқтисодий муносабатларига иқтисодий ва ҳуқуқий таъсир кўрсатишнинг йўллари, усуллари, воситалари мажмуини тушунамиз.

Юқоридагиларга асосланиб, биз маҳаллий бюджетларнинг ресурсларини бошқариш самарадорлигини ошириш ва режалаштирилган бюджет кўрсаткичларига эришишда максимал натижавийликни таъминлашни мақсадли функцияси билан **маҳаллий бюджетларни бюджет орқали тартибга солиш тизимини ривожлантириш концепциясини** ишлаб чиқдик.

Концептуал қоидалар маҳаллий бюджетларни бюджет орқали тартибга солиш тизимининг расмий ташкилий ва молиявий механизмини амалга оширишга, бюджет функциялари, вазифалари, ваколатлари ва маҳаллий ҳокимиятларнинг ваколатларини белгилашга комплекс ёндашувни қўллашга, белгиланган кўрсаткичларга эришиш устидан назоратни таъминлаш мақсадида барқарор ҳудудий ривожланишнинг баланслашган кўрсаткичлари тизимини

шакллантиришга, бюджет жараёнини жойларда тармоқ ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш режалари ва натижалари билан боғланганлигига, жойларда молиявий ва бюджет сиёсати ижроси самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичларини асосланганлигига таянади (4-расм).



4-расм. Маҳаллий бюджетларни бюджет орқали тартибга солиш tizimini ривожлантириш концепсияси

Юқоридагилардан келиб чиқиб таъкидлаш жоизки, маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари амал қилишининг тўғри қурилган ва самарали механизми ҳудуд даромад салоҳиятини шакллантиришнинг ижобий омилларидан биридир.

ХУЛОСАЛАР

Илмий мақоламиз мавзуси доирасида “бюджет орқали тартибга солиш усуллари” ва “маҳаллий бюджетларни тартибга солиш усуллари” тушунчаларини таърифлашда мавжуд бўлган ёндашувларни таққосладик ва уларни умумлаштирдик. Бюджет муносабатларининг предмети, объекти, ушбу турдаги муносабатларнинг пайдо бўлиши учун асос, шунингдек бюджет орқали тартибга солишнинг мақсади каби таърифларнинг параметрлари конкретлаштирилди.

Тадқиқотларимиз шуни кўрсатдики, бюджет орқали тартибга солиш механизмининг асосий муаммоли элементи сифатида усулларни ажратилиши Ўзбекистон Республикасида бюджет орқали тартибга солишнинг асосий тенденциялари: 1) бюджетни тартибга солиш соҳасини унга янги иштирокчиларни (маҳаллий бюджетлар, мақсадли фондлар) жалб қилиш орқали кенгайтириши, бюджет маблағларини қайта тақсимлаш ҳажмининг кўпайиши; 2) давлатнинг стратегик мақсадларига эришиш учун бюджет орқали тартибга солиш механизмининг йўналтирилганлиги ва натижада Ўзбекистон Республикаси бюджет тизимининг барча даражаларида бюджетни тартибга солиш жараёнларини марказлаштирилган бошқаришга интилиш, ҳудудларни бюджет билан таъминланганлик даражасини трансферт механизмлари орқали тенглаштириш томон интилиш билан ҳам асосланади.

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 9 декабрдаги “2020 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида” ЎРҚ-589-сон Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.12.2020 й., 03/20/655/1660-сон

3. Bird R.M, Ebel R.D., Vallish S.I Decentralization of the socialist state: Intergovernmental finance in transition economies. The World Bank. (Eds.) . (1995)

4. Рибокова Р.Ю. Опыт перераспределения средств в Российской Федерации // Финансы и кредит, 20 (188) – 2005. – 37-39-б.

5. Петрова Е.А. Регулирование местных бюджетов в нефтедобывающих регионах. Автор. Дисс. На соиск. Уч. Ст. Канд. Эк. Наук. – Екатеринбург: УМЦ УПИ. 2006. – 8-б.

6. Поляк Г.Б. Бюджетная система Российской Федерации. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 89-б.

7. Романовский М.В. Бюджетная система Российской Федерации. – М.: Юрайт, 1999. – 54-б.

8. Каюмов У.Ш. Совершенствование инструментов оптимизации межбюджетных отношений в Республике Таджикистан. Дисс. На соиск. Уч. Ст. Канд. Эк. Наук. – Душанбе: Институт экономики и демографии академии наук. 2018. – 17-б.

9. Вахобов А.В., Жамолов Х.Н. Согласование межбюджетных отношений: Учебное пособие. – Т.: ТФИ.: 2002. – 239-б.

10. Қурбонов Х.А. Бюджетлараро муносабатларни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация – Т.: ТДИУ, 2010. – 23-б.

11. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.02.2021 й., 03/21/671/0093-сон

12. Юлдашева Н.В. Совершенствование методов регулирования местных бюджетов. Авт. дисс. доктора философии (Phd) по экономическим наукам. Т.: ТМИ, 2021.

13. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет Кодекси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.01.2021 й., 03/21/666/0032-сон

14. Кобулов Х.А. Приоритетные вопросы стратегии развития доходного потенциала региона // «ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика». Международный ежемесячный научный журнал - №9-1 (67). Москва, изд. ООО «Капитал», 2020. – с. 147-150. DOI: 10.24411/2411-0450-2020-10709

15. Kobulov Kh.A. Local budget revenues - as an important part of the profitable potential of the region // Actual Problems Of Modern Science, Education And Training In The Region, 2020-V, October 15, 2020, ISSN 2181-9750, P.186-192.

16. Срожиддинова З.Х. Межбюджетные отношения, Уч.пос. Издательство INFOCOM.UZ. Ташкент, 2010. С.65

17. Юқори бюджетдан қуйи бюджетларга ўтказиб бериладиган даромадларни режалаштириш, ажратиш тартиби тўғрисидаги НИЗОМ // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 18-19-сон, 143-модда

ПРИБЫЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ ИЛИ КАК ПРЕДВИДЕТЬ БАНКРОТСТВО

Гафурова Умида Фатиховна

старший преподаватель кафедры “Финансы”, ТФИ

duda212307@gmail.com

Гафурова Азизахон Фатиховна

Докторант ТФИ

g_aziza@mail.ru

***Аннотация:** в данной статье рассматриваются пути увеличения прибыли предприятия. А также анализ банкротства предприятия с помощью различных экономических моделей, которые способствуют предвидению ситуаций, приводящих к банкротству. Изучены факторы, влияющие на банкротство. Для полного анализа прибыльности и банкротства, объектом исследования было взято компания АК "Toshkentdonmahsulotlari", в ходе анализа были рассчитаны показатели, определяющие состояние оборотных средств и показатели характеризующие степень финансовой независимости. А также была использована модель Альтмана для расчёта риска банкротства.*

***Ключевые слова:** прибыльность, рентабельность собственного капитала, анализ банкротства, риск банкротства, финансовая независимость.*

***Abstract:** This article discusses ways to increase the profit of an enterprise. And also the analysis of the bankruptcy of an enterprise using various economic models that contribute to the foresight of situations leading to bankruptcy. The factors influencing bankruptcy have been studied. For a complete analysis of profitability and bankruptcy, the object of the study was the company JSC "Toshkentdonmahsulotlari", in the course of the analysis indicators were calculated that determine the state of working capital and indicators characterizing the degree of financial independence. And also the Altman model was used to calculate the risk of bankruptcy.*

***Key words:** profitability, return on equity, bankruptcy analysis, bankruptcy risk, financial independence.*

ВВЕДЕНИЕ

Когда предприятие только начинает свою деятельность, часто рассчитывается будущая прибыль и все усилия направлены на увеличения

прибыли. Но не мало важную роль играет анализ банкротства, так как анализируя данный показатель мы можем избежать допущения ошибок.

Прибыльность - это способность предприятия генерировать прибыль и вести рентабельную деятельность. Уровень прибыльности предприятия характеризуется коэффициентами рентабельности, важнейшие из которых:

- коэффициент рентабельности собственного капитала (уровень финансовой рентабельности),
- коэффициент рентабельности активов (уровень экономической рентабельности) [1].

Рентабельность собственного капитала (return on equity, ROE) – показатель чистой прибыли в сравнении с собственным капиталом организации. Это важнейший финансовый показатель отдачи для любого инвестора, собственника бизнеса, показывающий, насколько эффективно был использован вложенный в дело капитал. В отличие от схожего показателя "рентабельность активов", данный показатель характеризует эффективность использования не всего капитала (или активов) организации, а только той его части, которая принадлежит собственникам предприятия [1].

Рентабельность собственного капитала рассчитывается делением чистой прибыли (обычно, за год) на собственный капитал организации:

Особым подходом к расчету рентабельности собственного капитала является использование формулы Дюпона. Формула Дюпона разбивает показатель на три составляющие, или фактора, позволяющие глубже понять полученный результат:

$$\text{Рентабельность собственного капитала (Формула Дюпона)} = (\text{Чистая прибыль} / \text{Выручка}) * (\text{Выручка} / \text{Активы}) * (\text{Активы} / \text{Собственный капитал}) = \text{Рентабельность по чистой прибыли} * \text{Оборачиваемость активов} * \text{Финансовый леверидж}$$

По усреднённым статистическим данным рентабельность собственного капитала составляем примерно 10-12% (в США и Великобритании). Для инфляционных экономик, таких как российская, показатель должен быть выше. Главным сравнительным критерием при анализе рентабельности собственного капитала выступает процент альтернативной доходности, которую мог бы получить собственник, вложив свои деньги в другой бизнес. Например, если

банковский депозит может принести 10% годовых, а бизнес приносит лишь 5%, то может встать вопрос о целесообразности дальнейшего ведения такого бизнеса.

Чем выше рентабельность собственного капитала, тем лучше. Однако как видно из формулы Дюпона, высокое значение показателя может получиться из-за слишком высокого финансового рычага, т.е. большой доли заёмного капитала и малой доли собственного, что негативно влияет на финансовую устойчивость организации. Это отражает главный закон бизнеса – больше прибыль, больше риск.

Рентабельность активов определяется как частное от деления чистой прибыли (или убытков), полученной за период, на общую величину активов организации за период [2].

$$\text{ROA} = ((\text{чистая прибыль} + \text{процентные платежи}) * (1 - \text{налоговая ставка})) / \text{активы предприятия} * 100\%$$

Как видно из формулы, отображается вся прибыль предприятия до выплаты процентов по кредиту. А потом к сумме чистой прибыли добавляется сумма вычтенных процентов с учётом налога. Платежи за пользование заёмными средствами относятся к валовым издержкам, а доход инвесторов выплачивается из прибыли после вычета всех процентных платежей. Такие особенности расчёта связаны с тем, что при формировании активов используются два финансовых источника – собственные средства и заёмные. Следовательно, при формировании активов нет разницы, какой рубль пришёл в составе заёмных средств, а какой – был внесён собственником предприятия. Суть показателя рентабельности состоит в понимании, насколько эффективно была использована каждая единица привлечённых средств. По этой причине надо исключить из чистой прибыли величину процентных платежей, выплаченных до налога на прибыль.

В отличие от показателя «рентабельность собственного капитала», Return on Assets учитывает все активы организации, а не только собственные средства. Активы компании, которые используются для финансирования операционной деятельности, состоят из долговых обязательств и капитала. Чем выше значения коэффициента ROA, тем выше результативность

предприятия в создании прибыли с помощью активов. Это значит, что компания генерирует больше дохода при меньшем уровне инвестиций.

**Рентабельность собственного капитала=Чистая прибыль/
Собственный капитал**

Для повышения прибыльности предприятия используют, во-первых, скрытые резервы компании и возможности бизнес-окружения, такие как:

- оптимизация затрат, организационных структур,
- получение налоговых льгот и преференций,
- реинжиниринг бизнес-процессов,
- увеличение продаж,
- развитие партнёрских отношений.

А теперь поговорим о банкротстве. Что определяет с собой анализ банкротства.

Анализ вероятности банкротства предприятия — одно из признанных направлений финансового анализа, а общая цель финансового анализа — оказание помощи в выработке обоснованных и эффективных управленческих решений. Оценка вероятности банкротства может проводиться менеджментом самого предприятия для выявления слабых мест и предотвращения банкротства. А также анализ нередко нужен банкам, инвесторам, прочим действительным и потенциальным контрагентам и кредиторам предприятия. Кроме того, результаты анализа финансового состояния компании изучаются судом в ряде других доказательств в деле о ее банкротстве.




Рисунок 1. Анализ вероятности банкротства

Общими признаками банкротства являются:

- неплатёжеспособность — состояние, когда предприятие не может расплатиться с кредиторами, погасить свою задолженность;
- нехватка денежных средств;
- преобладание расходов организации над ее доходами.

Кроме того, при ухудшении финансового положения предприятия объем обязательств нередко превышает стоимость имущества, увеличивается доля краткосрочной задолженности.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Для того чтобы выяснить, в каком состоянии находится предприятие, используются следующие коэффициенты оценки банкротства: коэффициенты рассчитаны по данным АК "Toshkentdonmahsulotlari"

Сперва необходимо рассчитать показатели, определяющие состояние оборотных средств, а к ним относятся: коэффициент обеспеченности собственными средствами, в данном предприятии данный коэффициент составил -0,01595; 0,380912; 0,0037. Для нормального функционирования данный показатель должен быть больше 0,1 предприятие только 2018 году соответствовала этому показателю, так как прибегла долгосрочному займу. Следующий показатель Коэффициент обеспеченности материальных запасов собственными оборотными средствами 1,35565; 1,628741; 1,391145, хотя допустимая норма 0,6-0,8 так как не должно быть излишков запаса на складе, но и нехватка запасов останавливает производство. Как видно по

коэффициентам в предприятии простой товарно-материальных запасов. Коэффициент манёвренности собственного капитала (Км): 3,97028; 1,923426; 3,898923 данный коэффициент показывает насколько мобильны собственные источники средств организации с финансовой точки зрения. Оптимальный уровень Км равен 0,5.

Теперь рассчитаем показатели, характеризующие степень финансовой независимости, а именно коэффициент автономии: 0,198664116; 0,456460462; 0,204729368 Этот коэффициент свидетельствует о перспективах изменения финансового положения в ближайший период. Оптимальное значение коэффициента – 0,6. это означает, что сумма собственных средств предприятия составляет 60% от суммы всех источников финансирования. Высокий уровень коэффициента автономии отражает стабильное финансовое положение организации, благоприятную структуру её финансовых источников и низкий уровень финансового риска для кредиторов. Такое положение служит защитой от больших потерь в периоды депрессии и гарантией получения кредита для самой организации [1].

Ещё один коэффициент, характеризующий независимость — это коэффициент соотношения заёмных и собственных средств: 5,033621683; 2,190770248; 4,884497068, коэффициент показывает какая часть деятельности организации финансируется за счёт собственных средств, а какая – за счёт заёмных.

Повышение коэффициента свидетельствует о недостаточности собственных источников средств предприятий для покрытия своих потребностей в оборотных средствах. Принято считать, если коэффициент соотношения заёмных и собственных средств имеет значение больше единицы, то это свидетельствует о несостоятельности предприятия по этому показателю.

Кроме расчётов этих показателей очень часто рассчитывается коэффициент прогноза банкротства – показывает долю чистых оборотных активов в стоимости всех средств предприятия. Рассчитывается как отношение разности оборотных средств и краткосрочных пассивов к итогу баланса. Снижение показателя свидетельствует о том, что предприятие испытывает финансовые затруднения. Но есть и другие методы расчёта риска банкротства, как например модель Альтмана.

Впервые *Z-модель Альтмана*, для компаний, акции которых котируются на бирже, была опубликована в работе Э. Альтмана «Финансовые коэффициенты,

дискриминантный анализ и прогноз корпоративного банкротства» в 1968 году. Модель Альтмана за 1968 год включала данные финансового положения 66 предприятий, половина из которых обанкротилась, а другая половина продолжала успешно работать. В 1983 году в статье Э. Альтмана «Трудности корпоративных финансов» была опубликована модель для предприятий, у которых акции не котируются на бирже. В 1993 году Э. Альтман в своей книге «Трудности корпоративных финансов и банкротство» предоставил свою модель для непроизводственных компаний. В 2003 году вышла статья Альтмана «Управление кредитным риском: задача на новое тысячелетие», описывающая модель Альтмана для развивающихся рынков. В 2007 году Э. Альтман и Д. Сабато в статье «Моделирование кредитного риска для МСП: данные рынка США» была представлена logit-модель, разработанная на основе выборки 120 банкротов и 2010 не банкротов в США [3].

Точность прогноза в этой модели на горизонте одного года составляет 95%, двух лет — до 83%, что говорит о достоинстве данной модели. Недостаток этой модели заключается в том, что ее, по существу, можно рассматривать лишь в отношении крупных компаний, котирующих свои акции на биржах, для которых возможно получить объективную рыночную оценку собственного капитала (КА). Имеется опыт применения индекса Z для отечественных компаний нефтяного комплекса[4].

Z-модель Альтмана строится с применением аппарата мультипликативного дискриминантного анализа (Multiple-discriminant analysis). В общем случае формула получения значения скоринга выглядит как обычный многочлен:

$$Z = A1X1 + A2X2 + \dots + AnXn$$

Где, $A1...An$ - весовые коэффициенты, характеризующие значимость факторов риска; $X1...Xn$ - факторы риска, определяющие кредитоспособность заемщика; Z - значение оценки скоринга.

Эта формула применяется для расчета значения кредитного скоринга, или численного значения, характеризующего качество кредитоспособности заемщика. Именно такая (или аналогичная) формула – ядро практически любой существующей системы скоринга, в том числе и в модели Альтмана[5].

Самая популярная модель Альтмана, именно она была опубликована ученым 1968 году. Формула расчета пятифакторной модели Альтмана имеет вид:

$$Z = 1,2X1 + 1,4X2 + 3,3X3 + 0,6X4 + X5$$

- где x_1 — оборотный капитал / сумма активов;
- x_2 — нераспределенная прибыль / сумма активов;
- x_3 — прибыль до уплаты налогов / сумма активов;
- x_4 — рыночная стоимость акций/ заемный капитал;
- x_5 — объем продаж / сумма активов.

В результате проведенных расчетов было обнаружено, что все фирмы, имеющие значение Z -счета больше 2,99, являются «устойчивыми», а фирмы, значение Z -счета которых меньше 1,81, — банкротами. Таким образом «зона неведения» или «зона ошибок» находится в интервале [1,81; 2,99]. На основании дальнейших расчетов была выведена средняя точка или оптимальная точка отсечения, равная 2,675, и правило классификации, которое гласит: чем выше значение Z -счета, тем меньше риск наступления банкротства: $Z < 1,8$ — высокая вероятность банкротства;

$Z = (1,81-2,7)$ – средняя вероятность банкротства;

$Z = (2,71-2,9)$ – возможно банкротство;

$Z > 2,9$ — вероятность банкротства мала, предприятие характеризуется достаточно устойчивым финансовым положением. Однако при всех достоинствах данной модели следует отметить, что разработанные модели прогнозирования банкротства построены на основе изучения поведения фирм в условиях западного развития, что не соответствует условиям развития экономики стран Центральной Азии.

Построение подобных моделей для отечественной экономики является проблематичным, во-первых, из-за несовершенства нормативной базы банкротства предприятий; во-вторых, из-за отсутствия учета многих факторов, влияющих на финансовую устойчивость предприятий. Кроме того, наряду с профессионализмом и интуицией аналитика, исследующего предприятие, значительную роль играет качество финансово-отчетной документации и

степень информативности статистических данных и коэффициентов, на которые опираются модели.

In conclusion, it should be noted that from the first days of independence in independent Uzbekistan, the initiative to pay attention to young people, trust them, to build the future with young people, the first President of Uzbekistan Karimov I. A. began to be pushed forward. Confidence in this younger generation is reflected in various legislation. The example of trust in the youth soon bore fruit, and the youth began to introduce the name of the country to the world by holding the flag of Uzbekistan, winning prestigious competitions such as various sports games, science olympiads. A new era for Uzbekistan after 2016 The arrival of a new leadership has strengthened the recognition of young people more than ever before, as evidenced by the formation of the Youth Union and the five important initiatives put forward to ensure youth employment.

REFERENCES

1. Speech by Mirziyoyev Sh.M. at the opening of the 43rd session of the Council of Foreign Ministers of the Organization of Islamic Cooperation. October 18, 2016.// Works Volume 1. Page 31
2. Mirziyoyev SH.M. Speech at the IV Congress of the Kamolat Youth Social Movement June 30, 2017.// Works, Volume 1, page 518
3. Law of the Republic of Uzbekistan dated September 14, 2016 No. ZRU-361 "On State Youth Policy".

TIL VA LINGVOKULTUROLOGIYA

Komilova Gulmira Temirovna,

Toshkent viloyati, Chirchiq shahar

Chirchiq pedagogika instituti Tillar va tarix fakulteti I bosqich magistranti,

Chirchiq shahar 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining

ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

tel: +998 99 873 26 86

Annotatsiya – Ushbu maqolada til va lingvokulturologiya tadqiqi, uning til mva xalq o'rtasidagi tutgan o'rni, madaniyatning xalqqa, milliylikka munosabati va o'zaro ta'siri ilmiy tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar – Lingvokulturologiya, til, madaniyat, xalq, mentalitet, semantika, ottenka, integral belgi, differentsial belgi, oppozitsiya, transformatsiya, komponent, metod, shakl, munosabat, lingvokulturema.

Abstract - This article examines the study of language and linguoculturology, its role between language and people, the relationship of culture to the people, nationality and interaction.

Keywords - Linguoculturology, language, culture, people, mentality, semantics, ottenka, integral sign, differential sign, opposition, transformation, component, method, form, attitude, lingvokulturema.

Аннотация: в данной статье исследуются вопросы изучения языка и лингвокультурологии, ее роли между языком и людьми, отношения культуры к людям, национальности и взаимодействия.

Ключевые слова: лингвокультурология, язык, культура, люди, менталитет, семантика, оттенок, интегральный знак, дифференциальный знак, противопоставление, трансформация, компонент, метод, форма, установка, лингвокультура.

KIRISH

XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan ma'daniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazaryaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A. Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Fon Gumboldt, E.Benvnist, L.Vaysgerber, A.A. Potebnya, E.Sepir) kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi;

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir"

V.V.Vorobyev "lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadryatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb ko'rsatadi. Ushbu tushunchalarning o'zaro farqli jihatlarini professor O'. Yusupov quydagicha izohlaydi. "Lingvokulturema - o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvokulturologiya hamda tarjima nazariyasi uyg'unligiga aloqador tadqiqotlar orasida jahon tilshunosligida G.B.Palmer, G.Morain, B.Serdixun, B.Sivasish, V.V.Vorobev, Ye.O.Oparina, I.G.Olshanskiy, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, V.Красных, K.E.Nagaeva, V.A.Maslova, O.E.Salnikova, O.I.Vasilenko, O.A.Podlesova, D.D.Lagaeva, N.N.Dzida, Ye.B.Eliseeva, T.I.Gustomyasova, F.X.Xasanova, F.G.Fatkullina, A.R.Gabbasova, o'zbek tilshunosligida esa G.Boqieva, D.Ashurova, A.M.Bushuy, Sh.Safarov, G.Sh.Ataxanova, A.Mamatov, O'.Yusupov, J.Yoqubov, A.Ziyaev, D.Xudoyberganova, D.Djumanova, N.Djusupov, S.Isamammedova, D.Tosheva, N.A.Tuxtaxodjaeva kabi tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy qarashlari alohida e'tiborni tortadi.[5]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi".

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.

"Madaniyat" lotincha "Colere" so'zidan olingan bo'lib, "ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish, ibodat" ma'nolarini anglatadi. XVIII asrdan boshlab "madaniyat" atamasi inson faoliyatining mahsuli bo'lgan barcha narsalarga nisbatan qo'llanila boshlagan. Bu ma'nolarning barchasi "madaniyat" so'zining qo'llanilishida saqlanib qolgan, ammo aslida bu so'z "insonning tabiatiga maqsadli ta'siri, tabiatning inson manfaatlari uchun o'zgartirilishi, ya'ni yerga ishlov berilishi" (*qishloq xo'jalik madaniyati*) degan ma'noni anglatgan. Keyinchalik "madaniyat" atamasi bilimdon, marifatli, yuksak tarbiyali insonlarni tariflashda ham ishlatila boshlagan. Hozirga kelib "madaniyat" atamasining fan va amaliyotning turli sohalarida 500 dan ortiq variantda ishlatilishi ma'lum.

Mualliflarning madaniyatga bergan ta'riflari umumlashtirilsa, madaniyatga *butun tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi* deb ta'rif berish mumkin. Shunga asosan madaniyatning ikki turi farqlanadi: 1) moddiy madaniyat; 2) ma'naviy madaniyat; Moddiy madaniyat inson faoliyati tufayli yaratilgan "ikkinchi tabiat", ya'ni ishlab chiqarilish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ko'nikmalari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan hayot uchun xizmat qiladigan

barcha boyliklarni anglatadi. Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya'ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta'lim-tarbiya, maktab, o'rta va oliy ta'lim, fan, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, san'at, xalq ma'naviy ijodiyotning barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Masalan, moddiy boylikning biror turini inson aql-zakovatisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Demak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ma'naviy madaniyat ham yotadi. Har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma'naviy ma'daniyat voqealikni badiiy aks ettirish va o'zlashtirish vositasidir. Moddiy madaniyat dunyo va insonlarning moddiy hayot sharoitlari bilan, ma'naviy madaniyat esa urf-odat, rasm-rusm, an'ana, marosim va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o'rganilsa, uning inson fikrlashi bilan bog'liq ekanligi yakdil seziladi. Shunday ekan, inson ko'z o'ngida aks etgan voqea-hodisalarni madaniyati orqali ongiga singdirishga hamisha intiladi. Ma'lumki, insonlar ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so'zlashadilar va ular muayyan milliy ma'naviyat va madaniyatga ega. Milliy ma'naviyat, uni ro'yobga chiqishida muhim o'rin tutadigan til madaniyati va nutq ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o'z aksini topadi. Masalan, stol ustidagi biror narsani yerga tushib ketishidagi emotsional holatni ingliz ayoli "Oops", nemis ayoli "Mein Got!", rus ayoli "Боже мой!", o'zbek ayoli esa "Voy, o'lay" tarzlarida ifodalaydi. Turli millatlarga mansub bo'lgan ayollar til madaniyati va nutq ma'naviyatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi ushbu misoldan ko'rinib turganidek, to'saddan sodir bo'lgan his – hayajonni ifodalashda hech qanday lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan "Oops!" undov so'zidan, nemis va rus ayollari o'z ajdodlarining til madaniyati va nutq ma'naviyatiga amal qilgan holda Allohni rozi qiladigan "Mein Got", "Боже мой" so'zlaridan foydalanadilar. O'zbek ayoli esa bunday holda salbiy ma'noga ega bo'lgan "Voy, o'lay!" so'zlarini ishlatadi.

Insonning hayot kechirishida kerakli predmetlar hamda yuzaga keladigan voqea-hodisalarni madaniyat vositasi deb fikr yuritsa ham bo'ladi. Masalan, quyoshni yoki oyni madaniyatga kiritish bir tomomdan mumkin emasdek ko'rinadi. Ammo barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalarning mavjud ekanligi ma'lum. Lekin ba'zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari (slavyanlar va germanlar)

quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholanadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo'лади. Janubda yashovchi xalqlar madaniyatida oy alohida e'tirof bilan tilga olinadi. Ruslar ongida u qorong'ilik, oxirat bilan bog'lanib, ba'zida hayot- va momot bilan (ЖИТЬ «ПОД ЛУНОЙ», » В ПОДЛУННОМ МИРЕ» - hammaning hayoti birdek sharoitda kechadi) tasavvur qilinsa, oy nuri boshqa slavyanlarda homilador hamda norasidalar uchun havfli, ziyon keltiradigan hodisaga taqqoslanadi. Vetnamliklarda esa boshqa janubiy Osiyo xalqlaridagi kabi oyga munosabat tomoman boshqacha, ya'ni ular oy kalendari bo'yicha yashashadi, maxsus nishonlanadigan Oy bayrami bolalarning sevimli bayrami hisoblanadi. Go'zal, nozik va beg'ubor yosh qizlar oyga o'xshatiladi, sevishganlar oy yorug'ida guringlashib, unga bag'ishlab she'rlar to'qishadi va qo'shiqlar aytishadi. Shuning uchun Vetnam xalqi hayotidagi barcha ezguliklarni oy orqali tasavvur etadilar. Shu kabi oyga munosabat - o'zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki o'zbeklarda oy quyoshdan nur olib, yog'du soluvchi samoviy jismgina emas ("oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" - maqol), balki "go'zal, chiroyli yuz" (oy yuzini qora chimmat zulmidan qutiltirg'il. "juda go'zal, juda ham chiroyli") ("Oy desa oyga, kun desa kunga o'xshaydi"), safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilash ("Oy borib omon qayt") ma'nolarida ishlatiladi [5, 205]. Shuni aytib o'tish joizki, rus xalqida ham "лицо как луна" iborasi go'zalikka tan berishni anglatadi . Bunga o'xshagan misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham uchratish mumkin. Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o'ziga xos alohidaliklarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etilishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A. Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obykti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Professor N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab..." nomli malomasida lingvokulturologiya,

umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun hizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan.

XIX asrda V.Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o'rganishda millat madaniyatiga asosiy e'tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalari XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida o'ta tez sur'atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikdan alohida o'rin egalladi. Lingvokulturologiya til va madaniyat, til va xalq mentaliteti, milliy o'ziga xosligining o'zaro munosabati hamda o'zaro ta'sirini tadqiq etadi, ilmiy asoslaydi. Bu jihatdan u madaniyat hamda til haqidagi fan bilan o'zaro bog'lanadi. Lingvokulturologiya til birliklarining milliy-madaniy ma'nosi (semantika)ni, ma'no mazmuni va ottenkalarini, til va madaniyat munosabatlarini, milliy madaniyatning tilda ifoda etilishi muammolarini ilmiy va amaliy o'rganadi.[1]

Har qanday voqelikni qiyoslash qiyoslanayotgan voqelik yoki narsa hodisaning integral yoki differentsial belgilarni aniqlashtirish imkonini yaratadi.[2] Tilshunoslikda F. de Sossyur tomonidan tilning integral va differentsial belgilari farqlandi. Bu ilmiy yo'nalish oppozitsiya, transformatsiya, komponent tahlil kabi qator tilni ilmiy va amaliy o'rganish metodlarining asosini tashkil etadi.

Xalqlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish asnosida boshqa tillarga murojaat etish va o'rganish kuchaymoqda. Boshqa tillarni o'rganish esa o'sha xalqning madaniyatini o'rganish, ya'ni, his qilish imkonini beradi. Shu ma'noda oxirgi paytlarda tilning madaniyat bilan o'zaro munosabatini o'rganish favqulodda dolzarb masalaga aylandi. Shu asnoda tilshunoslikda lingvokulturologiya deb ataluvchi maxsus yo'nalish, tadqiq ob'ekti paydo bo'ldi. Nemis tilshunosi V. fon Gumboldt til va madaniyat munosabatlarini ilk bor o'z asarlarida ifoda etdi: "Inson tili unga predmet haqidagi ma'lumotni qay tarzda yetkazsa, shu bilan yashaydi. Har qanday til shaxs mansub bo'lgan xalqni, uning tarzini ifoda etadi".[3]

Ilmiy tadqiqotlarda lingvokulturema termini qo'llanila boshlandi. Lingvokulturemalar (языковoe значение-nominativ ma'no, predmetlik ma'nosi)dan tashqari, milliy-madaniy (tildan tashqaridagi madaniy ma'no) kabi

segmentlarni o'z ichiga oladi. So'z (belgi-ma'no) til birligi sifatida lingvokulturemaning tarkibiy qismi hisoblanadi. So'z tildagi narsa-hodisalarni ifodalasa, lingvokulturema predmet mazmunini ifodalaydi. Lingvokulturema tildagi ifodasiga ko'ra so'z, gap, atama, so'z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Lingvokulturema til birligiga nisbatan murakkab hodisadir.[4] U o'zida tilning ifodasini, tasavvuri bilan birga tildan tashqaridagi muhitni (vaziyat, reallik), mavjudlikni ifoda etadi. Ona tili yoki boshqa chet tilini yaxshi biladigan har qanday shaxsning nutqida madaniy (культурный areal) ma'no ishtirok etadi. Madaniy ma'nosiz u yoki bu matnning mohiyatiga kira olmaymiz, u haqidagi mazmunni idrok eta olmaymiz. Matn mazmunidagi madaniy fenomenni tushunib yeta olmaymiz. U yoki bu millatga xos bo'lgan o'ziga xoslikni tasavvur etish uchun milliy mentallikni anglash bilimi zarur. Lingvokulturema o'ziga xoslangan nominativ ma'noni ifoda etishi bilan birga madaniy-ma'rifiy, milliy mentallik assotsiativ tasavvurlarni anglab yetish imkoniyatini yaratadi.

Lingvokulturemalar xalqning o'ziga xos madaniyatini uning til birliklari orqali aks ettiruvchi lisoniy hodisalardir.[6] V.A.Maslova ularni o'rganuvchi fan tilshunoslik va madaniyatning kesishishida paydo bo'lganini va u «Lingvokulturologiya» deb atalishini, bu fan millat madaniyatini tilda aks ettirish va mustahkamlash masalasini o'rganishini qayd etib, uning asosiy yo'nalishlarini belgilab ko'rsatgan, tasnifini amalga oshirgan.

Lingvokulturologiya asosini shaxs tili tushunchasi va kontsept tashkil etadi. Darhaqiqat, lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish predmeti bo'lgan lingvokulturemalar «kontsept sifatida ontologik jihatdan yuksak umumlashtiruvchilik va tilning turli sathlari, vositalari orqali ifodalanish imkoniyatlariga ega bo'lgan, har bir tilda o'ziga xos semantik maydonni vujudga keltiradigan keng qamrovli tushunchadir».[7] Biroq lingvokulturema va kontseptning farqli va umumiy xususiyatlari mavjud. V.I.Karasikning e'tirof etishicha, «lingvokulturologik kontseptlar uch tarkibiy qismdan tashkil topgan. Bular: tushuncha, obrazlilik va ma'lumot».

Hozirgi dunyo tilshunosligida til va so'zlovchi (tinglovchi), til va kommunikatsiya, til va mantiq, til va olamni bilish, til va madaniyat bog'liqligi masalalari tadqiqiga yanada jiddiy yondashish natijasida tilshunoslikning lingvokulturologiya yo'nalishi ham kundan-kunga rivoj topib bormoqda.[8] Kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lgan lingvokulturologiyada til taraqqiyoti madaniyat va til aloqadorligi, ularning bir-biriga ta'siri, xos belgilarining o'zaro

sintezlashishi kontseptida o'rganilsa, shu asosda kelib chiqqan til birliklari – lingvokulturemalar genezisi, xususiyatlari, o'zida lisoniy va ekstralingvistik belgilarni dialektik birlikda namoyon etishi ochiladi.

Sohalararo kompleks birlik bo'lgan «lingvokulturema» terminini tilshunoslikda ilk bor qo'llagan V.V.Vorobev talqiniga ko'ra, «Lingvokulturema – bu lingvistik va ekstralingvistik (tushuncha yoki predmet) mazmuni dialektik birligini tashkil etgan kompleks birlikdir». Bu birlik so'zga nisbatan chuqur ma'noga ega. Odatiy belgi – ma'noga kulturemaning tildan tashqari mazmuni, ya'ni madaniy tushuncha komponenti ham qo'shiladi.

Lingvokulturemalar semantikasida ma'lum bir xalqning urf-odat va an'analari, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, xo'jalik muhiti bilan tutash milliy-madaniy xususiyatlari aks etishi sababli ular bilan bog'liq muammolar tadqiqotchilarni uzoq yillardan beri qiziqtirib kelmoqda.[9] Ko'proq amaliy tabiatga ega bo'lgan lingvokulturologiya fani XIX asrda til hodisalarini antropologik paradigmaning hosilasi sifatida o'rgana boshlagach, ancha dolzarblik kasb etdi. XX asrning oxirgi choragiga kelib lingvokulturologiyaning Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, V.Vorobev, V.Shaklenay maktablari shakllandi.

XULOSA.

Ilmiy izlanishlardan anglashiladiki, lingvokulturemalar tarkibi til birliklariga qaraganda ancha murakkabdir. Lingvokulturemalar o'zida lingvistik, madaniy, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni mujassamlashtiradi. Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma'no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to'g'ri va ko'chma ma'nosidan farqli o'laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.Petersen Marilyn. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Tashkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – P.125.
- 2.Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков): Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Краснодар, 2007.
- 3.Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказачном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010.
- 4.Palmer G.B. Toward a Theory of Cultural Linguistics. – Austin: University of Texas Press, 1996. – 348 p.

5. Morain G. Kinesics and cross-cultural understanding // Culture Bound. Bridging the Cultural Gap in Language Teaching. Ed. J. Valdes. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P.64 – 76
6. Serdihun B., Sivasish B. Language, Culture and Translation of the Karbi: A Brief Study. / International Journal of Social Science and Humanity vol. 2, no. 6. – India, 2012. – P.562-564
7. Воробьев В.В. Лингвокультурологическая парадигматичности. – М.: Рос. Ун-т. Дружбы народов, 1996. – 170 с
8. Опарина Е.О. Лингвокультурология: методологические основания и базовые понятия // Язык и культура: сб. обзоров. – М.: ИНИОН РАН, 1999. – С.27-48
9. Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX века: итоги, тенденции, перспективы // Лингвистические исследования в конце XX века. – М.: ИНИОН, 2000. – С.25-55

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ORDENLARINING TAVSIFI

*Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi.
E-mail: jasurbek_91@bk.ru
tel: 94 666 04 24*

Annotatsiya: Davlat mukofotlarining tavsifi deganda, uning dizayn shakli, qimmatbaho metallardan foydalanilganligi, ranglari, har bir yozuv va sur‘atlar ma‘nosi, ularning qalinligi va og‘irligi kabi jarayonlar tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi ordenlari o‘z ahamiyati va darajasiga muvofiq tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: qonun, davlat mukofoti, orden, taqdirlash, mikron, oltin, kumush, yozuv, tartib raqam, qadag‘ich, qirra, yulduz, millimetr.

Abstract: The description of a state award refers to processes such as its design form, the use of precious metals, the colors, the meaning of each inscription and image, their thickness and weight. Orders of the Republic of Uzbekistan are characterized in accordance with their importance and level.

Key words: law, state award, order, award, micron, gold, silver, writing, order number, pin, edge, star, millimeter.

Аннотация: В описании государственной награды упоминаются такие процессы, как форма оформления, использование драгоценных металлов, цвета, значение каждой надписи и изображения, а также их толщина и вес. Заказы Республики Узбекистан отличаются своей важностью и уровнем.

Ключевые слова: закон, государственная награда, orden, награда, mikron, zloto, serebro, nadpis, porjadkovyy nomer, bulavka, ostrie, zvezda, millimetr.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi o‘z istiqlolini qo‘lga kiritgach, davlat mukofotlarini yaratish, ularni tavsifini ishlab chiqish, mukofotlarning umumiy konsepsiyasi va dizaynini shakllantirishda tarixiy an‘analar qadriyatlar va milliylikka alohida e‘tibor qaratildi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, hozirgi kunda davlat mukofotlari “Davlat belgisi” davlat-ishlab chiqarish birlashmasining Toshkent zarbxonasida ishlab chiqarilmoqda. Bu erda mukofotlarning dastlabki loyihalari yaratiladi so‘ngra eng maqbul bo‘lgan na‘muna bosib chiqariladi. Davlat mukofotlari orasida ordenlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu ordenlarni shakli tuzilishi va tavsifi biz uchun ahamiyatli hisoblanadi. Davlat mukofotlari 2018 yil 11 aprelda “Davlat mukofotlari

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida qonun qabul qilinib, ushbu qonunning 8-moddasida O'zbekiston Respublikasining "Mustaqillik", "Amir Temur", "Jaloliddin Manguberdi", "Buyuk xizmatlari uchun", "El-yurt hurmati", "Fidokorona xizmatlari uchun", "Mehnat shuhrati", I va II darajali "Sog'lom avlod uchun", I va II darajali "Shon-sharaf", "Do'stlik" va "Mardlik" ordenlaridan iborat deb belgilab qo'yilgan [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami metodologik manba sifatida olindi. Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, mantiqiylik, analiz, sentiz metodlaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi ordenlari haqida qiyosiy tahlil qilib o'tildi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

"Mustaqillik" ordeni 1 mikron qalinlikda oltin qoplangan 925 darajali kumushdan tayyorlanadi. Orden ikki yon bag'ridan zarhal nur taralgan sakkiz qirrali musamman ko'rinishida bo'ladi. Ikki yon bag'ridan taralgan nurlarning yuzasida diametri 2 millimetrli 46 ta fianit bor. Musammanning burchaklari orasida yoqutrang emal qoplangan taram-taram bo'lib taralayotgan nurlar joylashgan. Ordenning markazida mustaqillik ramzi bo'lmish Humo qushi kumush rangda tasvirlangan. Humo qushi ortidagi, rangli emaldan ishlangan manzara O'zbekistonning jozibasi va sahovatini aks ettiradi. Humo qushini o'rab turgan aylananing yuqori qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining ramzi - yarim oy va yulduzni o'z ichiga olgan moviy musamman tasvirlangan. Aylananing tepa qismida o'n ikki insoniy fazilat ramzi bo'lgan o'n ikkita yoqut tosh bor. Aylananing chekkalari har ikki tomondan 1 millimetr qalinlikda moviy emaldan ishlangan qabariq hoshiya bilan o'ralgan. Aylananing pastki qismida oq rangli emaldan ishlangan manzarada yoqutrang emal bilan qoplangan "MUSTAQILLIK" degan yozuv bor. Ordenning orqa tomoni botiq bo'lib, markazida ordenni taqish uchun burama shtift va murvat bor. Ordenning qalinligi 8 millimetr va og'irligi esa 60,5 grammni tashkil etadi[2].

"Amir Temur" ordeni 1 mikron qalinlikdagi oltin qoplangan 925 darajali kumushdan tayyorlanadi va ikki yon bag'ridan nurlar taralgan sakkiz qirrali musamman ko'rinishida bo'ladi. Ordenning markazida ot mingan Amir Temurning qiyofasi kumush rangda tasvirlangan. Otliq ortidagi rangli emaldan ishlangan manzara moviy rangda. Otliq qiyofasini o'rab turgan aylananing yuqorisida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining ramzi-yarim oy va yulduzni o'z ichiga olgan moviy musamman tasvirlangan. Aylananing yuqori qismida oq rangli emal

manzarada “AMIR TEMUR” yozuvi bitilgan bo‘lib, u yoqutrang emal bilan qoplangan. Aylananing pastki qismida oq rangli emal manzarada moviy emaldan ishlangan “KUCH - ADOLATDA” so‘zlari bitilgan. Aylananing chekkalari har ikki tomondan 1 millimetr qalinlikdagi qizil emaldan ishlangan qabariq hoshiya bilan o‘ralgan. Ordenning orqa tomoni botiq bo‘lib, markazida ordenni taqish uchun burama shtift va murvat bor. Ordenning qalinligi 8 millimetr va og‘irligi 60,5 grammdan iborat[3].

Jaloliddin Manguberdi ordeni 925 probali kumushdan tayyorlanadi, qirrador kumushrang nurlar taralgan beshburchak shaklga ega. Ordenning markazida, oq aylana bilan hoshiyalangan doirada, taralayotgan nurlar fonida Jaloliddin Manguberding qabariq zarhal tasviri joylashgan. Siymo ortidagi fon havorang-moviy emal bilan qoplangan. Aylananing yuqori qismida doira bo‘ylab “JALOLIDDIN MANGUBERDI” degan yozuv joylashgan. Aylananing pastki qismida yashil emal qoplangan ikkita dafna novdasi simmetrik tarzda joylashgan bo‘lib, barglari orasiga fianit kristallar o‘rnatilgan. Aylana uzra, markaz bo‘ylab o‘lchami bo‘yicha diametri 8 millimetrli doiraga jo bo‘ladigan tillarang musamman joylashgan. Ordenning orqa tomoni botiq. O‘rtasida burama qadag‘ichi bor. Pastki qismida ordenning tartib raqami 1 millimetr kattalikdagi botiq shrift bilan yozilgan. [4]

“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni 1 mikron qalinlikdagi oltin qoplangan 925 darajali kumushdan tayyorlanadi va sakkiz qirrali musamman ko‘rinishida bo‘lib, uning qirralari yoqutrangda tayyorlangandir. Musammaning burchaklari orasida moviyrang emal qoplangan taram-taram bo‘lib taralayotgan nurlar joylashgan. Orden markazida bitta umumiy markazga ega bo‘lgan, diametrlari 36 va 24 millimetrli ikkita aylana joylashgan. Ichki aylanada ramziy tarzda tasvirlangan moviy rangdagi er kurrasi fonida O‘zbekiston Respublikasi xaritasi tilla rangda tasvirlangan. Tashqi va ichki aylanalar o‘rtasida, yuqori qismida oq emal fonida kumush rangdagi “BUYUK XIZMATLARI UCHUN” yozuvi joylashgan. Aylananing pastki qismida yashil rangdagi ikkita birlashtirilgan dafna novdalari joylashtirilgan. Orden oraliq kolodka va halqalar yordamida muhayyar lentaga biriktirilgan. Tillarang oraliq kolodka chiqib kelayotgan quyosh fonidagi Humo qushi tasviri ko‘rinishida. Muhayyar lenta yo‘l-yo‘l qizil, moviy, oq va yashil ranglardan iborat. Ordenning orqa tomonida O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan. Pastki qismida ordenning raqami 1 millimetr kattalikdagi botiq shrift bilan yozilgan. Ordenning qalinligi 8 millimetr va og‘irligi 165 gramm[5].

“El-yurt hurmati” ordeni 1 mikron qalinlikdagi tilla qoplangan 925 probali kumushdan tayyorlanadi, u ikki yoqlama nurlar taraluvchi sakkiz qirrali yulduz shaklida bo‘ladi. YUlduz burchaklari orasida moviy rangdagi shaffof emal qoplangan, taraluvchi nur tutamlari joylashgan. Ordenning markazida, doirada qizil rangli yo‘l bilan hoshiyalangan Registon arxitektura majmui tasvirlangan. Uning orqasida, fon bilan berilgan, rangli emal qoplangan vodiylar va tog‘lar, ular uzra esa moviy osmon fonida chiqib kelayotgan quyosh tasvirlangan. Butun tasvir shaffof emal bilan qoplangan bo‘lib, u tasvir uzra yarim doira segmentini tashkil etadi. Tasvir atrofi aylana bilan hoshiyalangan bo‘lib, aylananing yuqori qismida, oq fonda “EL-YURT HURMATI” degan yozuv, aylananing pastki qismida yashil shaffof emal bilan qoplangan dafna novdasi joylashgan. Orqa tomonining pastki qismida ordenning tartib raqami 1 millimetr kattalikdagi botiq shrift bilan yozig‘liq. Orden O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ranglaridagi shoyi lenta sirilgan qadag‘ichga halqa va ilmoqcha yordamida ulanadi. [6]

«Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni 1 mikron qalinlikdagi oltin qoplangan 925 probali kumushdan tayyorlanadi hamda sakkiz qirrali yoqut rangli yulduz shaklida bo‘ladi. YUlduz burchaklari orasida oq emal qoplamasi uzra taralayotgan nurlar aks etgan. Ordenning markazidagi doirada tilla rangdagi Humo qushi tasvirlangan. Uning ortida — markazdan yuqoriroqdagi moviy manzara bag‘rida O‘zbekiston Respublikasining oltinrang xaritasi joylashgan. Tasvir atrofidagi oq emalli hoshiya uzra oltin rangdagi harflar bilan «FIDOKORONA XIZMATLARI UCHUN» so‘zlari yozilgan. Ordenning quyi qismida oq rangli paxta chanoqlari va tilla rangli bug‘doy boshloqlari tasvirlangan. Orqa tomonining pastki qismida Ordenning tartib raqami 1 millimetr kattalikdagi botiq shrift bilan yozig‘liq. Orden O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ranglaridagi shoyi lenta sirilgan qadag‘ichga halqa va ilmoqcha yordamida ulanadi[7].

«Mehnat shuhrati» ordeni 0,25 mikron qalinlikda tilla qoplangan kumushdan tayyorlanadi. Orden markaz qismidan nurlar taralib turgan yashil dafna novdalari bilan o‘ralgan bo‘rtma noto‘g‘ri ellips shaklidadir. Ordenning yuqori qismida hilpirab turgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i tasvirlangan. Ordenning bo‘yi 46 millimetr, eni — 41 millimetr. Ordenning markazida, diametri 16 millimetrli kumush rang doira ichida, quyosh fonida kumush rangda Toshkent shahridagi Xalqlar do‘stligi saroyi tasvirlangan. Pastda kumush rang hoshiyali qizil yoqut rangdagi fonda «MEHNAT SNUHRATI» degan kumush rang yozuv bor. Ordenning orqa tomoni botiq shaklda. Pastda 1 millimetr kattalikdagi shriftida ordenning tartib raqami

yozilgan. Qadag'ichning bo'yi 48 millimetr, eni 46 millimetr bo'lib to'g'nog'ich bilan taqiladi[8].

I darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni oltin suvi yugurtirilgan metallardan tayyorlanib, 34 mm. diametrdagi to'g'ri doira shakliga ega. Ordenning o'ng qismida quyoshning iliq nurlari aksida ona va bolaning qavariqli tasviri tushirilgan. Ordenning orqa tomonida O'zbekiston Respublikasi gerbining qavariqli tasviri va doira bo'ylab «SOFLOM AVLOD UCHUN» so'zlari yozilgan. Doiraning yuqori qismida 12 ta yulduz tasvirlangan. Orden orqa tomonining chetlari bo'rtma hoshiyalangan. Orden ilmoq va halqa yordamida yonlari kumush suvi yugurtirilgan dasta bilan birlashtiriladi. Dastaning ichki qismi yashil rangli tovlanadigan lenta bilan o'ralgan. Lentaning o'rtasida oltinrang o'rik daraxtining gullab turgan shoxi o'yib ishlangan. II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni kumush suvi yugurtirilgan metallardan tayyorlanadi. Orden ilmoq va halqa yordamida yonlari o'yma oltinrang dasta bilan birlashtiriladi. Dastaning ichki qismi kumush rangli tovlanadigan lenta bilan o'ralgan. Lentaning o'rtasida kumushrang o'rik daraxtining gullab turgan shoxi o'yib ishlangan[9].

I darajali «Shon-sharaf» ordeni 0,25 mikron qalinlikda tilla qoplangan kumushdan tayyorlanadi. Ordenning asosi xiyol bo'rtma shakldagi sakkiz qirrali yulduz ko'rinishida bo'lib, uning markazidan uchi tugal nurlar taralib turadi. Yulduzning qarama-qarshi joylashgan uchlari orasi 48 millimetr. Ordenning markazida zumrad rang emal qoplangan kumush hoshiyali qalqon va orden asosining rangidagi qilichlar tasvirlangan. Qalqonning pastida balandligi 3 millimetrli kumush rang «I» raqami bor. Qalqon orden asosining rangidagi tol shoxlari bilan hoshiyalangan. Ordenning chap va o'ng qismlarida simmetrik tarzda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglaridagi yoyilib turgan mato joylashgan. Ordenning quyi qismida qalqon tagida to'q qizil rang fonda kumush rang «SNON-SNARAF» degan yozuv va hoshiya bor. Ordenning orqa tomoni botiq shaklda. Pastda 1 millimetr kattalikdagi shrift bilan ordenning tartib raqami yozilgan. Qadag'ichning bo'yi 48 millimetr, eni 46 millimetr. Orden to'g'nog'ich bilan taqiladi.

II darajali «Shon-sharaf» ordeni kumushdan tayyorlanadi. Ordenning asosi xiyol bo'rtma shakldagi sakkiz qirrali yulduz ko'rinishida bo'lib, uning markazidan uchi tugal nurlar taralib turadi. Ordenning markazida zumrad rang emal qoplangan zarhal hoshiyali qalqon va orden asosining rangidagi qilichlar tasvirlangan. Qalqon o'rtasida zarhal rangli yarim oy va sakkiz qirrali yulduz aylana diametri 8 millimetrli

sathga jo bo'lgan. Qalqonning pastida balandligi 3 millimetrli zarhal rang «II» raqami bor. Qalqon orden asosining rangidagi tol shoxlari bilan hoshiyalangan. Ordenning chap va o'ng qismlarida simmetrik tarzda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglaridagi yoyilib turgan mato joylashgan. Ordenning quyi qismida qalqon tagida to'q qizil rang fonda zarhal rang "SNON-SNARAF" degan yozuv va hoshiya bor. Ordenning orqa tomoni botiq shaklda. Pastda 1 millimetr kattalikdagi shrift bilan ordenning tartib raqami yozilgan. Qadag'ichning bo'yi 48 millimetr, eni 46 millimetr. Orden to'g'nog'ich bilan taqiladi[10].

"Do'stlik" ordeni 1 mikron qalinlikda tilla qoplangan tompakdan tayyorlanadi va u bir-biriga joylashtirilgan turli kattalikdagi, markazi bitta bo'lgan ikkita sakkiz qirrali yulduz shaklida bo'ladi. Katta va kichik yulduzlar oralig'i moviy emal bilan to'ldirilgan. Yulduzning burchaklari orasida taraluvchi zarhal, uchlari yumaloqlangan nur tutamlari joylashgan. Ordenning markazida, diametri 12 millimetrli doira ichida oq kumushrang fonda qo'lni qo'lga berib ko'rishish ramziy tasvirlangan bo'lib, qo'llar tasvirining ayrim erlari zarhallangan. Tasvir atrofida, moviy emal berilgan fonda o'n ikki insoniy fazilat ramzi sifatida o'n ikkita kumushrang yulduz joylashgan. Butun tasvir atrofida aylana joylashgan bo'lib, uning yuqori qismiga qizil emal bilan naqsh etilgan "DO'STLIK" degan yozuv, pastki qismiga esa zarhal dafna barglari jo bo'lgan. Orqa tomonining pastki qismida ordenning tartib raqami 1 millimetr kattalikdagi botiq shrift bilan yozig'liq. Orden moviy, yashil, sariq, qizil rangli, bir-biridan oq yo'l bilan ajratilgan, eni bir xil rangdor yo'lli shoyi lenta sirilgan qadag'ichga halqa va ilmoqcha yordamida ulanadi[11].

"Mardlik" ordeni 1 mikron qalinlikda oltin qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi. Ordenning balandligi 50 millimetr, eni 41 millimetr, qalinligi 4,5 millimetr. Orden nishoni yig'ma, uning asosi tilla rang naqshinkor parchinlari bo'lgan ko'k emal hoshiyali shakldor geraldik qalqon ko'rinishida bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasining birligi ramzi bo'lgan qavariq sakkiz qirrali yulduz biriktiriladi. Yulduz qirralari taram-taram bo'lib taralayotgan zarrin ovalsimon nurlar ko'rinishida bajarilgan. Sakkiz qirrali yulduzga naqshinkor parchinlari bo'lgan, qavariq, qadimiy uslubda aks ettirilgan dumaloq sharqona qalqon ko'rinishidagi diametri 30 millimetrli qoplama medalon biriktiriladi. Qalqonning har ikkala yon tomoni g'alaba, shon-shuhrat va mukofot ramzi bo'lgan qavariq, tilla rangli dafna yaproqlaridan gulchambar ko'rinishida hoshiyalangan. Gulchambardan pastda tilla rang gardishli, oq emalli lenta ko'rinishida aks ettirilgan fonga "MARDLIK" ordeni nomi joylashtirilgan. Yozuv bo'rtma bosh harflar bilan to'q qizil emalda bajarilgan.

SHarqona qalqondan yuqorida moviy rangda emallangan oltin hallangan yarim oy va yulduzli musamman - O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining muqaddas ramzlari tasvirlangan. Musamman yonlarida sakkiz qirrali yulduz fonida milliy or-nomus va qadr-qimmat, Ona yurtni himoya qilishga shaylik ramzi bo‘lgan, o‘zaro ko‘ndalang kesishgan ikkita qadimiy sharqona qilich efesi (dasta belamagi), quyi tomonda esa, ularning uzun qayrilma tig‘larining uchlari qavariqli tasvirlangan. Orden nishoni kompozitsiyasini dala formali kiyimdagi askarning - Vatan himoyachisining hayot sarchashmasi ifodasi bo‘lgan asosiy ramziy belgi - chor atrofga taralayotgan zarrin quyosh nurlari aks etgan oq rangli emal fonidagi qalqon markazida joylashgan bo‘rtma, ko‘krakdan yuqori qismining yarim yon tomonlarga olingan tasviri yakunlaydi. Ordenning orqa tomonida diametri 22 millimetrli O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qavariqli tasvirlangan. Pastki qismida ordenning raqami 2 millimetr o‘lchamdagi zarb qilingan shrift bilan yozilgan. Orden to‘rt xil rangdagi yo‘llari bo‘lgan muhayyar lenta bilan sirilgan besh qirrali qadag‘ichga ilmoqcha va halqacha yordamida ulanadi. Qadag‘ichning balandligi 48 millimetr, eni 46 millimetr. Qadag‘ichning orqa tomonida ordenni kiyimga taqib qo‘yish uchun to‘g‘nog‘ich ko‘rinishidagi moslama mavjud[12].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, davlat mukofotlari hususan ordenlar tasvirining yaratilishi va shakllanishi borasida mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirgi kunga qadar ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlarda tanlov asosida har bir fuqaro o‘zi yaratgan na‘munalari bilan ishtirok etishi mumkin. Bu esa qaysidir ma‘noda fuqarolarimizda daxldorlik hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Ordenlarimiz tavsifini ishlab chiqishda milliylik, ko‘p yillik an‘analar, qadriyatlar, tarixiylik va hozirgi islohotlar aks ettirilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. 2018 yil 11 aprel “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida qonun. // Xalq so‘zi. 2018 yil 12 aprel. №72
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 51-son, 514-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda;
3. «Amir Temur» ordenining tavsifi O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi 421-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997 y., 4-5-son, 126-modda
4. 2000 yil 30 avgust O‘zbekiston Respublikasi «Jaloliddin Manguberdi» ordeni to‘g‘risida qonun. <https://lex.uz>.

5. «Buyuk xizmatlari uchun» ordenining tavsifi O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi 421-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997 y., 4-5-son, 126-modda
6. «El-yurt hurmati» ordenining tavsifi O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 82-II-son Qonuni tahririda 2003 y., 9-10-son, 149-modda
7. 1993 yil 7 may O‘zbekiston Respublikasi «Sog‘lom avlod uchun» ordeni to‘g‘risida qonun. <https://lex.uz>.
8. 1995 yil 30 avgust O‘zbekiston Respublikasi «SHon-sharaf» ordeni to‘g‘risida qonun <https://lex.uz>.
9. «Do‘stlik» ordenining tavsifi O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 may, 82-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 153-modda
10. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 37-son, 422-modda.

VATAN HIMOYACHILARI YODI MANGU BARHAYOT!
(Ikkinchi jahon urushida noma'lum ketgan bobom
Begmatov Omon va Xaramjo'ylik urush qatnashchilari haqida)

S.B.Murtazova

QarMII, dotsent, t.f.bo'yicha f.d.(PhD),

Tel: +998907204895; E-mail: sahodat@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qarshi shahrining janubi-g'arbida joylashgan Xaramjo'y qishlog'i va G'uzor tumanining Tojik qishlog'idan Ikkinchi jahon urushiga qatnashgan jasorat timsollari, aziz ota-bobolarimiz haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada asosan og'zaki tarix, xotiradagi esdaliklardan ma'lumot sifatida foydalanildi.

Shuningdek, Ikkinchi jahon urushining asorati, insoniyat boshiga keltirgan musibati, abadul-abad bu urushning etkazgan aziyatlari insoniyat qalbida muhrlanib qolganligi va har bir yosh ikkinchi jahon urushi qatnashchilari timsolida haqiqiy vatanparvar, o'z yurtini dushmandan himoya qilgan qahramonlarni ko'rishi, qaysiki o'zbek jangchisi bo'lmasin avvalo ko'z oldida o'z qishlog'i, mahallasi, oilasi, vatani turganligi haqidagi ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Kalitli so'zlar: Xaramjo'y, Ikkinchi jahon urushi, g'alaba, qahramonlik, vatan, vatanparvarlik, Berlin, Esse, noma'lum xabarnoma, orden, medal, mahalla, qishloq.

Аннотация: В данной статье анализируются информации о наших мужественных людях, наших дорогих предков которой сражавшихся во Второй мировой войне из юго-западе Карши села Харамджой и Таджикского села Гузарского района. В статье в основном использовалась устная история, мемуары в качестве информации.

Также освещаются, последствия Второй мировой войны, трагедия человечества, страдания этой войны навсегда запечатлелись в сердцах человечества, и каждый молодой человек видит в образе участников Второй мировой войны настоящих патриотов, героев, защищавших свою страну от врага. Каждый воин из Узбекистана перед тем сражаться с врагами прежде всего думал о своей семье, махалли, и своего деревню, родину.

Ключевые слова: Харамджой, Вторая мировая война, победа, героизм, родина, патриотизм, Берлин, эссе, неизвестное извещение, орден, медаль, окрестности, деревня.

Abstract: *This article analyzes information about our courageous people, our dear ancestors of whom fought in the Second World War from the south-west of Karshi, the village of Haramdzhoy and the Tajik village of Guzar district. The article mainly used oral history, memoirs as information.*

The effects of the Second World War, the tragedy of mankind, the suffering of this war are forever imprinted in the hearts of mankind, and every young man sees in the image of the participants in World War II real patriots, heroes who defended their country from the enemy. Each warrior from Uzbekistan, before fighting enemies, first of all thought about his family, mahalla, and his village, homeland.

Key words: *Haramjoy, World War II, victory, heroism, homeland, patriotism, Berlin, essays, unknown notice, order, medal, neighborhood, village.*

KIRISH

“Vatan ostonadan boshlanadi” - deydi dono xalqimiz. El boshiga ish tushsa yurtning mard o‘g‘lonlari, jonkuyar, fidoyi farzandlari ko‘ksini qalqon qilib, yurtni yovdan himoya qiladi. Vatanimiz tarixining qadimgi davridan yovga ko‘ksini qalqon qilgan ko‘plab dovyurak, mard qahramonlari xalq uchun, yurt tinchligi uchun maydonga chiqqan. Vatanni onaga qiyoslaymiz, yurtidan ayro bo‘lgan inson o‘z yurti tuprog‘ini ko‘zlariga to‘tiyo qiladi. “Vatan” atamasi aslida arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma’nodagi tushunchadir. Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma’nodagi tushunchadir».

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov “ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan vatandoshlarimiz, o‘zbekistonlik jangchilarning ko‘z oldida avvalo o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, mahallasi, oila a‘zolari, yaqinlari turgan bo‘lsa ajabmas”, - deya ta’kidlagandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami metodologik manba sifatida olindi. Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, mantiqiylik, analiz, sentiz metodlaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushida noma’lum ketgan fidoyilar haqida fikr - mulohazalar olib borildi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Darhaqiqat, ikkinchi jahon urushi tarixda yuz bergan jangu-jadallarning eng dahshatli hisoblanadi. Bu urushda vatanimizning har bir go‘shasidan yurt fidoyilari avvalo o‘z ona zamini, muqaddas tuprog‘ini yovdan asrash, himoya qilish uchun bel

bogʻladilar. Qarshi shahrining janubiy-gʻarbida joylashgan Qadimgi Qarshi tumanidagi Xaramjoʻy⁶¹ qishlogʻidan ham ikkinchi jahon urushiga yuzlab mard va jasur yurt oʻgʻlonlari urushning dastlabki kunlaridan jangga otlandilar. Ularning har birini xotirlash, nomlarini abadiylashtirish, biz minnatdor avlodlarning burchimiz hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushiga 400 ga yaqin Xaramjoʻyliklar safarbar etildi. Ulardan Bozorov Jabbor, Qodirov Parada, Rahmatov Karim, Xalilov Hikmat, Nor Bozorov, Nosir Haqberdiev, Fayzullaev Sayfi, Haydar Chinniev, Raupov Mavlon, Davron Raupov, Joʻraev Alimardon, Joʻrayev Shukur, Samadov Turdi Rasulov Umar, Qozoqov Elmurod, Qozoqov Abdulla, Joʻrayev Safar, Samadov Tursun, Boybekov Ahmad, Mustanov Sayfulla, Tolipov Ahmad, Xalilov Jalil, Pirov Nor, Pirov Karim, Samarov Nur, Obidov Sayfi, Boqiev Gʻaybi, Turdiev Qilich, Ravshan Odilov, Fozil Odilov, Temir Ashirov, Chori Egamberdiev, Sagʻdulla Narzullaev, Nabi Sodiqov, Ahad Maqsudov, Barat Qudratov, Hakim Xoliqov, Gʻofir Paradaev, Raim Hasanov, Yoʻldosh Ergashev, Tursun Mamatov, Temir Paradaev, Qoʻchqor Joʻraev, Najim Nosirov, Sharif Kamolov, Haydar Olimov, Amir Sultonov, Turdi Muqimov, Sattor Samadov, Kamol Shamsiev, Parada Mahmudov, Aziz Xayrullaev, Joʻra Eshonqulov, Tursun Akbarov, Omon Sirojiddinov, Mamatqul Tursunov, Hikmat Murodov, Xudoyor Akbarov, Sunnat Sultonov va boshqalarni taʼkidlashimiz mumkin.

Bu kabi maʼlumotlarni nafaqadagi pedagog Hazratqul Haydarov “Xaramjoʻy mahallasi tarixidan lavhalar” nomli kitobida mahallamizdagi har bir xonadonga kirib, ikkinchi jahon urushiga safarbar etilgan ota-bobolarimizning qahramonligi, ularning gʻalabaga qoʻshgan hissasi, erishgan yutuqlari haqida maʼlumotlar keltirgan.

Shuningdek, bu asarda ustoz Hazratqul Haydarov 400 ga yaqin qishlogʻimizning norgʻul, azamat yigitlari, ota-bobolarimiz fashizm balosini daf qilish uchun jonbozlik koʻrsatganliklari alohida taʼkidlanadi.

Ularning koʻrsatgan xizmatlari, jasoratlari, qaerlarda shahid ketgani borasida koʻproq izlanishlar olib borishimiz, ularning har birlarini nomlarini abadiyatga muhrlash, yoshlarimiz esa oʻz ajdodlarining ikkinchi jahon urushida qozonilgan gʻalabaga qoʻshgan hissasi, ulardan faxrlanish tuygʻusini his qilishi uchun

Ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga keltirgan kulfat, asorat tafsilotlari toʻlaligicha hali yoritilmagan. Chunki, 2020 yil 9 mayda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan gʻalabaga 75-yil toʻldi. Gʻalabani 75-yilligida xalqimizga urush

⁶¹ Xaramjoʻy – Haram kalimasi arab tilida taʼqiqlangan, muqaddas joy. Alisher Navoiy asarlarida Makka va Madina shaharlari haramayn sharafayn (ikki muqaddas shahar) deb tavsif qilingan. Xaramjoʻy Qarshi shahrining janubi-gʻarbiy tomonida joylashgan boʻlib, sabza va soʻlim joy, suv bilan oʻralgan, obod maskan kabi maʼnolarni anglatadi.

ko'rsatgan talofatlar, urushga safarbar etilganlar, shahid ketganlar, bedarak ketganlar haqidagi ma'lumotlar, raqamlar yangilandi. Arxiv ma'lumotlari, og'zaki tarix va boshqa ko'plab manbalar asosida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar davom etmoqda. Har bir izlanish davomida urush talofatlarining, inson qalbini junbushga keltiradigan yangi faktlar, dalillar ma'lum bo'lmoqda.

Birgina Xaramjo'y qishlog'i misolida Ikkinchi jahon urushiga safarbar etilganlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, urushga jo'nab ketganlarning atigi 10 foizi ya'ni 36 nafari o'z qishlog'iga qaytib kelgan. Urushdan qaytib kelganlarning aksariyati yarador, mayib-majruh holda qaytganlar. Hozirgi kunda mahallamizdan Ikkinchi jahon urushida ishtirok etganlarning barchasi olamdan o'tdilar. Ularning yorqin xotirasi hozir ham xalqimiz, mahalladoshlarimiz tomonidan hurmat va e'zoz bilan tilga olinadi, xotirlanadi.

Ana shunday insonlardan biri, matematika fani bilimdoni, hurmatli ustoz, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Qozoqov Abdulla domladir. Qarshi tumaniga qarashli 25-sonli maktab (hozirda Qarshi shahridagi 30-sonli maktab) da uzoq yillar davomida yoshlarga saboq bergan ustozimiz G'alaba kuniga bag'ishlangan marosimlarda, tadbirlarda ko'ksii to'la orden va medallar bilan tashrif buyurardi. YOshlarga urush jangohlarida ko'rsatgan jasorati, qahramonligi haqida ko'zlarida yosh bilan xotirlab, so'zlab berardi. Hatto dushmani Berlingacha quvib borganligini ta'kidlaganligi yodimda. Qirg'inbarot urush jangohlarida bir oyoqlaridan yaralanib, keyinchalik oyoqlari oqsab qolgan.

Aurobindo Gxosh XIX asr oxiri XX boshlarida Hindistonda boshlangan milliy ozodlik kurashining ko‘zga ko‘ringan yirik arboblardan biridir. Faylasuf milliy ozodlik kurashiga ham siyosiy, ham ma‘naviy ham madaniy jihatdan qarshi chiqqan haqiqiy hind farzandi hisoblanadi.

Gxosh 1872 yil 15 avgust kuni Kalkutta shtatida dunyoga kelgan. O‘sha paytda uning otasi Angliyada tahsil olib Hindistonga qaytayotganida, oilada uchinchi farzandi dunyoga kelganini eshitib behad xursand bo‘ladi. Evropa ta‘limini olgan otasi har doim ham bu ta‘lim tizimini hind ta‘limidan ustun qo‘yadi. SHuning uchun ham o‘z farzandlariga ham evropacha ta‘lim berishga intiladi. Aurobindo Gxosh besh yoshidanoq akalari Bena Bxushan va Mona Maxanlar bilan Darjilingdagi Lorette nomidagi monastirlik maktabiga o‘qishga boradi. Bu erda asosan ingliz zadogonlarining bolalari ta‘lim olar edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“1879-1892 yillar u o‘z bilimini Angliyada avval Manchester shaxridagi Dryuetta ingliz oilasida uy darsini oladi. Keyinchalik 1884 - 1890 yillarda Londondagi ilohiy Pavel maktabiga qatnaydi, va nixoyat 1890 - 1892 yili Kembridj kollejida o‘qishini davom ettiradi”⁷⁶.

Gxoshning Yevropacha ta‘limga qanchalik berilib ketganligi shundan dalolat beradiki, u 1893 yili Hindistonga ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, qadimgi grek va lotin tillarini o‘rganib qaytgan bo‘lsa ham, o‘z ona tili bo‘lgan bengal tilini Angliyadan qaytgach o‘rgana boshladi. SHaxsan o‘zining aytishicha o‘z ona tilini to‘liq o‘rgana olmagan, bu tilda biron bir nutq so‘zlamagan, asarlarini deyarli xammasini ingliz tilida shu jumladan falsafiy asarlari xam ingliz tilida yozilgan. Gxosh Angliyada o‘qib yurgan vaqtida Geraklit va Platonlarning xamda qadimgi hind falsafasining katta sistemasi hisoblangan Vedanta bilan yaqindan tanishib chiqadi. 1890 - yillardan boshlab u Hindistonning ijtimoiy xayotida faol ishtirok eta boshlaydi. 1893 yili ingliz kolonizatorlarini Hindistondan quvib chiqarish maqsadida “Nilufar va Hanjar” maxfiy jamoa tuzadi. U Milliy Kongress partiyasidagi liberal rahbarlarning siyosatiga qarshi chiqib, bu partiyani keng xalq ommasi bilan yaqinlashtirishga xarakat qiladi.

⁷⁶ Величенко А. Е.. Эволюция религиозно – философских взглядов Ауробиндо Гхоша. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Санкт - Петербург. 1999.с.16

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Hozirgi davrda butun insoniyat demokratiya va adolat yo‘lida xarakat qilayotgan ekan umuminsoniyatning kelajagi quyi sinfining soni va diniy madaniyatiga bog‘liqdir. Bizning proletariyamiz (u proletariyat deganda ishchilar, kambag‘al dexqonlarni, kosib xunarmandlarni, mayda burjuaziyani tushunar edi) ular ochlik va qorong‘ulikka botgan. Siz xohlaysizmi yoki yo‘qmi, bundan qat‘iy nazar mana shu qorong‘ulikdagi va azob uqubatdagi proletariyat kelajakka qaratilgan barcha orzu umidlarimizni o‘zida mujassamlashtirgan chunki, jamiyatning o‘rta sinfi kuch, aql va sodiqlikdan mahrum etilgan”⁷⁷, - degan edi Aurobindo Gxosh.

U mustaqillikka erishish yo‘lida xatto “olov va qon bilan”⁷⁸ xarakat qilish kerak degan. Bu borada bir davrda yashab ijod qilgan hind ma‘rifatparvar faylasufi Tilak bilan xamfikir bo‘lgan. U xam boshqa rahbarlar singari Svaraj (mustaqillikka erishish) va Svadeshi (ingliz tovarlarini boykot qilish) shiorlarini targ‘ib qilgan. Gxosh falsafasiga hamda uning inglizlarga qarshi kurashishidagi g‘oyalari “Gandichilik” yo‘liga ham o‘xshab ketadi. Biz agar Tilak, Mahatma Gandi, Robindranat Tagor hamda Aurobindo Gxosh yashagan davrlarni qaraydigan bo‘lsak, bu kuchli faylasuflar bir zamonning olimlari ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ular bir davrda yashab inglizlarga qarshi kurashishda asosan bir g‘oyalar ostida birlashib harakat qilishgan.

1906-1907 yillar Gxosh rahbarligida Bengaliyada “Bandemataram” (Vatanga qasamyod) gazetasi nashr etila boshlandi. Bu gazeta inglizlarning olib borayotgan siyosatlarini qattiq qoralab kelgan. Men shu erda shuni aytishim mumkinki, faylasuf ta‘lim tarbiyani Angliyada olgan bo‘lsa ham hech qachon ularni yoqlamagan, aksincha yuqorida yozganimizdek ularni siyotiga, Hindistondagi inglizcha ta‘lim tarbiyaga qarshi chiqqan. Aurobindo Gxosh 1908 yili inglizlar tomonidan qamoqqa olinadi. U qamoqda falsafiy masalalar, xususan hind falsafasi bilan shug‘ullanadi. Qamoqdan chiqqach, inglizlar ta‘qibidan qochib Hindistondagi fransuz koloniyalaridan biri Pandesheryda quvg‘inlikda yashab, mamlakatning siyosiy axvolidan ancha uzoqlashadi, siyosiy faollikdan voz kechib, mistikaga beriladi.

1920 - 1950 yillargacha u asosan falsafa va iloxiyot bilan shug‘ullanadi. Diniy jamoa - “Ashram”ni tuzib unga rahbarlik qiladi. Uning fikricha, diniy jamoa insoniyatning kelajakdagi jamiyatidir. Bu jamoa a‘zolari zoxidlik prinsipi asosida xayot kechirar edilar.

Gxosh Hindistonda buyuk mutafakkir va milliy ozodlik harakatining arbobi sifatida katta shuhrat qozonadi. “Javoharlal Neru Aurobindo Gxoshga “Fikrlar

⁷⁷ Ауробиндо Гхош. Йога и цель эволюции//Метафизические исследования. Выпуск8.СПб.,1998.

⁷⁸ Ауробиндо Гхош. Основы индийской культуры. Индийская культура и влияниеизвне. Идеал человеческого единства //Открытие Индии: Философские и эстетические воззрения в Индии XX в.М.,1987.

xukomasi” deb baho bergan”⁷⁹. U o‘zidan keyin qator asarlarni qoldirdi. Bular: “Gita haqida ocherklar”, “Sotsial taraqqiyot psixologiyasi”, “Ideal va progress”, “Evolyusiya”, “Insoniyat birligi ideali”, “Bengaliya xaqida poema”, “Geraklit”, “Integral Vedanta”, asarlaridir. Gxosh 1950 yilning 5 dekabrda vafot etadi. O‘limidan oldin 1947 yili 15 avgustda hind xalqiga munojaat qilib, o‘zining to‘rtta hayotiy orzusini e‘lon qiladi.

Uning birinchi orzusi. Inqilobiy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu harakat ozod va bir butun Hindistonni tashkil etishga olib kelishi kerak. Bugungi kunda Hindiston ozod, lekin bir butunlikka erishgani yo‘q.

Ikkinchi orzusi. Osiyo xalqlarini ozodlikka chiqarish va ularni qayta tiklash orqali Osiyo ilgarigi munosib mavqega ega bo‘lib, xozirgi zamonda tarixiy o‘rnini topib olsin. U hind xalqini o‘z milliy mustaqilligi uchun kurash olib borayotgan Osiyo xalqlari orasida karvonboshlik qilishga da‘vat etdi.

Uchinchi orzusi. Millatlarning dunyoviy ittifoqini tuzish orqali butun insoniyatning yorug‘ va go‘zal xayotining asosini tashkil eta olsin. Buning uchun Gxosh hind xalqini butun dunyodagi davlatlar o‘rtasida tinch va do‘stona munosabatlarini mustaxkamlashga da‘vat etdi. Buning uchun o‘z orzu umidi ro‘yobga chiqishida diniy va ma‘naviy g‘oyalarga tayanib “Ruhiy” jihatdan qayta tiklanishga umid bog‘ladi.

To‘rtinchi orzusi. Komil insonlar jamiyatini qurish, u orqali tarix jumboqlarini echish, insoniyatning asriy orzu - umidlarini xayotga tadbiq eta olsin. Bularni amalga oshirishda Gxosh hamon hind xalqini odil ijtimoiy tuzumni integral yoga yo‘lidan qurishga da‘vat etib keldi. SHunday qilib uning falsafiy ta‘limoti “integral vedanta” nomi bilan shuxrat qozondi. Vedanta hind falsafiy tuzumi ichida uchta asosiy oqimlar mavjud ya‘ni cheklanmagan monizm, cheklangan monizm, va plyuralizm yoki dualizm oqimlaridir. Biroq bu oqimlar A.Gxosh fikricha; “...bir tomonlama mosligi bilan cheklangandir, chunki materializm va idealizm, ratsionalizm va mistitsizm, monizm va plyuralizm unda bir biriga qarama - qarshilikda bo‘lib, o‘zaro kelishmaslik kurashida namoyon bo‘lar edi”⁸⁰ deb ta‘kidlaydi.

A.Gxosh nuqtai nazaricha integral vedanta bu barcha qarama - qarshiliklar “to‘liq kelishtirilgandir”. Aurobindo Gxosh falsafiy masalalarni umuman ob‘ektiv idealizm pozitsiyasidan hal etadi. Uning falsafasining asosida Vedanta ta‘limoti yotadi. Uning fikricha, “narsa, xodisalar braxma (Xudo)dan kelib chiqadi va oxir oqibatda yana braxmaga aylanadi. Braxma tabiatga, quyi borliqqa tushadi. Quyi borliq, tabiat esa yana braxmaga - oliy borliqqa ko‘tariladi. Bu xil harakatning

⁷⁹ Бродов В. В. Интегральная веданта Ауробиндо Гхоша // Общественно – политическая и общественная жизнь в Индии. М., 1962.

⁸⁰ Интегральная йога Шри Ауробиндо. М., 1992.

sub'ektiv ruhidir"⁸¹. Narsalar dunyosi ham ob'ektiv reallik bo'lib, braxmadan paydo bo'ladi va qonuniy ravishda yana braxmaga aylanadi. U noaniq braxman, ma'lum braxman va ruh, mutloq ong va jon (atman) sifatidagi braxman mavjud deydi.

U substansiya deb noaniq braxmanni tushunadi. Bu braxman o'z - o'zidan mavjud, moddiy ham emas, ruhiy ham emas, unga vaqt, fazo, harakat, sifat, son kabi kategoriyalar taaluqli emas, braxman bularning barchasidan yuqori turadi.

Braxman barcha narsalarning asosidir. Uning realligi muayyan atributlarda, materiya va ruhda gavdalanadi. "Braxman – materiya" ma'lum braxman bo'lib, dunyoning moddiy sababi va barcha narsalarni keltirib chiqaradi. Braxman - ruh mutlaq ong, mutlaq aql, jondir.

Braxmaning bu ikki atributi bir - biriga katta ta'sir ko'rsatadi va birining ichiga biri singib ketadi. Natijada narsa va hodisalar dunyosi, muayyan darajada ong braxman bilan nurlanadi, ya'ni predmet hodisada u yoki bu darajada ong hosil qiladi. Gxosh VII asrda yashagan hind mutafakkirlari SHankara va XII asrda ijod etgan Ramanujalarning Vedanta ta'limotiga oid qarashlarini qattiq tanqid qiladi. Masalan, u SHankaraning narsalar dunyosi illyuziyadir degan fikrini rad etib, bu dunyo real mavjud, degan tezisini asoslashga intiladi. Gxosh fikricha, inson "Koinotning sintezi", ya'ni inson kichik ko'rinishdagi koinotdir. O'simliklarga xos xayotiy kuch, xayvonotlarga xos sezish va xohish, oliy xayvonga xos oddiy intellekt insonga xam taalluqlidir"⁸² deydi. Jon esa "Haqiqiy insonni" tashkil etadi. Uning fikricha, inson tanasi ruhiy kuch uchun makon bo'lib, tana salomatligi esa shu kuchning bilishidagi faoliyati uchun sharoitdir.

Gxosh fikricha, inson pastga qarab tushayotgan braxman zarrachalarini aralashmasidir. U insonning sotsial mohiyatini inkor etadi va bu masalada an'anaviy vedantizm doirasida bo'ladi.

U bilishni inson o'z ichki dunyosini tushunish va uning ilohiy mazmunini kashf etish jarayoni sifatida tushunadi. "Bilmoq uchun biz o'z ichimizga kirib, ichki mushoxadaga berilishimiz kerak"⁸³, degan edi u. Inson o'zini bilishi, o'rganishi orqali braxman darajasiga ko'tarilishi, u bilan qo'shilishi va nixoyat "ilohiy hayotga" erishishi mumkin.

Braxmaning bizdagi zarrachasi - jon aktiv harakat qilib, yana braxmanga qaytishni ta'minlash uchun intilish kerak. Jon onga, aqlga ega. U tanassux nazariyasiga ishonadi. Falsafadagi bir yoqlamalikka qarshi kurash orqali Aurobindo Gxosh falsafasining asosiy masalacini echib, materializm va idealizm ustidan yuqori turuvchi o'zining integral vedantasini "falsafada uchinchi" yo'l deb ilgari surishga

⁸¹ Sri Aurobindo.// The Renaissance in India. Sri Aurobindo Ashram Trust.1997

⁸² Sri Aurobindo.// The Life Divine. Sri Aurobindo Ashram Trust. 2005

⁸³ Sri Aurobindo.// Autobiographical Notes. Sri Aurobindo Ashram Trust. 2006

xarakat qildi. Bunda barcha xususiy nuqtai nazarlar sintezlashadi. Aslini olganda Aurobindo Gxosh falsafaning bosh masalasini ob'ektiv idealizm pozitsiyasidan hal etishga harakat qildi. Aurobindo Gxosh butun integralizm tizimi barcha ma'sul vedantalarning subordinatsiyasi, o'zaro bir -biriga o'tib turishi va o'zaro bog'lanishlar ya'ni braxman, uning atributlari va fenomenal dunyo o'rtasidagi bog'lanishdan iborat deb ta'kidladi. Braxman va uning atributlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda faylasuf an'anaviy hind formulasiga murojaat qildi. "Sat, Chit, Anand" ya'ni borliq ong, farovonlik. Boshqacha aytganda, braxmanning yagona holati hisoblanadi. Aurobindo Gxosh integratsiyasining asosida vedantaning asosiy g'oyasi braxman uning ko'rinishlari va o'tkinchi foniy dunyoning o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro munosabatlar yotadi. Braxman uning ko'rinishlari va o'tkinchi dunyo o'rtasidagi munosabatlarni va aloqalarni tasvirlash ularni Gxosh quyidagi "CHit – Sat - Ananda" formulasini ishlatdi, ya'ni "borliq – ong - farovonlik". Boshqa so'z bilan aytganda Braxmanning yagona xolati bu: 1 U mavjud. 2 U biladi. 3 U farovonlikda. O'zining bilish nazariyasini asoslashda Gxosh vedantaning asosiy g'oyasi bo'lgan "Inson - koinotning birligi"ni tashkil qiladi, yoki (kengaytirilgan koinotning timsolidir) u jismonan materiyadan tashkil topgan, o'simliklarning hayotiy kuchidan, hayvonlarni his qilish va sezish qobiliyatidan oliy xayvonlarga xos bo'lgan fikr yuritish qobiliyati va insonni vujudga keltiruvchi yagona bo'lgan jondan iboratdir degan g'oyaga asoslangan. Shunday qilib, insonning ijtimoiy mohiyati Gxoshning e'tiboridan chetda qoldi va u vedanta an'anaviy butun borliq va inson mohiyati braxman zarrachalarining yig'indisidan iborat degan g'oyaga asoslangan. Bilish nazariyasini Gxosh insonning ichki olamiga kirish, o'zning ilohiy tabiatini yuzaga chiqarish deb tasavvur etdi. "Bilish uchun inson o'z ichki olamiga kirishi va uni aks ettirishi zarur"⁸⁴ deb yozadi Gxosh.

Demak, borliqdagi barcha narsalarning mohiyatini bilish uchun inson o'z ichki olamiga kirishi zarurdir, chunki bularning barchasini asosida braxman yotadi, deb xisoblaydi Gxosh.

XULOSA

O'zligini anglagan insongina, braxman darajasiga ko'tarilishi, u bilan qo'shilishi va shu orqali ilohiy xayotga erishishi mumkindir. Ruhiy hayotning asosini ilohiy xayotga o'tish, unga erishish tashkil etadi. Kim o'zligini anglashi mumkin? Qalbimizda bo'lgan braxmangina o'zligimizni anglashga yordam beradi. Gxoshning bunday ta'limotini ilgari surishga sabab, u ijtimoiy xayotdan ajralib yakka yashashidan kelib chiqqan. Uning falsafiy qarashlari asosan mistik xarakterga ega

⁸⁴ Кравченко В.В. Мистицизм в русской философской мысли XIX - начала XX вв. М., 1997

bo'lsada, o'z davri uchun ilg'or fikrlarni ilgari surdi. U traditsion vedantaga qarshi chiqib, olamning real mavjudligini tan oladi.

Faylasuf hind xalqi ozodligida butun umrini baxshida etdi, barcha ilmiy ishlarida ham ozodlik nafasi ufurib turdi. Garchi mamlakatimizda Mahatma Gandidek mashhur bo'lmasada, uning qilgan ishlari taqsinga loyiqdir. SHuning uchun ham hindlar Gxoshni avliyodek hurmat qilishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Величенко А. Е.. Эволюция религиозно – философских взглядов Ауробиндо Гхоша. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Санкт - Петербург. 1999.с.16
2. Ауробиндо Гхош. Йога и цель эволюции//Метафизические исследования. Выпуск 8.СПб.,1998. с.89
3. Ауробиндо Гхош. Основы индийской культуры. Индийская культура и влияние извне. Идеал человеческого единства //Открытие Индии: Философские и эстетические воззрения в Индии XX в.М.,1987. с.325
4. Бродов В .В. Интегральная веданта Ауробиндо Гхоша // Общественно – политическая и общественная жизнь в Индии. М., 1962. с.163
5. Интегральная йога Шри Ауробиндо. М., 1992. с.265
6. Sri Aurobindo.// The Renaissance in India. Sri Aurobindo Ashram Trust.1997.P.356-357
7. Sri Aurobindo.// The Life Divine. Sri Aurobindo Ashram Trust. 2005 P. 89
8. Sri Aurobindo.// Autobiographical Notes. Sri Aurobindo Ashram Trust. 2006 P. 206
9. Кравченко В.В. Мистицизм в русской философской мысли XIX - начала XX веков.М.,1997 с.65

“DEVONI NIHONIY”DA O‘G‘UZ LAHJASI UNSURLARI

Sevara Baratova

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti kichik ilmiy xodimi,

Tel: 93-5384422

[E-mail-baratovasevara07@gmail.com](mailto:baratovasevara07@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Devoni Nihoniy” she’riy to’plamida uchraydigan o‘g‘uz unsurlariga misollar ko‘rsatilgan. Uning nazmiyotida o‘g‘uz lahjasi elementlarining keng miqiyosda uchrashi isbotlangan. Nihoniy”dagi she’rlarning til xususiyatlari o‘zbekcha so‘zlar bilan bir qatorda, forsiy va arabiy so‘zlar, o‘zbek tilining qarluq, qipchoq va o‘g‘iz lahjalariga oid bo‘lgan so‘zlardan tashkil topganligi. Shoir ijodida o‘g‘uz lahjasiga dahldor so‘zlar salkam 20 foizni tashkil qilishi. Shoir she’riyatining til boyligida o‘g‘uziy til unsurlarining mo‘l qo‘llanganining asosiy omillari dalillangan. “Devoni Nihoniy” she’riy to’plamidagi o‘g‘uzcha so‘zlarning morfologik, leksik tomonlari solishtirilgan. O‘g‘uz unsurlarning badiiy so‘z sifatida ishlatilganligi misollar orqali keltirilgan. Shoir qarluq lahjasiga oid so‘z-shakllarni o‘g‘uz lahjasining morfologik shakllariga solib istifoda qilganligi shoir mahoratini ifodasi sifatida dalillangan.

Kalit so‘zlar: “Devoni Nihoniy”, o‘g‘uz lahjasi, lisoniy unsurlar, fonetik, morfologik, leksik

Аннотация: В статье приводятся примеры огузских элементов из сборника стихов Хамзы Хакимзода Ниязи «Девони нихоний». Его поэзия доказывает широкий спектр элементов огузского диалекта. Лингвистические особенности стихов на Нихонийском языке состоят из узбекских слов, а также персидских и арабских слов, слов, принадлежащих карлукским, кипчакским и огузским диалектам узбекского языка. В творчестве поэта почти 20% составляют слова, относящиеся к огузскому наречию. Обоснованы основные причины богатого использования элементов огузского языка в языковом богатстве поэзии поэта. Сопоставлены морфологические и лексические аспекты огузских слов в сборнике стихотворений «Девони нихоний». Приведены примеры использования огузских элементов как художественных слов. Использование поэтом карлукского диалекта в морфологических формах огузского диалекта является свидетельством его мастерства.

Ключевые слова: *Девони Нихоний, огузский диалект, языковые элементы, фонетический, морфологический, лексический.*

Abstract: *This article gives examples of Oghuz elements found in Hamza Hakimzoda Niyazi's collection of poems "Devoni Nihoniy". His poetry proves the wide range of elements of the Oghuz dialect. The linguistic features of the poems in Nihoniy consist of Uzbek words as well as Persian and Arabic words, words belonging to the Qarluq, Kipchak and Oghuz dialects of the Uzbek language. In the poet's work, the words related to the Oghuz dialect make up almost 20%. The main reasons for the rich use of the elements of the Oguz language in the richness of the poet's poetry are proved. The morphological and lexical aspects of the Oghuz words in the collection of poems "Devoni Nihoniy" are compared. Examples are given of the use of Oguz elements as artistic words. The poet's use of the Qarluq dialect in morphological forms of the Oguz dialect is a testament to the poet's skill.*

Keywords: *"Devoni Nihoniy", Oghuz dialect, linguistic elements, phonetic, morphological, lexical*

KIRISH

“Devoni Nihoniy” Hamza Hakimzoda Niyoziyning 1914-1915 yillarda tuzilgan she’riy to‘plami sanaladi. Unda shoirning 1905-1914 yillarda bitgan aruziy she’rlari jamlangan. Shuni alohida e’tirof etish joizki, Hamzaning ushbu she’rlari an’anaviy yo‘llarda bitilgan bo‘lib, janr jihatidan qaralganda, unga 150 ta g‘azal, shuningdek murabba, muxammas va musaddaslar kiritilgan. She’rlarining aksariyati o‘zbekcha, qisman tojik tilida yozilgan aruziy she’rlari ham mavjud.

“O‘zbek tili juda boy adabiy an’anaga ega. O‘zbek xalqining butun tarixi davomida yaratgan yozma yodgorliklari o‘zbek tilini o‘rganish uchun, uning turli davrlardagi taraqqiyot bosqichlarini belgilash uchun boy material beradi”, - deb yozadilar universitet va pedagogika institutlari uchun dialektologiya fanidan darslik yozgan mualliflar (Reshetov, Shoabdurahmonov, 1978: 232). Mazkur fikrni B.To‘ychiboev, B.Hasanovlar yozgan darslikda ham uchratish mumkin. (To‘ychiboev, “Hasanov”, 2004: 112) Shu jihatdan qaralganda, Hamzaning bu devoni alohida mavqe tutadi. Darhaqiqat, “Devoni Nihoniy”dagi she’rlarning til xususiyatlari – lisoniy zaxirasiga nazar tashlansa, unda an’anaga muvofiq tarzda o‘zbekcha so‘zlar bilan bir qatorda, forsiy va arabiy so‘zlar, o‘zbek tilining qarluq, qipchoq va o‘g‘iz lahjalariga oid bo‘lgan so‘zlardan tashkil topganini ko‘rish mumkin. Agar e’tiborni o‘zbek tiliga tegishli bo‘lgan so‘zlar galareyasiga qaratsak, salafllari va boshqa shoirlarga qaraganda, o‘g‘uz lahjasiga tegishli bo‘lgan so‘zlar

katta qismni tashkil qiladi. Umuman olganda, Qo‘qon adabiy muhitida o‘g‘uz lahjasiga aloqador bo‘lgan lisoniy unsurlar Hamza Hakimzodaga qadar ham she‘riyat tilida keng istifoda etib kelingan. To‘g‘rirog‘i, bu jarayon Qo‘qon adabiy muhitining XIX asr shoirlarining asarlaridan boshlangan. O‘g‘uz lahjasiga daxldor bo‘lgan lisoniy unsurlar dastlab shoir G‘oziy asarlarida uchragani buni tasdiqlaydi. Keyinchalik bunday holat Amiriy, Fazliy, Gulxaniy, Maxmur, Hoziq, Ado, Xotif va yana boshqa shoirlar she‘riyatida ham bardavom bo‘ldi. Buning ayrim bir sabablari borgan o‘xshaydi. Birinchidan, XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qonda hukmdor Amiriyning rahnamoligida adabiyot anchayin rivoj topgan. Fazliyning “Majmuai shiron” tazkira-antologiyasida ko‘rsatilishicha, Amiriy zamonasida Qo‘qonda saksondan ziyod shoirlar ijod qilgan va ko‘proq payrov rusumidagi she‘rlar yozganlar. Agar Amiriy biror bir she‘r bitgan bo‘lsa, bir necha shoir uning ana shu she‘riga nazira (o‘xshatma) bitgan. Tabiiyki, Amiriy istifoda qilgan o‘g‘uz elementlari (qofiyada, radifda, misralarning boshqa o‘rinlarida) o‘z-o‘zidan tatabbu‘ qilingan she‘rlarga ham ko‘chib o‘tgan. Ikkinchidan, ana shu o‘g‘uz til unsurlarining Amiriy she‘riyatida joriy bo‘lishi bevosita hududlararo aloqalarga ham borib taqaladi. Bu davrda Amiriy devoni usmonli turklar qo‘liga ham borib etgan va u erda kitobot qilingan. Amiriy she‘rlariga uchinchi ta‘sirni Qo‘qon xonligining Xorazm xonligi bilan durust aloqada bo‘lganligi bilan asoslash mumkin. To‘rtinchi ta‘sir esa, Qo‘qon adabiyotida Fuzuliy, Maxtumquli, Nasimiy nazmiyotining keng tarqalgani deb ko‘rsatsa bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hamzaning “Devoni Nihoniy”sidagi turli aruziy she‘rlar an’anaviy bo‘lganini hisobga olinsa, quyidagi omillar uning nazmiyotida o‘g‘uz lahjasi elementlarining keng miqiyosda uchrashini isbotlaydi:

1. Devondagi aksariyat she‘rlar Amiriy tamal toshini qo‘ygan Qo‘qon adabiy muhitining shoirlari she‘rlariga o‘xshab ketadi. Natijada, ular istifoda qilgan o‘g‘uziy til unsurlari shoir she‘rlariga ham ko‘chib o‘tgan.

2. Shoir she‘riyatining til boyligida o‘g‘uziy til unsurlarining mo‘l qo‘llanganining ikkinchi omili Hamza yashagan davrda jadidchilik harakatining avj olishi bilan aloqadordir. Jadid gazeta va jurnallarining mintaqada keng tarqalishi, tatar o‘g‘uzlarining ma‘rifatchilik harakatlari tufayli shu davrda ijod qilgan qator adiblar nazmi, nasri va dramaturgiyasiga, hattoki publitsistikasi, darsliklariga-da o‘g‘uz tili elementlari keng yo‘sinda kirib kelgan.

3. Hamza Hakimzodaning (va boshqa ijodkorlarning ham) o'g'iz lahjasining fonetik, morfologik hamda leksik unsurlaridan o'z asarlarida keng qo'llashiga Ozarboyjon teatrlarining O'rta Osiyo bo'ylab gastrollarga kelishi, "Arshin molchi", "Qaynona" va boshqa sahna asarlarini ommaga namoyish qilishi ta'sir qilgan ko'rinadi.

4. SHu bilan birga, madrasalar, eskicha va yangicha maktablarda o'g'uz shoirlari, ayniqsa, Fuzuliy she'rlarining o'qitilishi, joylarda fuzuliyxonliklarning bardavom bo'lishi, qisqasi, adabiyot orqali tilga ta'sir jarayoniga keng yo'l ochilgani sabab bo'lgan.

5. Hamzaning Xorazm shoirlari bilan yaqin aloqada bo'lishi ham uning asarlarida o'g'uz til elementlarining o'rin olishiga sabab bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayrim misollarga murojaat etib ko'ramiz:

Hamzaning bir g'azali 8 bayt bo'lib, unda jami 107 ta so'z ishtirok etgan bo'lsa, shundan o'g'uz lahjasiga dahldor so'zlar salkam 20 foizni tashkil qiladi. Bular: "vor" (bor) - bu so'z radif sifatida 9 marta, matn ichida bir marta - "vormi" morfologik shaklida ishlatilgan. "ban" (man, men) olmoshi ikki marta istifoda qilingan. Shu g'azaldagi o'g'uzcha so'zlarni bir tizimga solinsa, quyidagilarni kuzatish mumkin:

a) "vor" (bor) modal so'zi:

Ayo shohi karam, *vormi* banga ehson ishongudek,

Xayoling rishtasidan ahdi yolg'on tilgromim *vor*. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

b) "ban" (men) olmoshi: SHu baytda jo'nalish kelishigi shaklida kelgan:

Ayo shohi karam, *vormi banga* ehson ishongudek,

Xayoling rishtasidan ahdi yolg'on tilgromim *vor*. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

v) "cho'x" (ko'p) daraja miqdor ravishi:

Firoqing vahshati qildi vatandan oqibat mahrum,

Xabarsizsan, judolig' o'tidan *cho'x-cho'x* azobim *vor*. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

g) "edarsan" (etarsan) fe'li:

Raqibim ta'nidin uzlatni ixtiyor etdim,

Agar insof *edarsan* ol xabar, o'lsam savobim *vor*. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

d) “bing” (ming) soni:

Xarob etmak ne maqsuding manga tubsiz vafolardan,

Ramuzin bilmadim bu va’dalardan *bing* gumonim vor. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

e) “na” (nima) so‘roq olmoshi:

Na so‘zlar deb g‘arazgo‘ylar qatori ko‘rmasang, jonon,

Qulog‘ingdin tutib bir so‘rgali arzi Nihonim vor. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

Shu bilan birga, g‘azal matnida shoir qarluq lahjasiga oid so‘z-shakllarni o‘g‘uz lahjasining morfologik shakllariga solib istifoda qilganini ham ko‘rish mumkin. Masalan, “so‘rashga” so‘zidagi harakat nomini “*so‘rmog‘a*”, “kuyayotgan” hozirgi zamon fe‘lini “*kuymisham*”, “olishga” so‘zidagi harakat nomini “*olurga*”, “saboq” otini “sabaq” tarzida qo‘llangani bu fikrni isbotlaydi.

Bulargina emas, Hamza Hakimzoda “Devoni Nihoniy”ning deyarli barcha she‘rlarida o‘g‘uz lahjasiga doir so‘zlarga keng o‘rin bergan. Masalan, devonning hamd g‘azalida ham o‘ndan ziyod o‘g‘uz lahjasiga tegishli so‘zlar uchraydi. G‘azalning matlasidayoq bu holat seziladi. Bu lahjaga doir so‘zlarning leksik va morfologik qurilishida ko‘rinadi:

Nahri ashkim *vor* ta’sir *aylamaz* noring *bango*,

Lutfu ehson damda bergan qahri ozoring *bango*. (Hamza Hakimzoda Niyoziy, 1988: 219)

Shu g‘azalda yana “eton” (etgan), “vermaz” (bermas), “ban” (men), “qo‘y banim” (meni qo‘y) kabi o‘g‘uz elementlari ham keladi. Keyingi g‘azallarda “o‘lgondir ango” (bo‘lgandir unga), “taqvoya” (taqvoga), “bing kas o‘lurmish” (ming odam bo‘lsa), “boq” (qara), “qo‘rqmam” (qo‘rqmayman), “qo‘rqam” (qo‘rqaman), “nalar” (nimalar), “og‘lab” (oqizib), “o‘lmayan” (o‘lmagan), “daryoya” (daryoga), “alingdan” (qo‘lingdan), “yo‘xlab” (yo‘qlab), “onlar birla” (ular bilan), “o‘xshayur” (o‘xshaydi) singari leksik va morfologik unsurlarning badiiy so‘z sifatida ishlatilganini kuzatish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzodaning “Devoni Nihoniy”sidagi o‘g‘uz lahjasiga oid so‘zlarning bu qadar ko‘p va xo‘b ishlatilishi she‘rlarining so‘z boyligini yanada oshirgan va undagi malohat va fasohatni kuchaytirgan. Natijada, she‘rlardagi so‘z orqali yuzaga keladigan musiqiylik alohida mavqe tutgan va shoir mahoratining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1978. B. 232.
2. To‘ychiboyev B.B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. T.: 2004. B.112.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Mukammal Asarlar to‘plami. To‘rt tomlik, I Tom. - T.: Fan, 1988, B. 219.

NODIRA VA UNING BESH G‘AZALI NASRIY BAYONI

Shogofa Ozgur

Erciyes universiteti ijtimoiy fanlar instituti turk tili va adabiyoti fakulteti

magistranti

e-posta: sukufe.ozgur93@gmail.com

ORCID ID:0000-0002-5660-0860

Annotatsiya: *Chag‘atoy turkchasi – Qoraxonli turkchasining davomi sifatida XIV asrning so‘nqlaridan boshlab, XV asr Temurliylar davrida yuksalib XX asrning birinchi yarimiga qadar davom etgan va hozirda O‘zbekiston va Afg‘onistonda chog‘dosh o‘zbek turkchasi sifatida qo‘llanilayotgan O‘rta Osiyo turkiy tillaridan biridir.*

Chig‘atoy adabiyotining taniqli ayol shoirlaridan biri Mohlaroyim Nodirabegimdir. Nodira 1792-yilda O‘zbekistonning Andijon shahrida tug‘ilgan. Chig‘atoy va fors tillarida she‘rlar yozgan. Uning qalamga olgan she‘rlari xalq tomonidan sevilgan, yodlangan va musiqa bilan ijro etilgan. U Chig‘atoy turkchasi she‘rlarida Nodira va Komila va forscha she‘rlarida Maknuna taxallusini qo‘llagan.

Bu maqolada, birinchidan, uning hayoti, adabiy merosi haqida ma‘lumot berilgan. So‘ngra esa, uning Chag‘atoy turkchasi devonidan tanlangan besh g‘azali bugungi o‘zbek tiliga qilingan.

Kalit so‘z: *Chag‘atoy turkchasi, Mohlaroyim Nodira, Nodira Devoni.*

Аннотация: *Чагатайский тюркский является продолжением караханидского тюркского. Это один из центральноазиатских тюркских языков, возникший в конце XIV века, возник в период тимуридов в XV веке и просуществовавший до первой половины XX века.*

Одна из самых известных женщин-поэтов чигатайской литературы - Мохлароим Нодирабегим. Нодира родился в 1792 году в городе Андижане в Узбекистане. Он писал стихи на чигатайском и персидском языках. Его стихи любили, помнили и исполняли с музыкой. Он использовал прозвища Нодира и Комила в турецкой поэзии Чигатая и Макнуна в персидской поэзии.

В этой статье, прежде всего, представлена информация о его жизни и литературном наследии. Позже пять его газелей, выбранных из чагатайского тюркского девона, были переведены на современный узбекский язык.

Ключевые слова: *чагатайский тюркский, Мохлароим Нодира, Нодира Девони.*

Abstract: *Chaghatay Turkish, as a continuation of Karakhanid Turkish, is one of the Central Asian Turkish languages that began in the late 14th century, rose*

during the Timurid period in the 15th century and lasted until the first half of the 20th century.

One of the most famous women poets of Chagatai literature is Mohlaroyim Nodira Begum. Nodira was born in 1792 in the city of Andijan in Uzbekistan. She wrote poems in Chagatai and Persian. His poems were loved, memorized and performed with music. She used the pseudonym Nodira and Komila in his Turkish poems and Maknuna in his Persian poems..

This article first gives information about his life, literary personality and works. Later, he translated into Uzbek our five ghazal days, selected from the Chaghatay Turkish divan.

Keywords: *Chahgatay Turkish, Mahlar Ayim Nodira, The Nodira Divan.*

KIRISH

Chag‘atoy Turkchasi, taxminan 600 yil Uyg‘ur va O‘rta Osiyodagi turkiy xalqlarning o‘rtoq yozuv tili sifatida qo‘llanilgan (Albiz, 2013, s.280). Chag‘atoy tili, turkiy tillar oilasining O‘rta Osiyo guruhiga mansubdir. Bu til, XV asrdan boshlab, XX asrning boshlariga qadar qo‘llanilgan bir adabiy tildir. Hozirgi turk shevalari orasida o‘zbekcha va yangi uyg‘urcha unga eng yaqin bo‘lganlardandir. Qoraxonlilar va Xoqonlilar (XI-XIII asr) va Xorazm (XIV asr) adabiy tillarining davomi sifatida Temuriylar (1405-1506) hukumronligi ostida kengaygan bu chig‘atoy tili, ayniqsa Navoiyning asarlarida klassik shaklni oldi. Chag‘atoychaning e‘tibori, buyuk bo‘ldi (Eckmann, 2017, s.15). Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro, Mavlono Lutfiy, Bobur, Sakkokiy, Gadoiy, Yaqiniy, Atoiy, Xorazmiy, Munis, Behbudiy, Durbek va Mohlaroyim Nodira bu adabiyotning muhim shoir va yozuvchilaridandir.

Mohlaroyim Nodira, XVIII asrning so‘nglari va XIX asrning birinchi yarimigacha yashagan, she‘rlari xalq tomonidan sevilgan, yodlangan va ijro etilgan Chig‘atoy adabiyotining muhim ayol shoirlaridan biridir. U, 1792-yilda hozirgi O‘zbekistonning Andijon shahrida dunyoga kelgan. Ma‘rifatparvar Qo‘qon xoni Sayid Amir Umarxon uning turmush o‘rtog‘i bo‘lgan. Turmush o‘rtog‘i Sayid Umarxonning o‘limidan so‘ng Qoqon xonligini boshqargan. Xonlik davrida juda ko‘p madrasa, korvonsaroy, masjid, hamom qurdirgan. 1842-yilda Buxoro xoni Amir Nasrullaxon tomonidan o‘ldirilgan (Yorqin, h.1368, s.1-6).

Nodirabegim, Nodira, Komila va Maknuna taxalluslarini qo‘llab Chig‘atoy turkchasi va fors tillari bilan uch farqli devon yaratgan iste‘dodli va tajribali san‘atkordir. (Kızıltunç, 2012, s.744).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy maqolada Nodira ijodini o'rganishga oid yoritilgan bo'lib, unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy tipologik metodlardan foydalanilgan. Asosiy adabiyotlar sifatida shoironing devonlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nodiraning she'rlari, omma xalq tomonidan sevilgan, yodlangan va ijro etilgan. Shoira, she'rlarini ham turkcha hamda forscha yozgan. Turkcha she'rlarida Nodira va Komila, forscha she'rlarida esa Maknuna va Nodira taxalluslarini qo'llagan shoira, g'azal, muxammas, musaddas, tarji band, tarkib band, taxmis, chiston kabi klassik adabiyotning juda ko'p janrlarida asarlar bitgan. Uning she'rlarida mumtoz she'riyatdan tashqari, xalq adabiyotining ham ta'siri bordir. Shuningdek, she'rlarida Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Lutfiy, Bedil kabi shoirlarning ta'siri yoqqol seziladi. Nodira tirikligida ham o'z zamonasining shoirlari hamda boshqa san'at va adabiyot ustalari tomonidan sevilib qadrlangan. Boshqa tomondan esa, o'zidan keyin kelgan boshqa shoirlarga ta'sir ko'rsatgan. Dilshodi Barno va Anbar Otin singari ayollar shoirlar uni maqtashganlar (Tolkun, 2001, s.169).

Nodiraning Chig'atoy turkchasi va forscha ikki devoni bordir. Olib borgan izlanishlarga ko'ra O'zbekiston kutubxonalarida uning divonini besh nusxasi mavjud bo'lgan va quyidagilardan i'boratdir:

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlangan nusxa. Bu nusxada 108 g'azal joy olgan (Yorqin, h.1386, s.21).

2. 1963-yilda Maslax Xon ismli xususiy kutubxonada topilgan nusxa. Bu nusxada, Nodiraning muxammas, musaddas, musamman, tarji band, tarkib band va firoqnoma kabi nazm shakllari bilan yozgan she'rlari joy olgan.

3. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlangan va Maknuna taxallusi bilan qalamga olingan forscha-tojikcha devonining nusxasidir. Bu nusxada, 333 g'azal joy olgan (Yorqin, h.1386, s.22).

4. Boshqa bir nusxa esa, 1926-yilda Andijonda ko'chirilgan nusxadir. Bu nusxada 250 bayt joy olgan (Yorqin, h.1386, s.22).

5. Namanganda topilgan nusxa. Mohlaroyim Nodirabegimning Nodira, Komila va Maknuna taxalluslari bilan yozgan 120 Chig'atoy turkchasi va forscha she'rdan iboratdir. (Nomiq, h.1392, s. 428.)

Nodiraning Chig‘atoy turkchasi devonidan tanlangan besh g‘azalining nasriy bayoni

Bu yerda Mohlaroyim Nodirabegimning Chag‘atoy turkchasi devonidan tanlangan besh g‘azali hozirgi O‘zbek turkchasiga tarjima qilingan va quyidagilardan iboratdir:

1. May ichsang ay ko‘ngil ildin nihon ich

Labi yodi bila may royagon ich

(Ay ko‘ngil! Agar sevgiling dudog‘ini sog‘inchi bilan bepul ichki ichmoq istasang, jamoatchilikdan yoshirincha ich.)

Agar g‘amdin xalos olmoq tilarsan

Surohidek sharobi arg‘uvon ich

(Agar qayg‘udan qutulmoq istasang, ko‘za ichidagi qizg‘ish ichikini ich.)

Ko‘ngul shodob eding vasli mayidin

Labidin ayru tushding emdi qon ich

(Ay ko‘ngul! Sevgilining birlashish ichimligidan xursand eding. Endi dudog‘idan yiqilib tushganing uchun qon ich.)

Kirib mayxonag‘a g‘amdin amon top

Damodam jom tut may har zamon ich

(Qayg‘ugan qutulmoq uchun mayxonaga kirib, stakanni doimo to‘ldirib ich.)

Mayi nob il ayyoriga muhaqdur

O‘zingni aylamokka imtihon ich

(Aralashtirilmagan ichki ayyor odamlarning huquqidir. Sen ham hilanayrangingni qil.)

Budur mazmuni mavji bodayi nob

Ki sahbo pirni aylar javon ich

(Aralashtirilmagan ichkining sirri budur: qarrini yosh qiladi.)

Senga ay Nodira Jomi muhabbat

Chu sundi soqiyi shirin zabon ich

(Ay Nodira! Shirin so‘zli soqining taklif qilgan sevgi to‘la stakanidan ichki ich.)

2

Sunma may ay soqiy davron menga

Kim nasib olmish azaldin qon menga

(Ey davraning soqiysi! Menga ichki taklif qilmo, chunki qon ichish azaldan buyon mening nasibimdir.)

Yor javridin shikoyat qilmozam

Kim erur bir vajah istihson menga

(Men sevgilining bergan azobidan shikoyat qilmayman. Chunki bu men uchun bag'ri kenglikdir.)

Nola bir dilsuz yorimdur mening

Hamnishindur didayi giryon menga

(Mening yig'lashimning sababi, yuragimni kuydiradigan sevgilimdir.)

Mushkil ishdur dard u hijron kulfati

Yorabb ol mushkilni qil oson menga

(Ayriliqdan azob chekmoq men uchun qiyin bir ishdir. Xudouim, bu muammoni osonlashtir.)

Dasht u sahrolarni qildim ixtiyor

Bo'ldi majnun qissayi burhon menga

(Men cho'llada va dalalarda bo'lishni ixtiyor etdim. Burhonning hikoyasi men majnunga o'xshardi.)

Oh nelay o'tdi bavroni visol

Nevafoliq ayladi davron menga

(Oh! Nima qilishim kerak? Vaqt o'tdi. Davr ham menga xiyonat qildi.)

Muntazirdurman hamisha Nodira

Bir qiyo boqqaymu deb jonon menga

(Sevgilim bir marta bo'lsa ham menga qaraydimi deb, men Nodira kutib turibman.)

3

Soqiyu hijr balosin demishlar mayi nob

Tuta ko'r maykadada qayg'uluq o'shiqqa sharob

(Ey Soqiy! Ajralish muammosini aralastirilmagan ichki dedilar. Mayxonadagi qayg'uli o'shiqqa ichki taklif qil.)

Ishq dardig'a giriftor bo'lubman ne qilay

Zohido menga nasihat bila yetkurma azob

(Ey zohid! Maslahating bilan qiynama meni, nima qilishim kerak, chunki men ishq azobiga yo'liqub qolganman.)

Yor la'lini firoqida xumorim g'olib

Bo'lmadi nash'ayi sahbo bila ko'nglum shodob

(Sevgilining qizil dudog'idan uzoqda bo'lganim uchun, ichki ichish bilan yuragim xursand bo'lmadi.)

Bo'lg'oy erdi qadaming tuprog'i birla rushan

Gar ko'zum halqalari bo'lsa rikobingga rikob

*(Agar uzangining o'rnida mening ko'zlarimning haqasi bo'lsaydi.
Oyoqingning tuprog'idan uchqun chiqardi.)*

Egma qoshingni xami bo'lg'ali il sajdagohi
Ka'ba devorida hayrat ila qolmish mihrob

*(Qoshlaringni egma, chunki odamlar sajda qilish uchun joy topadilar.
Ka'baning devaoridagi mihrob hayron qolibdir.)*

Sarxosh o'lg'on kabi hunobi jigardin o'siq
Nasha'yi boda qilur husn ilidin raf'i hijob

*(Oshiq go'yo jigar qoniga mast bo'lg'onga o'xshaydi. Ichimlik quvonchi go'zal
odamlarni yuzini ochadi.)*

Ashki gulgunim erur bodayi la'ling asari
Ruhparvardur aning rohiyasi misli gulob

*(Ko'z yoshlarimning gul rangiga o'xshashi sevgilining qizil dudog'ining
ta'siridir. Chunki, uning hidi atirgul suvidek jonlantiradi.)*

Bukun ol mahliqo shuxi dilorom qoni
Yuzidin rufshan edi didayi joni ahbob

*(Yuzining nuri bilan do'stlarning yuzini porlatgan oy yuzli sevgili bugun
qayerdadir?)*

Mastlig' birla g'ami yor faromush olmas
Nodira bo'lmadi dardimni davosi mayi nob

*(Ey Nodira! Aralastirilmagan ichki mening dardimni davolay olmadi. Chunki,
sevgilining qayg'usi mastlik bilan unutilmaydi.)*

4

Ne gul sayr ayla ne fikri bahor et
Jihondin kech xayoli vasli yor et

*(Atirgulni tomosho qilma va bahorni o'ylma. Dunyoni tark et sevgiliga
yetishmoqni o'yla.)*

Muhabbatsiz kishi odam emasdir
Gar odamsan muhabbat ixtiyor et

(Sevgisi bo'lmagan kishi odam emasdir. Agar odam bo'lsang sevgini tanla.)

Uzor u qad u raftoringni ko'rsat
Chaman sarv u gulini sharmsor et

*(Maysazordagi sarv darxti va gulni yonoq, bo'y va yurishingni ko'rsatib
xijolat et.)*

Labi maxmuridurman jomi may tut
Karam qil soqiyo daf'i xumor et

(Ay soqi! Men sevgilining dudog'ini xumoriman. Menga rahm-shafqat qil, ichki sun va xumorimni sindir.)

Analhaq mojarosin aylading fosh

Kel ay Mansur istiqboli dor et

(Ay Mansur! Men haqman degan sarguzashtni fosh etting, kel endi dorni istiqbol et.)

Durri ashk u a'qiqi xuni dilni

Kelur yorning ayog'ig'a nisor et

(Durr kabi ko'z yoshing va aqiq kabi qizil yurak qonini keladigan sevgilining oyag'iga qurbon qil.)

Kuyib ay Nodira o'lam ilga

Muhabbat shevasini oshikor et

(Ay Nodira! Sevgi shevasini dunyo odamlariga oqish orqali ko'rsat.)

5

Ay ko'ngul yor uchun jahondin kech

Havasi bog' u bustondin kech

(Ay ko'ngul! Sevgili uchun, dunyodan, gul va atirgul havasidan voz kech.)

Anga o'zlik bila yetib bo'lmas

Istasang yor vasli jondin kech

(Manmanlik bilan unga erisha olmaysan. Sevgiliga erishmoq istasang hayotingdan voz kech.)

O'lam ahlida chun vafo yo'qdur

Bir yo'li yaxshi u yomandin kech

(Dunyo xalqlarida sadoqat yo'qdir. Barcha yaxshi va yoman narsalardan voz kech.)

Bo'lg'il a'nqoyi qofi istig'no

Ay humo mushti ustuxondin kech

(Ay humo! Qof tog'ining qushi bo'l va bir hovuch suyakdin voz kech.)

Bo'lding ay jon asiri shari fano

Kim dedi mulki jovidondin kech

(Ay jon! Qashshoqliq shahrinig mahbusi bo'lding. Abadiy hayotdan voz kech deb senga kim dedi.)

Kech deding yor u oshnolardin

Menga lekin dema fulondin kech

(Menga do'st va o'rtoqlaringdan voz kech de, lekin birovdan voz kech dema.)

Nodira shuri ashki daryodur

Ushbu daryoyi bikirondin kech

(Nodiraning changli ko'z yoslari dengizga o'xshaydi. Ushbu ulkan ummondan ham voz kech.)

XULOSA

Ushbu maqolada, birinchidan Chag'atoy adabiyotining buyuk ayol shoiri Mohlaroyim Nodirabeginning hayoti, adabiy kishiligi va asarlari haqqida ma'lumot berilgan. Keyinchalik shoiraning Chag'atoy turkchasi devonidan tanlangan besh g'azali hozirgi o'zbek lotin yozuvi bilan yozilgan va kunimiz O'zbek turkchasiga tarjima qilingan.

Darhaqiqat, ushbu tadqiqot **Nâdire Divanı Sözlüğü (Bağlamli Dizin ve İşlevsel Sözlük)** deb nomlangan mening magistarlik dissertatsiyamning daslabki tadqiqotlaridan biri bo'lib, Chag'atoy adabiyoti va Eski Turk adabiyoti sohalariga hissa qo'shish maqsadi bilan olg'a olib borilmoqdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR: (REFERENCES)

1. Abdulloyev, V.(h.1392). Torixi Turki O'zbeki az saddayi hafdahum to nimayi nuxusti saddayi nuzgahumi milodi (Tar. Burhoneddin Nomiq). El-Ezher yoyinlari
2. Abliz, M. A.(2013). Çin'deki Çağatay Türkçesi Araştırmaları Üzerine Genel Bir Değerlendirme. Journal of World of Turks.5(3), 279-293.
3. Altay, N.(2007). O'zbek Tili So'zligi . D' Orient Express Printing Grup.
4. Atalay, B. (1950). Mirzâ Mehdi Mehmet Han.Senglâh, Luğat-ı Nevâyî. TDK Yayınları.
5. Atalay, B. (1970). Abuşka Lûgati veya Çağatay Sözlüğü. Ayyıldız Matbaası.
6. Eckmann, J.(2017). Çağatayca El Kitabı (çev. Günay Karaağaç).Türk Dil Kurumu Yayınları.
7. Kanar, M. (2010). Farsça –türkçe sözlük. Say Yayınları.
8. Kızıltunç, R. (2012). Çağatay Edebiyatında Kadın Şairler. Turkish Studies, 7(2), 731-759.
9. Rusan, X.(h.1374), Mirzo Mahdi Astarobodi Sanglox. Litografi Mardumak.
10. Şeyh, Süleyman E.(1882). Luğat-ı Çağatay ve Türkî-yi Osmânî.
11. TDK. (2018).Yazım Kılavuzu, TDK Yayınları.
12. Tokun, Selahittin. (2001). Son Devir Çağatay Edebiyatının İki Önemli Kadın Şairi: Nâdire ve Üveysî. İlmî Araştırmalar Dergisi, 12, 167-174.

ABDULLA QODIRIYNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

Sh.Xudoyqulova,

L. Dehqonova

GulDU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Abdulla Qodiriyning badiiy asarlarida, ayniqsa, shaxs, voqea-hodisa, holat kabilarni tasvirlashda uyushiq bo‘laklardan foydalanishga alohida e’tibor qaratganligi kuzatiladi. Adibning matn yaratish uslubini ana shu xususiyatga ko‘ra ham aniq belgilash mumkin. Tasvir A.Qodiriyniki ekanligini har kim ham ajrata oladi: “Bu hujra egasi ham boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam va oq yuzli, kelishgan qora ko‘zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabza urgan bir yigit”.*

Kalit so‘zlar: *ko‘rkam, kelishgan qora ko‘zli, soqol, Homid tasviri, “Juvonboz”*

Аннотация: *В произведениях искусства Абдуллы Кадыри особое внимание уделяется использованию связных частей, особенно в описании человека, события, ситуации. Авторский стиль письма можно четко определить по этой особенности. Каждый может сказать, что изображение принадлежит А. Кадыри: йигит ».*

Ключевые слова: *красивый, красивые черные глаза, борода, образ Хомида, «Джувонбоз».*

Abstract: *Abdullah Qadiri's works of art pay special attention to the use of cohesive parts, especially in the description of a person, an event, a situation. The author's style of writing can be clearly defined by this feature. Everyone can tell that the image belongs to A. Kadyri: yigit ”.*

Keywords: *beautiful, handsome black eyes, beard, image of Homid, "Juvonboz"*

KIRISH

Uyushiq bo‘laklarning ikkitasi o‘z sifatlashlari bilan qo‘shilib birikma holida o‘zaro ohang bilan(sanash) bog‘langan, keyingi uyushqlikda *ko‘rkam* so‘zi alohida olinib, u sifatlovchi birikma holida oq yuzli bo‘lagi bilan va bog‘lovchisi orqali bog‘langan va ohang, ko‘ryapsizki, o‘zgartirilgan, keyingi bo‘lak murakkab birikma holida *kelishgan qora ko‘zli* tarzida shakllantirilib, unga mos ravishda keyingi bog‘lanuvchi uyushiq bo‘lak ham uch so‘zli qilib murakkab shaklda tanlangan(*mutanosib qora qoshli*) va bu ham ohang bilan bog‘langan. Nihoyat, oxirgi uyushiq bo‘lak olti so‘zdan iborat qilib tuzilgan(endigina murti sabza urgan bir yigit-murakkab birikma)hamda u endi yana va bog‘lovchisi orqali bog‘langan: a)uyushiq

bo'laklar tuzilishiga ko'ra ikki so'zli, bir so'zli, uch so'zli, olti so'zli ko'rinishda; b)oldingi ikkitasi bog'lovchisiz bog'langan, keyingi ikkitasi va bog'lovchisi orqali bog'langan; yana ikkita murakkab uyushiq bo'laklar bog'lovchisiz holda; undan keyingisi esa bog'lovchili holda bog'langan. Uyushiq bo'laklikning o'zi san'atkorona tuzilgan, shakllantirilgan. Uyushiqlikda oddiy sanashdan tashqari, ta'kid va musiqiylik, rang-baranglik ko'zga tashlanadi(Otabek tasviri).

Bu ikki kishining bittasi: gavgaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol, murtli, yigirma besh yoshlar chamalik bir yigit...(Rahmat tasviri); ikkinchisi:uzun bo'yli, qora cho'tir yuzli, chog'ir ko'zli, chuvoq soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi edi. (Homid tasviri)".

ADABIYOTLAR TAHILI VA METODLAR

Keltirilgan uyushiqlikda boshqa bir, alohida shakllantirish kuzatiladi: gavgaga kichik; yuzga to'la. Chunonchi, muallif bu o'rinda, bemalol, kichik gavgali, to'la yuzli birikmalarini ishlatishi mumkin edi. Shunda ham, asosiy holat jiddiy o'zgarib qolmas edi. Biroq yozuvchi asar tili rang-barangligini keltirib chiqarish, kitobxonni qiziqtirish, o'qimishlilikni ta'minlash, ta'sirchanlikni oshirish maqsadini ko'zda tutib jonli tildagi qo'llanishni tanlagan va maqsadga erishgan. *Ozroqqina soqol, murtli* uyushiqliklarida xuddi shu maqsadlarda *soqol* so'zi tarkibida qo'llanilishi lozim bo'lgan –li qo'shimchasi tushirilgan bo'lsa, murtli so'z shaklida aynan shu –li qo'shimchasining “ega ekanlik” ma'nosini ifodalashidan o'rinli foydalangan. *Yigirma besh yoshlar chamalik bir yigit* birikmasida ham yozuvchi xalq tiliga oid qo'llanishni ma'qul ko'rgan. Buni *yigirma besh yoshlardagi bir yigit* yoki *yigirma besh yoshlar bir yigit*; *yigirma besh yosh chamalik bir yigit* kabi shakllarda ham berish mumkin edi. Biroq bunday holatlarda taxmin ma'nosini bo'rttirish o'z ifodasini topmas edi. Matnda: “*besh yoshlar va chamalik* birliklari birga qo'llangan va bu narsa taxmin ma'nosini bo'rttirishga xizmat qildirilgan.

Mana shu keyingi holatdagi uyushiqlikka monand holda yozuvchi Hasanali qiyofasini ham tasvirlaydi: “*Bu chol Hasanali otlik bo'lib, oltmish yoshlar chamasida, cho'ziq yuzli, do'ngroq peshonali, sariqqa moyil to'garak qora ko'zli, oppoq uzun soqolli edi*”.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Matnda *chamalik* so'zi o'rnida *chamasida* so'z shakli qo'llangan. Barcha uyushiq bo'laklar oxirida –li affiksini, albatta, o'ziga xos ishlatgan. E'tibor bering: bir bo'lakda ishlatadi, boshqa bo'lakda bu qo'shimchani ishlatmaydi (chog'ir ko'zli, chuvoq soqol); hamma bo'laklarda bu qo'shimchani ishlatadi (cho'ziq yuzli do'ngroq

peşonalı; “qora ko‘zli, oppoq uzun soqolli). Bu gapni, masalan, ...Oltmish yoshlar chamalı, cho‘ziq yuz, do‘ng peşona(li), sariqqa moyil to‘garak qora ko‘zli, oppoq uzun soqolli edi” tarzida tuzish mumkin edi. Biroq yozuvchi tanlagan shakllar asar matni uchun o‘ta mutanosibdir.

Muallif ega ekanlik ma‘nosini ifodalovchi –li qo‘shimchasini bir holatdagi uyushliqlarda har bir bo‘lakka alohida-alohida qo‘shgan holda qo‘llasa, boshqa bir holatda ayrim uyushliq bo‘laklarga qo‘shib, ayrimlariga qo‘shmagan holda yoki faqat oxirgi bo‘lakka qo‘shgan holatda qo‘llaydi. Ba‘zi holatlarda esa bu qo‘shimchani umumiy qo‘llamagan holda uyushliqlikni shakllantiradi: “*Mirzakarim ismlik* (Hasanali tasvirlanganda, unga nisbatan *otlik* so‘zi qo‘llangan edi. Rahmatga nisbatan ham *otlik* so‘zi ishlatilgan. Endi esa, Mirzakarim qutidorga nisbatan *otlik* so‘z shakli o‘rnida *ismlik* so‘z shakli qo‘llanilayotganini ko‘ramiz) “*Qirq besh-ellik yoshlar chamasida, qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshigina kiyingan bir kishi bo‘lib, Akram hoji ellik besh yoshlar orasidagi bir keksa edi*”. Avvalo, aytish kerakki, taxmin-chama ma‘nosi bu o‘rinda uchta vosita orqali o‘ta bo‘rttirib berilgan (*qirq besh-ellik; yoshlar; chamasida*) ; ikkinchidan, *qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz* birliklari –li qo‘shimchasi tushirilgan holda berilib, belgining doimiylik holatiga, muayyanligiga diqqat qilingan; uchinchidan, *Akram hoji* so‘zi borligi uchun *otlik* va *ismlik* so‘zlarini qo‘llash ehtiyoji yo‘q, shuningdek, taxmin ma‘nosi ham bo‘rttirilmagan hamda chamasidagi so‘zi (chamalı ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin) orasidagi so‘zi bilan almashtirilib betaraflik munosabatini ifodalashga xizmat qildirilgan. Ko‘rinadiki, Abdulla Qodiriy shaxs belgilarini tasvirlashda uyushtirish shakllarining turli ko‘rinishlarini qo‘llash orqali asar tilining jozibadorligini orttirgan: chamasida, chamasidagi, chamalı; *otlik-ismlik, qora qosh-qora ko‘z* kabi qo‘llanishlar ham ana shu maqsadni amalga oshirish uchun xizmat qildirgan. Yozuvchi asarda tilga olingan deyarli har bir personajni o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi. Tasvirlashda uning yoshiga alohida e‘tibor qaratadi: qirq besh-ellik yoshda; yigirma besh yoshda; oltmish yoshlar; o‘ttiz besh yoshlarda; ellik besh yoshlar; yetmishlardan o‘tgan kabilar. Bular ham uyushliqlikni shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Adib kishilarning yoshlarini, haqiqatan ham taxminan belgilaydi. Chunki ularning yoshlari noaniqdir. Real holat-shu. Kishining yoshini taxminan bo‘lsa-da belgilamaslik esa shu o‘rinlarda mumkin emas edi.

Albatta, Abdulla Qodiriyning uyushliq bo‘lakli gaplardan foydalanishdagi o‘ziga xos mahorati alohida, jiddiy tadqiqotlarni talab etadi. Bu o‘rganilishi o‘ta dolzarb bo‘lgan muammo. Ammo yuqorida keltirilgan uyushliqlik shakllarning o‘ziyoq

yoʻzuvchining, haqiqatdan ham, uyushiq boʻlaklardan foydalanishga alohida diqqat qilinganligini koʻrsatib turibdi. Shunga qaramay, bu fikrni qatʼiyroq tasdiq etish uchun, uyushiqlikni shakllantirishning, u orqali badiiylikni orttirishning, bizningcha, yuksak namunasi boʻlgan bir necha uyushiq boʻlakli birikma-jumla namunasi keltirib oʻtish maqsadga muvofiqdir: *“...Uyning toʻriga solingan atlas koʻrpa, par yostiqlik quchogʻida, sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi, uygʻoq yotgan bir qizni koʻramiz. Uning qora zulfi par yostiqlikning turli tomoniga tartibsiz suratda toʻzgʻib, quyuy jingila kiprik ostidagi tim qora koʻzlari bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani koʻrgan kabi...qop-qora kamon, oʻtib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan choʻchigan kabi... toʻlgan oydek gʻuborsiz oq yuzi bir oz qizillikka aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi...”*. Gapdagi *atlas koʻrpa, par yostiqlik; erinibmi va yo boshqa bir sababdanmi; tartibsiz suratda toʻzgʻib; quyuy jingila kiprik; tim qora koʻzlar; bir nuqtaga tikilgan-da chimirilgan-da qizillikka aylangan-da; koʻrgan kabi- choʻchigan kabi- uyalgan kabi; qop-qora kamon; oʻtib ketgan nafis; qiyiq qoshlar; toʻlgan oydek gʻuborsiz oq yuz* uyushiq shakllari oʻz til imkoniyatlaridan mohirona foydalanishning yuksak namunasi, poetik ifodasi emasmi? Jumladan toʻxtamning (uch nuqta) uyushtirilishi hayratlanarli holdir. Har bir toʻxtamda tasvirlovchining oʻzi nafasini rostlab, entikib turib keyin tasvirni davom ettiryapti. Ana shu entiktirgan belgilar yashirin holda, sukut orqali ifodalangan. Yoʻzuvchi bu tasvir uchun alohida tayyorgarlik koʻrgan boʻlishi mumkin. “Oʻtkan kunlar” asari tilidagi joziba, oʻzbek milliy adabiy tilining shakllanishini taʼminlagan asosiy omil, til boyligini namoyish etish va undan foydalanishning yuksak namunasi yuqorida keltirilgan parchadagi tasvirlashda ochiq koʻrinadi. “Oʻtkan kunlar” tilidagi hamma birdek tan olgan joziba – ana shu!!! Jumladagi –gan+da shaklining; -gan+kabi shaklining, birikmalarni birikmalar uchun sifatlovchi tarzida tarkib toptirib turgan, shu vazifa uchun qoʻllangan; *quyuy jingila kiprik; kiprik ostidagi tim qora koʻzlar; qop-qora kamon, qiyiq qoshlar; oʻtib ketgan nafis, qiyiq qoshlar; toʻlgan oydek gʻuborsiz; gʻuborsiz oq yuz* kabi. Yoki: *nimadir bir narsadan;*(takror- uyushiqlik) ;*kimdandir* olmoshlari takror-uyushiqliklari ham maʼlum bir maqsad uchun-taʼkidlash, taʼsirchanlikni oshirish, musiqiylikni taʼminlash-poetika uchun qoʻllanilgan. Belgining kamlik- ortiqlik darajasini koʻrsatish uchun bir oʻrinda *qora, quyuy, tartibsiz, qiyiq, gʻuborsiz, oq* kabi oddiy darajadagi sifatlardan foydalangan boʻlsa, ikkinchi bir oʻrinda *qop-qora* tarzidagi shakldan, uchinchi holatda *tim qora* tarzidagi shakldan, (uchinchi holatda *tim qora* shaklidan), toʻrtinchi holatda *oʻtib ketgan* shakldan, beshinchi oʻrinda *toʻlgan oydek*

yoki *bir oz qizillikka aylangan* kabi shakllardan foydalanadiki, bu ham yozuvchining o‘zbek tili ifoda imkoniyatlarini mukammal bilganligidan darak beradi.

Endi tasvirdagi so‘zlarning tilimizda qo‘llanilishi darajasi, mavqeyi masalasiga ham e‘tibor qarataylik. Uyushiq bo‘laklardan tashkil topgan bu jumlada 50 ta atrofida lug‘aviy birlik mavjud bo‘lib, parchadagi hamma so‘zlar o‘zbek tilimizda keng iste’molda, hamma uchun tushunarli, xalq tilida keng qo‘llanadi, hammasi adabiy til uchun ham xarakterlidir. Grammatik shakllar ham xuddi shu kabi hamma bildiradigan birliklar bo‘lib, keng iste’moldagi shakllardir. Bu matnda *qora* so‘zi – uch marta; *nimadandir* so‘zi ikki marta; *bir* so‘zi uch marta; *kabi* ko‘makchisi uch marta; *narsa* so‘zi ikki marta qo‘llanilgan. Bunday takroriy qo‘llash matn tarkibidagi ortiqchalikni keltirib chiqarmagan, aksincha, asar tilining ohangdorligini ta‘minlash uchun xizmat qilgan. Yana so‘zlarning har birini o‘z o‘rnida ishlatishga ham e‘tibor qaratilganligi kuzatiladi.

Matndagi –gan kabi, -ganda (tikilgan-da, chimrilgan-da, aylangan-da) tarzida berilan takrorlar badiiylilikni yuksak darajada bo‘lishini ta‘minlagan. Bundan tashqari, tasvirda bir narsaning turli jihatlari zanjirsimon bog‘lanishda, bir-birini to‘ldirib turib izohlangan: *qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari* (qosh tasviri); *quyuq jingila kiprik ostidagi tim qora ko‘zlari* (ko‘z tasviri-qora; *tim qora; kiprik ostidagi; jingila kiprik ostidagi; quyuq jingila kiprik ostidagi*); *to‘lgan oydek g‘uborsiz oq yuzi* (yuz tasviri *to‘lgan oydek (oydek)*; *g‘uborsiz oq*). Matn go‘yo o‘zbek tilining boy ifoda imkoniyatlarini ataylab namoyish etish uchun yaratilgandek. Bunday tasvirlarni A.Qodiriy asarlaridan ko‘plab keltirish mumkin. “Juvonboz” asaridan olingan mana bu parcha fikrimizni tasdiqlaydi:

“Turkistonda bunday ishlar hamisha davom etib turganini ko‘ruvchi va biluvchi har bir aqlli musulmon kishi, shari‘ati islomiyatda man‘ qilinmish, mundog‘ xunuk besoqolbozlik odatini davom ettiruvchi, Turkiston musulmonlari ahvollariga afsuslar qilub, bekorga necha mingcha pullarni isrof qiluvchi, besoqol talashida musulmon musulmonga dushmanlik ortdiruvini va bir-birlaridan qon to‘kuvni, besoqolbozlik sababi birlan jinoyat ko‘payub, yosh-yosh yigitlar o‘n-o‘n besh yillarini Sibirda, ming turluk azob va xo‘rlik bilan zoe qiluvlarini, ham dunyodagi g‘ayri millatlarga musulmonlik ismini bulg‘atib ko‘rsatuvlarini va o‘zlari kulki bo‘lmoqlarini, yana bu dunyoda xor va oxiratda xudoning qahr-g‘azabiga giriftor, Muhammad alayhissalomning oldilarida sharmisor va shafobatlaridan benasib bo‘luvlariga achinib, mundog‘ xilofi sharvi ishlarining koni bo‘lgan Turkistondan boshqa shaharlarga qochib ketkusi kelur edi” (110 ta so‘z).

Berilgan matn bitta sodda gapdan iborat. Albatta bu murakkablashgan sodda gap bo‘lib, *har bir aqlli musulmon kishi*-murakkab gapdir. Qochib ketkusi kelur edi qismi esa murakkab tuzilishdagi kesimdir. Ega gapning bosh qismida kesim esa gap oxirida kelgan. O‘rtada keltirilgan turli xil uyushgan gap bo‘laklari ohang, va ham, yana,-b(-ib) kabi vositalar bilan birlashtirilgan holda uyushtirilganidir. Uyushgan bo‘laklar sifatida ko‘ruvchi va biluvchi davom etdiruvchi, isrof qiluvchi; dushmanlik ortdiruvini va qon to‘kuvini; ming turluk azob va xo‘rluk; zoe qiluvlarini, bulg‘atib ko‘rsatuvlarini, o‘zlari kulki bo‘lmoqlarini; xor va qahr-g‘azabga giriftor; sharmisor va benasib bo‘luvlariga kabilarni ko‘rsatish mumkin. Ularning aksariyati kengaytirilgan(yoyiq) bo‘laklardir. Shu holda bo‘laklarni uyushtirgan holda gap tuzish matn ta’sirchanligini oshirgan, hodisaga aloqador bo‘lgan oqibatlarini umumlashtirib, bir joyda bayon etilishini ta’minlagan.

Xullas, A.Qodiriy asarlarida gap bo‘laklarini turli xil vositalardan foydalangan holda uyushtirish asosida badiiylikni oshirishga alohida e’tibor qaratilganligi, shu vositani o‘zining individual uslubining asosi qilib olganligini aniq kuzatish mumkin. Ayniqsa, sifatlarni uyushtirish asosida voqea-hodisa, shaxslarni tasvirlashning o‘ziga xos ko‘rinishini yaratgan. Bu usulda tasvirlash boshqa yozuvchilar asarlarida, A.Qodiriyning kabi shakllantirilgan holda, uchramaydi. Demak, A.Qodiriy gap bo‘laklarini uyushtirgan holda fikr yuritish borasida, shu tarzda badiiylikni oshirishga erishish borasida ham yuksak mahorat ko‘rsatganki, bu yuqorida ta’kidlaganimizdek, alohida tadqiqotni talab qiladi. Quyida yana ayrim misollar tahlilini berib o‘tamiz.

Bunday tasvirning davomi ham shu fikr, shu holatni alohida ta’kidlaydi: “-*Shu choqda bizga Otabek kerak edi! Nega desangiz, u kelsin edi-da, sevganini bir ko‘rsin edi: hammom bilan u... faqat jongina so‘raydir, majruh ko‘kslarga o‘qqina otadir... boshdagi oq shoyi ro‘mol, ichdagi oq shoyi ko‘ylak, ustidagi oq kumush zarrin sirilgan po‘stin, baq-baqalarini o‘rab o‘pib turgan yoqa qunduzlarining kelishgani, solinib tushgan qora jingalak sochlarning bo‘yin tevaragiga chirmashgani, nuqra yuzlarning bo‘g‘riqqani...*”

Sal oldinroqda “Qizlar majlisi-gullar, lolalar, to‘tilar, qumrilar majlisi! Uyda Kumushbibining tog‘asining uyida, qizlar majlisi, gullar majlisi!” “...bir turli, bir ohangli nafis, musiqaviy tovushlar kishining borliq vujudiga qon tomirlariga ajoyib bir o‘zgarish bergan edilar; Qarichga keladigan uzun soqollar, boshdagi xun olud siyrak sochlar, bo‘zargan yuzlar, qonga belanib yarim ochiq holda qorachiq o‘rnida qo‘rqinch bir oqlik bosgan ko‘zlar dunyoga va shu haytga la’nat o‘qigandek qaraydilar ayniqsa, bir bosh, ehtimolki, hali yigirma yilni ham ko‘rmagandir, murti

ham chiqmagan! Xun olud quyuq qoshlari ostidagi yarim ochiq ko‘zlari kimnidir izlagandek qaraydir...” Uning orqasidan qora otga otlanib, zangori movutdan uqalik to‘n kiygan, kumush kamarning o‘ng tomoniga qilich, so‘liga to‘pponcha qistirgan, boshiga barra popoq kiyib, jin yalagan deganlaridek, qoshsiz, qoramtir yuzli, tuki chakagining ustida bir oz, iyagida bir oz siyrak, ko‘rimsiz qora soqolli, ko‘zlari ichiga botig‘roq, ammo qon quyilgansimon bir kishi kelar edi”.

XULOSA

Bunday uyushiq bo‘lakli qurilmalarni A.Qodiriyning turli asarlaridan yana ko‘plab keltirish mumkin. Ayniqsa, “O‘tkan kunlar” romanining har sahifasida uchratish mumkinligi, hayratlanarlidir. Hatto boshqa asarlarida, asarlar sarlavhalarida ham bu holat kuzatiladi”.

“Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r”(sarlavha), “Osh tegsa-to‘y, tegmasa tafarruj...”-deb otalar to‘yga boradilar... “Qoramol egasiga o‘xshamasa harom o‘ladir”, “Avatiga chavati, misqozonga loy tuvoq”, eng oxirida: “Eshagiga yarasha tushovi”... Ya’ni iboralar, maqollar ham uyushtirib tashlangan.

-Ko‘chaga tashlab qo‘ygan pul, tekin oftobga chiqqan mushuk, yuk tashiyman degan shaloq arava... ana shunday o‘ngi ters so‘zlarga har kim ishonsa, ebdir noma’qul buzoqning go‘shini, ichibdir ibono‘v boyning chiroylik qobog‘iga kirib, bir dujina pivasini” kabi qo‘llanishlar xalq tilidan foydalanishning yorqin namunasidirki, bu A.Qodiriy yaratgan uslub, uning ifodalash usuli o‘zgacha ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mana shu o‘zgachalik o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos tarzda sayqal topishini, umumxalq o‘zbek tilining eng oliy shakli bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining to‘la, hozirgi kundagi holatida shakllanishini ta’minlagan, bu tilning boy, ta’sirchan, tushunarli, mantiqli, aniq nutq, jo‘yali nutq tuzish uchun to‘la yaroqli ekanligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: REFERENCES

1. A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”-T., “Sharq” nashriyoti-1914 y
2. To‘ychiboyev B, Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti.Toshkent., 2004 yil.
3. Jamolxonov H. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zMU, 2013.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA O‘ZLASHGAN KIYIM-KECHAK LEKSEMALARI

*Maxammadiyev Xurshid Lutfullayevich
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida davrga xos ayrim o‘zlashgan kiyim-kechak leksemalari tadqiq etildi, misollar orqali izohlandi. Alisher Navoiy asarlari lug‘at tarkibidagi o‘zlashgan kiyim-kechak leksikasi (KKL)ni aniqlash tilimiz tarixi, o‘zgarishlari, leksik boyligi, XV asrda o‘zbek xalqning turmush-tarzi, madaniyati haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan o‘zlashgan qatlam kiyim-kechak nomlari tarixi ko‘hna yozma manbalarga borib taqaladi. Masalan, xil‘at, qabo, jubba, xirqa, hulla, abo, rido, taylason, toqiya, amoma, burqa’ singari KKLini arab tilidan o‘zlashgan kiyim-kechakka oid leksemalar qatorida ko‘rsatishimiz mumkin. Bu leksemalarning ko‘pchiligi hozirgi tilimizda biroz fonetik va ma‘no o‘zgarishi bilan qo‘llanib kelinmoqda.*

Maqolada Alisher Navoiy qo‘llagan ayrim arab va fors tillaridan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlari qadimgi va eski turkiy tilga, shuningdek, zamonaviy turkiy tillarga, jumladan, hozirgi o‘zbek tiliga qiyoslab, leksik-semantik va etimologik jihatdan tadqiq etildi.

Tarixiy kiyim nomlari bizga turli adiblar, yozuvchilar, tarixchilar asarlari orqali etib keladi. Shu jihatdan Alisher Navoiy asarlari ham nodir manbalardan biri hisoblanishi, asarlarida kiyim-kechak nomlari o‘z qatlamga oid leksemalar, shuningdek, o‘zlashgan qatlamga oid birliklar bilan ham ifodalanganligi maqolada o‘rganilgan.

***Kalit so‘zlar:** kiyim-kechak, bosh kiyim, ust kiyim, diniy kiyim, shayx kiyim, leksema, ma‘no*

***Аннотация:** В данной статье были исследованы некоторые ассимилированные лексемы одежды того периода в творчестве Алишера Навои и объяснены на примерах. Выявление усвоенной лексики одежды (ЛО) в словарном составе произведений Алишера Навои дает возможность составления представлений об истории, изменениях, лексическом богатстве нашего языка, быте, культуре узбекского народа в XV веке. История названий одежды, встречающихся в произведениях Алишера Навои, восходит к древним письменным источникам. Например, мы можем процитировать ЛО как*

лексеми для обозначения одежды, которая происходит от арабского языка, хильат (почётное жалованное платье), қабо (верхняя одежда; халат), жубба (фуфайка на вате (скроенная как рубаха)), хирқа (рубашка, отряпья, (одежда дервиша)), ҳулла, або, ридо (мантия; плащ), тайласон, тоқия, амома (чалма), бурқаъ например. Многие из этих лексем используются в нашем современном языке с некоторыми фонетическими и семантическими вариациями.

В статье исследуются лексико-семантические и этимологические аспекты некоторых арабских и персидских названий одежды, используемых Алишера Навои, сравниваются их с древними и старотюркскими языками, а также с современными тюркскими языками, в том числе современным узбекским.

Названия исторической одежды пришли к нам через произведения разных литераторов, писателей, историков. В связи с этим в статье исследуется, что произведения Алишера Навои также являются одним из редких источников, в которых названия одежды выражаются лексемами своего слоя, а также единицами освоенного слоя.

Ключевые слова: одежда (костюм), головной убор, верхняя одежда, религиозное одеяние, одеяние шейха, лексема, значение

Abstract: In this article, some mastered clothing lexemes of the period in Nawai's works have been studied and explained with examples. Defining the acquired vocabulary of clothes in the dictionary of Nawai's works allows to get an idea about the history, changes, lexical richness of our language, way of life, culture of the Uzbek people in the XV century. The history of the names of the layered clothes found in Nawai's works goes back to ancient written sources. For example, we can cite clothes vocabulary as a lexeme of clothing, which is derived from the Arabic language, such as khilaat, qaba, jubba, hirqa, hulla, abo, rido, taylason, taqiya, amoma, burqa. Many of these lexemes are used in our modern language with some phonetic and semantic variation.

The article examines lexical-semantic and etymological comparisons of clothing names used by Nawai from some Arabic and Persian languages, comparing them with ancient and old Turkic languages, as well as modern Turkic languages, including modern Uzbek.

The names of historical clothing come to us through the works of various writers, writers, historians. In this regard, it is studied in the article that Nawai's

works are also one of the rare sources, in which the names of clothes are expressed by lexemes of their own layer, as well as units of the mastered layer.

Keywords: *clothing, hat, outerwear, religious clothing, sheikh clothing, lexeme, meaning*

KIRISH

Hech qanday xalq o'z taraqqiyoti yo'lida boshqa xalqlar bilan madaniy, iqtisodiy, boshqa tomondan aloqa qilmasdan, ayrim holda xo'jalik yuritishi mumkin bo'lmaganidek, biror-bir xalqning tili, xususan, lug'at boyligi ajralgan holda rivoj topishii mumkin emas. Xuddi shunday o'zbek tili ham o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha tillar bilan munosabatga kirishgan, ulardan so'z olgan, so'z bergan. Shu tariqa leksik qatlamda turli tillardan o'zlashgan so'zlar paydo bo'lgan. Kiyim-kechak nomlari ham faqat o'z qatlamga tegishli bo'lmay, ularning orasida ham turli tillarga oid o'zlashmalar uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida uchragan nomlar ham bundan mustasno emas, albatta.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazku maqolada Alisher Navoiy asarlarida o'zlashgan kiyim-kechak leksemalari xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiy asarlarida turkiy nomlar bilan birgalikda boshqa tillardan, xususan arab, fors-tojik tilidan o'zlashgan kiyim nomlari ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlaridagi o'zlashgan kiyim nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari.
2. Fors tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari.

Biz birinchi guruh o'zlashmalar haqida so'z yuritamiz.

O'zbek tilidagi kiyim-kechaklar borasida maxsus tadqiqot ishi olib borgan M.Asomiddinova arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlarini o'zbek tilida tutgan mavqeiga ko'ra ikki qismga ajratadi:

a) eski o'zbek tiliga xos, hozirda faqat sahna kiyimiga aylangan, tarixiy voqelikni yoritgan badiiy, tarixiy, yozma adabiyotlarda uchraydigan nomlar: *abo, qabo, qina', dalq, jubba, xil'at, dekla / dokla / deklay / daklay, rido, xirqa, aloqa, amoma, burqa va boshqalar.*

b) eski o'zbek tilida uchrovchi va hozirgi o'zbek tilida keng qo'llaniluvchi nomlar: *jubba, astar, mamug' / mamuq, libos, lozim/lozima, baxmal/maxmal, sadaf,*

*hoshiya kabilar*⁸⁵. Muallifning fikriga asosan qo‘shilgan holda, bu o‘rindagi ba‘zi chalkashliklarni ham qayd etishimiz lozim. *Jubba* har ikki qismda ko‘rsatilgan. Bu kiyim nomi birinchi qismga xos. *Xil‘at* qayd etilganidek birinchi qismga emas, hozirgi o‘zbek tilida *xalat* shaklida keng qo‘llanishi bois ikkinchi qismga mansub. Birinchi qismda qayd etilgan *dekla / dokla / deklay / daklay*, ikkinchi qismga kiritilgan *mamug‘/mamuq* esa arab tilidan o‘zlashgan kiyim nomlari emas. Bular turkiy-o‘zbekcha ekanligi ko‘rinib turibdi.

Arabchadan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlari qatorida yana *amoma, taylason, toqiya, kuloh* singari so‘zlarni ko‘rsatish mumkin.

Bugungi kunda tilimizda faol qo‘llanadigan va barcha uchun tushunarli **libos** so‘zi arabchadan o‘zlashgan bo‘lib, umuman kiyim ma‘nosini bildiradi:

*Sanamlar jilvagar mehri samovash,
Ayog‘din-bosh libosi kahrabovash.*

Ya‘ni, samo quyoshidek jilvagar sanamlar boshdan-oyoq qahraborang libos kiyib olganlar.

Alisher Navoiy asarlarida libos, kiyim-bosh so‘zlarining ma‘nodoshi sifatida **kisvat** so‘zi ham ishlatilgan:

Bir qo‘y terisin chiqordi filhol,
Majnung‘a dediki: «Egninga sol.
Qo‘ydek bu terini xil‘at ayla,
Boshdin ayog‘ingg‘a *kisvat* ayla⁸⁶.

Lihof so‘zi ham arabcha bo‘lib, bir necha xil ma‘noga ega:

Kiyim. 2. YOpinchiq. 3. Ko‘rpa. Alisher Navoiy asarlarida esa asosan, kiyim ma‘nosida keladi: *gul gun lihof* - qizil kiyim. Masalan:

*Sabuhiy vaqti gul ochilg‘onin naylayki, ul yopmish
Og‘zini g‘uncha yanglig‘ chirmabon gulgun lihofinda.* (V. V.)

Xil‘at Alisher Navoiy asarlarida bir qadar ko‘p tilga olingan kiyim nomidir. Arabchadan o‘zlashgan bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”da shunday ko‘rsatilgan: 1. Hashamatli kiyim; sarp, umuman, kiyim; zarbaft xil‘at – kimxob to‘n.

Darhaqiqat, shoir dostonlarida, she‘riyatida **xil‘at** asosan shohlar, zodogonlar, boy-badavlat kishilar kiyimi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Shohlik xil‘ati qading bila jo‘b,

⁸⁵ Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. Тошкент, 1981.-Б.14.

⁸⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 9-жилд. -Т.: Фан, 1992. –Б. 237.

Shohlar qaddi xam ayog'ingga ko'p.

Ya'ni, shohlik xil'ating (to'ning) qadingga mos tushgan, boshqa shohlarning qaddi oyog'ingga egilgan.

“Sabbai sayyor” dostonida boshiga kulfat tushgan Axiy shoh Farrux mamlakatiga yo'l oladi. Bir paytlari boyligi behisob bo'lgan, misli yo'q saxiyliги, nochoru yo'qsillarga, umuman, insonlarga yordamining ayamasligi tufayli g'arib ahvolga tushib qolgan xoja abgor holatda, bir qora shol, eski palosga o'ranib, ochlikdan, tashnalikdan kuchdan qolib yotganda, shoh Farrux uning boshiga kelib qoladi. SHoh bu kishidan avval musofirlikda cheksiz yaxshiliklar ko'rgan edi. Bir-birini tanib, xushvaqt bo'lishadi. SHoh xojani saroyga keltirib, parvarish qiladi, behad izzat-ikrom ko'rsatib, mavqeini baland ko'tardi. Eng muhimi, Axiyga ayrilgan yorini pok saqlab, qaytarib beradi. Mana shu voqealar bayonida asarda Axiyning kecha va bugungi maqomini mulohaza qilishi, shukronasi, ichki kechinmalari kiyim-kechaklar bilan bog'liq tarzda ajoyib tasvirlangan.

Garchi zarbaft xil'at ichra mudom

Shah yonida tutar edi orom.

Uyga kirgach qaro palosi edi

Ki, safarda aning libosi edi.

Tengri shukridakim, tili edi lol,

Toat aylar edi kiyib qaro shol

Ki: «palos ichra etti chun debo,

Tashlasam oni bo'lmag'ay zebo»

Yuqoridagi misralarda *xil'at*, *debo*, *palos*, *shol* kabi kiyim nomlari qayd etilganini ko'ramiz. O'zaro qarshi qo'yilayotgan bu liboslardan *xil'at* (*zarbaft xil'at*) va *debo* shohona liboslarga mansub bo'lsa, *palos* va *shol* – darveshlar, qashshog'u bechoralar kiyimi sifatida aks etadi.

“Sabbai sayyor” dostonida javonmardlik timsoli bo'lgan Axiy shahzoda Farruxni murodiga etkazib, uni mamlakatiga kuzatar ekan, esdalik uchun uning musofirchilikda kiyib yurgan libosini so'rab olgan edi:

Yodgor istadi palosin aning,

Tilab oldi qaro libosin aning.

Mana shu qora palosni Axiy shoh huzurida keyinchalik yuqori martabaga ko'tarilgandan keyin ham tashlab yubormadi. Albatta, hazrat Alisher Navoiyning bitganlarida tasavvufiy mazmun yo'g'rilgan. Biz uchun bu o'rinda til faktlari muhim.

Palos, *debo* va *shol* forsiy o'zlashmalardir. *Debo* – nozik va nafis naqshlar solib

to‘qilgan ipak matoni bildirsa, *shol* va *palos* jun matodan tikilgan oddiy kiyimni anglatadi.

Tasavvuf yo‘rig‘ida bitilgan mana bu baytda ham turli maqomdagi liboslar o‘zaro zidlantirilgan:

SHah egnida murassa’ tugmalig xil’atqa bermasmen,

Yig‘ochlar birla ollin tevrabon kiygan fano sholin.

YA’ni, oldi cho‘plar bilan qadab qo‘yiladigan, fanolik yo‘lida kiyilgan sholni shohning egnidagi oltin tugmalar bilan bezalgan xil’atga, ya’ni bu dunyo moliga alishmayman.

Libos nomi zikr qilingan ushbu bayt ham g‘oyat ibratli:

Er kishiga xil’at ila ne sharaf.

Durg‘a ne nuqson yiroq o‘lsa sadaf.

Bu baytni shunday talqin etish mumkin: er kishi shohona libos – xil’at bilan sharaf topmaydi. Durning sadafdan uzoq tushgani bilan qiymati yo‘qolmagani kabi, er kishi har qanday vaziyatda ham aslini saqlab qoladi.

Xil’at o‘tmishda ham xuddi hozirgi vaqtda bo‘lgani kabi erkak ham ayollarga xos kiyim turi hisoblanadi. Bir oz fonetik o‘zgarishga uchragan bu so‘z endilikda *xalat* shaklida qo‘llanmoqda. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *xil’at* va *xalat* so‘zlarining izohlanishiga e’tibor beraylik:

XIL’AT [a. - tuhfa. in’om qilingan ust kiyim) 1 esk. kt. Odatda in’om, hadya qilinadigan qimmatbaho to‘n (398-b).

XALAT [a. - sovg‘a, in’om qilingan kiyim; mukofot] 1 s.t. O‘zi ham, engi ham uzun va keng bo‘lgan, tugma o‘rniga belbog‘ qo‘llanadigan ustki kiyim (asosan xotin-qizlar, ba’zan erkaklar ham kiyadi). Qizil xalat kiygan qiz.

2 SHunday yoki shunga o‘xshash bichimdagi maxsus (tibbiyot, savdo, kimyo va ayrim texnika sohalari xodimlari kiyadigan) ust kiyim.

Lug‘atda *xil’at* Alisher Alisher Navoiy davridagi bu so‘z anglatgan ma’noga yaqin izohlangan bo‘lsa, *xalat* izohidan bu so‘z hozirda nafaqat fonetik tomondan, balki ma’no jihatdan ham jiddiy o‘zgarganligini ko‘ramiz.

Jubba - hashamatli, keng, uzun va engil to‘n ma’nosini bildirib keladi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi bu kiyim nomi *to‘n*, *dekla* kabi libos nomlari birga qayd etilgan:

YAna uch to‘quz davlat arkonig‘a,

To‘nu jubba birla aning yonig‘a –

Iki yuzga ham deklayu to‘n berib,

Yalang to 'n alarcha yana o 'n berib.

SHuningdek, bu so'z o'ziga sifatlovchini biriktirib so'z birikmasi ham hosil qiladi. Masalan, **jubbayi sinjob - sinjob** (qizil tulki) terisidan tikilgan po'stin:

Jubbayi sinjobing ichra vasla-vasla qoqimi,

To 'g 'ri hijron shomida bir-bir saodat anjumi.

Alisher Navoiy asarlariga oid lug'atlarda **qabo** - erkaklarning uzun va keng ust kiyimi (jubba ostidan kiyiladi) deb qayd etilgan. Mana bu misolda *qabo* erlar libosi sifatida tasvirlangan:

Minib ustiga hinduyi nayzavar,

Zarogin qabo, balki zarrin kamar.

Ammo shoir asarlarida bu so'z qalamga olingan boshqa o'rinlarda *qabo* nafaqat erkaklar, balki ayollar, go'zallar libosi ekanligi anglashiladi. Mana bu misralarda bu hol yana-da yaqqol ko'rinadi:

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,

Moviy ko 'nglak uzra gulrangi qabosinmu deyin?!

Xirqa shayx va darveshlarning maxsus ust kiyimi bo'lib, bu libos dag'al matolardan qurab tikilgan. Uning *janda, eski juldur kiyim* kabi ma'nolari ham mavjud. "Hayrat ul-abror" dostonida hazrat Alisher Navoiyning ustози mavlono Jomiy ta'rifida yozilgan misralarda bu so'z qo'llanganini kuzatamiz:

Xirqa aning jismida qapton bo 'lub,

Qaptoni tan, jismi aning jon bo 'lub.

Baytdagi yana bir kiyim nomi - **qapton** turkiycha so'z.

Qapton (xafton) lug'atlarda shunday izohlangan: 1. Ustdan kiyiladigan hashamatdi to'n. 2. Zirih (urush kiyimi) ostidan kiyiladigan paxtali to'n, kaftan. Bu so'z "Devonu lug'atit turk"da *qaftan* shaklida qayd etilgan bo'lib, *to 'n, ustki kiyim* ma'nolarini anglatgan⁸⁷. Rus tiliga o'zlashib ketgan bu so'z *kaftan* shakliga ega.

Abo arabchadan o'zlashgan kiyim nomi hisoblanadi. Bu so'z "Alisher Navoiy asarlari lug'ati"da shunday izohlangan: Abo - (a.) darvesh va qalandarlar kiyadigan, jun matodan tikilgan, kalta engil chakmon". "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da bu so'z "engsiz ust kiyim" deb izohlangan va "Hayratul abror"dan misol keltirilgan:

Turfa aboyi anga istab ko 'ngul,

Rangi saqarlot bila dolu gul⁸⁸.

⁸⁷ Тоғаев Т. Навоий асарларида кийим-кечак номлари. "Филологик тадқиқотлар–VIII" илмий анжуман материаллари. –Т.: "Навоий университети" НМУ, 2018. –Б.16.

⁸⁸ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Т.: Фан, 1983. –Б. 24..

Darhaqiqat, mazkur dostonning o‘n oltinchi maqolatida “xudnamo muxannasvashlarning dunyo ziynati iktisobida hiynlasozliqlari...” fosh etilgan o‘rinda *turfa aboyi* birikmasidagi *abo(yi)* aynan ust kiyimni anglatgan. Ikkinchi misradagi *saqorlot – kiyimlik mato* ham buning libos ekanidan dalolat beradi. Aslida *abo* – ko‘chmanchi arablar, xususan, badaviylarning milliy kiyimi bo‘lib, tuya junidan tayyorlangan, qo‘llarni chiqarish uchun yirtiqlar hosil qilingan uzun libosdir. Lekin shuni ham qayd etish kerakki, shoir g‘azallarida uchraydigan “besh oliy abo” birikmasi tarkibida bu so‘zning ma‘nosi o‘zgachadir. Masalan:

*Bo‘lmaq ay erdi muyassar «Xamsa», ya‘ni panj ganj
Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oliy abo*⁸⁹.

Ma‘lumki, arab tilida *abo* – ota, otalar ma‘nosiga ega. YUqoridagi baytda hazrat Alisher Navoiy o‘zidan olidin o‘tgan besh oliy zotni tilga olmoqda. YA‘ni shoir “Xamsa” – besh xazina o‘ziga **besh oliy abo** (besh buyuk donishmand) madadi bilan muyassar bo‘lganini aytmoqda. **Besh oliy abo** adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi: Muhammad rasulolloh, uning qizi bibi Fotima, kuyovi Ali, nabiralari imom Hasan va imom Husayn. Ayrim tadqiqotchilar bular besh buyuk payg‘ambar: Zardusht, Budda, Moniy, Muso va Muhammad bo‘lishi kerak, deb hisoblaydilar.

Quyidagi baytda ham shoirning panohi bo‘lgan *oliy abolar* haqida gap ketmoqda:

*Necha pashminag‘a urdumki, erur -
Ey Alisher Navoiy, panahim oliy abo.*

Demak, shoir asarlari tilida uchraydigan **abo** leksemasi omonimik qatorni tashkil etadi.

Rido - 1. SHayxlar, darveshlar elkasiga yopib yoki tashlab yuradigan choyshab narsa. 2. Darveshlarning ustki kiyimi. Bu so‘z Alisher Navoiy asarlarida juda ko‘p qo‘llaniladi. Bu so‘z Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarini ifodalash uchun ko‘plab g‘azallarida, jumladan, dostonlarida qo‘llangan. CHunonchi:

*Dayr piri ilgidin may durdi istarmen, valek
Roziy erman ichkali zohid ridosidin suzub.*

Alisher Navoiy asarlarida darveshlarnng ustiga yopinadigan libosi **taylason** ham qayd etilgan:

*Fano taylasonini qilg‘ay kafan,
Kafan bas anga, balki gardi mihan.*

SHoir asarlari uchun tuzilgan lug‘atlarda arab tilidan o‘zlashgan *rido* va

⁸⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 2-жилд. -Т.: Фан, 1987. –Б.7.

taylason ma'nodosh so'zlar kabi izohlangan. Ammo Alisher Navoiyninigi mana bu baytida bu kiyimlarning o'zaro farqi borligi anglashiladi:

*O'zi malakvash, kiyimi hullason,
Xoh rido bil ani, gar taylason*⁹⁰.

Alisher Navoiy asarlarida bosh kiyimiga mansub *salla*, *dastor* leksemalariga ma'nodosh bo'lgan arabcha *amoma* kabi bosh kiyim nomi ham foydalanilgan:

*Boshig'a qo'ydilar amoma dog'i,
Anda sandal bilan shamoma dog'i.*

Amoma - salla, *dastor* (boshga chirmalgan mato). "Layli va Majnun" dostonida Qaysni kiyintirishgan mana bu o'rinda *amoma* so'zini uchratamiz:

*Ham to'nig'a etkurub shamoma,
Ham boshig'a chirmatib amoma.*

Yuqorida ko'rsatilgan kiyim nomlarini bildiruvchi arabcha o'zlashmalardan tashqari *burqa* (yuzga tutiladigan parda, niqob), *hulla* (bezakli nozik va nafis kiyim; ipakli nafis mato) kabi niqob va libos nomlari ham keng qo'llangan. SHuningdek, bosh kiyimlardan *toqiya* (do'ppi) nomi *toqiyafurush* qo'shma so'zi tarkibida uchraydi.

XULOSA

Tarixiy kiyim nomlari esa bizga turli adiblar, yozuvchilar, tarixchilar asarlari orqali etib keladi. SHu jihatdan Alisher Navoiy asarlari ham nodir manbalardan biri hisoblanadi. Alisher Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari o'z qatlamga oid leksemalar, shuningdek, o'zlashgan qatlamga oid birliklar bilan ham ifodalangan. Arab tilidan o'zlashgan libos nomlari ham Alisher Navoiy asarlarida faol qo'llangan.

Xullas, arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechakka oid leksemalar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *xil'at*, *qabo*, *jubba*, *xirqa*, *hulla*, *abo*, *rido*, *taylason*, *toqiya*, *amoma*, *burqa*'. Bular orasida boshga kiyiladigan yoki o'raladiganlari: *toqiya*, *amoma*; *ust kiyimlar*: *xil'at*, *hulla*, *qabo*, *xirqa*, *jubba*, *rido*, *taylason*; din ahliga mansub yopinchiqlar: *rido*, *taylason*; shayx, darvesh va qalandarlar kiyimlari: *abo*, *xirqa*; yuzga tutiladigan parda: *burqa*'.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Абдуллаев Ф.Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир маъсаларига доир. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари тўплами. 1-китоб. -Т.: 1949, -29 бет. (Abdullaev F. On some issues of the lexicon of the Uzbek language.

⁹⁰ Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991. -Б 89.

- Collection of works of the Pushkin Institute of Language and Literature. Book 1. -Т.: 1949, -29 pages.)
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 1-жилд. -Т.: Фан, 1987. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 1 -Т.: Fan, 1987.)
 3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 2-жилд. -Т.: Фан, 1987. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 2 -Т.: Fan, 1987.)
 4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 7 -Т.: Fan, 1991.)
 5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 8-жилд. -Т.: Фан, 1991. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 8 -Т.: Fan, 1991.)
 6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 9-жилд. -Т.: Фан, 1992 (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 9 -Т.: Fan, 1992)
 7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 10-жилд. -Т.: Фан, 1992. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 10 -Т.: Fan, 1992.)
 8. Алишер Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 11 -Т.: Fan, 1993.)
 9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Т.: Фан, 1983 (Alisher Annotated dictionary of the language of Alisher Navoi's works. I skin. - Т.: Fan, 1983)
 10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Т.: Фан, 1985. (Alisher Annotated dictionary of the language of Alisher Navoi's works. Volume IV. - Т.: Fan, 1985.)
 11. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. Тошкент, 1981.-Б.14. (Asomiddinova M. Clothing names. Tashkent, 1981.-P.14.)
 12. Алишер Навоий асарлари луғати. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1972.. –Б.654. (Dictionary of works of Alisher Navoi. - Т.: "Literature and Art Publishing House" named after G. Gulom, 1972 .. - P.654.)

-
13. Тоғаев Т. Алишер Навоий асарларида кийим-кечак номлари. “Филологик тадқиқотлар–VIII” илмий анжуман материаллари. –Т.: “Алишер Навоий университети” НМУ, 2018. -Б.16. (Tog'aeв T. Names of clothes in the works of Alisher Navoi. Proceedings of the scientific conference "Philological Research-VIII". –Т .: “Alisher Navoi University” NMU, 2018. -P.16.)
14. Усмонов У. Художественная интерпретация проблемы пророчества в узбекской литературе. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (69), 41-48. <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-69-9> (Usmonov U. Khudojestvennaya interpretation problemy prorochestva v uzbekskoy literature. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (69), 41-48. <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-69-9> That should have been translated as well)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH MUAMMOLARI

Poziljanov Xumoyunmirzo G'ayratjon o'g'li

Andijon Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi

poziljanovxumoyunmirzo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish muammolari yoritib berilgan. Xususan, xorijiy tillarni o'qitishda yangi metodika va dars ishlanmalarini joriy etish va shu bilan birga o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o'tishning noan'anaviy usullarini joriy etish ko'zda tutilgan

Kalit so'zlar: estetik tarbiyalash, hozirjavoblik, o'quv mashg'ulotlari, "Kid's English", "Deutsch macht spab", "Hirondelle"

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы обучения иностранным языкам в начальной школе. В частности, планируется внедрение новых методов и разработок в преподавании иностранных языков, а также внедрение педагогических технологий, нетрадиционных методов обучения в учебный процесс.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, отзывчивость, тренинг, «Kids English», «Deutsch macht spab», «Hirondelle».

Abstract: The article deals with the problems of teaching foreign languages in primary school. In particular, it is planned to introduce new methods and developments in teaching foreign languages, as well as the introduction of pedagogical technologies, non-traditional teaching methods in the educational process.

Key words: aesthetic education, responsiveness, training, Kids English, Deutsch macht spab, Hirondelle.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi oldida turgan dolzarb vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o'qituvchilar ommasidan o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o'ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo'lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir.

Farzand dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug`lari kundan-kun o`lib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko`rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro`yobga chiqayotganligining guvohi bo`ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o`z bolasining qo`l-oyoq va gavda harakatlarini o`yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o`yin bilan bog`liq bo`ladi. Asta-sekin o`yin yosh bola hayotining asosiy mashg`ulotiga aylanadi. O`yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazku maqolada boshlang`ich sinflarda xorijiy tillarni o`qitish muammolari va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo`lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabga ilk qadam qo`yayotgan kunda ota-onaning hayajoni birinchi sinfga chiqqan dilbandidan-da ko`proq bo`ladi. Farzandining jajji qo`llaridan tutib maktabga yetaklayotgan kattalar ko`nglining bir chetida bolajonim shu ta`lim dargohiga qanday ko`nikarkan, darslarni o`zlashtirishda qiynalmasmikan, degan hadik bo`ladi. Bugun maktabga ilk bor qadam qo`ygan o`quvchining kechagi mashg`uloti o`yin edi. Bolada boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan materiallarni o`zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga mo`ljallangan bilimlarning o`zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o`rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Tasavvur qiling, o`quvchi ma`lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o`quvchisi bo`ladi. Uning vazifasi o`zgaradi. Bir kecha- kunduzda o`rtacha 4 soat ta`lim oladi. Kechagi o`yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab... o`qituvchi bilan muloqatda bo`ladi. O`quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o`qituvchi loqayd, mas`uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo`lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan o`jiz, nazorat qilishga “vaqti yo`q” bo`lsa, o`sha o`quvchilar bo`sh o`zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o`quvchilarga aylanadilar. O`z kasbining mohir ustasi bo`lgan fidokor o`qituvchi ana shu paytda o`quvchilarni qo`lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o`quv mashg`ulotlariga qiziqish uyg`otadi⁹¹ .

⁹¹Umarova A. O`yin musobaqa darsi // Boshlang`ich ta`lim. 1992. 1-son , 48-bet.

Har bir xorijiy tili darslari xuddi zina kabi yuqoriga qarab qo'yilgan qadam misoli bo'lmog'i o'qituvchidan yangicha usul, ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi xorijiy til o'qituvchisi zamon bilan hamnafas, taraqqiyot robitlaridan boxabar, olamda kechayotgan jarayonlar haqida o'z fikriga ega shaxs bo'lishi kerakligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatda xorijiy tillarning o'rganilishi ko'p omillarga bog'liqdir. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va uning xalqaro miqyosdagi munosabatlari hamda hududiy va global tarmoqqa aloqadorlik darajasi xorijiy tillarni o'qitish masalalariga hamda ularning o'rganish ketma-ketlik tartibiga ham ta'sir etadi. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida birinchi chet tili markazda umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tillarni o'rganish bo'yicha turli qo'llanmalar ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Mazkur qaror asosida ishlab chiqilgan yangi o'quv rejaga ko'ra, 1 – 4 sinflarga haftasiga ikki soatdan chet tili fani kiritildi va uni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilandi. Shu maqsadda yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida 1-sinflar uchun ingliz “Kid's English”, nemis “Deutsch macht spab”, fransuz “Hirondelle” tillaridan darslik majmualari yaratildi. Bu majmualar o'quvchi kitobi, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va multimediali ilovalar (DVD diskdan) iborat. E'tiborli jihati shundaki, qo'llanmalarni farzandlariga yordam berish bahonasida ota-onalar, buvijon-u buvajonlar ham o'qishlari, jiddiyroq harakat qilishsa, o'zlari ham o'zlashtirishlari mumkin.

XULOSA

Boshlang'ich ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o'tishning noan'anaviy usullari, xususan, interfaol usul keng joriy etilayapti. Dars o'tishning zamonaviy pedagogik uslublariga doir ko'plab qo'llanmalar mavjud. Xususan, “Chet tilidagi yangi so'zlar qanday bayon qilinganda uning necha foizi o'quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o'zlashtiriladi?” Degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o'tkazilgan tajribalar yakuni “xotirada saqlash” degan nomni oldi. Unga ko'ra o'quvchi yangi so'zlar sonini:

- faqat eshitganda uning 10-20% i;
- eshitsu va so'zlarga oid ko'rsatmali materiallar bilan tanishsa, uning 30-50% i;
- eshitsu, yangi so'zlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar bajarsa, so'zlarni tarjimalari bilan o'rtoqlariga aytib bersa, tushuntirsa, ular bilan mazkur so'zlardan foydalangan holda muloqatda bo'lsa, yangi so'zlarning 60-90%i yodda qoladi, o'zlashtiriladi.

Binobarin, o`qituvchi sinfga kirib o`quvchiga faqat ma`ruza o`qib chiqib ketishining foydasi kam bo`ladi. O`quvchi har bir o`rgangan mavzusi yuzasidan o`rtoqlari, o`qituvchisi bilan o`zi muloqotga kirishishi, dars davomida olgan bilimlarni gapirib bera olishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustahkam bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: REFERENCES

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo`ldosheva Sh. Savod o`rgatish. T. "O`qituvchi" 1996 y.
2. Mardonova. Boshlang`ich sinflarda ta`lim-tarbiyani takomillashtirish. "Sharq"-1998.

INTERFAOL METOD- DARSNING JON TOMIRI

*Rahmonova Shaxlo Rashidovna,
Toshkent Kimyo texnologiya instituti sirtqi bo‘lim boshlig‘i*

Anatatsiya: Avvalo dars jarayonini tashkil etilganda o‘quvchining o‘zaro faolligini oshadi, o‘quvchida o‘quv reja, dastur, darsliklar, standart me‘yorlar asosida mavzu mazmunini o‘zlashtirib olish malakalari shakllanadi, ta‘lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutaola qilish, ishlash, o‘zlashtirish ko‘nikmalari o‘qituvchini kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularni mas‘uliyati oshadi. SHuningdek o‘quvchi erkin fikr bildirishi, o‘z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi, eng muhimi o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. SHunday ekan maqolada ham pedagogik jarayonda onatili va adabiyot fanlarini o‘qitishda yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: metod, guruh, dars, adabiyot, ona tili

Abstract: First of all, the organization of the lesson process increases the interaction of students, the student develops the skills to master the content of the subject on the basis of curriculum, program, textbooks, standard norms, educational content, text, exercises the skills of reading, working, mastering the issues become the daily personal work of the teacher, increasing their responsibility. Students also become accustomed to expressing their opinions freely, to defending their own opinions, and, most importantly, to didactic motives in the learning process. Therefore, the article emphasizes the importance of the use of new technologies in the teaching of mother tongue and literature in the pedagogical process.

Keywords: method, group, lesson, literature, native language

Аннотация: Во-первых, организация учебного процесса увеличивает взаимодействие учащихся, учащийся развивает навыки усвоения содержания предмета на основе учебного плана, программы, учебников, нормативов, содержания обучения, текста, упражнений навыки чтения, работы, усвоения вопросов становятся повседневной личной работой учителя, повышая его ответственность. Студенты также привыкают свободно выразить свое мнение, отстаивать собственное мнение и, самое главное, к дидактическим мотивам в процессе обучения. Поэтому в статье подчеркивается важность использования новых технологий в обучении родному языку и литературе в педагогическом процессе.

Ключевые слова: метод, группа, урок, литература, родной язык.

KIRISH

O‘z navbatida darsni qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Ya’ni bu jarayonda o‘quvchini ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirish kafolatlanadi. o‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi. Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o‘quvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Boshlang‘ich maktablarda interfaol pedagogik didaktik o‘yinlar keng qo‘llaniladi;

Ishchanlik o‘yinlari darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarni oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustaxkamlash darsi. Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha guruhga aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv predmeti bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari, multimediya, sirdan o‘quv kursi va boshqalar vositasidagi o‘tiladigan darslar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ob'ektivlik, mantiq, ilmiy bilimlarni tahlil qilish va sintez qilish usullaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot davomida Bloom taksonomiyasining ahamiyati xolisona ochib berildi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda talabalarga Bloom taksonomiyasini o'rgatish bosqichlari mantiqiy ketma-ketlikda o'rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchilar jarayonning har bir bosqichida aniq o'quv maqsadlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan savollar berish va topshiriqlar berish orqali Bloom taksonomiyasini qo'llashlari mumkin, bu esa maqsadlarni talabaga tushunarli qilishdir. Masalan, ko'p tanlovli savollar berish talabani mavzuni asosiy tushunchasi va eslab qolish darajasini aniqlashga yordam beradi, shu bilan birga talabadan ariza yoki tahlil bosqichiga o'tishda taqqoslash yoki taqqoslash fikrlarini taklif qiladi. 1940-yillarda Benjamin Bloom o'zining hamkasblari Maks Englehart, Edvard Furst, Uolter Xill va Devid Kravoxl bilan birgalikda ta'lim maqsadlarini aniq toifalarga ajratish uchun Bloom taksonomiyasini ishlab chiqdilar, chunki bu tasnif kollej o'quvchilarining faoliyatini yaxshiroq baholash uchun foydali bo'ladi. n Keyingi 16 yil davomida har yili Bloom va uning hamkasblari Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi konvensiyasida ramkani qayta ko'rib chiqdilar va takomillashtirdilar. 1956 yilda ta'limning oltita buyrug'i orqali ma'lumot olish yo'lini ko'rsatadigan "Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi" nomi bilan yakuniy versiyasi nashr etildi. "Qo'shma Shtatlarda va chet ellarda maktabni o'rganish bo'yicha qirq yillik intensiv

izlanishlardan so'ng, mening asosiy xulosam shu: dunyodagi har qanday odam nimani o'rganishi mumkin bo'lsa, deyarli barcha odamlar o'rganish uchun tegishli oldingi va hozirgi sharoitlar bilan ta'minlanishi mumkin." Asl taksonomiya o'sha paytdan beri ko'plab o'qitish falsafalarining asosi bo'lib xizmat qildi. Dastlab u o'quvchilarni baholashda yordam bergan bo'lsa-da, u tezda o'qituvchilar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish, aniq o'quv maqsadlarini belgilash va sinf faoliyatini loyihalashtirish vositasi bo'ldi. U K-12 dan kollejgacha va universitet darajasidagi sinflarda foydalanish uchun moslashtirilgan. Benjamin Bloom va uning bir qator tengdoshlari 1956 yilda kollej talabalarining faoliyatini yaxshiroq baholash uchun Bloom's Taxonomy-ni ishlab chiqdilar. Bloom taksonomiyasi o'quvchilar va o'qituvchilarni bilim olish bosqichida boshqarish uchun bir-biriga asoslangan oltita turli xil ta'lim darajalaridan iborat.

Kim oshdi savdosi darsi – elementlarini ayrim bo'shliqlari bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi. **Yarmarka darsi** – dars mavzusi bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirilar o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli ma'lumotlar berish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklida mashqlar o'tkazish darsi. o'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirilganliklarini tashkil qilish darsi.

“Sud” darsi – o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi. Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklda ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustaxkamlash darsi. Bundan tashqari, debatlar o'z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o'quvchilar (yoki asosiy qismi)ning baxslashuvida faol ishtirok etishni ta'minlovchi o'qitish usulidir. Bu usuldan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. o'quvchilar o'z nuqtai nazarini ishlab chiqishi, uni taqdim etishi, himoya etishi, so'ngra raqib nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois, o'qituvchi sinfni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani avj oldiradi.

Rolli o'yinlar -o'qitishning bu usulida o'quvchilar “real hayot” holatlarini qayta joylashtiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarini sinab ko'rish va tekshirish imkonini beradi.

Bumerang -- Bu usul bir mashg'ulot davomida o'quv materialining chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish. Bilimlarni erkin egallashga yo'naltirilgan. Bu turli mazmun iva harakterga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'lallangan bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi.

Mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, nisbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida chiqishi mumkin. Ushbu texnologiyani qo'llash natijasida tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ijodiy o'yinlar: o'quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan extiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Ключевые слова: Бухара, ветры пустыни Кызылкум, движение песков, стена Кампирак, Южин Скайлер, зелёный щит, зелёный забор, Абубакр Наршахи, Садриддин Айний

KIRISH

Jadal urbanizatsiya, shaharlarning kengayishi va o'sishi, sanoat taraqqiyotining tezlashishi, transport vositalarining ko'payishi, aholi sonining muntazam oshib borishi bugungi kunda jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqdi. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotiga qaraganda, joriy yilning yanvar –aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 37,4 mingtani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2020 yilning shu davriga nisbatan 8 242 taga oshgan (o'sish sur'ati 128,3 foiz). Bu jarayon nafaqat davlatimizda, balki yer sayyorasining barcha mintaqalarida yuz bermoqda.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida sobiq Ittifoq tomonidan amalga oshirilgan tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish siyosati natijasida Buxoro shahri atrofidagi cho'llarda tabiiy holda o'sib turgan saksovul o'simligi deyarli yo'q bo'lib ketgan. Vaholanki, saksovullar tabiiy to'siq sifatida cho'l shamollarini kuchini pasaytirib turgan. Buning salbiy oqibatlaridan biri yaqinda 2020 yilning bahor faslida yuz berdi. Buxoro viloyatining ko'pgina tumanlari, jumladan Olot va Qorako'l tumanlari kuchli shamol tufayli jiddiy ziyon ko'rishdi.

Shu sababdan, shahar infratuzilmasini shakllantirishda hududning atrof-muhiti, ekologik tizimi, tarixiy qiyofasi va inson salomatligiga ziyon yetkazmaydigan tuzilma yaratilishi, turli omillar sababli yuzaga kelgan ekologik xavflarni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilishi zarur. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo davlatlari hamjihatlikda ekologik muammolarni kamaytirish va tizimni yaxshilash maqsadida birlasha boshladilar.

Mamlakatimizda ham atrof-muhitni asrash, "yashil zona"lar barpo etish ishlari bugungi kunda davlat darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 4 mayda 357-F-sonli Buxoro viloyatining cho'l hududlarida "Yashil qalqon" himoya o'rmonzorlari, dorivor shung'iya (sistanxe) va isiriq o'simliklari plantatsiyalarini barpo etish hamda xom ashyosini dastlabki qayta ishlashni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoyishi⁹² qabul qilingan.

Tarixiy manbalarda Buxoro shahri cho'l o'rtasida joylashgan jannatga qiyoslangan⁹³. Tarixiy-geografik jihatdan Buxoro viloyatining maydoni asosan Qizilqum cho'lga to'g'ri keladi. Hududning 88,6 foizi cho'l hisoblanib, qolgan qismi Buxoro, Qorako'l va Qorovulbozor vohalariga to'g'ri keladi. Demak, mintaqaning joylashuvi shahar iqlimining shakllanishida kuchli ta'sir ko'rsatadi.

⁹² http://old.my.gov.uz/ru/getPublicService/332?action=view&item_id=2219

⁹³ Richard Nelson Fray. [Buxara v Srednie veka](#). (Na stike persidskix traditsiy i islamskoy kulturi). (per. [O. I. Apikova](#)). Sentrpoligraf, 2016. B 4.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buxoro va uning qishloqlarining havosi toza ekanligi, shamollari va bahavoligi buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad ibni Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" nomi bilan mashhur bo'lgan asarida ham ko'p bora tilga olingan. Jumladan, asarda Amir Ismoil bemor bo'lib bir qancha vaqt yotganligi, tabiblar: «Jo'yi muliyonning havosi xushroq» deb, amirni o'zining xos mulkidan bo'lgan Zarmon qishlog'iga olib borganliklari qayd etilgan⁹⁴.

Manbalarga yuzlanadigan bo'lsak, Sadridin Ayniy o'z esdaliklarda XIX asrning oxirlarida Qizilqumning qum bo'ronlarini Shofirkon hududiga ko'chganligini tasvirlaydi. Bog'i Afzal va Tezguzar qishloqlarining bog' va ekinzorlari, Qorayog'och qishlog'i ekinzorlari, Dehnavi Abdullajonning shimol tomoni, Muhammad Boqi qishlog'ining bir qismi va Kochixo'rlon qishlog'i butunlay qum ostida qolgan. Aytishlariga ko'ra, qum hujumi, Sayidato va Vardonze qo'rg'onigacha yetgan⁹⁵. Bor-yo'g'e bir necha soat davom etgan kuchli qum bo'roni bir necha qishloqning obod yerlari va bog'lari, hovliyu-imoratlari, ariq va hovuzlarini vayron qilib, qum ostida qoldirgan. Bunday hodisalar Buxoro vohasining hamrohi hisoblangan. "Biz Mahallai Bolo qishlog'ining shimolida bo'lgan Bolo Ro'd qishlog'iga yetdik. To kecha kechgacha obod va ro'dning bo'yida bo'lgani uchun u tomondagi qishloqlarning hammasidan sersuv va tegirmonli bo'lgan bu qishloq butunlay qumning ostida qolgan edi, unda-munda ba'zi baland hovlilarning tom burchaklari ko'rinsa ham qishloq qishloqlik tusini yo'qotgan va qumli cho'l manzarasini olgan edi"⁹⁶. Yuqoridagi fikr qum ko'chishining oqibatini aniq ko'rsatib beradi.

Buxoro shamollarining tajovuzkorligini 1873 yili O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoro amirligi hududiga ham sayohat qilgan amerikalik olim va diplomat Yujin Skayler ham 1876 yili Londonda nashr qilingan "Turkistan: Notes of a journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja" nomli asarida tasdiqlaydi. U Qarshidan Buxoroga otda keladi va safari davomida shamolning to'xtovsiz esishi tufayli qum zarralaridan aziyat chekkanligi va shamolning kuchliligidan adashib qolishi xavfi mavjudligini qayd qilib o'tadi⁹⁷.

⁹⁴ Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T., Kamalak, 1991. B 5.

⁹⁵ Sadridin Ayniy. Tanlangan asarlar. 1-2 qism. – T., Toshkent, 1965. B.29.

⁹⁶ Sadridin Ayniy. Tanlangan asarlar. 1-2 qism. – T., Toshkent, 1965. B.27.

⁹⁷ Skayler, Yujin. Rossiya Turkistoni, Qxqon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari [Matn] Yu.Skayler. tarj. Z.A. Saidboboyev. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. B 292.

MUHOKOMA VA NATIJALAR

Buxoro shahar iqlimida barcha fasllarda kuzatiladigan tabiiy hodisa bu kuchli shamollardir. Yil davomida shamol asosan shimol va g'arb tomondan - Qizilqum cho'lidan esib, ba'zan kuchli dovulga aylanib, vohaning obod hududlariga katta talofat yetkazgan. Natijada hudud iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi va aholisi jiddiy ziyon ko'rgan. Zarar ko'rgan hududlarni avvalgi holatiga qaytarish uchun gohida chorak asr ham yetmagan. Buxoro shamollarining o'rtacha tezligi 18-24 m/s. Ma'lumotlarning tahlili so'nggi yillarda shamol tezligining davomiyligi 40 foizga oshganini ko'rsatmoqda. Vohaga cho'lning salbiy ta'siri (shamol, qum ko'chishi, tuproq eroziyasi) yil sayin kuchayib bormoqda. Hudud iqlimiga nazar solsak, namlik va yog'ingarchilikning kamligini, aksincha bug'lanishning yuqori darajada ekanligini ko'ramiz. Natijada, havoning qurib ketishadi va cho'llarda qum ko'chishi, chang-to'zonli shamollarning tez-tez sodir bo'lishiga olib keladi. Bunday qum bo'ronli shamollar yil davomida 12-15 marta sodir bo'ladi.

O'tgan asrning 20-yillariga qadar Buxoro xalqi Qizilqum shamoli va qum bo'ronlaridan qattiq aziyat chekishgan. 1925-yildan boshlab cho'l qumlarini ko'chishi va bo'ronga qarshi hukumat darajasida kurash boshlangan va ko'rilgan chora-tadbirlarning amaliy natijasi sifatida 1941-yilga kelib, Buxoro vohasi atrofida (hududning shimoli va shimoli-sharqiy qismida) uzunligi 120 kilometr, kengligi 1-3 kilometr bo'lgan "Yashil belbog'" hosil bo'lgan. Saksoqul, qandim, cherkez, yulg'unlardan iborat bo'lgan o'rmonzor yashil devor vazifasini bajargan⁹⁸.

Keyinchalik "Yashil belbog'" barpo etish to'xtaldi va 1950-70 yillardagi cho'llarni o'zlashtirish va yangi yerlar ochish masalasi kun tartibiga chiqishi natijasida cho'l o'rmonlari tugatila boshlandi. Yangi yerlarni o'zlashtirish daryo suvini Orol dengiziga yetib kelishini kamaytira boshladi. Orol suvining kamayishi natijasida 70-100 kmlik sohil qismi ochilib qoldi va katta tuzli-qumli tekislik paydo bo'ldi. U yerdan yiliga 15-75 mln tonnagacha tuz-changli tuproq-qumlar kuchli shamol ta'sirida ko'chib, uchishi aniqlangan. Uchayotgan tuzli tuproq-qumlar asosan sulfat va xlorid tuzlari bo'lib, ular uzoq masofalarga tarqalib, suvning ifloslanishi va tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda. Har yili tonnalab tuz 300 km masofaga tarqalyapti⁹⁹. Jumladan, Orolga yondosh hududlar qatorida Buxoro shahar ekotizimi ham bu inqirozdan jiddiy ziyon ko'rmoqda. Demak, Buxoro hududiga ta'sir

⁹⁸ Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro., 1994.

⁹⁹ Konvensiya o biologicheskom raznoobrazii. Tretiy nasionalniy doklad. – Tashkent., 2006. - S 13.

qiladigan qum va tuz bo'ronlarining asosiy manbalari voha atrofida cho'l va Orol dengizining qurigan sathi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mavjud vaziyatni yaxshilash maqsadida 1994 yil 8 fevralda mamlakatda har yili sanoat terakzorlarni barpo etish to'g'risida maxsus qaror qabul qilgan edi. Ammo 1994-1996 yillar davomida terakzorlar barpo etish Buxoro viloyatida 48,9% ga bajarilgan, xolos.

Buxoro viloyat hokimining 2001 yil 11 iyuldagi 88-sonli farmoyishi asosida viloyat cho'l hududining shimoli-g'arbiy qismida uzunligi 197 km va eni 10 km bo'lgan maydonda "yashil qalqon" barpo etish ishlari yana qaytadan boshlandi. 2002 yilga kelib ming gektar maydonda yashil himoya devori barpo etildi.

Keyingi yillarda "Yashil qalqon" loyihasi doirasida G'ijduvon, Shofirkon, Peshku, Romitan, Jondor, Qorako'l, Qorovulbozor tumanlarining sahro hududlari bo'ylab saksovulzorlar barpo etish ishlari davom ettirildi. 2015 yilning dastlabki uch oyida 2020 gektar maydonga bir million tupdan ziyod cho'l ko'chatlari va saksovul urug'i ekildi¹⁰⁰.

Loyihaga kirishilgan 2001 yildan to 2015 yilga qadar jami 81,5 ming gektar maydonda "yashil qalqon" barpo etildi. Loyihani amalga oshirishda mahalliy byudjet tushumlaridan tashqari, davlat byudjeti va xo'jaliklar mablag'lari hamda viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining homiyligi ko'magida amalga oshirilmoqda. Natijada, voha atrofida 80 ming gektardan ortiq maydonga saksovul ko'chatlari va urug'lari ekilib, saksovul o'rmonlari barpo etildi. Mazkur jarayonni moliyalashtirishdagi muammolar tufayli rejalashtirilgan hududning 9 foizi o'rmonzorlashtirildi. Sababi, bu loyihaga yil davomida viloyat mahalliy jamg'armasi hisobidan 2-3 mln so'm ajratilgan, xolos¹⁰¹.

"Yashil qalqon"ni yaratishi ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 4 maydagi 357-F-sonli Buxoro viloyatining cho'l hududlarida "Yashil qalqon" himoya o'rmonzorlari, dorivor shung'iya (sistanxe) va isiriq o'simliklari plantatsiyalarini barpo etish hamda xom ashyosini dastlabki qayta ishlashni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoyishi¹⁰² qabul qilingandan so'ng yana jonlandi. Unga ko'ra, Buxoro viloyatining cho'lga tutash sug'oriladigan yerlarini va aholi yashash manzillarini garmsel shamollari ta'siridan himoyalash, tuproq eroziyasini oldini olish, qumlarni ko'chishini bartaraf etish va mintaqada

¹⁰⁰ Yashil qalqon kengaymoqda. [Elektronniy resurs] - URL: <https://uza.uz/uz/posts/yashil-al-on-kengaymo-da-03-04-2015>.

¹⁰¹ Niyozov A.B., Hasanov I.X., Pardaev Sh.S. Buxoroning transchegaraviy ifloslanishi. – Buxoro, 2008. – B 70.

¹⁰² <https://t.me/s/huquqiyaxborot?after=2027>

moʻtadil mikroiklim sharoitini yaratish, ekologik holatni yaxshilash, oʻrmonlardan samarali foydalanib, dorivor shungʻiya va isiriq plantatsiyalaridan iborat jami 212 ming gektar maydonda “Yashil qalqon” himoya oʻrmonzorlarini barpo etish haqida soʻz boradi. Loyihani amalga oshirishi uchun xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning 10 mln. dollarlik grant mablagʻlarini jalb etish koʻzda tutildi.

Shu yildan eʼtiboran, BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Global ekologik jamgʻarma va «Davergeodezkadastr» qoʻmitasi bilan hamkorlikda Buxoro viloyatida yangi oʻrmon barpo etish ishlari boshlandi. Natijada, Qorakoʻl tumanining Qorakoʻl davlat oʻrmon xoʻjaligi hududida 1000 gektar, Qorakoʻl ixtisoslashgan davlat oʻrmon xoʻjaligi hududida esa 300 gektar, jami 1300 ga maydonda qora saksavul niholi qandim va cherkez oʻsimliklarining urugʻi bilan birgalikda ekildi. Shuningdek, “Yashil qalqon” barpo qilish maqsadida Shofirkon, Jondor, Qorakoʻl, Romitan, Peshku, Gʻijduvon tumanlaridan jami 187790 ga maydon ajratilib, viloyat hokimining 2018 yil 20 avgustdagi 535-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

2018-2020 yillarda Buxoro viloyati atrofidagi 212 ming gektar maydon (2018 yilda 25 ming gektar, 2019 yilda 50 ming gektar, 2020 yilda 137 ming gektar)ga “yashil qalqon” qatlamini barpo etish hamda 2018-2020 yillarda 3 ming gektar maydon (2018 yil ming gektar, 2019-2020 yillarda ming gektardan jami 3000 gektar)da shungʻiya (sistanxe) dorivor oʻsimligini ekish boʻyicha loyihalar belgilandi. bu ishlarni amalga oshirish uchun 1 mlrd 704 mln 447 ming soʻm sarf qilingan.

“Yashil qalqon” loyihasini jadallashtirish maqsadida birin-ketin huquqiy asoslar yaratilib, amaliyotga joriy etila boshlandi. Jumladan, Oʻrmon xoʻjaligi davlat qoʻmitasi tomonidan 2019 — 2023 yillarga moʻljallab ishlab chiqilgan “yoʻl haritasi”da¹⁰³ Buxoro viloyatidagi Qizilqum choʻllariga tutash hududlaridagi sugʻoriladigan yerlarni hamda infratuzilmasini qum bosishidan saqlash maqsadida 200 ming gektardan ortiq maydonda, Buxoro shahri atrofida “yashil qalqon” yaratish maqsadida saksovlzorlar barpo etish boʻyicha ishlarini jadallashtirish belgilab berildi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida ham oʻrtacha muddatli istiqbolda (2019-2025 yillar) Qizilqumga tutashib ketgan ekin maydonlarini himoya qiladigan choʻl daraxtlari va

¹⁰³ Choʻllanish va qurgʻoqchilikka qarshi kurashish talab darajasidami? [Elektron manba] - URL: <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/31311/>

butazorlar yaratish bo'yicha "Yashil qalqon" loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan¹⁰⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020 yil 8-mayda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlarida aholining yashash sharoitini yanada yaxshilash, ekologik holatni sog'lomlashtirish, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlarini shamol ta'siridan himoyalash, tuproq eroziyasining oldini olish, qumlar ko'chishini bartaraf etish hamda mintaqada mo'tadil mikroiklim sharoitini yaratish maqsadida Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida 2020-2021 yillarda jami 30 km masofada «yashil belbog'» — himoya daraxtzorlari (keyingi o'rinlarda — «yashil belbog'») barpo etish haqida farmoyishi qabul qilindi¹⁰⁵. Unda «yashil belbog'» barpo etishda hududlarning iqlim sharoitlariga mos, manzarali daraxt-buta o'simliklarining ko'chatlari ekilishi nazarda tutilgan. Loyihani moliyalash mahalliy byudjet, homiylik xayriyalari, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.

“Yashil qalqon”ning asosi bo'lgan saksovul o'simligini yo'qolib ketishini oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasining 2010 yil 29 dekabrda №-108 sonli buyrug'iga asosan saksovul o'simligini kesilishi qat'iy man etilgan¹⁰⁶. Saksovul o'simligini kesish yoki sindirish oqibatida yetkazilgan zararlar miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2014 yil 20 oktyabrda 290-sonli qarorining 14-ilovasiga muvofiq xisoblanadi.

Agar saksovul o'simliklarini sindirish, chopish va kovlab olish davom ettirilsa yaqin 5 yilda katta saksovullar, 10 yilda o'rta va kichik saksovullar, 20 yilda esa umuman saksovulzorlarning xammasi yo'q bo'lib ketadi. Bu esa viloyatning ekologik barqarorligini saqlash, shaxar va qishloqlarning qum ko'chkisidan saqlanishini batamom yo'qotadi.

XULOSA

Buxoro iqlimi sharoitida yilning 20-25 kuni shamolsiz bo'lib, shu kunlarda shaharda havo almashuvi bo'lmaydi. Natijada havo dim bo'lib, sanoat, transport vositalari va boshqa manbalardan atmosferaga chiqarilayotgan turli zararli moddalar inson salomatligi va atrof-muhitning musaffoligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli mahalliy va markaziy hukumatdan, shahar va uning atrofida joylashgan, ekologik

¹⁰⁴ <https://regulation.gov.uz/uz/document/9413>

¹⁰⁵ <https://lex.uz>

¹⁰⁶ Muallifning Buxoro viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi xodimi S.S. Vosiev bilan suhbat materiallari, 2020 yil 16- fevral, 2020 yil 13 noyabr

xavf tug'diradigan manbalardan, sohaga ma'sul mutasaddilardan shahar hududini ko'kalamzorlashtirish, shaharda qulay mikroiklimni saqlash va shamollarning foydali xususiyatlarini oshirish masalasida zamonaviy yechimga ega, "yashil iqtisodiyot" talablariga mos loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishlari talab qilinadi.

Bundan tashqari, "yashil qalqon" yaratilishi asnosida o'rmonzorlashtirish ishlari izchil va davomli bo'lmagan. "Yashil qalqon" sifatida ekilgan ekinlar (masalan, saksovil) kelgusida parvarishsiz qolgan, ba'zi hollarda cho'l sharoitiga (mintaqaga) mos bo'lmagan o'simlik turi ekilgan va foydali natijaga erishilmagan. Shahar va uning atrofini yashillashtirish loyihalari ishlab chiqilayotganda barcha jarayon aniq hisobga olinishi kerak. Bu masalada soha bilimdonlari, olim-tadqiqotchilar bilan hamkorlik o'rnatilishi kerak.

Shu sababli "yashil qalqon" loyihasi statistika uchun emas, davlat darajasidagi e'tibor, yaxshigina byudjet, soha bilimdonlari va muammo ko'lamini chuqur anglagan holda amalga oshirilsa, albatta tezda o'zining ijobiy samarasi beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Narshaxiy. Вухоро тарихи. – Т.: Камалак, 1991.
2. Ричард Нельсон Фрай. [Бухара в Средние века](#). (На стыке персидских традиций и исламской культуры). (пер. [О. И. Лапикова](#)). – Центрполиграф, 2016. – 155 с.
3. Скайлер, Южин. Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёхат қайдлари [Матн] Ю.Скайлер. тарж. З.А. Саидбобоев. – Тошкент.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. 336 б.
4. Садриддин Айний. Танланган асарлар (Эсдаликлар). 5 том. 1-2 қисм. – Т.: Тошкент, 1965. – 312 б.
5. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. – Бухоро., 1994.
6. Юлдошева Б. М. ВОПРОС ОБ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ: ИЗУЧИЛ ЛИ ИСТОРИК ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ ПРОБЛЕМУ? //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 29-36.
7. Shoimardonkulovich Y. D. The importance of management in the field of service //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 14 (98).
8. Ниёзов А.Б., Ҳасанов И.Х., Пардаев Ш.С. Бухоронинг трансчегаравий ифлосланиши. – Бухоро, 2008. – Б 70.
9. Конвенция о биологическом разнообразии. Третий национальный доклад. – Ташкент., 2006. - С 13.

10. Ergashev Jakhongir Yunus ugli. On problem of the composition of Bukhara market and volume of trade in late medieval period.- International Journal of Psychosocial Rehabilitation.- Volume 24, Issue 3, UK, 2020. – P. 325-330.

11. Yusupova M. WEDDING CEREMONY AND DISHES: MODERNISM AND SPECIFIC FEATURES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 271-276.

12. <https://lex.uz>

13. <https://regulation.gov.uz/uz/document/9413>

14. Чўлланиш ва курфоқчиликка қарши курашиш талаб даражасидами? [Электрон манба] - URL: <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/31311/>

15. http://old.my.gov.uz/ru/getPublicService/332?action=view&item_id=2219

16. Яшил қалқон кенгаймоқда. [Электронный ресурс] - URL: <https://uza.uz/uz/posts/yashil-al-on-kengaymo-da-03-04-2015>.

17. “Яшил қалқон” ҳимоя ўрмонзорлари ташкил этилади. [Электрон манба] - URL: <https://hi-in.facebook.com/huquqburch/posts/413088709118353>

18. <https://t.me/s/huquqiyaxborot?after=2027>

19. Shoimardonkulovich Y. D., Hamidovich R. O. Elaboration of regional strategies for the development and improvement of land and water in agriculture //Academy. – 2020. – №. 2 (53).

20. Қахрамонов.О.О. Бухоро вилоят яйловларини яхшилаш чора-тадбирлари // Қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш: тажрибалар, натижалар ва истикболли йуналишлар республика илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. Бухоро. 2019. 97-100

ПОЛИТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЕМОКРАТИИ И ОБЩЕСТВЕННОЕ ДОВЕРИЕ

Ибрахимов Баротжон Ботирович

*Старший преподаватель кафедры “Национальная идея и правовое
основа” истории Наманганского государственного университета*

Аннотация: Проблема демократии состоит в подконтрольности правящего класса со стороны народа, от которого требуется время от времени выражать свое одобрение или неодобрение деятельности элиты посредством голосования.

Неприменение силы и умиротворение являются условиями или критериями демократии, применение которых необходимо для ненасильственного завоевания власти, исходя из принципа неопределенности и сменяемости.

Ключевые слова: авторитаризм, фактор, модель, критерий, влияние, преобразования, элита, организация, лидер

THE POLITICAL CONDITIONS OF DEMOCRACY AND PUBLIC TRUST

Ibrakhimov Barotjon Botirovich

*Senior Lecturer of the Department of "National Idea and Legal Basis" of the
History of Namangan State University*

Resume: The problem of democracy consists in the control of the ruling class by the people, who are required from time to time to express their approval or disapproval of the activities of the elite through voting.

Non-use of force and appeasement are conditions or criteria of democracy, the use of which is necessary for the non-violent conquest of power, based on the principle of uncertainty and changeability.

Key words: authoritarianism, factor, model, criterion, influence, transformations, elite, organization, leader.

ВВЕДЕНИЕ

Демократический режим может рассматриваться как политическая система, предоставляющая гражданам регулярные и конституционные возможности смены правительства мирными средствами по решению большинства. Это позволяет им с помощью свободно созданных партий и

ассоциаций без каких-либо препятствий на практике воспользоваться всеми общепринятыми гражданскими правами, обеспеченными юридическими гарантиями, зафиксированными в законодательстве. Жалобы на деятельность государственного аппарата могут быть переданы на рассмотрение юридическому органу, независимому от правительства.

МЕТОДЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИИ

Политическая свобода является необходимым условием демократии, но сама по себе она не является достаточной, поскольку нет реального выбора там, где слабо выражено участие в политической жизни, где избирательные кампании превращаются в бизнес, в котором доминируют финансово обеспеченные люди, где социальное неравенство настолько велико, что существует лишь низкий уровень осознания гражданского состояния. Народное правительство лишь тогда является демократическим, когда на свободных выборах граждане подтверждают своими голосами доверие своим правителям, Идея свободы выбора заключается не просто в отсутствии препятствий для соперничества между кандидатами. Демократия - не просто лишь состязательный политический рынок; она подразумевает способность каждого индивидуума действовать в качестве гражданина, то есть связать непосредственно отстаивание своих идей и интересов с законами или политическими решениями, обеспечивающими основные рамки для общественной жизни. Не может быть демократии там, где требования и убеждения, возникающие в сердцах и умах граждан, не находят адекватного выражения и защиты в общественной сфере. Демократия может быть основана лишь на двуединой заботе об учреждении правительства, способного обеспечить социальную интеграцию и тем самым привести к осознанию гражданского состояния, и об уважении разнообразия интересов и мнений.

Алэн Турэн[1] обращает особое внимание на социальных условиях свободы выбора. Это измерение демократии, по его мнению, не может существовать, если индивидуумы принадлежат только к частной сфере или если, наоборот, они являются лишь субъектами государства, даже если это государство предоставляет им материальные или иные блага.

Поле политической свободы выбора не может существовать, если не признается существование общественной сферы и в более широком смысле политического общества. Личностная изоляция, фрагментация общества, слабость коммуникации между социальными категориями являются почти

непреодолимыми препятствиями для демократии. Нет демократии без автономии политического общества и граждан, но и нет демократии, если это политическое общество не служит сферой коммуникации между частными интересами и правительством, ибо создание политических институтов, лишенных как представительности, так и ответственности, находится под огромной угрозой стать не чем иным, как политической игрой, которая быстро теряет всю свою законность.

XX век, по мнению А.Турэна, не благоволил к демократии, так как в нем прежде всего доминировала идея развития - навязанной модернизации общества. С одной стороны модернизация повышает степень внутренних взаимоотношений, снижает барьеры частной жизни и тем самым развивает общественную сферу. Но с другой стороны модернизация как навязанный акт способствует концентрации власти в руках государства, которое менее озабочено проблемой своей представительности, чем своей способностью трансформировать, зачастую силой, общество, у которого отсутствует предприимчивость и умение обеспечивать себя. Форсированный марш к современности, как он осуществлялся Бисмарком и более жестоко Сталиным, всегда представляет угрозу для демократии.

ОБСУЖДЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Собственной сферой демократии является политическая система. К ней примыкает, с одной стороны, частная сфера, а с другой - государство. Не может быть демократии, если гражданское состояние, занимающее среднее положение, не втягивает в себя частные интересы и убеждения, с одной стороны, и приверженность государству - с другой. Не может быть также демократии, если частные убеждения и национальная приверженность смыкаются напрямую, избавляясь от среднего положения гражданского состояния. Но демократия слаба и почти бессмысленна, если не допускает существования этих двух миров на обеих сторонах, если стремится отождествляться со всей жизнью в целом - личной и общественной. Демократия является постоянным усилием по созиданию сферы гражданского состояния и обеспечению того, чтобы частные убеждения и групповая принадлежность могли сойтись и соединиться в ней в атмосфере взаимного уважения. Демократия слаба и тогда, когда ее способность к посредничеству неадекватна и когда силы, между которыми она играет роль посредника, слабы или, наоборот, замкнуты в самих себе.

Демократия обязана быть представительной, то есть ее политические представители должны соответствовать людям в обществе вообще или, по крайней мере, в значительной степени так, чтобы эти люди могли отождествлять себя с политическими властями. Представительные демократии не только предполагают наличие институтов, гарантирующих свободу политического выбора, они также требуют наличия социальных интересов, которые могут быть представлены, что обеспечивает людям в обществе степень приоритета над их политическим представительством. Демократия сильна только тогда, когда общество считается плюралистичным.

По мнению некоторых практических исследователей (Н.Ардито-Барлетта – демократически избранный президент Панамы), представительная демократия предполагает участие людей в выборе правления, способность политических партий приходить к власти и отрешаться от нее путем выборов, поддержка защиты прав человека, публичное обсуждение проблемы обеспечения прав меньшинств и систему ограничений и противовесов в осуществлении правления с согласия управляемых.

Прочные же демократии характеризуются пятью условиями: освобождение гражданского общества из-под бремени диктатуры, чувство национальной общности, отсутствие социальных конфликтов, разработка надежной, действенной конституции, а также ее способность приспособливаться к изменяющимся обстоятельствам.

Алэн Турэн обращает внимание на признание рациональности политических действий как неотъемлемого свойства демократии.

Демократический процесс осуществляется в рамках определенной единицы, сфера и широта которой являются адекватной или правомерной. Роберт Даль считает, что сфера и широта контроля демократического образования оправданы в той мере, в которой они удовлетворяют семи критериям.[2]

1.Сфера и широта властного контроля могут быть четко идентифицированы, что свидетельствует об определенности и исторической обусловленности территории демократического образования.

2.Люди в рамках предлагаемой сферы активно стремятся к политической независимости по вопросам, относящимся к допускаемой широте властного контроля. То есть не следует навязывать политическую автономию группе,

члены которой не нуждаются в ней, и не следует лишать автономии группу, которая хочет ею обладать.

3. Люди в пределах предполагаемой сферы настаивают на управлении, обусловленном демократическим процессом. Претензия группы на политическую автономию тем менее оправдана, чем меньше вероятности, что новое управление будет демократическим.

4. Широта властного контроля находится в оправданных пределах в том смысле, что она не покушается на фундаментальные права и ценности.

5. Интересы отдельных людей в соответствующем демократическом образовании в значительной степени подвержены влиянию решений, принятие которых они не контролируют. В данном случае возможно расширение круга людей, принимающих участие в принятии решений или формирование автономного политического образования, которое будет разбирать вопросы в рамках определенной сферы деятельности.

6. Консенсус среди людей, интересы которых зависят от принимаемых решений, будет прочнее в рамках любых других реально осуществимых границ, позволяющих людям делать то, что они хотят. Пределы предлагаемого политического образования определяются возникновением конфликтов между конечными целями, увеличивающими число людей, которые не могут добиться желаемого.

7. Достижения, оцениваемые в соответствии с перечисленными критериями, должны перевешивать издержки.

Американский политолог приходит к выводу, что политические единицы, которые граждане в демократической политической системе способны сформировать для себя, никогда не будут полностью соответствовать интересам каждого человека, т.к. создать абсолютно консенсусные демократические системы невозможно. Но можно создать такие политические единицы, которые превосходят другие.

Несколько по-иному классифицирует условия, или предпосылки, демократии Ш.Эйзенштадт[3]. Он выделяет, во-первых, распределение ресурсов и власти в обществе, обеспечивающих различным акторам постоянный доступ к ресурсам, необходимым для политического участия; во-вторых, отношения между основными центрами общественной и экономической власти и центральными политическими институтами; в-третьих, создание и воспроизводство автономных публичных сфер.

Для первого условия важнейшим является положение о недопустимости монополизации ключевых ресурсов и источников власти в обществе какой-либо группой, а также наличие различных властных центров, которые потенциально способны оставаться вне сферы влияния политической власти. Для второго условия важным фактором выступает постоянное расширение независимого доступа социальных групп к политической сцене. Для обеспечения такого доступа необходимо развитие и постоянное функционирование институциональных структур и организаций для связи между общественным сектором и политической властью. Для третьего условия демократии необходимо наличие автономных публичных арен, не встроенных ни в государственные структуры, ни в корпоративные рамки какого-либо из общественных секторов. Они должны быть свободны от контроля со стороны государства. Наиболее важными среди таких «арен» являются ключевые органы политического представительства и политической организации, такие как партии и другие типы политических ассоциаций, а также каналы коммуникации.

Общественное недоверие к власти в его разнообразных проявлениях является необходимой составляющей демократического процесса. В то же время без политической поддержки демократизация невозможна. Такая поддержка граждан придает режиму легитимность, необходимую для проведения демократических преобразований. Немецкий ученый Ханс-Дитер Клингеманн[4], провел исследование модели и формы политической поддержки. В качестве ключевых элементов политической поддержки немецкий ученый выделил идентификацию с политическим сообществом, легитимность политического режима и эффективность демократического режима. Опросы по обозначенным позициям, охватили 39 стран и проводились с 1995 по 1998 гг.

ЗАКЛЮЧЕНИЯ

Результатом исследования стали два теоретических заключения. Во-первых, не существует общего снижения уровня поддержки демократии, как формы правления, и нет признаков, свидетельствующих о кризисе демократии. Во всех демократиях, как в старых, так и в новых, есть граждане, выражающие недовольство эффективностью политических режимов, что – и это второй вывод – не представляет принципиальной опасности для стабильности демократии. Существует значительное число людей в мире, которых Х.-

Д.Клингеманн называет «недовольными демократами». Они однозначно одобряют демократию, как форму правления, но недовольны эффективностью функционирования демократических режимов в своей стране. Недовольных демократов следует рассматривать скорее не как опасность для демократии, а как потенциальную силу реформ и продвижения демократического процесса.

Большинство исследователей единодушны в том, что стабильность демократии зависит от глубокой и широко укорененной поддержки со стороны граждан. Демократии, которые не обладают таким основанием для легитимности, не стабильны. Демократические политические режимы, которым в течение длительного времени не удается выполнить возложенные на них ожидания, могут потерять свою легитимность, а следовательно могут перестать существовать. Следует согласиться с Й.Шумпетером, который писал: «Демократия процветает тогда, когда модель общества обладает определенными характеристиками, и бессмысленно спрашивать, как она будет существовать при других социальных моделях, не обладающих этими характеристиками, или как будут жить люди в таких обществах в условиях демократии» [5].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА(REFERENCES)

1. Турэн А. Что означает демократия сегодня? // Международный журнал социальных наук. 1991. №1. С.20-21.
2. Даль Р. Демократия и ее критики. М., 2003. С.322-326.
3. Эйзенштадт Ш.Н. Парадокс демократических режимов: хрупкость и изменчивость (II) // Полис. 2002. №3. С.86.
4. Клингеманн Х.-Д. Поддержка демократии: глобальный анализ 1990-х годов // Повороты истории. Постсоциалистические трансформации глазами немецких исследователей: В 2 т. Т.2: Постсоциалистические трансформации в сравнительной перспективе. СПб., М., Берлин, 2003. С183-226.
5. Шумпетер Й. Капитализм, социализм и демократия. М., 1995. С.378.

SPUJ MAY ZARYOBNING “SUV CHELAKLARI VA TARIQ SOLINGAN XALTALAR” HIKOYASIDAGI SYUJET YARATISH USLUBI

Nazarova Afzuna Rahimovna

afzuna_nazarova@mail.ru

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası

Annotatsiya: Ushbu maqola afg'on yozuvchisi Spujmay Zaryobning “Suv chelaklar va tariq solingan haltalar” nomli hikoyasida syujet yaratish uslubini tadqiq etishga bag'ishlangan. Yozuvchi hikoya g'oyasini ochib berishda syujetni tashkil qiluvchi voqealarning bir-biri bilan bog'lanish yo'llari, voqealar zanjirining o'sib borish bosqichlari, hikoyadagi ramziy belgilar, tasviriy ifodalardan mohirona foydalangan. Shuningdek, yozuvchi ushbu hikoyasi orqali dariyzabon adabiyotda modernistik va surrealistik oqimning ifoda uslubini qo'llagan.

Tayanch so'zlar va iboralar: Spujmay Zaryob, syujet, bola, qo'shning ayoli, suv chelaklar, tariq haltalar, surrealistika, konflikt, urush talofatlari, xalqning iztiroblari, tinchlik.

Annotation: This article is devoted to the method of creating the plot of the story “Buckets of water and bags filled with millet” by the Afghan writer Spojmai Zaryab. The writer skillfully used conflicts and all forms of language and expression in revealing the idea of the story, in order to highlight the importance of figurative expressions and how the events that make up the plot are interconnected, how the levels of the chain of events and symbolic characters of the story are developed. In this story, the author also reflected the style of expression of modernism and surrealist movements in Dari literature.

Key words: Spojmai Zaryab, plot, a child, neighbor's wife, buckets of water, bags filled with millet, surrealism, conflict, war losses, the suffering of the people, peace.

KIRISH

XX asr dariyzabon adabiyotining o'ziga xos uslub va yo'nalishiga ega, taniqli afg'on yozuvchilaridan biri bo'lgan Spujmay Zaryob (Ra'uf) yoshligidan adabiyotga mehr qo'yib, 17 yoshidan hikoyalar yoza boshlagan. Manbalarga ko'ra, u dastlab Malolay litseyida o'qigan, so'ngra Kobul universitetining Adabiyot va san'at fakultetini tamomlagan. Shundan keyin Spujmay xonim tahsilni Fransiyada davom ettirib, u yerda adabiyot bo'yicha magistrlik va qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha doktorlik ilmiy darajalarini olishga muvaffaq bo'ldi¹⁰⁷. Tahsilni tugatgach vataniga

¹⁰⁷ R.Inomxo'jayev, Afg'oniston dariyzabon adabiyoti II, 2018. //206-bet.

qaytib, Fransiyaning Kobuldagi elchixonasida tarjimon bo'lib ishlagan. 1991 yilda, mamlakatdagi vaziyat yomonlashib boraverganidan keyin, Spujmay Zaryob ikki qizi bilan Fransiyaning Montepele shahriga ko'chib o'tadi.

Spujmay Zaryob ijodining dastlabki yillarida realistik hikoyalar yozgan bo'lsa-da, keyinchalik zamon talabi bilan modernistik yozuvchilaridan biri bo'lgan. Afg'onshunos olim R.Inomxo'jayevga ko'ra¹⁰⁸, Spujmay Zaryob o'zining dastlabki – an'anaviy uslubdagi hikoyalarida oddiy afg'on oilalari, xususan, afg'on ayollari hayoti, ularning muammolari, kechinmalari haqida, shu bilan birga jamiyatdagi mulkiy tengsizlik tufayli yuzaga keladigan muammolarni ifodalagan bo'lsa, keyingi yillarda – Afg'onistonda notinchliklar davrida yozilgan hikoyalarida urush manzaralari, oqibatlarini syurrealistik uslubda tasvirlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Mazkur maqolani tahlil qilishda ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik metodlariga murojaat qilindi, shu bilan birga empirik va nazariy tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Spujmay Zaryob (Ra'uf)ning "Qobil sahrosi" hikoyalar to'plamidan olingan "Suv chelaklari va tariq solingan xaltalar" nomli hikoyasi metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asrning 20-yillarida Fransiya paydo bo'lgan adabiy syurrealistika o'zining qarama-qarshi obraz yoki g'oyalari bilan yosh yozuvchining e'tiborini torta oldi. Ayniqsa, mamlakatdagi vaziyatning tangligi, ziddiyatlar po'rtanasi Spujmayni o'z domiga tortib, buni hikoyalarida ham aks ettirishiga undadi. Spujmay hikoyada haqiqatni tasavvur bilan birlashtirib, bir-biriga qarama-qarshi obrazlarni ziddiyatli bir chiziqda jonlantirgan holda o'quvchini mulohaza qilishga chorlaydi.

Uning shunday hikoyalaridan biri *سطل های آب و خریطه های ارزن* – "Suv chelaklari va tariq solingan haltalar" nomli hikoyasi 1984-yil yozilgan bo'lib, unda yozuvchi urush keltirgan talofatlarni, yo'qotishlarni bir bola nigohida tasvirlaydi. Biz bu maqolamizda yozuvchining dariyzabon adabiyotda syurrealistik yo'nalishdagi syujet yaratish uslubini, buni amalga oshirishda foydalangan o'ziga xosliklarini ko'rib chiqamiz.

Spujmay Zaryobning ko'pgina hikoyalarida voqealar bola tilidan rivoyat qilinadi, yoxud bolalar kechinmalari tasvirlanadi. Xususan, ushbu hikoyada ham roviy etib bola tanlanadi. Hikoya hayotiy hamda to'qima syujet asosiga qurilgan. Yozuvchi hikoyani prologsiz, birdaniga tugundan boshlaydi. Hattoki sarlavha ham tugunli – o'quvchida nega endi "Suv chelaklar va tariq haltachalar"? – degan savol tug'ilishi aniq. Syujetiga ko'ra, bolaning xayolidan qo'shnisining farzandi chiqmay

¹⁰⁸ R.Inomxo'jayev, Afg'oniston dariyzabon adabiyoti II, 2018. //206-207, 213-betlar.

qoladi, qayerga bormasin, kimga qaramasin, nima ish qilmasin ko'z o'ngida shu bola gavdalanaveradi. Shundan so'ng voqealar rivoji keltirilib, qo'shnisining farzandiga nima bo'lgani haqida so'zlaydi. Qo'shnisining farzandi bir necha hafta avval bir jangda shahid bo'lgan va uyiga uning jasadi keltirilgan edi.

- بچه ات ...

و زن همسایه ما - مادرش - به زمین دشنام داده بود، به زمان دشنام داده بود، نعره زده بود، موهای خاکستریش را مشت مشت کرده بود، جسد بچه اش را بغل گرفته بود و سرش را آن مالیده بود و نالیده بود: - شهید من!

(- Farzandingiz...

Qo'shnimizning ayoli – uning(bolaning – M.) onasi - makonni la'natlagan edi zamonni qarg'agandi, ayuhannos solib, kulrang cochlarini hovuchlab hovuchlab yulib olgandi, bolasining jasadini quchoqlab, boshini silab nola qilgan edi:

- *Mening shahidim!*)¹⁰⁹

Shahid ketgan o'g'liga onaizor yig'i-sig'i qilib, makon va zamonni qarg'aydi. Hikoyaning shu qismi voqealar ijtimoiy konflikt asosida qurilganligini ko'rsatib beradi. Ya'ni hikoya yozilgan davr (1984-yil) mamlakatdan hali rus qo'shinlari chiqib ketmagan, tashqi kuchlarning bosqini bilan boshlanib ketgan kurashlar, to'qnashuvlar mamlakat hayotini izdan chiqargan edi. Tinch aholining boshiga musibatlar keltirib, kimdir farzandidan, otasi, onasi, yor-birodarlari, do'sti hamdalaridan ayrilgan edi. Ijtimoiy konflikt – hikoya qahramonlari bilan ular yashayotgan davr o'rtasidagi kurash mana shu yerda namoyon bo'ladi.

Ona farzandiga aza ochadi va har juma kuni qabristonga bir chelak suv va bir haltachada tariq olib borib, qabristonning quruq va chanqagan tuprog'iga suv sepadi, qushlarni tariq bilan siylaydi. Voqealar rivojiga ko'ra bolaga bu voqea juda qattiq ta'sir qiladi.

گامهایم را با احتیاط تیز کردم، با احتیاط قدم گذاشتن عادت شده بود - سالهای سال میشد با احتیاط راه میرفتم. سالهای سال میشد؛ به نظرم می آمد زیر هر قدم قبرست و در آن قبر کشته بی.

(*Qadamlarimni ehtiyotkorlik bilan tezlashtirdim, ehtiyot bilan qadam tashlashga odatlanib qolgan edim – yillar davomida ehtiyotkorlik bilan yurib keldim. Yil ketidan yil o'tdi; Go'yoki hayolimda har qadamim ostida qabr va shu qabrda o'ldirilgan odam yotgandek tuyular edi.*)¹¹⁰

Bu uning xayolini o'g'iraydi, iztirobga soladi. Go'yo har qadami ostida shu bir bolaning qabri bordek, uni bosvormaslik uchun ehtiyotkorlik bilan qadam tashlaydigan bo'lib qoladi. Yozuvchi o'sha davr manzarasini chizishda bolalar his-tuyg'ulari, emotsional holatlaridan unumli foydalanadi. Shu orqali o'sha zamonning

¹⁰⁹ سپوژمی زریاب. دشت قابیل. ایران، 1367. - 26ص.

¹¹⁰ سپوژمی زریاب. دشت قابیل. ایران، 1367. - 26ص.

zulmatga cho'mgan kunlarini, urushning dahshatli talofatlarini, yemirilgan oilalar, kentik qalblar ruhiyatini bolalar nigohi bilan yanada tiniqlashtiradi.

Qo'shni ayol bir kuni bolani yo'lda ko'rib qolib shahid ketgan farzandi bilan birga yana 57 kishi birga qurbon bo'lganligini aytadi. Bola buni eshitib o'zini yanada qattiq aybdordek his qiladi. Bir kishining o'limi qalbini qattiq ezgan chog'da, 57 kishining shahid ketgani voqealar rivojida "asarda aks ettiriluvchi muammo o'zligini yaqqol ko'rsatib berishda xizmat qiladi"¹¹¹.

Hikoya syujetida voqealar rivoji kulminatsion nuqtaga qarab bosqichma-bosqich o'sib boravergani sayin, hikoyadagi ziddiyatlar, muammo oshib, bolaning his-tuyg'ulari ham avj olib boraveradi. Bolaga 57 kishi – ya'ni raqamlar tarix darsini eslatishi orqali Spujmay Zaryob hikoyada sabab-oqibat bilan bog'langan syujet – konsentrik syujetni ishga soladi. Bola yettinchi yoki sakkizinchi sinfligida tarix darsida ikkinchi Jahon urushi mavzusini eslaydi:

آن روز درس ما جنگ جهانی دوم بود. بیش از آنکه از اش چیزی پرسیم، معلم تاریخ بعد از جستجوی بی حاصل در دستکول کوچکش ایستاد و شروع به نوشتن اعدادی روی تخته کرد:
- جنگ جهانی اول هفت اعشاریه شصت و نه ملیون کشته داد.
- جنگ جهانی دوم در اروپا و آسیا پنجاه و پنج ملیون کشته سی و پنج ملیون زخمی داد.
- سی ملیون غیر نظامی کشته شد.

هفت ملیون روس، پنج اعشاریه چهار ملیون چینی، چار اعشاریه دو ملیون پولیندی، سه اعشاریه هفت ملیون آلمانی، سیزده اعشاریه شش ملیون سرباز ارتش سرخ، سه ملیون سرباز آلمانی، شش اعشاریه چهار ملیون سرباز چینی، یک اعشاریه پنج ملیون سرباز جاپانی، سه صد هزار سرباز امریکایی، دو صد و بیست و شش هزار سرباز انگلیسی، در کوره های آدم سوزی هیتلر روزانه دوازده هزار یهودی نابود می شدند. تخته پر شد...

(O'sha kuni bizning darsimiz Ikkinchi Jahon urushi edi. Tarix o'qituvchisi biron bir narsani so'rashimizdan oldin, kichkinagina sumkachasidan bir narsani, topa olmay doskaga raqamlarni yozishni boshladi:

Birinchi jahon urushi olti butun oltmish to'qqiz million kishini qurbon qildi.

Ikkinchi Jahon urushi Evropa va Osiyoda ellik besh million kishini o'ldirildi va o'ttiz besh million kishini yaraladi.

30 million tinch aholi o'ldirildi.

Etti million ruslar, besh butun o'ndan to'rt million xitoy, to'rt butun o'ndan ikki million polshalik, uch butun o'ndan etti million nemislar, o'n uch butun ondan olti million qizil armiya askari, uch million nemis askarlari, olti butun o'ndan to'rt million xitoy askari, bir butun o'ndan besh million yapon askari, uch yuz ming amerikalik askar, ikki yuz yigirma olti ming ingliz askari. Gitlarning odam yoqish pechlarida har kuni o'n ikki ming yahudiy yoqib yuborilgan.

¹¹¹ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi.T.:2004. – 128b.

*Doska to 'ldi, ...)*¹¹²

Spujmay Zaryobning hikoya syujetini qurishda keltirgan dalillari shu qadar o'rinli va mahoratliki, bu jumlar orqali hikoya qahramoni – bola tasavvurida o'lim daxshati kuchayadi, o'quvchining qalbida urushga bo'lgan nafrat uyg'onadi. Syujetning voqealar rivoji qismi shu tarzda – bosqichma-bosqich, keskinliklar va konfliktlarning o'sib borishi bilan kulminatsion nuqtasiga yetib keladi, bolaning qalbida hissiyotlar, turli qarama-qarshi o'y-fikrlar kurashi boshlanadi va hikoya syujetida psixologik konfliktni vujudga keltiradi. Yozuvchi buni shunday ifodalaydi:

همان طوریکه اعداد را در کتابچه ام مینوشتم، آنها را زیرلبم هم زمزمه میکردم. یک بار سرم به دوران افتاد. حالت تهوع برایم دست داد. قلم را گذاشتم. اعداد زیر چشم حرکت کردند و جان گرفتند. آدمهای کشته پیش چشم ایستادند، همه شان با سرهای بریده و قدهای خمیده ایستادند - لباس های پر از خاک شان خون آلود بود. یک بار به نظرم آمد که صنف ما از آدمهای بی سر پرشد. همه جهان از آدمهای بی سر پرشد. لرزه بی بر پشتم احساس کردم. یک بار به نظرم آمد که دورادورم را آدمهای کشته و بی سر گرفته است و من در میان آدمهای کشته و بی سر به خاطر سری که دارم شرمگین ایستاده ام...

(Raqamlarni daftarimga yozar ekanman, ularni pichirlardim. To'satdan boshim aylana boshladi. Ko'nglim aynidi. Ruchkamni qo'ydim. Raqamlar ko'zlarim oldida harakatlanib, jonlandi. O'ldirilgan odamlar qarshimda turgandek bo'ldilar, hammalarining boshlari kesilgan, qaddi egilgan edi – chang bo'lgan kiyimlari qonli edi. Birdan hayolimga sinfirmiz boshsiz odamlarga to'ladek ko'rindi. Maktabimizning hovlisi ham boshsizlarga to'la edi, shahrimiz boshsiz odamlarga to'la edi. Butun dunyo boshsiz odamlarga to'ldi.

*Orqamda titroq sezdim. Kutilmaganda menga atrofim o'ldirilgan va boshlari kesilgan o'rab olgandek ko'rindi, men boshsizlar orasida boshim borligi sababli uyalib turgandek bo'ldim...*¹¹³

Hikoya bayonida psixologik, ijtimoiy va xarakterlararo konfliktlar almashinib keladi. Xususan, bola tarix o'qituvchisi tomonidan urush qurbonlari haqida doskaga yozilgan ma'lumotlarni ko'rib, 'ayn همه خون کجا رفت؟ این همه کشته کجا شدند خدای من چرا؟' - *Buncha qon qayerga ketdi? Bu o'ldirilganlar qayerga g'oyib bo'ldalar, yo xudoyim, nega?! – deb e'tiroz bildiraveradi, darsdan chiqarib yuboriladi. Natijada xarakterlararo konflikt yuzaga chiqadi, darsdan chiqib ketgach esa, o'z xayollari bilan keskin kurashi tasvirlanganda psixologik konflikt paydo bo'ladi.*

Spujmay Zaryobning ushbu hikoyasida bosh g'oya uning sarlavhasidanoq namoyon bo'ladi, ammo bu anglashinish hikoya kulminatsiyasida ochiqlanadi. Ya'ni bola qalbida qancha ko'p urushlar bo'lsa, shuncha ko'p qurbonlar bo'ladi, demakki,

¹¹² سپوژمی زریاب. دشت قابیل. ایران، 1367. - 26ص.

¹¹³ سپوژمی زریاب. دشت قابیل. ایران، 1367. - 26ص.

suv to'ldirilgan chelaklar va tariq solingan xaltalar soni ham ortib boraveradi degan og'riqli o'ylar paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida o'quvchining shuurida urushga bo'lgan nafratni kuchaytirib, u keltirgan talofatlar-u qurbonliklarni qalban his qilishga majbur qiladi. Spujmayning insoniyat boshiga kelgan qirg'inlar qanchalar ko'p odamlarning yostig'ini quritgani-yu, shunchalar ko'p qabrlar paydo bo'lganini va ularga suv sepib, tariq sohib turuvchi onalar iztirobini bola timsolida gavdalantirish g'oyasi g'oyatda tahsinga sazovordir. Hikoyada hissiy-emotsional holatlar, jonlantirish, tasvir bo'yoqlarining kuchliligi g'oya mazmunini ochib berishda katta rol o'ynagan.

قبرستان از شمال و جنوب و از شرق و غرب به طور وحشتناکی توسعه یافته بود. تا چشم کار میکرد، قبر بود و قبر بود... قبرها به صورت رقت انگیزی تزیین شده بودند بالای سر هر قبر درفشی ایستاده بود. درفش سبزی... درفش سرخی....

*(Qabriston shimoldan janubgacha, sharqdan g'arbgacha dahshatli tarzda ulkanlashib ketgan edi. Qayerga qarasang qabr edi, qabr edi ... Qabrlar vahimoli tarzda bezatilgan edi, har bir qabr ustiga bayroq qadalgan edi. Yashil bayroq ... Qizil bayroq)*¹¹⁴

Spujmay Zaryobning syujet yaratishdagi o'ziga xos uslub shunda ko'rinadiki, u hikoyalarida ramziylikka keng o'rin bergan, har bir obrazda o'ziga xos ramziylik mavjud. Yuqorida keltirilgan parchadan shuni anglash mumkinki, mamlakatdagi to's-to'polonlar, urush-janjallar natijasida shu qadar ko'p insonlar jon berdilarki, ularni butun mamlakat bo'ylab yoyib chiqilsa, qayerga oyoq bosilmasin, qayerga ko'z tashlanmasin qabrlar paydo bo'lar edi. Har qabr ustidagi "qizil, yashil, ...bayroqlar" esa afsuski, vatani Afg'onistonning milliy bayrog'i ranglaridir.

Hikoya sujetiga ko'ra kulminatsiyada bolaning xayollari orqali tugunda aks etgan muammo o'z yuzini ko'rsatib, yechimga yuz ochadi. Yozuvchi shu yerda g'arbdan ta'sirlangan holda, muammoni ochib berishda syurrealizmga tayanib ish ko'radi. Unga ko'ra hayolatning kengligi va tasvirning kuchliligi bilan qarama-qarshiliklar yana bir bor to'qnashadi. Qo'shnining ayoliga o'xshagan ko'plab ayollar qo'llarida suv chelaklari va tariq solingan haltalari bilan qabristonga kelishadi, qabristonning chanqagan yeriga suv sepib, qushlarga don berib ko'ngillari taskin topar edi. Ammo, hayhot, qushlar yo'q, ular atrofga alanglab qushlarni qidirishadi. Qarashsaki, qari va qurigan daraxt shoxlarida ko'zlari ko'r qarchig'aylar o'tirishibdi, hamma qo'rqib qochadi, yig'lay-yig'lay birin-ketin g'oyib bo'lishadi. Bolaning qalbi larzaga tushadi... Yozuvchi bunda bag'riqon onalar, jigarini, yaqinini yo'qotgan insonlarning kechinmalarini chizgan, ularning dardiga malham yo'q, ko'nglini taskin

¹¹⁴ سپوژمی زریاب. دشت قابیل. ایران، 1367. - 32ص.

toptiruvchi yo'l yo'q. Ular oxir oqibat musibatlariga ko'nikishga majbur, dard bilan yashab, dard bilan o'lishga mahkumdirlar.

2. Bally S. French stylistics / S. Bally. - M .: Publishing house of foreign literature, 1961. - 394 p.
3. Smith L.P. Phraseology of the English language / L.P. Smith. - M .: Uch pedgiz, 1959. - 207 p.
4. Vinogradov V.V. Basic concepts of Russian phraseology as a linguistic discipline // Proceedings of the anniversary scientific session of Leningrad State University. 1819 - 1844. - Leningrad, 1946. - 173 p.
5. Vinogradov V.V. On the main types of phraseological units in the Russian language // Vinogradov V.V. Lexicology and lexicography: Izbr. Tr. - M .: Nauka, 1986.-182 p.
6. A. V. Kunin English - Russian phraseological dictionary. - M .: 1955. - 1427 p.
7. Shmelev D.N. Problems of semantic analysis of vocabulary - M .: Nauka. 1973.279 pp.
8. Rakhmatullaev Sh. Ozbek tilining isoli phraseological unit lurati. Toshkent, fan, 1992. - 380 p.

IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI

Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati kafedrası

katta o‘qituvchisi

nihatchetin@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab-musulmon ijtimoiy tafakkurining mashhur mutafakkiri Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning (1334-1406) „Muqaddima“ asarida jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: geografik determinizm, falsafa, tarix, unsurlar, jamiyat, geosiyosat, geostrategik manfaatlar, mashshoyiyunlar, birinchi iqlim, ikkinchi iqlim, uchinchi iqlim, oltinchi va yettinchi iqlim, ijtimoiy mavjudot, „Muqaddima“.

Аннотация. Данной статье анализируются факторы, влияющие на развитие общества, в книге известного мыслителя арабо-мусульманской общественной мысли Абу Зайда Абдуррахмана ибн Халдуна (1334–1406) «Мукаддима».

Ключевые понятия: географический детерминизм, философия, история, элементы, общество, геополитика, геостратегические интересы, восточный перипатетизм, первый климат, второй климат, третий климат, шестой и седьмой климаты, „Мукаддыма“.

Abstract. This article analyzes the factors influencing the development of society in "Mukaddima" the book of the famous thinker of Arab-Muslim social thought Abu Zayd Abdurrahman ibn Khaldun (1334-1406).

Key words and expressions: geographical determinism, philosophy, history, elements, society, geopolitics, geostrategic interests, eastern peripateticism, the first climate, the second climate, the third climate, the sixth and seventh climates, the "Mukaddim".

KIRISH

Ijtimoiy falsafa oqimlari orasida geografik determinizm oqimi alohida o‘ringa ega. Mazkur oqim keyinchalik dunyoning siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy jabhalarida keng ta’sirga ega bo‘lgan geosiyosat va geostrategik manfaatlar kabi trendlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. XIV asrning mashhur mutafakkiri Abu Zayd

Abdurahmon ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida geografik determinizmga asoslangan fikrlar ilgari surilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning “Muqaddima” asarimetodologik manba sifatida foyladanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida mutafakkirning jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar, shu jumladan, geografik determinizm oqimi xususiyatlari va jihatlari obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy qarashlari mutafakkirning “Muqaddima” asarida ifodalangan. Ibn Xaldun “Muqaddima” asarini olti qismga ajratadi: “Ushbu kitobimning muqaddimasi olti qismdan iborat”¹²⁰.

Asarning birinchi qismida mutafakkir insonning jamiyat va tabiatdagi o’rni hamda maqomi haqidagi fikrlarini bayon qiladi.

Asarning birinchi qismini muallif tilidan bayon qilishga harakat qilamiz: “Faylasuflar gapi bilan aytganda “Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir”, u boshqalar bilan birgalashib yashash kerak. Bunday birlashmani ifodalash uchun ular “shahar” so’zidan foydalanadilar. Ijtimoiy, jamoaviy hayotning ma’nosi ham shudir va buni quyida sharhlaymiz: Olloh insonni shunday yaratdiki, u oziq-ovqat bilangina hayot kechira oladi. U bandasiga hayot kechirishi uchun oziq-ovqat topishga tafakkur va layoqat in’om qildi. Lekin bir inson o’zi uchun kerakli bo’lgan ozuqani yolg’iz holda topishga imkon topa olmaydi. Masalan, bir kunlik bug’doyni iste’mol qilish uchun, bug’doyni un qilib tortish kerak, xamir qilish kerak va nihoyat pishirish kerak. Inson yuqoridagi uch harakatni amalga oshirish uchun turli ish qurollarini ishlatadi. Ish qurollari esa temirchi, duradgor, kulol kabi turli hunarmandlar tomonidan yasaladi. Agar inson bug’doyni hech qanaqa ishlov bermasdan g’alla sifatida iste’mol qilsa ham, donni olish uchun turli harakatlarni bajarishga majbur bo’ladi, donni ekish, o’rib olish, yanchish kerak bo’ladi. Bu ishlarni ham amalga oshirish uchun turli hunarlar mahsuli bo’lgan mehnat qurollaridan foydalaniladi. Bu ishlarni bir kishi bajarishi mumkin emas, ozuqani tayyorlash, uni iste’molga yetkazish uchun ko’p kishilarning mehnati zarurdir. Insonlar o’rtasidagi o’zaro yordam ularning ehtiyojlarini qondirishga yetarlicha kuch beradi.

¹²⁰ Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999 м., 17-бет

Har bir inson o‘z hayotini himoya qilishda boshqa kishilarning yordamiga ehtiyoj sezadi. Ollah borliqni yaratganda, hayvonlarni jismonan kuchli qilib yaratgan, bandalarini esa ularga qaraganda kuchsiz qilib yaratgan. Masalan, ot, arslon, ho‘kiz, fil insondan jismoniy jihatdan bir necha barobar kuchlidir. Hayvonlar o‘rtasidagi yashash uchun kurash tabiiydir. Ollah har bir hayvonga boshqasini ovlash yoki boshqasidan himoyalani uchun alohida qurol bergan, ya’ni tanasining biror a’zosini kuchli qilib yaratgan. Ollah insonga kuch o‘rniga tafakkur va qo‘l in’om etgan. Inson tafakkur va qo‘l vositasida hunar bilan shug‘ullanadi. Hunar esa hayvon tana a’zolarini o‘rnini bosuvchi qurollarni insonga bergan. Nayza shox o‘rnini, qilich – o‘tkir tirnoq, qalqon esa qalin teri o‘rnini bosgan. Lekin inson yolg‘iz holda yirtqich hayvonga qarshilik ko‘rsata olmagan, o‘zini himoya qila olmagan. Qurollarni tayyorlash uchun bir insonning kuchi yetarli emas. Himoya qurollarini tayyorlash uchun ko‘p hunarlar va boshqa mehnat qurollari zarurdir. Insonga hamma sohada boshqa insonlarning yordami zarur, agar o‘zaro yordam bo‘lmas ekan, inson o‘zini ozuqa bilan ta’minlay olmaydi. Inson qurolsiz o‘zini himoya qila olmaydi. Uni hayvonlar mahv etishadi va inson zoti zavolga yuz tutadi. Agar o‘zaro yordam, hamjihatlik bo‘lsa, inson ozuqa bilan ham ta’minlanadi, himoya uchun qurolga ham ega bo‘ladi. Shundagina Ollahning inson zotining mavjud bo‘lishi va davom etishi haqidagi irodasi bajariladi”¹²¹. Shunday qilib inson zoti uchun birlashish zarur ekan. Ibn Xaldun inson hayoti uchun jamoa bo‘lib yashashning zarurligini ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek, mutafakkir jamiyat shakllanishida mehnat taqsimotining ahamiyatiga ham e’tibor berib o‘tgan.

Mo‘tadil iqlimda yashovchilar mehnat qurollaridan foydalangan holda uylarini tosh poydevorda qurishadi va bezak berishadi. Ular oltin, kumush, temir, mis, qo‘rg‘oshin, qalaydan foydalanishadi. Mahsulot ayirboshlashda kumush va oltindan foydalanishadi va hayotlarida qat’iy o‘lchov birliklarini o‘rnatishgan. Mag‘rib, Suriya, Janubiy va Shimoliy Iroq, Sind va Xitoy aholisi shu tarzda yashaydilar. Shuningdek, Andalusiya, franklar, galisiylar va ularga qo‘shni xalqlar ham mo‘‘tadil iqlimda istiqomat qilishadi. Eng mo‘‘tadil mintaqalar sirasiga Suriya va Iroq kiradi, ular markazda joylashgan. Nomo‘‘tadil iqlimlar birinchi, ikkinchi, oltinchi va yettinchi iqlimlardir. Ushbu iqlimlar aholisining hayot tarzi, urf-odati mo‘‘tadil iqlim aholisidan keskin farq qiladi. Ular turar joylarini tuproq va qamishdan qurishadi. Nomo‘‘tadil iqlim yashovchilari don va o‘t iste’mol qilishadi, darahat yaproqlari yoki

¹²¹ Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока: Ибн Халдун «Введения». М., 1965 г., с. 321

hayvon terisidan kiyim sifatida foydalanishadi. Bu xalqlarning ko'pchiligi kiyimsiz ham istiqomat qilishadi. Ularning ozuqalari ham o'zgacha bo'lib, mo'tadil iqlim xalqlari ozuqalaridan tubdan farq qiladi.

Nomo'tadil iqlim aholisi mahsulot ayirboshlashda qimmatbaho metallardan foydalanishmaydi. Ular to'lov sifatida mis, temir yoki teridan foydalanishadi¹²².

Ushbu iqlimlar aholisi turmush tarzi hayvonlar turmush tarziga o'xshashdir. Birinchi iqlim aholisi bo'lgan sudanliklar changalzorlarda va g'orlarda hayot kechirishadi, ular hayvonlardek yashaydilar. Sudanliklar o't bilan oziqlanishadi, shuningdek, ular odamxo'rlik ham qilishadi. Ularning e'tiqodi noma'lum, ilm-fan bilan shug'ullanishmaydi. Sudanliklar hayot tarzi hayvonlarnikidan farq qilmaydi. Ba'zi bir shajara bilan shug'ullanuvchi olimlar tabiat kuchlari ilmidan bexabar holda, sudanliklarning terisi qoraligini afsonat bilan bog'lashadi. Ular bergan ma'lumotlarga ko'ra sudanliklar Nuh payg'ambarning o'g'li Xom avlodlari bo'lib, Nuh o'g'li Xomni la'natlaganligi uchun uning avlodlari qora tusli bo'lgan emish. Bu olimlar sudanliklarning qora tusli ekanligi sababini qidirishganda, tabiatning issiq va sovuq havosi va ularning tirik jonzoatlarga ta'sirini hisobga olmaganlar¹²³.

Birinchi va ikkinchi iqlim aholisining rangining qoraligi issiq havoning inson terisiga ta'siri bilan bog'liq. Bu iqlimlarda quyosh yil bo'yi zenitda turadi. Quyosh nuri juda ham kuchli bo'lib, yuqori harorat insonlarga ta'sir qiladi va ularning rangi qora tusni oladi.

Shimolda joylashgan oltinchi va yettinchi iqlimlar aholisi teri rangi sovuq havo natijasida oq tusni olgan. Bu iqlimlarda quyosh zenitga chiqmaydi, shimolga borgan sari issiq harorat pasayib boradi, sovuq kuchayib boradi, insonlarning terisi rangi esa oqarib boradi.

Sudanliklarning shimol tomondagi to'rtinchi va yettinchi iqlimlarda yashaydigan qardoshlari oq tuslidirlar. To'rtinchi iqlimning janubida yashovchi qardoshlari rangi esa qora tusligi bilan ajralib turadilar. Bu esa inson terisi rangi havo haroratiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Biror bir hudud aholisining tabiiy xususiyatlarini ularning ajdodiga bog'liq afsonalarga va e'tiqodlarga bog'lash xatodan boshqa narsa emas, bu tabiiy hodisalarning mohiyatini bilmaslikdir.

Ibn Xaldun inson terisi rangi, yashash tarzi, urf-odatlarini geografik omillarning ta'siriga bog'liq ravishda o'zgarishini ta'kidlab o'tgan. Albatta Ibn Xaldunning

¹²² Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999 м., 18-бет

¹²³ Ҳотамий Сайид Муҳаммад. Ислом тафаккур тарихи. Т.: "Минҳож", 2003 й., 241-бет

qarashlarida kamchiliklar bor, lekin uning davri uchun bu fikrlarni yutuq sifatida baholash mumkin.

Birinchi qismdan quyidagi fikrlar ham o‘rin olgan:

Bu dunyoni kuzatar ekanmiz, borliqdagi hamma hodisalar tartib va qonuniyatlar asosida ro‘y berishini guvohi bo‘lamiz. Bu hodisalar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va bir-biriga aylanadi. Dunyo mo‘‘jizalari bu bilan to‘xtab qolmaydi. Bu moddiy dunyoni his qilishdan boshlanadi. Unsurlar dunyosida yer unsuri suvga, keyin havo unsuriga, keyin olov unsuriga bosqichma-bosqich o‘tib, dunyodagi hamma narsaning bir-biriga bog‘liqligidan dalolat beradi. Murakkab jismlar dunyosini kuzatadigan bo‘lsak, u minerallardan boshlanadi, keyin o‘simliklar, keyin hayvonlar, bular hammasi hayratlanarli darajada tartib bilan joylashgan. Minerallar qatlami tugaganidan keyin, o‘simliklar dunyosi boshlanadi. O‘simliklar dunyosi tugaganidan keyin, masalan, palma va uzum, paypaslash bilan sezish mumkin bo‘lgan chig‘anoqlar va shilliqqurtlar, hayvonot dunyosi boshlangan. Sezish layoqatiga va aqliy harakatlarga ega bo‘lgan, lekin tafakkuri bo‘lmagan maymunlar dunyosidan tafakkurga ega inson ajralib chiqdi. Bunga qadar hayvonot dunyosi kengayib, turli xil hayvonlar va jonzotlar turi ko‘payib ketdi”¹²⁴.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Ibn Xaldun substansiya sifatida olingan unsurlar masalasiga ham to‘xtalib o‘tgan. Mutafakkirning unsurlar haqidagi fikrlari uning mashshoyiyunlarga bo‘lgan e‘tiboridan dalolat beradi.

Ikkinchidan, Ibn Xaldunning insonni maymunlar dunyosidan ajralib chiqqanligi haqidagi fikrlari arabcha matnda kuzatilmagan. Bu Basiyevning ruscha tarjimasidan olingan bo‘lib, masalaga marksistik, biryoqlama yondashishning oqibatidir. Lekin mutafakkir asarida dunyoning tabiiy rivojlanishi, inson esa yovvoyi dunyoni tafakkuri yordamida kishilik jamiyatiga aylanganiligini ta’kidlab o‘tgan. Mazkur jihatlar geografik determinizm oqimi ta’limotiga yaqindir.

Uchinchidan, XIV asr arab mutafakkiri Ibn Xaldunning qarashlarida geografik determinizm oqimining ildizlari o‘z aksini topgan. Zamonaviy fanda XVIII asrda yashagan fransuz mutafakkiri Sh. Monteske geografik determinizm oqimining asoschisi hisoblanadi. Sharqda Ibn Xaldunni ham ushbu oqim asoschilaridan biri deb hisoblash mumkin.

¹²⁴ Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока: Ибн Халдун «Введения». М., 1965 г., с. 323

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Hotamiy Sayid Muhammad. Islom tafakkur tarixi. T.: “Minhoj”, 2003 y.
2. Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. Al-Qohira: Dor al-kitab Al-Misriy va al-Lubnaniy, 1999 m.
3. Sulaymonov J.B. Ibn Haldun qarashlarida geografik determinizm ildizlari //Sharqshunoslik jurnali. 2018 yil 4-soni. 124-128 betlar.
4. Sulaymonov J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar//Falsafa va huquq jurnali. 2019 yil 1-soni. 42-45 betlar.
5. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
6. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
7. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока: Ибн Халдун «Введения». М., 1965 г.
8. Сулаймонов Ж.Б. Взгляды Абдуррахмана ибн Халдуна о развития общества и цивилизации// Международный научно-практический журнал “Экономика и социум”. 12 (79)2020 г. //https://iupr.ru//a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdfb.

XITOIY BUDDAVIYLIGINING CHAN MAKTABI (CHAN SZUN) HAQIDAGI MULOHAZALAR

Mamatqulova Nilufar Xusanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi

mamatqulovanilufar1991@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy buddaviyligi Chan maktabining rivojlanishi tarixi va falsafiy ta'limoti haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, chan maktabining Uzoq Sharq falsafiy tafakkuri rivojiga ta'siri bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Xitoy Buddaviyligi, Chan maktabi (Chan szun), Budda, Shakyamuni, Bodxixarma, "Lankavatara sutra", Xuey-nen.

Аннотация: В данной статье рассматривается история развития и философские учения Чанской школы китайского буддизма. В статье также подчеркивается влияние школы Чан на развитие философского мышления на Дальнем Востоке

Ключевые слова: китайский буддизм, школа чань (Chan Szun), Будда, Шакьямуни, Бодхисаттва, Ланкаватара-сутра, Хуэй-нен.

Abstract: This article discusses the history of development and philosophical teachings of the Chan school of Chinese Buddhism. The article also highlights the Chan school influence on the development of philosophical thought in the Far East

Keywords: Chinese Buddhism, Chan School (Chan Szun), Buddha, Shakyamuni, Bodhisattva, Lankavatara Sutra, Hui-nen.

KIRISH

Chan maktabi Uzoq Sharq buddaviyligining eng xitoylashgan maktablari sirasiga kiradi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra chan maktabi Xitoy buddaviyligining eng muhim, asosiy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shu bilan birgalikda quyidagi jihatni tan olmaslikning imkoni yo'q, yuqorida qayd qilingan tipologik hodisalar buddaviylikning boshqa an'analari uchun ham taalluqlidir. Masalan, hind maxasiddhalarining Budda holatini o'z tanasida his etishga yoki Dzogchen tibet amaliyotini (ma'lum darajada Maxamudrani ham) o'ziga tatbiq etishga bo'lgan telbalarcha intilishini keltirish mumkin. Boshqa tomondan shuni qayd qilib o'tish zarurki, Chan ta'limotining Xitoy va mintaqaning boshqa davlatlari buddaviyligidagi ustunlik holatini o'sha davrda ushbu jamiyatlardagi rivojlanishning yuzaga kelgan tarixiy shart-sharoit bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ushbu maktabning Uzoq Sharq buddaviyligiga ta'sirini inkor qilish va kamaytirib ko'rsatish mumkin emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mashhur olimlar Huai-Chin Nanning “The Story of Chinese Zen” hamda Xuan Chanxuaning “Xitoy Buddaviyligi maktablari ta’limotlarining mohiyati” asarlari metodologik manba sifatida foyladanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida Xitoy buddaviyligi Chan maktabining rivojlanishi tarixi va falsafiy ta’limoti jihatlari obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabning nomlanishi uning mohiyatini aks ettiradi. Chan so‘zi (channa so‘zining qisqartirilgani) sanskritcha dxyana(mushohada, meditatsiya) so‘zining transkripsiyasi bo‘lib, buddaviylikning ushbu maktabining yoga, ruhiy amaliyotga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Ushbu maktabning yana bir, hammaga ma‘lum bo‘lmagan nomi – “Budda qalbi” maktabi (buddxa xridaya, fo sin szun) nomi ham mavjud¹²⁵.

An‘analarga ko‘ra chan maktabini Budda Shakyamuning o‘zi shogirdlari oldida gul ko‘tarib va jilmaygan holda asos solgan ekan(“Buddaning gul orqali targ‘iboti”). Shogirdlar orasida Maxakashyapadan boshqa hech kim Buddaning bu harakatini tushunmagan ekan¹²⁶. Maxakashyapa gul ko‘tarib va jilmaygan holda javob qilgan ekan. Shu lahzada Maxakashyapada ruhiy uyg‘onish(nurlanish, vahiy) ro‘y berib, bu uyg‘onish Budda tomonidan hech qanday yozma yoki og‘zaki nasihatsiz, bevosita berilgan ekan. Chan maktabining ta’limotiga ko‘ra ma‘rifat, ziyoning ustozdan shogirdga to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatish(“qalbdan qalbga”) an‘anasi o‘sha hodisadan boshlangan ekan. Hindistonda Dxarma (bu yerda bodxi, uyg‘onish, nurlanish) ustozlarning yigirma sakkiz avlodi orqali yetkazilgan, chan ta’limotiga ko‘ra (albatta afsonaviy variant) yigirma sakkiz avlod ustozlari sirasiga Ashvagxosha va Nagarjuna kabi buyuk Buddaviylar kiradi. Hindistondagi mushohada qilish maktabining yigirma sakkizinchi (albatta bu raqamlanishni rasmiy buddaviylik dini tan olmaydi) ustozlari sifatida Bodxixarma tilga olinadi. Bodxixarma Hindistonning janubidan bo‘lgan braxman bo‘lib, VI asr boshida Xitoyga buddaviylik targ‘ibotchisi sifatida kelgan va Chan maktabining birinchi rahbari bo‘lgan. Bodxixarmaning hayoti va ta’limoti haqida tarixiy haqiqatga yaqin ma‘lumotlar yo‘q. Uning hayoti haqidagi

¹²⁵ Huai-Chin, Nan (tr. Thomas Cleary); The Story of Chinese Zen. Charles E. Tuttle Company, 1995. P-34/

¹²⁶ Уша манба, 36-бет

keyingi ma'lumotlar Chan maktabining asoschisini ulug'lash maqsadida ilgari surilgan bo'lib, haqiqatdan uzoqligi bilan ajralib turadi¹²⁷.

Shuni qayd etish lozimki, Bodxixarma Xitoyga umuman yangi bo'lgan mushohada usullarini olib kirgan va "Lankavatara sutra" ta'limotini ilgari surgan. Chan maktabi faoliyatining dastlabki bosqichida ushbu maktabni "Lankavatara maktabi" deb nomlashgan.

Chan maktabining ilk tarixi haqida ma'lumotlar kam. Chan maktabi VII-VIII asrlar oralig'ida Shimoliy va Janubiy maktablarga bo'linib ketdi. Bo'linishga uyg'onish(nurlanish, vahiy)ning lahzali, favqulodda (dun) yoki bosqichma-bosqich(szyan) xarakteri haqidagi bahslar sabab bo'lgan. Oltinchi rahbar Xuey-nen (713 yilda v.e.) shogirdi Xesze Shenxuey boshchiligidagi Janubiy maktab ta'limotiga ko'ra uyg'onish, nurlanish ongning tabiati bo'lgani holda, hech qanday sababga muhtoj emas va shogirdning kundalik, omi ongini nurlantiradi, oziqlantiradi. Janubiy maktab channi chaqmoq yashini singari lahzalik tezlikda ro'y beradigan jarayon deb baholaydi. Beshinchi rahbar Xun-jenning shogirdi Shen-syu boshchiligidagi Shimoliy maktab, aksincha, uyg'onish, nurlanishning bosqichma-bosqich xarakterini ilgari suradi. Shimoliy maktab bu holatni tong vaqtida zulmatning chekinishiga qiyoslaydi. Shuningdek, ko'p sonli aralash turdagi konsepsiyalar ham mavjud. Masalan, Szun-mi quyidagi nazariyani ilgari suradi, lahzali nurlanishdan so'ng u bosiqchma-bosqich takomillashib boradi (dun u szyan syu): quyosh to'satdan chiqadi (lahzali nurlanish), lekin tumanni sekin tarqatib, shudringni bosqichma-bosqich quritadi (adashishlarni va ularning asoratlarini bosqichma-bosqich bartaraf qiluvchi takomillashuv).

Shenxuey izdoshlari tomonidan "opportunistik" deb tamg'a bosilgan Shimoliy maktab IX asr o'rtalarida, balkim undan avvalroq o'z faoliyatini tugatgan edi. Janubiy maktab beshta yo'nalishga("xonadon" – szya) bo'linib ketdi. Ushbu yo'nalishlar mumtoz Chan maktablarini shakllantirdi, ulardan ikkitasi bugungi kunda ham mavjud bo'lib, zamonaviy Chan yo'nalishining vakillari hisoblanadi. Ulardan biri Linszi(yaponcha, Rindzay) "xonadoni" bo'lib, rohib Linszi I-syuan (811-866) tomonidan tashkil qilingan, ikkinchisi esa Saodun (yaponcha Soto)"xonadoni" bo'lib, ularning shakllanishi o'sha davrda yashagan ikki ustoz – Saoshan Ben-szi va Dunshan Lyan-szelarga borib taqaladi. Qolgan uch "xonadonlar" – Guyyan, Yunmen va Fayan XII-XIII asrlardan so'ng faoliyatlarini to'xtatishgan (Guyyan yo'nalishining ta'siri XI-XIII asrlarda Vetnamda o'zining cho'qqisiga chiqqan edi). VIII asrda

¹²⁷ McRae, John R. Seeing through Zen: Encounter, Transformation, and Genealogy in Chinese Zen Buddhism. — Berkeley: [University of California Press](http://www.berkeleyca.edu/ucpress/), 2004. P-69.

mumtoz Channing shakllanishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan Ma-szu Dao-i quyidagi tamoyilni ilgari surgan edi: “Oddiy insonning aql-idroki – bu Daoning aql-idroki demakdir, oddiy insonning nutqi – bu Buddaning lafzi demakdir”.

IX asrning o‘rtalariga qadar Chan maktabi Tyantay yoki Xuayan maktablariga nisbatan kamroq ta’sirga ega edi. Tan imperatori U-szun (845 y.) o‘sha vaqtda saroyda katta ta’sirga ega bo‘lgan daoslarning ta’siri ostida (imperator daoslardan abadiy hayot kechirish suyuqligini olmoqchi bo‘lgan) buddaviylikka qarshi qonunlar qabul qildi, natijada buddaviy maktablar ta’qib qilindi. “Xuey-chan yillari” ta’qibi vaqtida Tyantay va Xuayan maktablari tanazzulga yuz tutdilar, buddaviylik ibodatxonalarning mulklari ommaviy tarzda musodara qilindi, rohiblar majburan dunyoviy hayotga qaytarildi. Lekin bu ta’qiblardan Chan maktabi zarar ko‘rmadi, chunki chan rohiblarining o‘sha vaqtlarda ibodatxonalari deyarli bo‘lmagan, ular o‘sha vaqtlarda Vinay maktabining ibodatxonalarida istiqomat qilishgan. Bundan tashqari chan rohiblari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanganlar(choy yetishtirganlar), bu holat chan rohiblarini tekinxo‘rlikda ayblashlaridan qutqargan. Natijada X-XI asrlarda Chan maktabi yetakchi maktablardan biriga aylandi va ko‘plab ibodatxonalar hamda ma’naviy ierarxiya yaratdi. Bu holat ilk Chan ta’limotining avtoritarizm va byurokrtiyaga qarshi ruhiyatiga barham berdi. XI-XII asrlarda Chan maktabi muassasalarining shakllanishi jarayoni yakunlandi.

Chan maktabining asosiy tamoyillari quyidagi qoidalar hisoblanadi: “O‘z tabiatingga diqqat bilan razm solgin va Buddaga aylanasan” va “Nurlanish qalbdan qalbga alohida vosita orqali, yozuv belgilariga tayanmasdan uzatiladi”.

Chan maktabi mavhum falsafiy masalalar bilan shug‘ullanishni qat’iy inkor qilsada, boshqa maktablarning tayyor falsafiy nazariya va qoidalaridan samarali foydalandi. IX asr boshida Xuayan maktabining sobiq beshinchi rahnamosi va Xesze (Xesze Shen-xuey) chan an‘analarining oxirgi muhofazachisi Szun-mi Chan ta’limotiga szyao-chan va chji tamoyilini kiritdi. Unga ko‘ra doktrina (szyao – Xuayan falsafasi nazarda tutilmoqda) va mushohada (chan ruhiy amaliyoti) mohiyatan bir ma’noni anglatadi. Buning natijasida “Avatamsaka sutra” Chan ta’limotidagi asosiy, hurmat qilinadigan matnga aylangan bo‘lsa, Xuayan faylasuflarining asarlari – Chan ta’limotining nazariy asosi bo‘lib xizmat qildi (xususan, Chan ta’limotining Fayan yo‘nalishi Xuayan ta’limotiga yaqinlashgan)¹²⁸.

Chan maktabi Xitoydan mintaqaning boshqa mamlakatlariga tezlik bilan tarqalgan. Chan (vetnam. txien) ta’limoti X-XIV asrlarda Vetnamda hukmronlik

¹²⁸ Huai-Chin, Nan (tr. Thomas Cleary); The Story of Chinese Zen. Charles E. Tuttle Company, 1995. P-59/

qilgan ilk Li i Chan sulolasi imperatorlarining rasmiy mafkurasi vazifasini bajardi. Ushbu sulolaning aksariyat imperatorlari chan maktabi rohibi va hatto txien yo‘nalishi rahnamosi ham bo‘lishgan. Bu yerda ikkita vetnamga xos txien yo‘nalishlari shakllandi: Chuklam (“Bambuk o‘rmoni”, XIII-XIV asrlarda faoliyat ko‘rsatgan, Guyyan xitoy yo‘nalishi ta‘sirida shakllangan) va Ligu Kuan (Linszi yo‘nalishi asosida XVIII asrda shakllangan – yo‘nalish asoschisining nomiga qo‘yilgan).

Bunga o‘xshash holatni Koreyada ham kuzatish mumkin. Bu yerda rohib Chinul (1158-1210) faoliyati tufayli Chan (Son) ta‘limoti rivojlandi. Lekin keyinchalik Koreyada konfusiychilik jamiyatda yaqqol hukmron mafkuraga aylangach, buddaviylik jamoalarining faoliyati cheklandi.

Yaponiyada Chan maktabi XII-XIII asrlarda kirib keldi. Chan (Dzen) ta‘limotining ilk targ‘ibotchilari Eysay (Rindzay yo‘nalishi) va Dogen (Soto yo‘nalishi) bo‘lishgan. Dzen ta‘limoti yapon jamiyatida katta ta‘sirga ega bo‘ldi, xususan, samuraylar qatlamiga keng tarqaldi. Kegon, Singon va Tenday kabi eski maktablar saroy bilan yaqin aloqada bo‘lgan Kioto zodagonlari orasida keng tarqalgan. Dzen ta‘limoti bilan bir vaqtda kirib kelgan Buddha Amitabxi sanamiga sig‘inish asosan quyi tabaqalar orasida – shaharliklar (hunarmandlar va savdogarlar) va dehqonlar o‘rtasida keng tarqaldi. Dzen XVII asrga qadar (Tokugava syogunligining hokimiyatni egallashiga qadar, keyinchalik ushbu syogunlik hukmdorlari neokonfusiychilikni mafkura sifatida qo‘llashgan) Yaponiyaning harbiy (syogunlik) hukumatining (bakufu) rasmiy mafkurasi rolini bajardi.

Favqulodda uyg‘onishi, nurlanish (u, yaponcha satori), insonning Buddha tabiatini bevosita o‘zida va barcha mavjudotlarda (szyan sin, yaponcha kensyo) aks etishi haqidagi chan ta‘limotining g‘oyalari, shuningdek ushbu ta‘limotning amaliyoti va nazariyasining boshqa yo‘nalishlari Xitoy va unga qo‘shni mamlakatlarning adabiyoti, san‘ati va nafosat nazariyalariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. XII-XIII asrlarda Xitoyda rivojlangan monoxron tush bilan chiziladigan tasviriy san‘atning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari chan ta‘limotini o‘rgangan yoki chan ta‘limoti rohiblari bo‘lishgan (Sya Guy, Lyan Kay, Mu Si). Ko‘plab shoirlar va adabiyotshunoslar ham chan ta‘limotiga chuqur qiziqish bilan yondashganlar (Van Vey, Su Shi, Lu Yu va boshqa boshqalar). Dzen ruhiyati Yaponiya madaniyatining barcha jabhalariga, jumladan,

Basyoning xaykularidan choy marosimlarigacha (tya-no yu) hamda ikebanagacha o‘z ta’sirini o‘tkazgan¹²⁹.

XULOSA

XX asrning o‘rtalarida dzen ta’limotining iste’dodli targ‘ibotchisi va mashhur buddaviyshunos olim Daysesu Teytaro Sudzukining asarlari tufayli G‘arbda Chan (Dzen) ta’limotiga bo‘lgan qiziqish keskin ortib bordi. “Dzen shov-shuvi” kabi o‘ziga xos nomini olgan bu qiziqish 50 yillar oxiri va 60 yillarda o‘zining cho‘qqisiga yetdi. Bu qiziqish Dzen ta’limotida avtoritarlikni, qadriyatlar ierarxiyasini inkor qiluvchi va to‘liq ozodlikni yoqlab chiquvchi o‘ziga xos hayot tarzini ko‘ruvchi xippilar harakati bilan uzviy bog‘liq edi.

Dzen ta’limotining ta’sirini G.Gess, J.Selinjer, J. Keruak ijodida, A. Shveysarning qarashlarida, K. Yung va E. Frommning (hatto Sudzuki bilan hamkorlikda “Dzen-buddaviylik va ruhiy tahlil” maqolasini yozgan) ruhiyatshunosligida, XIX-XX asrlarda ijod qilgan ba’zi kompozitorlar (G. Maler) va rassomlar (Van Gog, A. Matiss) ijodida ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda chan (dzen) jamoalari Yevropa va Amerikaning aksariyat mamlakatlarida mavjud. Chan maktabi ta’limotida har bir tirik mavjudot Budda tabiatiga ega, aytish mumkinki, har bir tirik mavjudot o‘zi Budda hisoblanadi, lekin bu haqida o‘zi bilmaydi, istalgan inson bevosita bu tabiatni o‘z mohiyati, ichki menini bilish orqali anglashi mumkin, - deb ta’kidlaydi Linszi. Buning uchun ko‘p sonli va murakkab matnlarni o‘rganish, ko‘p sonli hayotlar orqali bosqichma-bosqich bodxisattva yo‘li darajalariga o‘tish shart emas. Budda holatiga shu hayotda erishish (“bir tanada”) – bu Chan ta’limotining maqsadi bo‘lib, uni tantra va tibet Dzog-chen ta’limoti bilan bog‘laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Huai-Chin, Nan (tr. Thomas Cleary); The Story of Chinese Zen. Charles E. Tuttle Company, 1995. P-34/
2. McRae, John R. Seeing through Zen: Encounter, Transformation, and Genealogy in Chinese Zen Buddhism. — Berkeley: [University of California Press](http://www.berkeleyca.edu/ucpress/), 2004. P-69.
3. 换产花。佛小个迅带 Xuan Chanxua. Fotszyao geszun da i (Xitoy Buddaviyligi maktablari ta’limotlarining mohiyati). Taybey, 1973;142-bet.
4. Кацуки С. Дзэн-Буддизм: Основы Дзэн-Буддизма. Практика Дзэн. — Бишкек: МП «Одиссей», 1993.Стр

¹²⁹ Судзуки Д. Т., Кацуки С. Дзэн-Буддизм: Основы Дзэн-Буддизма. Практика Дзэн. — Бишкек: МП «Одиссей», 1993.Стр-289.

THE MUTATION OF RELATIONSHIP MARKETING

Parisa Shams Sadat, Sayed Shamsuddin Sadat qizi

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar : Mamajonova Tuvg'onoy

Abstract: *In 21 century Relationship Marketing is emerging as a new phenomenon. However, relationship oriented marketing practices date back to the pre-Industrial era. In this article, we trace the history of marketing practices and illustrate how the advent of mass production, the emergence of middlemen, and the separation of the producer from the consumer in the Industrial era led to a transactional focus of marketing. Now, due to technological advances, direct marketing is staging a comeback, leading to a relationship mutation. The authors contend that with the of Relationship Marketing, the hitherto prominent exchange paradigm of marketing will be insufficient to explain the growing marketing phenomena of collaborative involvement of customers in the production process. An alternate paradigm of marketing needs to be developed that is more process rather than outcome oriented, and emphasizes value creation rather than value distribution.*

Key Words: *Relationship Marketing, Relational Mutation, Transaction Mutation*

Аннотация: *В 21 веке маркетинг взаимоотношений становится новым явлением. Однако маркетинговые практики, ориентированные на взаимоотношения, восходят к доиндустриальной эпохе. В этой статье мы проследим историю маркетинговых практик и проиллюстрируем, как появление массового производства, появление посредников и отделение производителя от потребителя в индустриальную эпоху привели к транзакционному фокусу маркетинга. Теперь, благодаря технологическому прогрессу, прямой маркетинг возвращается, что приводит к мутации взаимоотношений. Авторы утверждают, что с точки зрения маркетинга взаимоотношений широко распространенная парадигма обмена в маркетинге будет недостаточной для объяснения растущих маркетинговых явлений, связанных с совместным вовлечением клиентов в производственный процесс. Необходимо разработать альтернативную парадигму маркетинга, которая больше ориентирована на процесс, чем на результат, и делает упор на создание ценности, а не на ее распределение.*

Ключевые слова: *маркетинг взаимоотношений, мутация отношений, мутация транзакции.*

INTRODUCTION

As the discipline gained momentum, and developed through the first three quarters of the twentieth century, the primary focus was on transactions and exchanges. However, the development of marketing as a field of study and practice is undergoing a reconceptualization in its mutation from transactions to relationships (Kotler, 1990; Webster, 1992). The emphasis on relationships as opposed to transaction based exchanges is very likely to redefine the domain of marketing (Sheth et al., 1988). Indeed, the emergence of a relationship marketing school of thought is imminent given the growing interest of marketing scholars in the relational paradigm.

In this paper, we observe, that the paradigm shift from transactions to relationships is associated with the return of direct marketing both in business-to-business (BTB) and business-to-consumer (BTC) markets. As in the pre-industrial era (characterized by direct marketing practices of agricultural and artifact producers) once again direct marketing, albeit in a different form, is becoming popular, and consequently so is the relationship mutation of marketers. When producers and consumers directly deal with each other, there is a greater potential for emotional bonding that transcends economic exchange. They can understand and appreciate each others' needs and constraints better, are more inclined to cooperate with one another, and thus, become more relationship oriented. This is in contrast to the exchange mutation of the middlemen (buyers and sellers). To the middlemen, especially the wholesalers, the economics of transactions are more important, and therefore, they are less emotionally attached to products. Indeed, many middlemen do not physically see, feel, touch, products but simply act as agents and take title to the goods for financing and risk sharing.

The separation of the producers from the users was a natural outgrowth of the industrial era. On the one hand, mass production forced producers to sell through middlemen, and on the other, industrial organizations, due to specialization of corporate functions, created specialist purchasing departments and buyer professionals, thus separating the users from the producers. However, today's technological advancements that permit producers to interact directly with large numbers of users (for example, Levi 's making custom products directly for the users), and because of a variety of organizational development processes, such as empowerment and total quality programs, direct interface between producers and users has returned in both consumer and industrial markets, leading to a greater relational mutation among marketers. Academic researchers are reflecting these

trends in marketing practice, and searching for a new paradigm of the discipline that can better describe and explain it.

REFERENCES AND METHODS

Logical, coherent, historical and objective methods of scientific knowledge were widely used in the study of this article. The role of marketing in the development of a market economy has been objectively revealed. The period of development of marketing management technologies has been analyzed from the point of view of history.

DISCUSSION AND RESULTS

As with each new shift in the focus of marketing, there are advocates and critics of the relationship focus in marketing. However, in the same way as Kotler (1972, p. 46) observed about other shifts in marketing, we believe that the emergence of a relationship focus will provide a "refreshed and expanded self concept" to marketing. Our optimism stems from at least four observations: (i) relationship marketing has caught the fancy of scholars in many parts of the world, including North America, Europe, Australia and Asia, as is evident from the participation in some of the recent conferences held on this subject (Sheth and Parvatiyar, 1994); (ii) its scope is wide enough to cover the entire spectrum of marketing's subdisciplines, including channels, BTB marketing, services marketing, marketing research, customer behavior, marketing communication, marketing strategy, international marketing and direct marketing; (iii) like other sciences, marketing is an evolving discipline, and has developed a system of extension, revision and updating its fundamental knowledge (Bass, 1993); and (iv) scholars who at one time were leading proponents of the exchange paradigm, such as Bagozzi (1974), Kotler (1972), and Hunt (1983), are now intrigued by the relational aspects of marketing (Bagozzi, 1994; Kotler, 1994; Morgan and Hunt, 1994).

In the context of these developments, the purpose of this paper is to trace the of relationship marketing and to identify its antecedents. We plan to demonstrate that while relationship focus in the post-industrial era is a clear paradigm shift from the exchange focus of the industrial era, it is really a rebirth of marketing practices of the pre-industrial age when the producers and users were also sellers and buyers and engaged in market behaviors that reduced the uncertainty of future supply and demand assurances which could not be otherwise guaranteed due to the unpredictability of weather, raw materials, and customers' buying power. Our

approach mirrors the activities recommended by Savitt (1980) as the appropriate methodology for conducting historical research.

Shifts in Marketing's Mutation

As is widely known, the discipline of marketing grew out of economics, and the growth was motivated by lack of interest among the economists in the details of market behavior, especially those related to the functions of the middlemen (Bartels, 1976; Houston, et al., 1992; Hunt and Goolsby, 1988). It coincided with the growth in the number of middlemen and the importance of distribution during the industrial era. The first courses offered on the subject area of marketing at University of Michigan in 1902 and at The Ohio State University in 1906, therefore, focused on the inter-relationships among marketing institutions and among various divisions of the firm in performing the distributive task (see Bartels, 1976, pp. 22—23).

Unlike mainstream economists of the late nineteenth century, who were preoccupied with public policy and economic effects of market institutions, early marketing thinkers had operational interests (Bartels, 1976). Most of this centered around efficiency of marketing channels and the services performed by them in transporting and transforming the goods from the producers to the consumers (Shaw, 1912; Weld, 1916, 1917). The process of marketing was thought to generate additional forms of utility including time, place and possession utilities to the consumer (Macklin, 1924).

Thus, marketing as a discipline got organized around the institutional school of thought, and its main concerns centered around the functions performed by wholesalers and retailers as marketing institutions (Sheth et al., 1988). The founders of the institutional marketing justified the need for independent middlemen role on the grounds of specialization and division of labor, although both producers and consumers believed that the middlemen received higher margins than they deserved. Thus, middlemen were perceived as adding no value and creating economic inefficiencies by having

location monopolies. Weld (1916) addressed this issue of marketing efficiency, thus:

When the statement is made that there are too many middlemen, it may mean one of the two things: either that the process of subdivision already described has gone too far so that there are too many successive steps, or there are too many of each class, such as too many country buyers, too many wholesalers, or too many retailers.

The discussion in the preceding paragraphs bears directly on the question as to whether there are too many successive steps, and this is what most people mean when they glibly state that there are too many middlemen. It was pointed out that such subdivision is merely an example of the well-known doctrine of division of labor, and that the economies result from specialization by functions. Those who have really made firsthand studies of the marketing system in an impartial and unprejudiced way realize that on the whole the system of marketing that has developed is efficient, rather than 'extremely cumbersome' and wasteful, and that there are very good practical reasons for the form of organization that has developed. It is necessary to realize these fundamental facts before the reader can approach a study of the marketing problem with a sane point of view. (Weld, 1916, pp. 21—22)

The justification for the middleman rests on specialized skill in a variety of activities and particularly in various aspects of sorting. The principle of the discrepancy of assortments explains why the successive stages in marketing are so commonly operated as independent agencies. While economists assume for certain purposes that exchange is costless, transactions occupy time and utilize resources in the real world. Intermediary traders are said to create time, place and possession utility because transactions can be carried out at lower cost through them than through direct exchange. In our modern economy, the distribution network makes possible specialized mass production on the one hand and the satisfaction of the differentiated tastes of consumers on the other. (Alderson, 1954, pp. 13-14)

Although the institutional thought of marketing was later modified by the organizational dynamics viewpoint, and marketing thinking was influenced by other social sciences, such as psychology, sociology and anthropology, exchange remained and still remains the central tenet of marketing (Alderson, 1965; Bagozzi, 1974, 1978, 1979; Houston, 1994; Kotler, 1972). Formal marketing theory developed around the idea of exchange and exchange relationships, placing considerable emphasis on outcomes, experiences and actions related to transactions (Bagozzi, 1979).

Recently several scholars have begun to question the exchange paradigm, and its ability to explain the growing phenomena of relational engagement of firms (e.g. Grönroos 1990; Sheth et al., 1988; Webster, 1992). In the recent past, researchers have tried to develop frameworks for relational engagement of buyers and sellers, often contrasting it with the exchange mode inherent in transactions (Arndt, 1979; Ganesan, 1994; Lyons et al., 1990).

Business practice exhorts both customer and supplier firms to seek close, collaborative relationships with each other (Copulsky and Wolf, 1990; Goldberg, 1988; Katz, 1988). This change in focus from value exchanges to value creation relationships have led companies to develop a more integrative approach in marketing, one in which other firms are not always competitors and rivals but, are considered partners in providing value to the consumer. This has resulted in the growth of many partnering relationships such as business alliances and cooperative marketing ventures (Anderson and Narus, 1990; Johnston and Lawrence, 1988). Close, cooperative and interdependent relationships are seen to be of greater value than purely transactions based relationship (Kalwani and Narayandas, 1995).

However, the relationship mutation of marketing is not entirely a new phenomenon. If we look back to the practice of marketing before the 1900s, we find that relationship mutation to marketing was quite prevalent. Although history of marketing thought dates back to only the early 1900s (Bartels, 1962), marketing practices existed in history, even pre-history (Nevett and Nevett, 1987; Pryor, 1977; Walle, 1987). During the agricultural era, the concept of 'domesticated markets' and relationship mutation were equally prevalent. In short, current popularity of relationship marketing is a reincarnation of the marketing practices of the pre-industrial era in which producers and consumers interacted directly with each other and developed emotional and structural bonds in their economic market behaviors.

Mutation of Marketing Practice in the Pre-Industrial Era

Pre-industrial society was largely based on agricultural economy and the trade of art and artifacts. During the agricultural days, most farmers sold their produce directly in the bazaars. Similarly, artisans sold their arts and artifacts at these markets. Consumers and producers gathered together face to face for trading products. The role of the producer was not separated from that of the trader and the producer functioned as both 'manufacturer' and 'retailer' of its own products. Also, producers and consumers developed strong relationships that led to the production of customized products made by the artisans for each customer.

Similarly, relational bonding between traders was also quite prevalent, partly because of the need to do business with others you could trust. Thus, ongoing trade relationships were a critical element of business practices in the pre-industrial era where ownership was linked with the management of business. Most traders of Africa traded only with selected clans on a regular basis. So important was the

element of trust in these clan-trade relationships that outsiders could rarely enter into the system (Mwamula-Lubandi, 1992).

The evidence of such clan based trading exists even today within the clan-oriented network of traders in diamonds and other precious metals. For example, the Palanpuri clan (from Gujarat, India) have dominated the trade of diamonds all over the world along with the Orthodox Jews (Rothermund, 1988). Economic and anthropological studies indicate that the Jews were not really outcasts left to perform trading activities; rather, they chose to control trade amongst themselves as they could trust no others (Sombart, 1951). Such clan-oriented trading developed a network of partnerships as their trading activities extended internationally, with the network partners often coming from the same or related clan with whom ongoing business could be conducted.

Similar evidence of the ongoing business relationships can be found in the economic history of the old 'silk route' that flourished during precolonial times between China, India and Afghanistan. Economic history books narrate the vigorous efforts of Chinese silk producers toward market development and promotion of ongoing trade activity along the 'silk trade route' (Feltwell, 1991; Li, 1981). Relationships between customers and suppliers of silk were vital because Indian weavers and silk craftsmen heavily depended on the supply of Chinese silk to produce garments and artifacts required by local kings and nobles. Such relationships once again reflect interdependencies of these marketing actors. In order to facilitate future trade, some traders cooperated with weavers and designers in India, providing them with contemporary designs from China. The influence of Chinese designs in the earlier arts of India bears clear evidence of the cultural exchange in the interest of promoting future trade of the Chinese silk.

Retaining customers, influencing repeat purchases, fostering trust and facilitating future marketing were also concerns of marketers in the preindustrial era. The development of 'branding' as a marketing practice could be cited as the best evidence of this concern. Although the history of branding can be traced back for many centuries, the term was derived from the marking of livestock (Carratu, 1987). Owners of livestock started branding their cattle in order to distinguish theirs from other cattle when they brought them to the market for sale. As this system evolved, family names were used as brands, not only to identify the product, but also to give the consumer the satisfaction of knowing the products depicting the name carried a certain 'warranty' of quality because the producers were willing to ascribe their

family name to the product (Room, 1987). It became a method of providing quality assurance to the buyer, a system to promote repeat purchase, and a method to facilitate future marketing (Crone, 1989).

Even the development of open-air markets or bazaars in the pre-industrial period was aimed at facilitating ongoing business and trading. Not only did such marketing venues provide a common arena for buyers and sellers to meet, they also aimed at minimizing nomadic trade whereby traders could swindle their customers and escape any form of retribution. Urban trade privileges and guild regulations (De Vries, 1976) in Europe restricted the 'hit and run' sellers from becoming a part of the market system. Those who participated in the market knew and trusted each other (MacKenney, 1987),

The relationship mutation in marketing and trade continued into the early years of the Industrial R and the emergence of capitalism. Fullerton (1988) describes some of the efforts adopted by marketers during this period to build and maintain relationships with buyers. Market development efforts were complemented by close cooperation between business and government which helped develop markets among the nobility, the high clergy, and the growing urban bourgeoisie (Fullerton, 1988). Merchants of this period established fixed-location retail shops in cities throughout Europe. This represented their desire to build and retain customers. Fixed location retail outlets meant local buyers could come back time and again allowing the producer and the consumer to establish long-term relationships for repeat purchases over the long term. It also meant direct accountability of each other's actions.

Marketing practices during early industrialization were also highly individualized, relationship oriented and customized. Many products were manufactured on a custom basis for rich individuals or industrial customers. The design and tailoring of clothes, the creation of jewelry, watches, home furnishings and other consumer products were customized. Marketers rarely had to consider inventories of finished products, and publishers sold textbooks for which a demand already existed (Febvre and Martin, 1976). Such production, based primarily on customer request and demand, did not require marketing activities such as advertising or price competition. Relationships between customers and suppliers were critical, since the customer depended on the manufacturer or trader to make goods available to him or her as per specifications and expectations. Consumers making a commitment to buy based on the trustworthiness and commitment of the marketers

was critical. Reciprocally, the producer relied on the credit worthiness of the consumer and took the risk of making custom products.

It was with the advent of mass production and mass consumption that marketers began to adopt a more transactional approach. Emergence of mass production and mass consumption resulted in key consequences. First, people moved away from small subsistence farms to jobs in industrial towns, and needed retailers to supply assortment of basic conveniences of food, shelter and clothing (Cundiff, 1988). Secondly, manufacturers were motivated to produce in mass quantities given the associated economies of scale. On the one hand, economies of scale helped these manufacturers to lower the cost of goods, and hence prices of the products they sold, and on the other hand, it increased the need to find markets for their products. Unable to sell the entire stock of produced goods, producers were confronted with an increased inventory of finished products. These market conditions gave rise to aggressive selling and the development of marketing institutions that were willing to bear the risks and costs of inventory ownership and storage.

Wholesalers, distributors and other marketing intermediaries assumed the role of middlemen who, on the one hand, stored the excess production of manufacturers, and, on the other hand, helped in locating and persuading more buyers to purchase goods and services. So crucial became this function that early marketing thought was developed on the concept of distribution and the creation of time and place utilities. Early marketing thinkers, such as E. D. James, Simon Lifman, and James Hagerty, concentrated on these distributive elements of marketing (Bartels, 1965). This period also gave rise to modern marketing practices, such as sales, advertising and promotion, for the purpose of creating new demand to absorb the oversupply of goods that were being produced. Scholars, such as Ralph Butler, were among the first to articulate this promotional concept of marketing (Bartels, 1965).

Thus emerged the transactions mutation of marketing whereby marketers became more concerned with sales and promotion of goods and less with building ongoing relationships. This shift was further accentuated during the Great Depression of 1929, when the oversupply of goods in the system heightened the pressure on marketers to find and persuade customers to buy their products. Thus the transaction mutation has been a major influence in marketing thought and academic research throughout the industrial era.

During the height of the industrial period, marketing practices were aimed at promoting mass consumption. Developed out of the need to support the mass

production machinery, the emphasis was directed at increasing the sale of products. Both personal and impersonal manifestations of the selling 'force' were found increasingly in business, supported by other activities, such as advertising and promotion. Marketing was considered successful only when it resulted in a sale. Measures of marketing performance were linked, as is still the practice today in many companies, to sales and market share. Some marketers resorted to extreme practices of persuasive selling including deceptive advertising and false claims. As competition intensified with excess capacity, sales transactions further increased. Many engaged in aggressive selling and competitive warfare.

Post-industrial era has seen substantial development toward relationship marketing, both in practice and in academic thinking. Marketers started realizing the need to supplement a transaction-orientation with an orientation which showed more concern for customers. It began with the advent of complex products, which gave rise to the systems selling approach. This approach emphasized the integration of parts, supplies and the sale of services with the individual capital equipment. Customers liked the idea of systems integration and sellers were able to sell augmented products and services to customers. The popularity of system integration began to extend to consumer packaged goods, as well as services (Shapiro and Posner, 1979).

At the same time, some companies started to insist upon new purchasing approaches such as national contracts and master purchasing agreements, forcing major vendors to develop key account management programs (Shapiro and Wyman, 1981; Shapiro and Moriarty, 1980). These measures forced intimacy and permanence in the buyer-seller relationships. Instead of purchasing a product or service, customers were more interested in buying a relationship with a vendor. The key (or national) account management program designates account managers and account teams that assess the customer's needs and then husband the selling company's resources for the customer's benefit. Still considered a boundary spanning sales activity, key account programs reflect higher commitment of selling organizations toward their major customers. Such programs, concurrently, led to the foundation of strategic partnering relationships that have emerged under relationship marketing (Anderson and Narus, 1991; Shapiro, 1988).

The growth of relationship orientation of marketing in post-industrial era is due to the rebirth of direct marketing between producers and consumers. Several environmental and organizational development factors are responsible for this rebirth of direct relationships between producers and consumers. At least five macro-

environmental forces can be identified: (1) rapid technological advancements, especially in information technology; (ii) the adoption of total quality programs by companies; (iii) the growth of the service economy; (iv) organizational development processes leading to empowerment of individuals and teams; and (v) increase in competitive intensity leading to concern for customer retention. These forces are reducing the reliance of producers, as well as consumers, on middlemen for effecting the consummation and facilitation processes. We briefly discuss below how these forces are encouraging more direct interactions between producers and consumers of goods and services and is encouraging the growth of relationship marketing.

The impact of technological r is changing the nature and activities of the marketing institutions. The current development and introduction of sophisticated electronic and computerized communication systems into our society is making it easier for consumers to interact directly with the producers.

As a result, the functions formerly performed by the middlemen are now being undertaken by either the consumer or the producers. Producers are building such systems that allow them to undertake quick responses with regard to manufacturing, delivery and customer service, eliminating the need for inventory management, financing and order processing through middlemen. Also, consumers have less time and thus a reduced inclination to go to the store for every purchase. They are willing to undertake some of the responsibilities of direct ordering, personal merchandising, and product use related services with little help from the producers.




Figure .1
mutation of
Relationship
Orientation

Hence, given the recent technological strides and consumer attitudes, some functions performed by middlemen may be entirely eliminated. For instance, the 'just

in time' inventory system, made possible by the real time transportation and communication systems now available, allows a producer to eliminate the need for an intermediate inventory holding institutions between itself and the consumers or suppliers (Sheth et al., 1988).

CONCLUSIONS

Here we have attempted to trace the of relationship marketing. We observe that a relational mutation to marketing existed until the early years of industrial development. It was only when mass production led to an oversupply of goods that marketers became transaction oriented. However, this transaction mutation in marketing is giving way to the return of relationship mutation in marketing. Beginning with interests in repeat purchase and brand loyalty, there is an increasing group of scholars who are studying ongoing marketing relationships.

This re-emergence of relationship marketing has the potential for a new "General Theory of Marketing" (Sheth et al., 1988), as its fundamental axioms better explain marketing practice.

The re-emergence of the relational perspective in marketing is primarily caused by the return of direct producer to consumer marketing. This needs a change in the paradigm of marketing theory. The exchange paradigm is insufficient in explaining the continuous nature of relationship between marketing actors. It is anchored on value distribution and outcomes of exchange, hence, is an insufficient paradigm for explaining marketing relationships that focus on value creation and where the process of relationship engagement is equally, if not more, important than the outcomes of the exchange.

REFERENCES

1. Alderson, W. (1954) Factors Governing the Development of Marketing Channels, in Clewett, R. (Ed.), *Marketing Channels for Manufactured Products*, pp. 5-34. Richard D. Irwin, Inc, Homewood, IL.
2. Anderson, J. C. and Narus, J. A. (1991) Partnering as a Focused Market Strategy. *California Management Review*, Spring,
3. Bartels, R. (1965) Development of Marketing Thought: A Brief History, in Schwartz, G. (Ed.), *Science in Marketing*, pp. 47—69. John Wiley & Sons, Inc., New York.
4. Cannon, J. and Sheth, J. (1994) Developing a Curriculum to Enhance the Teaching of Relationship Marketing. *Journal of Marketing Education*, Vol. 16, Summer, pp. 3—14.

5. Carratu, V. (1987) Commercial Counterfeiting, in Murphy, J. (Ed.), Branding: A Key Marketing Tool. The Macmillan Press Ltd., London.
6. Crone, P. (1989) Pre-Industrial Societies. Basil Blackwell, Inc., Cambridge, MA.
7. Cundiff, E. W. (1988) The of Retailing Institutions across Cultures, in Nevett, T. and Fullerton, R. A. (Eds),
8. DeVries, J. (1976) Economy of Europe in an Age of Crisis 1600—1700. Cambridge University Press, Cambridge, UK.
9. Febvre, L. and Martin, H. J. (1976) [1958] The Coming of the Book, (translated by) D. Gerard. NLB, London.
10. Feltwell, J. (1991) The story of Silk. St. Martin's Press, NY.
11. Frazier, G. L., Spekman, R. E. and O'Neal, C. R. (1988) Just-In-Time Exchange Relationships in Industrial Markets. Journal
12. Fullerton, R. A. (1988) Modern Western Marketing as an Historical Phenomenon: Theory and Illustration, in Nevett, T. and Fullerton, R. A. (Eds), Historical Perspectives in Marketing: Essays in Honor of Stanley C. Hollander, pp. 71—89. Lexington Books, Lexington, MA.
- Historical Perspectives in Marketing: Essays in Honor of Stanley C. Hollander, pp. 149—162. Lexington Books, Lexington, MA.
13. MacKenney, R. (1987) Tradesmen and Traders: The World of the Guilds in Venice and Europe, c.1250-c.1650. Croom Helm Ltd., London.
14. Mwamula-Lubandi, E. D. (1992) Clan Theory in African Development Studies. University Press of America, New York.
- of Marketing, Vol. 52, October, pp. 52—67.
pp. 95—113.
15. Room, A. (1987) History of Branding, in Murphy, J. M. (Ed.), Branding: A Key Marketing Tool. The Macmillan Press Ltd, London.
16. Rothermund, D. (1988) An Economic History of India. Croom Helm, New York.
17. Sombart, W. (1951) The Jews and Modern Capitalism. Free Press, Glencoe, IL.
18. Hayes, R. H., Wheelright, S. C. and Clarke, K. (1988) Dynamic Manufacturing. The Free Press, New York.

XORIJIY INVESTITSIIYALAR TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Sharify Mohammad Shayeq

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

I-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyot nazariyasida investitsiya tushunchasi, uning nazariy asoslari haqida mulohazalar yuritilgan. G'arb adabiyotlarida investitsiya atamasi borasida fikr bildirilganda birinchi e'tibor fond bozorlari va birjalarga qaratiladi, negaki yetakchi rivojlangan davlatlarda investitsiyalar, asosan, qimmatli qog'ozlar shaklida bo'lib asosan shu shaklda amalga oshiriladi. Investitsiya tushunchasiga yagona va to'liq tarif berish anchagina mushkuldir. Quyida "Investitsiya" terminining bir qancha ta'riflari mavjud adabiyotlarga tayanilgan holda keltirib o'tilgan. Iqtisodiy fanlarda va amaliy faoliyatning turli jabhalarida investitsiyalarning mazmuni hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi borasida ham fikrlar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, iqtisodiy faoliyat, kapital, nomoddiy investitsiya

Abstract: This article discusses the concept of investment in economic theory, its theoretical foundations. In the Western literature, when the term investment is used, the first focus is on the stock markets and stock exchanges, because in the developed world, investments are mainly in the form of securities. It is very difficult to give a single and complete definition of the concept of investment. Here are some definitions of the term "investment" based on the available literature. Opinions were also expressed on the content of investments in economic sciences and various spheres of practical activity, as well as their specific features.

Keywords: Investment, economic activity, capital, intangible investment

Аннотация: В статье рассматривается понятие инвестирования в экономической теории, ее теоретические основы. В западной литературе, когда используется термин «инвестиции», в первую очередь обращают внимание на фондовые рынки и фондовые биржи, поскольку в ведущих развитых странах инвестиции в основном осуществляются в форме ценных бумаг. Дать однозначное и полное определение понятию инвестиций очень сложно. Вот несколько определений термина «инвестиции» на основе доступной литературы. Также были высказаны мнения о содержании

инвестиций в экономические науки и различные сферы практической деятельности, а также об их особенностях.

Ключевые слова: инвестиции, хозяйственная деятельность, капитал, нематериальные вложения.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat maqomiga erishgan so‘ng mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning turli xil xususiyatlarini hisobga olib o‘zining yo‘nalishini belgilab oldi hamda ushbu yo‘l bo‘ylab o‘zining iqtisodiy rivojida davom etmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan va takomillashtirilayotgan investitsion faoliyat yo‘lga qo‘yilgandir. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida “investitsiyalar” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar [2].

Shunday qilib, “Investitsiya” deyilganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushunilishi mumkin. Ushbu boyliklarning barchasi investitsiyalarni shakllantirishda muhim hisoblanib, ularning umumiy holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazib turadi. Boyliklarning shakllanishi esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasini ko‘rsatib turadi va ularning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolani yozish jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv, deduktik, mantiqiy, monitoring kabi tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, R.X. Karlibayeva “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, N.M.Maxmudov, Sh.A.Majidov “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” o‘quv qo‘llanmalaridan nazariy jihatdan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Fikrimizni davom etirgan holda bayon qilsak, investitsiyalar - turli xil mulkchilikning shakllaridagi moliyaviy, mulkiy va intellektual boyliklarni iqtisodiy - ijtimoiy samaradorlikka erishish uchun muomalaga kiritish hamda yo‘naltirishdir.

Iqtisodiyot nazariyasida investitsiyalarni iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha xarakterlanishi mumkin:

- kapitalni boyitish uchun mablag'larni tadbirkorlikning deyarli barcha obyektlariga jalb qilish, yo'naltirish va kiritish hisoblanadi;

- loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsion faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sifatida ham ko'rish mumkin. Asosiy fondga investitsiyalar asosan kapital qo'yilma ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin, hamda yangi qurilishga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalarni, loyiha uchun zarur xom-ashyoni sotib olishga qilinadigan xarajatlar yig'indisidir. Iqtisodiy fanlar va amaliyotda "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlari ma'nodosh ya'ni sinonim so'zlar emasligini ko'p bora ta'kidlab o'tilmoqda. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan ancha keng ma'noga ega tushuncha ekanligi isbotlangan. G'arb adabiyotlarida investitsiya termini haqida so'z borganda birinchi e'tibor fond bozorlari va birjalarga qaratiladi, chunki yetakchi rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar, asosan, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bo'lib asosan shu shaklda amalga oshiriladi. Investitsiya tushunchasiga yagona va to'liq ta'rif berish anchagina qiyin hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarda va amaliy faoliyatning turli jabhalarida investitsiyalarning mazmuni hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud deb uchragan. Iqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda yangi texnika va texnologiyalarga, binolarga shu bilan birga moddiy va nomoddiy zaxiralar hajmining ortishi uchun qilinadigan xarajatlardan tashkil topadi va umumiy xarajatlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Investitsiyalar – aynan aniq bir belgilangan davrda iste'mol qilinmagan va kelajakda aniq iste'mol qilinadigan iqtisodiyotdagi kapital qo'yilmalarning ko'payishini ta'minlashga ko'maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish nazariyasi va makroiqtisodiyotda esa investitsiyalar yangi kapitalni yaratish, shakllantirish hamda mavjudlarini ko'paytirish jarayoni hisoblanadi. Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati – bu asosiy va aylanma kapitalni korxonani tashkil etish, rekonstruksiya yoki texnik qayta kurollantirishga sarflash; moliyaviy investitsiya bo'yicha – investorni moliyaviy kapitalini oshirish maqsadida uning instrumentlaridan foydalanib, mablag'larni aksiya, obligatsiya, bank depozitlariga va boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yishdir. Investitsiya keng ma'noda yuritilib, bu investitsion jarayondagi hudud, region yoki mamlakatdagi moliya

tizimini evolyusion jarayonining hozirgi holati bilan izohlanadi. Investitsiya soʻzi Yevropaning rivojlangan mamlakatlari (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya)da fond bozorlariga koʻproq eʼtibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qogʻozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalari mavjud. Boshqacha soʻz bilan aytilganda portfel investitsiyasi soʻz bilan yuritiladi.

Investitsiyalar hajmiga inflyasiya surʼatlari ham jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Bu koʻrsatkich yuqori boʻlsa investorning kelajakdagi daromadi qadrsizlanadi va investitsiyalarni ragʻbatlantiruvchi omillar ham kamayib ketishiga olib keladi. Investitsiyalar turli xil shakllarda amalga oshirilib, ularni tahlil qilish, rejalashtirish alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda yoʻnalishlarga ajratish mumkin boʻladi. Birinchidan, qoʻyilish obyekti boʻyicha investitsiyalarni real va moliyaviy investitsiyalarga boʻlib olamiz. Real investitsiyalar ular moliyaviy mablagʻlar korxonasi hisobidagi moddiy va nomoddiy boyliklarga yoʻnaltiriladi. Moddiy investitsiyalar esa asosiy fondning maʼlum bir qismlarini sotib olish boʻlib, investitsion loyihalar va innovatsion investitsiyalar tarkibida ishtirok etadi.

Moliyaviy resurslarning turlariga qarab investitsiyalar quyidagicha shakllarda boʻladi:

- shaxsiy mablagʻlar, depozitlar, ulushlar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qogʻozlar;
- harakatdagi (asbob-uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) va koʻchmas (binolar, inshootlar, kommunikatsiya va boshqa boyliklar) mol-mulklar;
- mualliflik huquqlar, nou xau va boshqa (aqliy) boyliklar;
- yerdan, tabiiy boyliklardan va boshqa mol-mulklardan foydalanish huquqlari (nomoddiy aktivlar qiymati) [2; -b.6].

XULOSA

Ushbu yondashuvlar natijasida investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasi haqidagi fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda, shuni aytish lozimki, har bir konseptual yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi va uni yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. R.X. Karlibayeva “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, -Toshkent, Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 124 bet.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”, OʻRQ-598-coH 25.12.2019 <https://www.lex.uz/docs/-4664142>

3. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.
4. Karimov N, Hojimatov R. —Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirishl O‘quv qollanma. – Toshkent.: TDIU, 2011 yil, 97 b.

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI SOLIQQA TORTISHNING YANGI BOSQICHLARI

Rustamov Alisher Faridjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqola raqamlashtirish va Internet orqali amalga oshiriladigan bitimlar sonining o‘shishi sharoitida O‘zbekistonda elektron tijoratga soliq solishni huquqiy tartibga solishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi - elektron tijorat sohasida O‘zbekiston soliq qonunchiligini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash. Tadqiqot predmeti - O‘zbekistonda elektron tijorat sohasidagi soliq-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi keng ko‘lamli fiskal islohotlar doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar. Ilmiy, me‘yoriy va amaliy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida O‘zbekistonda elektron tijorat soliqqa tortishining tartibga solish va mantiqiy va qiyosiy usullaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, shuningdek, ushbu sohadagi soliq siyosati.

Kalit so‘z: Elektron tijorat, elektron tijoratga soliq solish, raqamli iqtisodiyot, soliq ma‘murchiligi, onlayn bitim, transmilliy, transchegaraviy, raqamli mahsulot.

Abstract: This article focuses on the legal regulation of taxation of e-commerce in Uzbekistan in the context of digitalization and the growing number of transactions via the Internet. The purpose of the study is to identify the main directions of modernization of the tax legislation of Uzbekistan in the field of e-commerce. The subject of research is the normative and legal acts adopted in Uzbekistan in the framework of large-scale fiscal reforms regulating tax and legal relations in the field of e-commerce. On the basis of the analysis and generalization of scientific, normative and practical materials to identify specific features and main directions of regulation and use of logical and comparative methods of e-commerce taxation in Uzbekistan, as well as tax policy in this area.

Keywords: E-commerce, e-commerce taxation, digital economy, tax administration, online transaction, transnational, cross-border, digital product.

Аннотация: Данная статья посвящена правовому регулированию налогообложения электронной коммерции в Узбекистане в условиях цифровизации и растущего количества транзакций через Интернет. Целью исследования является определение ключевых направлений модернизации налогового законодательства Узбекистана в сфере электронной коммерции. Предмет исследования - нормативно-правовые акты, принятые в Узбекистане

в рамках масштабных фискальных реформ, регулирующих налоговые и правовые отношения в сфере электронной коммерции. На основе анализа и обобщения научных, нормативных и практических материалов выявить особенности и основные направления регулирования и использования логических и сравнительных методов налогообложения электронной коммерции в Узбекистане, а также налоговой политики в этой сфере.

Ключевые слова: электронная коммерция, налогообложение электронной коммерции, цифровая экономика, налоговое администрирование, онлайн-транзакции, транснациональные, трансграничные, цифровые продукты.

KIRISH

Elektron tijorat deb nomlangan yangi turdagi tadbirkorlik faoliyatining paydo bo'lishi biznes yuritishning yangi shakllarini rivojlanishiga, shuningdek transmilliy raqamli kompaniyalar paydo bo'lishiga olib keldi. Ananaviy va elektron tijorat tashkilotlari o'rtasidagi biznes modellaridagi sezilarli farqlar tufayli soliq organlari raqamli biznesni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Soliq ma'murchiligining muammolari asosan raqamli dunyoda tijorat operatsiyalarini aniqlashning qiyinligi, shuningdek, soliq tizimlarining nomukammalligi va ularning raqamli iqtisodiyot zarbalariga tayyor emasligi bilan bog'liq. Ushbu holatlar soliq to'lovchilar tomonidan qonunlarni suistemol qilinishiga va natijada davlatlar uchun soliq tushumlarining yo'qolishiga olib keldi. Natijada, soliq ma'muriyatlari elektron tijorat uchun soliq ma'murchiligining yangi yondashuvlari va modellarini ishlab chiqishni boshladilar. Biroq, davlatlar paydo bo'lgan muammolarning echimiga turli yo'llar bilan yondashishdi, bu transchegaraviy elektron tijoratni soliq ma'murchiligi muammolarini yanada kuchaytirdi.

OESD (The Organisation for Economic Co-operation and Development) mamlakatlari mutaxassisleri tomonidan soliq bazasining eroziyasiga qarshi kurashish rejasi va kam soliq yurisdiksiyalariga foydani olib chiqish rejasi doirasida elektron tijorat soliq ma'murchiligi masalalariga umumiy yondashuvni ishlab chiqish maqsadida 1-harakat¹³⁰ ishlab chiqildi, raqamli iqtisodiyot soliq ma'murchiligining

¹³⁰ Addressing the Tax Challenges of the Digital Economy, Action 1-2015 Final Report. URL: https://read.oecd-ilibrary.org/taxation/addressing-the-tax-challenges-of-the-digital-economy-action-1-2015-final-report_9789264241046-en#page1

zamonaviy modellarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar birlashtirildi. Ta'kidlash joizki, BEPS rejasining 1-harakatida ko'rsatilgan takliflar elektron tijorat soliq ma'murchiligini rivojlantirish vektorini belgilab berdi. Masalan, transchegaraviy elektron tijoratda QQSni boshqarish bo'yicha taklif qilingan yondashuvlar dunyoning aksariyat davlatlari, shu jumladan Rossiya Federatsiyasining soliq tizimlariga allaqachon kiritilgan. SHu bilan birga, dunyo davlatlari soliq ma'muriyatlarining raqamli kompaniyalar tomonidan xorijiy mamlakatlardagi faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliq ma'murchiligiga nisbatan taklif etilayotgan yondashuvlar bo'yicha fikrlari turlicha. Natijada, bu soha hanuzgacha tartibga solinmagan va raqamli kompaniyalar o'zlari faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlarda daromad solig'ini to'lamaslik imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Takidlash joizki, OESD hozirda ushbu yo'nalishda faol ish olib bormoqda. SHunday qilib, 2019 yil oxirida OESD, 1-harakat bo'yicha tadqiqotlar doirasida, raqamli iqtisodiyot muammolarini echish bo'yicha o'z takliflarini taqdim etdi Internet kompaniyalari daromadlariga soliq solish huquqlarini mamlakatlar o'rtasida taqsimlash bilan bog'liq¹³¹. SHu bilan birga, OESD tomonidan davlatlar va biznes vakillari bilan o'tkazilgan ommaviy maslahatlashuvlar natijasida takliflar umumiy xarakterga ega ekanligi va qayta ko'rib chiqishni talab qilishi aniqlandi. Natijada OESD ko'proq aniq takliflarni ishlab chiqishga e'tibor qaratdi. SOVID-19 pandemiyasi davrida olib borilgan biznes yuritishning yangi voqeliklari, natijada elektron tijorat hajmi tez suratlarda o'sishni boshladi, va bu yurtimizda soliq mamuchiligida soliqqa tortishni yangi mexanizmlarini yaratishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazku maqolada O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortishning yangi bosqichlari va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Sh. Tilavoldiyevning "Bases of military patriotic education" nomli kitobi metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortish bo'yicha olib borilayotgan ishlar.

¹³¹ Сайт ОЭСР — Консультационный документ по Pillar 1. 2019. 18 с. URL: <https://www.oecd.org/tax/beps/public-consultation-document-secretariat-proposal-unified-approach-pillar-one.pdf>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijorat ma’muriyatchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risida” gi qarori loyihasini ishlab chiqishda muammo tahlili, uni hal etish yo‘llari, yangi tartibga solish vositalarini joriy etishning ehtimoliy oqibatlarini prognozlash va baholash natijalari bo‘yicha ma’lumotlar.

Ushbu loyiha soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha ma’muriy tartib-tamoyillarni soddalashtirish, soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan elektron tijoratni boshqarishning zamonaviy modelini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

Loyihani ishlab chiqish elektron tijoratni boshqarishda quyidagi muammolarning mavjudligi bilan bog‘liq:

raqamli iqtisodiyotda bitimlarni amalga oshiruvchi shaxslarni hisobga olish va monitoring qilishning samarali mexanizmi mavjud emasligi;

elektron tijorat ishtirokchilarini identifikatsiyalash bo‘yicha instrumentlarning takomillashmaganligi;

elektron tijorat orqali tovar (xizmat)larni sotib oluvchi iste’molchilar huquqlarining himoya qilinmaganligi;

elektron tijoratning norasmiy sektorini rivojlanishi oqibatida soliq bazasini yashirilishi;

“**Business Insider**”, “**eMagketeg**” analitik kompaniyalarining tadqiqotlariga ko‘ra, 2021 yilda elektron tijorat bozori hajmi 4,9 trillion AQSH dollarini tashkil etadi.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 2021 yilda “**e-commerce**” dunyo chakana savdosi umumiy hajmining 17,5 foizini tashkil qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda bunday o‘shish dinamikasi tarqalishi va doimiy rivojlanayotgan IT-infratuzilmasi va texnologiyalari, shuningdek, ko‘plab kompaniyalarning o‘z mahsulotlarini va xizmatlarini “**digital**” formatiga o‘tkazish tendensiyasi bilan bog‘liq.

Ekspertlarning baholash natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,2 foizni tashkil etadi. Foyda solig‘i stavkasini 15% dan 7,5% gacha pasayishi va tovar (xizmatlar) bilan elektron savdo qiladigan elektron tijorat sub’ektlarining Milliy reestriga kiritilgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun aylanmadan olinadigan soliq 4% dan 2% gacha pasayishiga qaramasdan, respublikadagi xufiyona sektoridagi elektron tijorat bozori darajasi 4,9 trillion so‘m qilib baholanmoqda.

Bugungi kunga kelib, 77 ta elektron tijorat obekti ro'yxatga olingan xolos. Sub'ektlarni ro'yxatga olish www.e-tijorat.uz veb-sayt orqali amalga oshiriladi.

Taqdim etilgan soliq imtiyozlari soliq to'lovchilar ixtiyorida 1,9 mlrd. so'm bo'sh pul mablag'larini qoldirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 150 dan ortiq elektron tijorat sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, www.tgstat.com sayti ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda savdo sohasida jami foydalanuvchilari 2 milliondan ortiq bo'lgan 100 dan ortiq yirik kanal mavjud bo'lib, bu omillar davlat ro'yxatidan o'tmagan tadbirkorlik sub'ektlarining (xufiyona tijorat) rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

SHuningdek elektron tijorat (xizmatlar) bilan shug'ullanuvchi xorij firmalari www.tax.uz portali orqali o'z ixtiyorlari bilan ro'yxatdan o'tishmoqda. Xozirgi kunda ularning soni 26 tani tashkil etadi. Davlat Soliq Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2021 yil 1 choragigacha davlat byudjetiga 4,3 mlrd.so'm to'lovlar to'lashgan(1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda xorij kompaniyalari tomonidan byudjetga to'lovlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Loyihada elektron tijorat ma'muriyatchiligi tizimini konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqish bo'yicha quyidagilar nazarda tutiladi:

elektron tijorat ishtirokchilarining hisobini va monitoringini amalga oshirish imkonini beruvchi elektron tijoratni boshqarish uchun yagona platforma yaratish;

tovarlarning elektron savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan amalga oshirish;

tovarlar (xizmatlar)ning elektron savdosini amalga oshirishda elektron shartnomalar va virtual kassalardan majburiy foydalangan holda amalga oshirish;

foyda solig'i va aylanmadan soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalar tatbiq etiladigan soliq to'lovchilar doirasini kengaytirish;

yosh tadbirkorlarga 2023 yilgacha va keyingi 24 oy muddatlarda soliqlarni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lashni ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Addressing the Tax Challenges of the Digital Economy, Action 1-2015 Final Report. URL: https://read.oecd-ilibrary.org/taxation/addressing-the-tax-challenges-of-the-digital-economy-action-1-2015-final-report_9789264241046-en#page1
2. Sayt OESR — Konsultatsionnyy dokument po Pillar 1. 2019. 18 s. URL: <https://www.oecd.org/tax/beps/public-consultation-document-secretariat-proposal-unified-approach-pillar-one.pdf>
3. Elektron tijorat ma'muriyatchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida qarorlar.

Veb saytlar

1. www.businessinsider.com
2. www.emarketer.com
3. DSQ telegram rasmiy kanali

**MASHINASOZLIKDA QO‘LLANILADIGAN POLIFUNKSIONAL
GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR UCHUN
BOG‘LOVCHI - TO‘LDIRUVCHILARNI TANLASH VA ASOSLASH**

U.A.Ziyamuxamedova

Toshkent davlat transport univensiteti t.f.d., prof.

M.A.Nurdinov

Andijon mashinasozlik instituti assistenti

L.Y.Bakirov

Andijon mashinasozlik instituti t.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahonda zamonaviy mashinasozlik sanoatini takomillashtirish, ishlab chiqarishning turli sohalari uchun jahon talablariga mos, raqobatbardosh va import o‘rnini bosadigan texnologiyalar, mashinalar va mexanizmlarning yangi takomillashgan qurilmalarini yaratish, chuqur fundamental tadqiqotlarni olib borish, dolzarb ilmiy-texnik masalalarni hal etishning muhim ahamiyat kasb etayotganligi tahlil qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Mashinasozlik, polifunksional, geterokompozit polimer, epoksid smolasi, Plastifikator, qotirgich

Аннотация: Данная статья важна для совершенствования современного машиностроения в мире, для создания конкурентоспособных и импортозамещающих технологий мирового уровня, нового передового оборудования для машин и механизмов, для проведения глубоких фундаментальных исследований, для решения актуальных проблем. анализируется важность научно-технических вопросов.

Ключевые слова: машиностроение, полифункциональность, гетероконкомпозитный полимер, эпоксидная смола, пластификатор, отвердитель.

Abstract: This article is important for the improvement of the modern machine-building industry in the world, the creation of new and improved equipment, machines and mechanisms that meet international requirements for various industries, competitive and import-substituting, in-depth fundamental research, solving current scientific and technical problems. importance is analyzed.

Keywords: Mechanical engineering, polyfunctional, heterocomposite polymer, epoxy resin, plasticizer, hardener

KIRISH

Dunyoda zamonaviy mashinasozlik sanoatini takomillashtirish va mexanizmlarning yangi ilg'or qurilmalarini yaratish, chuqur fundamental tadqiqotlar o'tkazish, dolzarb ilmiy va texnik muammolarni hal qilish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, paxtani qayta ishlovchi mashinalarning ekspluatatsion ishonchligini ta'minlashda yuqori samarali kompozitsion polimer materiallardan maqsadli foydalanish, texnologik jihozlar ishchi sirtlarining paxta sirtlariga salbiy ta'sirini yangi materiallar qo'llash orqali kamaytirishni hal etishni kutayotgan dolzarb ilmiy - texnik muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSH, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot markazlarida polimer kompozitsion materiallardan mahsulotlar olishda resurs tejankorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazku maqolada mashinasozlikda qo'llaniladigan polifunksional geterokompozit polimer materiallar uchun bog'lovchi - to'ldiruvchilarni tanlash va asoslashning obyektiv xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Sh. Tilavoldiyevning "Bases of military patriotic education" nomli kitobi metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mashinasozlikda qo'llaniladigan geterokompozit polimer materiallarni modifikatsiyalashning samarali turi sifatida mahalliy ashyo va energetik resurslardan ratsional foydalanish imkonini beradigan strukturalashtirish usullarining maqsadga muvofiqligi asoslangan. Tadqiqot ob'ekti sifatidagi qoplamalar uchun termoreaktiv bog'lovchi epoksid smolasi ED-20 asosidagi kompozitlar va to'ldiruvchilar :mahalliy ashyolardan kaolin, grafit, xlorangean polietilen hamda ipakni qayta ishlash chiqindisi (IQICH) olindi (1-jadval).

1-jadval

Qoplama uchun tanlangan materiallar

№	Materialarning nomlanishi	GOST yoki TSH	Izoh
1	Epoksid smolasi (ED-20)	GOST 10587-72	Termoreaktiv bog'lovchi ¹
2	Dibutilftalat (DBF)	GOST 8728-76	Plastifikator
3	Polietilenpoliamin (PEPA)	TSH 6-02-594-	Qotirgich

		70	
4	Grafit (uvalanuvchan)	GOST 44404-88	To'ldiruvchi ($d \leq 20$ mkm)
5	Angren kaolini	GOST 6138-61	To'ldiruvchi ($d \leq 20$ mkm)
6	Ipakni qayta ishlash chiqindisi (IQICH), sinchlovchi	O'zDSt 993-2011	To'ldiruvchi ($d \leq 2$ mm)
7	Modifikator xlorlangan polietilen (XPE)	O'zDSt	Strukturalovchi



1. Bog'lovchi epoksid komponenti -ED_k=ED-20(100 masa.q)+DBF(18 masa.q)+PEPA(12 masa.q)

Model va nazorat namunasi sifatida paxtani qayta ishlash bo'yicha yirik o'lchamli texnologik mashinalar ishchi organlarida keng qo'llaniladigan namuna konstruksion material – po'lat (St3) olindi.

Namunalarning mexanik xususiyatlari Andijon shaxridagi "Uz Dong Ju Paint Co" QK korxonaning ISO/MEK 17025:2005 Xalqaro va O'zDST ISO/IEC 17025:2007 Respublika standartlari asosida faoliyat olib borayotgan akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyasida quyidagi ko'rsatkichlar olindi:

- HB-mikroqattiklik (tvyordomerlar №3635 ser. №3389/06 01.05.2019-01.05.2020) va ToshDTUning PMT-3 jihozlarida;
- σ_{ud} – zarbiy mustahkamlik IMPAST TESTER J-020 №5512 ser. №10-951 28.11.2018-28.11.2019;
- σ_{eg} – egilishga mustahkamlik Bending Tester №5750 ser. №10-954 28.11.2018-28.11.2019;
- adgezion mustahkamlik №315 ser 2236 28.03.2019-28.03.2020 adgeziomer;
- qoplama geometrik o'lchamlarini putirsiz baholash usuliga asoslangan №434817 ser. 3374 01.05.2019-01.05.2020 bo'yicha sinov laboratoriyasi jihozlarida standartlashgan usul va vositalar yordamida aniqlandi. Olingan natijalar xatoligi 3%dan kam miqdorda kafolatlangan

Qoplamalar uchun muhim hisoblanadigan adgezion mustahkamlikni o'lchash vositalari va usuli 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. GKP qoplamalarning adgezion mustahkamligini o'lchash vosita va usullari

Eksperimentlarda konditsion namligi 8-12% va ifloslanganligi 3-12% bo'lgan Andijon-36 va S-65-24 navli chigitli paxtalardan foydalanildi.

Nazoratlanadigan parametrlar sifatida qoplama sirtining barqarorlashgan notekisligi balandligi (R_z), ishqalanish sirti harorati (T_{tr}), asosiy triboparametrlar sifatidagi ishqalanish koeffitsienti (f) metall sirtga nisbatan paxta xomashyosining nisbiy mexanik jarohatlanishi (δ_0) va qoplama chiziqli eyilishining jadalligi (I_1) tanlab olindi.

XULOSA

Tadqiq qilingan GKPM komponenti tarkiblari va ekspluatatsion hossalari optimallashtirish va tadqiqot natijalarini qayta ishlashda Lagranj interpolyasiya formulasi hamda maxsus ishlab chiqilgan DGU 06756, 06757-sonli dasturdan foydalanildi [1-4].

Ko'p funksional GK polimer qoplamalarning ekspluatatsion, ya'ni tribotexnik xususiyatlari hamda paxtaning nisbiy mexanik jarohatlanishi professor U.A.Ziyamuhamedova rahbarligida ilk bor ishlab chiqilgan davlat standarti (O`zDST 2822-2014)ga muvofiq. Professor A.B.Djumabaev rahbarligida ishlab chiqilgan

dunyoda analogi yo‘q (O‘zR IMA tomonidan “ENG YAXSHI FOYDALI MODEL” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rin bilan taqdirlangan №FAP00782) tribometr yordamida aniqlandi [5-8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ziyamukhamedova U.A, Bakirov L.Y. Investigation of influence of fillers on the properties of composite polymers materials obtained with use of solar energy /ISSN: 2350-0328 International Jurnal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology.– 2018. – №5 – S.5451-5455.www.ijarset.com
2. Ziyamukhamedova U.A, Bakirov L.Y. Miradullaeva G.B. Some scientific and technological principles of development of composite polymer materials and coatings of them for cotton machine / EUROPEAN SCIENCE REVIEW № 3–4 2018 March–April Vienna Publishing– 2018.– S.130-135.
3. U.A.Ziyamuxamedova, L.YU.Bakirov, B.A.Sobirov, Z.Z.Djumabaeva, X.S.Hasanov. №DGU 06756 «Paxta tolasining mexanik jarohatlanishini ishqalanuvchi sirtlar haqiqiy tegishuv yuzasining nisbiy o‘zgarishi bo‘yicha baholash» // Rasmiy axborotnoma.-Toshkent. 2019, №8. –S 592-593.
4. U.A.Ziyamuxamedova, L.YU.Bakirov, B.A.Sobirov, Z.Z.Djumabaeva, M.M.Ibrohimov. №DGU 06757 «Kompleks omillar ko‘paytmasi minimal miqdori bo‘yicha texnologik jihoz ishchi sirtlari uchun qoplama materialini tanlash» // Rasmiy axborotnoma.-Toshkent. 2019, №8. –S 593-594.
5. L.Y.Bakirov, B.A.Sobirov, SH.A.Xalimov, M.U.Turaev, A.B.Djumabaev. К sozdaniyu ustanovki dlya issledovaniya relaksatsii napryajeniya v polimernyx kompozitsionnyx materialov s uchetom trenie i iznashevanie. //“MEXANIKA MUAMMOLARI” ilmiy-texnika jurnali. –2018. –№4. –S. 81-85.
6. O‘zDST 2822:2014 bo‘yicha № FAP 00782. Diskovyy tribometr /Djumabaev A.B. i dr. RA, IMA, -2015. – S.32.
7. UZ № FAP 01039. 10.08.2015 g. Diskovyy tribometr – relaksometr. /Mirzaxmedov B.X. i dr. RA, IMA, -2015. – S.32.
8. S Mushtaq1, M F Wani, M Nadeem , K Najar and M Mursaleen, ‘A study on friction and wear characteristics of Fe–Cu–Sn alloy 4 with MoS2 as solid under dry conditions,’ Academy Proceedings of Engineering Science ,volume 44, issue 12, p240, 2019

TARIXIY VA ZAMONAVIY JOY NOMLARNING LINGVISTIK TADQIQI

(Surxondaryo viloyati misolida)

Yarashova Zebo Nasimovna

*Termiz davlat universiteti Lingvistika: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
I bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada Termiz so'zining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi, bu joy haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Termiz, Taramastxa, Taramata, Taramat, Tami, Tamo, Tarameta, Tarmit, Tarmut, Tarmiz, Tirmiz va h.k.

Аннотация: В статье обсуждается происхождение слова Термез, его тип древних или современных топонимов, как оно названо в исторических и лингвистических источниках, как оно претерпело фонетические изменения в историческом процессе, а также популярные легенды об этом месте.

Ключевые слова: Термез, Тарамастча, Тарамата, Тарамат, Тами, Тамо, Тарамета, Тармит, Тармут, Тармиз, Тирмиз и др.

Abstract: The article discusses the origin of the word Termez, its type of ancient or modern toponyms, how it is named in historical and linguistic sources, how it has undergone phonetic changes in the historical process, and popular legends about the place.

Key words: Termez, Taramastxa, Taramata, Taramat, Tami, Tamo, Tarameta, Tarmit, Tarmut, Tarmiz, Tirmiz and etc.

KIRISH

Termiz shahri va Termiz tumani toponimlarini o'rganish jarayonida joy nomlarini to'plash, tasniflash, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilishga urinildi. Shu o'rinda bu nomlarning zamonaviy nomlar yoki tarixiy jarayonga xos nomlar ekanligiga ham e'tibor qaratildi. Aynan Termiz so'zining shahar, tuman, mahalla, qishloq va hatto ko'cha nomi sifatida keltirilganligini hisobga olib bu nomning kelib chiqishi haqida ilmiy manbalarda va xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalarda qanday atalganligi haqida biroz fikr yuritishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida Termiz so'zining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik

manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi, bu joy haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlar haqida fikr yuritiladi. Adabiyot sifatida joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy adabiyot, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Termiz zamonaviy yoki tarixiy nom ekanligini ibotlovchi manbalarga e'tibor qaratamiz. Termiz shahri tarixda qanday nomlangan va bu joy haqida tarixiy va ilmiy dalillar nimani isbotlaydi. Qadimgi tarixiy manbalarda katta qiziqish bilan tilga olingan Termiz haqida ko'plab ilmiy fikrlar tarixchilar tomonidan o'rganilmoqda hamda yangi tarixiy ashyoviy manbalar qayd etilmoqda. Ko'hna shahar hozirgi Termizdan 8-9 km janubi-g'arbda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, qariyb 2500 yillik tarixga ega. Qadimdan Termiz Markaziy Osiyoni Xitoy-Misr bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'lida joylashgan. Yunon- Baqtriya podsholigi davrida katta madaniy bosqichni o'z boshidan kechirganligini tasdiqlovchi manbalarni qayd etish zarur. Uning toponomik kelib chiqishiga e'tibor bersak, mahalliy xalqlar baqtriyaliklar Termiz Taramastxa (baqtrcha, «narigi sohildagi manzil»), Taramata, Taramat, Tami, Tarmit, Tarmiz, Termiz kabi shakllarda uchraydi. Bundan tashqari shaharning nomi IV-V asrlardagi arman manbalarida Drmat-Darmat (ehtimol Darmit), Termiz so'zigacha mahalliy xalqlar-baqtriyaliklar taramastha, Tarameta (narigi sohil, daryoning u beti), Arman manbalarida IV-V asarlarda u «Drmat», VII asr Xitoy manbalarida «Tamo», XIV asr Xitoy manbasida «Tarmiz» va «Tirmiz», IX-XIII asr arab-fors manbasida «Termiz» va «Termiz», XII asrda tarixchi Somoniy Termiz. XIII asrda Yakut lug'atida 2 xil nom «Tarmiz» va «Tirmiz».

Qadimgi Tibet kitoblaridan birida taxoristonlik buddizm targ'ibotchisi Dxarmamitranning nomi uchraydi va uning Pak-su (Oksu-Amudaryo) daryosi bo'yida joylashgan Tarmita degan shahardan ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, shahar asoschisi-podshoh Demitriy nomi asosida Demitriy, Dermita, Darmita nomi bilan keyinchalik Tarmita, Termid, X asrdan boshlab esa Termiz nomi bilan bog'lanadi. Umuman Termiz shahrining Tara Mastha yoki Tara Maetha -narigi sohildagi shahar, yanada to'g'rirog'i daryoning narigi sohildagi shahar, shahar nomining Yunon-Baqtriya podshohi Demetriya (Dmitrius) bilan bog'lanishlari isbotini topmaganidek, uning yunoncha "termos" so'ziga aloqadorligi ham asosli emas. Iskandar Zulqarnayn Termiz shahrini mustahkam tayanch qal'a sifatida mustahkamlab, unga «Oks bo'yi Aleksandriyasi» nomini berganligi ingliz olimi V. Tarn asarlarida qayd etilgan. Iskandar-daryo bo'yidagi bu manzilgohni mahalliy xalq

g'alayonlaridan saqlanish uchun muhim harbiy istehkom shaharga aylantirish rejasi bilan uni qayta qurdiradi.

Sh.Safarovning "Termiz va termiziylar" asarida quyidagi rivoyat keltiriladi: "Bir kuni Xoja al-Hakim shogirdlarisiz masjidga namoz o'qigani keladi. U yerda bir kishiga otni ushlab turishni buyuradi. U al-Hakim namoz o'qib turgan paytida pinhona kirib, u kishining boshini kesadi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Xalq qayg'u-alamga botadi. Uni an'anaga ko'ra dafn etishadi. Kunlarning birida shogirdlari va qarindoshlari uning qabri boshiga yig'ilganda qabrdan "Tirik biz" degan ovoz eshitilgan emish. Shu kundan boshlab hamma halok bo'lgan ustoz xojani "Ali al-Hakim tirikbiz", deb ataydigan, keyinchalik shahar nomini ham "Shahri Ali al-Hakim tirikbiz" deb ataydigan bo'lishdi." [1. 70-71b]

Termiz shahrining nomi va uning kelib chiqishi haqida ko'plab rivoyatlar yuradi, shu xil rivoyatlardan yana birida Balxlik mashhur shayx Dorulomon termizlik al-Hakimning g'oyibot olami bilan bog'lana olishdagi ruhiy quvvatini sinamoq niyatida Termizga yo'l oladi. Dorulomon o'z xalifa(yordamchi)si bilan suvga tushganda, buni oldindan bilgan al-Hakim Amudaryoga tushib daryoning yarmigacha borib Dorulomoni kutib oladi. Hayratda qolgan Dorulomon xalifasiga- «Bu zotni daryodan ko'tarib o't» ishorasini qiladi, xalifa kar bo'lganidan «boshini ol» deb tushunib al-Hakimning boshlarini qilich bilan kesadi. Shunda al-Hakimning kesilgan boshi tilga kirib Dorulomonga «Biz tirikmiz» debdi. Ul ulug' zotning qabrlariga yig'lab borgan kishilarga «Biz tirikmiz» deb ovoz eshitilibdi, o'shandan buyon shahar nomi tirimiz, ya'ni Tirmiz bo'lib ketgan emish.

Boshqa bir rivoyatda Termiz so'zi "termos" so'zidan olinganligi aytiladi, go'yo Aleksandr Makedonskiy jazirama issiq paytlari shaharga kelgan emish va havoning o'ta issiqligi tufayli, bu yer xuddi termosning o'zi ekan debdi. "Termos" so'zining fonetik tarkibi-fonemalar miqdori hozirgi yunon va o'zbek tillarida saqlangan. Yuz bergan tovush o'zgarishlarini o'zbek tilining fonetik qonunlari tasdiqlaydi. «o»ning «i»ga «s»ning «z»ga o'tishi turkiy tillar fonetik qonuniyati me'yori talabiga mosdir. Termo-yunoncha, issiq, issiqlik, harorat, termometr-issiqlik o'lchaydigan asbob, termografiya-issiqlikni yozib oluvchi asbob, idish, joy, makon tushunchalariga ega. [2.117b]

Содержание метода: ученик запоминает части той или иной техники (конечно, по новой теме) и рисует самостоятельную картинку - схему. Эта нарисованная картинка или диаграмма поможет вам позже вспомнить слово-фигуру. Отдельное письмо не рекомендуется.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Развитие технического мышления в традиционном процессе подготовки инженеров технических специальностей недостаточно эффективно. Динамика его уровня развития характеризовалась тем, что не оставалась неизменной на протяжении всех лет обучения студентов.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРЕ (REFERENCES)

1. Альтшуллер, Г. С. Найти идею: Введение в теорию решения изобретательских задач [Текст] / Г. С. Альтшуллер. - Изд. 2-е, доп. - Новосибирск: Наука, 1991.-224 с.

2. Давлетшин М. Г. К вопросу о техническом мышлении / М. Г. Давлетшин // Материалы Всесоюзного симпозиума по проблемам мышления и общения. - Алма-Ата, 1973 - С.38-39.

3. Ismailova Z.K., Khimmataliev D.O., Kuziyev N.M., Shabarova U.N., Almardonov O.M. Formation of a system of methods of technical thinking future

engineers ISSN-2394-5125 // Scopus- Journal of Critical Reviews Vol 7. Issue 5. 2020 P.787-794

4. Turdiyev Sh.R., Shadiev R.D. Professional direction of the formation in students ability to innovative engineering. //European Science and Technology: 15th International scientific conference. Munich 2016.

5. Қўзиев Н.М. Мухандис учун муҳим бўлган касбий фаолият тушунчасининг назарий таҳлили // Муғаллим ҳам узликсиз билимлинидириў. Илмий-методикалық журнал. 2019 -№2. Б.98-103 85.

6. Қўзиев Н.М. Транспорт воситаларининг тузилиши ва назарияси фанидан лаборатория ишларини бажариш бўйича дастур //№DGU 07558 Гувоҳнома 21.01.2020 88.

IQTISODIY DISKURSDAGI ASOSIY ATAMALARNING KOGNITIV TAHLILI

Sayfutdinova Maftuna Abror qizi

maftuna9008@gmail.com

O'zDJTU erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot ishida ingliz va o'zbek tillarining tilshunoslik tizimida iqtisodiy nutq aktlarini ifodalash yo'llari diskursiv xoslanishi chog'ishtirma aspektda tahlil qilingan. Qolaversa, ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiy nutq kognitiv-diskursiv yo'nalishning qoidalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Umuman olganda, kognitiv-diskursiv yondashuv ingliz tilidagi iqtisodiy nutq haqidagi tushunchamizni kengaytirish imkonini berishi ushbu tadqiqotda o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy diskurs, paradigma, kognitiv tahlil, konsepsiya, atama, kognitiv-diskursiv yondashuv, diskursiv xoslanish, chog'ishtirma tilshunoslik.*

Abstract: *In this research paper, the discursive characteristics of the ways of expressing economic speech acts in the system of linguistics of the English and Uzbek languages are analyzed in the conversational aspect. In addition, economic speech in English and Uzbek is considered from the point of view of the rules of cognitive-discursive orientation. Overall, the cognitive-discursive approach was reflected in this study to allow us to expand our understanding of economic speech in English.*

Keywords: *economic discourse, paradigm, cognitive analysis, concept, term, cognitive-discursive approach, discursive approach, comparative linguistics.*

Аннотация: *в данной исследовательской работе дискурсивная характеристика способов выражения экономических речевых актов в системе лингвистики английского и узбекского языков анализируется в разговорном аспекте. Кроме того, экономическая речь на английском и узбекском языках рассматривается с точки зрения правил когнитивно-дискурсивной ориентации. В целом, когнитивно-дискурсивный подход был отражен в этом исследовании, чтобы позволить нам расширить свое понимание экономической речи на английском языке.*

Ключевые слова: *экономический дискурс, парадигма, когнитивный анализ, концепт, термин, когнитивно-дискурсивный подход, дискурсивный подход, сопоставительная лингвистика.*

KIRISH

Hozirgi kunda leksikamizning tarkibi haqida gap ketganda, rus va o'zbek tillarining o'zaro aloqasi o'ziga xos madaniy fenomen hisoblanib, rus tili ta'sirida o'zbek tilining maxsus lug'at qatlami boyigan. Hayotiy faoliyatning ko'plab sohalarida o'zbek tilining so'z lug'at boyligi, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'z hamda tushunchalar saqlanib qolgan hamda uzoq vaqtlar mobaynida sayqallanib, mustaqillikdan so'ng ingliz tilining ta'siri hisobiga yangi bir lug'aviy qatlam shakllandi. Biroq, ingliz tilidagi ilmiy nasr uslubi (matn) haqidagi tahlillarimizda ikki tilning bir biriga ijobiy ta'sir jarayonlarini kuzatmaymiz, xususan, iqtisodiy matnlar o'zbek tilidagi ilmiy nasr uslubidan umumiy farqlanishi qayd etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Tadqiqot ishida lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), diaxron, sinxron, semantik-uslubiy, komponent tahlil, leksik-sintaktik, leksik-semantik lingvostatistik metodlar qo'llanilgan. Iqtisodiyot, g'aznachilik, bank, moliya, soliq va bojxona sohalariga oid iqtisodiy diskursning leksik-semantik, tarixiy-etimologik, funksional-strukturaviy jihatlari, qiyosiy-statistik masalalari Z. Xarris, Dj.Lakoff, Ch. Fillmor, Ye.S. Kubryakova, V.Z. Demyankov, V.A. Maslova, N.F. Alefirenko, Yu.N. Karaulov, A.A. Kibrik, J.N. Maslova, T.A. van Deyk, V I Karasik, M.L. Makarov, Yu.E. Proxorov H.A. Dadaboyev, J.Do'stmuhammedov, Ch.S. Abdullayeva, Q.M. Musayev, O.S. Axmedov, Sh.N. Abdullayeva va boshqa tilshunoslar ishlarida o'z aksini topgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ingliz tilidagi matnlarda taqdimot uslubi yoki havola tarzi ko'proq idiomatik, obrazlilik, hissiy tus berish bilan ajralib turadi. Bunday farqlanish jarayoni rus tili va ingliz tili o'rtasida ham kuzatiladi. Iqtisodiy diskurs jarayonida konsepsiyalardan foydalanish xam shunga o'xshash tarzda farq qiladi. Ingliz tilidagi iqtisodiy matnlar bu jihatdan indikativdir, chunki atamalarning muhim qismi otlar bo'lib (bu o'z-o'zidan atamaga xosdir) ular jarayonlar, harakatlar, voqealar, holatlarni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu reifikatsiyalar (muayyan jarayonni umumlashtiruvchi majhul tushuncha) - predmetlashtirilgan harakatlar [Drozdova 2003: 224].

Masalan: *distribution* - taqsimlash, tarqatish; *production* - ishlab chiqarish; *recession* - pasayish; *devaluation* - devalvatsiya; *speculation* - chayqovchilik kabi iqtisodiy atamalar reifikatsiyalar deb ataladi.

Bir qator asarlarda ta'kidlanganidek, predmetlashtirilgan harakatlar murakkab, gibrid konseptual tuzilishga ega. Bir tomondan, asl fe'ning ba'zi xususiyatlarini

olib, reifikatsiya vaqtda o'zgarishlilik, bosqichma-bosqichligi va elementligi jihatdan vaqt chegaralarining mavjudligi bilan tavsiflanishi mumkin.

Boshqa tomondan, otning xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga, reifikatsiya vaqt va bo'shliqdagi barqarorlik, yaxlitlik va bo'shlik chegaralar kabi xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Xarakat kategoriyasini oxirigacha qoldirmasdan, fe'llashgan otlar ob'ekt kategoriyasiga o'tadi [Irisxanova 2004: 352], bu uni nimani bildirishi, aniqrog'i bizning ongimizda qurilgan narsani, ham harakat sifatida, ham ob'ekt sifatida bo'lishi to'g'risida o'ylashimizga imkon yaratadi.

Iqtisodiyotning asosiy tushunchalarining muhim xususiyati shundaki, ularning barchasi, ma'lum ma'noda, bizning ongimizning nazariy konstruksiyalari hisoblanadi. *Devalvatsiya, inflyatsiya, chayqovchilik* - iqtisodchilar ushbu tushunchalarni iqtisodiy rivojlanishdagi jarayonlarni, harakatlarni, voqealarni o'rganish uchun qulay bo'lishi uchun yaratadilar, aslida ular yetarlicha mavxumiydir. Predmetlashtirish jarayonida ularda moddiy chiziqlar paydo bo'ladi, ular tufayli ular tushunish va tavsiflash uchun qulayroq bo'lib qoladi. Aynan shu ma'noga ega quyidagi misollarni taqdim eamiz. *Devaluation - devalvatsiya* ODBE (Oxford Diocese Board of Education)da quyidagilarni anglatadi:

Devalvatsiya: 1) bir valyuta qiymatining boshqasiga nisbatan pasayishi (harakat). *The government is not willing to resort to devaluation - Hukumat devalvatsiyaga murojaat qilishni xoxlamaydi*; 2) sodir bo'ladigan holat (ushbu harakatning predmetlashgan namunasi), solishtirish. *A devaluation of 13 % against the Deutsche mark - nemis markasiga nisbatan 13 % devalvatsiya*. Ikkinchi ma'noni aks ettirish uchun, lug'atda berilgan misolda, bu atama noaniq artikl bilan ishlatilgan. Bu shuni anglatadiki, *A devaluation* – lug'at tarkibida bu leksik birlik allaqachon ot so'z turkumi hisobida qayd etilgan,

predmet shakliga aylanishga ulgurgan.

Ingliz tilidagi iqtisodiy matnlarda bunday atamalarning konseptual tuzilishini o'rganayotganda biz quyidagi nazariy mulohazalarga asoslandik: birinchidan, biz termin deb mutaxassislar va maxsus lug'atlar termin sifatida qabul qiladigan termini aytamiz [Tatarinov 1996:311]; Ikkinchidan, "konsepsiyalar so'zlardir va ularga lingvistik hamma narsa ham begona emas" [Kotelova 1970: 122], shu jumladan, noaniqlik va ma'no metaforizatsiyasi ham; Uchinchidan, konsepsiyalarni dastlabki bosqichda konseptual tahlil qilishda ko'proq ob'ektivlik uchun, turli lug'atlardagi mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olishga harakat qildik [Belyaevskaya 2008: 142]; To'rtinchidan, so'zning turli xil kontekstdagi ma'nolarining to'liq

spektrida biz Ye.S.Kubryakova va J. Pusteyovskiy tomonidan taklif qilingan protseduradan (taomil)dan foydalandik.

Pusteyovskiy: “So‘z, masalan, “kitob” nimani anglatishini minimal tushuntirish - bu *qualia* tuzulish deb nomlangan reprezentatsiya bo‘ladi... *Qualia - Uning vazifasi nima?* (savoliga javob berish orqali yechim ko‘zga ko‘rinadi) - Uning bazaviy toifasi, qaerdan kelib chiqqanligi, nimadan yasalganligini bilish kerak. Shunday qilib, men kitobdan zavq olsam, kitobni o‘qishni nazarda tutsam, kitob sotib olish haqida gap ketganda, moddiy ob‘ektning o‘zini nazardatutaman. *Qualia* tuzilmasi bunday ma‘lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “kitob” tushunchasi belgisi sifatida kodlaydi (www.brandeis.edu).

Pusteyovskiyning mavzu so‘z boyligiga nisbatan ko‘rsatgan tartibini biz uni barcha sintaktik rollarda so‘z haqida so‘raladigan savollar shaklida so‘z muvofiqligi xaritasini qurish deb ta‘riflaydi, Ye.S.Kubryakov ishlarida aniq ko‘rsatilgan. So‘zning kognitiv xaritasini “so‘zning eng keng tarqalgan kontekstlarining aksi sifatida ko‘rish mumkin. So‘zning semantikasi o‘zgarib ketadigan barcha yo‘nalishlarning bayoni sifatida ko‘rish mumkin. So‘zning ma‘nolarini yanada to‘liqroq leksikografik tushunchasiga ega bo‘lishga tavsiya sifatida ham ko‘rish mumkin” [Kubryakova 2004: 376].

Ushbu nazariy qoidalarga asoslanib, biz iqtisodiyot fanining xalqaro iqtisodiy aloqalar va xalqaro savdo sohasidagi bir nechta asosiy konsepsiyalarini ko‘rib chiqamiz. Ularning barchasi mavhum harakatlar ega jarayonlar, holatlarni anglatadi, jumladan, *devaluation* – *devalvatsiya*; *speculation* - *chayqovchilik*, *birja o‘yini*; *deficit* - *defisit*; *surplus* - *profisit*, *qoldiq*, *mo‘llik*, *byudjetning yoki to‘lov balansining faol saldos*.

Biz ushbu konsepsiyalardan mazmuniy jihatdan to‘liq va umumiy tasvirini yaratish uchun, olim-iqtisodchi uchun ham bilish vositasi bo‘lgan, ham uning ob‘ektni belgilash bo‘lgan terminning konseptual tuzilmasida qanday umumiy jarayonlar, shu jumladan metaforik jarayonlar kuzatilishinibilish uchun foydalanamiz.

Ushbu konsepsiyalar biri biri bilan kelib chiqishiga ko‘ra farq qiladi: *devaluation* – *devalvatsiya* va *speculation* - *chayqovchilik* fe‘ldan yasalgan otlarbo‘lib (asliyatiga ko‘ra: *devalue* va *speculate* fe‘llari) va bundan tashqari, zamonaviy ingliz tilidagi asl fe‘l shakllari bilan aloqasini saqlab qoladi va ular bilan birga ta‘lim va iqtisodiy sohalarga oid matnlarda ishlatiladi [Epifanov 2005: 190]. Aksincha, *deficit* - *defisit* va *surplus* – *qoldiq* kabi misollar esa zamonaviy ingliz tilida fe‘llardan yasalgan shakllar hisoblanmaydi.

Deficit- etimologik jihatdan lotincha “*deficere*” – “*it is wanting*” (u istayapti) ma’nosidagi fe’l sifatida qo’llanilgan. Ingliz tilida 1782 yilda fransuz tili tarkibida “*déficit*” 3-shaxs birlik shaklidagi “*kamomad*” ot so‘z turkumi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lib, anglashiladiki, u faqat tarixan fe’l shaklidan yasalgan hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tilida bu mustaqil tushuncha bo‘lib, fe’l so‘z turkumiga bevosita bog‘liq bo‘lmagan mavhum ot sanaladi. *Surplus* ot so‘z turkumi bo‘lib, lotin tilidagi “*surplusagium*” leksik birligidan olingan. XIV asrda ingliz tilida tarkibida qadimgi farnsuz tili tarkibidagi “*sorplus*” leksemasidan o‘zlashgan.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy iqtisodiy matnlarda to‘rtta termin ham konseptual tuzilishida, ham leksik muvofiqligi jihatidan sezilarli o‘xshashliklarni ochib beradi, bundan tashqari, ularning semantikasida metaforizatsiya jarayonlarining tabiatan o‘xshashliklari ko‘rinadi.

Iqtisod sohasiga doir ilmiy manbalarning katta qismini yaxlit ravishda tahlil qilish asosida (masalan, EBSCOhost, BNC) *devaluation* -*devalvatsiya* atamasi uchun quyidagi kognitiv xaritasi jadval asosida havolaetildi (1 jadval):

1. jadval

Devaluation terminining kognitiv xaritasi

№	kognitiv yo‘nalishi (konkret savol qo‘yiladi)	kognitiv yo‘nalish nuqtasi (savol javob berish orqali aniqlanadi)
1	<i>U qanday (ko‘rinishga ega)?</i>	<i>vaqt bo‘yicha</i>
		<i>o‘lchami bo‘yicha</i>
		<i>hissiy va sub‘ektiv baholash bo‘yicha</i>
		<i>ehtimollik bo‘yicha</i>
2	<i>Biz uni nima qilamiz(yoki biz u bilan nima qilamiz)?</i>	<i>harakatga keltiramiz</i>
		<i>ta‘sir etamiz</i>
		<i>rejalashtiramiz</i>
		<i>uning ta‘sirini boshdan kechira(may)miz</i>
		<i>biz ijobiy yoki salbiy ta‘sir lanamiz</i>
3	<i>U nima qiladi?</i>	<i>davom etadi, ehtimollik va o‘lchovga ega</i>
		<i>foyda keltiradimi yoki zarar</i>
		<i>muhim (muhim emas)</i>

4	Unga nima bo‘lyapti?	<i>kompozision birikma tarkibida</i>
----------	-----------------------------	--------------------------------------

Iqtisodiy diskursga oid matnlarda *devaluation* – *devalvatsiya* terminining kognitiv xaritasini yanada batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki tahlillarimiz orqali bir qancha konsepsiyalarning kognitiv tuzilish ularning tabiatini ochib berishda nechog‘lik muhim ekanligi namoyonbo‘ladi.

1. U qanday?

- **vaqt bo‘yicha:**

further (kelgusi), *next* (keyingi), *thelatest* (oxirgi), *final* (tamomila);

- **o‘lchami bo‘yicha:**

small (kichkina), *greater* (katta), *substantial* (yirik), *massive* (salmoqli);

- **hissiy va sub‘ektiv baholash bo‘yicha:**

humiliating (kamsituvchi), *painful* (og‘riqli), *long-overdue* (kechikkan), *successful* (muvaffaqiyatli), *effective* (samarali);

- **ehtimollik bo‘yicha:**

possible (extimoliy), *foreseeable* (bashorat qilinadigan), *inevitable* (muqarrar);

2. Biz uni nima qilamiz (yoki biz u bilan nima qilamiz)?

- **harakatga keltiramiz:**

enforce (amalga oshiramiz), *produce* (ishlab chiqaramiz), *trigger* (xarakatga keltiramiz);

- **ta’sir etamiz:**

prevent (oldini olamiz), *deal with* (shug‘ullanamiz), *allow* (yo‘l qo‘yib beramiz);

- **rejalashtiramiz:**

plan (rejalashtiramiz), *consider* (ko‘rib chiqamiz), *expect* (kutamiz);

- **uning ta’sirini boshdan kechira(may)miz:**

be affected by (uning ta’sirini boshdan kechiramiz (xis etamiz)), *suffer* (azoblanamiz), *be immune from* (biror narsaga ta’sirchan bo‘lmaymiz), *benefit from* (foyda olamiz), *use the benefit of* (uni foydali qo‘llaymiz);

- **biz ijobiy yoki salbiy ta’sirlanamiz:**

respond positively to (ijobiy javob beramiz), *support* (qo‘llab - quvvatlaymiz), *favour* (iltifot qilamiz), *be pleased by* (ijobiy ta’sirlanamiz), *believe in* (ishonamiz), *press for reforms including* (isloh qilamiz), *welcome* (ma’qullaymiz), *blame* (ayblaymiz), *rule out* (chiqarib tashlaymiz), *be opposed to* (qarshi turamiz);

3. U nima qiladi? Unga nima bo‘lyapti?

- **davom etadi, ehtimollik va o‘lchovga ega:**

Be due by (...ga kutiladi), *be both necessary and inevitable* (zarur va bo'lishi muqarrar), *continue* (davom etadi), *continue at unacceptable levels* (yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada davom etadi), *go no further* (...dan ko'proq davom etmaydi), *prove more than temporary* (vaqtinchalikdan ko'proq bo'lib chiqadi), *be significant* (ahamiyatli bo'ladi);

• ***foйда keltiradimi yoki zarar:***

produce a compensating rise in exports (eksportning o'rnini qoplovchi o'sishga olib keladi), *bring an economic upturn* (iqtisodiy o'sishga olib keladi), *help to trigger a major increase* (sezilarli o'sishga turtki beradi), *lead to an improvement in trade* (savdodagi xolatni yaxshilanishiga olib keladi), *give a boost to the economy* (iqtisodiyotga turtki beradi), *trigger a major economic crisis* (jiddiy iqtisodiy inqirozni keltirib chiqaruvchi omil bo'lib xizmat qiladi), *provoke the industry's worst crisis* (soxadagi eng jiddiy inqirozni keltirib chiqaradi), *not offer away out* (vaziyatdan chiqish yo'lini taklif qilmaydi);

• ***muhim (muhim emas):***

apply to all trans actions (barcha operatsiyalarga qo'llaniladi), *be no more than a token gesture* (imo-ishoradan boshqa narsa emas);

Bundan tashqari, ushbu termin ishtirok etgan iqtisodiyot sohasiga doir so'z birikmalari, predikatlar orqali yuqorida keltirilgan (kognitiv xaritatarkibida) kognitiv yo'nalish nuqtalarining barchasini ma'no jihatlarini o'zida aks ettiradi (1. jadvalga qarang). Mazkur termin ishtirok etuvchi so'z birikmalari, to'ldiruvchi, shuningdek aniqlovchilar sifatida ishlatiladi. Biz buni to'rtinchi kognitiv yo'nalish sifatida ifodalaymiz va qo'llanishida kognitiv nuqta yo'nalishi o'zgarib turishi bois konkret savol qo'yilmaydi.

4. So'z birikmasi va iboralar tarkibida kompozision birikma sifatida.

Purpose of ~ (~maqsad), *need for* ~ (~ ehtiyoj), *pressure for* ~ (~...ga chorlov, chaqiruv), *the impact of* ~ / *the effects of* ~ (~ ta'sir), *thanks to* ~ (~tufayli), *the occasion for* ~ (~ uchun imkoniyat), *warnings against* ~ (~...ga qarshi ogohlantirishlar), *in the after math of* ~ (~ oqibatlari orasida), *the rate of* ~ (~ tezlik), *the less-attractive side to* ~ (~ kamroq jozibali tomoni).

Tavsiya etilayotgan anketa(so'rovnoma) asosida termin semantikasining asosiy yo'nalishlari ko'ringan kognitiv xarita paydo bo'ladi. Termin tomonidan belgilangan (yoki bizning ongimizda tuzilgan) xodisa quyidagi o'lchamlar bo'yicha ravshan ko'rinib turadi: sezilarli darajada ahamiyatsiz, uzoq muddatli qisqa muddatli, yaxshiyomon, kerakli-foydasiz. Bu atama atrofida barcha sintaktik rollarda namoyon

bo‘lishini hisobga olsak, predikatlarni, aniqlovchilarni qo‘shilishi mumkin bo‘lgan sinonimik qatorlar va uni so‘z birikmalaridagi ishtirokini taxmin qilish mumkin.

Ikkinchi terminga o‘tamiz *speculation - chayqovchilik*.

2.Jadval

№	Kognitiv yo‘nalishi (konkret savol qo‘yiladi)	Kognitiv yo‘nalish nuqtasi (savol javob berish orqali aniqlanadi)	Ingliz tili	O‘zbek tili
1	U qanday (ko‘rinishga ega)?	vaqt bo‘yicha	<i>short-term</i>	<i>qisqa muddatli</i>
		o‘lchami bo‘yicha	<i>rising; accelerating; heavy;</i>	<i>o‘suvchi; tezlashuvchi; salobatli;</i>
		hissiy va sub’ektiv baholash bo‘yicha	<i>stabilizing; destabilizing; profitable; rampant; disastrous; ruthless;</i>	<i>barqarorlashtiruvchi; i; beqarorlashtiruvchi; ; foydali; shafqatsizlik; vayron qiluvchi; ayovsiz;</i>
2	Biz uni nima qilamiz (yoki biz u bilan nima qilamiz) ?	harakatga keltiramiz	<i>cause; set off on a rate; repeat; dabble in;</i>	<i>chaqiramiz; ma’lum bir tezlikda boshlaymiz; takrorlaymiz; shug‘ullanamiz;</i>
		ta’sir etamiz	<i>stimulate; counteract; counter; discourage; avoid; curb; tame; reduce / cut;</i>	<i>rag‘batlantiramiz; qarshilik ko‘rsatamiz qarshi turamiz; to‘sqinlik qilamiz; (olib) qochamiz jilovlaymiz; bo‘ysindirramiz;</i>

			<i>halt;</i>	<i>qisqartiramiz; to 'htatamiz;</i>
		rejalashtiramiz	<i>be disturbed by~; accrue losses from~; lose huge amounts on~;</i>	<i>~ dan xavotir olamiz; ~ dan yo 'qotishlarni boshdan kechiramiz; ~ dan katta miqdorda mablag 'ni yo 'qotamiz;</i>
		baholaymiz va o'laymiz	<i>know the difference between investment and ~; measure the significance of ~; something is well suited to ~; play down the role of~ ;</i>	<i>investisiyalash bilan ~ o 'rtasidagi farqni bilamiz; ~ ning ahamiyatini o 'laymiz; biror narsa ~ ga juda mos keladi; ~rolini pasaytiramiz;</i>
3	U nima qiladi? Unga nima bo'lyapti?	davom etadi, ehtimollik va o'laymiz ega	<i>go on / continue; decline dramatically; be restricted to; be rife; be very difficult to predict; depend on;</i>	<i>davom etyapti; keskin pasayyapti; biror narsa bilan cheklangan bo 'lyapti; keng tarqalgan bo 'lyapti; bashorat qilish (oldindan aytish)qiyin bo 'lyapti; ...ga bog 'liq</i>
		foyda keltiradimi yoki zarar	<i>have little to do withthe real progress of companies;</i>	<i>kompaniyalarning haqiqiy (real) muvaffaqiyatiga unchalik aloqasi</i>

			<i>push prices up further;</i>	<i>yo‘q; narxlarni yanada oshiradi;</i>
		kompozision birikma tarkibida	<i>an enormous amount of ~; an instrument for ~; the morality of ~; a massive increase in ~;</i>	<i>~ning juda katta miqdori; ~ uchun asbob (uskuna); ~ning axloqi; ~ning salmoqli ko‘payishi;</i>

Speculation - chayqovchilik terminining kognitiv xaritasi:

An enormous amount of ~ (~ juda katta miqdor), an instrument for ~ (~ uchunasbob), the morality of ~ (~ axloqi), a massive increase in ~ (~ ning salmoqli) deficit (defisit) termining kognitiv xaritasi quyidagicha ko‘rinadi:

1. U qanday?

• **vaqti bo‘yicha:**

ongoing (davom etayotgan), chronic (uzoq cho‘zilgan), persistent (doimiy), resulting (biror narsa natijasida kelib chiqayotgan)

• **dinamikasi va o‘lchami bo‘yicha:**

rapidly growing (tez o‘sayotgan), small (kichik), huge (ulkan), large (katta), massive (salmoqli), serious (jidiy), substantial (sezilarli), enormous (maxobatli), record (rekord xajmlarda), maximumfeasible (maksimal mumkin bo‘lgan), excessive (xaddan tashqari katta), whatsized (qanday o‘lchamdagi), sizeable (sezilarli o‘lchamlarda), relativelylarge (nisbatan katta), soaring (juda baland)

• **hissiy - sub’ektiv baholash bo‘yicha:**

good (yaxshi), bad (yomon), risky (tavakkalchi), excessive (xaddan tashqari katta), stubborn (qaysar (o‘jar)

2. Biz uni nima qilamiz? Yoki biz u bilan nima qilamiz

harakatga keltiramiz:

cause (chaqiramiz), have (bor(bizda), run (bor)

• **ta’sir o‘tkazamiz:**

maintain (qo'llab-quvvatlaymiz), finance (moliyalashtiramiz), widen (kengaytiramiz), pushtorecordheights (rekord balandliklariga yetkazamiz), combinewith (...bilan biriktiramiz), bringmuchof ~ home (uning katta qismini uyga qaytaramiz)

• ***o'lchami bo'yicha baholaymiz:***

Equate with (...bilan tenglashtiramiz), estimate at (darajadasida baholaymiz)

• ***uning ta'sirini xis qilamiz(qilmaymiz):***

experience (xis qilamiz), endure (boshdan kechiramiz)

• ***ijobiy yoki salbiy munosabat bildiramiz:***

blame for (ayblaymiz), blame on the rest of the world (unda butun dunyoni ayblaymiz)

3. *U nima qiladi?*

• ***davomiyligiga, ehtimoligiga, o'lchamiga ega bo'ladi:***

persist (davom etadi), climb (ko'tariladi), standat (bir darajada turadi), rise as a proportion of GDP (Yalpi ichki mahsulot ulushi foizi sifatida o'sadi), break its sustainable limit (barqarorlik chegarasidan chiqib ketadi)

• ***foyda yoki zarar keltiradi:***

Reflect an investment boom (investisiya shov-shuvini (portlashini?) aks ettiradi), can be a problem (muammo tug'dirishi mumkin), become a national policy obsession (milliy siyosat g'oyasiga aylanadi), cause political concern (siyosiy xavotirlikni keltirib chiqaradi), weaken foreign investor confidence (xorijiy investorlarning ishonchini zaiflashtiradi), create an upward pressure on the yen (ienani kuchaytirish uchun bosim yaratadi)

4. *Davomiyligi, o'lchami, sababi va natijasi parametrlari quyidagi iboralarda ko'rinadi:*

two decades of ~ (~ikki o'n yilligida), a string of (~ketma-ketligi, qatori) chereda, ryad ~), the real cause of (~haqiqiy sababi), the combined impact of (~kombinatsiyalangan ta'siri)

Va nihoyat, bizning tadqiqotimizdagi yagona to'liq otdan yasalgan surplus (profisit) terminining kognitiv xaritasi, o'xshash ta'rifni ko'rsatadi. Biroz farqlar mavjud, asosan davriy rivojlanishning atributlarini kamroq ifodalanganligi yoki yaxshi-yomon qatoridagi sifatlarni mavjud emasligi (biroq bu qarama-qarshilik fe'llar bilan birgalikda keltirilgan), ammo qolganida, shu jumladan iboralar darajasida, kognitiv xarita shunga o'xshash tasavvurlarni beradi - harakat va o'zgarish jismoniy parametrlarlar, sezilarli yoki sezilmas, ijobiy yoki salbiy ta'sir va shunga mos ravishda unga nisbatan bo'lgan hissiy munosabat bilan birikadi.

1. U qanday?

- dinamikasi va o'lchami bo'yicha:

declining (kichiklashadigan), expanding (kengayadigan), small (kichik), large (katta), sizeable (yirik), huge (ulkan)

2. Biz uni nima qilamiz?

- harakatga keltiramiz: produce (chaqiramiz)
- ta'sir qilamiz:

attract (jalb qilamiz), make abig denton (uning ustiga katta o'yik qilamiz)

- biz uning ta'sirini xis qilamiz:

be neutralized by (neytrallash ta'sirini xis etamiz (boshdan kechiramiz?))

3. U nima qiladi?

davomiylik, ehtimollik, o'lchovga ega: increase (o'sadi), expand (kengayadi), hit it speak (cho'qqiga erishadi), start decreasing (pasayishni boshlaydi), have a general trend of increasing (o'sishni umumiy tendensiyasiga ega), have a tendency to fall (pasayishni umumiy tendensiyasiga ega), fall (tushadi)

- **foyda yoki zarar keltiradi:**

Be often regarded politically (ko'pincha siyosiy jihatdan qaraladi), cause trade conflicts (savdo mojarolarini keltirib chiqaradi)

4. Jismoniy o'lchamlarni, dinamikani, hissiy baholarni iboralarda aksettirish:

The most recent peak of (~so'nggi cho'qqisi), the changing / predicted pattern of (~o'zgaruvchan/bashorat qilinadigan strukturasi), the reduction of (~qisqarishi), the trend of (~tendensiyasi (moyilligi), the huge/large amount of (~juda katta/ katta miqdori), large proportions of (~katta qismlari), the issue of (~muammosi), zealous demands for (~qat'iy talablari)

Yuqoridagi konsepsiyalarning baholashni barqaror omillariga oid savollarni iqtisodchi, o'rganilgan korpus maqolalaridan birining muallifi

ko'rib chiqadi, va u J. Pusteyovskiyning qualia (kvalifikasion) tuzilmasiga o'xshash quyidagi savollarni beradi:

_____ It is timely to answer the following basic questions: What fundamentally causes external deficits and debt? Are they good or bad? Under what conditions may they be risky? And when are they unsustainable?

O'zbek tiliga tarjimasini: *Quyidagi fundamental savollarga javob berish vaqti keldi: Tashqi defisit va qarzni nima keltirib chiqaradi? Ularyaxshimi yoki yomonmi? Qanday sharoitlarda ular tavakkal bo'lishi mumkin? Vaqachon ular barqaror emas? (EBSCO host)*

Bunday murakkab va moslashuvchan konseptual tuzilma (struktura) metaforizatsiya uchun ma'lum imkoniyatlarni beradi. Bir tomondan, biz ko'rib chiqqan guruhning mavhum konsepsiyalar-otlar fe'ldan qolgan (yoki surplus terminida bo'lgani kabi o'xshashlik bilan paydo bo'lgan) xususiyatlarni namoyish etadi. Rivojlanish - ularning ma'nosining ajralmas potensial tarkibiy qismidir. Boshqa tomondan, ot turkumiga o'tishda olingan predmet xususiyatlari, bu termin ortidagi konseptual tuzilishga konteyner xususiyatlarini beradi (bo'shliqdagi o'lchamlari va chegaralari bilan). Dinamika va hajmning kombinatsiyasi ko'pincha matnda jo'shqin suv metaforasi paydo bo'lishiga olib keladi.

Masalan, yozadilar:

There may be some good froth on bad deficit.

O'zbek tiliga tarjimasi: *Yomon defisitda yaxshi ko'pik bo'lishi mumkin.*

Boshqa tadqiqotchining matnida o'qiymiz:

Japanese current account surpluses did not spill over into growing central bank reserves in the early 1980s.

O'zbek tiliga tarjimasi: *1980-yillarning boshlarida saldo (mo'llik(ortiqcha?) Yaponiya Markaziy bankining o'sib borayotgan zaxiralaridan toshib ketmadi.*

Metaforizatsiyaning yana bir usuli ushbu konsepsiyalarni hissiy- baholash (yaxshi - yomon) jixatida idrok etish natijasida ochiladi. "Moddiy" bo'lib qolib, ular jonli mavjudotning xususiyatlarini egallashi mumkin, shu bilan birga jarayon yoki hajmning asl xususiyatlarini yo'qotmaydi. Xorij valyutasi chayqovchiligi operatsiyalarining jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini yumshatishi mumkin bo'lgan soliq tahliliga bag'ishlangan tadqiqotishida muallif shunday yozadi:

Tobin solig'i - bu chayqovchilikni qo'lga olish va daromad manbasini olish uchun tez-tez muhokama qilinadigan usul. Tobin solig'i barcha valyuta operatsiyalariga solinadigan, shu tariqa barqarorlikni izidan chiqaruvchi chayqovchilikni kamaytiradigan kichik xalqaro soliq bo'lishi kerak.

Shunday qilib, o'rganilayotgan hodisa ham jonli narsa sifatida (bo'ysindirilishi lozim bo'lgan yovvoyi hayvon), ham o'chovlarga ega bo'lgan jarayon yoki predmet sifatida qaraladi.

Ingliz ilmiy tilidagi nasrda bunday metafora qo'llanilishining muhim xususiyati - ularning muntazamligi va tez-tez qaytarilishi (Chastotasi?) va biz ko'rsatmoqchi bo'lganimizdek, belgilanadigan nazariy konstruksiyaning konseptual tuzilishi bilan chambarchas bog'liqligidir. Bunday tadqiqotlarni o'tkazish lozimligi to'g'risida 1990-yillarda yozilgan edi. Yetakchi zamonaviy terminolog V.A. Tatarinovning

soʻzlarini keltiramiz: "Konsepsiyalarning semantikasi boʻyicha ishlar koʻpincha terminologik maʼnoni maʼlum darajadagi mutlaqlashtirishga olib keluvchi real matnlardagi konsepsiyalarni emas, balki tartiblangan terminologiyalarning maʼno tizimini koʻrib chiqishga qaratiladi. "Til va nutqdagi konsepsiyalar", shuningdek "termin va matn" tushunchasini toifasini oʻrganish hali talab darajasidagi anʼanaga aylanmagan»[Tatarinov 1996: 164].

XULOSA

1. Iqtisodiy konsepsiyalarning diskursiv tabiatiga xos jihatlari nutq aktlarida yuzaga keladi. Nutqiy aktlarning asosiy vazifasi bu faktlarni qayd etish hisoblanadi, yaʼni gaplar faktlarning toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligiga asoslanadi.
2. Diskursiv tabiatiga xos jihatlardan biri, aynan, bilvosita nutq aktida yuzaga keladi. Soʻzlovchi va tinglovchi (ikki yoki undan ortiq kishi) oʻrtasida vujudga keluvchi bilvosita nutq akti muloqot muhitiga bogʻliq boʻladi. Shundan kelib chiqib muloqot muhitini ikkiga boʻlish mumkin. Masalan, 1) *rasmiy muloqot muhiti* – bu jarayonda namoyon etiladigan nutq akti jiddiy tusda boʻladi (ofis, konferensiya, ilmiy kengashlar boʻlib oʻtadi), asosan, bevosita nutq aktidan foydalaniladi; 2) *norasmiy muloqot muhiti* – ushbu jarayonda namoyon etiladigan nutq akti mutloqat aksi boʻlib (doʻstona suhbat, koʻngil ochar bazmlarda kechadi), asosan, bilvosita nutq akti qoʻllaniladi va hazil Inson tafakkurining mahsuli hisoblanmish soʻzlarning maʼno koʻchish usullari, yaʼni metafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi usullar hamda mazkur usullari tadqiq etilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida yangi-yangi yoʻnalish va uslublarning yaratilishiga sabab boʻldi. Yaratilgan barcha janrlar asosida nutqiy aktlar mavjud.
3. Tilshunoslikda diskursiv bilvosita nutqiy aktlar orqali maʼno koʻchishi va uslubiy holatlaridan kognitiv metafora natijasida maʼno koʻchishi mutlaqo farq qiladi.
4. Zamonaviy ingliz tilidagi iqtisodiy diskurs tabiatini oʻrganishda ayrim soʻzlar va iboralar salbiy maʼnoga ega ekanligi kuzatiladi. Salbiy maʼnodagi soʻzlardan biri sifatida *moliyaviy inqiroz – financial crisis* terminini kelitiramiz va bu tushuncha nutq aktlarida faol qoʻllaniladi. Bu kabi tushuncha orqali biznes doirasidagi adresat ongida moliyaviy inqiroz koʻplab muammolar mavjud boʻlgan juda qiyin va xavfli vaziyat sifatida qabul qilinadi (*threat - tahdid; trouble - tashvish; danger - xavf-xatar; disaster - falokat; tragedy - fojia; stress - tushkunlik; nightmare - dahshatli tush; worst-case scenario - eng yomon ssenariy; catastrophe - falokat; calamity - musibat; collapse - qulash; chaos- betartiblik*)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс// Лингвистическая энциклопедия. М., 1990. -С. 136- 137.
2. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. - 5-е изд. - М.: Флинта: Наука, 2002.
3. Астафурова Т.Н. Стратегии коммуникативного поведения в профессионально-значимых ситуациях межкультурного общения (лингвистический и дидактический аспекты): автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.19. М., 1997. 41 с.
4. *Беляевская Е.Г.* Компонентный анализ vs концептуальный анализ / Грамматика в когнитивно-дискурсивном аспекте. - М.: Рема, 2008. - С. 142-148. (Вестн. гос. лингвист. ун-та; вып. 554).
5. Богданов В.В. Текст и текстовое общение. М.: 1993. С. 5-6.
6. Дейк ван А.Т. Язык. Познание. Коммуникация / А.Т. ван Дейк. М., Прогресс, 1989.-312 с.
7. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода / В.З. Демьянков // Вопросы языкознания. 1994. № 4. С. 17-33.
8. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Волгоград: Перемена, 2000. С. 5-20.

**IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA MILLIY
MANFAATLARNI TA'MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI
(MDH MAMLAKATLARI MISOLIDA)**

Obidov Hakim Mirg'ozli o'g'li
mustaqil tadqiqotchi
obidov_83@rambler.ru

Аннотация: Maqolada mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida MDH mamlakatlarining milliy manfaatlari hamda ularni ta'minlashning asosiy jihatlari yoritilgan, ushbu yo'nalishdagi muammolar va o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari prognoz qilingan.

Калит сўзлар: integratsiya, milliy manfaat, strategiya, hamkorlik, milliy xavfsizlik, mintaqaviy, MDH.

Аннотация: В статье изучены национальные интересы стран СНГ в процессах региональной экономической интеграции и основные аспекты их обеспечения, имеющейся проблемы в этой сфере и перспективы развития экономического сотрудничества между ними.

Ключевые слова: интеграция, национальный интерес, стратегия, сотрудничество, национальная безопасность, регион, СНГ.

Abstract: The article highlights the national interests of the CIS countries in the process of regional economic integration and the main aspects of their implementation, the problems in this area and the prospects for the development of mutual economic cooperation.

Keywords: integration, national interest, strategy, cooperation, national security, regional, CIS.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mamlakatlar o'rtasida barcha sohalarda aloqalarning mustahkamlanishiga olib kelmoqda. Mavjud resurslardan samarali foydalanish va umumiy tahdidlarga qarshi turish uchun ma'lum mintaqalarda turli darajadagi integratsiya jarayonlari faollashganini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham so'nggi yillarda mamlakatimizda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishga e'tibor berilmoqda

Dunyoda davom etayotgan iqtisodiy integratsiya jarayonlarida mamlakatlarning ishtiroki to'g'risida qarorlar birinchi navbatda, ularning milliy manfaatlariga asoslanadi. Ushbu sharoitda, MDH makonidagi integratsiya jarayonlariga

mamlakatlar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash niqtai nazaridan, qanday munosabatda ekanligini aniqlash muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Integratsiya jarayonlarini iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri muammolarini M.Baydurin [1] o'z ilmiy ishlarida tahlil qilgan. U globallashuv sharoitida integratsiya jarayonlarining nazariy metodologik asoslarini o'rganish, ushbu jarayonlarda mamlakatlar milliy manfaatlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratgan hamda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) misolida integratsiya jarayonlarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini o'rgangan. MDH makonidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari va uni mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri masalalari bo'yicha, Buzrukova G.D. [2], Bolgova I., Nikitina Yu. [3], Sultanova B. [4] kabi tadqiqotchilar ham o'z ilmiy qarashlarini bayon etishgan. Ular ilmiy izlanishlarida integratsiyaning mamlakat suverenitetiga ta'siri masalasiga alohida e'tibor qaratishgan.

Bundan tashqari, tadqiqotda MDH mamlakatlarining milliy xavfsizlik konsepsiyalari va strategiyalari o'rganib chiqilgan.

Tadqiqotning uslubiy asosi sifatida tizimli yondashuv olingan bo'lib, shu bilan birga tadqiqotda qiyosiy tahlil, hujjatlar tahlili metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

O'zbekistonning iqtisodiy integratsiya jarayonlarida milliy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun birinchi navbatda, ushbu yo'nalishda xorij tajribasini o'rganish lozim.

Bu borada MDH mamlakatlari tomonidan integratsiya jarayonlari bo'yicha yondashuvlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Xususan, Ozarbayjon "Milliy xavfsizlik to'g'risidagi" qonunida mamlakat milliy manfaatlaridan biri sifatida Yevropa hamjamiyati bilan o'zaro teng huquqli hamkorlikni va integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan. [5]

Shu o'rinda, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi energiya resurslarini ishlab chiqarish va ularni tashish hamda transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni tadbiiq etish orqali amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu borada avtomobil, temir yo'l, suv va havo transportini takomillashtirish bo'yicha yagona harakatlar dasturi ishlab chiqilgan. Bunda "Yevropa-Kavkaz-Osiyo" va "Janub-Shimol" xalqaro transport korridorlarida respublika raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yuk tashish harajatlarini kamaytirish, eksport-import va tranzit

operatsiyalari bo'yicha tartib-qoidalarini soddalashtirish, ular uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ozarbayjon Respublikasi "Milliy xavfsizlik kontsepsiyasida" mamlakatning strategik maqsadi Yevropa va Yevroatlantika siyosiy va iqtisodiy tuzilmalariga integratsiyalashuv ekanligi bayon etilgan. [6]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Ozarbayjonning milliy manfaatlari sifatida mamlakatning geografik joylashuvi, tabiiy va iqtisodiy potentsialidan samarali foydalangan holda jahon iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, Yevropa mamlakatlari integratsiyaviy tuzilmalariga qo'shilish belgilangan.

Armaniston "Milliy xavfsizlik strategiyasida" [7] mamlakatning eng muhim milliy manfaatlari sifatida mustaqillik, milliy suverenitet va hududiy yaxlitlikni ta'minlash, tinchlik va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlash g'oyalariga amal qilish, iqtisodiyotni barqaror o'sishi va aholi hayot darajasini oshirish ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu milliy manfaatlarni iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ta'minlashda Armaniston Rossiya bilan strategik ittifoqchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish ustuvor ahamiyatga egaligi belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YeOII) integratsiyasi muhimligi ta'kidlanadi.

Belarus Respublikasining "2030 yilgacha barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi"ga [8] ko'ra, tashqi iqtisodiy sohadagi bosh maqsad jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, ijobiy tashqi savdo saldosini va eksporti hajmini oshirish hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi eng muhim masala YeOII doirasida hamkorlikni kuchaytirish, xususan, tovar va xizmatlarni erkin harakatlanishini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish, umumiy moliya bozorini shakllantirish, qo'shni mamlakatlar bilan chegaraoldi savdosini rivojlantirish, sayyohlik oqimini ko'paytirish hamda iqtisodiy infratuzilmani modernizatsiya qilish hisoblanadi.

Bu borada YeOIIga a'zo mamlakatlar, Xitoy va boshqa xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda innovatsion sanoat klasterlari, sanoat zonalari va ishlab chiqarish kooperatsiyalarini, Iqtisodiy Ittifoq bozorlariga mo'ljallangan import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashga (birinchi navbatda, mikroelektronika va farmatsevtika sohasida) korxonalarini tuzishga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, YeOII doirasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga qaratilgan

transmilliy kompaniyalar yaratish, tashkilotga a'zo davlatlar bilan birgalikda qishloq xo'jaligi sohasiga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, yer unumdorligini oshirish, epizootik chora-tadbirlarni hamkorlikda olib borish, naslchilik va urug'chilik yo'nalishida zamonaviy yondashuvlarni tadbiq qilish kabi vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga, Belarus Respublikasining "Milliy xavfsizlik kontseptsiyasida" [9] mamlakatning iqtisodiy sohadagi manfaatlari sifatida ko'pvektorli tashqi iqtisodiy siyosatni yuritish, eksportning tovar nomenklaturasi va geografiyasini kengaytirish, xom ashyo va energetika resurlar importini diversifikatsiya qilish ko'rsatib o'tilgan.

Moldova Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan davrda milliy rivojlanish strategiyasida, mamlakatni modernizatsiya qilish birinchi navbatda Yevropa davlatlari bilan integratsiyani chuqurlashtirishga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. [10] Bu borada asosiy e'tibor Moldova va Yevropa Ittifoqi o'rtasida "Assotsiatsiyalashuv to'g'risidagi" kelishuvda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni tadbiq etishga qaratiladi.

Hujjatda Rossiyaga Moldovadan ishchi kuchining migratsiyasi o'rta va uzoq muddatli davrda mamlakat milliy manfaatlariga tahdid tug'dirishi, xususan, demografik vaziyatni yomonlashuviga olib kelishi ko'rsatib o'tilgan. Shu sababli, asosiy e'tibor mamlakatda ish o'rinlarini yaratish hamda ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratiladi.

Qozog'iston Respublikasi "Milliy xavfsizlik to'g'risidagi" [11] qonunida mamlakat iqtisodiy xavfsizlinini ta'minlashda mamlakatning jahon iqtisodiy tizimidan ajralib qolishiga yo'l qo'ymaslik, integratsiyaviy tuzilmalar doirasida tuzilgan davlatdan yuqori turuvchi organlar faoliyatida respublika mustaqilligini ta'minlash hamda milliy manfaatlariga muvofiq keluvchi qarorlarni ishlab chiqish, mamlakat iqtisodiyotiga geosiyosiy omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Shu o'rinda, Qozog'iston hukumatining yondashuviga ko'ra, Markaziy Osiyo miqiyosida barqarorlikni saqlashning eng maqbul yo'li mintaqa doirasida integratsiyani kuchaytirish hisoblanadi. [12] Bu o'z navbatida, mintaqadagi suv-energetika va boshqa sohalardagi ziddiyatlarni hal qilish imkonini beradi.

Respublikaning uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish dasturlarida, mamlakatda xorijiy investorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishi, 2050 yilga kelib respublika Yevrosiyo mintaqasida investitsiyalar va texnologiyalar transferti uchun eng jozibador davlatga aylanishi lozimligi prognoz qilingan.

Qozog'iston global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarini faollashishi sharoitida iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat qaratadi. Buning uchun nafaqt mamlakat hududida, balki chet ellarda ham ishlab chiqarish va transport-logistika ob'ektlari tashkil etish, ular orqali dunyo tranzit nuqtalari bilan bog'lanish imkoniyatlari o'rganilmoqda hamda ushbu yo'nalishda tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qirg'iz Respublikasi "Milliy xavfsizlik kontsepsiyasida" [13] mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi muhim o'rin egallashi belgilab berilgan. Hujjatda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi muammoli masalalarning (chegaralarning aniq belgilanmaganligi, suv resurslaridan samarali foydalanish va boshqalar) mavjudligi mintaqadagi integratsiyaviy jarayonlarga to'sqinlik qilayotgani ko'rsatib o'tilgan.

Bu borada transport va energetika imkoniyatlaridan samarali foydalanish milliy manfaatlarga muvofiq kelishi bayon etilgan. Xususan, "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temir yo'li mamlakat eksport salohiyatini oshirishga, uning tranzit imkoniyatlaridan samarali foydalanishga sharoit yaratadi. Mamlakatda qazib olinadigan ko'mir va gidroelektrostantsiyalarda ishlab chiqariladigan energoquvvatlar mintaqaning ushbu yo'nalishdagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi bilan birga, mamlakatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini faollashtirishning muhim omili bo'lishi mumkin.

Qirg'iziston "Tashqi siyosiy kontsepsiyasida" [14] respublika barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasi o'sishini ta'minlash uchun mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida qatnashishi strategik maqsad sifatida belgilab qo'yilgan.

Bu borada asosiy e'tibor, xorijiy investitsiyalar asosida mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, tashqi savdoni erkinlashtirish, Butunjahon savdo tashkiloti va YeOIIga a'zosi hamda Yevropa Ittifoqi doirasida "Umumiy preferentsiyalar tizimi" foydalanuvchisi sifatida milliy mahsulotlarini halqaro bozorlarga erkin chiqarish, mintaqaviy va xalqaro transport-kommunikatsiya tarmoqlariga qo'shilish, mamlakatning sayyohlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga qaratilmoqda.

Qirg'iziston hukumati Markaziy Osiyo mintaqasida insonlar, tovar va xizmatlar hamda kapitalning erkin harakatlanishini ta'minlovchi har tomonlama manfaatli integratsiyaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi.

Qirg'iz Respublikasining 2040 yilgacha rivojlanish strategiyasida [15] YeOII doirasida yoqilg'i-energetika resurslarining umumiy bozorini shakllantirish, ishlab chiqarish va tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish omillarini to'siqliklarsiz harakatini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Tojikiston milliy xavfsizligini ta'minlashda mamlakat iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash hamda respublika iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimidan yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik alohida ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tilgan. [16]

Tojikiston Respublikasining 2030 yilgacha mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida quyidagi strategik maqsadlar belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirish mamlakatning mintaq va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashganlik darajasiga bevosita bog'liq: [17]

a) energetika xavfsizligini ta'minlash va elektroenergiyadan samarali foydalanish;

b) kommunikatsion tupikdan chiqish va mamlakatni tranzit davlatga aylantirish;

v) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;

g) samarali mehnat bilan bandlikni ta'minlash.

Tojikiston hukumati integratsiyaviy tuzilmalarda ishtirokini faollashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda yuqoridagi maqsadlarga erishish imkoniyatining mavjudligi asosiy belgilovchi omil bo'ladi.

Shu bilan birga, Strategiyada mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning faollashuvi hamda halqaro tranzit infratuzilmasining rivojlanishi Tojikiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligining ortishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri MDH mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish hamda ushbu makondagi integratsiyaviy tuzilmalar salohiyatini oshirish va faollashtirish hisoblanadi. [18]

MUHOKAMA

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, MDH makonidagi integratsiya jarayonlarining tashabbuskorlari bo'lib xususiy va davlatga qarashli Rossiya kompaniyalari hisoblanadi. Bunda ular MDH makonida amal qilayotgan erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi va umumiy iqtisodiy makon imkoniyatlaridan foydalanishmoqda. Shu o'rinda, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishdagi eng asosiy muammo xo'jalik sub'ektlari va davlatlarining manfaatlarining bir-biriga mos kelmasligi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida, MDH makonidagi mamlakatlar iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi milliy manfaatlarini bir biridan farq qilishi, mintaqada davlatlari o'rtasida kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha qarashlarning xilma-xilligi, hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "umumiy o'sish nuqtasi"ni belgilashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bundan tashqari, integratsiyaviy tuzilma doirasida o'z suverenitetini cheklash va mustaqillikni saqlab qolish o'rtasidagi muvozanatni topish masalasi mintaqada mamlakatlari o'rtasida integratsiyalashuv jarayonlari faolligiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlari o'rtasidagi energetika va transport-kommunikatsiyalar sohasidagi mushtarak infratuzilmaning mavjudligi ular o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga olib kelishi mumkin.

XULOSA

MDH makonidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari bir qator qo'llab-quvvatlovchi va qarshilik ko'rsatuvchi omillar ta'siri ostida kechmoqda. Mintaqada mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi eng avvalo ushbu davlatlar milliy manfaatlaridagi o'zaro uyg'un nuqtalarni aniqlash va o'zaro munosabatlarni yangi darajaga olib chiqishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Байдулин М.С. Обеспечения экономической безопасности ЕАЭС на основе развития экономической интеграции стран СНГ. //Диссертация на соискания ученой степени доктора экономических наук. Москва 2017. http://vseup.ru/static/files/Bajdurin_M._Obespechenie_ekonomicheskoy_bezopasnosti_EAES.pdf
2. Бузрукова Г.Д. Влияние интеграции на экономическую безопасность Российской Федерации. –М.: 2010.
3. Болгова И., Никитина Ю. Евразийский экономический союз между интеграцией и суверенитетом. //Журнал Современная Европа, 2019, №5, -С 13-22.
4. Султанова Б.К. Формирование ЕЭП: состояние, проблемы, перспективы. - Алматы: КИСИ при Президенте РК, 2012, -200 с.
5. Закон Азербайджанской Республики «О национальной безопасности» от 29 июня 2004 года. https://republic.preslib.az/ru_d4-74.html
6. Концепция национальной безопасности Азербайджанской Республики от 23 мая 2007 года. <http://eurasian-defence.ru/?q=node/30535>
7. Стратегия национальной безопасности Республики Армения от 2020 года. <https://www.gov.am/ru/National-Security-Strategy/>

8. Национальная Стратегия устойчивого социально-экономического развития Республики Беларусь на период до 2030 года. <https://www.economy.gov.by/uploads/files/NSUR2030/Natsionalnaja-strategija-ustojchivogo-sotsialno-ekonomicheskogo-razvitija-Respubliki-Belarus-na-period-do-2030-goda.pdf>

9. Концепция национальной безопасности Республики Беларусь от 9 ноября 2010 года. <http://house.gov.by/ru/official-documents-ru>

10. Закон об утверждении Национальной стратегии развития «Молдова - 2030» от 26.11.2018 г. <https://particip.gov.md/ru/strategy/strategia-nationala-de-dezvoltare-moldova-2030/4>

11. Закон Республики Казахстан “О национальной безопасности” от 6 января 2012 года. https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31106860

12. Послание президента Республики Казахстан - лидера нации Н.Назарбаева народу Казахстана. Стратегия «Казахстан-2050» от 2012 года. <https://afmrk.gov.kz/ru/activity/strategy-and-program/strategy-kazakhstan-2050/>

13. Концепция национальной безопасности Кыргызской Республики от 2012 года. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/61358?cl=ru-ru>

14. Концепция внешней политики Кыргызской Республики от 2019 года. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/430045>

15. Национальная стратегия развития Кыргызской Республики на 2018-2040 годы” от 2018 года. <https://mfa.gov.kg/ru/osnovnoe-menyu/vneshnyaya-politika/gosudarstvennyye-programmy/nacionalnaya-strategiya-razvitiya-kyrgyzskoy-respubliki-na-2018-2040-gody>

16. Закон Республики Таджикистан “О безопасности” от 15.03.2016 г. http://www.vertic.org/media/National%20Legislation/Tajikistan/TJ_Law_on_Security_2011_as%20of%202016.pdf

17. “Национальная стратегия развития Республики Таджикистан на период до 2030 года” от 2016 года. [http://ef-ca.tj/publications/02.2_rus\(FILEminimizer\).pdf](http://ef-ca.tj/publications/02.2_rus(FILEminimizer).pdf)

18. “Стратегия национальной безопасности Российской Федерации” от 2015 года. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_191669/61a97f7ab0f2f3757fe034d11011c763bc2e593f/

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA ISLOM BANK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Almuradov Oybek Abdullayevich

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada islom bank mahsulotlari va xizmat turlarining ana'naviy bank xizmat turlaridan farqlari, shuningdek, afzalliklari va tobora ungan bo'lgan qiziqishlarning asosiy sabablari to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekistonda islom bank xizmatlari bozorini rivojlantirish borasidagi ilk qadamlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: islom banki, islom moliyasi, mudoraba, mushoraka, ana'anaviy kreditlash, islom oynasi, sokuk, ijara, salam

Аннотация. Этой научной статье рассматриваются отличия продуктов и услуг исламского банкинга от традиционных банковских услуг, а также их преимущества и основные причины растущего интереса. В нем также представлена информация о первых шагах в развитии рынка исламского банкинга в Узбекистане.

Ключевые слова: исламский банкинг, исламские финансы, мудараба, мушарака, традиционное кредитование, исламские окна, сукук, рента, салам

Annotation. This research article examines the differences between Islamic banking products and services from traditional banking services, as well as their benefits and the main reasons for the growing interest. It also provides information on the first steps in the development of the Islamic banking market in Uzbekistan.

Key words: islamic banking, islamic finance, mudaraba, musharaka, traditional lending, islamic windows, sukuk, rent, salam

KIRISH

Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramay, O'zbekistonda shu vaqtgacha Islomiy moliya sohasi Markaziy Osiyodagi qo'shni mamlakatlarga qaraganda deyarli rivojlanmagan, vaholanki ushbu sohaning rivojlanishida mamlakat juda katta salohiyatga ega. Buni yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Islom Taraqqiyot Banki Guruhi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki va b.) ekspertlari tomonidan e'tirof etgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham 2020 yil 29 dekbrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga

Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi” deb, ta’kidlagan edilar [1].

Bank-moliya tizimidagi xalqaro tanazzul oqibatida va moliya bozori infratuzilmasining tubdan takomillashtirishga bo’lgan extiyoj samarasi o’laroq, investitsiyaviy moliyalash hamjamiyatining moliyalashtirishning islomiy shakliga bo’lgan e’tibori sezilarli darajada ortdi.

Zamonaviy sharoitda global miqyosda islomiy moliyalashtirish segmenti eng tez rivojlanayotgan yo’nalishlardan biri hisoblanadi: «banklarning spekulyativ faoliyati tanazzuli vaqtida islomiy institutlari foydasi yiliga 15-20 foizga, aktivlari esa 20 foizdan ziyod o’sib bormoqda va 2020 yil uchun Islom dunyosining global bank aktivlarining yillik aylanmasi 1300 milliard dollardan ortiqroqqa baholanmoqda [2].

Islomiy bank ishining etarlicha intensiv rivojlanishiga talabning ortishi va musulmon davlatlari tomonidan moliyaviy resurslarning sezilarli darajada to’planishi sabab bo’ladi. Arab davlatlarining moliya bozorlari faol rivojlanib borayotgani va g’arbiy kompaniyalar o’rtasida xorijiy investorlarni jalb qilish uchun raqobat mavjudligini hisobga olsak, islomiy banklarning o’sish tendentsiyasi davom etishini ta’kidlash mumkin. Bu islomiy banklar faoliyatini yanada kengroq tahlil qilish, shuningdek ularning moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur shartlarni belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu doirasida olib borilgan tadqiqot natijasida olimlarning islomiy bank to’g’risida berilgan ta’riflarini tahlil qilib, islomiy bank xizmatlari va islom banki bo’yicha qo’yidagicha ta’rifni tuzish mumkin.

Islomiy bank xizmatlari – tijorat banklari qoshida alohida bo’lim yoki filial ko’rinishida tashkil qilingan bo’lib, jismoniy va yuridik shaxslarga islom shariati asosida ko’rsatiladigan bank xizmatlari majmuidir.

Islomiy bank –“Islom shariati asosida bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to’lovlarni amalga oshirish, omonatlarga pul mablag’larini jalb etish, jismoniy va yuridik shaxslarni moliyalashtirish hamda boshqa bank xizmatlarini amalga oshiruvchi tijorat tashkilotidir”. Shariat (Islom dini qonunlari majmuasi) ushbu operatsiyalarning qonuniy bo’lishini talab qiladi. Ya’ni, shariat tomonidan ruxsat beriladigan jamiyat uchun xavfsiz bo’lgan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtiradi va har qanday operatsiyalar bo’yicha foizlarni to’lash yoki olishni taqiqlaydi (Bashir, Xassan, 2004).

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini o'rganib ,xulosa qiladigan bo'lsak, islomiy bank shariat tamoyillari asosida mijozlarga xizmat ko'rsatadigan tijorat tashkilotidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarida islom bank darchalarini tashkil etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turli so'rovnomalar va tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, ko'pchilik islomiy va an'anaviy banklar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar va bank xizmatlar o'rtasidagi tafovutni to'liq talqin qilib berolmaydi. Ayrimlar islom banklari tomonidan taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar hozirgi kunda mavjud an'anaviy bank mahsulot va xizmatlarining shunchaki nomini o'zgartirilgan shakli ekanligini ta'kidlasalar, boshqalari islom banklari an'anaviy banklar tomonidan belgilangan "foiz"ni "daromad" deb nomlashadi va shunchaki, mijozlarni o'ziga jalb qilish uchun arabcha atamalar bilan nomlanganligini iddao qilishadi. Islom banklari faoliyatining qanday tashkil etilganligi va qanday asoslarga muvofiq olib borilishi bilan yaqindan tanishib chiqmay turib, bu kabi fikrlarni bildirish juda katta xatolik sanaladi. Chunki bunday xulosa va fikrlar islom bank xizmatlari bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Albatta, islom bank xizmatlari va mahsulotlari bozori rivoji jarayonida turli muammolarga duch kelayotganligi ham ayni haqiqat. Chunki bu soha hali to'liq o'rganib bo'lingani yo'q. Ushbu jarayon davomida xatolar yuz berishini inkor etib bo'lmaydi.

Jamiyat, an'anaviy bank tizimida amal qiluvchi mijoz/omonatchi – bank, qarz oluvchi – bank kabi, asosan bank manfaatini ko'zlovchi moliyaviy munosabatlar, hamda islom bankchiligidagi ikki tomonning (ya'ni mijoz va bankning) birgalikdagi manfaatini inobatga oluvchi "mushoraka" (loyihalarni sarmoyaviy sherikchilik asosida moliyalashtirish), "murobaha" (oldi-sotdi shartnomasi orqali moliyalashtirish), "mudoraba" (loyihalarni ishonch asosidagi hamkorlik doirasida moliyalashtirish) "ijara" (ijara/lizing shartnomasi asosida moliyalashtirish), "istisna" (ishlab chiqarish sohasi loyihalarini moliyalashtirishga asoslangan shartnoma), "salam" (asosan qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan, oldindan moliyalashtirishni ko'zda tutuvchi shartnoma), "sukuk" (qimmatli qog'ozlar yordamida moliyalashtirish) kabi iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik munosabatlari o'rtasidagi farqni

anglashi va ikki tomon uchun ham birdek manfaatli bo'lgan bunday tizim, zamonaviy bank-moliya sohasini rivojlanishiga ham yordam berishi mukinligiga ishonch hosil qilishi kerak [2].

Islom banklari o'z mijozlari bilan hamkorlik qilish orqali ular bilan tadbirkorlikning har qanday turiga xos bo'lgan xatarlarni bo'lishishini, xatarlarni bo'lishish darajasi esa loyihalashtirilayotgan tadbirkorlik loyihasi, hamda moliyalashtirish uchun qo'llanilayotgan mahsulot turiga bog'liq bo'lishini tushunib yetish, jamiyat a'zolariga bu tizim imkoniyatlaridan to'la ravishda bahramand bo'lish imkonini beradi, hamda islom bankchiligining yanada rivojlanishini ta'minlaydi [3].

Islom banki duch keladigan xatarlar. Islom banki tomonlarning mavqe va rollariga qarab turli bosqichlarda turlicha xatar va tavakkalchilikka boradi. Tabiiyki, zamonaviy islom banklari xatar va tavakkalchilik darajasini kamaytirishning samarali vositalarini ishlab chiqishgan, hatto ayrim hollarda ular islom moliyasining asl mohiyatiga xos bo'lgan xatarlarni bo'lish/taqsimlash tamoyillariga muvofiq bo'lmaganligi tufayli islom bank-moliya sohasiga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi.

Shunday bo'lsa ham, har bir islom moliya mahsuloti bank tomonidan qabul qilinadigan turli tuman xatar va tavakkalchiliklarni namoyish etadi (bu esa, asosan kredit qaytmasligi xatari muammosiga ega an'anaviy banklardan farq qiladi). Masalan, agar islom banki mushoraka shartnomasi doirasida aksiyadorlik jamiyatiga kirsam, hamkorlik davom etguniga qadar zarar ko'rish xatariga ega bo'ladi. Murobaha bitimida bank mulkka (aktiv) egalik qilish davri mobaynida (ya'ni shu mulk sotilguncha) shu mulkni yo'qotish xatariga ega bo'ladi. Ijara shartnomalarida esa bank mulkka egalik huquqi mijozga o'tguniga qadar xatarga ega bo'ladi. Shu tariqa, islom bankchiligi tavakkalchilikning foydaga bo'lgan nisbati iqtisodiy jihatdan oqilona ekanligini namoyish etadi. Bunday bank tizimi mijozlarning ham, keng jamoatchilikning ham ehtiyojlarini qondiradi va boyliklarning adolatli taqsimlanishiga imkoniyat yaratadi [4].

O'zbekistonda islom bank xizmatlari bozori faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilk qadamlar

Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramay, O'zbekistonda shu vaqtgacha Islomiy moliya sohasi Markaziy Osiyodagi qo'shni mamlakatlarga qaraganda deyarli rivojlanmagan, vaholanki ushbu sohaning rivojlanishida mamlakat juda katta salohiyatga ega. Buni yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Islom Taraqqiyot Banki Guruhi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki va b.) ekspertlari tomonidan e'tirof etgan. Shu bilan birga, so'nggi

yillarda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ushbu yo'nalishda ba'zi bir ishlar amalga oshirildi.

Jumladan: Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) va uning guruhi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, xususan Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish Islom Korporatsiyasi (ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi (ITFC) va Islom tadqiqotlar va treninglar instituti (IRTI) mamlakatda islom moliyasi rivojlanishida o'z hissalarini qo'shgan holda, hozirgi kunga qadar 2 milliard AQSh dollaridan ziyod mablag'ni Islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish maqsadlariga yo'naltirgan.

Bundan tashkari, O'zbekistondagi bir nechta oliy o'quv yurtlari o'z ta'lim dasturlarini Islom moliyasiga doir fanlarni hisobga olgan holda tayyorlay boshladi. Shuningdek, joriy qonunchilikdan kelib chiqqan holda biznes vakillari ham islom moliya xizmatlarini taklif kilishni boshlab yubordi.

O'zbekistonda qator islomiy lizing kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Jumladan, 2019 yilda mamlakatda birinchi «O'zaro» islomiy sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini boshladi. O'zbekistondagina emas, balki MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lgan elektron-Murabaxa (Murabaxa savdo bitimi asosidagi moliyaviy mahsulot) platformasi ishlab chiqildi. IsBF (Islamic Business and Finance) nomli birinchi Islom moliya masalalari bilan shug'ullanuvchi kompaniya (asosiy faoliyati ushbu sohada konsalting xizmatlari ko'rsatish) tashkil etildi, islom moliyasi sohasida aholi savodxonligini oshirish maqsadida «Islom moliyasi» Telegram sahifasi va veb sayti ishga tushirildi. Taiba Lizing va Al-Mulk Kapital kabi lizing kompaniyalari esa kichik va o'rta biznes vakillariga Islom tamoyillari asosidagi ijara mahsulotlari taqdim qilishni davom ettirmokda.

Shuningdek, ta'lim sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda Islom moliyasi bo'yicha bir qancha treninglar o'tkazildi, o'zbek tilida Islom moliyasiga oid kitoblar nashr etildi.

Malayziyalik professor Sudin Horunning «Islomiy moliyalar va bank tizimi: Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti», qozog'istonlik iqtisodchi Yerlan Baydauletning «Islomiy moliya asoslari» va rossiyalik Rinat Bekkinning «Islom iqtisodiy modeli va zamon» kitoblari shular jumlasidandir.

Shuningdek, mamlakatda islom moliya xizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligini inobatga olgan holda ICDning Maslahat guruhi hozirgi kunda O'zbekistonning 6 ta tijorat banki, jumladan, Kapitalbank, Trastbank, Aziya Alyans bank, Agrobank, Qishloq Qurilish bank va Ipak Yo'li banklarida Islom darchalari (Islomiy moliya xizmatlari ko'rsatuvchi shoxobcha) ochish bo'yicha ish olib

bormoqda. Ushbu darchalar 2021 yilning boshida ishga tushishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Aloqabank, Xalq banki, Universal bank va Davr banklarda ham islom darchalari ochilishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, islomiy moliyaviy xizmatlar sohasi O'zbekistonning porloq kelajagi uchun muhim omil, poydevor va rivojlanish istiqboli bo'ladi, natijada o'z madaniyatida Islomning chuqur ildizlarini aks ettirgan mamlakatga xorijiy investorlarning qiziqishi ortadi va hukumat ushbu imkoniyatdan xalq farovonligi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishida to'laqonli foydalanishga erishishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonda islom moliya xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishiga ishonamiz:

- xorijdan kelayotgan investisiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;
- bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish;
- aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash;
- mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash;
- ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozorida faolligini ko'tarish;
- Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;
- yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish;
- kambag'allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish;
- yangi yo'nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, www.president.uz
2. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.

3. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориентированная на реализацию долевого финансирования // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16.

4. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.

KIBERXAVFSIZLIK – RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Akbarova Muattar Raxmatullayevna

*Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar institute, 1-kusr doktoranti*

E-mail: mm.akbarova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblangan kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Maqolada kiberxavfsizlik bo'yicha o'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek mamlakatimizning kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reytingdagi o'rni va 2018-2019 yillarda internet milliy segmentida ro'y bergan intsidentlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, internet milliy segmenti, intsident, tahdid, elektron xukumat, axborot tizimlari va resurslari

Abstract. This article devoted to cybersecurity, which is one of the key development of the digital economy. The article considered events spending in Uzbekistan on cybersecurity. The role of our country in the international global cybersecurity ranking and incidents that occurred in the national segment of the Internet in 2018-2019 are also analyzed.

Key words: digital data, information security, national segment of the Internet, incident, threat, e-government, information systems and resources.

Аннотация. Эта статья посвящена кибербезопасности, которая является одним из ключевых факторов развития цифровой экономики. В статье рассматривается мероприятия, проводимая в узбекистане по кибербезопасности. Также анализируется роль нашей страны в международном глобальном рейтинге кибербезопасности и инциденты, произошедшие в национальном сегменте интернета в 2018-2019 гг.

Ключевые слова: цифровые данные, информационная безопасность, национальный сегмент Интернета, инцидент, угроза, электронное правительство, информационные системы и ресурсы.

KIRISH

Ma'lumki davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qildi. 2020 yil 2 martda esa Prezidentimizning "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni bilan "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturi beshta asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lib, dasturning beshinchi yo'nalishida 2020-2023 yillarga mo'ljallangan Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya hamda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilanib qo'yilgan.[1]

Prezidentimizning 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni Hukumatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga va hayotga tatbiq etilishiga asos bo'ldi.

Raqamli ma'lumotlarni boshqarishda axborot xavfsizligini ta'minlash muhim omil sanaladi. Bunda asosiy e'tibor raqamli ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, ularni axborot vositachilaridan himoya qilgan holda xavfsizligini ta'minlash va axborotlar uzatishning soddaligini ta'minlashga qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi va "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, prezidentimizning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida keltirilgan ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qildi.

Maqoladagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti (www.itu.int) va "Kiberxavfsizlik markazi" DUK(Davlat unitar korxonasi) ma'lumotlaridan foydalanildi.

Maqoladagi ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning barcha sohalarida avtomatlashtirish axborot tizimlaridan foydalanilganda, axborot xavfsizligi masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Qachonki ko'plab ma'lumotlar raqamli formatga o'tkazilsa, elektron ko'rinishda saqlansa, shundagina axborot va kiberxavfsizlik masalasi dolzarblik kasb etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan axborot xavfsizligini ta'minlash sohasi mutaxassislariga shunday talab qo'yilganki, ular bu borada ro'y bergan noxush hodisalarni o'rganishlari va bartaraf etishlari emas, balki bunday holatni oldindan ko'ra bilishlari, ya'ni oldini olishga xarakat qilishlari kerak.

Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik tushunchalari doimo yonma-yon keladi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birga, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalik e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, kiberxavfsizlikni ta'minlashga ham shuncha ahamiyat berilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida har yili Halqaro elektroaloqa ittifoqi tomonidan e'lon qilinadigan kiberxavfsizlik bo'yicha mamlakatimizning halqaro global reytingda yuqori o'rinlardan joy olishini ko'rsatish mumkin.

Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reyting ABI Research va HEI(Halqaro elektroaloqa ittifoqi)ning qo'shma loyihasi bo'lib, indeks davlatlarning kiberxavfsizlik sohasidagi ishtiroki darajasini baholash imkonini beradi. Bunda majburiyatlar darajasi besh sohada baholanadi: huquqiy choralar, texnik choralar, tashkiliy choralar, salohiyatning rivoji va xalqaro hamkorlik.

Kiberxavfsizlik bo'yicha global reytinglarda 2019 yil sarhisobiga ko'ra O'zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksi (National Cyber Security Index) da 90 o'rinda, Global kiberxavfsizlik indeksi (Global Cybersecurity Index) da 52 o'rinda, AKT rivojlanganlik indeksi (ICT Development Index) da 95 o'rinni egallab kelmoqda. [6]


O'zbekiston kiberxavfsizlik global indeksida o'zi pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. 2017 yilda mamlakatimiz bu reytingda 93-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 52-o'ringa ko'tarildi.

Kiberxavfsizlik keng ma'noda axborot texnologiyalari, ya'ni qurilmalar, dasturlar, axborot tizimlari va ma'lumotlar himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Ya'ni ma'lumotlar konfidentsialligini saqlash, ularning butunligini himoyalash, dastur va axborot tizimlarini buzilishlarsiz to'laqonli ishlashi demakdir. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi" davlat muassasasi nomi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi

“O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1989-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 250-son qaroriga muvofiq faoliyat yuritadigan davlat muassasasi shaklidagi notijorat tashkiloti sifatida Kiberxavfsizligi markazi o‘z faoliyatini boshlagan.


Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3245-son qarorini bajarish yuzasidan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va jamoat xavfsizligi, shuningdek huquq-tartibotni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, “Xavfsiz shahar” yagona apparat-dasturiy kompleksini yaratish loyihasining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta‘minlashga ko‘maklashish markazi etib qayta tashkil etildi.



1-rasm. Internet tarmog‘i milliy segmentida kiberxavfsizlik intsidentlari


“Kiberxavfsizlik markazi” DUK(Davlat unitar korxonasi) tahlillariga ko’ra, 2019 yilda internetning milliy segmenti veb-saytlarida 268 ta kiberxavfsizlik intsidenti aniqlangan. Bu raqamli olamdagi huquqbuzarliklar soni oldingi yilga qaraganda 44 foizga kamaygan deganidir. Shulardan 222 tasi kontentni ruxsatsiz yuklash, 45 tasi defeys (vab-sayt sahifasi boshqa, masalan, reklama joylashtirilgan sahifaga almashtirilishini anglatuvchi xakerlik hujumi) va bittasi yashirin mayning (kriptoalyuta platformasidagi yashirin faoliyat) ulushiga to’g’ri keladi.[5](1-rasm)

2018 yil bilan solishtirganda, internet milliy segmentida ruy bergan intsidentlar soni 2019 yilda ancha kamaygan, bu esa kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirilgan ishlar ijobiy samara berganligini ko’rsatadi. [5] (2-rasm) Intsidentlarning 69 foizi O’zbekistondagi xosting-provayderlarida joylashgan veb-saytlarda aniqlangan, qolgan 31 foizi xorijiy davlatlardagi xosting-provayderlaridagi saytlarga tegishli. 80 ta holatga nisbatan tekshirish ishlari olib borilib, aniqlangan zaifliklarni bartaraf etish bo’yicha amaliy tavsiyalar berilgan, qolgan 188 ta holat veb-sayt egalari tomonidan mustaqil ravishda bartaraf etilgan. Kibermakonda xavfsizlik bilan bog’liq muammolarning yuzaga kelishiga kodida xavfsizlik xatolari mavjud bo’lgan kontentni boshqarish, dasturiy vositalarning eskirgan versiyalari bilan ishlash, kirish parollarining osonligi, xavfsiz bo’lmagan manbalardan yuklab olingan shablonlar, viruslar bilan zararlangan kompyuterlarda veb-saytlarni boshqarish kabilar sabab bo’ladi. [5]



2-rasm. 2018 va 2019 yillarda internet milliy segmentida ro'y bergan insidentlar[5]

Internetning milliy segmentini monitoring qilish natijasida 130 mingdan ziyod kiberxavfsizlikka tahdidlar aniqlangan. Shundan 106 508 ta holat botnet tarmoqlari ishtirokchilariga aylangan xostlarga tegishli. 13 882 ta holat spam-elektron pochta yoki parolni buzishi sababli turli xizmatlar tomonidan qora ro'yxatga olingan IP-manzillarni blokirovka qilish bilan bog'liq. 8 457 ta holat TFTP (Trivial File Transfer Protocol – fayl uzatishning oddiy shakli) protokoli va tegishli portlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ular autentifikatsiya mexanizmlari yo'qligi sababli begona kontentni yuklab olishga olib kelishi mumkin. 2 114 ta holat RDP (Remote Desktop Protocol-masofaviy ish stoli protokoli) zaif protokoli ishlatilishi bilan bog'liq. 1 042 ta holat dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida autentifikatsiya mexanizmiga ega bo'lmagani, shuningdek muddati tugagan yoki yaroqsiz imzoga ega SSL-sertifikatlar bilan bog'liq.(3-rasm)



3-rasm. Milliy segmentda giperxavfsizlik taxdidlari

Bu tahlillar kiberxavfsizlik masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi, boisi dasturiy zaifliklar buzg'unchiga axborot tizimi yoki veb-sayt, shuningdek, fayl va ma'lumotlarga masofadan kirish, fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Kiberxavfsizlik choralari bu kabi holatlarning oldini oladi.

XULOSA

Kiberxavfsizlikka doir me'yorlarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi nihoyatda zarur. Raqamli olam hali-hamon huquqiy jihatdan o'z maqomini aniq belgilay olgani yo'q. Kun sayin tahdidlarning yangi tur va shakllari paydo bo'layotganligi, ularni qonunchilikda aks ettirish zarurligi talab etadi. Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani ishlab chiqish milliy kibermakonda jinoyatchilikka qarshi qurashish sohasidagi faoliyatni tartibga soladi. Zero, virtual olamdagi jinoyatchilikning zarar va xavfi real olamdagidan kam emas.

2020–2023 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyaga ko'ra kiberxavfsizlikning yagona tizimi va muhim hisoblangan infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy baza shakllantiriladi.

“Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonunda esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar aks etishi kutilmoqda.

Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga zamin bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy ravnaq topish, aholiga qulayliklar yaratish imkoniyatini beradi.

Quvonarlisi, bu mamlakatimizda asosiy kun tartibidagi masala. Raqamlashtirish borasida O'zbekiston dadil odimlar bilan ildamlamoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 5 oktyabrda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi ishlab chiqildi.

Strategiya O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu strategiyada davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan qator vazifalar belgilangan. Jumladan, tanlanma statistik kuzatuvlarni o'tkazish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, statistik registrlarni xalqaro amaliyotga muvofiq takomillashtirish, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlarini interaktiv shaklda foydalanuvchilarga taqdim etish bo'yicha axborot tizimini ishlab chiqish, mazkur axborot tizimini Davlat statistika qo'mitasining yangilangan rasmiy veb-saytiga integratsiya qilish, Interaktiv xizmatdan foydalanish uchun amaldagi axborot tizimlari bilan integratsiyani yo'lga qo'yish, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlarini interaktiv rejimda olish xizmatini sinovdan o'tkazish va ishga tushirish, Davlat statistika qo'mitasining axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish vazifalari yuklatilgan. [4]

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni amaliyotga joriy etishda ma'lumotlar xavfsizligiga alohida ahamiyat qaratish kerak. Chunki mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishining statistik ko'rsatkichlarining haqqoniyligi,

ishonchliligi va konfedentsialligini ta'minlash bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 2 mart, PF-5953-son
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 19 fevral, PF-5349-son
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2018 yil 21 noyabr, PQ-4024-son
4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son
5. <https://www.itu.int> - Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti
6. <https://ncsi.ega.ee/country/uz/> - *National Cyber Security Index*
7. <https://tace.uz> - *Kiberxavfsizlik markazi davlat unitar korxonasi rasmiy sayti*

REFLECTING CULTURE THROUGH FOOD NAMES IN PHRASEOLOGY

Khakimova Sadokat Dilshodbekovna

*Teacher of the Department of English, Uzbekistan State World Languages
University*

Maqsadxonhakimova@gmail.com

Abstract: *This article is devoted to the study of phraseological units related to food names as units representing the cultural value of the English and Uzbek languages. The language demonstrates the originality of the national culture, and phraseological phrases reflecting the moral of people and their ideas about life are a vivid example of this. In other words, the environment in which people are, the rules by which they live, and any actions they perform, can be expressed by speech.*

Key words: *phraseological units, units, phraseological phrases,*

Аннотация: *Эта статья посвящена изучению фразеологических единиц, связанных с именами продуктов питания в качестве подразделений, представляющих культурную ценность английского языка и узбекских языков. Язык демонстрирует оригинальность национальной культуры, а фразеологические фразы, отражающие мораль людей и их идеи о жизни - яркий пример этого. Другими словами, окружающая среда, в которой люди, правила, с помощью которых они живут, и любые действия, которые они выполняют, могут быть выражены речью.*

Ключевые слова: *фразеологии, агрегаты, фразеологические фразы,*

INTRODUCTION

The uniqueness of language is reflected in its proverbs, parables, phrases and idioms. The idiom is the basis of various studies as an integral part of phraseology and differs from the content expressed by the content of the components. It serves to convey an idea concisely and quickly, bringing it ready for speech, and this is one of the important features of the idiom. When different idiomatic units were studied, it became clear that the national identity of the nation or people to which this unit belonged was derived from the national identity.

MATERIALS AND METHODS

O. Akhmanova's Dictionary of Linguistic Terms gives the following definition of idioms: An idiom (Greek idioma-identity, individuality) is a linguistic unit that reflects the national identity of a particular people. Idioma (idiomatism, idiomaticheskoe vyrajenie) angl. idiom, idiomatic expression, fr. idiom, idiotism, nem. Idiom, Idiotismus, ucn.idiomatismo. [1,161] For example, in the idioms of the

Uzbek language, to‘n (gapga to‘n kiydirmoq,), do‘ppi (do‘ppisi yarimta), tesha (tesha tegmagan), qo‘y (qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan), narvon (yulduzni benarvon urmoq), paxta (paxta qo‘ymoq- xushomad, tilyog‘lamalik mazmunida) - flattery, in the sense of flattery) used in English idioms involved lexical components such as cake (a piece of a cake), cheese (a big cheese), and shark. In addition, each ethnic group has its own identity, and the national customs of the people are imbued with idioms. For example, if the idiom of dressing has the Uzbek mentality of dressing up, respecting, “wrapping on paper”, conveying the sentence beautifully, in the English mentality we can get the idiom “a piece of a cake” associated with eating sweets. Or "Sit above the salt" - to hold a high position in society and "sit below the salt" - to sit in a lower social position. According to the ancient British custom, salt was placed in the middle of the table, famous, esteemed guests sat at the top of the table from where the salt was placed, unimportant guests, poor relatives and servants sat at the bottom of the table [4,34].

DISSCUSION AND RESULTS

Based on the material of English and Uzbek phrases and expressions, their diversity and inconsistency at the linguistic and cultural level became obvious. This suggests that you cannot literally translate expressions from one language to another. The problem is not the choice of vocabulary, but the choice of the situation for which the given vocabulary is appropriate. Professionals of the English language should know when it is possible or necessary to use this or that expression. In the Uzbek linguistic culture, a common expression spoken by relatives, acquaintances or friends when they accidentally meet on the street, in a store or any institution is the expression "Keling" (for the singular), "Kelinglar" (for the plural). This phrase has a literal translation: "Come." The Uzbek people are famous for their hospitality and friendliness, so this phrase can be heard at every step. Such an everyday and everyday phrase does not exist in the English language culture, or rather, if necessary, it can be said, but only when it comes to a real invitation to someone to his home, etc. Setting the table, inviting tea to a bowl and treating with oriental sweets is a mandatory procedure in Uzbek home life. At the same time, hospitable hosts often say: “Дастурхонга қаранг”, asking guests to treat themselves and feel at home. If we translate this expression literally, we get: "Look at the tablecloth." We will not be able to translate a phrase into English using a literal translation. In English, there is another phrase "Helpyourself (yourselves)", which literally translates: "Help yourself." Based on the example of these very common expressions used at the table,

it becomes clear that literal translation should be avoided, which can lead to the wrong course of the conversation, and literally translated phrases from one language to another can be not only incomprehensible, but sometimes rude or funny. Idioms are idioms with the construction of a phrase, which are used in both Uzbek and English. This serves to combine idioms in different languages. Idioms such as patir, soft broom, aunt's calf from the tip of the dough belong to the group of idioms - phrases and have national characteristics. An idiom is a set of fixed words that do not derive from the sum of the meanings of the words in the context [6,3]. Within phraseology researches, there are two positions of viewing phraseological units' national peculiarities. In most cases, national-cultural specificity of phraseological units is determined in the process of interlingual relations. This approach can be called comparative or contrastive. Another point of understanding national specifics of idioms is connected with national spirit, specific features inherent to a certain nation without comparison with other languages. It should also be noted that in each language, there are idioms, which are perceived by speakers of that language as their own. They are purely national phraseological units.

Idiomatic expressions are mainly used in everyday communication. Such phrases are quickly memorized and serve to express the idea figuratively. Idioms are the most complex area of language when it is studied and mastered. The field of linguistics that studies idioms is called idiomatics. The use of the idiom in many places specific to artistic and oral speech has been pointed out by some linguists. The use of phraseology in fiction, journalism, and colloquial speech is related to its expressive possibilities. Figurativeness and expression are characteristic features of phraseological units, which prevent verbal communication from monotony and "dry" speech. Idioms and phraseological confusions form dialectisms, speech peculiarities, euphemisms when oral speech is specific to speech. Idioms, phraseological units consisting of euphemisms Anvar Jabborovich. Omonturdiyev's "Short thematic dictionary of words and terms related to animal husbandry." For example, we can cite euphemistic idioms such as drying the pillow, even if the sheep did not see [3,68]. Idioms, in addition to reflecting nationality, are used in the creation of advertising text of national products, in specific marketing services [2,34]. In addition, the preservation of nationality in different countries has been introduced as a requirement in the education system in order to pass on the uniqueness of the language to future generations. Phraseological unit is more complex language unit, than a word, in structural and in semantic spheres. However, for majority of them functional vicinity

to word is characteristic. Semantic wholeness is a constancy of components. The structure of the phraseological units defines other important peculiarity of the phraseological unit approaching them with. This means that in system of the language, they exist as readymade units in they are not made, but are extracted from memory and are used in the lexical meanings, grammatical forms and functions, which are to express.

CONCLUSION

The conclusion is that idioms are one of the units that preserve and preserve the national identity of a language. Each nation has its own idioms, which cannot be translated into another language, but can only be explained by choosing their alternatives. In addition, the use of idioms in movies, animated films, and advertisements provides language learning while preserving nationality. Thus, phraseological units are one of the most significant parts of the national culture, great heritage of the preceding generations. Idioms occur in languages on the base of imaginative representation of our reality, which reflects empirical and spiritual experience of the linguistic community. As far as the system of images in the phraseology of language is connected with material, social and cultural aspects of the given linguistic community, we should admit that it also testifies about its cultural, national experience and traditions. Summarizing all that mentioned above, we can say that phraseological units show national culture specifics and mostly have equivalents in other languages. It should be noted that the phraseological units directly (in denotation) or indirectly (through the correlation of the associative and figurative basis to standards, symbols, stereotypes of national culture) bear cultural information about society and the world.

LIST OF USED LITERATURE

1. Axmanova O. S. Dictionary of linguistic terms. M., «Sov. encyclopedia », 1966.S.161. 2.
2. Omonturdiyev. A.J. Brief thematic euphemistic dictionary of words and terms related to animal husbandry. Tashkent, 2015. P.68.
3. Nabiev A.M. Ways of formation of phraseological compounds and methods of studying their alternatives in the Uzbek language. Graduation thesis for a bachelor's degree Andijan, 2014, P.34.
4. Yusupov. A.L. English-Uzbek dictionary of idioms. “Yangi asr avlodi” Tashkent, 2014. LINGUISTIC TERM

**FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN CONDITIONS
NEW EDUCATIONAL PARADIGM
(THEORETICAL, PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL
PREREQUISITES FOR LEARNING IN COOPERATION)**

Mokhinbonu Pardaeva Fazliddinovna
Uzbek State World Languages University
Teacher of the chair “Linguistics and literary studies”
moxinbonu0520@gmail.com

Abstract: *Learning in cooperation is one of the types of learning, the essence of which is to learn with the help of each other in a small group. This pedagogical technology allows an intellectually and socially promoting model of studies for students. It engages learners to accomplish group assignments or work together to reach general target. In recent years, interest in cooperative learning has grown tremendously. The reason for which is the publication of studies that clearly show the use of this technology to promote advances in writing and reading, problem solving in mathematics, conceptual development in science, and higher levels of reasoning and thinking. This paper discusses the development of cooperative learning during past decades; basic principles and positions of the competence-based approach; the purposes, features and difficulties of teaching a foreign language in the first year of universities.*

Key words: *cooperative learning, joint educational activity, group work, collective work, humanistic pedagogy, personality-oriented approach, communication skills, intellectual skills, critical thinking, communicative competency, teaching, learning.*

Аннотация: *Обучение в сотрудничестве является одним из типов обучения, сущность которой состоит в том, чтобы учиться с помощью друг друга в небольшой группе. Эта педагогическая технология позволяет интеллектуально и социально содействовать модели исследований для студентов. Он занимается учащимся выполнять групповые задания или работать вместе, чтобы достичь общей цели. В последние годы интерес к кооперативному обучению чрезвычайно вырос. Причина, по которой является публикация исследований, которые ясно показывают использование этой технологии для содействия достижениям в письменной форме и чтении,*

решении проблем в математике, концептуальном развитии в науке и более высоких уровнях рассуждения и мышления. Эта статья обсуждает развитие совместного обучения в течение последних десятилетий; Основные принципы и позиции подхода на основе компетенций; Цели, особенности и трудности преподавания иностранного языка в первый год университетов.

Ключевые слова: *совместное обучение, совместная образовательная деятельность, групповая работа, коллективная работа, гуманистическая педагогика, ориентированный личностный подход, коммуникативные навыки, интеллектуальные навыки, критическое мышление, коммуникативная компетенция, преподавание, обучение.*

INTRODUCTION

The humanization of education is one of the world's leading trends. It is a foreground area of education modernization. Fundamental reforms in education started in 1997, a new edition of the Law of the Republic of Uzbekistan "Law On Education" was adopted. The state policy in the area of modernization of education provides the development of a diversified personality - a citizen throughout the system of continuous training, inextricably linked with the intellectual, spiritual and moral students education. In 2017, "The Law On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021" was adopted, that provides for the development of science and education. This speaks of a profound study of foreign languages, an increase in the quality and efficiency of higher education institutions throughout the implementation of international teaching standards and teaching quality assessment. Consequently, here is required the development and introduction of modern teaching methods and latest pedagogical technologies, the reason of which is personality.

REFERENCES AND METHODS

The research process used the methods of objectivity, logic, analysis and synthesis of scientific knowledge. In the course of this research, the importance of C.R. Rogers's taxonomy was objectively revealed.

Cooperative learning evolution

The notion of humanization of education considers the aim and content of education in a new format: learner and cognitive activity are at the center of learning. The goal of cognitive activity is aimed at learning and practicing the ways of thinking and interacting in society, and not at reproducing ready-made knowledge. The basis of personality-centered learning is based on the ideas of humanistic pedagogy: a personality-oriented approach (C.R. Rogers, G. Allport, A. Maslow, R. May) and

The importance of studying the application of computational linguistics in Persian texts, indeed, shows the need to expand the cognitive capacity within the Farsi-speaking community, as well as the transfer of knowledge through other languages to Persian. Currently, the knowledge gained from the research of scientists in various fields is distributed in different languages. The main scientific information is usually registered in English in scientific databases, and its extraction in other languages for users is associated with many difficulties. This study shows how a computer device is able to transfer data from other languages to Persian and vice versa, for translating words and text, converting audio and video information, as well as how successful the Persian language is in this area. On the other hand, we can say that the increasing spread of electronic platforms has created a new environment in all areas of the life of the new generation. Meanwhile, language as a social institution, influenced by a new approach and in digital media such as cell phones, websites or personal computers, has become the main text-oriented tool. example, all significant issues at the international level were expressed in Latin, and therefore a universal language was the dream of many people. For humanity, which was looking for a solution to the problem of communication, now provides more than 600 programs (97,123).

CONCLUSION

To properly clarify the question, it is first necessary to determine the basic concepts in the field of computational linguistics and its place in relation to the computational characteristics of the language in the general understanding, and then proceed to compare the various language grammars in order to coordinate the type of translation made by a machine and a person

REFERENCES

1. Анисимов А. Компьютерная лингвистика для всех: Мифы. Алгоритмы, язык/ А. Анисимов.- Киев: Наук, думка, 1991. -

- 2.Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. - М.: Советская энциклопедия, 1969. - 607 с.
- 3.Шемакин Ю.И. Начала компьютерной лингвистики / Ю. И. Шемакин. - М.: Издательство МГОУ, А/О "Росвузнаука", 1992.
- 4.Akmajian and others , Linguistics, mit press, second edition, 1997, 576 pages.
- 5.Allen,J,Natural Language Understanding, Bonn,The Benjamin / Cummings Publ,1995,312P.
- 6.Booth, K. H. V., Machine aided translation with a post-editor. In A. D. Booth (Ed.),Machine Translation, Amsterdam: North-Holland Publishing Company, (pp. 53-76)
- 7.Crystal David, The Cambridge Encyclopedia of language , 3rd edition, Klett ernst verlag, 2011, 516P.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA DIFFERENTIAL SEMALARNING IFODALANISHI

Samadov Sanjar Ro'ziboy o'g'li

*Termiz davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-kurs
magistranti*

Annotatsiya: Maqolada differensial semali maqollar ifodalangan bo'lib, bunda bir nechta maqollar orqali ular tarkibidagi leksik-semantik qarama-qarshilik xususiyatlari ochib berilgan. Aynan mana shunday qarama-qarshiliklar maqollardagi hissiy-mazmuniy ta'sir doirasini yanada orttirishi ifoda etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Paremiologik birlik, ko'chma ma'no, tazod, maqol, grammatik qurilish, qarama-qarshilik, antonomiya, ziddiyat, sodda gap, hikmatli ibora, differensial sema.

Аннотация: В статье описаны дифференциально-смысловые пословицы, раскрывающие особенности лексико-семантических противоречий в них через несколько пословиц.

Ключевые слова: паремиологическая единица, образное значение, аналогия, пословица, грамматическая конструкция, противоречие, антонимия, противоречие, простая речь, мудрая фраза, дифференциальная сема.

Annotation: The article describes the differential semantic proverbs, which reveal the features of lexical-semantic contradictions in them through several proverbs.

Keywords: Paremiological unit, figurative meaning, analogy, proverb, grammatical structure, contradiction, antonymy, contradiction, simplicity, wise phrase, differential sema.

KIRISH

Har bir xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini chuqurroq anglashga, o'z tarixini ko'proq bilishga intiladi. Shuningdek, har bir millat va elatning o'ziga xos urf-odati, an'analari, milliyligi, qadriyati shu xalq tarkib topgan ya'ni shakllana boshlagan davrlardan balki, undan ham avval shakllangandir. Aynan mana shunday urf-odat va marosimlar xalqning kim ekanligini ko'rsatib beradi. Yozuvchi Tog'ay Murod aytganidek: «Xalq nimasi bilan xalq! O'zining urf-odatlarini bilan xalq! Otabobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq!». [1. 47 b]

Maqollar esa bizga qadim o'zbek xalqining eng botiniy urf-odatlarini, an'analari, marosimlari, his-tuyg'ulari, afsonalari, rivoyatlari, yurish-turishi, turmushi, mehnat faoliyati, jamiki moddiy va ma'naviy olamini aks ettirib beradi. Bunda maqollarning

afzallik jihati shundaki: Maqol oddiy soʻz yoki gap orqali ifodalangan fikrdan taʼsirli va ixcham shaklga egaligi, shuningdek, xulosa yoʻsinida berilishi, hukm yaʼni rad etilmaydigan, toʻgʻridan toʻgʻri qabul qilinadigan paremiologik birlik sifatida tilimizda muhim oʻrin egallaydi. Bu xususiyatlar ayniqsa ichki qarama-qarshi semali maqollarda juda ham taʼsirli aks etadi. Differensial semali maqollar kuchli hukmni ifodalab, tinglovchining tuygʻulariga taʼsir qiladi va uni junbushga keltiradi. Xuddi shunday maqollar orqali ifodalangan fikr va mazmunda soʻzning butun qudrati namayon boʻladi. Bunday maqollar koʻchma maʼnoda yoki oʻz maʼnosida ham qoʻllanishi mumkin. Differensial semali maqollar koʻpincha qoʻshma gap koʻrinishida, baʼzan sodda gap shaklida ham namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Maqolada bugungi oʻzbek tilshunosligida differensial semali maqollar ifodalangan boʻlib, bunda bir nechta maqollar orqali ular tarkibidagi leksik-semantik qarama-qarshilik xususiyatlari xususida soʻz boradi. Jahon tilshunosligida maqollar tadqiqiga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Adabiyot sifatida matnning lingvistik mohiyati bilan bogʻliq boʻlgan ilmiy adabiyot, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

M. Qoshgʻariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini oʻzining “Devon”iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qoʻllanishini arab tilida izohlagan edi. “Devonu lugʻotit turk”da xalq ogʻzaki ijodiga oid 300dan ortiq sheʼriy parchalar, 291ta maqol va matallar keltiriladi [2. 49 b]

Keyinroq oʻzbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yoʻnalishda tadqiq etila boshlandi, yaʼni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid koʻpgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining maʼnoviy, uslubiy xususiyatlarini oʻrganishga alohida eʼtibor berildi. Bu borada A. Rustamov, H. Sulaymon, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov, H. Berdiyev, R. Rasulov, S. Asqarov, A. Joʻraxonov, M. Toʻychiyev, M. Hakimovlarning [3. 85-87 b] ishlarini keltirish mumkin. Oʻzbek tilshunosligida xalq maqollarining toʻlaqonli sinonimik lugʻatini yaratish kabi muhim vazifa B. Joʻraeva tomonidan uddalandi [4. 79 b]

Maqol-hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega boʻlgan, ixcham obrazli, tugal maʼnoli va hikmatli ibora yoki gapdir [5. 569 b]. Biz bu maqol va matallarni qanchalik koʻp oʻrgansak ham ozdir, chunki biz maqollar orqali oʻtmish ajdodlarimizning butun bir hayotiy faolyati ularning sezimlari, orzu oʻylarini his etamiz va ulardan kerakli darajada xulosalar chiqaramiz.

„Maqol” atamasi arabcha qavlun-gapirmoq ,aytmoq soʻzidan olingan. Maqol orqali aytilgan fikr kishiga juda qattiq taʼsir qilishi bilan ham inkor etib boʻlmaydigan haqiqatga aylangani bois ham bu janrga eʼtibor kuchlidir.

«Maqol kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida boʻlib, Grammatik fikr ifodalaydi, oʻz ichki Grammatik qurilishi jihatidan ham doim gapga teng boʻladi, undan anlashilgan mazmun faqatgina tasviriy yoʻl bilan ochiladi» [6.24 b]. Lekin maqollarning orasida oppozitsion munosabat ifodalaydigan turlari alohida ahamyatga molikdir.

Jaloliddin Rumiy aytganidek: «Har qanday «ashyo»ning qimmatini zidi bilan ayon boʻladi, zidi boʻlmagan narsani taʼrif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurning oshkor boʻlishi uchun qorongʻu etib yaratilgan mana bu olamni mavjud ayladi [7.74 b] , – deydi. Mana shunday ziddiyat, qarama-qarshilik tushunchasi maqollarning leksik-semantik asosida ham uchraydi. Bunday maqollar orqali berilgan ibratomuz fikr kishiga kuchliroq taʼsir qiladi. Uni oʻyga toldiradi, fikrlashga majbur qiladi.

Masalan shunday maqollardan biri: *Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan.* [8.24 b] Bu maqoldagi *achchiq-chuchuk, uzoq-yaqin* soʻzlari oʻzaro maʼnoviy antonimlikni yuzaga chiqaryapti va qarama-qarshilik orqali maqol mazmuni yanada taʼsirlroq ifodalanyapti. Bu maqol xalq orasida koʻpincha koʻchma maʼno ifodalab, biror bir voqea hodisani oʻzining boshidan oʻtkazgan, oʻz hayotida koʻrgan, sinagan, oʻsha vaziyatga tushgan inson biladi. Undan boshqa odam bu holatni toʻla his qila olmaydi degan maʼno bor. Shuningdek, bu maqol koʻpni koʻrgan tajribali kishi maʼnosini ham ifodalaydi.

Ahmoqlarga bosh boʻlguncha, donolarga yosh boʻl. Bu maqolda esa *ahmoq-dono, bosh-yosh* soʻzlari maʼnoviy qarama-qarshilikni yuzaga chiqaryapti. Maqolda ibratomuz nasihat aks etgan boʻlib, bu oddiy nasihat boʻlmay, bu maqoldagi butun bir mazmun mohiyatni kuchaytiriyapti va ifodaviylik, taʼsirchanlikni yanada kuchliroq yuzaga chiqishini taminlayapti. Bu maqol orqali baʼzi nodon, aqlsiz, ilmsiz, johil odamlar orasida oʻzingni koʻrsatib, ularga bosh boʻlib yurgandan koʻra, oʻzingdan aqlli va bilimli, dono insonlar orasida yosh boʻl yaʼni tajribasiz boʻl va ulardan oʻrgangin maʼnosini beradi, chunki bilimning, ilm-u maʼrifatning chegarasi yoʻq. Faqatgina ahmoqlargina har narsani bilaman deb oʻylaydi. Aksincha, inson qanchalik koʻp bilsa, shuncha bilmasligini his qiladi.

Shakar ham tida, zahar ham. Bu maqolda *shakar va zahar* bir-biriga qarama qarshi soʻzlar. Bizga maʼlumki, har qanday kasallikka daʼvo boʻlsa ham til zahridan

zaharlangan insonga da'vo yo'q, chunki insonda ko'ngil, qalb nomli azolar, borki, bu insondagi eng nozik azolardir. Agarda inson qalbi yomon so'zdan yaralansa, hech qachon tuzalmaydi. Tuzalsa ham, yanggilanib ketaveradi, Shuning uchun ham ko'ngil mumtoz adabiyotining asosiy tasvir manbai hisoblanadi. Chunki tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh kishining ko'nglidagina aks etadi. Ishq ham ko'ngil ishidir. Shuning uchun ham bu maqol xulosa yanglig' insonni shirin tillilikka, boshqalarga tili bilan ozor bermaslikka undaydi.

Kattaga hurmatda bo'l, kichikka-izzatda. Bu maqolda **katta va kichik** so'zlari o'zaro antonimlikni yuzaga chiqarib, hissiy ta'sir yuqoriligini ta'minlab bermoqda. Maqolda o'zbek xalqiga azal-azaldan xos bo'lgan kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilib doimo ularga g'amxo'r bo'lish kabi insoniylik xislatlari aks etgan. Kattalarga hurmat ular gapirganda gapini bo'lmasdan tinglash, ulardan oldin dasturxonga qo'l uzatmaslik, o'zidan yoshi ulug'larga salom berish, ular agar nohaq bo'lsa ham gap qaytarmaslik va yana bir qancha o'zbeklarga xos odatlar kattalarga hurmatning bir ko'rinishidir. Kichiklarga izzat esa ularni yaxshi ko'rish, ularni himoya qilish, ularning tarbiyasiga e'tibor berish, ularni shirin so'zlar bilan ruhlantirish va boshqalardir. Qisqa qilib aytganda bu maqol o'zbek millatining mentalitetiga har jihatdan xos va mosdir.

Maqollardagi bunday qarama-qashilikni yuzaga chiqarayotgan so'zlar badiiy adabiyotda **tazod** deb atalgan alohida san'atini yuzaga chiqaradi.

«Aksariyat maqollarda ikki mantiqiy markaz o'zaro ziddiyatli munosabatda beriladi, bunda tazod san'ati asosiy badiiy-tasviriy vosita sifatida estetik vazifani o'taydi: «Avval o'yla, keyin so'yla», Ko'p o'yla, oz so'yla», Avval bahor, oxir xazon», Bas etgan o'zar, qasd etgan to'zar», Boyning o'g'li kelsa to'rga-to'rga, kambag'alning o'g'li-go'rga», Yomon o'g'il - molga o'rtoq, Yaxshi o'g'il- jonga», Ishlagan yerni yashnatar, ishlamagan qaqshatar» singari maqollarda o'git mag'zi yaxshi va yomon nisbatlarining o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi natijasida yarqirab turibdi va bu maqollarda antonomiya hodisasi tarzida qaraladi [9. 297 b].

Qarama-qarshilik antik davrdanoq faylasuflar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan kategoriya sifatida xarakterlanadi. Sokrat, Platon, Aristotel, Protagor, Demokrit kabi faylasuflarning ilmiy qarashlarida bu kategoriya turlicha talqin etib kelingan [10. 5 b]. Ayniqsa, Aristotelning qarama-qarshilik haqidagi ilmiy qarashlari alohida e'tiborga molik. T. F. Chursunova Aristotelning falsafiy qarashlariga baho bera turib, shunday deydi: «Antonomiyaning o'rganilishi qadimgi yunon faylasufi Aristoteldan boshlangan. [11. 5 b] Qarama-qarshilik borliqdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Olamni anglashda qarama-qarshilik kategoriyasining o'zni beqiyos. Falsafiy nuqtayi nazardan har qanday hodisaning o'rganilishi, ertami-kechmi, ularning qarama-qarshi tomonga murojat qilinishiga olib keladi. Masalan, B. Spinoza «Etika» asarida his-tuyg'ularning tabiatini ochishda qarshilantirishdan umumli foydalanadi va ularning ifodasini so'zlarni qarshilantirish orqali tushuntiradi. Faylasuf hodisalarga kontrast asosida yondashayotganini quyidagi fikrlar orqali asoslaydi: «Aniqlash-bu qarshi qo'yish demakdir» [12. 6 b]

Gegel shunday degan: «*Qarama-qarshilik – haqiqat mezoni, Qarama-qarshilikning yo'qligi esa xatolar mezoni*». Bunday fikrlar orqali Gegel falsafada qarama-qarshilikning g'oyat muhim hodisa ekanligini isbotlagan. Qarama-qarshilikning tildagi ahamiyati ayniqsa maqollarda yaqqol seziladi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, maqollardagi differensial semalar maqollarning mazmuni va ta'sir doirasini yanada orttiradi. Insonga ta'sir doirasi oddiy so'z yoki gapga qaraganda kuchli va bo'yoqdor bo'lib, badiiylikni ifodalab, ixcham va xulosalash yo'sinida jarangdor eshitiladi. Tilimizda bu kabi maqollarning ko'pligi o'zbek xalqining naqadar ko'pni ko'rgan, hayot tajribasi nihoyat darajada yuqori ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, bunday maqollarda fikrimizni yana bir bor foydalanib, uning tub mag'zini chaqib ko'rishimiz esa ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz aytgan har bir ibratli va purma'no firlarga amal qilib, ularga hurmat bilan qarashimizning nishonasidir. Bundan ko'rinadiki, o'zidan kattalarni hurmat qilish, bobolar pandiga amal qilish o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan muqaddas tuyg'ular hisoblanadi. Shuning uchun so'zlash jarayonida so'zlarni o'rinli qo'llash va ularning uslubiy bo'yoqdorligiga e'tibor qaratmoq lozim. Shiralilik, bo'yoqdorlik, tasirchanlik, esa aynan zid ma'noli maqollarni o'z nutqimizda qatnashtirib so'zlashda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES):

1. Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi". Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 47.
2. Абдурахмонов Ф. "Девону луғотит турк"асарининг ўрганилиш тарихидан.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. 49-б.
3. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. –Т.: ФАН, 2006.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (М ҳарфи)/ А. Мадвалиев таҳрири асосида. – Тошкент, 1981. – Б. 569.
5. Ўзбек халқ мақолларининг лингвистик асослари [матн] Б. Жўраева. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 24.
6. Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir: Falsafiy asar // Tarjimon Ulug‘bek Hamdam; Mas‘ul muharrir Najmiddin Komil. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – Б. 74.
7. O‘zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. M Usoqulov, B. Sarimsoqov; Mas‘ul muharrir: Sh.Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – Б. 281.
8. Safarov Oxunjon. O‘zbek xalq og‘izaki ijodi: pedagogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – Б. 297.
9. Д. Абдуллаева. Узбек тилида антисемия Филол. Фанлар номзоди дисс. . . автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 5.
10. Д. Абдуллаева. Узбек тилида антисемия Филол. Фанлар номзоди дисс. . . автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 5.
11. Д. Абдуллаева. Узбек тилида антисемия Филол. Фанлар номзоди дисс. . . автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 6.

OMMAVIY MADANIYAT –JOHILLIKNING QUROLI!

Uktam Umarov Aminovich,

*Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali Pedagogika fakulteti ma'naviyat
va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari*

Annotatsiya: Maqolada dunyoga yuz berayotgan ma'naviy tahdilar, ma'naviyatsizliklar, dunyoda yuz berayotgan qo'paruvchiliklarning oqibatlari, va unga qarshi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev asarlari misolida ma'naviy immunitetni shakllantirishning yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tahdid, qo'paruvchilik, ongsizlik, "ommaviy madaniyat", tahlika, tahdid.

Abstract: The article discusses the spiritual threats to the world, immorality, the consequences of the uprisings in the world, and ways to build spiritual immunity against it on the example of the works of President Sh.M. Mirziyoyev.

Keywords: Spiritual threat, subversion, unconsciousness, "popular culture", danger, threat.

Аннотация: В статье рассматриваются духовные угрозы миру, безнравственность, последствия восстаний в мире и способы построения духовной неприкосновенности против них на примере произведений Президента Ш.М. Мирзиёева.

Ключевые слова: духовная угроза, подрывная деятельность, бессознательное состояние, «массовая культура», опасность, угроза.

KIRISH

Inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi ma'naviyat kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Bilamizki, insonning tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati kirsam, ichki olami bu uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi.

Darhaqiqat, oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat shunchaki yuzaga kelmaydi, unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli kiish yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlaydi. Muomala qilish madaniyatini, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshishni o'rganadi. Vijdon, yolg'on va rost, or-nomus, halol va haromni farqini bilish, ma'naviyatli kishining tanlovidir. Yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechish, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajarish ma'naviyatli insonga xos.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Insondagi iste'dod, iqtidor ma'naviyatli jamiyatni bunyodkorlikka yo'ldaydi. Ayniqsa bunyodkorlikka intilgan ma'naviyatli shaxs komillik darajasiga yetadi. Undagi vatanparvarlik xislatlari onani sevish, otani hurmat qilish, aka-ukani ardoqlash, singilni e'zozlash kabi buyuk mehr tuyg'ulari bilan mujassamlashtiriladi.

Demakki ma'naviyati pok inson hamisha jamiyatning bebaho ne'matidir.

Ming afsuski, to'g'ri yo'llarni egri yo'llar to'sib turgani, yaxshining yomoni bo'lgani kabi ma'naviyatga tahdidlar, "ommaviy madaniyat" ko'rinishi kabi natijasi o'lim bilan tugaydigan ma'naviyatsizliklar ham jamiyatda uchrab turadi. Aslida urush emas, bunday ma'naviy zararkunandalik jamiyatning viruslaridir. Birgina yoshlarning ma'naviy qarashlarini turli "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi xulq-atvor, ijtimoiy tarmoqlardagi ko'rinmas qopqonlar bizni hamisha cho'chitadi, ogohlikka chaqiradi. Bundayin chirkin niyatli ma'naviyatfurushlar bor ekan, millat millatligini, jamiyat jamiyat ekanligini, g'ururi, ori, nomini yo'qotishi xech gap emas.

Yoshlik beg'ubor fasl. Ko'rtak yoyib zaminga go'zallik ulashayotgan yosh, navqiron daraxtlar kabidir. Biroq, ma'naviy tahdidlar oqimining ko'rinmas fojeali urushi qariga cho'kib ketishgacha jar yoqasiga tortqilayotgan ma'naviyatsizlik bizni, sizni xushyor tortishga yetti o'ylab bir kesishga undaydi. Ko'cha kuyda rumol o'ranib(aslida nega uranganini anglamay) turli xiring-xiring tusi atrofdagilariga kulgi bo'layotgan ayrim qizlar, yoki qiz bola kabi soch turmagini bezab olgan, qizlar kabi xatti-harakat qilayotgan ayrim yigitlarning ma'naviyatsizligiga parvo qilmagan topilmasa keragov. Aslida atrofdagilariga ma'naviyatsizlik virusini yoqtirayotgan bu yoshlarning safi tobora ortib borayotganidan cho'chimay ilojimiz yo'q.

Xush, ularning bu oqimga kirib borayotgani, hatto ota-onasiga, jigarlariga, sinfdoshlariga(rossiyadagi voqeani yozaman) qurol ko'targanini kuzatyapmiz, dilimiz og'riyapdi, hayratlanayapmizu, voqea sababini chuqur o'ylab ko'ryapmizmikan?!

Zotan, hozirgi kunda ana shunday ma'naviy bo'shliqni o'zining yod g'oyalari bilan to'ldirayotgan, g'arazli maqsadlari asosida yoshlar ongini egallayotgan "koronavirus" sheriklari ham yo'q emas. "Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularning puxta o'ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda"(Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" I.A.Karimov).

Quvonarlisi, mamlakatimizda bu kabi oqimlarning oldini olish, oqimni vaqtida to'xtatish uchun ma'naviy immunitet shakllangan. Dunyo hamjamiyatini ham o'ylantirayotgan "ommaviy madaniyat", "ma'naviy tahdidlar", terrorizm, aqidaparastlik illatlariga qarshi har ikki yurtboshimiz birinchi va ikkinchi

prezidentlarimizning qonun, qaror, farmonlari faqatgina yurtimiz uchun emas, xalqaro maydonda ham o‘z kuchini, mavqe‘ini ko‘rsatmoqda.

Xususan, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” asari yuksak saviyali, buyuk ma’naviyatli, ma’naviyatsizlikka qarshi yo‘l ko‘rsatuvchi komposdir.

Avvalo, asarning ma’naviy ahamiyati shundaki, asarda “ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o‘z tasdig‘ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo‘lamiz” deyiladi. Bundan tashqari, ma’naviyatsizlikka qarshi buyuk ajdodlarimizning “xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilishi”ga alohida ahamiyat beriladi. “Bizning qadimiy va go‘zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamandan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlashi” ham ma’naviyatsizlikning debochasi bo‘ldi. Ayniqsa, “«Avesto»ning tub ma’nomohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir”. Ana shunday ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorumizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev va Sa‘di Sirojiddinov, Obid Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G‘ulomov va Bo‘riboy Ahmedov, Oybek va G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo‘jaev, Razzoq Hamroyev va boshqa ko‘plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarning yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi ham tadqiqotlarimizning asosidir.

“Vatan- yuragimning bir bo‘lagi. Vatan- ma’naviyatim, vijdonim, orim, nomusim. Uni asrab avaylash meningdek farzandlaring qo‘lida ekan, avvalo ostonangga tahdid solayotgan yovuzlikka qarshi kurashishga bel bog‘laganman! Men yuragimdagi mehrimni, dilimdagi pok iymonimni, vijdonimni, mehrimni, cheksiz muhabbatimni baxshida etishga tayyorman!”

XULOSA

Xulosa o‘rnida, yana asar so‘ngidagi so‘zlarga quloq tutmay ilojimiz yo‘q. I.A.Karimov: “Ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma’naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko‘rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Chunki xalq - bamisoli ulug‘ va sharaflil yo‘ldan ilgari lab borayotgan ulkan karvon. Uni yo‘ldan chalg‘itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘lishi mumkin. Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch - ma’naviyat bor”.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES):

1. “Yuksak ma’naviyat –engilmas kuch” . I.A.Karimov. Toshkent “Ma’naviyat” 2008
2. Karimov I.A. Xalqimizning otashqalb farzandi. - T.: O‘zbekiston, 1992.
3. Abdullayev A. Ma’naviyat va iqtisodiy tafakkur. – T.: Ma’naviyat, 1999.

**YOSHLAR O'RTASIDA KITOBXONLIK VA MUTOLAA
MADANYATINI YUKSALTIRISH VA UNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

***M.Abdirahimova – Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti “Xorijiy tillar”
kafedraasi katta o'qituvchisi***

Annotatsiya: *Ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasi insonni ma'naviy kamolot sari yetaklashini, insonni har tomonlama yetuk, komil shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Jumladan, sharq mutafakkirlari qarashlarida, g'oyalarida, asarlarida inson kamoloti, ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya kabi masalalarda qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, yoshlar, madaniyat, kitob mutolaasi, komil shaxs, g'oyalar.*

Аннотация: *Роль духовности, формирование у молодежи культуры чтения, чтение книг ведет к духовной зрелости, становление человека как полноценного, совершенного человека несравнимо. В частности, взгляды, идеи и работы восточных мыслителей предоставляют ценную информацию по таким вопросам, как человеческая зрелость, духовная зрелость, патриотизм, образование.*

Ключевые слова: *духовность, молодежь, культура, чтение, совершенствование, идеи.*

Abstract: *The role of spirituality, the formation of a culture of reading among young people, reading books leads to spiritual maturity, the formation of a person as a fully developed, perfect person is incomparable. In particular, the views, ideas and works of Eastern thinkers provide valuable information on issues such as human maturity, spiritual maturity, patriotism, education.*

Keywords: *Spirituality, youth, culture, reading, perfection, ideas.*

KIRISH

Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida "...insonga katta sharaf ko'rsatilgan - unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak ahloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor..."-deya ta'kidlangan. Ma'rifat, ziyo, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilm-fan sirlarini puxta egallash bilan qo'lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin ko'makchi kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo'jizadir. Kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo'lgan eng yaqin

do'stdir. Kitob haqida uning insonni kamolotga yetishidagi o'рни haqida qimmatli fikrlar, tashbehtar nihoyatda ko'pdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish borasidagi ishlar ko'lami sifat darajaga ko'tarildi.

Xususan, O'zbekiston prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o'tamoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan. I bosqich – 2020-2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillash-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; II bosqich – 2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash; III bosqich – 2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan.

Shuningdek, aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko'zda tutilgan.

Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta'lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

Kitobxonlik madaniyati haqida so'z borar ekan, avvalo yoshlarga kitob o'qish qoidalari va turlari haqida ma'lumotlar, tushunchalar berish lozim bo'ladi.

O'qish – nutq faoliyatining murakkab turi bo'lib, u ikki jihatga ega: ya'ni, texnik jihat – o'qish va tez o'qish ko'nikmalarini egallash va ijodiy jihat – matndan zarur ma'lumotni tanlab olish.

Mutolaa qilinayotgan manbani mazmunini o'zlashtirish darajasi bo'yicha quyidagi o'qish turlari ajratiladi: ko'rib chiqiladigan o'qish – umumiy taassurotga ega bo'lish uchun; tanishuv o'qish – umumiy mazmunni tushinish uchun; ajratuv o'qish – ma'nosini chuqur tushinib olish uchun o'qish voida va turlari ko'rsatilgan.

Ko'rib chiqiladigan o'qish odatda tanishuv va o'rganuv o'qishdan oldin amalga oshiriladi. Kitob mazmuni, uning boblari va paragraflari, asar muallifi bilan tanishish zarurati bo'lganda foydalaniladi.

Ko'rib chiqiladigan o'qish jarayonida odatda titul varag'i, mundarija, ayrim xat boshi va gaplar o'qib chiqiladi. Ushbu ma'lumotlarning o'zi shu manba qay darajada kerakligini hal etishga yordam beradi

Tanishuv (tanlov) o'qish bir necha manbalardan ma'lum savollarni ajratib olish, shuningdek olingan ma'lumotlarni taqqoslash va solishtirish, ushbu masala bo'yicha o'z qarashini ishlab chiqish uchun ishlatiladi.

O'rganuv o'qish – o'qishning faol turi. Siz e'tibor berib, ma'lumot ustida to'xtalib va o'ylab o'qiganingizda foydalaniladi. Matndagi bosh fikrni, uning maqsadini, isbotlar mantiqini tushunib olish, sizning oldingizga qo'yilgan savollarga javob qidirishga mo'ljallangan. Ushbu o'qish turi materialni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi (paragraflar, boblar, qismlar bo'yicha), matn haqida shahsiy fikrni tuzishga yo'llaydi, ma'lumotni tanqidi qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Ilmiy adabiyotlarni o'qish tartibiga doir fikrlar quyidagilardan iborat. Bunda, O'qish jiddiy va chuqur fikrli bo'lmog'i lozim.

Quyidagilar muhim hisoblanadi. O'qib chiqilgan materiallarni tahlil qilish, tushunarsiz atama va tushunchalar mohiyatini aniqlash, muhim bo'lgan savollarga javob axtarish kabilar.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishga ko'maklashadi.

“NOP World” xalqaro reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o'tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida Hindiston — 10,7, Tailand — 9,4, Xitoy — 8, Filippin — 7,6, Chexiya — 7,4, Rossiya — 7,1, Shvesiya — 6,9, Fransiya — 6,9 va Vengriya — 6,8 soat bilan yuqori o'rinlarni egalladi.

Noshirlik faoliyati rivojlanib, kitob mutolaasi yanada ommalashib borayotgani muloqotning audio, video vositalari, radio, televidenie, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o'rin egallashi bilan odamlarda kitob o'qishga

qiziqish yo'qoladi, degan fikr xato ekanligini ko'rsatmoqda. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalarining yangi turlari paydo bo'lishi natijasida kitobxonlik birmuncha pasaygan bo'lsa-da, matbuot odamlarda kitob mutolaasiga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Qator agentliklarning jahonda kitobga bo'lgan talabni o'rganishi shuni ko'rsatdiki, so'nggi 30 yilda bir nomdagi kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo'yicha 4 baravar ko'paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiyada 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda.

Mamlakatimizda noshirlik ishining zamonaviy huquqiy asoslari yaratilgan. O'tgan davr mobaynida 10 dan ortiq qonunlar, 30 dan ziyod qonunosti hujjatlari qabul qilindi. 1 ming 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olindi. Ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdota'minoti" majmualari tomonidan esa kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblarini ko'p ming nusxada nashr etmoqda.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 9576 ta axborot-kutubxona muassasalari mavjud bo'lib, shundan 12 tasi viloyat, 199 tasi tuman (shahar) va 928 tasi maktab axborot-resurs markazlari hamda 8648 tasi maktab kutubxonalari hisoblanadi. Ularga jami 4 047 738 nafar o'quvchilar a'zo bo'lgan.

Axborot-resurs markazlari, kutubxonalarda bugungi kunda jami 23 mln. dan ortiq kitob fondi mavjud. Ularning kitob fondini boyitish maqsadida har yili o'quvchilarga sinfdan tashqari mutolaa uchun badiiy adabiyotlar xarid qilinadi.

XULOSA

O'quvchilar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida turli madaniy-ma'rifiy, intellektual tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. O'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va rag'batlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida "Kitob taqdimoti", "Adabiyot kunlari", "Kitobim-oftobim" nomli ma'rifiy tadbirlar, "Maktab-kutubxona-oila-jamoat tashkilotlari" xayriya tadbiri va ota-onalar ishtirokida "Bir farzandga - uch kitob" aksiyalarini hamda "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Kitobxon maktab" tanlovlarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

7. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
8. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
9. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
10. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
11. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
12. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
13. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/aprel_oyining_birinchi_haftasida_kitobhonlik_haftaligi_utkaziladi.

SPORT MAKTABI O'QUVCHILARIDA O'ZINI-O'ZI IRODAVIY BOSHQARISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Tog'ayev Dostonjon

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada sport maktabi o'quvchilarining o'zini-o'zi irodaviy boshqarishning o'ziga xosligi va sportchilarda o'zini-o'zi irodaviy boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sportchi, irodaviy xususiyatlar, xarakter, sport musobaqalari, iroda, o'zini-o'zi boshqarish

Аннотация: В статье рассматриваются особенности добровольного самоуправления у учащихся ДЮСШ и социально-психологические особенности добровольного самоуправления у спортсменов.

Ключевые слова: спортсмен, сила воли, характер, спортивные соревнования, воля, самоуправление.

Abstract: This article discusses the specifics of voluntary self-management of sports school students and the socio-psychological features of voluntary self-management in athletes.

Keywords: athlete, willpower, character, sports competitions, will, self-management

KIRISH

Iroda – sportchining ongli harakatlarida, o'zini-o'zi boshqarishida ifodalanadigan, ayniqsa, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishida namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faollikdir. Shuningdek, sport maktabi o'quvchilari kamolotida sportchilarga xos sifatlar bilan birga irodaviy xususiyatlar ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan, sport maktabi o'quvchisi o'zini-o'zi anglashi bilan birga o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi orqali o'zining xulq-atvor, xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati tarkib topadi.

O'zini-o'zi irodaviy boshqarish adekvat, maqsadga yo'naltirilgan, integratsiyalashgan psixikaning namoyon bo'lish shartidir. Sportchining o'zini-o'zi tarbiyalashi va o'zini-o'zi takomillashtirishi, sportning texnika va taktikasiga oid ta'lim olishi, kasbiy faoliyati, jamiyatdagi hatti-harakatlari muntazam ravishda undan o'zini-o'zi boshqarishni talab qiladi. Bu ong va sportchining o'zini-o'zi anglashining muhim belgisi hisoblanadi. U sportchining o'z ichki dunyosi va tashqi ob'ektiv borliqni adekvat psixik aks ettirish sharti sifatida yuzaga keladi. O'zini-o'zi

boshqarish sportchini yuqori darajadagi murakkab tizimining va g'alabaniy nishonasi sifatida yuzaga keladi va sportchi faolligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Iroda faoliyatning ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o'z-o'zini boshqarish sifatida eng avvalo o'ziga, o'z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir. Bu hukmronlik har xil sportchilarda har xil darajada ifodalanishi hammaga ma'lumdir. Oddiy ong o'zining namoyon bo'lishi tezligiga qarab farqlanadigan, bir qutbda irodaning kuchi, boshqa birida esa kuchsizligini ifodalaydigan irodaning individual xususiyatlarining spektrini qayd qiladi. Kuchli irodaga ega bo'lgan sportchi qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida uchraydigan istagan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, ayni chog'da qat'iylik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi irodaviy fazilatlarini namoyon qiladi. Irodasi sust sportchilar qiyinchiliklar oldida ojizlik qiladilar, qat'iyatlik, sabr matonat ko'rsatmaydilar, xulq-atvor va faoliyatning ancha yuksak, ma'naviy jihatdan oqlangan motivlari uchun o'zlarini tuta bilmaydilar, bir daqiqalik maylni yo'qota olmaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Jamiyat a'zosi bo'lgan sportchi o'zining butun faoliyati davomida atrofdagi kishilar uchun nazoratning ob'ekti bo'lib kelgan. Jamiyat nazorati ostida sport maktabi o'quvchisi ta'lim oladi va tarbiyalanadi, sport faoliyati bilan band bo'ladi, axloq qoidalari asosida xatti-harakatlarini amalga oshiradi. Boshqa tomondan, sportchi nazoratning sub'ekti sifatida uning o'zi nazorat mexanizmlarini tashuvchisi hisoblanadi. Bu nazorat boshqalarga yoki shaxsning o'ziga yo'naltirilgan bo'ladi. Birinchi holatda nazorat ob'ekti bo'lib boshqalarning xatti-harakatlari va ijtimoiy, tabiiy va texnik tizimdagi faoliyat jarayonining harakteri xizmat qiladi. Lekin shaxsning shaxsiy xatti-harakatlari, psixik holatlari ham uning o'zi uchun nazorat ob'ekti bo'lishi mumkin. Aynan oxirgi vaziyatda, ya'ni shaxsning o'z psixik sohasini nazorat qilishida, biz o'zini-o'zi boshqarishni ko'ramiz.

“Bir tomondan, o'zini-o'zi boshqarish shaxsning o'zi tomonidan nazorat qilinadigan va tekshiriladigan holatlarsiz amalga oshmaydi. Boshqa tomondan esa, o'zini-o'zi nazorat qilishning tarkibida “hamisha bo'lishi kerak”, degan etalon ishtirok etadi. Boshqarish va etaloning qay darajada mos tushishi taqqoslash operatsiyalari vositasida aniqlanadi. Agar boshqarishning oxirida biror bir fakt keltirilmasa bu ularning orasidagi mutanosiblik mavjudligidan dalolat beradi”¹³⁸.

¹³⁸ Халилова Н.И. ва бошқ. Шахсда ўзини-ўзи назорат қилишнинг таркибий тuzилмалари. Баркамол авлодни шакллантириш – маънавий тараққиёт омили. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Т., 201-бет.

MUHOKAMA

Sportchi faolligining har xil ko'rishlari ichida o'zini-o'zi irodaviy boshqarish alohida o'ziga xos shakldan iboratligi bilan ajralib turadi. O'zini-o'zi boshqarish sportchining o'z xatti-harakatlarini (xulq-atvorini) o'zi boshqarishini, u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarini tormozlashni talab qiladi, binobarin, u anglanilgan turlicha harakatlar tizimi mujassam bo'lishini nazarda tutadi. Irodaviy faoliyat mohiyati shunda ko'zga tashlanadiki, bunda sportchi o'zini o'zi boshqaradi, o'zini qo'lga oladi, o'zining xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug'lsa, u holda ularni tamoman yo'qotadi ham.

Iroda paydo bo'lishining bosh omili-sportchi tomonidan faoliyatning turli tarkiblarining irodaviy harakatlarni tizimli tarzda tatbiq etilishi bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi sportchining faolligidir. O'zini-o'zi irodaviy boshqarish faoliyati sportchi tomonidan keng qo'lamda anglanilgan va ruhiy jarayonlarni amalga oshirish xususiyati bo'yicha irodaviy zo'r berishni talab qiladigan aqliy amallarni taqozo etadi. Bunday aqliy amallar favquloddagi vaziyatni baholash, kelgusida amalga oshirishga mo'ljallangan harakatlar uchun vositalar va operatsiyalar tanlash, maqsad ko'zlash va unga erishishning usullarini saralash, ularni tatbiq etish uchun muayyan qaror qabul qilish kabilar bo'lib hisoblanadi. Ushbu amallarning barchasi irodaviy faoliyatning operatsional tomoni deb baholanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ba'zi psixologik holatlarda, vaziyatlarda o'zini-o'zi irodaviy boshqarish faoliyati sportchining butun hayot yo'lini aniqlab beradigan, uning ijtimoiy-psixologik qiyofasini namoyon qiladigan va ma'naviy-axloqiy qadriyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan qarorga kelish bilan uyg'unlashadi. Shuning uchun bunday irodaviy harakatlarni amalga oshirish jarayonida sportchi ongli harakat qiluvchi sub'ekt tariqasida ham ularning kashfiyotchisi, ham bir davrning o'zida ijrochisi (bajaruvchi) bo'lib ishtirok etadi. Mazkur holatda sportchi o'zida to'kis mujassamlangan qarashlari tizimiga (dinamik stereotipiga), iymon-e'tiqodiga, ishonch va dunyoqarashiga, qadriyatiga, hayotiy munosabatlari majmuasiga, aql-zakovatiga, ma'naviyatiga asoslangan holda ongli yo'l tutadi.

Sportchining hayot yo'lida qadriy xususiyat kasb etuvchi javobgarlik hissi irodaviy harakatlarni tatbiq qilishda uning miyasiga mujassamlashgan, anglanilgan barcha ijtimoiy-psixologik shartlangan fazilatlar, sog'lom fikr, ustuvor hissiyot tariqasida faollashadi, mustahkamlanadi hamda baholash, qarorga kelish, tanlash, ijro

etish jarayonlariga ta'sir qilib, umumiy hamkorlik tizimida o'z izini qoldiradi. Javobgarlik hissi shaxs ma'naviyati, ruhiyati, qadriyati namoyon bo'lishi, kechishi, takomillashishi bosqichlarining boshqaruvchisi, ongli turtkisi, sifatining ko'taruvchisi funksiyasini bajaradi.

NATIJALAR

R.M.Zagaynov, chempion sportchi irodasining alohida ajralib turuvchi xususiyati, uning irodasi shaxsning faoliyatda ishtirok etuvchi barcha psixologik tizimlari bilan "bog'lanish kanallariga" ega ekanligini ta'kidlab, bir necha parametrlarni ko'rsatadi.¹³⁹

Ulardan **birinchisi**, shaxsning ma'naviy jihatdan quvvatini ta'minlovchi ichki dunyosi bilan. Ya'ni sportchining dunyoqarashi irodaga va iroda kuchining namoyon bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash sportchilarning musobaqa va mashqlantirish jarayonidagi har qanday qiyinchiliklarni yengishlarida ularning irodalarini harakatga keltiruvchi buyuk kuchdir. Ishonch-e'tiqodlar kishining intilishlari va harakatlarini ongli intilish va harakatlar bo'lishiga yordam beradi. Intilishlarimiz va harakatlarimiz, ongli intilish hamda harakatlar bo'lsa va harakatlarimiz qaratilgan maqsad mug'im bo'lsa, bu harakatlar ham juda aniq, qat'iy va barqaror bo'ladi. Ulug' maqsadlar, yuqori faollashgan energiya tug'diradi.

Ikkinchisi, tafakkuri bilan, bunda iroda aql-idrokka "rahbarlik qiladi", ya'ni faoliyat manfaatlaridan kelib chiqib, eng muhim qarorni qabul qilishga "undaydi". Ya'ni, irodaviy jarayonlarning va irodaviy harakatlarning barcha momentlarida nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tafakkur, ayniqsa katta rol o'ynaydi. Irodaviy harakatlar aql bilan qilinadigan harakatlardir. Sportchi bor bilimlari va tajribasiga asoslangan holda o'ylab biron maqsadni qo'yadi va harakat qiladi, o'ylab ma'lum qarorga keladi, o'ylab maqsadni amalga oshirish yo'li va vositalarini tanlab oladi, o'z harakatlaridan kelib chiqadigan natijalarni oldin o'ylab ko'radi va o'ylab harakatga kirishadi. Sportchi o'zining harakatlarini oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish, o'ylash fikr qilganda ham puxta fikr qilmak demakdir. Tafakkur va nutq faoliyati tufayli biz o'z intilishlarmizni juda yaxshi anglab olamiz, harakatlarda ko'zga tutgan maqsadlarimiz juda ham aniqlashadi, qabul qilingan qarorlarimiz yanada mahkamroq asoslanadi va u asosli qaror bo'ldi. Qiladigan harakatlarimiz esa, rejalashgan va tartibli bo'ladi. Tafakkur faoliyati vazminlik va o'zini tuta bilish, qat'iyat va chidamlilik kabi kuchli iroda sifatlarini belgilaydi.

¹³⁹ Загайнов Р.М. К проблеме уникальности личности спортсмена-чемпиона. "Спортивный психолог" журналы №1(4), 2005, 4-6 б.

Uchinchi, motivatsiya bilan, bunda iroda motivatsiyani yoki uni optimallashtirish vositasini izlashni boshqaradi; motivlar kurashida hissiyotlarning roli kattadir. Hissiyotlar bizni muayyan bir qarorga kelishga undaydi. Bunda hissiyotning iroda jarayonidagi roli ikki turli bo'lishi mumkin: ijobiy faollashtiruvchi va salbiy tormozlashtiruvchi rol o'ynashi mumkin. Agar biron maqsadni tasavvur qilish kishining kuchli hissiyotlarini yo'qotsa va bunday hissiyot ta'siri bilan sportchi asoslangan qarorga kelsa, bunday paytda hissiyotlar sportchi irodasini faollashtiradi hamda uni mustahkamlaydi. Bunday hollarda hissiyotlar maqsadga erishishda sportchilarning dadilligini, kuchini, qat'iyatligini, barqarorligini va sabotini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, psixofiziologik holat bilan, bunda faqat iroda kuchigina o'ta kuchli charchoqni yengib o'tishi, deyarli mavjud bo'lmagan zaxira kuchlarini topadi va hokoza. Iroda kuchiga hissiyotlar juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotlar iroda jarayonining dastlabki fazasi bo'lmish intilishlar bilan mustahkam bog'liq. Hissiyotlar intilishning kuchiga ta'sir qiladi, maqsad va uni amalga oshirish yo'li va vositalari haqidagi tasavvurlarni oydinlashtiradi va jonlantiradi.

Qilinadigan katta ishlarda yo'nalish, ishonch, g'ayrat va ijobiy ehtirolarning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum. Yuksak siyosiy-ijtimoiy va axloqiy hissiyotlar, vijdoniy burch hissi va xususan vatanparvarlik hissi sportchi irodasini mustahkamlaydi, uni kuchli va sabotli qilib qo'yilgan maqsadni amalga oshirishida ishonch bag'ishlaydi.

XULOSA

Sporchi hissiyotlari, agar irodasiga qaratilgan maqsadga mos kelmasa, u holda hissiyotlar irodaga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bunday hollarda hissiyotlarning salbiy ta'siri irodani tormozlashtiradi. Ko'pincha qat'iyatsizlik, beqarorlik va irodani o'zlashtirish shunday hissiyotlar ta'siri ostida voqe bo'ladi. Ba'zan iroda kuchini ishga solib ortiqcha ixtiyorsiz harakatlarni quvvatlovchi hissiyotlarni cheklashga, ularni kuchsizlantirishga yoki batamom yo'qotib yuborishga to'g'ri keladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, mana shunday hollarda iroda kuchining alohida sifatleri bo'lgan vazminlik va o'zini tuta bilish sifatleri ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- 1.Ivanov P.I, Zufarova M.Y. Umumiy psixologiya darslik T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2008.
- 2.Gapparov Z.G Sport psixologiyasi: Jismoniy tarbiya institute talabalari uchun darslik/ tarj M.Omonov, T.: 2011

ЧИЗЕЛЬ-КУЛЬТИВАТОР-УДОБРИТЕЛЬ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГРЕБНЕЙ И ВНЕСЕНИЯ УДОБРЕНИЙ

**Батиров Зафар Лутфуллаевич - д.т.н., доцент , Амиркулова Шукурона
Бехбуд кизи - студент Каршинского инженерно-экономического
института**

E-mail: botirov1972@inbox.ru

Аннотация. Приводится новая технология внесения удобрений под посевы хлопчатника и чизель-культиватор-удобритель, оснащенный туковыми сошниками для формирования гребней и локального внесения удобрений в зону деятельности корневой системы хлопчатника.

Ключевые слова: технология, удобрение, хлопчатник, чизель, удобритель, сошник, гребня, послойное внесение, урожайность.

Lean-management tizimining eng muhim vositalaridan biri "kayzen" uzluksiz takomillashtirishlar madaniyati, xususan, ushbu jarayonga xodimlarning qanday jalb qilinganligi hisoblanadi.

Toyota Lean-management tizimi yaratuvchilaridan biri bo'lgan Tayiti Ono yetti turdagi yo'qotishlarni ajratib ko'rsatdi:

- ortiqcha ishlab chiqarish sababli yo'qotishlar;
- kutish sababli vaqtni yo'qotish;
- keraksiz tashish sababli yo'qotishlar;
- keraksiz ishlov berish bosqichlari sababli yo'qotishlar;
- ortiqcha zaxiralar sababli yo'qotishlar;
- keraksiz ko'chirishlar sababli yo'qotishlar;
- nuqsonli mahsulotlar chiqarilishi sababli yo'qotishlar [5].

Shu bilan birga, Lean-management tizimi doirasida u do'konda yoki bank ofisida ish joyi bo'ladimi, buxgalter yoki direktorning idorasi bo'ladimi, har doim o'z ish joyingizni yanada samarali qilish uchun ob'ektiv ehtiyoj bo'ladi. Axir, rejalashtirilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish ish joyining mohirlik bilan tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Bunga qanday erishish mumkinligi inqilobiy "5S" tizimi tomonidan ta'riflanadi.

"Besh S" (5S, 5C) - ish joyini samarali tashkil etish tizimi bo'lib, u operativ hududning samaradorligi va boshqariluvchanligini sezilarli darajada oshirish, korporativ madaniyatni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va vaqtni tejash imkonini beradi.

"5S" ning asosiy g'oyasi – optimallashtirilishi mumkin bo'lgan hamma narsani optimallashtirish kerak, hamma narsa hisobga olinishi kerak va ayni paytda qiymat qo'shmaydigan yo'qotishlarni bartaraf etish kerak.

"5S" tizimining asosiy maqsadlari:

- mehnat unumdorligini oshirish;
- xodimlar ish o'rinlarining qulayligi va ergonomikligini oshirish;
- ko'chirish, tashish va ortiqcha zaxiralar kabi yo'qotishlarning turlarini aniqlash va bartaraf etish;
- ish yuklamasini bir maromda taqsimlash uchun standartlashtirish va qo'llab-quvvatlash tizimi [6].

Eng so'nggi axborot texnologiyalarining asri bo'lishiga qaramay, ish vaqti degan mashhur maqol tobora dolzarb bo'lib bormoqda. "5S" tizimi nafaqat vaqt yo'qotishlarini kamaytiradi, balki ish sifati, xavfsizligi va samaradorligini oshiradi, xodimga tashabbus va ijodkorlik ko'rsatish imkoniyatini beradi, natijada yangi samarali ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

"5S" tizimini qo'llashning amaliy maqsadi yo'qotishlarni (birinchi navbatda harakat va zaxiralardan ko'rilgan yo'qotishlarni) qisqartirish, nuqsonlar yo'qligi holatiga erishish va uzluksiz takomillashtirish hisobiga ish joyini tashkil etish samaradorligini oshirishdan iborat.

Bo'linmalarda operasion samaradorlik (bank mijozlari ko'rib turgan va o'zlarida his qilib turgan narsa)ni oshirish maqsadida «Sberbank» OAJ tijorat banki o'z faoliyatiga lean-management tizimini tadbiiq etish, ya'ni "Toyota Production System" tamoyillari va vositalaridan foydalanishga o'tdi.

«Sberbank» OAJ samaradorligini oshirish uchun asos bo'lishi kerak bo'lgan "Toyota Production System" (tejamkor ishlab chiqarish, Lean-menejment) konsepsiyasi bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda to'liq ko'chirib olingan edi. Bank faoliyatining farqi esa axborot bilan ishlashda ifodalanadi. Shunga mos ravishda, Ishlab chiqarish tizimi uni olish va almashinuviga tegishli bo'lgan jihatlarida ancha samarali bo'ladi.

Shu bilan birga, amaliyotda, xodimlar Sberbank tomonidan Ishlab chiqarish tizimini tadbiiq etishdan ma'no va foydani ko'rishmaydi, ularga bu qo'shimcha yuk

va vaqtni shunchaki havoga sovrish bo‘lib tuyuladi. Toyota kompaniyasining asosiy tamoyili hisoblanadigan yana bir muhim jihat – odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ya’ni barcha xodimlar o‘z ishini bajarayotganda doimo muvaffaqiyatli bo‘lish huquqiga ega ekanligiga ishonirish e’tibordan chetda qolgan edi. Toyota korporativ madaniyatida rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat juda katta ahamiyatga ega. Rahbariyat har doim ochiq va iltifotli bo‘lishi, ishlab chiqarishda shunchaki ko‘rinish berish uchun emas, balki yordam ko‘rsatish uchun bo‘lishi kerak. Agar rahbariyat xodimlari muammolarni topishi va takomillashtirishlarni joriy etishini istasa, unda buning uchun vositalarni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Amaliyotda xodimlarga katta yuklama beriladi («Sberbank» OAJ ning ba’zi bo‘linmalarida shtat birliklari bilan to‘ldirilishining aniq yetishmovchiligi mavjud), bu esa, o‘z navbatida, kadrlarning katta qo‘nimsizligiga olib keladi.

Boshqa tomondan, «Sberbank» OAJ Ishlab chiqarish tizimini tadbiiq etish natijasida operasion faoliyatda sifatli yaxshilanishlar: navbatda kutishlarning vaqtini ikki barobarga kamaytirish, tushlik tanaffusini bekor qilish va operasion oynalarni universallashtirish hisobiga mijozlarning birdan avjga chiqadigan oqimini jilovlash, operatsiyalarni sodir etish vaqtini kamaytirishga erishishning uddasidan chiqoldi. Miqdoriy natijalar qismi bo‘yicha kommunal to‘lovlarni qabul qilish o‘shish sur’atining ikki barobar oshgani, nazorat guruhi bilan solishtirganda blis-o‘tkazmalari bo‘yicha foizsiz daromadning 7,5 barobar oshgani, qog‘oz va kanselyariya mollarining sezilarli darajada tejalgani, eng muhimi esa, mijozlarga yo‘naltirilganlikning o‘sganini ta’kidlash lozim.

Boshqaruvda yuqorida keltirilgan lean-management, kayzen, 5s modellarining foydalanilishi bankning pirovard natijalarini yaxshilashga yordam berdi (1-jadval).

1-jadval

**Sberbank Rossiya OAJning foyda va zararlarini to‘g‘risidagi ma’lumotlari
(mln. rublda) [7]**


Ko‘rsatkich nomi	2017	2018	2019
Asosiy faoliyatda olingan daromad, mln. rub.	2 630 400	3 007 568	3 600 744
Ekspluatatsiya xarajatlari, mln. rub.	2 539 200	1 753 600	1 952 000
Bank foydasi (1– 2),	91 200	1 253	1 648

	Ko'rsatkich nomi	2017	2018	2019
.	mln. rub.		968	744
.	Foyda solig'i, mln. rub.	39 456	46 164	54 011
.	Byudjetga ajratmalar, mln. rub.	19 728	23 082	27 005
.	Sof foyda, mln. rub.	712 288	1 207 804	1 594 733

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari bank tomonidan tanlangan boshqaruv modellari samaradorligini harakterlaydi. Bank yillik hisobotlarida keltirilishicha, 2017 yilda bankning sof foydasi 712,3 mlrd. rubl, 2018 yilda 1207 mlrd. rubl hamda 2019 yilda 1594,7 mlrd. rublni tashkil etgan.

Sberbankning mijozlarga yo'naltirilgan biznes modeli barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga oladi. Bank o'z faoliyatida **Run – Change – Disrupt** yondashuvidan foydalangan holda uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yo'naltirilgandir.

Bugungi kunda Sberbankning biznes modeli mijozlarining asosiy moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ammo vaqt o'tishi bilan unga moliyaviy bo'lmagan xizmatlarning takliflari ham integratsiya qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar jiddiy tarzda mijozning bank bilan o'zaro hamkorlik usullarini o'zgartirmoqda va uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy muassasa sifatidagi bankning mohiyati ham o'zgaradi: mijoz talabiga ko'ra moliyaviy tranzaksiyalar operatoridan bank mijoz bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi platformaga aylanadi, bu yerda moliyaviy xizmatlar mijoz taklifining faqat bir qismi bo'lib qoladi.



1-rasm. Sberbank OAJning mijozlar bilan ishlash samaradorligi ko'rsatkichlari [8]

Mijozlar uchun kurashda bank mijozlar bazasining zarur sodiqlik darajasini saqlab qoladi, ya'ni biznes yo'nalishlari bo'yicha strategiyalar ushbu vazifaga muvofiq ravishda to'g'rilanib turiladi. Empatiya va dizayn fikrlash tamoyillari mijozlar bilan ishlashning kelajakdagi biznes modellarini rivojlantirishda asosga aylanishi kerak. Mijozlar ma'lumotlari, shu jumladan, BigData bilan ishni qurishga yangi yondashuvlarning integratsiyasi bankka barcha toifadagi mijozlar uchun takliflarni "ommaviy tarzda shaxsiylashtirish" imkoniyatini ta'minlaydi.

Bankning mijozlarga yo'naltirilgan biznesni boshqarish modellari samaradorligi natijasida mijozlarning soni hamda ularning sodiqlik darajasi yildan yilga yaxshilanib bormoqda (1-rasm).

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, bir kompaniyaning Ishlab chiqarish tizimini qanchalik samarali, muvaffaqiyatli va hatto ulug' iste'dodga ega bo'lishiga qaramasdan, butunlay va o'zgarishsiz ko'chirish mumkin emas. Uning barcha tamoyillariga to'la amal qilish juda qiyin. O'ziga xos Ishlab chiqarish tizimi va madaniyatini yaratish uchun uning eng mahsuldor va mos elementlarini olish kerak. Shu bilan birgalikda Toyota kompaniyasining ishlab chiqarish jarayonlarida hamma narsa ham mukammal emas. Muammolar bor, lekin ularni hal qilish mexanizmlari ham mavjud. Yaxshi yo'lga qo'yilgan tizimning mexanizmlari. Biroq, u Toyota kompaniyasini yoki «Sber» OAJ tizimi bo'ladimi, faqat uning falsafasini qabul qilib va uning muvaffaqiyatiga ishonibgina, ushbu tizimning bir qismiga aylanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

14. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://uza.uz/uz/posts>
15. Усоскин В. Современный коммерческий банк: управление и операции. М: Антидар, 1998-320 с.
16. А.Омонов. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. Монография, 2-нашри. –Т.: “Иқтисод-молия”. 2010. 40-б.
17. Лайкер Д. Дао Toyota: 14 принципов менеджмента ведущей компании мира. М.: Альпина Бизнес Букс, 2005
18. 5S для офиса: как организовать эффективное рабочее место / под ред. А. Белявцева. М.: Институт комплексных стратегических исследований, 2008
19. 5S для рабочих: как улучшить свое рабочее место / под ред. В. Болтрукевича. М.: Институт комплексных стратегических исследований, 2007
20. Сбербанк йиллик ҳисоботлари маълумотлари, <https://www.sberbank.ru>
21. Сбербанкнинг 2020-2023 йилларга мўлжалланган стратегияси, <https://www.sberbank.ru/strate>

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA STRATEGIK QARORLARI QABUL QILISHDA AXBOROT TIZIMLARINI QO‘LLASH.

Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar
sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat hududiy
inspeksiyasi boshlig‘i*

zafargis@umail.uz

***Annotatsiya:** Maqolada mahalliy davlat hokimiyat faoliyatini raqamlashtirish orqali hududlarni rivojlantirish bo‘yicha ular tomonidan chiqariladigan strategik qarorlarni axborot tizimi orqali ishlab chiqish, bu bilan ishlab chiqilgan strategik qarorlarni o‘z vaqtida sifatli bajarilishi nazoratini olib borish, sarflanadigan mablag‘larni tejash hamda strategik qarorlarni o‘z vaqtida ijrosini ta‘minlash masalasi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish, strategik qarorlar qabul qilish tizimi, jamoatchilik nazorati.*

***Аннотация:** В статье рассматривается разработка стратегических решений по развитию регионов путем цифровизации местного самоуправления через информационную систему, что позволяет контролировать качество своевременной реализации стратегических решений, экономии денежных средств и совершенствование стратегических решений. покрыт.*

***Ключевые слова:** местное самоуправление, автоматизация систем управления, система принятия стратегических решений, общественный контроль.*

***Abstract:** The article deals with the development of strategic decisions on the development of regions through the digitalization of local government through the information system, thereby monitoring the timely and quality implementation of strategic decisions, saving costs and strategic decisions. The issue of timely implementation is covered.*

***Keywords:** local government, automation of management systems, strategic decision-making system, public control.*

KIRISH

Bugun hududlarni rivojlantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki boshqacha aytganda, barcha bo‘g‘indagi hokimliklarning mas‘uliyati tobora ortib

borayapti. O'tgan davrda davlat hokimiyati organlari faoliyati qonunchiligida ham tashkiliy-amaliy jihatlarida ham tub o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, ijtimoiy sheriklik, markazda hamda joylarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat va hududiy dasturlarini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirildi. Ijro hokimiyatining vakillik organlari oldida hisobdorligi tamoyili Konstitutsiya hamda qonunlarda mustahkamlab qo'yildi. Bu esa o'z-o'zidan barcha bo'g'indagi hokimliklar zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni yuklamoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etish ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etilganligiga bevosita bog'liq. Shuningdek, boshqaruvning barcha bo'g'inida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etilganligi 2017— 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarga erishish kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomalarida *«So'nggi 4 yilda barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi.... Amaldagi nazorat tizimi esa ko'proq formal tusga ega bo'lib, ijroni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo'naltirilmayapti. Shuning uchun kelgusi yilda bu borada yangi ish tizimi joriy etiladi»* deb ta'kidlangan. Shuningdek, *«Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylanishi kerak»* deb ta'kidlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 martdagi PQ-5025-son «Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori bilan tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish uchun quyidagilar axborot manbalari hisoblanishi belgilangan:

- rasmiy statistik ma'lumotlar;
- davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlari;

- oqibatlarni prognozlashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-tahliliy materiallar va nashrlar, ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar hamda yig'ilishlar materiallari;
- vakolatli tashkilotlar va ishlab chiquvchi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarning natijalari;
- ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlarda e'lon qilingan nashrlar;
- **tartibga solish ta'sirini baholash**dan o'tkazish doirasida davlat organi va tashkiloti tomonidan, shu jumladan bevosita joyiga chiqqan holda o'tkazilgan o'rganishlar jarayonida olingan (aniqlangan) ma'lumotlar;
- qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Shuningdek, Ishlab chiqilayotgan qaror Tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat majburiy tarzda **tartibga solish ta'sirini baholash**dan o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 noyabr, PQ-4505-son «Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori 1-ILOVAsi bilan tasdiqlangan «Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining huquqiy monitoringini o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM» bilan Davlat boshqaruvi organlari tomonidan huquqiy monitoring quyidagi bosqichlarda o'tkazilishi belgilangan:

- huquqiy monitoring ob'ektiga oid ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish;
- tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash;
- normativ-huquqiy hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- huquqiy monitoring yakunlari bo'yicha tayyorlangan tahliliy ma'lumotnoma va takliflarni Adliya vazirligiga taqdim qilish.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan parlament, davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari amaliyotiga nazorat-tahlil faoliyatining xalq bilan samarali muloqotga asoslangan yangi shakli joriy qilindi. Parlament a'zolari muayyan tuman misolida joylardagi haqiqiy ahvol, qonunlar, dasturlar ijrosini o'rganmoqda. Uning natijalari esa mahalliy Kengashlar sessiyalarida keng jamoatchilik ishtirokida tahlil

etilayapti, mavjud muammolar yechimi yuzasidan aniq qarorlar qabul qilinmoqda va ularning ijrosi nazoratga olinmoqda.

Bugungi kunda jismoniy hamda yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimidagi yangiliklar, ushbu sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, Prezidentimiz tomonidan mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlarining islohotlar natijadorligi va samaradorligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar aks etishi ayni muddaodir.

Bugun hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini ishlab chiqishda fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda ijtimoiy sheriklik mexanizmidan unumli foydalanish muhim o'rin tutadi. Qonunlar loyihasini ishlab chiqishda ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda xususiy sektor vakillarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, byudjetni rejalashtirish, bosh reja singari dolzarb masalalarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishga jalb etishning majburiy mexanizmini aniq belgilab olish zarur.

Buguni kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarni samaradorligi bevosita ijro hokimiyati organlarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilinishi bilan bog'liq. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi quyidagi fikrlar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etish;

Ikkinchidan, ijro hokimiyati organlari zimmasidagi vazifalarni amalga oshirish tartibini, ularning mas'uliyat doirasini aniq belgilash;

Uchinchidan, hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirish;

To'rtinchidan, mamlakatimizda qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda ijro hokimiyati organlarining uyg'un faoliyat olib borishini ta'minlash;

Beshinchidan, davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish;

Oltinchidan, Davlat boshqaruvini haddan tashqari markazlashtirishdan voz kechish;

Yettinchidan, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga mas'ul bo'lgan rahbarlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha vakolatlarni tuman va shahar hokimlariga to'liq o'tkazish;

Sakkizinchidan, davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirish talab qilinadi;

To'qqizinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari ko'rish;

O'ninchidan, hokimlarning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo'yishdan iborat. R.X.Alimov, S.A.G'anixo'jaevlar tomonidan tayyorlangan "Mahalliy iqtisodiyot va menejment" darsligida mahalliy tuzilmalarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga baho berish masalasi tadqiq etilgan. Hokimiyatlar faoliyatini strategik rejalashtirish va tezkor boshqarishga doir taklif va tavsiyalar berishgan. I.U.Murakaev va I.S.Saifnazarovlar boshqaruv qarorlariga quyiladigan talablar, unumdorlik me'yorlari bo'yicha boshqarish, qaror qabul qilishda kommunikatsiya va inson omilini tahlil qilishgan.

Tadqiqotchi G. M.Shamarova munisipal boshqaruvda qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini quyidagi omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi: **1)** qaror loyihasini tayyorlovchi yoki alohida qaror qabul qiluvchi shaxsning qanday ma'lumotdan foydalanishi; **2)** qaror qabul qiluvchi shaxs uchun qanday siyosiy manfaatlar va ijtimoiy qadriyatlar muhim hisoblanishi; **3)** qaror qabul qiluvchi shaxsning o'zgarishlarga munosabati va o'zining shaxsiy javobgarligini anglash.

Yangi zamonaviy axborot texnologiyalari korxonalarining xarajatlarini kamaytirishning yangi yondoshuvlarini ochib bormoqda. «Integratsiya axborot jarayonining barcha jihatlarini qamrab olishi lozim. Birlamchi axborotlar bir necha faoliyat yo'nalishlarida axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirmoqda, ma'lumotlar axborot kanallari orqali bir marta bir yo'nalishda - hisoblash markaziga yetkaziladi, shundan so'ng har qanday boshqaruv organi ushbu axborotlarni talab qilishi va undan foydalanishi mumkin», - deydi A.Shmigel.

Biznes jarayonlarini yangilash xarakatining asoschisi Mayk Xammer bu jarayonni «Biznes jarayonlari samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari, ya'ni sifat, narx, xizmat ko'rsatish, tezlikni sezilarli yaxshilash uchun biznes jarayonlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va loyihalash» deb ta'riflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini menejment fanining fundamental qonunlari, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish konsepsiyalari, shuningdek,

boshqaruv qarorlari qabul qilishga doir tadqiqot olib borgan xorij va O‘zbekistonlik olimlar, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ma’ruza, nutqlari va qarorlari tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali qarorlar qabul qilish tizimini takomillashtirish, strategik qarorlar qabul qilish hamda ularni ijro holatini nazoratini olib borish uchun ijro hokimiyati organlari faoliyatini **raqamlashtirish** jarayonida qo‘llaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun hududlarning mustaqilligini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlardan sanaladi. Hududlarni rivojlantirish strategiyasini va tegishli kompleks dasturlarni ishlab chiqishga yagona yondashuv yo‘q. Bunday strategiya qonuniy maqomga ega bo‘lmaydi hamda mahalliy byudjetga bog‘lanmagan bo‘ladi. Oqibatda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tegishli strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi.

Mahalliy davlat hokimiyatlarida viloyat yoki shahar/tuman hokimliklari tomonidan qabul qilinadigan strategik qarorlar jarayonini raqamlashtirish zarur. Bu esa, uzoq muddatli qarorlar chiqarishda o‘z samarasini beradi.

Bunda taktik rejalar tuziladi, ularni amalga oshirish nazorat qilinadi, resurslar kuzatib boriladi va xakozo. Shuningdek, boshqaruv rejasi ya’ni, hajm-taqvim(kalendar) rejaları bajariladi, tezkor nazorat va qayd etish amalga oshiriladi.

Qabul qilinadigan qarorlar natijalari oradan uzoq vaqt o‘tgach ko‘rinar ekan, ushbu darajada strategik rejalashtirish kabi boshqaruv vazifalari muhim ahamiyatga ega. Boshqaruvning boshqa funksiyalari bu darajada yetarlicha to‘liq ishlab chiqilmagan. Ko‘pincha boshqaruvning strategik darajasi strategik yoki uzoq muddatli rejalashtirish deb yuritiladi. Ushbu darajada qabul qilingan qarorning haqqoniyligi uzoq vaqt o‘tgachgina o‘z tasdig‘ini topishi mumkin.

Qaror qabul qilish jarayonini ta’minlash, ya’ni aynan, kerakli axborotni kerakli vaqtda va kerakli joyga taqdim etish – raqamlashtirish tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois ham qaror mohiyati, uni qabul qilish jarayoni, qaror qabul qilishning barbod bo‘lishi tashkilotning axborot tizimi faoliyatiga, u yerda qo‘llaniladigan texnologiyaga sezilarli ta’sir qiladi va hatto axborot tizimining butun boshli sinfi - qaror qabul qilish tizimini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Boshqarishning yuqorida ko‘rib chiqilgan tizimi albatta, unga kibernetik nuqtai nazardan yondashuviga ko‘ra belgilangan. Agar boshqaruv tizimi haqida ayrim mavhumliklarsiz gapiradigan bo‘lsak, yuqorida qayd etilganlardan tashqari

tashkilotning boshqaruv tizimiga uning tashkiliy tarkibi, xodimlar, vazifani bajarish choralari ko'rish, ichki madaniyati va xokazo omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rahbar intellektual ish uchun o'z ish vaqtining 29%ni sarflar ekan, qolgan qismidan esa (71%) samarasiz foydalanadi. Boshqaruv qarorini qabul qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni (faktografik, statistik, iqtisodiy, ilmiy, siyosiy va hokazo) qayta ishlash natijasi bo'lgan axborot zarur. O'sib kelayotgan axborot oqimi tufayli va murakkab boshqaruv mexanizmining elementi sifatida muassasa xodimining strategik qarorlarni tayyorlash va qabul qilishga vaqti qolmaydi.

Bunda ish yuritishda innovatsiyalarni joriy etishning asosiy besh qoidasini taklif etilishi mumkin. Topshiriqni kim, qachon, qaerda bajarishi, axborotlarni qanday qilib to'plash va umumlashtirish masalalariga aniqlik kiritadi:

1. Topshiriqlarning ijrosi emas, natijasini ta'minlash lozim. Buning uchun jarayon alohida ixtisoslashgan topshiriqlarga ajaratilmasdan, alohida shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash kerak.

2. Jarayonni takomillashtirish uning ijrochilari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Natijada topshiriq jarayonga va uning maqsadiga bevosita aloqador bo'lgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Axborotni qayta ishlash natijalarini axborot to'plangan jarayonga joriy etish kerak, ya'ni axborot to'plagan xodimlar uni o'zi kayta ishlashi kerak.

4. Geografik jihatdan tarqoq resurslarga markazlashgan resurslar sifatida qarash. Zamonaviy axborot texnologiyalari nomarkazlashgan jarayonlarni markaziy boshqaruv orqali bir vaqtning o'zida nazorat qilish imkonini beradi.

5. Parallel faoliyat turlarini birlashtirish, ularning natijalarini emas. Bu yondashuv jarayonlarni amalga oshirishda parallel faoliyat turlarini o'zaro bog'lashni va uzluksiz ravishda muvofiqlashtirib turishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi tamoyillarning axborot texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilganida o'z samarasini ko'rsatishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan ularning qonunga rioya qilishlarini, o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishlarini kuzatish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tartib tamoyillarni belgilashda quyidagi omillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, ijro hokimiyati tomonidan qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarini maqsadga muvofiqligini nazorat qilishi kerak;

Ikkinchidan, mahalliy darajadagi qarorlar qabul qilish jarayoniga fuqarolar, mahalla faollari, jamoatchilik vakillarini jalb qilish zarur.

Bu nafaqat, qarorlarning samarali bo'lishini, balki ularning keng jamoatchilikka yetib borishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga fuqarolarning jalb etilishi davlat idoralari va mansabdorlar ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatishga ham olib keladi.

Uchinchidan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish usullari va shakllari, shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini baholashning aniq mezonlari ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Bugungi kunda jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni samarali yechish, keng ko'lamli islohotlarni izchil davom ettirish zarurati davlat boshqaruvi sohasida mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etmoqda" degan fikrlari asosida ijro hokimiyati organlarida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish borasida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1) Mahalliy davlat hokimiyati organlarida «Elektron hukumat» tizimini joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish; 2) Mahalliy davlat hokimiyati organlarida qaror qabul qilish jarayonini tizimlashtirish; 3) Mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashda jamoatchilik nazorati tizimini joriy etishdan iborat.

Barcha vazirliklar, qumitalar, aksionerlik jamiyatlari va boshqa tashkilotlar ayniqsa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan hududlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqiladigan davlat dasturlarini, strategik qarorlarini mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladigan qarorlari bilan zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda birlashtirish kerak. Bu ishlab chiqilgan strategik qarorlarni o'z vaqtida sifatli bajarilishi nazoratini olib borish, sarflanadigan mablag'larni tejash hamda strategik qarorlarni o'z vaqtida ijrosini ta'minlash bo'yicha o'z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijro hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlarning samaradorligi yuqorida keltirilgan omillarga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv qarorlari qabul qilishda erishilgan natijani uni qabul qilishdan oldin tahmin qilingan natija bilan taqqoslash juda zarurdir. Bu yuzaga kelgan kamchiliklar keyingi qabul qilinadigan qarorlarda takrorlanmasligini oldini olishda yordam beradi. Boshqaruv

tizimida qabul qilingan qaror albatta asoslangan, real, kechikmagan va tejamkor bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 martdagi PQ-5025-son «Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. <https://lex.uz/docs/5331912>;

11. Очилова, Н. Р. Структура образа жизни молодежи Узбекистана на современном этапе развития / Н. Р. Очилова, М. М. Мамасалиев. Текст: электронный // Молодой ученый. 2016. № 5 (109). С. 587–588. URL: <https://moluch.ru/archive/109/26479>.

12. Mamasaliyev M.M. (2020). Main directions of the influence of modern civilization on the spiritual image of the individual. Vestnik nauki. 3(11). 5-8.

13. Mirzoulug'Mirsaidovich, M., & Buriniyozovna, E. S. (2021). OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 100-404.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 noyabr, PQ-4505-son «Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. <https://lex.uz/docs/4577546>;

15. Xolov Aktam Xatamovich, Mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish masalalari. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/6_Xolov.pdf;

16. 2.2.Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot tizimlarini qo'llash. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. O'quv qo'llanma Toshkent-2008;

17. Dots. Turdibekov H.I. (SamDAQI) Qurbonov X. 302-Men guruhi talabasi Karimova G., 201 KMEvaUB guruhi talabasi. ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARIGA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH MUAMMOLARI. O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida investision-qurilish va innovasion jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI . 2019 yil 17-18 may II-qism 58-60 varoq;

18. Dotsent Muxammadiev O‘.A. (SamDAQI). KORXONA XARAJATLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA INTEGRALLASHGAN YO‘NDASHUVNING AHAMIYATI. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida investision-qurilish va innovasion jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani MATERIALLARI . 2019 yil 17-18 may II-qism 56 varoq;

19. O‘tkir BO‘TAEV, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yangicha yondashuv. 24 may 2017 yil. “Xalq so‘zi” <https://old.xs.uz/index.php/homepage/i-tisodijot/item/10233-ududlarni-izhtimoiy-i-tisodij-rivozhlantirishda-yangicha-jondashuv;>

20. Alimov R.X., G‘anixo‘jaev S.A. va boshqalar. Mahalliy iqtisodiyot va menejment / Akademik G‘ulomov S.S., prof. Xolmo‘minov Sh.R., dots. Kalonova M.Z. tahriri ostida nashr etilgan. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, -T.: 2004. 116-164 betlar;

21. Murakaev I.U. va Saifnazarov I.S. Menejment asoslari /darrik. –T.: O‘zbekiston, 2001;

22. Шамарова, Г. М. Эффективность принятия управленческих решений в системе муниципального управления // Управление персоналом. 2008. № 1. <http://www.hr-portal.ru/article/effektivnost-prinyatiya-upravlencheskikh-reshenii-v-sisteme-munitsipalnogo-upravleniya>

**IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHNING SBERBANK
TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TADBIQ
ETISH ISTIQBOLLARI**

Ziyo Sherzod

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida ipoteka kreditlari berish amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlari o‘rganib chiqilgan. Bunda Sberbank OAJ faoliyatida ipoteka kreditlari ajratish faoliyati samaradorligi tahlil qilinib, mazkur tajribalarni mamlakatimiz banklari amaliyotida qo‘llash bo‘yicha hamda ipoteka kreditlari ajratish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ipoteka, kredit portfeli, ko‘chmas mulk agentliklari, qayta moliyalashtirish stavkasi, uzoq muddatli kredit, qisqa muddatli kredit, Nostro, majburiy zaxira, DomClick

Аннотация: Статья посвящена возможностям улучшения работы ипотечного кредитования в коммерческих банках Узбекистана. При этом деятельность ОАО «Сбербанк» ведется по ипотечным кредитам, эти эксперименты проводятся по ипотечным кредитам, которые можно проводить с отечественными банками.

Ключевые слова: ипотека, ссудный портфель, агентства недвижимости, ставка рефинансирования, долгосрочный заем, краткосрочный заем, ностро, обязательный резерв, ДомClick

Abstract: The article is devoted to the possibilities of improving the work of mortgage lending in commercial banks of Uzbekistan. At the same time, the activities of Sberbank OJSC are carried out on mortgage loans, these experiments are being carried out on mortgage loans, which can be carried out with domestic banks.

Key words: mortgage, loan portfolio, real estate agencies, refinancing rate, long-term loan, short-term loan, nostro, required reserve, domClick

KIRISH

Ipotekali kreditlash amaliyoti takomillashmagan o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bir pog‘onali ipotekali kreditlash tizimini joriy etish davlatning ushbu jarayondagi rolini sezilarli darajada oshirishni taqozo etadi. Bunda davlat tomonidan ipoteka kreditlari berish bilan shug‘ullanayotgan banklarni soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish yuli bilan qo‘llab quvvatlash, aholining banklardagi depozitlarini sug‘urtalash nazarda tutilmoqda.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ipoteka shartnomalarining asosiy qismi 30 yil muddatga tuziladigan standart shartnomalar bo'lib, odatda, oila daromadining ipoteka kreditiga yo'naltiriladigan qismi 30 foizdan oshmaydi. Bunda aholi daromad darajasining yuqori ekanligi muhim rol o'ynaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

AQShlik taniqli iqtisodchi olim J.Sinkiing tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, birinchidan, ipoteka kredit ta'minlanganligini oshiruvchi eng muhim vositadir; ikkinchidan, ko'chmas mulk bilan ta'minlangan kreditlar boshqa ta'minotga ega kreditlar bilan solishtirilganda ancha xavfsiz hisoblanadi. Chunki, kreditning qaytmaslik xavfi yuzaga kelganda narxi va saqlanish darajasi bo'yicha kam o'zgarishga uchraydigan garovga qo'yilgan ko'chmas mulk ob'ektini sotish hisobiga kreditni qoplash mumkin. Bunda albatta rivojlangan ko'chmas mulk bozori va mulklarning real baholanganligi muhim ahamiyatga egadir. Uchinchidan, ipotekaning kredit sifatida nomoyon bo'lishi uning asosiy jihati ekanligini hisobga olish lozim [1]:

Ipoteka krediti – bu ko'chmas mulk, bino va inshootlar hamda yer maydonlarini garovga olgan holda ko'chmas mulklarni sotib olish, ularni yangidan barpo etish yoki ta'mirlash, yerlarni o'zlashtirish maqsadlarida ajratiladigan uzoq muddatli ssuda hisoblanadi.

Hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari asosan jismoniy shaxslarni birlamchi va ikkilamchi bozorlardan uy-joy sotib olishlari uchun kredit berishmoqda. Mazkur bozorlarda uy-joylarning narxini oshishi mijozlar tomonidan olinadigan ipoteka kreditlari miqdorining oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, ipoteka krediti oluvchilarning moliyaviy xolatiga salbiy ta'sir qiladi va pirovard natijada ipoteka kreditlari xajmini oshirishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan I.Alimardonovning ilmiy ishlarida respublika banklarining ipotekali kreditlash amaliyoti masalalari tadqiq qilingan. Uning xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda ipotekali kreditlashning ikki pog'onali tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir [2].


I.Alimardonovning ushbu xulosasi muomalaga chiqarilgan ipoteka qimmatli qog'ozlarining to'lovini O'zbekiston hukumati tomonidan kafolatlanishiga va maxsus ipoteka agentliklari tomonidan tijorat banklarining ipoteka krediti berishga mo'ljallangan resurslarini qayta moliyalashtirib berish mexanizmiga asoslanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarida ipoteka kreditlarini rivojlantirish bo'yicha olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarda ipoteka kreditlash faoliyatini rivojlantirish bo'yicha Sberbank tajribasi bilan tanishish va uning o'zagi xos jihatlarni o'rganishmaqsadga muvofiq. Chunki, Sberbank Rossiya ipoteka kreditlash bozoridagi eng yirik ishtirokchi sanaladi. Chunonchi, birgina 2019 yilda Sberbankning Rossiya ipoteka bozoridagi ulushi 0,6 foiz punktga o'sib, 56,9 foizni tashkil etdi.



**1-rasm. OAJ Sberbankning ipoteka kreditlari portfeli,
mlrd. rubl [3]**

2018 yilda Sberbank umumiy qiymati 1 263 milliard rubl miqdorida 767 ming ipoteka krediti berdi va ipoteka krediti portfeli 3956 mlrd. rublga yetdi [3].

So'ngi yillarda uy-joy krediti berish hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri bu Sberbank mijozlar uchun qiziq bo'lgan narxlar faoliyatining o'sishi bo'ldi. Masalan, 2018 yilning birinchi yarmida yosh oilalarga, bankning hamkorlari - uy quruvchilaridan uy sotib olayotgan qarz oluvchilarga, ikki va undan ortiq bo'lgan farzandli oilalarga, ko'chmas mulk garovi bilan kreditni qayta moliyalashtirganlarga, shuningdek garaj yoki to'xtash joyini sotib olish uchun kredit olayotgan mijozlarga alohida foiz takliflari ishlab chiqildi.

Mazkur bankda uy-joy kreditlarini rivojlanishiga sabab bo'lgan omillardan yana biri bu ichki jarayonlarning optimallashtirilishidir.

Sberbank mijozlarga yangi mahsulot - garajlar, omborxonalar va to'xtash joylarini o'z ichiga olgan turar-joy ob'ektlari uchun ipoteka kreditlarini taqdim

etishni boshladi. Hisobot davrida ko‘chmas mulk agentliklarini akkreditatsiyadan o‘tkazish, baholovchi kompaniyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va barcha akkreditatsiyadan o‘tgan sug‘urta kompaniyalaridan garov sug‘urtasi registrlarini yuklash kabi ko‘plab jarayonlar avtomatlashtirildi.

2019 yilda ipoteka hisobvarag‘idan foydalangan holda ipoteka kreditini chegirmali kreditlash boshlandi. Mijozlarga bank tomonidan moliyalashtiriladigan ishlab chiquvchi tanloviga qarab 1,6 yoki 0,8 foizli chegirmalar taqdim etiladi [3].

Hisobot davrida mijozlarga qo‘ng‘iroq qilish tizimi avtomatlashtirildi. Endi avtomatik qo‘ng‘iroqni "Aleksandra" roboti amalga oshirmoqda, u allaqachon 15 ming mijozga ipoteka garovining sug‘urta polisini uzaytirish zarurligini eslatgan. Mijozlar bilan telefon aloqalash jarayonini avtomatlashtirish ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga va bank xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

1-jadval

Sberbankning ipoteka kreditlash dasturlari [4]

Dastur nomi	Mazmuni
«Yosh oila»	Ushbu dastur bo‘yicha ipoteka krediti juftliklardan biri 35 yoshgacha bo‘lgan yosh oilalar uchun asosiy foiz stavkasiga 0,5 foiz darajasida chegirma qo‘llashni nazarda tutadi.
«Ipoteka plyus tug‘ruq mablag‘lari»	Ushbu dastur bo‘yicha ipoteka krediti tug‘ruq mablag‘larini dastlabki to‘lov sifatida hisobga olish imkoniyatini beradi.
Nogiron mijozlar uchun hayot sug‘urtasi	Nogiron mijozlar "Himoyalangan qarz oluvchi" ipoteka hayotini sug‘urtalashdan va ipoteka stavkasiga 1 pp chegirma olishlari mumkin.
«Harbiy ipoteka»	Harbiy xizmatchilar uchun ipoteka krediti - maxsus sharoitlarda tayyor / qurilayotgan uy-joylarni sotib olish uchun jamg‘arma va ipoteka tizimining ishtirokchilari. Kredit imtiyozli ravishda taqdim etiladi "Rosvoenipoteka" FGKU tomonidan o‘tkazilgan byudjet mablag‘lari hisobidan uni to‘liq to‘lash shartlari bo‘yicha foiz stavkasi
Hududiy	Bankning ipoteka mahsulotlarining asosiy

Dastur nomi	Mazmuni
ipoteka dasturlari	yoʻnalishi boʻyicha mintaqaviy ijtimoiy uy-joy qurilishi dasturlari ishtirokchilari uchun yagona, pasaytirilgan foiz stavkasi boʻyicha ipoteka krediti.
“Qurilish-jamgʻarma kassalari/Xalq ipotekasi” turar-joy jamgʻarma dasturi	"Xalq ipotekasi" mintaqaviy uy-joy dasturi ishtirokchilariga uy-joy kreditlarini imtiyozli foizlar bilan, maqsadli amalga oshirilishini taʼminlash sharti bilan taqdim etish bankning jamgʻarmalari viloyat byudjeti tomonidan qoʻshimcha ravishda subsidiyalanadi.
Davlat ipoteka sertifikatlari (DIS) va hududiy ipoteka dasturlari (HIS)	Fuqarolarning toifalarini uy-joy bilan taʼminlash boʻyicha davlatning majburiyatlarini bajarish boʻyicha federal va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish qonunda belgilangan fuqarolarning toifalarini uy-joy bilan taʼminlash (davlat uy-joy guvohnomasini yoki mintaqaviy dasturlarning guvohnomasini taqdim etish asosida ochilgan maxsus hisob raqamlariga xizmat koʻrsatish).

Sberbank DomClick platformasini ishlab chiqqan boʻlib, bu koʻchmas mulkni sotib olish bilan bogʻliq muammolarni hal qilish uchun onlayn platforma sanaladi. 2018 yilda DomClick "Runet Rating 2018" saytlari va mobil ilovalarning Butunrossiya tanlovida "Xizmatlar" nominatsiyasida 1-oʻrinni egalladi. "DomClick" nominatsiyasidagi 42 ishtirokchi orasida birinchi boʻlib xalq ovozi, biznes vakillari va ekspertlar tomonidan saralash bosqichlaridan oʻtdilar.

DomClick tufayli butun mamlakat boʻylab mijozlar mulk narxini va likvidligini tekshirish xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega. Xizmat Sberbank ipotekasi bilan real sotib olish va sotish operatsiyalari, joriy bozor takliflari va neyron tarmoq algoritmlari (mulk narxini va likvidligini tekshirish boʻyicha buyurtmalar soni 01.07.2018 yildan boshlab 180 mingdan ortiqni tashkil etdi) maʼlumotlariga asoslanadi.

Bundan tashqari, 2018 yildan boshlab DomClick xizmatining veb-saytida turar-joy koʻchmas mulkini ijaraga va ijaraga berish imkoniyati mavjud. Mulk egalari va koʻchmas mulk agentliklari eʼlonlarni joylashtirishi mumkin. Buning uchun DomClick telefoni xavfsiz va bepul qoʻngʻiroqlar bilan taʼminlanadi. Firibgarlik va

spam-tahdidlardan himoya qilish uchun foydalanuvchilarning telefon raqamlari, ular aloqalarni almashishga qaror qilgunga qadar oshkor qilinmaydi.

2018 yildan boshlab DomClick xizmatining elektron portali orqali Rosreestrning raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularni Sberbank xizmatlariga qo‘shilishi natijasida erishilgan elektron ipoteka kreditini rasmiylashtirish mumkin. Elektron ipoteka bo‘yicha huquqlarni saqlash, hisobga olish va tasdiqlash Sberbank guruhining depozitlari tomonidan amalga oshiriladi. Elektron ipoteka mijoz tomonidan qo‘shimcha harakatlarsiz uy-joy kreditlari uchun ipoteka ro‘yxatdan o‘tkazilishini sezilarli darajada tezlashtiradi va ipotekani raqamlashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi.

"DomClick" xizmatining elektron portalidagi "Shaxsiy hisobni qo‘llab-quvvatlash" yangi funksiyasi mijozlarga ipoteka krediti berilgandan so‘ng masofadan kuzatib borish imkonini beradi, shu bilan birga mijozlarning so‘rovlari real vaqtda ko‘rib chiqiladi

"Ipoteka bo‘lmagan bitim konstruktori" bitimning barcha ishtirokchilari uchun mavjud - endi sotuvchi ham, xaridor ham, ularning vakillari ham bitimni amalga oshirishi mumkin. Bu ipoteka kreditisiz bitimlar bozoriga muntazam ravishda kirib borish imkoniyatini, shu jumladan mulk huquqining o‘tkazilishini elektron ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyatini, xaridor va sotuvchi o‘rtasida ishonchli hisob-kitoblarni amalga oshirish xizmatini va bitim tuzuvchisining huquqiy ekspertizasini ochadi. Yil oxirida 55 ming mijoz ro‘yxatdagi xizmatlardan foydalangan.

O‘zbekiston tijorat banklarining ipoteka kreditlash faoliyatini tahlili esa shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston bank amaliyotida o‘rta muddatli kreditlar toifasi bo‘lmaganligi sababli barcha ipoteka kreditlari uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi. Bundan tashqari, ipoteka kreditlashni rivojlantirishga e‘tiborning hamda mijolarni qisqa muddatli ipoteka kreditlari olishga qiziqtiruvchi dasturlarning kamligi ipoteka kreditlash faoliyatining rivojlanishida eng katta to‘siqlardan biri sanaladi.

2-jadval

**O‘zbekiston tijorat banklarining jismoniy shaxslarni kreditlash faoliyati
ko‘rsatkichlari, mln. so‘m [5]**

	Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019
	Jami kreditlar portfeli	52 603,1	11 0566,2	16 7287,8	2100 29,0

	Ajratilgan kreditlar	27 562,4	49 540,5	10 0658,2	1407 62,4
	Jismoniy shaxslarga	46 98,7	60 82,0	15 390,1	2647 7,8
	Shundan, ipoteka kreditlar	18 56,7	26 28,8	45 57,2	7977, 4
	Iste'mol kreditlar	67, 4	97, 2	81 02,8	1110 8,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2018 yilda jami 15,4 trln. so'mga yaqin kredit ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 26,5 trln. so'mga yetgan. Biroq, mazkur ajratilgan kreditlar tarkibida iste'mol kreditlarining ulushi 2018 yilda 52,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 42,0 foizga tushgan. Bunga bozorda overdraft, mikroqarz, kredit karta kabi yangi turdagi kredit mahsulotlarining taklif etila boshlaganligi bilan izohlanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan Sberbank tajribasi hamda o'tkazilgan tahlillar natijasiga asoslangan holda kelgusida, O'zbekiston tijorat banklarida ipoteka kreditlash faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Ipoteka kreditlari hajmini oshirish bevosita banklarning uzoq muddatli resurs bazasining yetarliligiga bog'liq. Chunki, ipoteka kreditlari o'rta va uzoq muddatli kreditlar toifasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ipoteka kreditlarining resurs ta'minotini kuchaytirish maqsadida, birinchidan, Markaziy bank majburiy zaxira talabnomalarining bazaviy stavkasini pasaytirish va zaxira talabnomasi summasini tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobarqamlarida qoldirish yo'li bilan banklarning muddatli depozitlarga foiz to'lash imkoniyatini va likvidliligini oshirish lozim;

- Banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini yanada takomillashtirish maqsadida, birinchidan, to'lovi hukumat tomonidan kafolatlangan ipoteka obligatsiyalarini muomalaga chiqarish lozim;

- Sberbank tajribasidan ma'lumki, ipoteka kreditini rivojlantirishdagi asosiy talablardan biri ipoteka kreditini nafaqat yuqori daromadli aholi katamlari uchun, balki unchalik yuqori daromadga ega bo'lmagan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari uchun ham olish imkoniyatini ta'minlash lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, banklarning ipotekli kreditlash amaliyotini takomillashtirish xususida turli mazmundagi nazariy qarashlar mavjud. Ammo ko'pchilik iqtisodchi olimlar banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini takomillashtirishning zaruriy shartlari sifatida ipoteka kreditlarining ikkilamchi bozorining mavjud bo'lishini, risklarni boshqarish tizimining rivojlanganligi va ipoteka kreditlarining resurs ta'minotini e'tirof etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

3. Синки, мл., Джозеф Ф. Управление финансами в коммерческих банках : Пер. с англ. 4-е издание. -М: Catallaxy, 1994. – С. 441-443.

4. Алимардонов И.М. Ўзбекистонда ипотекали кредитлашни ривожлантириш истикболлари. Иқ. ф.н. илм. дар. олиш учун тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент: БМА, 2009. – Б. 17.

5. Сбербанк йиллик ҳисоботи, 2019 йил

6. Условия банковского обслуживания физических лиц ПАО Сбербанк // Сбербанк России. [Электронный ресурс]. URL: https://www.sberbank.ru/common/img/uploaded/files/pdf/udbo_09_02_018.pdf

7. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, “Статистик бюлетень”, 2019 йил

INVESTITSION KREDITLASH FAOLIYATIDA KREDIT RISKINI SAMARALI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Mamajonov Bahodirjon Erkinovich
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
bahodirm13@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari investitsion kreditlash sohasida kredit riskini boshqarishning ahamiyati o'rganilib, uni samarali boshqarishning ustuvorlik jihatlari tadqiq qilingan. Ayniqsa, tadqiqotchilarning ilmiy fikrlarini o'rganish natijasida tijorat banklarining investitsiya loyihalari kredit riskini boshqarishning mavjud muammolari va ularni bartaraf etish usullari aniqlandi. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, investitsion kredit, kredit riski, kredit riskini boshqarish, diversifikatsiya, limitlarni belgilash.

Аннотация: В статье исследуется важность управления кредитным риском в сфере инвестиционного кредитования коммерческими банками и приоритеты его эффективного управления. В частности, изучение научных взглядов исследователей выявило существующие проблемы управления кредитным риском в инвестиционных проектах коммерческих банков и пути их преодоления. На основе проведенного исследования были сформулированы выводы и практические предложения.

Ключевые слова: коммерческий банк, инвестиционный кредит, кредитный риск, управление кредитным риском, диверсификация, установка лимитов.

Abstract: The article examines the importance of credit risk management in the field of investment lending by commercial banks and the priorities of its effective management. In particular, the study of the scientific views of researchers revealed the existing problems of credit risk management in investment projects of commercial banks and ways to overcome them. Based on the research conducted, conclusions and practical recommendations were established.

Keywords: commercial bank, investment credit, credit risk, credit risk management, diversification, setting limits.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab

chiqarishlarni tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat o'z samarasini bermoqda. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini uzoq muddatli kreditlash moliyaviy resurslarning eng muhim manbai, iqtisodiyotning progressiv va innovatsion rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Ma'lumki, odatda kreditlash jarayoni natijasida bank foydasining 80 foizdan ortiq qismi shakllanadi. Har qanday ko'zlangan foyda esa risk bilan yonma yon yuradi. Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihaning amalga oshishga bir qancha risk turlari to'siq bo'lishi mumkin. Ularning asosiylaridan biri bu kreditning qaytmaslik havfi - kredit riski bo'lib, kredit riskini boshqarishni samarali yo'llarini topish bank oldidagi doimiy masalalardan biri hisoblanadi. Tijorat banklarida investitsion loyihalarni kreditlash jarayonida kredit riskini boshqarish birmuncha murakkab jarayon bo'lib, u investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish orqali investitsion qaror qabul qilishni taqozo etadi.

Bank faoliyatida daromad va risk doimo yonma-yon va ular o'rtasidagi muvozanatni toppish zamonaviy bank ishining muhim muammolaridan biridir. Tijorat banklari tomonidan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan baholay olishi, samarali boshqarishi va unga qarshi zarur choralar ko'rishi bankka etishi mumkin bo'lgan moddiy-ma'naviy zararlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish, ushbu jarayonning investitsion loyihalar doirasidagi alohida hususiyatlari yuzasidan juda ko'p qarashlar mavjud bo'lib, bugungi kunda banklarning investitsion faolligi oshib borishi fonida bu masala yanada dolzarblashib bormoqda. Bu borada SH.Abdullaeva tomonidan bank risklarining, xususan kredit riskining iqtisodiy mohiyati, uni baholash va samarali boshqarish yordamida kreditlash va investitsion moliyalashtirish orqali bank daromadlilikiga erishish masalalari atroflicha tadqiq qilingan [1].

Yo.Abdullaev, T.Qoraliev va boshqalar o'z izlanishlarida investitsion loyihalarda kredit riskini boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqishgan. Xorij tajribasini o'rganish orqali riskni boshqarishning keng tarqalgan uslublari keltirib o'tilgan[2].

Xorijiy olimlardan Boberski [3], Docherty va Viort banklarda kredit tavakkalchiligini baholash va boshqarishning uslubiy tamoyillari va amaliyoti ustida tadqiqotlar olib borishgan[4].

Golin va Delhaise bankirlar va investorlar uchun kredit riskini tahlil qilish va boshqarishda amaliy ko'rsatmalarni ishlab chiqishgan. Ular kredit riskini boshqarishda monitoring masalalariga katta e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashgan [5].

Moenjak [6], Sorge [7] hamda Srivastava va Dashottarlar esa loyihaviy moliyalashtirishda kredit riskini baholash va boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini taxlil qilishgan [8].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tijorat banklari investitsion loyihalarga aloqadorligi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Investitsion kreditlash;
2. Loyihaviy moliyalashtirish;
3. Ulushli ishtirok (tijorat banki tomonidan boshqa korxonada ustav fondida ishtirok etish, qimmatli qog'ozlariga egalik qilish).

So'nggi yillarda mamlakatimiz tijorat banklarida an'anaviy kreditlash yo'nalishlaridan tashqari uzoq muddatli investitsion kreditlash amaliyoti ham tobora rivojlanib bormoqda. Korxonalarining asosiy fondiga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar **investitsion kreditlar** deb ham ataladi. Uzoq muddatli kreditlarning zarurligi korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga mablag' yetarli emasligidan kelib chiqadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarishni tashkil etishda kredit resurslarini jalb qilish dolzarb masaladir, chunki bularni hammasini amalga oshirish yirik moliyaviy imkoniyatlarni talab etadi.


Rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarida investitsion moliyalashtirish bank faoliyatining asosini tashkil etib, olinadigan bank foydasining 50 foizdan ortig'i aynan shu yo'nalish orqali shakllanadi. Bunda banklarning fond bozoridagi faoliyatini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanib borishi natijasida tijorat banklarining investitsion faolligi ham yildan yilga o'sib bormoqda. Hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona investitsion siyosatda tijorat banklarining ishtiroki qo'llab quvvatlanmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy islohotlar natijasida YAIM hajmi muntazam o'sishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat miqyosida o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investiciyalar tarkibida

bank kreditlarining hususan investitsion kreditlarning salmog'i ham yildan yilga ortib bormoqda. Buni quyidagi 1-diagrammada ham ko'rishimiz mumkin:

2016-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibida bank kreditlari hajmining o'zgarishi, foizda ¹⁴¹

1-diagramma



Kredit riski yoki qarzni qaytarmaslik havfi kreditorning kredit shartnomasiga asosan kreditni o'z vaqtida qaytarilishiga va ssuda shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir. Kredit risklari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kreditning o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq risk.
2. Likvidlilik riski (to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazmaslik riski).
3. Kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk.
4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risk.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda kredit riskini boshqarishning odatiy kreditlash jarayonidagi kredit riskini boshqarishdan farqli va murakkab joyi shundaki, unda tijorat banki investitsion loyiha o'zini o'zi qoplashi, zararsizlik nuqtasi, foydalilik normasi, biznes rejaning puhta ishlab chiqilganligi, kelgusi pul oqimlarining kredit to'lovlariga muvofiqligi kabi bir qancha investitsiya loyihasining samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganib, loyihani kompleks ekspertizadan o'tkazishi talab etiladi. Buning uchun bankda alohida ekspert mutaxassislar bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Investitsion kreditlar bevosita bank kredit portfelini shakllantirishidan kelib chiqadigan bo'lsak, tijorat banki kredit portfeli kredit riskini

¹⁴¹ www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

oqilona boshqarish bilan investitsion loyihalarda yuzaga keladigan kredit riskini kamaytirish mumkin bo'ladi.

Kredit riskini oqilona boshqarishning dolzarbligi shundaki, uning natijasida nafaqat berilgan ssudalarning o'z vaqtida qaytmasligi, balki pirovard natijada bank muammoli aktivlarining ortishi, likvidligining pasayishi va yangi mijozlarga xizmat ko'rsatishda resurs muammolariga duch kelish havfi ortadi.

Bugungi kunda jahon bo'ylab avj olgan koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlari barcha davlatlarda bo'lganidek, yurtimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Agar mamlakatimiz tijorat banklarida mavjud muammoli kreditlar holatini taxlil qiladigan bo'lsak, bunga yaqqol amin bo'lishimiz mumkin. Pandemiya ta'sirida biznes yuritishning yomonlashuvi, ishlab chiqarish va savdo hajmlarining kamayishi bevosita bankdan kredit olgan mijozlarning bank oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilmasligiga olib kelmoqda.

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) mlrd.so'mda ¹⁴²

1-jadval

Davrlar	Kreditlar jami	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda
01.01.2020y	211 580,5	3 169,1	1,5
01.04.2020y	221 933,8	5 021,2	2,3
01.07.2020y	244 906,2	7 087,4	2,9
01.10.2020y	260 711,6	6 838,8	2,6
01.01.2021y	276 974,8	5 784,8	2,1
01.04.2021y	283 485,1	10 177,9	3,6

¹⁴² www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 01.01.2020 yil holatiga muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 01.04.2021 yilga kelib, bu ko'rsatkich 2,4 barobarga ortib 3,6 foizga yetgan. Bu o'z navbatida tijorat banklaridan aktivlarni undirish bo'yicha samarali ish tashkil etishni, kredit riskini boshqarishga yanada ko'proq e'tibor qaratishni talab qiladi.

Kreditlarning hajmi va soni oshgan sayin kreditning qaytmaslik xatari ham osha borishi bank amaliyotida ma'lum hodisadir.

Odatda investitsion kredit riskini yuzaga kelishiga quyidagi hollar sabab bo'ladi:

a) turli xil makro va mikro iqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik va me'yorlardagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi faoliyatida bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muhitdagi o'zgarishlar, salbiy hollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmaslik;

v) investitsion kreditni ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlari va mijozlarning yetishmasligi;

d) qarz oluvchi sub'ektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqalar.

Tijorat banklarida investitsion kreditlash bo'yicha kredit risklarini boshqarishni odatda quyidagi 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Yakka tartibdagi loyiha darajasida kredit riskini boshqarish;
2. Bank kredit portfeli darajasida kredit riskini boshqarish.

Yakka tartibdagi loyiha darajasida kredit riskini boshqarishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, kreditlash jarayonini tashkil etuvchi bosqichlarning har birida riskni baholash va uni kamaytirish ishlarini o'z ichiga oladi hamda qat'iy monitoringni talab etadi. Shuningdek quyidagi 2-jadvalda ham yakka tartibdagi loyiha doirasida kredit riskni boshqarish usullarini keltirib o'tamiz:

Kredit riskini kamaytirish usullari¹⁴³

2-jadval

¹⁴³ Yo. Abdullaev, T. Qoraliev va boshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 410-411 b

	Riskni kamaytirish choralari	Izox
	Mijozning kreditga layoqatliligini baholash	Bu usul mijozning reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeyidan kelib chiqishi va vaqti vaqti bilan ko'rib chiqilishi lozim
	Bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning summasini kamaytirish	Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi
	Kreditlarni sug'urtalash	Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi.
	Yetarli ta'minotni talab qilish	Bu usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishi kafolatlaydi
	Diskontli ssudalar berish	Bu ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usullarda kredit berish kreditga minimal to'lov olishni ta'minlaydi.

Tijorat banklarining dolzarb muammolaridan biri balans ma'lumotlari va kredit portfelining taxlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruxlash, ularni taxlil qilish, minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Ishlab chiqarishida pasayish bo'layotgan korxonalar va tarmoqlarda kreditning to'planishidan voz kechish lozim. Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezerv fondlari kredit risklarining o'ziga hos amortizatori bo'lib xizmat qiladi.

Bankning kredit portfeli darajasida risklarni boshqarish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Diversifikatsiya. (Bank tarmoqlar va sohalar bo'yicha ssudalar salmog'ini nazorat qiladi. Aksariyat kreditlar bir tarmoqqa yig'ilib qolishiga yo'l qo'yilmaydi, bunda "hamma tuhumni bir savatga solma" tamoyili amal qiladi)

2. Limitlarni belgilash. (Banklar kredit berishning maksimal ruhsat etilgan limitlarini belgilash orqali kelib chiqadigan yo'qotishlardan himoyalanaadi)

3. Zaxiralarni yaratish. (Qarzlarning qoplanmasligini hisobga olib, mablag'larning bir qismini maxsus hisob raqamiga to'plash. Zaxiralar kredit riskini kamaytirish usullaridan biri hisoblanadi, omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kredit zaxiralari bank tizimining ishonchligi va mustahkamligi ta'minlaydi).

4. Sekyuritizatsiya. (Bank aktivlarini qimmatli qog'ozlarga aylantirish orqali sotishni nazarda tutadi)

Tijorat banklarida investitsion kreditlash jarayonida kredit risklarini boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida uni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Kredit portfelining umumiy riskini boshqarish;
- Bank tomonidan investitsion kreditlash jarayoni va operatsiyalarini boshqarish;
- Ishlamayotgan kredit portfelini boshqarish;
- Kredit risklarini boshqarish siyosatini baholash;
- Kredit risklari va limitlari bo'yicha siyosatni boshqarish;
- Bank aktivlarining tasniflanishi va qayta tasniflanishini baholash;
- Kredit risklari bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlar zahirasini tashkil etish yuzasidan siyosatni baholash.

XULOSA

Tijorat banklari investitsiya loyihalarida kredit riskini boshqarishni takomillashtirish maqsadida olib borilgan o'rganishlarimiz asosida quyidagi xulosa va amaliy takliflar shakllantirildi:

Birinchiidan, banklar investitsion loyihalarning ekspertizasi sifatini oshirib, real samarador loyihalarga kredit liniyalari ochishlari kerak. Bankda investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha loyihani kompleks ekspertizadan o'tkazish bunda, investitsion loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari to'liq tahlil etilishi, loyihaning ijtimoiy-ekologik havfsizligi taxlilini amalga oshirish va ushbu

yo'nalishda malakali hodimlarni jalb qilish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit riskini minimal darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, taraqqiy etgan mamlakatlar banklarining investitsion faoliyatining asosiy qismi sinditsiyalashtirilgan kreditlar berish amaliyotining hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda ham tijorat banklari sinditsiyalashtirilgan kredit berish amaliyotini keng yo'lga qo'yishlari lozim, bu ularning investitsiya faoliyatini rivojlantiradi va uni boshqarishni takomillashtiradi. Chunki bunda yirik loyihalarni moliyalashtirish va boshqarishda bir qator banklar birgalikda ishtirok etadilar, risklar bo'linadi va resurslar birlashtiriladi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan o'rnatilgan iqtisodiy normativlar buzilmaydi. Yirik investitsiya loyihalarini xorijiy davlatlar banklari bilan birgalikda sinditsiyalashtirilgan kreditlar berish orqali moliyalashtirishni amaliyotga joriy qilish lozim.

Uchinchidan, tijorat banklarida investitsion loyihalar kredit riskini samarali boshqarish maqsadida bankda dasturiy ta'minot asosida investitsion kredit olgan mijozning moliya-ho'jalik faoliyatini onlayn nazorat qilib borish tizimini yaratish lozim. Bu bankning ob'ektda rejali monitoringni olib borish amaliyoti va muammoli investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlash asosida moliyalashtirilayotgan investitsion loyihalarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi barcha qatnashchilar o'rtasida investitsion kredit riskini ularning loyihadagi funksional vazifasiga muvofiq taqsimlanishini ta'minlash lozim.

Beshinchidan, tijorat banki tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda hududlar, tarmoq-sohalar bo'yicha kredit portfelidagi maksimal chegaralarni belgilash, bir qarzdor va o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan investitsion kreditlarning maksimal miqdorini o'rnatish hamda doimiy ravishda ushbu o'rnatilgan limitlar bajarilishini nazorat qilib borish zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

1. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002
2. Abdullaev Yo, Qoraliev T va boshqalar."Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 410-411 b

3. Boberski Vince. Community Banking Strategies: Steady Growth, Safe Portfolio Management, and Lasting Client Relationships First published:10 September 2012 Print ISBN:9781576603697- 79 p.
4. Docherty Adrian and Franck Viort. Better Banking: Understanding and Addressing the Failures in Risk Management, Governance and Regulation First published: 20 December 2013 Print ISBN:9781118651308, — 115 p.
5. Jonathan Golin and Philippe Delhaise. The Bank Credit Analysis Handbook, A Guide for Analysts, Bankers, and Investors. — Second Edition. — Wiley, 2013. — 924 p.
6. Thammarak Moenjak. Central Banking: Theory and Practice in Sustaining Monetary and Financial Stability, First Edition. First published:12 May 2017, Print ISBN:9781118832462
7. Sorge Marco. Stress-Testing Financial Systems: An Overview of Current Methodologies. Published 2004, Economics Risk Management & Analysis in Financial Institutions eJournal.
8. Vikas Srivastava and Surya Dashottar. The Journal of Structured Finance Winter 2020, <https://doi.org/10.3905/jsf.2019.1.088>)
9. Karimov N. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish // «Bozor, pul va kredit» jurnali, 2000. - № 5
10. Fozilchaev SH, Hidirov N. “Moliyaviy risklar nazariyasi” O'quv uslubiy qo'llanma, Toshkent-2018, 35-bet
11. Risk-menedjment investitsionnogo proekta. / Pod red. Grachevoy M. V. - M.: Yuniti, 2009. - S. - 44 bet
12. Tyutin A.S. Tijorat banklari tomonidan investiciya loyihalarining samaradorligini baholash muammolari // Samara davlat iqtisodiyot universiteti ahborotnomasi. RF, 2010. № 3 (65). 117-122 b.
13. Shapkin A. S. "Ekonomicheskie i finansoviye riski". Uchebnik. - Izd. 3-e. - M.: Dashkov i K, 2006.
14. www.stat.uz
15. www.cbu.uz

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОЗОНИРОВАНИЯ ПРИ ПЕРЕРАБОТКЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ РАСТВОРОВ

*¹Холикулов ДониёрБахтиёрович, ¹Рахмонкулов Раимкул, ²Нормуротов
Руслан Идрисович*

*¹Алмалыкский филиал Ташкентского государственного технического
университета,
²ГП «Навоийский ГМК»*

Аннотация: Целью исследования является математическое исследование процесса озонирования при переработке технологических растворов медного производства в условиях АО «Алмалыкский ГМК». Вычислен коэффициент корреляции при различных температурах. Для автоматизации процесса озонирования, найдено функциональная зависимость между параметрами продолжительности и температуры озонирования.

Ключевые слова: технологический раствор, озонирование, моделирование, функциональная зависимость, коэффициент корреляции, коэффициент парной корреляции.

Abstract: The aim of the research is a mathematical study of the ozonation process during the processing of technological solutions of copper production in the conditions of JSC "Almalyk MMC". The correlation coefficient was calculated at different temperatures. To automate the ozonation process, a functional relationship was found between the parameters of the duration and temperature of ozonation.

Key words: technological solution, ozonation, modeling, functional dependence, correlation coefficient, pair correlation coefficient.

ВЕДЕНИЕ

Проблемы металлургической промышленности требуют решения задач, направленных на разработку эффективных технических решений, поиск оптимальных режимов управления существующими процессами, а также создание принципиально новых технологий и конструкций агрегатов. Для этого необходимо проведение исследований с целью изучения закономерностей, определяющих условия и режимы работы технологических объектов. Актуальным является создание гибких и универсальных технологий математического моделирования, позволяющих эффективно решать различные научно-технические проблемы металлургического производства. Результаты, достигнутые при создании различных программных систем в области новых

информационных технологий, predeterminedили выбор направления исследований в работе [1, 2].

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

В настоящее время математическое моделирование это одно из самых результативных и наиболее часто применяемых методов научного исследования [3]. Моделирование как общенаучный метод познания прошло огромный исторический период в своем становлении, развитии и практическом применении: с античной эпохи до настоящего времени. Моделированием называется замещение одного объекта другим с целью получения информации о важнейших свойствах «объекта-оригинала» с помощью «объекта-модели» путем проведения экспериментов с его моделью. Если результаты моделирования подтверждаются и могут служить основой для прогнозирования процессов, протекающих в исследуемых объектах, то считается, что модель адекватна объекту. При этом адекватность модели зависит от цели моделирования и принятых критериев [4].

В настоящее время математическое моделирование осуществляется с помощью компьютерной техники, что позволяет перерабатывать огромный объем информации по металлургическим процессам и агрегатам. Созданная математическая модель становится основой для разработки программы компьютерного моделирования. Математическое моделирование находит применение в различных металлургических процессах. Металлургические процессы относятся к классу сложных и взаимно связанных объектов, имеющих большое количество элементов с перекрестными связями. Эта специфика должна учитываться в математических моделях [5-11].

Вместе с тем проводятся научно-исследовательские работы по усовершенствованию технологических процессов, направленных на использование техногенных отходов, с целью дополнительного извлечения ценных металлов, путем возврата техногенных отходов в основное технологическое производство. Это направление в настоящее время приобретает большую актуальность при создании новых высокорентабельных технологий в цветной металлургии [12-15].

Для определения эффективности использования озона при значительных диффузионных сопротивлениях массопереносу из газовой фазы в жидкую, изучен расход озono-воздушной смеси (регулируя напряжение озонатора и расход воздуха, были получены озono-воздушные смеси с различными

концентрациями озона). Для этого изготовили модельный раствор, состоящий из различных сульфатов металлов. С понижением начального значения рН среды, повышением концентрации катализатора и времени озонирования возрастает степень окисления примесей сточной воды. При применении катализаторов в окислительном процессе помимо озона участвует и кислород воздуха. Проведенные исследования влияния рН, температуры, катализаторов – сульфата железа (II) на процесс окисления при озонировании, а также их совместное действие позволили повысить эффективность процесса очистки на 48-64 % [16-17].

Интенсивность окисления сточных вод увеличивается с повышением температуры, но при продолжительности 70-80 мин степень очистки технологических растворов не зависимо от роста температуры одинаково (табл. 1, рис. 1).

В ходе исследования изучены зависимости концентрации ионов металлов в растворе от времени обработки. За 1 час обработки концентрация металлов уменьшилась до уровня <0,01 мг/л, что на порядок ниже ПДК металлов в воде. Отфильтрованная жидкость при времени обработки больше 1 часа была прозрачной и бесцветной (табл. 2).

Таблица 1.

Зависимость изменения степени очистки от времени озонирования и температуры

Параметры	t, °C	Степень очистки раствора, %															
		5	10	15	20	25	30	35	40	45	50	55	60	65	70	75	80
Степень очистки раствора, %	70	0	20	36	49	60	69	78	84	89	93	95	97	98	98	98	98
	55	0	17	31	44	55	64	72	79	84	89	92	95	97	98	98	98
	40	0	13	25	37	48	58	67	75	81	86	90	94	96	97	98	98
	20	0	10	20	30	40	49	59	66	73,5	80	85	89,5	93	96	97	98




Рис. 1. Зависимость изменения степени очистки от времени озонирования и температуры

Таблица 2.

Зависимость изменения содержания металлов кислых стоков купоросного цеха от времени озонирования

Продолжительность процесса озонирования, мин	Содержание металлов в растворе, мг/л				
	Cu	Zn	Fe	Al	Ni
0	0,035	0,001	0,02	0,05	0,67
10	0,03	0,0001	0,01	0,04	0,62
20	0,025	0,00001	0,01	0,03	0,58
30	0,02	0,00001	0,01	0,02	0,55
40	0,015	0,00001	0,001	0,01	0,52
50	0,01	0,00001	0,001	0,004	0,5
60	0,005	0,00001	0,00001	0,001	0,48
70	0,001	0,00001	0,00001	0,001	0,46
80	0,0001	0,00001	0,00001	0,001	0,45
90	0,00001	0,00001	0,00001	0,00001	0,44
100	0,00001	0,00001	0,00001	0,00001	0,435
110	0,00001	0,00001	0,00001	0,00001	0,43

Таким образом, озонирование может быть использовано в качестве эффективного способа нейтрализации технологических растворов металлургического производства.

Для функциональной зависимости между параметрами переменных применяем метод наименьших квадратов. С этой целью вычислим коэффициенты парной корреляции между параметрами. Коэффициент корреляции вычисляется по формуле:

$$r = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x}) \cdot (y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2} \cdot \sqrt{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}} \quad (1)$$

где, x, y - параметры участвующие в опыте,

\bar{x}, \bar{y} - среднеарифметическое значение параметров x, y ;

n - количество опытов;

r - коэффициент корреляции.

Известно, что, коэффициент корреляции (r) характеризует величину отражающую степень взаимосвязи двух переменных между собой. Он может варьировать в пределах от **-1** (отрицательная корреляция) до **+1** (положительная корреляция). Если коэффициент корреляции равен **0** то, это говорит об отсутствии корреляционных связей между переменными. Причем если коэффициент корреляции ближе к 1 (или -1) то говорить о сильной корреляции, а если ближе к 0, то о слабой. При **положительной корреляции** увеличение (или уменьшение) значений одной переменной ведет к закономерному увеличению (или уменьшению) другой переменной т.е. взаимосвязи типа увеличение-увеличение (уменьшение-уменьшение).

При **отрицательной корреляции** увеличение (или уменьшение) значений одной переменной ведет к закономерному уменьшению (или увеличению) другой переменной т.е. взаимосвязи типа увеличение-уменьшение (уменьшение-увеличение).

Вычисляем коэффициенты корреляции для выявления тесноты связи между признаками время озонирования, минут и концентрация O_3 , масс. % разложения, по формуле (1) для табл. 1 и получим: при температуре $20^{\circ}C$ $r = -1$, при температуре $70^{\circ}C$ получим $r = -0,9652$.

Это показывает, что теснота (функциональная зависимость) существует и функциональная зависимость убывающая, что подтверждает функциональную зависимость рис. 2.





Рис.2. Зависимость изменения степени очистки от времени озонирования и температуры

Функциональная зависимость получена известным методом наименьших квадратов имеет вид: при $t=20^{\circ}\text{C}$ концентрация O_3 , масс. % $=0,0001(\text{время озонирования, мин})-0,0159(\text{время озонирования, мин})+0,5776$; при $t=70^{\circ}\text{C}$ концентрация O_3 , масс. % $=-0,0059(\text{время озонирования, мин})+0,8799$.


На рис. 3 показан график изменения озонирования в зависимости от температуры. Вычислим коэффициент корреляции при различных температурах в зависимости от температуры, в результате получим: $R=0,892892$ при 70°C , $R=0,920738$ при 55°C , $R=0,948432$ при 40°C , $R=0,979649$ при 20°C .




а) Степень очистки раствора, % при температуре 70⁰С



б) степень очистки раствора, % при температуре 55⁰С



с) степень очистки раствора, % при температуре 40⁰С



д) степень очистки раствора, % при температуре 20⁰С

Рис. 3. Зависимость изменения степени очистки от времени озонирования и температуры

Это показывает, что теснота (функциональная зависимость) существует и функциональная зависимость возрастающая, что подтверждает функциональную зависимость табл. 2. Для автоматизации процесса

озонирования, можно найти функциональную зависимость между параметрами продолжительности и озонирования.

Исследуем функциональную зависимости между компонентами исследований приведенной в работе [12]. Вычисляя коэффициент парной корреляции по формуле (1) получим: $r = -0,95127$ для компонента Al, $r = -0,51826$ для компонента Cu, $r = -0,83092$ для компонента Fe, $r = -0,79498$ для компонента Zn, $r = -0,95749$ для компонента Ni.

Изменение содержания металлов технологических растворов купоросного цеха зависит от времени озонирования (рис. 4).




Рис.4. Зависимость изменение содержание металлов технологических растворов купоросного цеха от времени озонирования

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, математическое исследование как промышленных процессов, так и технологических, научных и лабораторных исследований при планировании экспериментов становится важным в развитии переработке технологических растворов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Математическое моделирование металлургических процессов в АСУ ТП / Н.А.Спирин, В.В.Лавров, В.Ю.Рыболовлев, Л.Ю.Гилева,

А.В.Краснобаев, В.С.Швыдкий, О.П.Онорин, К.А.Щипанов, А.А.Бурькин; под ред. Н.А.Спирина. – Екатеринбург: ООО «УИПЦ», 2014. – 558 с.

2. Л.А.Кузнецов, М.Г.Журавлева. Исследование целесообразности построения статистических моделей процессов по неполным данным с помощью стратегии EM-алгоритма // Современные проблемы информатизации в экономике и обеспечении безопасности: сборник трудов по итогам ХГV Международной открытой научной конференции. - Воронеж: «Научная книга», 2009.-Вып. 14.-С. 50-51.
3. А.Г.Куприяшкин, Л.И.Петухова. Математические модели металлургических процессов в ANYLOGIC. Научный вестник арктики. 2019, №5. С. 6-12.
4. С.А.Ведерников, А.В.Бармин. Современные аспекты математического моделирования // История науки и техники и университетское образование. Сборник материалов научно-практической конференции аспирантов, магистрантов и студентов УрФУ им. первого президента России Б.Н.Ельцина. Екатеринбург – Москва. 30 мая 2011. Екатеринбург: УМЦ УПИ. 2011. С.91
5. С.А.Абдурахмонов, Д.Б.Холикулов, А.П.Пиримов, Р.И.Нормуротов, В.Ф.Назаров. Статистическая обработка показателей ионной флотации металлов из сернокислых растворов. Горный вестник Узбекистана, Навоий, 2005 № 4 с. 67-69.
6. Kholikulov D.V., Rahmonkulov R. Identification of Regularities of Metal Extraction When Ozonizing Waste Waters of Metallurgical Production by the Least Square Method. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 7, Issue 4, April 2020.Pp. 13233-13238.
7. Д.Б.Холикулов, Р.И.Нормуротов, Ф.Э.Ахтамов. Исследования по извлечению цветных металлов ионной флотацией из сбросных растворов. Горный вестник Узбекистана, 2016, № 2, с. 68-70.
8. D.V.Kholikulov, S.Abdurahmonov, O.N.Boltaev, S.T.Matkarimov. Separation of metals from technological solutions copper production International Journal of Emerging Trends in Engineering Research 2020 Volume 8. No. 7, July 2020. <https://doi.org/10.30534/ijeter/2020/110872020>.
9. Ш.Ш.Заиров, О.Ж.Худайбердиев, М.Ж.Норматова, Р.У.Номдоров. Исследование и математическое моделирование параметров забойки в скважинных зарядах взрывчатых веществ. O'zbekistonkonchilikxabarnomasi № 1 (80) 2020. 66-72 с.

10. Е.П.Чураков. Математические методы обработки экспериментальных данных в экономике : учеб. пособие / Е. П. Чураков. М. : Финансы и статистика, 2011. 240 с.
11. А.И.Рубан, А.В. Кузнецов. Методы обработки экспериментальных данных. Учебное пособие по циклу лабораторных работ по курсу «Методы обработки экспериментальных данных». Красноярск 2008 г. с. 80.
12. Д.Б.Холикулов, Н.М.Рахмонов, С.И.Кодиров. Возможности применения ионной флотации для извлечения металлов из различных растворов. Материалы международной научно-технической конференции. Научные основы и практика переработки руд и техногенного сырья. Екатеринбург: ФортДиалог-Исеть. 2007. С.187-193. КиберЛенинка.
13. D.Kholikulov, M.Yakubov, A.Abdukadirov, O.Boltaev, S.Khudoyarov, M.Ochilov. The Results of Experimental Studies of Wastewater Disinfection of Metallurgical Production with Ozone. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 6, Issue 10, October 2019. Pp. 11425-11430.
14. Д.Б.Холикулов, Р.И.Нормуротов, О.Н.Болтаев. Новый подход к решению проблемы очистки сточных вод медного производства. Горный вестник Узбекистана. 2019 № 3 (78), с. 92-96.
15. Д.Б.Холикулов, Р.И.Нормуротов. Исследования по очистке сточных вод медного и цинкового производства озоном. Горный вестник Узбекистана. 2020 № 1 (80), с. 90-95.
16. D.V. Kholikulov, A.R.Aripov, N.B.Khujakulov, A.V.Buronov, A.V.Azimova. Extraction of metals by using ozone from residue solutions of metallurgical production // International conference on «Integrated innovative development of Zarafshan region: achievements, challenges and prospects» Navoi, Uzb. 2019y. P. 65-68.
17. Д.Б.Холикулов. Применение метода озонирования для обезвреживания технологических растворов медного производства Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2020. 12(81). С. 60-66. URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11109>.

**TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA KOMMUNIKATIV,
TASHKILOTCHILIK QOBILİYATLARI VA MULOQATNING KASBIY
MOTIVATSIYALAR SHAKILLANISHIGA TA'SIRINI O'RGANISH**

*T.B. Norimbetov. I.A. Karimov nomidagi TDTUning
Olmaliq filiali "Ijtimoiy –gumanitar fanlar"
kafedrasi dotsenti, psixol f.n.*

N.T. Norimbetova Toshkent viloyati, XTBB Boshlang'ich ta'lim metodisti.

Аннотация. В данной статье рассматривается развития и формирование коммуникативной и организационной способности у студентов обучающихся в педагогической и технической сфере обучения в ВУЗе. Изучается динамика развития и формирование коммуникативной и организационной способности у студентов в региональных условиях. Рассматривается психологические особенности динамика формирование общения в учебном процессе. Определяется механизмы развития и формирование коммуникативной и организационной способности и общения у студентов по учебным курсам в учебной деятельности. Экспериментально изучается взаимосвязь профессиональной мотивации к особенностям формирование коммуникативной и организационной способности и общения у студентов. Математически - статистически обработка полученных результатов.

Ключевые слова: педагогическое образование. Техническое образование. Диагностика коммуникативных и организационных наклонностей личности, Самоуправление в общении.

Аннотация: Ushbu maqolada Oliy o'quv yurtlarida pedagogik va texnik ta'lim yo'nalishidagi tahsil olayotgan talabalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari dinamikasining shakillanishi va rivojlanishi mintaqaviy sharoitda tahlil qilish. Pedagogik va texnik ta'lim yo'nalishidagi tahsil olayotgan talabalari muloqatning psixologik xususiyatlari o'quv jarayonida o'rganiladi. O'quv jarayoning har bir bosqichida talabalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari va muloqati dinamikasining shakillanishi va rivojlanishining kasbiy motivatsiyaga bog'liqligi tahlil qilinadi va eksperimental o'rganiladi.. Olingan natijalarni matematik-statistik taxlil qilinadi. .

Калит so'zlar: Pedagogik ta'lim. Texnik ta'lim. Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi, Muloqotda o'z-o'zini boshqarish.

KIRISH

Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan yoshlarni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki ta’lim yoshlar ma’naviyatiga yaratuvchanlik baxsh etishi, o‘z o‘ziga kelayotgan yosh avlodning barcha orzu-umidlari zamonaviy ta’lim-tarbiya orqali ro‘yobga chiqishi aniq va ravshandir. Ta’lim tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarda muloqat qobiliyatining shakillanishi va kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanib borishini va kasbiy motivatsiyaning shakillanishini o‘rganish ta’lim samaradorligini aniqlab beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Talabalarining muloqat qobiliyati rivojlanishining farqlarini aniqlash va ularning kasbiy motivatsiya shakillanishiga bog‘liqligini aniqlash g‘oyat dolzarb ekanligi bizning tadqiqot ishimizda ushbu muommani o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz tadqiqot maqsad va mazmunidan kelib chiqqan holda pedagogik ta’lim va texnik ta’limning talabalarda kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishiga ta’sirini aniqlash maqsadida Pedagogik ta’lim texnik ta’lim yo‘nalishidagi talabalarda “Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi” metodikasini, Snaydarning “Muloqotda o‘z-o‘zini boshqarish” so‘rovnomasidan, V.F.Ryaxovskiyning muloqatchanlikning umumiy darajasini aniqlash metodikasi va kasbiy motivatsiyani aniqlash metodikasidan foydalandik. .

Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi metodikasidan olingan natijalarni quyidagi jadvalda umumlashtirdik.

Talabalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari dinamikasi. .1-jadval

Kurslar	Kommunikativ qobiliyatlar	Tashkilotchilik qobiliyati
1-kurs	0,4	0,5
2-kurs	0,6	0,7
3-kurs	0,7	0,8
4-kurs	0,8	0,9

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, birinchi kurs talabalarida kommunikativ qobiliyatlar 0,4ga, tashkilotchilik qobiliyatlari esa 0,5 ga teng ekanligi ko‘rinib turibdi, ushbu qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi sustroq. Ular tashabbusni o‘z zimmasiga olmaydilar, vaqtni tanholikda o‘tkazishni hush ko‘radilar,


notanish odamlar bilan suhbatlashayotganda, ko'pchilik oldida biror narsani aytib berayotganda o'zini noqulay his etadilar, xafagarchilikni og'ir o'tkazadilar. Birinchi kurs talabalarida kommunikativ qobiliyatlarning sustligi ularning oliy ta'lim jarayoniga moslashmaganligi bilan ham izohlash mumkin.

Ikkinchi kurs talabalarida kommunikativ qobiliyatlar 0,6 ga, tashkilotchilik qobiliyatlari esa 0,7 ga teng, ya'ni ushbu qobiliyatlar talabalarda o'rtacha rivojlangan. Ikkinchi kurs talabalarida birinchi kurs talabalariga qaraganda ancha faol bo'lib qoladilar, ushbu faollik ularning kommunikativ va tashkilotchilik faoliyatlarida ham namoyon bo'ladi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga intiladilar, tanishlari doirasini chegaralab qo'ymaydilar, o'z fikrini himoya qilishga harakat qiladilar, ammo ularning bu xususiyatlari barqaror emas.


Uchinchi kurs talabalarida kommunikativ qobiliyatlar 0,7 ga, tashkilotchilik qobiliyatlari esa 0,8 ga teng, kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori darajada. Ular yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'ymaydilar, tanishlari doirasini doim kengaytirishga intiluvchi, muloqotda tashabbuskor, ijtimoiy faoliyatda jonbozlik bilan ishtirok etadilar, murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladilar.

To'rtinchi kurs talabalarida kommunikativ qobiliyatlar 0,8 ga, tashkilotchilik qobiliyatlari esa 0,9 ga teng, kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari juda yuqori darajada. Ularda kommunikatsiya va tashkilotchilik ehtiyoj bo'lib qoladi, doim uni qondirishga intiladilar, yangi jamoada, yangi muhitda o'zini juda erkin tutadilar, tashabbuskor, o'z fikrini oxirigacha himoya qiladilar, turli o'yinlarni, tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'radilar.

Pedagogik va texnik tahsil olayotgan talabalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining qiyosiy dinamikasi haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi rasmlarni hosil qildik.



1-rasm. Texnik tahsil olayotgan talabalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari dinamikasi.



2-rasm. Pedagogik tahsil olayotgan talabalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari dinamikasi.

Yuqoridagi rasmda pedagogik ta'lim sharoitida talabalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari kursdan-kursga o'tgan sayin dinamik ravishda ortib borishi tasvirlangan. Talabalar yuqori kursga o'tgan sayin seminar mashg'ulotlarida javob berish, ma'ruzalarning yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi, bu esa har bir talabaga o'z mustaqil fikrini bayon etish, o'z fikrini himoya qilish kabi kommunikativ malakalarini rivojlantirishga imkoniyat, sharoit hosil qilinadi. Shuningdek, pedagogik ta'limda o'tiladigan pedagogik amaliyot ularning mutaxassis

sifatida shakllanishiga hamda kommunikativ qobiliyatlarining yuqori darajada rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Shu bilan birga tadqiqotda Snaydarning "Muloqotda o'z-o'zini boshqarish" so'rovnomasidan ham foydalandik. Tadqiqotda olingan natijalarni quyidagi jadvalda umumlashtirdik.

Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining muloqotda o'z-o'zini boshqarishi.2-jadval

Kurslar	Muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi
1-kurs	3,2
2-kurs	5,3
3-kurs	6,5
4-kurs	9,7

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turganidek, 1-kurs talabalarida muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi 3,2 ga teng, ya'ni kommunikativ nazorat sust; hulq - atvor barqaror, vaziyatga qarab o'zgaravermaydi, muloqotda samimiy ravishda ko'ngildagi gapni gapirish ehtimoli yuqori: dangallik va cho'rtkesarlikning kuchli ekanligi atrofdagi ba'zilarga yoqmasligi mumkin.

Ikkinchi kurs talabalarida muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi 5,3 ga teng, kommunikativ nazorat o'rtacha; samimiyat daraji yuqori, lekin ba'zida hissiyotlar «jilovi» bo'sh qo'yib yuboriladi: xulq- atvorda atrofdagilarning fikrlarini inobatga olish mavjud.


Uchinchi kurs talabalarida muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi 6,5 ga teng, kommunikativ nazorat o'rtacha; samimiyat daraji yuqori, xulq- atvorda atrofdagilarning fikrlarini inobatga olish mavjud.

To'rtinchi kurs talabalarida muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi 9,7 ga teng, kommunikativ nazorat yuqori; tezlik bilan har qanday rolga kirisha olish; vaziyat o'zgarishi bilan shaxsiy xulq- atvorni osongina o'zgartirish; atrofdagilarda qanday taasurol qoldirilishini oldindan bilish xos.

Olingan natijalar haqida aniqroq tasavvur hosil qilish hamda qiyosiy tahlil uchun quyidagi 3-rasmni hosil qildik.

Quyidagi rasmni o'zaro taqqoslab, pedagogik ta'lim olayotgan talabalarda kursdan-kursga o'tgan sayin muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi ham dinamik

ravishda ortib borishining guvohi bo‘ldik. 1-kurs talabalarida kommunikativ nazorat sust darajada namoyon bo‘lsa, bitiruvchi kurslarda kommunikativ nazorat yuqori darajada ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.



3-rasm. Pedagogik va texnik tahsil olayotgan talabalarning muloqotda o‘z-o‘zini boshqarish darajasi dinamikasi.

Texnik ta‘lim olayotgan talabalarda esa kommunikativ nazorat ko‘rsatkichi - quyi kurslarda sust darajadan bitiruvchi kurslarda o‘rta darajagacha o‘zgarganini payqash qiyin emas. Demak, pedagogik ta‘lim sharoitida talabalarda na faqat kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari, balki muloqotda o‘z-o‘zini boshqarish darajasi ham ortishi kuzatildi.

Tadqiqotda V.F.Ryaxovskiyning muloqatchanlikning umumiy darajasini aniqlash metodikasidan ham foydalandik. Tadqiqotda olingan natijalarni qayta ishlab quyidagi jadvallarda aks ettirishga harakat qildik.

Pedagogik ta‘lim olayotgan talabalarning muloqotchanlik darajasi . 3-jadval

Kurslar	Muloqotchanlik darajasi (M)
1-kurs	21,6
2-kurs	15,7
3-kurs	10,3
4-kurs	7,8

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, birinchi kursda muloqotchanlik darajasi 21,6 ga teng. Ular ma‘lum darajada muloqotchan va notanish vaziyatda o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydilar. Yangi muammolar ularni qo‘rqitmaydi, ammo notanish odamlar bilan muloqot qilishda ancha ehtiyotkorlar, bahs – munozaralarga bajonidil qo‘shilmaydilar. Ba‘zida gaplarida zaruratsiz kinoya – kesatiq ko‘payib ketadi. Biroq bu kamchilikni tuzatsa bo‘ladi.

Ikkinchi kurs talabalarida muloqotchanlik darajasi 15,7 ga teng. Ular yetarlicha muloqotchan, qiziquvchan suhbatdosh qiziq narsalar haqida gapirganda, uni diqqat

bilan tinglaydilar. Muloqotda ancha sabrlilar, o'z nuqtai nazarlarini hissiyotga berilmay himoya qiladilar. Notanish odamlar bilan suhbatlashishga to'g'ri kelganda, bezovta bo'lmaydilar, ayni paytda shovqin so'ron davralarni yoqtirmaydilar, birovning bachkana qiliqlari va ko'p gapirishlari g'ashlariga tegadi.

Uchinchi kurs talabalarida muloqotchanlik darajasi 10,3 ga teng. Ular juda muloqotchan (ba'zida me'yoridan ortiq), qiziquvchan, gapdonlar, har xil masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishni yaxshi ko'radilar, bu esa ba'zida atrofdagilarni g'ashiga tegadi. Notanish odamlar bilan bajonidil tanishadilar, odamlarning diqqat markazida bo'lishni yoqtiradilar. Hech kimning iltimosini yerda qoldirmaydilar, lekin berilgan hamma va'dalarni bajara olmasliklari mumkin. Ba'zida jahl ustida qattiq gapirib yuboradilar, biroq tezda jahlidan tushadilar. Jiddiy muammolar bilan to'qnashganda ularga sabr – toqat yetishmaydi. Ammo xohlasalar hech qanday muammo oldida taslim bo'lmasligi mumkin.

To'rtinchi kurs talabalarida muloqotchanlik darajasi 7,8 ga teng. Bitiruvchi kurs talabari juda muloqotchan, gaplari ichlariga sig'maydi. Doim hamma voqealardan xabardor, har xil bahs munozara, tortishuvlarda qatnashishni xush ko'radilar, lekin jiddiy mavzular ularni zeriktirib yuborishi mumkin. Biror masala bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lmasalar ham, bu masala yuzasidan so'zga chiqishga doim tayyorlar. Hamma joyda o'zlarini erkin his etadilar, har qanday ishga kirishib ketaveradilar, ammo har doim ham uni oxirigacha yetkazmaydilar.

Texnik ta'lim va pedagogik ta'lim olayotgan talabalar muloqotchanlik darajasini qiyosiy o'rganish uchun quyidagi gistogrammani hosil qildik.



4-rasm. Texnik ta'lim va pedagogik ta'lim olayotgan talabalarning muloqotchanlik darajasi.

Yuqoridagi rasmdan pedagogik ta'lim olayotgan talabalarning kommunikativ qobiliyatlari, muloqotchanlik darajasi bosqichma-bosqich dinamikasi texnik ta'lim olayotgan talabalarga qaraganda bir muncha yuqoriligi ko'rinib turibdi.

Pedagogik ta'lim sharoitida talabalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari hamda muloqotchanlik darajalari kursdan-kursga o'tgan sayin dinamik ravishda ortib borishi tadqiqotlar davomida aniqlandi. Talabalar yuqori kursga o'tgan sayin seminar mashg'ulotlarida javob berish, ma'ruzalarning yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi, bu esa har bir talabaga o'z mustaqil fikrini bayon etish, o'z fikrini himoya qilish kabi kommunikativ malakalarini rivojlantirishga imkoniyat, sharoit hosil qiladi. Shu bilan birga to'rtinchi kurs talabalarida "Trening o'tkazish metodikasi" fanining o'tilishi ham ularda kommunikativ qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanishiga bir omil rolini o'ynaydi. Shuningdek, 4 -kurslarda o'tiladigan pedagogik amaliyot ularning mutaxassis sifatida shakllanishiga hamda kommunikativ qobiliyatlarining yuqori darajada rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Pedagogik ta'lim olayotgan talabalarda kursdan-kursga o'tgan sayin muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi ham dinamik ravishda ortib borishining guvohi bo'ldik. 1-kurs talabalarida kommunikativ nazorat sust darajada namoyon bo'lsa, bitiruvchi kurslarda kommunikativ nazorat yuqori darajada ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Texnik ta'lim olayotgan talabalarda esa kommunikativ nazorat ko'rsatkichi - quyi kurslarda sust darajadan bitiruvchi kurslarda o'rta darajagacha o'zgarganini payqash qiyin emas. Demak, pedagogik ta'lim sharoitida talabalarda na faqat kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari, balki muloqotda o'z-o'zini boshqarish darajasi ham ortishi kuzatildi.

Talabalarda shaxsida kasbiy kunikma va malakalarning shakllanishida motivatsiyaning o'rni muximdir. Chunki insonni xar kandy faoliyatga yo'naltiruvchi ichki kuch mavjud bo'lib, u bajarilayotgan ishning mazmun moxiyatiga o'ziga xos yo'nalish va ko'rsatmalarni beradi. Shu bois pedagogik faoliyatning samaradorligi kup jixtdan pedagoglik kasbiga nisbatan bo'lgan ishtiyok., intilish, istaklariga bog'liq buladi.

Motivatsiya tushunchasining mazmun moxiyatini aniqlash borasida bir qator olimlar tomonidan ta'riflar, karashlar g'oyalar ilgari surilgan.

S.L.Rubinshteyn tomonidan motivatsiya-bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiya dir.

K.V.Madin motivatsiya - bu xulqqa yunaltirilgan qo'llab quvvatlovchi qo'zgatuvchi omillarning yig'indisidir.

Shunga kura, motivatsiya keng ma'noda quyidagilarni ifodalaydi. Motivatsiya-keng ma'noda inson xdyotining (uning xulk-atvori, faoliyatining) murakkab kup kirrali boshk,aruvchisi deb karaladi.

Motivatsiya-insonni faoliyatga undashning murakkab kup darajali tizimi bo'lib, u o'zida ex,tiyojlarni, motivlarni, k,izik,ishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni kadriyatlarini va Xokazolarni mujassamlashtiradi.


Kasbiy motivatsiya kasb tanlashga sabab buladigan aniq ragbatlantiruvchi x,arakatdir.

Kasbiy motivatsiya (moyillik) kasb tanlashga sabab buladigan aniq; ragbatlantiruvchi xarakatdir. Kasb egallash istagi talabalarda atrof-muxit omillari va maktabda utkaziladigan kasb-xunarga yunaltiruvchi ishlar orqali shakllanadi. Kasbiy motivatsiya o'zgaruvchan shakllanishi uzluksiz jarayon bo'lib, ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida boradi. Shuning natijasida motivatsiyani ilk boskichlarida aniq, zaruriyat bulsa, ularni tugirlash maqsadga muvofikdir. Kasbiy motivatsiyani guruxdarda aloxida o'rganish mumkin.

Mazkur metodika sinaluvchilar guruxdda utkazilib natijalar miqdor va sifat jixatdan taxlil kilindi.

Kasbiy motivatsiya metodikasini o'rganish buyicha natijalar 4-jadval

Kurs	1-	2-	3-gurux	4-gurux
1-kurs	9.4	7.9	8.8	8.7
3-kurs	12.9	5.2	10.8	11.8



5-rasm. Kasbiy motivatsiyasining shakllanganligining xususiyatlari

I gurux, motivlar o'z mex,natini motivlari bo'lib, mazkur omil buyicha natijalarni taxlil k,iladigan bulsak, 1-kurslarda past (9,4) xamda 3-kurslarda esa

(12,9) ni tashqil kiladi. Bu ulardagi xar kanday shart-sharoitdan x,am k5fa inson uchun mexnat jarayoni mux,imligini bildiradi.

Vunda inson bajarayotgan ishidan k,onikdsh x,osil k,ilishi, faoliyat jarayonini unumli samarali tarzda tashqil kilishi xmda uning yakuniy natijasidan kutilgan ma^sadni kulga kiritishi bilan bog'liq.

II gurux, motivlari mexdatning ijtimoiY axdmiyatli motivlari ya'ni Jamiyat tomonidan talab kdlinayotgan kasbni tanlashga bog'liqdigi x,akyada Guvoxdik beradi. Mazkur motiv x,am sinaluvchilar guruxlarda axdmiyatli daraja ya'ni 1-kurslarda past (7,9) xamda 3-kurslarda esa (5,2) ni tashqil Kiladi. Bundan kurinadiki, aksariyat yosh ukdtuvchilarda o'z kasbiga nisbatan qiziqish intilishning yukligi ayrim xollarda bu vaziyat nuktai nazaridan pamoyon bo'lishi aniqdandi. Shuningdek aksariyat sinaluvchilar o'zlari tanlagan pedagoglik kasbi jamiyatdagi yetakchi kasblardan biri ekanligi, lekin shu bilan birga o'ziga xos mashakdatga ega zkanligini anglamagan xolda tanlaganliklari ma'lum buldi.

Metodikaning navbatdagi motiv o'zini shaxe sifatida tasdiklash kasb tanlashda o'zining kobilyatini mex,nati amalga oshirish imkoniyatini ko'rsatadi. Bu 1-kurslarda past (8,8) xmda 3-kurslarda esa (10,8) ni tashqil kiladi. Shuni ta'kidlash kerakki x,ar kanday kasb egasi jamiyatda kasbdoshlari orasida o'zining o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunda asosan ledagoglar o'zlarini say darajada bilim, kunikma, malaka x,amda kasbiy max,oratga ega ekanliklari mux,imdir. Lekin shuni aytib utish lozimki yosh ^kituvchilarimizning orasida xam shunday malakaga ega bo'lganlari x,am uchraydi, ammo ularda turmush tajribalarini yetishmasligini kamchilik sifatida ko'rsatib utish lozim.

Metodikaning navbatdagi shkalasi kasbiy mox,irlik motivlar xisoblanib, 1-kurslarda past (8,7) xamda 3-kurslarda esa (11,8) ni tashqil kiladi. Bu aksariyat x,ollarda o'zlarini bajarayotgan mexnatlaridan yaxshirok natijalarga erishishni ko'rsatadi. Bunda shaxe biror bir faoliyatni bajarishdan asosiy maqsad undan kutilayotgan natija ^isoblanadi. Natijada dare jarayonini samarali tashqil k,ilish,'Galabalarga bilimlarni yetkazishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishlari bilan belgilanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan shuni xulosa kilish mumkinki, pedagogshaxsida kasbiy motivatsiyani shakllanishida faoliyatni to'g'ri tashqil qila olish ko'nikmasi, kasbiga xos sifat, qobiliyatlar muhim o'rin egallaydi.

Muammo yuzasidan nazariy materiallar taxdiliga asoslangan xolda tadkikrtning ekspremental modeli ishlab chiqildi. Shunga muvofik tadkikrt ishimizning amaliy o'rganilishiga bag'ishlagan bo'lib, unda O'quv faoliyati motivatsiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar diagnostika kilindi. Intellektual kobiliyatlar, o'zlashtirish darajasi, oliy ta'lim motivatsiyasi va uning tarkibiy qismlarini O'quv faoliyati motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqligi diagnostika qilindi. Olingan natijalar miqdor va sifat jix,atidan taxdil kilindi. miqdoriy tax;lil natijalari jadval diagramma kurinishida matnda aks ettirildi.

-O'quv faoliyati motivlari orasida kasbiy va bilish olish motivlari yetakchilik kilipgi mumkin;

-O'quv motivlarining tarkibida shaxsning bilishga bo'lgan extiyojlari, atrof xdkidagi bilimlar zaxirasi yotadi;

-O'quv faoliyati motivlari talabalik davrida mutaxassisi sifatida shakllanishi va ilmiy bilimlarni egallashning asosiy sharti bo'lishi mumkin;

-talabalik davrida kasbiy motivatsiyaning shakllanishi ularning kelajakda ongli ravishda kasb tanlashlariga xdmnda malakali mutaxassis sifatida shakllanishga olib keladi;

-talabalik davrida kasbiy va o'quv motivlari o'rtasida aloqadorlik mavjud bo'lib, ular bir-birini takazo kildadi;

-talabalik davrida muvaffatsiyatga erishish motivatsiyasining shakllanishi ularning o'quv faoliyatlarida yuqori natijalarga erishishlariga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- 1.Выготский Л.С. Мышление и речь. - 5-е изд., исп.-М.: Лабиринт, 1999.-351
2. Волкова А.И. Психология общения.Ростов на-Дону .Феникс.2007.-445 с.
3. Грановская Р.М. Элементы практической психологии. СПб. 1997
4. Жуков Ю.М., Петровская Л.А., Растяников П.В. Диагностика и развитие компетентности в общении: - Киров,1991.С.3-10.6
- 5.Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога.-М.: ВЛАДОС.2000. С.416-419.
- 6.Резников Е.Н. Межличностные отношения // Современная психология.-М.: Инфра.1999

ELEKTRON TA'LIM METODIKASINING AHAMIYATI

Fotima Urazaliyevna Anarbayeva

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

O'qituvchi

f.anarbaeva2017@yandex.com

Annotatsiya. Elektron ta'lim o'zida ta'limning innovasion yondashuvini qo'llagan holda ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirish uchun multimediya va internet-texnologiyalarni qo'llashga asoslanadi. Shularni hisobga olgan holda ushbu maqolada elektron ta'lim va an'anaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, elektron ta'lim metodikasi bo'yicha xorijiy olimlarning izlanishlari, elektron ta'lim metodikasining ahamiyati va Sergeev S.F., Nabi Y.A., Ibraymov A.E. kabi olimlarning elektron ta'lim metodikasi sohasida qilgan izlanishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy ta'lim, elektron ta'lim, ta'lim kontenti, elektron ta'lim didaktikasi, metodika, elektron ta'lim metodikasi, elektron darsliklar, elektron ta'lim rivojlantirish metodlari, ta'lim sifati, multimediya texnologiyalari, internet texnologiyalari, innovasion yondashuv, pedagogik jihatlar, ta'lim jarayoni, talaba, o'qituvchi.

Abstract. E-learning is based on the use of multimedia and Internet technologies to improve the quality and opportunities of education using an innovative approach to education. With this in mind, this article discusses the specifics of e-learning and traditional education, the research of foreign scholars on e-learning methods, the importance of e-learning methods and Sergeev S.F., Nabi Y.A., Ibraymov A.E. such as the research of scientists in the field of e-learning methodology.

Keywords: traditional education, e-learning, educational content, e-learning didactics, methodology, e-learning methodology, e-textbooks, e-learning development methods, teaching quality, multimedia technology, internet technology, innovative approach, pedagogical aspects, educational process, student, teacher.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish davrida elektron ta'limning ta'lim jarayoniga kirib kelishi muhim ahamiyatga ega. An'anaviy va elektron ta'lim jihatlari ma'lum bir xususiyatlari jihatidan uzviylik kasb etmoqda. Elektron ta'lim o'zida ta'limning innovasion yondashuvini, jumladan multimediya va internet-texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirishga xizmat

qiladi. Shularni e'tiborga holda elektron ta'lim talabalarga qulay tashkillashtirilgan muhitda bilim olish imkonini beradi deb hisoblash mumkin. Elektron ta'lim metodikasini ishlab chiqish elektron ta'limning masofali kurslari o'quv dasturlariga muvofiq holda tizimli yondashgan holda yaratilishi, innovasion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda zamonaviy bilimlar va qarashlarga ega bo'lishini talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

An'anaviy ta'limga zamonaviy texnologiyalar qaysidir jihatlarini yangilagan hamda saqlagan holda kirib keldi va natijada ta'lim sohasida elektron ta'lim tushunchasi paydo bo'ldi. Elektron ta'lim talabalarga bir marta yaratilgan multimediyaga ta'lim kontentini interaktiv rejimda ko'p bora ishlatish imkoniyatini beradi. Bunda talabalar nafaqat kontentni yaratish jarayonini kuzatishi, balki yaratishi ham mumkin bo'ladi. Elektron ta'lim ta'lim kontentida ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, chatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, ular sayt kontentini mukammallashtirishning dinamik modelini ishlab chiqish imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim tizimida darsliklar uch-to'rt yilda bir marta yangilanadi, lekin elektron ta'limda elektron darsliklar har kuni yangilanadi hamda an'anaviy ta'lim xususiyatlarini o'zida saqlagan holda, ixtiyoriy elektron ta'lim resursidagi giperhavolalar orqali boshqa resursga o'tish imkonini beradi.

Elektron ta'limda o'qituvchi masofadan turib muloqot qilish usullarini o'zlashtirishi kerak. Bu esa o'qituvchiga o'quv materiallarini yaratish, to'ldirish, tahrirlash va nashr etish kabi ishlarni ham bajarish imkonini beradi. Buning natijasida ma'ruzalar tashkil qilishning shakli o'zgaradi. An'anaviy ta'limdagi ma'ruzada talabaga oldindan ma'lum bo'lmagan axborotlar beriladi, elektron ta'limda esa barcha o'quv materiallari axborotni uzatishning turli formatlari ko'rinishida tartiblangan holda talabalarga taqdim etiladi. Shuning uchun endi o'qituvchi ma'ruzaga ijodiy yondashgan holda, talabalarga tayyorlanish uchun axborot manbalarini berishi yoki talabalarining o'zlari qo'shimcha axborot manbalarini izlab topishlari mumkin bo'ladi. Keyin ma'ruza yuzasidan muhokama o'tkaziladi. Muhokama jarayonida talabalarining ma'ruza yuzasidan fikrlari ko'rib chiqiladi va umumiy xulosaga kelinadi. O'qituvchi talabalarga mustaqil ish mavzularini ham beradi [53] (Anarbayeva F.U. va b., 2020).

Elektron ta'lim o'zida ta'limning innovasion yondashuvini qo'llagan holda ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirish uchun multimediyaga va internet-texnologiyalarni qo'llashga asoslanadi. Ko'plab xorijiy ochiq va virtual universitetlar

an'anaviy ta'lim shakllari bilan raqobatlashadigan elektron ta'lim tamoyili asosida ishlaydi. Elektron ta'lim ta'lim shakli va muhitini talaba va o'qituvchining hoxishiga ko'ra o'zgartiradi. Elektron ta'lim talabalarga qulay tashkillashtirilgan muhitda bilim olish imkonini beradi.

Umuman olganda, metodika - bu o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi hisoblanadi. Bundan esa, elektron ta'lim metodikasini – elektron ta'limning barcha jabhalarini o'z ichiga olgan holda uni tashkiliy, tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish hamda elektron ta'limning pedagogik boshqaruvini tashkil etish deb ta'riflashimiz mumkin. Elektron ta'lim metodikasi bo'yicha hozirgi kunda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda, xususan Buus L., Georgsen M., Olitayo P., Sergeyev S.F., Nabi Y.A., Ibraymov A.E. kabi olimlar bu sohada ko'plab izlanishlar qilishgan.

S.F.Sergeyev o'z ishlarida elektron ta'lim metodikasini ye-didaktika sifatida ko'radi. Uning nazarida, “samarali elektron ta'limni yaratish uchun texnologiya yordamida pedagogning ish sohasini, vazifalarini va maqsadini modellashtirish yetarli va bu texnika asrining yangi pedagogik voqelikdagi o'qitish metodikasi to'g'risida murakkab fan - elektron didaktikaning asosini tashkil etadi” deb hisoblaydi. Bundan esa elektron ta'limda faoliyat yurituvchi pedagog to'g'risida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi, “hozirgi paytda kompyuterlashtirilgan ta'limga o'tish axborot olamidagi ommaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Tegishli bilimlarning paydo bo'lish darajasi ularni o'zlashtirish uchun ta'lim tizimlarining imkoniyatlaridan ustun. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari orasida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda muammolar yuzaga keladi. Bunda ilk ko'riladigan mantiqiy yechim kompyuter vositasida ta'lim berish” hisoblanadi. Bu bilan S.F.Sergeyev pedagoglar oliy ta'lim muassasasini bitirgandan so'ng, avvalambor, ular o'z sohasi bo'yicha mutaxassis sifatida yetishib chiqishlarini, elektron ta'lim sohasida esa yetarlicha bilimga ega bo'lmasliklarini, shuni nazarga tutgan holda elektron ta'lim sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish lozimligini aytib o'tadi. [85] (Sergeyev S.F., 2015).

Didaktika borasida A.E.Ibraymov quyidagicha ta'rif bergan: “Didaktika o'qitishning umumiy qonun va qonuniyatlarini aniqlab berish bilan birga har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, ya'ni ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun metodologik asos vazifasini bajaradi”. Bundan kelib

chiqadi-ki, elektron ta'lim metodikasini ishlab chiqishda didaktika muhim o'rin egallaydi [31] (Ibraymov, 2020).

Elektron ta'limda ta'lim jarayoniga jalb qilishda elektron ta'lim rivojlantirish metodlari ham ko'riladi, buni esa Nabi Y.A. o'z ishlarida quyidagicha ko'rsatib o'tgan: "**Tizimli yondashuv**. Tizimli yondashuv tizimning umumiy nazariyasi vositalarini qo'llash bilan belgilanadi. Umuman olganda, tizimli yondashuv metodologiyaning asosini tashkil etadi. Bu metodni invasion tizimlarni shakllantirish metodlari sifatida ham qarash mumkin. **Dialektik yondashuv**. Ta'lim jarayonida sodir bo'layotgan jarayonlarning dinamik xarakteri - bu ta'lim jarayoni sub'ektlarining takomillashtirishga, eskisidan yangisiga o'tishga doimiy intilishi natijasidir. **Ekspertli baholash metodlari**. Tadqiqot metodikasi nafaqat nazariy asoslarga, balki olingan natijalarni empirik tekshirishga ham asoslangan bo'lishi kerak. Ishonchlilikni tekshirishning turli usullari: kuzatish, pedagogik eksperiment, anketa va suhbatlar, ekspertli baholash va boshqalar pedagogikada asosli va keng qo'llaniladi. Elektron ta'limning nazariy xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuzatish, pedagogik eksperiment va boshqa usullardan foydalanish imkonsiz bo'lib tuyuladi. Ekspert baholash usuli anketa va intervyu asosida qo'llaniladi" [59] ([Nabi, Yskak A. et al., 2017](#)).

Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlar natijasida, elektron ta'lim metodikasini quyidagi jihatlari bo'yicha ko'rib chiqish mumkin.

1. Elektron ta'limning umumiy masalalari. Bunda elektron ta'limni asosini tashkil etuvchi masalalar ko'rib chiqiladi. Ularga quyidagi masalalar kiradi: pedagogik masalalar, texnologik masalalar, pedagogik loyihalash, pedagogik loyihalash maqsadi, pedagogik loyihalash xususiyatlari.

2. Elektron ta'limga jarayonli yondashuv. Bunda elektron ta'limni yaratish jarayoni va uning pedagogik asoslari ko'riladi. Ularga quyidagilar kiradi: jarayon modeli, jarayonli yondashuvni pedagogik loyihalash.

3. O'qituvchilarni tayyorlash. Elektron ta'lim sohasini tashkil etishda o'qituvchilar faoliyati va kasbiy tayyorgarligi muhim o'rin egallaydi.

4. Elektron ta'limni tashkillashtirish shakllari. Elektron ta'limni tashkillashtirishning quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin: ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'limni tashkillashtirish.

5. Elektron ta'limning faol usullari. Bunda elektron ta'limni tashkil etishning faol usullari ko'rib chiqiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik faoliyatga umumiy

tizimli qarash, elektron ta'limning faol usullari, vebinarlar o'tkazishga uslubiy ko'rsatmalar.

6. Elektron ta'limda multimediyani qo'llash. Bunda elektron ta'limni tashkil etishning muhim jihatlari sifatida multimediyaning qo'llanish sohalari ko'rib chiqiladi.

Umuman olganda, elektron ta'lim metodikasi elektron ta'limning masofali kurslari o'quv dasturlariga muvofiq holda tizimli yondashgan holda yaratilishi, innovasion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda zamonaviy bilimlar va qarashlarga ega bo'lishi, talabalar tomonidan o'rganilayotgan nazariy va amaliy bilimlarning izchil, tizimli, uzluksizligi ta'minlanishi, har bir pedagogik jarayonda bo'lgani kabi elektron ta'lim jarayonida ham kuzatish-nazorat-baholash usuli asosida talabalar bilimi va o'zlashtirishi muntazam nazorat qilinishi va baholanishi, masofali kursning sifati va samaradorligi, kurs o'qituvchisining bilim va mahorati muntazam tekshirilishi, anketa-so'rovlar natijasida uning pedagogik faoliyati baholanishi orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Yuqoridagilar asosida shuni aytish mumkin-ki, elektron ta'lim metodikasi elektron ta'limni asosini tashkil etuvchi masalalar, uning pedagogik asoslari, elektron ta'lim sohasini tashkil etishda o'qituvchilar faoliyati va kasbiy tayyorgarligi, elektron ta'limni tashkillashtirishning shakllari va elektron ta'lim sohasida multimediya texnologiyalarini qo'llash asosida ta'lim jarayoniga kirib keldi. Hozirgi paedemiya sharoitida elektron ta'lim oliy ta'lim muassasalari tomonidan keng ko'lamda qo'llanilib, bu soha rivojlanishi tez sur'atlarda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. Марчук Н.Ю. Психолого-педагогические особенности дистанционного обучения // Педагогическое образование в России. — 2013. — №4.
2. Кувлей О.В, Дмитриенко И.А. Внедрение электронного обучения как системный фактор развития образования. Ksla.kg. [Электронный ресурс]. URL: http://ksla.kg/upload/file/vestnik/vestnik_2014_2/90-94.pdf.
3. Taylakov, Norbek Isakulovich, and Fotima Urazalievna Anarbaeva. "Pedagogical Features Of Moodle Platform." The American Journal of Applied sciences 2.07 (2020): 104-107.

4. Anarbaeva, Fotima Urazaliyevna, Asqar Abduhakimovich Abdullaev, and Abduvafo Fazliddinovich Qoraev. "PEDAGOGICAL APPROACH TO THE USE OF ELECTRONIC EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS."

5. Anarbaeva, Fotima, and Gayrat Nurmatov. "Features of electronic learning." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.5 (2020): 1781-1783.

**CHAKANA BANK XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHDA
ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARINI JORIY
ETISHNING HOZIRGI HOLATI**

Quvatov Elbek Jo'rayevich
O'zbekiston Respublikasi BMA tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chakana bank xizmatlarining bank faoliyatidagi ahamiyati, chakana bank xizmatlarining ilmiy-nazariy asoslari o'rganib chiqilib, rivojlangan xorij amaliyotida ularni rivojlantirish amaliyoti o'rganib chiqilgan. Shuningdek, chakana xizmatlarni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining ahamiyatini asoslangan holda, ulardan keng foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *riteyl-banking, depozit, masofaviy bank xizmatlari, internet-banking, mobil-banking, Bank-mijoz, onlayn-banking*

Аннотация: *В статье исследуются научно-теоретические основы розничных банковских услуг, изучается практика их развития в развитой зарубежной практике. Также, исходя из важности информационных технологий в развитии розничных услуг, были рассмотрены возможности их широкого использования.*

Ключевые слова: *ритейл-банкинг, услуги дистанционного банковского обслуживания, депозит, интернет-банкинг, мобильный банкинг, банк-клиент, онлайн-банкинг.*

Annotation: *The article explores the scientific and theoretical foundations of retail banking services, studies the practice of their development in developed foreign practice. Also, based on the importance of information technology in the development of retail services, the possibilities of their widespread use were considered.*

Key words: *retail banking, remote banking services, deposit, internet banking, mobile banking, client bank, online banking.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazafalardan biri bu bank xizmatlari sifatini oshirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni rivojlangan davlatlar banklari darajasiga yetkazishdan iborat.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, bu borada zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirishva bank xizmatlarini ommabopligiga alohida e'tibor qaratish lozim.O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan qabul qilingan

“2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham “bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish”vazifasi belgilab berilgan.

Darhaqiqat, tijorat banklari xizmatlar bozorining rivoji nafaqat xalq xo‘jaligiga kapitalni taqsimlashga, balki aholiga axborot berish, to‘lovlarni tezlashtirish va boshqa bir qancha qulaylik va imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu asosda bizning oldimizda chakana bank xizmatlari sohasida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va ushbu tajribaning ijobiy jihatlarini O‘zbekiston banktizimidagi ichki holatdan kelib chiqib joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida chakana xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish, ulargi xorij tajribasini joriy etish bilan bog‘liq muammolar ko‘plab iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Ikramova N.R. [1], Trofimov D.V. [2], Nikonorov V.V. [3], Bekchanov M., Abduraxmanov R. [4], Omonov A.A. [5], Aliqoriev O. [6] va boshqalar bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan ko‘plab chakana xizmatlarning o‘ziga xos jihatlarini, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarni tadqiq etganlar.

Xususan, A.S. Goncharuk tomonidan “Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlanini qondirish uchun standartlashtirilgan bank maxsulotlariga asoslangan xizmatdir” degan mualliflik ta‘rifi shakllantirildi. Bank xizmatlarini yo‘naltirish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bizning fikrimizcha, «Bank chakana xizmatlari bu-jismoniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga bo‘lgan shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj, xoxish va talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yo‘naltirilmaydigan bank xizmatlari yig‘indisidir» [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarini joriy etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og‘zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chakana xizmatlarga ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatini rivojlantirish va o'z o'rnini ushlab qolish maqsadida banklar Fintech startaplarini moliyalashtirmoqda yoki sotib olmoqda. Butun dunyoda kuzatilayotgan bu vaziyat yurtimiz banklariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz. Efma va Infosys Finacle o'tkazgan so'rov va tadqiqotlarda banklar (74%) 2016-2017 yillarda innovasion loyihalarga investisiyalarni oldingi yillarga nisbatan ko'paytirganliklarini ta'kidlaganlar. 69% banklar o'zlarining innovasion banklarga aylanganliklarini ta'kidlashgan va 25% banklar o'z innovasion faoliyatlarini yuqori darajada, deb hisoblashgan. Banklarning 40% dan ortig'i startaplar bilan ishlamoqda va 30% banklar startaplarga sarmoya kiritganini ta'kidlagan [8].

Innovatsiya va raqamli transformatsiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, respondent banklarning 20%i chakana xizmatlarni ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatiga o'tkazgan. Ushbu banklarning 85%i yangi xizmat va tovarlarni taklif etmoqda va 81%i bank faoliyatini yangi tizimlar yordamida olib bormoqda. Innovatsiya va raqamli transformatsiyaning asosi sifatida mijozlarga qaratilgan xizmat va tovarlarni yuqori standartlarda taklif etish 78% banklarning maqsadi bo'lsa, 74% banklar yangi tizimlarni tatbiq etish, 68% mobil va ijtimoiy texnologiyalardan unumli foydalanishni maqsad qilishgan.


Fintech va texnologiya kompaniyalarining tahdidi 2016 yilda 47% deb baholangan bo'lsa, 2017 yilda 48% deb qayd etilgan. Fintech va texnologiya kompaniyalari o'zlarining juda moslanuvchanligi va yangiliklarni tez qabul qilib, tatbiq etish imkoni borligi bilan banklarga munosib raqobatchi bo'lmoqda. Shuning uchun banklarning Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilishi ularning kelgusida mijozlar va bozor talabiga javob berish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bu holat asosan rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Braziliya, Xitoy, Janubiy Afrika, Avstraliya va shu kabi davlatlar) sezilarli ta'sir o'ktazib, asosan shu davlatlar banklari texnologik o'zgarishlarga va innovasion loyihalarga ijobiy yondashmoqda, ammo rivojlanayotgan davlatlar banklarida bu o'zgarishlarga yetarli e'tibor berilmagan.

Chakana xizmatlarga ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatini rivojlantirish o'z samarasini berishiga misol tariqasida UniCredit bankining oxirgi 3 yilda (2017-2019 yillarda) 1,2 mlrd. yevro investisiya qilganligini va bu tizim asosiy xizmat prinsipini tubdan o'zgartirishini hisobga olgan holda o'z ichiga tranzaksiya

migratsiyasini, protsessingni raqamlashtirish va soddalashtirish, xujjatlarni raqamlashtirish hamda savdoni elektronlashtirishni rivojlantirishini keltirish mumkin.

Chakana xizmatlarda banklarning asosiy raqobatchilari mobil ilova to'lov tizimlari bo'lib, dunyo banklarining 86%i bu tahdid juda jiddiy ekanligini va bunda banklar oldida faqat ikki yo'l borligini, birinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilish, ikkinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari tovar va xizmatlarini banklar tomonidan ishlab chiqish ekanligini ta'kidlashmoqda.

Rivojlangan davlatlar banklari Fintechlarni tinimsiz kuzatib bormoqda. ING Group (Niderlandiya) rahbari Ralph Hamers ma'lum qilishicha, ING Group bozordagi talab va taklifni doim o'rganib boradi hamda 45 ta Fintechlar bilan to'lov menejmenti, tizimni rivojlantirish, mobillashtirish va kreditlashtirishda hamkorlik kiladi.




1-rasm. 2008-2019 yillarda mobil banking xizmatidan jismoniy shaxslarning foydalanish darajasi [8]

Zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangani sari tijorat banklari ham chakana amaliyotlar, mijozlarga taqdim etiladigan xizmatlar turini oshirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiyalashga erishmoqda.

Ayni paytda barcha tijorat banklari Internet tarmog'ida o'zlarining web-saytlarini ochib, uni bankning faoliyatiga oid ma'lumotlar, yangi xizmat turlari va shartlari, mijozlar manfaatiga tegishli axborotlar bilan muntazam boyitib bormoqda. Markaziy bank veb-sayti orqali esa davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatish yo'lga

qo'yilgan. Aholi o'rtasida mobil telefonlardan foydalanishning kengayib borishi banklar tomonidan «Mobil-banking» (WAP-banking) va «SMS-banking» xizmatlari yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (Bank-Mijoz, Internet-banking, Mobil-banking, SMS-banking va boshqalar)ni respublika miqyosida doimiy takomillashtirib borish bo'yicha ishlar barcha banklar tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilishi bir tomondan milliy bank tizimining rivojlanish tendensiyalaridan guvohlik bersa, boshqa tomondan respublika iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining yanada mustahkamlanishiga sharoit yaratadi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2018 yilning boshiga nisbatan qariyb 1,0 barobarga oshib, 3,4 mln.ni tashkil qildi. Shundan bank plastik kartochkalari va bank depozit hisobvaraqlari bo'yicha bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni 7,6 mln.dan ortiqni, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 360 mingni tashkil etdi (12-rasm).



2-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni, ming kishi [9]

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotiga ko'ra, 2018 yil yakunida tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2017 yilga nisbatan 25,2 foiz oshib, 44,6 trln. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati va ko'laminin kengayishi hisobiga 2018 yilda bank xizmatlari hajmi 1,2 barobar oshib, ularning jami moliyaviy xizmatlar tarkibidagi ulushi 88 foizga yetgan va foydalanuvchilar soni o'sish dinamikasiga ega.

Jumladan, “Internet-banking” va “Bank-mijoz” dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 135,6 mingtadan ortgan bo’lsa, “Mobil-banking” va “SMS-banking” xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1 906,5 mingtani tashkil etgan.

Mamlakitimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish barcha banklar tomonidan doimiy ravishda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Anu shu chora-tadbirlar samarasi o’laroq, 2020 yil 1 yanvaro holatiga xizmatdan foydalanuvchilar umumiy soni 10 mln. dan ortgan (1-jadval).

1-jadval

2020 yil 1 yanvar holatiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining banklar o’rtasida taqsimlanishi [9]

	Bank	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jismoniy shaxslar	Jami
	TIF Milliy banki	52 969	1 657 243	1 710 212
	"O'zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB	31 464	777 366	808 830
	"Agrobank" ATB	96 250	1 343 740	1 439 990
	"Ipoteka-bank" ATIB	98 400	870 055	968 455
	"Mikrokreditbank" ATB	48 152	639 018	687 170
	AT Xalq banki	91 332	1 022 259	1 113 591
	ChEKI "Savdogar" ATB	8 380	67 803	76 183
	ATB "Qishloq qurilish bank"	18 499	243 333	261 832
	"Turonbank" ATB	15 783	148 771	164 554
0	ChEKI "Hamkorbank" ATB	69 714	716 852	786 566
1	"Asaka" ATB	19 546	561 568	581 114

	Bank	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jis moniy shaxslar	Ja mi
2	"Ipak Yo'li" AITB	18 783	314 381	333 164
3	AJ "Ziraat Bank Uzbekistan"	1 174	13 218	14 392
4	"Trastbank" XAB	19 871	81 795	101 666
5	AT "Aloqabank"	14 739	244 809	259 548
6	"KDB Bank O'zbekiston" AJ	600	31 664	32 264
7	"Turkiston" XATB	2 805	7 570	10 375
8	Eron "Soderot" sho'ba banki	128	741	869
9	"Universal bank" ATB	3 371	36 369	39 740
0	"Kapitalbank" ATB	21 519	128 297	149 816
1	"Ravnaqbank" XATB	1 675	8 801	10 476
2	"Davir-Bank" XATB	17 772	49 817	67 589
3	ChEKI "Invest Finance Bank" ATB	16 601	212 520	229 121
4	"Asia Alliance Bank" ATB	9 551	109 447	118 998
5	"Hi-Tech Bank" XATB	1 337	20 261	21 598
6	"Orient Finans" XATB	9 492	150 207	159 699
7	"Madad Invest Bank" ATB	427	2 235	2 662

	Bank	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jismoniy shaxslar	Jami
8	“O’zagroeksportbank” ATB	107	389	496
9	“Poytaxt bank” AJ	511	1 796	2 307
0	“Tenge bank” ATB	56	125	181
Jami		691 008	9 462 450	10 153 458

Masofaviy bank xizmatlari yuridik shaxslar va YaTTlar hamda jismoniy shaxslar segmentiga bo’lingan holda taqdim etib kelinmoqda. Mazur tizim foydalanuvchilar umumiy sonida TIF Milliy banki, Agrobank, Xalq banki, Ipoteka-bank hamda Sanoatqurilishbankining ulushi beqiyos bo’lib, ularning birgalikdagi ulushi qariyb 50 foizni tashkil etmoqda.

Bank plastik kartochkalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish bo’yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil 1 yanvar holatiga ko’ra plastik kartochkalarining umumiy soni 2016 yilning boshiga nisbatan 3,2 mln. ta ortib, 19,5 mln. donadan oshgan. Chakana savdo va xizmat ko’rsatish sohasi ob’ektlarida o’rnatilgan to’lov terminallari soni yil boshiga nisbatan qariyb 26 mingta ko’payib, 2019 yil 1 yanvar holatiga ko’ra 209 ming donadan oshgan. 2018 yil davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to’lovlar hajmi 53 trln. so’mdan ortiqni tashkil etib, 2017 yilga nisbatan qariyb 70 foiz ko’paygan. Shuningdek, joylarda to’lovlarni uzluksiz qabul qilishni ta’minlash maqsadida o’rnatilgan infokiosk va bankomatlar soni 2018 yil davomida 2 609 dona ortib, 2019 yil 1 yanvar holatiga 4 954 ta bo’lgan.

Ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda bank tizimida chakana mijozlarga ko’rsatiladigan bank xizmatlari salmog’i yildan-yilga oshib bormoqda. Shunga qaramay, G’arb mamlakatlarida keng foydalaniladigan bank kredit kartalari bilan, qimmatli qog’ozlar bilan, “Internet-banking” orqali jismoniy shaxslarga ko’rsatiladigan bank xizmatlari ko’lami sust rivojlanmoqda.

O’zbekistonda chakana bank xizmatlari bozorini takomillashtirishga qaratilgan strategik maqsadga erishishda bank faoliyati quyidagi yo’nalishlarga qarab rivojlantirib borilishi lozim:

– chakana bank xizmatlarini yetkazib berish jarayonini bir standartga solish va avtomatlashtirish.

– zamonaviy sotishni joriy etish strategiyasini ishlab chiqish, bunda filiallar tizimini rivojlantirish va optimallashtirish.

– chakana bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish va ular sifatini oshirish. Ushbu vazifalarning bajarilishi chakana bank xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish va bank mijozlari talabini qondirishga imkon yaratadi, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlanish istiqbollari bo'yicha olib borgan tahlillar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish bo'yicha har bir tijorat banki o'zining strategik dasturini ishlab chiqish kerak. Mazkur dasturda qadamma-qadam barcha xizmat turlarini masofaviy hamda onlayn rejimga o'tkazish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Mazkur yo'l xaritasida belgilangan vazifalarni moliyalashtirish manbasi, amalga oshirish muddatlari, amalga oshirish uchun mas'ul boshqarma hamda loyihani ishga tushirish muddati kabilar keltirib o'tilishi zarur.

2. Xozirgi kunda tijorat banklari tomonidan masofaviy tarzda ko'rsatiladigan xizmat turlariga kommunal va boshqa to'lovlar, kartadan-kartaga pul o'tkazmalari, onlayn konversiya, onlayn omonat xizmatlari, shuningdek, ayrima banklarda chakana kreditlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, keyingi bosqichda ularning turini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, xalqaro pul o'tkazmalariga integarsiyalashuv orqali xorijga mablag'larni jo'natish va qabul qilish, plastik kartalar virtual emmisiyasi xizmatini kiritish kablar shular jumlasidandir.

3. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi mijozlarni identifikatsiya qilishga bo'lgan zaruriyatni yuzaga chiqarishi tabiiy holat. Shuni inobatga olgan holda, barcha mobil-bank xizmatlariga mijozga xizmat ko'ratishda xodimni identifikatsiya qilish zaruriyati yuzaga kelganda, Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlar bazasidan integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

22. Ikramova N.R. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil, 1-bet.;

23. Трофимов Д. В. Конкурентоспособность розничных банков [Электронный ресурс] / Д. В. Трофимов// Управление экономическими системами. – 2013. – №58. – Режим доступа: <http://uecs.ru/finansi-i-kredit>;
24. Никоноров В. В. Развитие розничных услуг коммерческих банков как основа повышения их конкурентоспособности [Текст]: автореф. канд. экон. наук: 08.00.10. - Волгоград: 2008, с. 6.;
25. Бекчанов М., Абдурахманов Р. Пластик карта-замонавий hisob-kitob vositasi. // Бозор, Пул ва Кредит. №9. 2012. Б.14.;
26. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали boshqarish masalalari. 08.00.07 – «Молиуа, пул муомаласи ва кредит» иqtisod fanlari доктори илмий даражасини олиш учун таqдим етилган диссертациуа автореферати. Toshkent, 2008, 24-25-бет.;
27. Алиqориев О. Тижорат банкларида молиуавий хизмат турларини ривожлантириш йо'налишлари. иqt. фан. ном. ... дис. автореф. – Toshkent, 2011. - 28 б.
28. С. А. Гончарук Институционалние аспекти развитиуа сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хета-гурова - Shaxti, 2018. - 183 с
29. Efma-Infosys Finacle Innovation таdqiqоти, 2019 йил.
30. www.cbu.uz – О'збекистон Республикаси Марказий Банки Расмий сайти

TERROR VA TERRORIZM

*Ravshanov Fazliddin Ravshanovich,
O'zbekiston Respublikasi "Agrobank" ATB Bosh ofisi O'quv bo'lim
boshlig'i, s.f.d., prof.,
Azimov Habibullo Yakubovich
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqodchi*

***Annotatsiya.** Bugungi kunda terrorizmga berilgan ko'plab ta'riflarga duch kelinadi. Mazkur maqolada terrorizm – siyosiy maqsadlar uchun, jamiyatning qarashlari va harakatlariga qarshi, qonun ustivorligi va davlat hokimiyatini inkor etish, zaiflikdan kuchlilikka evrilish, qarama-qarshilikni rivojlantirib hukmronlik qilish, qurquvda ushlab turish orqal boshqarsh, milliy, iqtisodiy, biznes, mafkuraviy, mavqe, sinfiy va boshqa kuplab sabablarni o'zida birlashtiruvchi insonni mavh etishga qaratilgan ijtimoiy, siyosiy, harbiy, aqliy, individual va global halokatli harakatlarni umumlashtiruvchi tushuncha sifatida dalillar asosda tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar.** Terror, terrorizm, kiber terrorizm, terror va terrorizmning farqli jihatlari, davlat qarsh yoki davlat himoyasidagi terrorizm, ozodlik terrorizmi, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, psxologik, diniy, guruhlashgan, individual terrorizm shakllari, terrorizm ta'riflari, terroristik harakatlar.*

***Abstract:** There are many definitions of terrorism today. This article deals with terrorism for political purposes, against the views and actions of society, the rule of law and the denial of state power, the transition from weakness to strength, the development and rule of conflict, intimidation, national, economic, business, ideological, status, class and the evidence is fundamentally analyzed as a generalization of social, political, military, intellectual, individual, and global destructive actions aimed at the destruction of man, which unites many other causes.*

***Keywords.** Terrorism, terrorism, cyber terrorism, different aspects of terrorism and terrorism, terrorism against the state or state protection, terrorism of freedom, economic, political, ideological, psychological, religious, group, individual forms of terrorism, definitions of terrorism, terrorist acts.*

***Аннотация.** Сегодня существует множество определений терроризма. В этой статье рассматривается терроризм в политических целях, против взглядов и действий общества, верховенства закона и отрицания государственной власти, перехода от слабости к силе, развития и господства конфликта, запугивания, национального, экономического, делового,*

Идеологический, статусный, классовый и очевидный фундаментальный анализ анализируется как обобщение социальных, политических, военных, интеллектуальных, индивидуальных и глобальных деструктивных действий, направленных на разрушение человека, которое объединяет множество других причин.

Ключевые слова. Терроризм, терроризм, кибертерроризм, различные аспекты терроризма и терроризма, терроризм против государства или государственной защиты, терроризм свободы, экономический, политический, идеологический, психологический, религиозный, групповой, индивидуальные формы терроризма, определения терроризма, террористические акты.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv, madaniyatlarning o'zaro bir biriga ta'siri va qorishuvi nafaqat inson hayoti va faoliyati, balki tabiat, jamiyat va hatto muayyan voqea-hodisalarga tegishli tushunchalar mazmunini ham o'zgartirib yubormoqda. Aytish mumkinki, bugun tegishli adabiyotlarda "terror" va "terrorizm" tushunchalari bo'yicha kelishilgan yagona ta'rif yo'q, lekin u mazmunan ta'sir ko'rsatmayotgan sohalarning o'zi qolmayapdi. O'zi mansub bo'lgan jamiyatning din, irq, iqtisodiy va ijtimoiy holatiga bog'liq bo'lib, o'z manbalarini ta'minlagan terrorizm xuddi shu shaklda jamiyatni parokanda qilish yo'lini tutdi. Jamiyat avvaldan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zaro kelishmovchiliklarga ega bo'lgani uchun terrorizm o'ziga mos muhitni topdi va ijtimoiy, iqtisodiy tafovutlar bor joylarda o'z harakatlarini qo'llay boshladi. Terrorchilik harakatlarining vujudga kelishi va hatto qo'llab-quvvatlanishi bir mamlakat yoki jamiyatning zaiflashtirish va yo'q qilishga qaratilgandir. Bir guruh boshqasini yoqimsiz holatga qarshi provakatsiya qilganida chalkashliklar yuzaga keladi va bu tartibsizlik muhiti terrorchi guruhlarning ishini osonlashtiradi va ular provakatsiyaga tayangan holda maqsadlariga erishadilar.

Har bir kishining o'zigagina tegishli ruhiyati borligi va bugungi kunda odamlarga tashqi ta'sirlar, hayot sinovlari va qiyinchiliklari sababli ruhiy tomondan to'la sog'lom bo'la olmasligini anglasak, terrorchilarning ruhiy xususiyatlarini o'rganishda ayrim muammolarga duch kelamiz. Shu bilan birga, avvaldan ruhiy tomondan muammosi bor odamlarning jinoyatlarga moyilligi tan olingan, xatto jinoyatchilarning ruhiy salomatligi jazoga tortilishidan oldin alohida o'rganilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Terror va terrorizmga qaysi tomondan qarash va yondashishga qarab, bu tushunchalarga turlicha ta'rif, ma'no va mazmun berilmoqda. Soha tadqiqotchilaridan

Beshening so'zlariga ko'ra, "terrorizm davlat va xalqaro hamjamiyatga tahdid bo'lib, doimiy tarzda kuchayib boradigan, bugunning eng tahlikali muammolaridan biri sifatida qabul qilingan, juda murakkab va keng tarqalgan hodisadir". Yuz berayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar, og'ir sharoitlar va teng taqsimlanmagan resurslar terrorizmni keltirib chiqaradigan eng katta omillardir. Sinkler esa qadimgi davrlarda terror hokimiyatni ushlab qolish uchun ishlatilgan kuch bo'lgani va uning yuzaga chiqishida 10 ta tamoyil borligini ta'kidlagan. Ularning umumiy mazmuniga ko'ra terror ba'zilar uchun qirg'in bo'lsa, boshqalar uchun maqsadlar yo'lidagi muvaffaqiyat hisoblangan.

Bal terrozim atamasi birinchi marta Fransiya inqilobi davrida ishlatilganini ta'kidlab, Lakerning shunday so'zlarini keltiradi: "ekspertlar terrorizm zo'ravonlik ishlatish yoki zo'ravonlik bilan tahdid qilish va ma'lum maqsadlarga erishish uslubi yoki strategiyasidir. Terrorizm insoniyat orasida keng tarqalgan bo'lsada uni mafkura bilan tenglashtirib bo'lmaydi. U turli mafkuraga ega bo'lgan insonlar tomonidan qo'llaniladigan maqsadga erishishning bir strategik usuli yoki vositasi bo'la oladi, xolos. Terrorizm diktatura sharoitida mavjud bo'lish imkoniga ega bo'lmasa-da, liberal mamlakatni terrorizmdan himoyalaniishi deyarli imkonsizdir".

Akmaral terror va terrorizmga oid barcha yondashuvlarni umumiy tarzda o'rganish yechim berishi mumkinligini aytadi. Lotinchadagi "terrere" o'zagidan olingan terrorizm umumiy olganda qo'rquv, dahshatga solish, siyosiy lug'atlarda esa, boshqaruvni qulatilish yoki ijtimoiy tuzilmani o'zgartirishga harakat qilish maqsadidagi o'ldirishga qaratilgan shiddatli harakatlar, deb ta'riflanadi.

Laker o'zining "Yangi terrorizm" nomli asarida terrorizmni zo'ravonlik deya ta'riflaydi va har qanday zo'ravonlik terrorizm bo'la olmasligi, masalan uni partizanlar urushi bilan tenglashtirib bo'lmasligi, hatto ayrim bezorilar terrorchilardan ko'proq zarar berishini ta'kidlaydi. U "Terrorizm talqini" nomli maqolasida avvalo bu atamani ta'riflash kerakligini aytgan, sotsializm, fashizm ham ochiqchasiga to'liq ta'riflanmaganini qo'shimcha qilib, ushbu uch yo'nalish qaysidir ma'noda aniq belgilangan bo'lishi kerak, degan va mana shu uch yo'nalishni bir qatorga joylagan.

Lakerning fikricha, turli oqimlar o'z ta'limot va g'oyalarini terror orqali insonlarga singdirishga harakat qilmoqda. Bu jarayonda eng muhimi, terrorchi o'z nishonini tasodifiy tanlaydi. Tushunchani ta'riflashda mana shu tasodifiylikdan kelib chiqish lozimdir. Chunki, bir guruh, xalq, jamiyat yoki jamoat terrorchilik deb biladigan harakat boshqa guruh, davlat, jamiyat, odamlar yoki hamjamiyat tomonidan erkinlik, ozodlik yoki farovonlik uchun kurash sifatida qabul qilishi bilan bog'liqdir.

Tavlash maqolasi va Shmidning 1984 yilda nashr etilgan asarida terrorizmning 109 ta ta'rifi keltirilgan bo'lib, ularning barchasi bir-biridan farq qiladi. 1970 yillarda terrorizmni o'rgangan Markaziy razvedka boshqarmasi eksperti Mikolus Janubiy Afrika mojarosiga yondashuv va unga ta'rif berishda irqchi rejimining muxoliflari terrorchilar, deb atalgani, xuddi shu muxoliflar ba'zi uchinchi dunyo mamlakatlari tomonidan ozodlik uchun kurashuvchilar sifatida tan olinganini ma'lum qilgandi.

Ilhan terrorizmga ancha qisqa ta'rif bergan. U terrorizm "uyushtirilgan va tartibga solinmagan zo'ravonlik", zaiflar terrorga qo'l urishi va buni ojizlar ustidan amalga oshirishi, uni shouga aylantirib, asl maqsadga harbiy operatsiyasiz erishishga intilishlarini ta'kidlaydi.

Sirim terrordagi tasodifiy nishon qo'rquv odamlar orasida osonroq tarqalishi va hech kim o'zini xavfsiz his qila olmasligiga olib borishini harakatning kulminasion nuqtai sifatida ko'radi. Yazgan ham xuddi Sirim kabi terrorizm o'z tasodifiy nishonlari vositasida maqsadga intilish usuli ekanligini e'tirof etadi.

Terrorning noaniq ta'rifi harakatdagi noaniqlikdan kelib chiqadi, noaniqlik terrorchilarning ishtiyoq bilan xuruj qilish imkoniyatidir. Terrorizm o'z maqsadiga yetishda barcha usullarni qonuniy, deb bilishi mumkin, lekin unga qarshi qancha chora-tadbirlar ko'rilmasin, kun sayin qarshi kurashish qiyinlashib bormoqda.

Terrorchilik harakatlari texnologiya bilan bog'liq ravishda rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilma darajalariga chiqdilar. Bugungi kunda internet, uyali aloqa vositalari, komyuter texnologiyalari imkoniyatlari asosida terrorizm moliyaviy resurslarni qo'lga kiritish, ma'lumotlarni o'g'irlash va o'zgartirishga qaratilgan yangi harakatlar ko'rinishini ham olgan. Terroristlar manfaatlariga xizmat qiladigan bu tendensiya "Kiber terror" deb nomlandi. Kiber terrorizm tushunchasi doirasiga internet tizimidagi namoyishlar ham kiradi, chunki terrorchilar internet tizimlariga yo'l ochib, o'z tarafdorlari sonini borgan sari oshirmoqda.

Lekin terror va terrorizm o'rtasida nozik bir farq bor. Terror zo'ravonlik asosida odamlarga fikrini singdirish vaziyatini bildiradi. Terrorizm esa ta'limot va keng tarmoqli harakat asosida siyosiy tizimni o'zgartirishga qaratilgani bilan farqlanadi.

Hozirgi amaliyotda aksariyat davlatlarda mamlakat yoki jamiyatning terror tashkilotlari yoki harakatlariga qarshi turishi o'z hududida xavfsizlik muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi. Biroq bu terrorizmga ongli qarshi turshni ifodalamaydi.

Terrorizmning turli manbalardagi mazmuni uch o'lchamda ko'zga tashlanadi: davlat qo'llab-quvvatlovchi tuzilma; davlatdan norozilarning amaldagi hokimiyatga qarshi keskin harakati; mafkura hosilasi.

Terrorizm turlari ikki o'lcham – shakl va mazmun jihatidan tahlil qilinishi lozim. Manbalarda terrorizmning davlatga qarshi yoki davlat qo'llab-quvvatlagan shakllari mavzuga olinadi. Davlatga qarshi terrorizm bu hokimiyat boshqaruvini ag'darish yoki mustaqillikni qo'lga kiritish maqsadida qo'llanilgan terrorizmning ayni shaklidir. Masalan, yaqin o'tmishda Kongra Gel (sobiq Kurdiston ishchi partiyasi) o'zlari joylashgan hududda mustaqil davlat tuzishga itilib, Turkiyaga qarshi qonli xurujlarni amalga oshirdi. Qizig'i, u Kurdiston ishchi partiyasi, deb atalganida Yevropa Ittifoqining terrorchi guruhlar ro'yxatiga kiritilmagan edi, nomini KADEK deb o'zgartirganidan keyin eski nomi bu guruhlar ro'yxatidan joy oldi. Xuddi shu holat Kongra Gelga bilan ham bo'lishi mumkin.

Shimoliy Irlandiya hukmronlik qiladigan Irlandiya Respublikasi armiyasi (IRA) ham mustaqillik uchun harakat qilayotgan tashkilotlardan biri. Uning faoliyatida davlat, diniy va ozodlik maqsadlari aralashib ketganini ko'rish mumkin. Ularning haraktlarida moliyaviy manba vazifasini AQShdagi irlandiyaliklar bajarayotgani qatorda yana bir iqtisodiy manbasi Liviya ekani ma'lum. Bu holat davlatga qarshi terrorizm va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan terrorning bir vaqt va bir joyda yuz berishi mumkinligining isboti sifatida ajralib turadi.

Shuningdek, mustaqillikka erishish uchun davlatga qarshi tashkil etilgan terrorchi guruhlariga yana bir misolni Angliyaning o'zidan keltirish mumkin. 1979 yilda Ouen Glindur Uels ozodligi uchun harakatlarni boshlagan edi, garchi bu Irlandiya Respublikasi armiyasi kabi yirik tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsa-da, 1992 yilda ancha shov-shuv bo'lgan portlatishlarni amalga oshirdi.

1970 yilda Italiya hukumatiga qarshi tuzilgan "Qizil Brigadalar" tashkiloti a'zolari Falastinda ta'lim olib, Italiyada qonli hujumlarni uyushtirishda qatnashgan edi. Germaniya qizil armiyasi, Falastindagi guruhlar, Fransiya tezkor guruhlar va Livanning qurolli inqilobiy guruhlar bilan yaqin aloqada bo'lgan "Qizil Brigadalar" Irlandiya Respublikasi armiyasi kabi Yaqin Sharq mamlakatlari tomonidan o'q-dorilar bilan qo'llab-quvvatlangan. Yevropadagi eng qonli terror tashkilotlaridan biri bo'lgan "Qizil Brigadalar" davlatga qarshi terrorizmdan tashqari, qotillik, talonchilik, suiqasd, odam o'g'irlash kabi jinoyatlarga ham qo'l urgan.

Germaniyada ham "Qizil armiya fraksiyasi" (RAF) va boshqa marksizm-leninizm g'oyalari tarafdori bo'lgan inqilobiy guruhlar hali ham faol bo'lib, yacheyka

shaklida tuzilgan bu guruhlar boshqa terroristik tashkilotlar bilan yaqin aloqalarini yashirmadi.

1970 yillardan hozirga qadar Korsika mustaqilligi uchun jang qilayotgan Korsika milliy ozodlik fronti (FLNC) davlatga qarshi bosh ko'targan va hukumatga idoralariga hujumlar uyushtirgan tashkilot sifatida gavdalanadi. U fransuz mafiyasi tomonidan moliyalashtirib kelinmoqda.

1959 yilda tuzilgan Bask ayirmachilik harakati (ETA) qurolli to'qnashuvlarda qatnashgan va o'z ichida qanotlarga bo'linib, ETA- Harbiy qanoti (ETA-M) va ETA-Siyosiy va Harbiy qanoti (ETA-PM) nomlarini olgan. Bu tashkilotning eng ko'p qon to'kkan bo'limi ETA-Harbiy qanotidir. 1979 yilda Bask o'lkasiga avtonomiya maqomi berildi, ammo bu holat ETAning to'liq mustaqil bo'lishiga to'siq sifatida qabul qilindi. 1987 yilgacha Janubiy Amerika va Sovetlar Ittifoqdan ko'mak olgan ETA bugungi kunda ETA Ispaniya tarkibidagi muxtoriyat emas, balki ozod o'lka sifatida qabul qilinishi uchun Ispaniya davlati imkoniyatlarni kengaytirishi, YeTA mahbuslarini ozod qilishi istagini bildirmoqda.

Hozirgi vaqtda davlatlar qo'llab-quvvatlayotgan terrorizm eng tahlikali terrorizm sifatida qabul qilinmoqda. Terrorizmdan ko'p jabr ko'rgani ortidan AQSh Kuba, Iroq, Eron, Sudan, Suriya Liviya va Afg'onistonni terrorizmni qo'llab-quvvatlagan davlatlar, deb e'lon qildi va masalan, Eronni faqatgina AQShning sa'y-harakatlari bilan to'xtatish mumkin emasligini, boshqa davlatlar ham bu borada yordamchi bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Davlatga qarshi va davlat qo'llab-quvvatlagan terrorizm haqida gapirganda radikal islomiy guruhlardan ham so'z ochish kerak bo'ladi. Islomiy xatti-harakatlarning haddan tashqari kuchayib ketishi natijasida islomiy terrorizm paydo bo'ldi. Geografik nuqtai nazardan dunyoning katta qismiga tarqalgan islom terrorizmni qo'zg'atadigan omil sifatida qabul qilina boshladi.

Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil qilish va faoliyatini kengaytirishda kichik sanoat zonalarining o'rni juda muhim hisoblanadi. Hozirgacha, shaharning 5 ta hududida 13,0 gektar er maydonida kichik sanoat zonalarini tashkil etilgan bo'lib, shundan "lot"larga ajratilgan 64 ta tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan. Bular jami 1160 ta ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan. 2019-2020 yillarning o'tgan davrida jami 8,7 gektar er maydoni (67 %), umumiy qiymati 29,8 mlrd. so'm investitsiya kiritish va 796 ta yangi ish o'rinlari yaratish sharti bilan 47 ta tadbirkorlarga ajratib berildi.

2020 yilning o'tgan davri mobaynida 21 ta loyiha ishga tushirilgan bo'lib, mazkur korxonalar tomonidan jami 25,3 mlrd.so'm investitsiya kiritildi. Mazkur korxonalar tomonidan 16,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

2020 yil yakuniga qadar yana 2 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 2,4 mlrd.so'm investitsiya kiritilib, 43 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, shu qatori Buxoro shahrida ro'yxatdan o'tib, faoliyat olib borayotgan 14 ta tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan jami 4908,3 ming. dollarlik uskunalari import qilingan [5].

Bugungi kunda shahardagi 12 ta korxonalar tomonidan 15 turdagi import o'rnini bosuvchi mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, joriy o'tgan davr mobaynida 37,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib,

mahalliyashtirishning oʻrtacha darajasi 49 foizni tashkil qildi. Investitsiya dasturi doirasida import oʻrnini bosuvchi mahalliyashtirish loyihalar "Jihoz-nur konstruksiya" MCHJ negizida (metal profil quvur) "Omad Gvozd Shurup" MCHJ negizida (sim va armatura) "Sayfullo Mangu" MCHJ negizida (transformator va butlovchi qismlar) kabi korxonalar ishga tushirildi. Misol uchun "Buxoro tib-texnika" MCHJ tomonidan ishlab chiqariladigan 6 turdagi tibbiyot anjomlari mahalliyashtirish bilan birga yangi mahsulot boʻlib ham hisoblanadi. Bular: murakkab jarrohlik operatsiyalarida qoʻllaniladigan – koronar stendlar, katetr va introdyuserlardir. Jahon bozorida ularning har birining oʻrtacha narxi 1000-3000 AQSH dollarigacha tursa, oʻzimizda 300 ming – 1 mln. soʻm atrofidagi qiymatda ishlab chiqarilmoqda.

Importni optimallashtirish chora-tadbirlari hisobiga hamda pandemiya sabab 2020 yilda asosan oziq-ovqat mahsulotlari import qilinib, ularning hajmi bugungi kungacha 3 mln. 919,5 ming AQSH dollarni tashkil qildi [5].

Buxoro shahrida 2020 yilda umumiy qiymati 35 397,7 ming. AQSH dollarlik 66 ta eksportyor korxonaga eksport rejasi oʻrnatilgan. Hozirda prognoz rejalari oʻrnatilmagan qoʻshimcha eksportni amalga oshirayotgan 22 ta yangi eksportchi korxonalar boʻlib, jami korxonalar soni 95 tani tashkil etmoqda.

Buxoro shahridan eksport mahsulotlari Rossiya Federatsiyasi, Qozogʻiston, Polsha, Germaniya, Belorussiya, Tojikiston, Azarbayjon, Pokiston, Afgʻoniston, Xitoy va boshqa 30 dan ortiq davlatlarga amalga oshirilgan. 2020 yil uchun belgilangan eksport prognoz reja koʻrsatgichlarini bajarish va amalga oshirish boʻyicha yil davomida prognoz rejalari oʻrganilib boriladi.

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy Buxoro shahrida iqtisodiy infratuzilmalarning rivojlanishi ijobiy natijalarga olib keladi. Aholi bandligi bilan bogʻliq muammolar hal qilinadi va xalqning iqtisodiy farovonligi taʼminlanadi. Mazkur jarayonda korxonada ishlab chiqariladigan eksport tovarlarining yillik miqdori, mahsulotlar boʻyicha tijorat takliflari, korxonada mavjud eksport mahsulotlarining miqdorlari, eksportni koʻpaytirish, qoʻshimcha xorijiy hamkorlar topish, aylanma mablagʻ olishda korxonalariga koʻmaklashish, eksport qilingan mahsulot uchun qoʻshimcha qiymat soliqlarini qaytarish, elektr energiya va gaz taʼminotini yaxshilash kabi qator masalalar hal qilinib boriladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES):

1. S.Barotov "Mehnat yaratgan moʻjiza", "Buxoro", 2018 y, 22-bet. (S.Barotov "Miracle created by labor", "Bukhara", 2018, page 22
2. Buxoro shahar stasistika boshqarmasi maʼlumotlari

3. buxstat.uz
4. Buxoro sharq durdonasi.T.1997 y,165-b. (Bukhara eastern pearl.T.1997, 165-p)
5. Buxoro shahar hokimligi ma'lumotlari
6. Z.Komilov. "Yutuqlar ko'p, ammo..." , Buxoronoma, 2020 yil 12 dekabr, №94,1-b (Z.Komilov. "There are many achievements, but ..." , Bukhara, December 12, 2020, №94.1-p)

“QISSASI AR-RABG’UZIY” ASARINING O’ZIGA XOSLIGI VA JANRLAR TARKIBI

Annayev Davlat Ismatovich

*Termiz davlat universiteti adabiyotshunoslik,
o‘zbek adabiyotshunosligi yo‘nalishi I bosqich magistranti*

Annotatsiya: Qur’oni Karimda payg’ambarlar qissasining keltirilishi va bu qissalarning keyinchalik boshqa asarlarga asos bo’lishi, “Qissasi Rabg’uziy” asarining yozilishi, bu asardagi janrlar tarkibi o’rganiladi.

Kalit so‘zlar: Qissaxonlik tarixi, payg’ambarlar va solih bandalar qissasi, “Qissasi Rabg’uziy” asarining To’qbo’g’aga bag’ishlanishi, janrlardan foydalanish va ularning tarkibi.

Abstract: The narration of the stories of the prophets in the Qur'an and their subsequent use as a basis for other works, the writing of the story "Rabguzi", the composition of the genres in this work are studied.

Keywords: History of storytelling, the story of prophets and righteous servants, the dedication of the story "Rabguzi" to Toqboğa, the use of genres and their content.

Аннотация: Изучены повествование рассказов пророков в Коране и их последующее использование в качестве основы для других произведений, написание рассказа «Рабгузи», жанровый состав в этом произведении.

Ключевые слова: история повествования, история пророков и праведников, посвящение повести «Рабгузи» Токбоге, использование жанров и их содержания.

KIRISH

Ushbu maqolada Qur’oni Karimda payg’ambarlar tarixining bayon etilishi, ushbu asarning yozilish tarixi va o’ziga xos jihatlari, tarkibi, qissalar tahlili, janrlar izchilligi va tuzilishi to’g’risida so’z boradi.

Islom dinining muqaddas kitobi bo’lmish Qur’oni Karimning vahiy orqali nozil bo’lishi musulmonlarga juda ko’plab o’tmish qissalarini bayon qilib berdi. Bu qissalarda Muhammad sollollohu alayhi vassalamdan ham oldin payg’ambarlar yuborilganligini, ular ham qavmini tavhidga chaqirganligini va qavmining ularga bo’lgan munosabatini, sarkash qavmlar ustiga yuborilgan balolar va ofatlar haqida so’z yuritiladi. Qur’oni Karim nozil bo’lgandan to bugungi kungacha juda ko’plab Qur’oniy qissalar asosida payg’ambarlar tarixi haqida asarlar yozilgan. Dastlabki asarlar arab tilida yozilgan bo’lsa, keyinchalik fors tilida ham bunday qissalar paydo bo’la boshladi. Turkiy tilda yozilgan, payg’ambarlar qissalariga asoslangan eng

mahshur asar Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy"idir. Rabg'uziy (taxallusi; asl ism-sharifi Nosiriddin Burhoniddin o'g'li) (13-asr oxiri — Xorazmning Raboto'g'uz mavzei — 14-asr boshlari) — shoir. Raboto'g'uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlari og'zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to'g'risidagi qissalarni chuqur o'rgangan. O'zi ham ko'pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari tahlilga tortiladi. Bu asarda ilgari surilgan mavzu va g'oya tadqiq etiladi. Bunda turli yillarda nashr etilgan kitoblardan foydalanildi. Shuningdek, "Qissasi Rabg'uziy" to'g'risida qilingan tadqiqotlar, monografiyalar, ilmiy ish hamda asarlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib nasrda rivoyatlardan, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha «Qisasi Rabg'uziy» (1309—10) asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo'g'ul beklaridan Nosiriddin To'qbug'aning topshirig'i bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba'zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilgan. Qur'oni Karimdagi ba'zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Ishoq Nishopuriyning «Qisas ul-anbiyo»sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi, so'ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma'lumot beruvchi qisqa so'zboshi, keyin esa qissalar keladi. Jami 72 qissadan iborat. Mavzu doirasiga ko'ra, asar qissalari juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo'lgan Allohni ulug'lash, payg'ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, erk va adolat mavzulari shular jumlasidandir. Qissalar hajmi turlicha: Masalan, Yusuf haqidagi qissa salkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadagina iborat. Qissalarning ko'pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so'ng sheri madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Bazi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqlar ham bor. Masalan, Yusuf qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g'azal va boshqa janr namunalari uchraydi. Ammo ular asarda olg'a surilgan asosiy g'oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi. Qissalarda real hayot voqealari bilan bog'liq mavzular ham uchraydi. Qissalar bayonida, personajlar tasvirida xalq og'zaki ijodining bevosita ta'siri seziladi. Asar garchi payg'ambarlar haqida bo'lsa-da, muallifning e'tiroficha, insonlar mavjud bo'lmasdan avval ham mavjudlik mavjud bo'lgani uchun voqealarni ana shu ilk mavjudlik voqealaridan boshlaydi. Ya'ni avvalgi qissa yer, ko'k, mavjudotlar, jin,

dev, parilar hukmronligi, so'ngra insonning yaratilishiga ehtiyoj tug'ilishi voqealaridan boshlanadi. Bu voqealar konkret ilmiy xarakterga ega bo'lmasa-da, lekin olam va odamning avvali haqida ma'lum tasavvurlar beradi. Qolgan qissalar payg'ambarlar va payg'ambarlashtirilgan shaxslar to'g'risidadir. Rabg'uziy har bir qissaning boshlanishida payg'ambar haqida qisqacha ma'lumot so'ngra izohlovchi she'r, so'ng nasrda qissaning asosiy mazmuni beriladi. Bu mazmun ham yaxlit voqealar bayonidan iborat bo'lmay, shu voqealar bilan bog'liq bir necha naql va hikoyatlardan ham iboratdir. Masalan, Idris payg'ambar to'g'risida izoh va she'r keltiriladi. So'ngra nasrda uning o'ziga xos xislatlari aytiladi. Qissadan ma'lum bo'lishicha, Idris payg'ambar ilm-u hikmatda, podshohlikda, payg'ambarlikda uchinchidir. U nima narsa bo'lsa, tikib kiyishni bilgan, shamshir, pichoq kabi asboblarni yasagan, osmonda yashagan, jannatda tirik yurgan, yetmish ikki tilni bilgan, dinga da'vat qilib, turli rasm-rusumlarni o'rgatgan. Xudo uning sidqidildan qilgan toat-ibodatlarini, ishlarini nazarda tutib, o'lib qayta tirilishiga, osmonga chiqib sayr qilishiga, do'zax va jannatda aylanib, jannatda qolishiga izn beradi. Asarda boshqa payg'ambarlar haqida ham shu usulda voqea-hodisalar bayon qilinadi, rang-barang hikoyatlar keltiriladi. E'tiborlisi shundaki, qissalar va ular bilan bog'liq hikoyatlar maqsadli muayyan bir g'oyaga bo'ysundirilgan holatda bayon qilinadi. Masalan, Bir kuni Sulaymon Boyqushdan so'radi, nima uchun doim vayronalig' yerni xohlaysan, nega xalq orasida yurmaysan. Boyqush aytdiki, odam farzandlari bir-biriga qiladigan zulmidan qo'rqaman. Demak, bunda zulm qoralanadi. Dovud payg'ambar hikoyatida halollik, halol mehnatni ulug'lash g'oyasini ko'ramiz. Bunday g'oyaviylik asardagi barcha hikoyatlar uchun xosdir. Ko'rinadiki, Rabg'uziy qissa va hikoyatlarini insonlar ezguligi uchun xizmat qilishga qaratgan. Halollik, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Rabg'uziyning hikoyalarning asosiy maqsadidir. O'zbek nasrida ilk marotaba dialoglar Rabg'uziy tomonidan keng qo'llangan. Ana shu dialoglar vositasida asosiy g'oyaviy maqsad yorqin va tasirchan ifodalangan. Tilga e'tibor berish, har bir aytiladigan so'z masuliyatini takidlash, hikoyadagi asosiy g'oyaviy-badiiy niyatdir. Bu yerda donolik, hozirjavoblik ham ulug'langan.

Asardan o'rin olgan hikoyatlarning ko'pchiligi real hayot hodisalarini izohlashga qaratilgan. Masalan: Insonga jon ato etilishidan oldin uning tanasi tirnoqlar kabi silliq edi, jon baxsh etilgach, yumshab, hozirgi holatga keldi, avvalidan nishona sifatida tirnoqlar saqlab qolindi. Qarg'alardan biri yerni cho'qalib, o'lgan sherigina ko'rishdan yerga ko'mish odati rusum bo'ldi. Shuningdek, arining

g'o'ng'illashi, qaldirg'ochning odamlar orasida bo'lishi, ilonning qurbaqaga o'chligi va hakazolar hayotiy hodisalar bo'lib, izohlovchi hikoyatlardir. Ana shu o'rinda asarga xos eng muhim xususiyat rivoya va hayotiy traditsiyalar tutashtiriladi. Qissa va rivoyatlar Rabg'o'ziyning nasrdagi katta mahoratini ko'rsatsa, asardan o'rin olgan g'azal va she'rlarda tabiat ko'rki, qahramonlarni ruhiy holatlarini yorituvchi she'rlar uning nazmdagi mahoratini ko'rsatadi.

Hikoyalarda xalq og'zaki ijodining tasiri ham yorqin seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilar hikoyaga ko'chib o'tgan. Suhbatning diolog asosida olib borilishi, soddalik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo'ndaligi, og'zaki ijoddan tasirlanish natijasidir. Rabg'uziy bu ijod mahsuli mazkur mavzu ananasidagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. Birinchidan, adib o'zigacha yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, ularning yutuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salafлари yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Uchinchidan, oldinlari nabiyalar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda bitilgan qissalari turkiy xalqlarning bebaho manaviy mulkiga aylandi.

Muallif ikkinchi kitobning she'riy xulosasida uni qachon yozganligini ifoda etadi. "O'zgalar dunyo lazzati deb, qimmatbaho toshlardan mol dunyo yiqqanida, xushmanzara joylarda ko'ngil ochib yurganida men so'zdan gavharu dur tuzdim", deb bashorat qiladi. Darhaqiqat, ushbu kitob o'lmas ganjina bo'lib, asrlardan asrlarga, xalqlar tilidan o'zga xalqlar tiliga o'tib kelyapti. Rabg'uziy uni shunday ifoda etadi:

O'zgalar ko'p olamunchoq tuzdilar el tizginib,
Man guvar, dur, yinju tuzdim, kezmadim yobon yozi.
Yetti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul o'g'urda Hut saodat yulduzi.

Darhaqiqat, allomaning o'zi aytganidek, asarni duru gavharga qiyos etgulik. Ayni paytda bu kitobni butun jahon ahli o'qib o'rganayotganligi buni tasdiqlaydi.

Sharqda Iskandar Zulqarnayn deb tilga olingan shaxsning Aleksandr Makedonskiyga daxldorligi, Zulqarnayn nisbasiga oid talqinlar shunchalar xilma xilki, bu muammo yechimi dunyo olimlarini mudom o'ylantirib, bahslarga sabab bo'lib keladi. Chunki, uning tarixiy shaxs va adabiy obraz sifatidagi talqinlari ba'zan bir-biridan keskin farq qiladi, shuningdek, Zulqarnayn nisbasi haqida ham turli xil qarashlar mavjud.

Zulqarnaynga oid ilk manba Qur'oni Karim bo'lib, "Kahf" surasining 83: 98 oyatlarida u haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ushbu muborak manbada

Iskandarning avval g'arbga borib, bir qavmni to'g'ri yo'lga chaqirishi, keyin esa Sharqqa borib boshqa bir qavmni hidoyatga chorlashi ta'kidlanadi. Rabg'uziy ham Zulqarnayn haqida Qur'oni Karimga asoslanib yozganligi keltirilgan misollaridan ko'rinib turadi. Masalan: "Zulqarnayn Iskandariya nomli joydan bo'lgani uchun Iskandar deb ataldi. Zulqarnayn ham unga keyinchalik berilgan nom bo'lib, yer yuzining mag'ribidan mashriqigacha bosib olib, bo'yinsundurgani uchun shunday ataldi. Qarn arab tilida muynuz(munguz, shox) demakdir. Ikki muynuzlik degan ma'noni anglatadi. Zulqarnayn boshidagi kiyimi(dubulg'asi)da oltindan ikkita shox bor edi. Alloh Taolo unga payg'ambarlik yubordi. Urdilar shoxlari sindi. Yana aytishlaricha, u ikki qarnli bo'lib yashagan edi. Yana uning payg'ambarligiga ham ixtiloflar bor. Ba'zilar payg'ambar edi dedilar, ba'zilar Olloh yorliqagan malik edi dedilar.

"Qissasi Rabg'uziy"ga diniy xarakterdagi bir asar sifatidagina qaramaslik kerak. Chunki asarda diniy ruhga nisbatan inson xayoti, kelajagi va real borliq bilan bog'liq dunyoviy ruh ustun darajadadir. Asar tom ma'nodagi ilhom manbaiga aylanishi mumkin bo'lgan nodir yodgorlikdir.

XULOSA

Asarda ma'rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud (Luqmon hikoyasi va b.), qissalardagi hikoyatlarga dunyoviy ruh ham singdirilgan (Yusuf qissasi va b.). Rabg'uziyning bu asari o'zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda 13—14-asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Qissaning 15-asrga oid qo'lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida, 16-asrda ko'chirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, 19-asrda ko'chirilgan qo'lyozma, shuningdek, bosma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv. 1025, 7397, 1874) saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T., 1990-91.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik 1-tom, 1977.
3. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob, 1969.
4. Fozilov E. Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. 1-kitob, 1990.

Internet saytlari:

1. *kh-davron.uz*
2. *gujum.uz*

“AFROSIYOB” (TALGO 250) TEZYURAR POEZDINING ISHONCHLILIK, TAYYORLIK VA TA'MIRTALABLILIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH

Quvondiqov Jaloliddin Manguberdi Olimboy o'g'li,

Toshkent davlat transport universiteti

[*jaloliddin1690@gmail.com*](mailto:jaloliddin1690@gmail.com)

Ulug'bek Abdulatipov Islomjon o'g'li,

Toshkent davlat transport universiteti

[*ulugbek69719497@gmail.com*](mailto:ulugbek69719497@gmail.com)

Annotatsiya: “Afrosiyob” (Talگو 250) tezyurar poezdining ishonchlilik, tayyorlik va ta'mirtalablilik koeffitsientlarini ekspluatatsion ma'lumotlarga asoslangan xolda tahlil qilish.

Kalit so'zlar: ishonchlilik koeffitsienti, tayyorlik koeffitsienti, ta'mirtalablik koeffitsienti, Vaybull vaqt taqsimoti qonuni, eksponentsial taqsimot qonuni, normal logarifmik taqsimot qonuni.

Abstract: Analysis of the coefficients as reliability, availability and maintainability for the high-speed train "Afrosiyob" (Talگو 250) based on operational data, with given distribution laws.

Key words: reliability factor, availability factor, maintainability factor, availability function, Weibull distribution, exponential distribution law, normal logarithmic distribution law.

Аннотация: Анализ коэффициентов надежности, доступности и ремонтпригодности высокоскоростного поезда «Афросиаб» (Talگو 250) на основе эксплуатационных данных с заданными законами распределения.

Ключевые слова: коэффициент надежности, коэффициент готовности, коэффициент ремонтпригодности, функция доступности, распределение Вейбулла, экспоненциальный закон распределения, нормальный логарифмический закон распределения.

KIRISH

Ushbu izlanishda "Afrosiyob" tezyurar poezdining ishonchligi tahlili natijalari keltirilgan. Tahlil “O'zbekiston temir yo'llari” temir yo'l kompaniyasi tomonidan ishlatilayotgan "Afrosiyob" tezyurar poyezdining tezkor ma'lumotlariga asoslandi. Meyyoriy xujjatlarda tezyurar poezdning ishonchligini tahlil qilish usuli

aniqlanib, ishonchlilik ko'rsatgichlari uch guruhga bo'lingan: ishonchlilik koeffitsiyenti, ishga xozirlik koeffitsiyenti va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyati. Rejalashtirilgan joriy ta'mirlash ishonchlilikning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq tiklaydi deb taxmin qilingan. Ishonchlilik tahlili 2014 yil yanvar oyining boshidan 2015 yil boshigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan eksperiment sinovlaridan yig'ilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Bu esa tezyurar poyezdning joriy ta'mirlash o'rtasidagi ishonchliligini tekshirishga imkon berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Izlanishlar ekspluatatsiya davrida "Afrosiyob" tezyurar poyezdida tez-tez uchraydigan muammolar quyidagilar ekanligi aniqlandi:

✚ temir yo'l relslari va g'ildirak juftligi orasidagi aloqa bilan bog'liq muammolar;

✚ sovitish tizimidan sovitish suyuqligining oqib chiqishi;

✚ pnevmatik tizimdagi nosozliklar;

✚ elektr tizimidagi nosozliklar (shu jumladan radioaloqa ham);

✚ sovitish ventilyatorlari va boshqalardagi nosozliklar.

Ro'yxatdan olingan nosozliklarning tuzilishi quyidagi uzellarda past ishonchliligini ko'rsatdi:

✚ temir yo'l relslari va g'ildirak juftliklari orasidagi aloqa bilan bog'liq muammolar;

✚ pnevmatik tizimdagi nosozliklar;

✚ mashinalar va elektr tizimlaridagi buzilishlar.

"Afrosiyob" tezyurar poyezdining tadqiqot uchun tanlangan ko'rsatgichlari

Ekspluatatsion sinovlar davomida olingan ma'lumotlar tahlil qilindi va hisoblab chiqildi. Ma'lumotni rasmiy qayd etish, uni yig'ish va qayta ishlash Microsoft Excel dasturida amalga oshirildi. Keyinchalik, Mathcad paketining imkoniyatlaridan foydalanib, ishonchlilik tahlillari o'tkazildi, jumladan quyidagi ko'rsatgichlar:

○ uzluksiz ishlash va nosozliklarni bartaraf etish vaqtining gistogrammasini ishlab chiqildi;

○ uzluksiz ishlash vaqtini taqsimot qonunlari va nosozliklarni tuzatish haqidagi farazlarni sinovdan o'tkazilindi;

○ ma'lumot kam bo'lgan taqsimot qonunlarini baholandi;

○ asosiy statistik parametrlarni aniqlandi;

○ ishonchlilik omillarini hisoblendi;


1. "Afrosiyob" tezyurar poezdining ishonchliligi omillari

"Afrosiyob" tezyurar poezdining ishonchliligini baholash doirasida quyidagilar aniqlandi:

- birinchi nosozlikga qadar bo'lgan vaqtning integral formulasi, $F(t)$;
- texnik xizmat ko'rsatish doirasida tiklash funksiyasi, $H(t)$;
- nosoz xolatning o'rtacha davomiyligi, T_{no} ;
- nosoz xolatgacha bo'lgan o'rtacha davomiyligi, soz xolatda ishlash davomiyligi, T_H [5].

Nosoz xolatning o'rtacha davomiyligi (T_{no}) uchun ish vaqti gistogrammalari tuzildi va asosiy statistik parametrlar hisoblab chiqildi: o'rtacha arifmetik qiymati, standart og'ishi, dispersiyasi, barcha nosozliklar davomiyligi yig'indisi. Grafiklarda empirik integral vaqt taqsimotining birinchi nosozlik funksiyasi (ishonchsizlik funksiyasi deb ataladigan) va nazariy jihatdan eng yaxshi integral vaqt taqsimotining funktsiya ko'rsatilgan.

Nazariy integral vaqt taqsimoti va empirik ma'lumotlar o'rtasidagi solishtirishlar funktsional chizmalar yordamida amalga oshiriladi. Gipotezalarni tekshirish uchun 95% aniqlik darajasi qabul qilindi va Anderson-Darling (AD) to'g'rilik testi qo'llanildi. Taqsimot qonunlarini aniqlik darajasini yuqori bo'lishi uchun xisoblash jarayonida maksimal ekspluatatsiyaga yaqin son qiymatlaridan foydalanildi [6].





Rasm 2. Asosiy statistik parametrlar bilan "Afrosiyob" tezyurar poyezdining ishdan chiqish chastotasi gistogrammasi.

Sinov tezyurar poezdning soz ishlashi va ishlamay qolishining empiric vaqt taqsimoti bilan Veybul taqsimoti o'rtasidagi quyidagi parametrlarga muvofiqligini tasdiqladi: $a = 1.435$ va $b = 898.9$ (3-rasm).

a)

b)



Rasm 3. a) "Afrosiyob" tezyurar poyezdining nosozlikga qadar o'rtacha ish vaqti davomiyligining Veybullni uchun ampirik va nazariy kumulativ taqsimot funksiyalari, b) Vaybul taqsimoti va empirik ma'lumotlarning taqqoslanishi.

Hisoblangan taqsimot qonuni parametrlari asosida quyidagilar aniqlandi:

- tezyurar poyezdning ishdan chiqguncha soz ishlash ehtimoli funksiyasi:

$$f(t) = \frac{a}{b} \left(\frac{t}{b}\right)^{a-1} \exp\left(-\frac{t}{b}\right)^a = 8.285 \cdot 10^{-5} \exp(-5.773 \cdot 10^{-5} \cdot t^{1.433}) \cdot t^{0.433}, t \geq 0 \quad (1)$$


- tezyurar poyezdning ishdan chiqguncha soz ishlash taqsimoti integral funksiyasi:

$$F(t) = 1 - \exp\left(-\frac{t}{b}\right)^a = 1 - \exp(-5.773 \cdot 10^{-5} \cdot t^{1.435}), t \geq 0 \quad (2)$$

b) rejalashtirilgan ta'mirlashlar o'rtasidagi tezyurar poezdning texnik tiklanish funksiyasi $H(t)$ [7].

Texnik qayta tiklash funksiyasi $H(t)$ soz ishlash vaqti davomiyligiga qarab tezyurar poezdlarning o'rtacha buzilishlar sonini aniqlanadi.

Ketma-ket rejalashtirilgan ta'mirlash o'rtasida tezyurar poezdni texnik tiklashga sarflangan vaqt soz ishlash vaqtining 1,5 foizidan oshmaydi. Shuning uchun hisob-kitoblarda $H(t)$ ahamiyatsiz deb hisoblanadi. Bunday holda, $H(t)$ texnik tiklash funksiyasi ish vaqtini uzaytirishning o'rtacha vaqtini ifodalaydi, bu t vaqtcha bo'lgan nosozliklar soniga teng emas. 4-rasmda ketma-ket rejalashtirilgan ta'mirlash bilan nazariy mos keladigan empirik texnik tiklanish funksiyani grafigi ko'rsatilgan. $H(t)$ funksiyasi grafigi "Afrosiyob" tezyurar poyezdining o'rtacha nosozliklar sonini ko'rsatadi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tezyurar poezdda rejali ta'mirlashlar o'rtasida 16 ta nosozlik sodir bo'lgan.



Rasm 4. "Afrosiyob" tezyurar poezdini rejali ta'mirlash o'rtasida texnik tiklanish funksiyasi.

Analiz qilish maqsadlarda tezyurar poezdni tiklash funksiyasining empirik shakli quyidagicha ifodalanishi mumkin [8]:

$$H(t) = 1.641 + 0.0019t + 2.5464 \cdot 10^{-8}t^2, 0 \leq t \leq 35040 \quad (3)$$

Bu yerda:

t - tezyurar poezdning ish vaqti [*soat*]

c) Nosoz xolatning o'rtacha vaqti, T_{do} .

Quyidagi taqsimot funksiyasi formulasi asosida hisoblab chiqilgan o'rtacha nosozlik vaqti davomiyligi:

$$T_{\text{do}} = \int_0^{\infty} t \cdot f(t) dt = \int_0^{\infty} t \cdot [1 - \exp(-5.773 \cdot 10^{-5} \cdot t^{1.435})] dt = 204.05 [\text{soat}] \quad (4)$$

Ekspluatatsion ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilgan, birinchi texnik nosozlikgacha bo'lgan ish vaqtining statistik bahosi, (5 ta xizmat ko'rsatish tsiklini xisobga olgan holda) quyidagiga teng:

$$T_{\text{do}} = 204.05 [\text{soat}] \quad (5)$$

d) O'rtacha nosozlikga qadar bo'lgan vaqt va nosozliklar orasidagi o'rtacha vaqt, T_n .

Vaqtning taqsimot funksiyasi asosida hisoblab chiqilgan poezdning nosozlikning o'rtacha vaqti davomiyligi:

$$T_H = \int_0^{\infty} t \cdot f_k(t) dt = \int_0^{\infty} t \cdot [1.559 \cdot 10^{-3} \exp(-1.4246 \cdot 10^{-3} \cdot t^{1.094})] dt = 96.6 [\text{soat}] \quad (6)$$

Ekspluatatsion ma'lumotlardan hisoblab chiqilgan nosozliklar orasidagi o'rtacha vaqtni statistik baholash quyidagicha bo'ladi:

$$T_H = 96.6 \text{ [soat]} \quad (7)$$


Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblardan kelib chiqadigan bo'lsak, tezyurar poyezdning rejali ta'mirdan keyingi birinchi nosozligi o'rtacha 204 soatdan keyin (taxminan 9 kun), keyingi rejasiz nosozliklar o'rtacha har 96,6 soatda (taxminan 4 kun) sodir bo'lar ekan.

2. Ta'mirtalablik ko'rsatkichlari

"Afrosiyob" tezyurar poyezdining ishga yaroqliligini baholash xizmat ko'rsatish davrida amalga oshirilgan va rejadan tashqari texnik tadbirlarini o'z ichiga oladi. Rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish uchun $G(t)$ va o'rtacha tiklanish vaqti T_P ning empirik va nazariy taqsimlash funksiyasi aniqlandi. T_P ta'mirlash vaqtini va ehtiyot qismlarini o'rnatish bilan bog'liq diagnostika va texnik kechikishlarni o'z ichiga oladi [9].

Texnik qayta tiklash vaqtining integral taqsimot funksiyasi $G(t)$ va o'rtacha tiklanish vaqti T_B .

Integral vaqt taqsimot funksiyasi va o'rtacha texnik tiklanish vaqtini aniqlash uchun 2014-2015 yillarda "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyasida "Afrosiyob" tezyurar poyezdida amalga oshirilgan 15 ta texnik xizmat ko'rsatish ishlaridan olingan tezkor ma'lumotlar asos sifatida qo'llanildi. 5-rasmda asosiy statistik parametrlarga ega "Afrosiyob" tezyurar poyezdining texnik tiklanishlar sonining gistogrammasi ko'rsatilgan.



Rasm 5. "Afrosiyob" tezyurar poyezdining asosiy statistik ko'rsatkichlari bilan qayta tiklanishlari sonining gistogrammasi.


Qayta tiklash vaqtining logorifmik-normal taqsimotining hisoblangan parametrlari quyidagicha bo'ladi: $a=1.444$ va $\delta=0.7675$ (6-rasm). Shuning uchun tezyurar poyezdning tiklanish vaqtining taqsimot funksiyasi summasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

$$G(t) = 0.5 \left(1 + \Phi \left(\frac{\ln(t) - 1.444}{0.7675\sqrt{2}} \right) \right), t > 0 \quad (8)$$


Bu yerda:

$$\Phi(z) = \frac{2}{\sqrt{\pi}} \int_0^z \exp(-t^2) dt - \text{Gauss taqsimot funksiyasi}$$

a)



b)



Rasm 6. a) Tiklanishning logarifmik taqsimotining empirik va nazariy funksiyalari; b) logarifmik normal taqsimot va empirik ma'lumotlar o'rtasidagi moslik.

O'rtacha texnik tiklanish vaqti taqsimot funksiyasi texnik tiklanish vaqti taqsimot asosida hisoblanadi va quyidagicha bo'ladi:

$$T_B = \exp \left(\alpha + \frac{\delta^2}{2} \right) = 3.2 \text{ [soat]} \quad (9)$$

Afrosiyob elektr poezdining o'rtacha texnik tiklanish vaqtining statistik baholanishi:

$$T_B = 3.2 \text{ [soat]} \quad (10)$$

Yuqoridagi hisob-kitoblardan kelib chiqqan xolda, "Afrosiyob" tezyurar poezdining o'rtacha texnik tiklanish vaqti (rejalashtirilgan parvarishlash) o'rtacha 3,2 [soat] ni tashkil qiladi deyish mumkin.

3. Ishga tayyorlik koeffitsiyenti

Tezyurar poezdning texnik tayyorligini baholash uchun A_0 tayyorgarligi koeffitsientining ekspluatatsion qiymati va A_R haqiqiy tayyorligi koeffitsientining asl qiymatlari ishlatilgan. Ushbu ko'rsatkichlar elektropoezdning rejali texnik xizmat ko'rsatish orasidagi o'rtacha texnik tayyorligini anglatadi [10].

a) Ishga tayyorlik koeffitsiyenti A_0

Ekspluatatsion ma'lumotlarga asoslangan xolda texnik xizmat ko'rsatishlar o'rtasidagi o'rtacha vaqti:

$$TZ = 16892.4 \text{ [soat]} \quad (11)$$

Rejali ta'mirlash tufayli tezyurar poezdning ishlamay turish o'rtacha vaqti:

$$TN = H(T_{NR}) \cdot T_B = 99.5 \cdot 3.2 \text{ [soat]} = 318.4 \text{ [soat]} \quad (12)$$

Bu yerda:

$H(T_{NR})$ - "Afrosiyob" tezyurar poezdini rejali ta'mirlashlar o'rtasida texnik tiklash funktsiyasi,

T_g - tezyurar poezdning o'rtacha texnik tiklanish vaqti.

Yuqoridagi parametrlar asosida ekspluatatsion tayyorlik koeffitsienti hisoblab chiqildi:

$$A_o = \frac{TZ}{TZ+TN} = \frac{16892.4[soat]}{16892.4[soat]+318.4[soat]} = 0.9815 \quad (13)$$

$A_o=0.9815$ tezyurar poyezd rejali ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish tufayli yiliga o'rtacha 162 soat ishlamay turishini anglatadi.

b) Haqiqiy ishga tayyorlik koeffitsienti A_R

Rejalashtirilgan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish tufayli tezyurar poyezdning ishlamay turib qolishi:

$$TO = \sum(N_p \cdot T_p) = 2399.5[soat] \quad (14)$$

Bu yerda:

N_p - rejalashtirilgan ta'mirlash yoki texnik xizmat ko'rsatishlar soni,

T_p - rejalashtirilgan ta'mirlash yoki texnik xizmat ko'rsatishlarning o'rtacha vaqti.

Yuqoridagi parametrlarga asoslanib, tayyorlik koeffitsienti quyidagicha yozish mumkin:

$$A_R = \frac{TZ}{TZ+TN+TO} = \frac{16892.4[soat]}{16892.4[soat]+318.4[soat]+2399.5[soat]} = 0.8614 \quad (15)$$

$A_R=0,8614$ qiymati, tezyurar poezd bir yil davomida o'rtacha 1214,1 soat davomida tuzatish va texnik xizmat ko'rsatishlar olib borilishi sababli ishlamay qolganligini anglatadi.

XULOSA

Texnik-normativ xujjatlarda "Afrosiyob" tezyurar poezdi uchun RAMS (Reliability, Availability, Maintainability va Safety (ingl)) tahlilining natijalari keltirilgan. Temir yo'l transportining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan asosiy omillar hisoblab chiqilgan, masalan: ishonchlilik, tayyorlik va ta'mirlalablik. Hisob-kitoblar, temir yo'l harakati nuqtai nazaridan tezyurar poezd tarkibiy qismlari va elementlarining eskirishini tahlil qilish elektropoyezdning texnik xizmat ko'rsatish davrini o'zgartirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tarzda aniqlangan xavfsizlik omillari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sikli xarajatlarini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. UNIFE temir yo'l bozorini o'rganish // Status kvo va istiqbol 2020 - 3-nashr. - Bryussel, UNIFE 2010. - s. 23-24.
2. Puzankov A.D. Ishlashda ishonchlilik ko'rsatkichlarini hisoblash va ulardan foydalanish usullari: O'quv qo'llanma. universitetlar uchun qo'llanma D. Transport / A.D. Puzankov - M.: MIIT, 2004. - 49 p.
3. Gorskiy A.V., Vorobiev A.A. Lokomotivlarni ta'mirlash tizimini optimallashtirish. - M.: Transport, 1994. - 83 p.
4. Gnedenko B.V. Ishonchlilik nazariyasidagi matematik usullar / B.V. Gnedenko, Yu.K. Belyaev, A. D. Soloviev. - Moskva: Nauka, 1965. - 26 p.
5. Kozyrev V.A. Elektr harakatlanuvchi tarkibini ta'mirlash tsikli tuzilishini aniqlash metodikasi: V.A. Kozyrev. Dis. Cand. texnik. fanlari, ixtisosligi: temir yo'l harakatlanuvchi tarkibi, poezdni tortish va elektrlashtirish. - M.: MIIT 1977. - 00 p.
6. Isaev I.P., Gorkiy A.V., Kozyrev V.A., Elektr harakatlanuvchi tarkibining ishlash koeffitsientlarini uning ishlash jarayonida keyingi ta'sirini hisobga olgan holda aniqlash, Trudy MIIT. - 1976. - nashr. 524. - S. 66-73.
7. Strauss P. Temir yo'l harakatlanadigan tarkibining ishonchliligi va saqlanishi: tadqiqotlar to'g'risida hisobot / P. Strauss. - Drezden: Texnologiya va shahar iqtisodiyoti oliy maktabi, 2010. - 91 p.
8. Reinschke K., Ushakov I. A. Graflar yordamida tizimlarning ishonchliligini baholash / K. Reinschke; tahrir. I.A.Ushakova. -M. Radio va aloqa, 1988 .-- 145 p.
9. Texnologiyalarda ishonchlilik. Ishga tayyorligini nazorat qilish uchun test rejalari. - M.: Standartinform, 2010. - 16 p.
10. Drujinin G.V. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining ishonchliligi. - 4-nashr./ Drujinin G.V. - M.: Energoatomizdat, 1986 y.- 360 p.

HOW SIGNIFICANT ARE MULTIMEDIA RESOURCES IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH LANGUAGE

*Umarova M.B, USWLU, the senior teacher of the
department of English teaching Methodology,
umunira78@gmail.com*

Abstract: *Considering the point that the distribution speed of different kinds of media is in parallel to worldly-recognized languages, particularly, English language, it is required to analyze their efficacy when they are blended in language learning and teaching procedure. Taking advantage of this opportunity, this article is mainly directed to examine the importance of how can multimedia resources have positive impact and contribute to the learning and teaching process of English language. It will also explore the Multimedia applications and the Internet, standards for Multimedia-language students, also teaching and learning with Multimedia. Moreover, strenuous effort was made to show some English teachers and student's attitude towards the use of Multimedia in English language teaching.*

Key Words: *Multimedia Resources, Verbal channel, Graphics, Blended learning, multi-sensory experience, computer image, animation effects, dual channel assumption, audio visual effect.*

Аннотация: *Принимая во внимание тот факт, что скорость распространения различных видов медиа параллельна всемирно признанным языкам, в частности английскому языку, необходимо проанализировать их эффективность, когда они смешиваются в процессе изучения языка и преподавания. Воспользовавшись этой возможностью, данная статья в основном направлена на изучение важности того, как мультимедийные ресурсы могут иметь положительное влияние и способствовать процессу изучения и преподавания английского языка. Он также изучит мультимедийные приложения и Интернет, стандарты для студентов, изучающих мультимедийный язык, а также преподавание и обучение с помощью мультимедиа. Кроме того, были приложены огромные усилия, чтобы показать отношение некоторых учителей английского языка и студентов к использованию мультимедиа при обучении английскому языку.*

Ключевые слова: *мультимедийные ресурсы, вербальный канал, графика, смешанное обучение, мультисенсорный опыт, компьютерное изображение, анимационные эффекты, двухканальное допущение, аудиовизуальный эффект.*

INTRODUCTION

In the era of today's globalization, it is prerequisite for not only students or educators but also for each of the person to become bilingual or multilingual in order that they can create and form relationship with their counterparts around the globe. The spread and development of English language around the world as a lingua franca, English as a second language (ESL) or foreign language (EFL) enjoys prestige and even authority of the first language in many corners of the globe. Technology is one of the most significant drivers of both social and linguistic change.

DISCUSSION AND RESULTS

Technology can be viable option as well as solution to many problematic issues, and in general makes areas of life easier, more entertaining or more efficient. Graddol [1] states that, "Technology lies at the heart of the globalization process; affecting educational work and culture". Since there are more and more English learners in different countries including our country, Uzbekistan, different teaching methods have been implemented to test the effectiveness of the teaching process. One method involves the use of multimedia in the learning of English language. Technology is adopted for the advancement of modern styles; it satisfies both visual and auditory senses of the students. According to David Graddol, "It is the language at the leading edge of scientific and technological development, new thinking in economies and management, new literatures and entertainment genre." With the rapid development of science and technology, the emerging and developing of multimedia technology and its application to teaching, featuring audio, visual, animation effects come into full play in English teaching class and sets a favourable platform to reform and to explore on English teaching model in the new era. "The rapidly developing technology of the English speaking countries has made British and American television and radio programmes, films, recordings and books readily available in all but the most undeveloped countries," [2]. It is proved that multimedia technology plays a positive role in promoting activities and initiatives of student and teaching effectively in the classroom. Technological innovations have gone hand-in-hand with the growth of English and are changing the way in which we communicate. "Printed core materials, it was felt, would survive, but the demand for 'a better fit' meant that the variety of add-ons would grow, and as technology developed and became more available these supplements would be increasingly available online" [3]. Although nothing can fully replace an experienced teacher, technology has done much to assist teachers in their efforts in the classroom. There are many techniques applicable in

various degrees to language learning situation. The teaching principle should be to appreciate new technologies and functions where they provide something decisively useful and never let machines take over the role of the teacher.

Multimedia is the combination of different content forms. It includes a combination of text, audio, still images, animation, video, or interactivity content forms. It is usually recorded and played, displayed, or accessed by information content processing devices, such as computerized and electronic devices, but can also be part of a live performance. Multimedia provides a complex multi-sensory experience in exploring our world through the presentation of information through text, graphics, images, audio and video, and there is evidence to suggest that a mixture of words and pictures increases the likelihood that people can integrate a large amount of information. Students learn best by seeing the value and importance of the information presented in the classroom.

Adopting Multimedia in learning procedure:

A cognitive theory of multimedia learning has been presented by researchers which is based on three assumptions suggested by cognitive science research about the nature of human learning — the dual channel assumption, the limited capacity assumption, and the active learning assumption. The dual channel assumption is that humans possess separate information processing systems for visual and verbal representations. For example, animations are processed in the visual/pictorial channel and spoken words (i.e., narrations) are processed in the auditory/verbal channel. The limited capacity assumption is that the amount of processing that can take place within each information processing channel is extremely limited. In addition, the learner may convert some of the spoken words into verbal representations for further processing in the verbal channel whereas some of the animation can be converted into visual representations for further processing in the visual channel. The learner must select relevant aspects of the incoming images for further processing. The second set of processes is to build a coherent mental representation of the verbal material (i.e., form a verbal model) and a coherent mental representation of the visual material (i.e., form a pictorial model). These processes are called organizing. A third process is to build connections between the verbal and pictorial models and with prior knowledge. These processes are called integrating. The processes of selecting, organizing, and integrating generally do not occur in a rigid linear order, but rather in an iterative fashion. Once a learning outcome has been constructed, it is stored in long-term memory for future use. According to the cognitive theory of multimedia learning,

meaningful learning depends on all three of these processes occurring for the visual and verbal representations. According to this theory, learners can engage in active learning (such as the processes of selecting, organizing, and integrating) even when the presentation media do not allow hands-on activity (such as printed text and illustrations, or animation and narration).

The challenge of multimedia instructional design is to prime and guide active cognitive processing in learners so that learners construct meaningful internal representations.

Is Multimedia such an effective tool?:

Why would any teacher want to use multimedia materials in the classroom? With the availability of improved technology, hi-tech quickly incorporated the new tools, correctly perceiving that slick multimedia presentations have a certain amount of entertainment value for learners. “The use of video in the classroom also provided extra stimulation and photocopiers (or Xerox machines as they used to be known) allowed content to be quickly reproduced and distributed” [4]. Several studies show that computer-based multimedia can improve learning and retention of material presented during a class session or individual study period, as compared to —traditional lectures or study materials that do not use multimedia. The potential pedagogical value and rationale for using classroom media in these three points are as follows:

(a) To raise interest level – students appreciate (and often expect) a variety of media.

(b) To enhance understanding – rich media materials boost student comprehension of complex topics, especially dynamic processes that unfold over time.

(c) To increase memorability – rich media materials lead to better encoding and easier retrieval Relationship between Multimedia and Language Teaching. The most common function of multimedia and internet is to assist the teacher their association is as follows. Promote Interaction between Teachers and Students the use of multimedia to carry out discovery, discussions and instructions to change the role of teacher in teaching and arrange students to participate appropriately; educators change from the messenger of informational instruction to the operator of instruction.

(d) Help Teachers to teach suitably the use of multimedia enables the teachers to have more flexibility and change while teaching and the development of

multimedia enables the teachers to understand the learning types and differences of students while teaching.

(e) Promote Students' Study Capacity the learners can practice themselves through multimedia repeatedly to train their ability to react and this is not restricted by time and space; therefore, they could learn by themselves to obtain limitless learning capacity besides the limited teaching time in traditional classroom atmosphere.

Blend the Multimedia Design with diverse Teaching Materials. Multimedia could combine the picture, animation, sound, and text to assist learners, where the picture or animation could offset the deficiency of text and sound could allow the learners to experience the real scenario, which is favourable to the learning of language.

Use of graphics and presentations in English language teaching

Some graphics software like *Microsoft PowerPoint* can tremendously improve many of the presentations language instructors use in teaching. In the recent times, "the English teachers considered Power Point to be a simple multi-media application that encourages the students to study set texts analytically"[5]. Such software graphics packages allow teachers as well as students to copy and create images, set the timing of material, formulate charts and graphs and make excellent visual presentations in English language classrooms. These graphics and presentations can help teachers to organize his content and place it in a dynamic format for an effective teaching. On the other hand, flashy graphics are no substitute for a well—rehearsed presentation. During presentation, the text presented on the Overhead Projector screen must also support the material presented orally.

Pedagogical relevance in the use of Multimedia in language learning

At present the main concern is all about the use of Multimedia to improve language teaching and learning. In fact there is no correlation between the learning language and using the language in a real situation in day to day life. Many language experts stated that schools need to move beyond the emphasis on subject content required by the present language students and focus more on 21st century dominant themes, like use various Multimedia resources and information and communication technology in teaching and learning.

CONCLUSION:

Whether some conservational educational authorities and other related individuals agree or not, it has already been high time to accept the benefits and even

sometimes superiority of multimedia resources over traditional language teaching. Teachers can incorporate multimedia learning into their classroom by identifying the learning styles of their students, matching teaching methods to learners' multimedia learning for difficult tasks, strengthening passive learners' multimedia learning through easier tasks and drill and teaching students, selection of learning strategies. The opportunities multimedia offers to teachers are enormous for making learning and teaching environment meaningful and effective. One of the foremost goals of multimedia language teaching is to promote students' motivation and learning interest, which can serve as a practical solution to get them involved in the language learning procedure. Therefore, it promises that the teaching quality will be improved and applying English skills on the part of students is effectively cultivated, meaning that students' communicative competence will be further developed. This process can fully improve students' ideation and practical language skills, which is helpful and useful to ensure and fulfil an effective result of teaching and learning. As an ending point, we should always acknowledge and always keep our minds that no matter how beneficial work/time-efficient are multimedia resources in educational fields, human factor possesses the primary and leading role. So, not any kind of technological achievements or other inventions can be an alternative for a real teacher whom we always respect and care for.

REFERENCE:

1. David Graddol, Andrew. *Using Technology in Teaching*. New Haven and London: Yale University Press, 2005. Print.
2. Broughton, Geoffrey, et al. *Teaching English as a Foreign Language*. London and New York: Routledge. 1980. Print.
3. Block, David and Cameron, Deborah, Ed. *Globalization and Language Teaching*. London and New York: Routledge. 2002. Print.
4. Chin, Paul. *Using C & IT to Support Teaching*. London and New York: Routledge. 2004. Print. 2.
5. Goodwyn, Andrew, Ed. *English in the Digital Age – Information and Communications Technology and the Teaching of English Language*. London and New York: Cassell, 2000. Print.
6. Erben, Tony and Ban, Ruth. *Teaching Language Learners through Technology*. New York and London: Routledge, 2009. Print.

QARZGA OLINGAN SO‘ZLAR KELIB CHIQISHINING EKSTRALINGVISTIK SABABLARI

Nazarova Gulbahor Azimjon qizi, erkin tadqiqotchi

Qo‘qon davlat pedagogika institute

gulbahornazarova3@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilda qarz olish xususiyatlari va bir tildan boshqa tilga qarzga olingan so‘zlar kelib chiqishining ekstralingvistik sabablari keng yoritib berilgan. Maqolada qarz olish jarayoni ma‘lum darajada rivojlangan odamlarning tili ma‘lum bir sohada kam rivojlangan odamlarning tiliga, ikkinchisida qarz olish jarayonini faollashtirish shaklida ta‘sir qilishi va shu bilan ijtimoiy, ya‘ni bu boradagi ekstralingvistik omillar ta‘sirni isbotlashi bilan tavsiflanishi keng yoritib berilgan. Qarzga olish kontsepsiyasi kelib chiqish sabablari keng tushuntiriladi va olimlar g‘oyalari ilmiy izlanuvchilarga har qanday ilmiy tadqiqotlar uchun tegishli tahlil uchun beriladi.*

***Asosiy so‘zlar:** qarz olish, o‘zlashma so‘z, tabiiy, lingvistik, leksika-semnatik guruhlar, ekstralingvistik omillar .*

ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ ПОСТУПЛЕНИЯ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ

Назарова Гулбахор Азимжанская кизи, научный исследователь

Кокандский государственный педагогический институт

gulbahornazarova3@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье широко освещены особенности заимствования языка и экстралингвистические причины происхождения заимствованных слов с одного языка на другой. В статье широко освещено, что язык людей с определенным уровнем развития заимствования может влиять на язык малоизвестных людей в определенной области, а в другой - в форме активизации процесса заимствования, тем самым доказывая влияние социальных, то есть экстралингвистических факторов в этом направлении. Причины возникновения концепции заимствования широко объясняются, и идеи ученых передаются научным соискателям для соответствующего анализа для любых научных исследований.*

***Основные слова:** заимствование, компромиссное слово, естественные, лингвистические, лексико-семнатические группы, экстралингвистические факторы.*

EXTRALINGUISTIC REASONS FOR BORROWED WORDS

Nazarova Gulbakhor Azimjon kizi, scientific researcher
Kokand State Pedagogical Institute
gulbahornazarova3@gmail.com

Abstract: *Considering the importance of continuous progress and innovation in language teaching methods on one hand and the advantages of using short stories in language classes on the other hand, a new language teaching method as Short Story based Language Teaching (SSBLT) is introduced here. Story based Language Teaching (SSBLT) is a humanistic literature-based language teaching method that aims to promote the teenagers' personal, cultural and linguistic awareness. The main purpose of SSBLT is to help teenagers to learn language by enjoying and using language for communication through using short stories as the materials in a friendly atmosphere. It develops the teenagers' communicative competence and critical thinking.*

Key words: *Short Story based Language Teaching, communicative competence, teenagers, learner-centered, language proficiency, literary genre, critical thinking, linguistic awareness.*

Аннотация: *Учитывая важность постоянного прогресса и инноваций в методах обучения языку, с одной стороны, и преимущества использования рассказов на языковых курсах, с другой стороны, здесь представлен новый метод обучения языку - Обучение языку на основе коротких рассказов (SSBLT). Обучение языку на основе рассказов (SSBLT) - это метод обучения языку, основанный на гуманистической литературе, который направлен на повышение личной, культурной и языковой осведомленности подростков. Основная цель SSBLT - помочь подросткам выучить язык, получая удовольствие и используя язык для общения, используя короткие рассказы в качестве материалов в дружеской атмосфере. Развивает у подростков коммуникативную компетентность и критическое мышление.*

Ключевые слова: *обучение языку на основе рассказов, коммуникативная компетенция, подростки, ориентация на учащегося, владение языком, литературный жанр, критическое мышление, языковая осведомленность.*

INTRODUCTION

The need to learn foreign languages is almost as old as human history itself. The field of foreign language teaching has undergone many fluctuations and dramatic shifts over the years. This is the field where fads and heroes have come and gone together with the changes in youth culture. So the sphere feels a great impact of time

and society. The requirements of time and society dictate how to teach foreign languages as throughout history foreign language learning has always been an important practical concern. If a foreign language is so important for practical purposes the most favorable teaching approaches are those which encourage students using language in order to acquire it. If the society is not interested in practical implementation of language, then comes the time of analyzing it. Over the centuries, language teaching methodology has been vacillating between these two types of approaches: one which focuses on using a language; the other which focuses on analyzing it. At the beginning of the 20th century, this distinctive pattern was observable in the shift from the analytical Grammar Translation Approach to the use-oriented Direct Method. Later the shift was connected with the rise of popularity of communicative approaches which emphasize language use over rules of language usage. Labeling this or that approach as good or bad is not fruitful. Success and effectiveness of different approaches or methods depend on whether they meet the requirements of time and society or not.

In the middle of the 20th century new challenges and pressures of historical situation made imperative to teach people to speak and understand the target language quickly and efficiently. That helped to erect the Audio-Lingual approach, which advocated departure from the traditional reading and translating procedures and stressed maximum opportunity to practice the target language. It is evident that nowadays a foreign language is used for communicative purposes, and the acquisition of communicative competence is the main aim of teaching. In this connection we are speaking about the Communicative Approach an umbrella term which covers a wide range of classroom practices and which focuses on language as a medium of communication. This time again the next cycle in foreign language learning has been shifted from language analysis to language use, from linguistic focus to communicative, practical view of a foreign language.

All the shifts and changes are historically approved as, being extremely practically-oriented science, studying foreign languages reflects the needs and demands of society.

METHODS USED

This article focuses on teaching the English language to teenagers through stories, especially using short stories in an effective way. Short stories are the most suitable literary genre to use in English teaching due to its shortness, is supported by Collie and Slater when they list four advantages of using short stories for language teachers.

Moreover, the work focuses on roles of teacher, one of which is assessing and the usage of short stories in the process of teaching language. The use of short story

in English teaching should be aimed to encourage the teenagers to use what they have previously learnt. By doing this, the learning process will be learner-centered. However, the teacher plays a great role. She/he must choose a suitable text to use in class, and should help her/his teenagers understand the story with various activities.

RESULTS AND DISCUSSIONS

In using short stories to teach English, story selection is indeed one of the most important roles of the teacher. Since the lengths of short stories quite vary, choose a story short enough to handle within course hours. The shortness of the text is important for the teenagers because they will see that they can read, understand and finish something in English, and it will give the teenagers a feeling of achievement and self-confidence. Besides the length of the text, Hill points out three other basic criteria of choosing the text:

- (1) the needs and abilities of the teenagers;
- (2) the linguistic and stylistic level of the text;
- (3) the amount of background information required for a true appreciation of the material.

The importance of considering these criteria could be perceived by realizing that the vocabulary and sentence structure of the short story to be studied must be suitable to the level of the teenagers. The short stories with archaic, slang, foreign words, and allusions, having sentences imitating the speech of a particular locality or ignorant people or foreigners should be avoided if the text is intended for teenagers below intermediate level. Similarly, very long sentences are difficult for teenagers to understand. As teenagers will not understand these sentences and words, they will get bored and not read the work. Therefore, before giving the short-story, the teacher should decide the readability of the text.

In order to meet that readability criterion, using graded or simplified stories is possibly the most practical way. According to Ur, "... the use of 'authentic' text with less proficient learners is often frustrating and counter-productive". Therefore, the use of simplified text with less proficient readers is highly suggested for the sake of suiting the texts with the level of teenagers.

In addition to the previous criteria, Spack suggests the aspect of interest to be considered. According to him, it is important for the teacher to choose stories that would interest teenagers that he/she most likes to read and teach, and that have been made into film to provide visual interpretation. McKay and Rivers point out that learner read and enjoy a text if the subject-matter of the text is relevant to their life experience and interests.

Short story like other literary texts can raise cultural awareness, linguistic awareness, motivation, and etc. Short stories are claimed to improve all four

skills. Ur, P. believes that reading literary text can lead learners to be critical thinkers.

Sanderson, P believes that short stories can have the following pedagogical advantages:

- a) making the teenagers' reading task easier because they are simple and short;
- b) giving teenagers a better view of other cultures;
- c) requiring more attention and analysis;
- d) presenting a fictional and interesting world;
- e) helping teenagers to be more creative and raising the critical thinking skills;
- f) raising cultural awareness;
- g) reducing teenagers anxiety and helping them feel more relax;
- h) providing multicultural contexts because of its universal language

SSBLT aims at cultivating all language skills cooperatively. Characteristics of Short Story based Language Teaching (SSBLT)

- 1.The primary function of language is interaction and communication.
- 2.SSBLT is based on humanism and cooperative learning.
- 3.Personal, cultural and linguistic awareness should be developed.
- 4.Short stories are used as learning and teaching materials.
- 5.Linguistics, sociolinguistic and communicative competence are emphasized.
- 6.All four language skills receive attention and are practiced integratively.
- 7.The student's native language should be avoided in the classroom but can be used to talk about the procedure and cultural points.
- 8.All of the class activities should be done in a stress-free friendly environment.
- 9.Vocabulary is taught in the context of the short story.
- 10.Grammar is taught based on focus on form.
- 11.All types of interaction: Teacher-student, student-teacher and student-student interaction exist.

12.One of the main purposes of SSBLT is to help learners to be critical thinkers.

Short stories allow teachers to teach the four skills to all levels of language proficiency. Murdoch indicates that "short stories can, if selected and exploited appropriately, provide quality text content which will greatly enhance ELT courses for learners at intermediate levels of proficiency". According to him, short stories could be very beneficial materials in language teaching reinforcement by using them in learning activities such as, discussion, writing and acting out dialogues.

CONCLUSION

The short story is one of the most common narratives that is used in the language classroom. Of course, one of the characteristics of the short story is that it is

short. The short story disposes of limited time and space dimensions. It concentrates on one section of the characters' lives and offers a direct access to the action. Many aspects support the use of short stories in English language teaching. A few of the characteristics mentioned above already give an impression what the advantages of short stories are. Based on the findings, it could be concluded that using short stories and activities for developing all four language skills could improve language mastery of teenagers. Studying short stories has a number of benefits for the students such as broadening their perspectives, enabling them to think about the reasons rather than the result, showing them different life styles, providing them with a comparison between their own culture and other cultures.

REFERENCES:

- 1.Sanderson, P. "Using Short stories in the classroom"-, Cambridge: Cambridge University Press.2012.
- 2.Ur, P. "Teaching listening comprehension while implementing short stories"-, New York: Cambridge University Press.2006.
- 3.Lee, W. "Short stories revisited text authenticity and learner authenticity"- . ELT Journal, 49 (4).2014.
- 4.Holten. C &Marasco. J. Looking ahead: "Mastering to deal with short stories"-, Boston 2011.
- 5.Adams, T. "What Makes Materials Effective for teaching?"- Cambridge University Press. (ERIC Document Reproduction Service No. ED 391389) 2012.
- 6.Riber, D. "Variation across speech and reading"-, Cambridge, UK: Cambridge University Press.2016.
- 7.McNeill, A. "What Makes Short stories Different? The Case of English Language Materials for Educational Television. Papers presented at the Annual International Language in Education Conference"-, Hong Kong.2014.

SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNI ERTAKLAR ORQALI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Maftuna Ziyaqulova Shuxratovna

TerDU talabasi

maftunashuxratovna2199@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni islox etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. 2020-2021-o'quv yilidan amalga kiritilayotgan Milliy o'quv dasturi, uning mazmun-mohiyati, dastur asosida yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining o'ziga xosliklari hamda ular haqida xorijiy ekspertlar qatnashganligi va keng omma oldida batafsil muhokama etilishi ham eski usullardan voz kechishni taqazo etmoqda. Ushbu maqolada savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni ertaklar orqali kreativ fikrlashga o'rgatishning usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Savod, kreativlik, ertaklar, tafakkur, stereotiplar, savod o'rgatish jarayoni, kadrlarning salohiyati, milliy o'quv dasturi, tasavvur, ong, ijodiy fikrlash, matn.

Аннотация: В условиях текущего процесса глобализации и реформирования общества подготовка новых мыслителей требует значительных изменений в системе образования. Национальный учебный план на 2020-2021 учебный год, его содержание, особенности учебников нового поколения, созданных на основе программы, а также участие зарубежных экспертов и их детальное публичное обсуждение требуют отказа от старых методик. . делает. В этой статье описаны способы научить студентов творчески мыслить через сказки в процессе обучения грамоте.

Ключевые слова: грамотность, творчество, сказки, мышление, стереотипы, процесс грамотности, кадровый потенциал, национальная учебная программа, воображение, разум, творческое мышление, текст.

Abstract: In the current process of globalization and the reform of society, the training of new thinkers requires significant changes in the education system. The National Curriculum for the 2020-2021 academic year, its content, the peculiarities of the new generation of textbooks created on the basis of the program, as well as the participation of foreign experts and their public discussion in detail require the abandonment of old methods. is doing. This article describes ways to teach students to think creatively through fairy tales in the process of teaching literacy.

Keywords: Literacy, creativity, fairy tales, thinking, stereotypes, literacy process, human resources potential, national curriculum, imagination, mind, creative thinking, text.

KIRISH

Savod o'rgatish jarayoni elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan iboratdir. Savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglilik uchun ma'daniyat uchun kurash qurolidir. Mustaqil O'zbekiston respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoli yozma ifodalash uchun zaruriyat va ehtiyojini yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim. O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi.[1] Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan savod o'rgatish jarayonida bola juda ham ko'p o'qishi va yozishi kerak.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

2020-2021-o'quv yilidan amalga kiritilayotgan Milliy o'quv dasturi, uning mazmun-mohiyati, dastur asosida yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining o'ziga xosliklari hamda ular haqida xorijiy ekspertlar qatnashganligi va keng omma oldida batafsil muhokama etilishi ham eski usullardan voz kechishni taqazo etmoqda.

Shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan tashkil etiladi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Bu esa "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida o'quvchilarni ko'proq ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.

Savod o'rgatish jarayonida esa o'quvchilarning kreativligini oshirish, kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushuncha mazmunini bilish lozim.

Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olinga bo'lib "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik o'quvchini rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson taffakuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'quvchiga ega bo'lgan

bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolar yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi, ya‘ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi.[2]

Albert Eynshteyn “Tasavvur-bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. “Kreativlik” so‘zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo‘llangan. Ushbu atama bilan shaxs qolipdagi, stereotip odatiy tafakkurida voz kechish qobiliyatini ta‘riflagan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativligini rivojlantirish, faollashtirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarni obrazli fikrlashga undashi, muammoni aniq ifodalash, fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylarga urg‘u berib ajratgan holda ifoda etishi, xushmuomalali va ziyrak bo‘lishi,”Faraz qiling”, “Tasavvur eting”, “Ijodiy parvoz eting”, “Siz nima deb o‘ylaysiz”, “Muallif o‘rnida bo‘lganingizda voqealar rivojini qanday o‘zgartirar edingiz?” kabi so‘z birikmalari va so‘roq gaplardan foydalanishi bo‘yicha tavsiya beriladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma‘naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Qoliplardan voz kechamiz.... [3]

Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma‘lum bo‘lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo‘lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar ham yetakchi o‘rin

tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "yangi yil" deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, qor bobo obrazida qo'lida hassa tutgan, ko'zoynakli cholni ko'rish qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini namoyon ettirish uchun o'qituvchi biror hikoyani boshini aytib, davomini o'quvchi ixtiyoriga topshirish, chala chizilgan rasmni oxiriga etkazish, berilgan rasmga ijodiy fikr bildirish, ijodiy fikrlashni talab etadigan badiiy asarlarni tavsiya etish muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lganligi bois mazkur ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilyapti. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligi va tafakkur xususiyatlari o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud. Qizlar va o'g'il bolalar kreativligi o'rtasida sifat va miqdorlar farqlar aniqlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga nisbatan differensial yondashuvni tadbiq qilish ularni kreativligini faollashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Savod o'rgatish jarayonida quyidagi jarayonlar o'quvchilarni kreativligini oshiradi.[4]

- O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash,, matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash.
- Ongli o'qishni amalga oshirishda ko'plab lug'at ustida ishlash.
- She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish va yod oldirish,
- O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish, gap tuzishga, tez mustaqil fikrlashga erkin imkoniyat yaratishi.
- O'qituvchi har bir o'quvchini eshitishi, o'quvchining xato fikrlashini bilsa ham ularni to'xtatib tashlamasligi, hattoki xato bo'lsa ham eshitishi kabi tushunchalar misol bo'la oladi.
- Rasmlar yordamida ham kreativlikni rivojlantirish mumkin.

Rasmi diktanatlardan foydalanish savod o'rgatish jarayonining ajralmas va eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Rasmi diktantlarni tashkil etish jarayonida og'zaki va yozma usullaridan foydalanish o'quvchilarning ijodkorligini yanada samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli vaziyatni yaratish orqali o'quvchilarni ijodkorlik darajasini belgilab olamiz. O'quvchilarga – o'zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so'rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o'rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo'ladi. Endi yangi g'oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

“Zumrad va Qimmat” ertagini olaylik, o'quvchilarni ijodiy fikrlashlari uchun quyidagi topshiriqlarni berishimiz mumkin:

- Ertakni qanday o'zgartirish mumkin?
- Siz nima deb o'ylaysiz?
- Zumradni o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?
- Qimmat nima uchun dangasa?
- Asosiy muammo nimada deb o'ylaysiz?
- Siz Zumradni o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?

Shu kabi savollar o'quvchilarni ertakka ijodiy yondashishlarini talab etadi va ularning kreativ yondoshishlari namoyon bo'ladi.

Bu jarayonda o'quvchilar ertakni yangicha tahlilda talqin qilishadi. Qayta hikoya qilish jarayonida Zumrad o'zi aybdor ekanligi, uning mehnatkashligi, indamasdan barcha ishni qilishi Qimmatni dangasa bo'lishiga sabab bo'lganligi, nega hozir Zumradlar yo'qligi haqida kreativ fikrlarni bildirishadi. Ayrim o'quvchilar ularning ota-onasi haqida unitib qo'yishadi. Hozirgi kundalik hayotda o'zlari guvoh bo'lgan Zumrad va Qimmatlar, ularning barcha ishlarni ahillik bilan birgalikda qilishlari uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerakligi haqida bolalarcha fikrlashadi, ko'rgan kechirganlarini tahlil qilishadi.

“Bobo sholg'om” ertagini rasm-matn ko'rinishida tavsiya etsak yoki o'quvchilardan shu ko'rinishida rasm-matn aralash ertak tuzish topshirig'ini bersak, ularning ijodiy kechinmalarini qanday shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarga “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qilishlarini aytishimiz kerak. Shunda sholg'om ertagining o'zbekcha variantini tavsiya etishlari, o'zbek oilalarida farzandlar ko'pligi, yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimiz izzat-ikromda bo'lishlari, uy ishlari bilan oilaning navqiron yigitlari

shug‘ullanishi, yosh yigit sholg‘omni qiyinchiliksiz qazib olishi haqida ijodiy fikr-mulohazalar keltirishadi. Oddiy va hayratlanarli yechim o‘rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo‘ladi. Bu ijod jarayonidagi o‘quvchilarni o‘zlari yangilik yaratish ishonchini his qilishga undaydi, ijodga da‘vat etadi.

“Oltin baliq” ertagini olaylik, kampirning noshukurligi, qanoatsizligi, kampirning o‘jarligi, turmush o‘rtog‘ini hurmat qilmasligi bizning mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan talablarini o‘quvchilar aytib o‘tishadi. “Sen oltin baliq ushlab olsang undan nima so‘ragan bo‘lar eding?” savoliga barcha o‘quvchilar turlicha munosabaat bildirishadi. Kimdir baxt, kimdir sog‘lik, urush bo‘lmasligini, hozirgi global muammolardan “koronavirus”ni batamom yer yuzidan yo‘qotish kabi tilaklarni aytishadi.

Demak, ta‘limning asosiy poydevori boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirib, mustaqil fikrga ega bo‘lgan, ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlangan, milliy qadriyatlarimizga sodiq avlod bo‘lib o‘lg‘ayishlari o‘qituvchilarning ta‘lim jarayonini qay darajada tashkil etishlarining o‘rni katta ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida, mamlakatimizning kuch-qudrati, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillar bilan bir qatorda kadrlarning salohiyatiga, ularning murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Yoshlar-ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi va tayanchi hisoblanar ekan, biz kabi har bir bo‘lajak pedagoglar ularning hayotiga befarq bo‘lmaylik, bu bizning vatan oldidagi asosiy burchimiz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qosimova.K, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariev. “Ona tili o‘qitish metodikasi” - T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
2. Jumanova S. “Kretivlik qobiliyat”, <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>
3. <https://telegra.ph/Yangi-Milliy-oquv-dasturi-asosida-tayyorlanayotgan-Ona-tili-va-oqish-savodxonligi-darsligi-talimga-qanday-yangiliklar-olib-kirad-05-104>.
4. Hamdamova. M, “Yoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari”, Toshkent 2007.

O‘QUVCHILARDA SOG‘LOM TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Xolova Mohigul Shavkatovna
Termiz davlat universiteti magistranti
yaqubochilov88@gmail.com
Tel raqam: +998 99 679 28 14

Annotatsiya: Maqolada “sog‘lom tafakkur” tushunchasi va uning mohiyati hamda sog‘lom tafakkurning o‘quvchilarda qat‘iy hayotiy pozitsiyani shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, sog‘lom tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan.

Tayanch so‘zlar: Tafakkur, sog‘lom tafakkur, shaxs, o‘quvchi, boshqarish, yo‘nalganlik.

Аннотация: В статье раскрыто понятие “здоровое мышление”, и его сущность и роль здорового мышления в формировании жизненной позиции учащихся. также определены педагогико-психологические особенности развития здорового мышления.

Ключевые слова: мышление, здоровое мышление, личность, учащийся, управление, рефлексия, ориентация.

Annotation: In the article were disclosed concept of “healthy mind” and its essence and the role of in healthy thinking in shaping the life position of students. Moreover, article clarifies pedagogical and psychological features for developing healthy mind.

Key words: mind, healthy mind, personality, student, management, reflexion, orientation.

KIRISH

O‘zbekiston jamiyati sifat jihatidan mutlaqo yangi davrga qadam qo‘ymoqda. Jamiyatning yangilanish sari jadal harakatlanishi o‘zida kelayotgan avlodda yangicha fikrlash tarzini shakllantirishni ham taqozo etadi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda professor B.Xodjayev tomonidan yangicha fikrlashni qaror toptirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari ajratib ko‘rsatilgan: shaxsda o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z istiqbolini erkin tanlay olish hissini qaror toptirish; odamlar ongi va tafakkurida tub burilish yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o‘tkazish yo‘lini tanlash; o‘z shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtira olish, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan loqaydlik va beparvolikni yo‘qotish hamda sog‘lom ma’naviy

ehtiyojni shakllantirish orqali fuqarolarda erkin tafakkur yuritish, fikriy mustaqillikka erishishni ta'minlash [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Maqolada o'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari obektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda Abu Nasr Farobiy, A.Jekson, K.Yung, B.Xodjayev asarlari asos sifatida olingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sog'lom tafakkurning shaxs rivojidadagi o'rni masalasi turli zamon va makonlarda yashagan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson tafakkuri haqida fikr yuritar ekan: "Modomiki, u o'z zotidan fikr qilishga qodir bo'la olar ekan, u oqil bo'la oladi. Natijada uning zoti aqlga erishsa, u holda u fe'li bilan aqlga ega bo'ladi. Balki u aql bo'la oladi, u o'z zoti bilan fikr qiladigan, oqil bo'la oladi. Zotning o'zi ham aqlga erishdimi, demak, uning o'zi ham aqlga erisha oladi" [4, -b.155] degan fikr orqali aql va intellektning o'zaro uyg'un hamda farqli jihatlarini tahlil etgan.

A.Jeksonning qayd etishicha, asl salomatlikning birinchi siri-aqlimizda joylashgan bo'lib, aqlimizga bo'ysunmaydigan biror-bir narsaning o'zi yo'q. Insonda hayotga, ezgulikka ishonch bo'lishi lozim. Kimda kim ishonsagina, g'alaba qozonadi. Muallif ishonch kuchining insonda qat'iy hayotiy pozitsiyani shakllantirish imkoniyatini quyidagi fikrlar orqali ifoda etadi: "Ishonch — bu ruhiy kuch, uning sharofati bilan bo'lishi mumkinmas narsa mumkinga aylanadi. Ishonch mo'jiza yaratishga qodir kuchlarga yo'l ochadi".

"Falsafa: qomusiy lug'at"da "tafakkur" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Tafakkur (arab. — fikrlash, aqliy bilish) — predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi" [3,-b.144]. Mamlakatimiz olimlari tomonidan tafakkur va uning ko'rinishlari (ijodiy, mantiqiy, badiiy-estetik, axloqiy, ekologik, mustaqillik, tarixiy)ga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq umumta'lim maktabi o'quvchilarida sog'lom tafakkurni rivojlantirish muammosi alohida tadqiq etilmagan. Ehtimol, mazkur holat sog'lom fikr yuritish tafakkurning barcha shakllariga taalluqli, deb qarash nuqtayi nazari bilan bog'liqdir. Respublikamizda sog'lom tafakkur masalasining pedagogik

jihatlarni tadqiq etishga urinish S.Ataxonova tomonidan nashr ettirilgan maqolalarda o'z ifodasini topgan. Biroq tadqiqotchi tomonidan "sog'lom tafakkur" tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflar ancha bahstalab ekanligini qayd etib o'tish joiz. Masalan, tadqiqotchining "Tafakkur innovatsion ta'lim dasturida" nomli maqolasida sog'lom tafakkur ilmiy-pedagogik ta'rifga ko'ra, quyidagi bir necha muhim bo'g'inlar — sog'lom tafakkur tushunchasi; zarur ijtimoiy muhit tushunchasi; pedagogik maqsad va natija tushunchasi; sog'lom turmush va turmush tarzi tushunchasi kabilardan iborat bo'lishi qayd etib o'tilgan. Mazkur bo'g'inlar sog'lom tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish imkonini bermaydi. Shu bilan birga, maqola so'ngida xulosa sifatida "sog'lom tafakkur" tushunchasiga berilgan ta'rifni boshlang'ich asos sifatida qabul qilish mumkin: sog'lom tafakkur kishilarning o'z salomatligi (jismoniy, ma'naviy-ruhiy — ta'kid bizniki)ni asrashga yo'naltirilgan o'ylari, ongi, shuuri, hissiyotlari, axloqi, estetik qarashlari, g'oyalari, sa'y-harakatlari va ular natijasi hisoblanadi.

Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan sog'lom tafakkur masalasining ayrim jihatlarni yoritib berishga e'tibor qaratilgan. Jumladan, K.Yungning fikricha, sog'lom tafakkur yuritish uchun shaxsning arxetipik (shaxs xayolotidagi obrazlar, g'oyalar, motivlar) o'ziga xosliklarni aniqlab beruvchi fikrlash, tushunish usullarini o'zlashtirish zarur. Ya'ni inson o'z fikrlashini sog'lom nuqtayi nazar bilan bog'liqlikda boshqarishi lozim. K.Xorni esa, ko'pincha insonning xulq-atvori madaniy omillari asosida boshqariladi, deb ta'kidlab o'tadi. Ya'ni, bizning madaniy dunyoqarashimiz ratsional fikrlashga qan chalik ko'p ta'sir etsa, irratsionallikning ta'sir doirasi shunchalik kamayadi. M.Jeymsning talqini cha, sog'lom tafakkurning asosida real voqelikni qanday tushunish qobiliyatining anglanishi yotadi. O'z-o'zini anglagan shaxs o'zining ichki olami, tasavvurlarini to'g'ri fahmlaydi, undan qo'rqmaydi va bayon etishdan tortinmaydi, fikr va xatti-harakatlari "hozir va shu yerda" vaziyatiga yo'nalgan bo'ladi. Sog'lom tafakkurni rivojlantirish masalasi tizimli va kengroq tavsifda Y. I. Orlovning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Uning fikricha, sog'lom tafakkur yuritishning asosiy roli o'z-o'zini takomillashtirish — xarakterning uyg'unligi, o'z-o'zidan va atrof-muhitdan rozilik, yomon odatlardan saqlanish, o'z hissiyotlarini boshqarish, o'z ehtiyojlarini nazorat qilish uchun zaruriy shart-sharoit yaratishda namoyon bo'ladi. Ichki nizolar, ziddiyatlar, tibbiy-profilaktik fikrlashni Y.Orlov, sog'lom tafakkur deb atashni taklif etadi. Shunga muvofiq, kundalik holga aylangan, avtomatlashgan kuch ta'siridagi odatdagi fikrlashni nosog'lom tafakkur deb atash mumkin. Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda

aytish mumkinki, sogʻlom tafakkurning qatʻiy hayotiy pozitsiyani shakllantirishdagi oʻrni va ahamiyati quyidagi jihatlarda oʻz aksini topadi:

Sogʻlom tafakkur fikriy jarayon obyektlariga diqqatni jamlash va konsentratsiyalash (bir joyda toʻplash) imkonini beradi. Agar inson oʻz diqqatini jamlay olmas ekan, voqelik va undagi oʻz oʻrnini kuzatish imkoni boʻlmaydi. Diqqatni jamlay olish va zaruriy timsollarni oʻrnata olish esa, obyektlarni reallik va intellektuallik uygʻunligida amaliy vizuallashtirishga xizmat qiladi.

Sogʻlom tafakkur inson tomonidan nazorat qilishga ehtiyoj sezuvchi aniq ruhiy holatlar haqida bilimlarga ega boʻlish imkonini beradi. Norozilik, nooʻrin arazlash haqida fikr yuritish uchun norozilik kayfiyati oʻzi nima, u qanday tuzilishga ega, uning yuzaga kelishi nima bilan bogʻliq va u qanday koʻrinishlarda namoyon boʻlishi haqida bilimlarga ega boʻlish talab etiladi. Sogʻlom tafakkur shaxs psixologiyasi asoslari, emotsional-irodaviy sifatlarga doir bilimlarga ega boʻlishni taqozo etadi.

Refleksiv (tashqi tomondan va oʻz-oʻziga baho berish) qobiliyat sogʻlom tafakkurni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Oʻzining salbiy tavsifga ega oʻy-xayollari, his-tuygʻulari, yaxlitlikda mavjud tajribasini tashqi tomondan baholash orqali inson oʻz xulq-atvorini tuzatadi. K.Xorning fikricha, refleksiya oʻz-oʻzini tahlil etish texnikasini oʻzlashtirishni talab etadi. Oʻz-oʻzini tahlil etish, ayniqsa, inson chuqur tushkun kayfiyatga berilgan vaziyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Oʻz xulq-atvori haqidagi haqiqatlarning anglanishi turli buzgʻunchi oʻy-xayollardan ozod boʻlish, oʻquv chini azoblayotgan xavotirlardan ozod boʻlish imkonini beradi. Haqiqatning anglanishi oʻquvchi ichki dunyosida maʼnaviy xavotirni uygʻotgan taqdirda ham vaziyatdan chiqish yoʻlining anglanishiga xizmat qiladi.

Refleksiya uchun qulay muhit yaratishda ichki xotirjamlikni hosil qilish lozim. Y.Orlovning taʼkidlashicha, agar refleksiya relaksatsiya (xotirjamlik) vaziyati bilan uygʻunlashsa, sogʻlom tafakkur yomon oʻy-xayollar, notoʻgʻri tasavvurlar, timsollardan xalos boʻladi va ularning ongda qayta takrorlanishi stress holatini yuzaga keltirmaydi. Mazkur sharoitda inson vaziyatga moslashadi, agar salbiy emotsiyalar takrorlanganda ham, yomon taassurot yuzaga kelmaydi.

XULOSA

Sogʻlom tafakkur oʻquvchida ijtimoiy voqelikka anglangan, individual va real munosabatni shakllantirish asosida hayotiy maqsad va qatʻiy pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sogʻlom tafakkur oʻquvchi – yoshlarda qaror qabul qilishda mustaqillik, javobgarlik, oʻzining gʻoya va fikrlarini shakllantirishda, ijtimoiy hayotda sodir boʻlayotgan voqea – hodisalarga munosabat bildirishida muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari shuni aytishimiz mumkinki, inson hayoti, sogʻligʻi – eng katta ijtimoiy boylikdir. Kun tartibi – insonning dunyoga kelgan kundan boshlab amalda boʻluvchi doimiy jarayon sanalib, shaxsning turli mazmundagi faoliyati – mehnat qilish, dam olish, ovqatlanishi, sport bilan shugʻullanish va hokazolarning muayyan vaqtda, tartib bilan bajarilishidir. Tabiiyki, kun tartibi hamma uchun bir xil boʻla olmaydi va u shaxsning yoshi, sogʻligʻi, ish qobiliyati va maishiy turmush sharoitiga muvofiq tuziladi va uning umumiy talablarga: kun tartibini ishlab chiqishda amaliy mehnat bilan jismoniy mehnatning toʻgʻri taqsimlanishi, mehnatning oʻz vaqtida dam olish bilan almashtirilishi, har kuni muayyan ovqatlanish, maʼlum vaqtda uyquga yotish va barvaqt uyqudan uygʻonishga odatlanish, ochiq havoda sayr etish kabilar kiradi. Insonning sogʻlom, nosogʻlom turmush tarzi ham kun tartibining toʻgʻri, notoʻgʻri uyushtirilganligiga bogʻliq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasi. 2019-yil, 31-dekabr 1059 son qarori
2. SH.M.Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil. 29-dekabr.
3. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lugʻat. Ikkinchi nashr. –Toshkent: “Sharq”. 2000. 144 b.
4. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. -Toshkent: Xalq merosi, 1993. -B.159.
5. A.Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. –Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”. 2019. 9 b.
6. B.X.Xodjayev. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. T.: “Sano-atandart” nashriyoti. 2017 y. 205 b.
7. <https://lex.uz> internet sayti

IQTIDORLI YOSHLAR –JAMIYAT USTUNI

*Dilnavoz Xodjayeva Djumoyevna,
Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali o‘qituvchisi*

Anatatsiya: *Har qanday davlatning rivoji uning bilimli, zukko, iqtidorli yoshlar jamiyati bilan ham chambarchas bog‘liq ekan, avvalo ana shunday iqtidor egalarining iqtidorini yuzaga chiqarish, ularning yangi yaratuvchanlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ona vataniga sadoqat ruhida kamol topishiga imkon yaratish barcha davlatlarning bosh siyosatidir. Mavzuning ahamiyati ham shundaki, iqtidorli yoshlarning individual tipologik xususiyatlariga ham psixologik, ham pedagogik ahamiyat qaratilganidir. Maqolada ham iqtidorli yoshlarning tipologik xususiyatlari psixologik amaliyot bilan bog‘lab ifodalangan. Tadqiqot davomida iqtidorning turlariga va uni rivojlantiruvchi tavsiyalarga urg‘u beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Tipologik xususiyat, iqtidor, yoshlar, talant, oila, jamiyat.*

Abstract: *Since the development of any country is closely linked with its society of educated, intelligent, talented youth, first of all, it is necessary to reveal the talents of such talented people, to support their new creative ideas, to develop in the spirit of devotion to the motherland. creation is the general policy of all states. The importance of the topic is that both psychological and pedagogical attention is paid to the individual typological characteristics of gifted youth. The article also discusses the typological characteristics of gifted youth in relation to psychological practice. The study focuses on the types of talent and recommendations for its development.*

Keywords: *Typological trait, talent, youth, talent, family, society.*

Аннотация: *Поскольку развитие любой страны тесно связано с ее обществом образованной, умной, талантливой молодежи, в первую очередь необходимо раскрывать таланты таких талантливых людей, поддерживать их новые творческие идеи, развиваться в духе преданности Родине. Создание - генеральная политика всех государств. Важность темы заключается в том, что как психологическое, так и педагогическое внимание уделяется индивидуально-типологическим характеристикам одаренной молодежи. В статье также рассматриваются типологические характеристики одаренной молодежи применительно к психологической практике. Основное внимание в исследовании уделяется типам талантов и рекомендациям по их развитию.*

Ключевые слова: *типологическая черта, талант, юность, талант, семья, общество.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining rivoji uning intellektual, salohiyatli, iqtidorli yoshlar qanotiga ham bog‘liq. Shunday ekan iqtidorli shaxs jamiyat poydevorining mustahkam asosidir. Kreativ g‘oyalarga boy, yaratuvchanlik qobiliyati mukammal insonlar doimo jamiyatning ustuni hisoblanib kelgan. Demakki psixologiya fanida ham iqtidorli yoshlarning individual tipologik xususiyatlariga katta e‘tibor qaratiladi. Avvalo iqtidor bu – psixologik qobiliyatlarning kombinatsiyasi bo‘lib, u jismoniy shaxslarga muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi kuchdir. Tadqiqot davomida ham iqtidorli yoshlarning individual tipologik xususiyatlariga e‘tibor qaratar ekanmiz, psixologiyada iqtidorli, qobiliyatga ega yoshlarni qo‘yidagi tipologik xususiyatlariga qarab farqlaymiz. Birinchidan, iqtidorli shaxs ta‘lim olishda va yangi bilimlarga ega bo‘lishda muvaffaqiyatga erishishga harakat qiladi. U avval olgan bilim va ko‘nikmalari yordamida mustaqil harakatlanadi. Xodisani tanqidiy baholaydi va mohiyatiga kirib boradi. Yer yuziga bog‘liq voqealarga falsafiy javob berishga tayyor. Iqtidorli yoshlar intellektual iste‘dodga ega, musiqa, raqsga oshno, akademik, ijtimoiy(boshqalar bilan kirishuvchanlik), sport bilan shug‘ullanadigan, matematik, shuningdek kuchli aratorlik adabiy so‘zamonlik kabi xislatlar ularga begona emas. Odatda iqtidorlilar faoliyati yangi g‘oyalar yaratish bilan bir qatorda muammolarni bartaraf etish uchun juda oddiy yondoshuvlardan foydalanish bilan ham bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada o‘quvchilarda sog‘lom tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari obektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Miloradova N.G larning asarlari metodologik manba sifatida olingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtidorli talabalarni o‘qitishda shaxsning ijobiy xususiyatlaridan ba‘zilari, ularning adolat bo‘yicha qat‘iy ishonchga ega ekanliklarini va ular ko‘pincha biron bir masala bo‘yicha bahslashishni yoqtirishlarini inobatga olish zarur. Ba‘zida bu ularning foydasiga ishlasa-da, ularni o‘rgatish - kurash bo‘lishi mumkin. Kuchli adolat ishonchlari tufayli siz ular o‘zlariga va atrofdagilarga nisbatan adolatli ekanliklarini ko‘rasiz. Bu nafaqat o‘z-o‘zidan shubhalanishga, balki boshqa talabalar bilan ham muammolarga olib kelishi mumkin. Iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash odatdagi o‘quv dasturini tezlashtirish va boyitishni o‘z ichiga oladi. Bahoni qoldirgan bolalar odatda yuqori auditoriya da ham akademik, ham ijtimoiy jihatdan yaxshi ishlaydi. O‘z-o‘zidan, yangi, yuqori auditoriya xonasida

o'qitish avvalgi, quyi auditoriya talabalariga qaraganda rag'batlantiruvchi bo'lishiga kafolat yo'q. O'quv dasturini qayta tuzish ham talaba uchun foydalidir, ammo keng miqyosda amalga oshirish maqsadga muvofiq emas; o'qituvchilar o'z dasturlarini qayta ishlashga vaqtlari bo'lgan taqdirda ham, ko'plab iqtidorli talabalar natijada ortda qoladi.

Boyitish -odatdagi o'quv maqsadlari va tadbirlariga qo'shilgan qo'shimcha yoki turli xil ko'rsatmalar berishni o'z ichiga oladi. Masalan, talaba yanada rivojlangan o'qish darajasidagi kitoblar o'rniga talabaning hozirgi o'qish darajasida ko'proq adabiyot turlarini o'qishi yoki qo'shimcha adabiyot turlarini o'zi yozishi mumkin. Matematik dasturlarning qiyin turlariga o'tish o'rniga, talaba auditoriyaning qolgan qismiga tayinlanmagan g'ayrioddiy mantiqiy muammolar ustida ishlashi mumkin. Tezlashtirish kabi, boyitish ham bir nuqtaga qadar yaxshi ishlaydi. Boyitish bo'yicha o'quv dasturlari iqtidorli talabalar bilan ishlashda auditoriya o'qituvchilariga yordam berish uchun mavjud (va o'qituvchilarning o'zlari boyitish materiallarini yaratish vaqtini va ishlarini tejashadi). Boyitish odatiy, rasmiy ravishda tasdiqlangan o'quv dasturining bir qismi emasligi sababli, uni intellektual rag'batlantirish sifatida emas, balki bandlik sifatida qabul qilinadi.

O'z-o'zini boshqarish usuli.

Istisno talabalari iqtidorli bola uchun odatiy bo'lgan bir qator xususiyatlarga ega. O'qituvchi sifatida ushbu xususiyatlarni aniqlay olish qobiliyatli talabalaringiz bilan samarali ishlash uchun muhim qadamdir. Bu erda biz iqtidorli talabalarning ba'zi ijobiy va salbiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ko'pgina ijobiy xususiyatlar o'qitishni sof quvonchga aylantiradigan xususiyatlar bo'lsa, salbiy xususiyatlar juda asabiylashtirishi mumkin.

Iqtidorli talabalar ko'plab ajoyib xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'qitishni hayajonlantiradi. Ulardan ba'zilar ma'lumotni tezda o'rganish va saqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi - ular yangi narsalarni o'rganishga qiziqishadi va odatda ko'plab savollar berishadi. Shuningdek, ular o'qish va matematikani oddiy talabaga qaraganda tezroq o'rganish istagi paydo bo'ladi. Shuningdek, ularda o'z ishlarini tezda yakunlashlarini va ko'proq ish qilishdan manfaatdor ekanliklarini bilib olasiz. Bu ajoyib xususiyatlar bo'lishiga qaramay, o'qitishni qiyinlashtiradigan ba'zi bir salbiy narsalar mavjud.

Iqtidorli talabaning ba'zi bir salbiy xususiyatlari va ularning o'rganish qobiliyatlari shundaki, ular osonlikcha izdan chiqarib yuboriladi yoki mavzudan tashqarida bo'ladi - ular dars paytida osongina zerikib qolishlari mumkin, bu esa ularni boshqa talabalarga to'sqinlik qilishi va ular bundan bosh tortishlari mumkin. ular yoqtirgan mavzulardan farq qiladigan to'liq loyihalar. Ushbu salbiy xususiyatlarga ega bo'lmaslik uchun darsda har doim iqtidorli talabangiz uchun

krossvord, kitob o'qishga yordam beradigan vositalar bilan ta'minlash lozim. Zerikishlariga yo'l qo'yimaslik uchun ularni band qilib qo'yish kerak. Shunda ularni o'qitish ancha ravonroq ketadi. Iqtidorli talabalarni o'qitishda shaxsning ijobiy xususiyatlaridan ba'zilari, ularning adolat bo'yicha qat'iy ishonchga ega ekanliklarini va ular ko'pincha biron bir masala bo'yicha bahslashishni yoqtirishlarini o'z ichiga oladi. Ba'zida bu ularning foydasiga ishlasa-da, ularni o'rgatish bu uchun kurash bo'lishi mumkin. Kuchli adolat ishonchlari tufayli siz ular o'zlariga va atrofdagilarga nisbatan adolatli ekanliklarini ko'rasiz. Bu nafaqat o'z-o'zidan shubhalanishga, balki boshqa talabalar bilan ham muammolarga olib kelishi mumkin.

Iqtidorli talabalarni o'qitishda siz ularning ajoyib hazil tuyg'usiga ega ekanliklarini aniqlaysiz, ular juda murakkab va o'z yoshlaridan tashqarida bo'lishi mumkin. Iqtidorli bolalar ko'pincha nozik hazilni tushunishadi va har xil so'zlarga bag'ishlangan spektakllar bilan birgalikda satiradan zavqlanishadi. Bu iqtidorli bolani atrofda bo'lishdan zavqlantiradi, lekin muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Iqtidorli talaba hazilga berilib ketishi mumkin, chunki ular qachon to'xtashni yoki qachon etarli bo'lishini bilishda qiynalishadi. Bu ular va boshqa talabalar o'rtasida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Iqtidorli talabangizga narsalarni haddan tashqari oshirib yuborishini bilishni o'rgatishga harakat qilish, ular uchun va sizning auditoriyaingiz uchun foydali bo'lishi mumkin.

Iqtidorli talabalarni o'qitish quvonch baxsh etadi. Sababi ular ko'pincha eng g'amxo'r talabalaridir. Ular atrofdagilarning his-tuyg'ulariga juda sezgir va odatda juda beriluvchan xususiyatga ega. Ular o'zlarini juda yaxshi ifoda eta oladilar, bu esa o'zlarini ifoda etishda qiynalishi mumkin bo'lgan boshqa talabalar uchun boylik bo'ladi. Biroq, ba'zi talabalar iqtidorli bolani hamma biladigan yoki ular juda yaxshi gapiradigan va ovozi baland bo'lganligi sababli yaqinlashishi qiyin bo'lgan odam sifatida ko'rishlari mumkin. Boshqa talabalar sizning iqtidorli talabangizni juda shovshuvli bo'lgani uchun uni xo'jayin sifatida ko'rishlari mumkin. Iqtidorli talabalaringizga boshqalarning fikrlarini tinglashni o'rgatsangiz, ular auditoriyada do'st topish va ularni saqlash ancha oson kechishini anglaydilar.

Ko'plab intellektlar g'oyasi maxsus sovg'alar va iste'dodlarga ega bo'lgan talabalar haqida yangi fikrlashga olib keladi. An'anaga ko'ra, iqtidorli atama faqat g'ayrioddiy yuqori og'zaki mahoratga ega bo'lgan talabalarga tegishli edi. Ularning mahorati, ayniqsa, umumiy qobiliyat yoki maktabdagi muvaffaqiyatga oid standartlashtirilgan testlarda, ayniqsa yaxshi namoyish etiladi. Quvonarlisi iqtidor egalari musiqa, ijodiy yozish yoki san'at kabi bir qator faoliyatlarda ham g'ayrioddiy iste'dodlarni o'z ichiga olgan holda kengayib bordi. O'zgarishlarni ko'rsatish uchun o'qituvchilar ko'pincha iqtidorli va iste'dodli so'zlarni ishlatadilar.

Iqtidorli va iste'dodli odamlarning fazilatlarini

Iqtidorli va iqtidorli talabalar qanday? Odatda ular quyidagi fazilatlarining kombinatsiyasini namoyish etadi:

- Ular o'z yoshidagi ko'plab talabalarga qaraganda tezroq va mustaqil ravishda o'rganadilar.
- Ular ko'pincha yaxshi rivojlangan so'z boyligiga, shuningdek o'qish va yozish qobiliyatlariga ega.
- Ular juda g'ayratli, ayniqsa qiyin yoki qiyin bo'lgan vazifalarda.
- Ular o'zlarini odatdagi muvaffaqiyat standartlaridan yuqori tutishadi.

Oddiy taassurotdan farqli o'laroq, iqtidorli yoki iqtidorli talabalar ijtimoiy jihatdan noqulay, kam sog'lom yoki o'z manfaatlari nuqtai nazaridan tor emaslar - aslida, aksincha ular, barcha iqtisodiy va madaniy guruhlardan kelib chiqadi. Buni havaskor sport bilan shug'ullanadigan universitet talabalarining tipologik va shaxsiy farqlanishida ham aniqlash mumkin. Havaskor sportchilar guruhi asab jarayonlarining qo'zg'alishi va harakatchanligi, nevrotikizmning past darajasi, asabiylashish darajasi, xavotir, ruhiy taranglik va tushkunlik darajasi yuqori ekanligini namoyish etdi. Havaskor sportchilar tashqi ogohlantirishlarga nisbatan tashqi eyforik va kam aniqlangan disforik reaksiyalarni namoyon qildilar va to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tajovuzga moyil bo'ladilar. Shuningdek, havaskor sportchilarda umumiy va fazoviy kutish darajalarini namoyish etishganini kuzatamiz. Ikkinchisi jamoaviy sport turlari (futbol, voleybol va basketbol) bilan shug'ullanadiganlar orasida ko'proq sezildi. Darvoqe, asab tizimining turi jismoniy faoliyatga moyillikni belgilashi mumkin, asab tizimining kuchi esa sportda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini belgilaydi degan xulosaga kelamiz. Ma'lumotlarga qaraganda sport bilan shug'ullanish tajovuzkorlikni ifoda etishning ijtimoiy jihatdan maqbul usulidir.

O'qituvchi talabani auditoriyaning qolgan qismiga qaraganda tezroq keyingi o'quv bo'limiga ko'chirishi mumkin, shu bilan birga to'g'ridan-to'g'ri o'quv birligi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha tadbirlarni taklif qilishi mumkin. Iqtidorli yoki iqtidorli talabasi bo'lgan o'qituvchi uchun esa, asosiy muammo shunchaki tezlashtirish va boyitish o'rtasida tanlov qilish emas, balki talabani kuzatib borish, uni o'ziga xos shaxs sifatida bilish, asoslangan faoliyat va qo'llab-quvvatlovlarni taklif qilishdir. Bu mohiyatan o'qitishni farqlash qiyin, bu nafaqat iqtidorli va iste'dodli, balki har xil talabalar uchun zarurdir. Siz taxmin qilganingizdek, ko'rsatmalarni farqlash ko'rsatmalarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Ajablanarlisi shundaki, talabalar kabi kuchli tomonlariga qaramay, bunday talabalar, odatda, o'qituvchilar ularga odatdagi o'quv dasturining qiyinchiliklaridan ko'proq narsani bera olmasalar, maktabda sustlashadi. Masalan, o'qishni yaxshi biladigan

bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisi, o'qituvchilari uning mahoratini tanimasa va rivojlantirmasa, o'qishda biroz oldinga siljishi mumkin; tengdoshlari asta-sekin uning boshlang'ich darajasiga etishganligi sababli uning iste'dodi ko'zdan g'oyib bo'lishi mumkin. Iqtidorli yoki iqtidorli talabalar o'zlarining g'ayrioddiy mahoratlari yoki bilim darajalariga mos kelmasdan, maktabdan zerikib qolishlari va oxir-oqibat zerikish xatti-harakatlar muammosiga aylanishi mumkin.

Madaniy va lingvistik jihatdan har xil iqtidorli talabalar

Tilni osonlik va tezkorlik bilan sotib oladi, o'zlari uchun yuqori talablarni qo'yadi, muammoni hal qilishda ijodiy qobiliyatdan foydalanadi, o'z madaniyatida kuchli etakchilik qobiliyatlarini namoyish etadi, tasviriy yoki amaliy san'atdagi qobiliyatlarni ko'rsata oladi, tasavvurga boy va norasmiy tilga ega bo'ladi, yangi vaziyatlarga osongina moslashadi.

XULOSA

Xulosa qilib, iqtidorli yoki iqtidorli talabalar, ba'zan boshqa nogiron talabalar qatori maxsus ta'lim vazifasi sifatida qaraladilar. Ko'pincha ularning ehtiyojlari, masalan, maxsus ta'lim to'g'risidagi darsliklarda, intellektual nuqsonlari, jismoniy nuqsonlari yoki yurish-turishida katta nuqsonlar bo'lgan talabalarning muhokamalari bilan bir qatorda muhokama qilinadi. Ularning ehtiyojlari to'g'risida fikr yuritishning ba'zi mantiqlari mavjud; oxir-oqibat, ular juda ajoyib va ular o'zlarining potentsiallariga erishish uchun odatdagi maktab dasturlarini o'zgartirishni talab qiladilar. Ammo, alohida iste'dod va boshqa turdagi nogironlik o'rtasidagi aniq farqlarni e'tiborsiz qoldirish ham noto'g'ri. Asosiy farq talabalarning salohiyatida. Ta'rifga ko'ra, sovg'alar yoki iste'dodlarga ega bo'lgan talabalar ko'pincha iste'dodli kattalarga murojaat qiladigan darajadagi ijodiy va sodiq ishlarga qodir. Boshqa talabalar, shu jumladan, nogiron talabalar ham bu darajalarga erishishlari mumkin, ammo tezroq va tez-tez emas. Shuning uchun ko'plab o'qituvchilar iqtidorli va iste'dodli odamlarni imkoniyati cheklangan talabalarning namunalari emas, balki xilma-xillikning namunalari deb bilishadi. Shunday qilib, ular maxsus ta'lim mutaxassislarining mas'uliyati emas, chunki barcha o'qituvchilar o'zlarining ta'limlarini farqlashlari kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Милорадова Н.Г. Психология и педагогика: Учебник. – М.: Гардарики, 2006. – 335 с.
2. Шаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология). – М.: Гардарики, 2006. – 349 с.
3. Обухова Л.Ф. Возрастная психология: Учебник для вузов. – М.: Высшее образование; МГППУ, 2006. – 460 с.

4. Оганесян Н.Т. Педагогическая психология. Система разноуровневых контрольных заданий: Учебное пособие. / Н.Т. Оганесян. – М.: КНОРУС, 2006. – 328 с.
5. Шаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология). – М.: Гардарики, 2005. – 349 с.
6. Милорадова Н.Г. Психология и педагогика: Учебник. – М.: Гардарики, 2005. – 335 с.
7. “The new Psychology of Success” Carol S. Dweck phd from Stanford Universite 2014
8. “Exploring the Inner Landscape of a Teacher’s Life” Parker J. Palmer 2015
9. Психология и педагогика. Под.ред. А.А.Радугина. – М., 2003, 57-68 с.
10. Бурлачук Л. Психодиагностика. Учебник. – СПб.: Питер, 2002, -74 с.

**JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING JISMONIY
HOLATINI ANIQLASHDA TIZIMLI YONDASHUVNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Xudoyberdiyev Shuxrat Mamayusupovich

Termiz davlat universiteti, O‘qituvchi

E-mail: shxudoyberdiyev@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada jismoniy tarbiyaning o‘quv jarayonida maktab o‘quvchilarining jismoniy holatini baholash tizimlarini takomillashtirish va ulardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Oxirgi yillarda maktab o‘quvchilarining jismoniy tiklanishi jarayonida jismoniy holatni kuzatish tizimlarini joriy etish va ulardan foydalanishga qiziqish bo‘lganiga qaramay va bolalarning jismoniy holatining pastligini hisobga olgan holda, jismoniy holatni kuzatish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish davom etmoqda va bu jarayon o‘z navbatida ushbu jarayonlarni modernizatsiyalash yo‘lidagi o‘ta dolzarb muammolarni hal qilish va yechimlarni topishni talab qiladi. Muallif tomonidan o‘tkazilgan eksperiment jarayonida maktab o‘quvchilarining jismoniy holatining axborot ko‘rsatkichlari aniqlanadi va tasdiqlanadi. Muallif tomonidan bolalarning jismoniy holatini nazorat qilishning ko‘rsatkichlarini tartibga solish va aniqlash uchun diagnostika bloki, axborot bloki, multimedia bloki, “Sport maydonchasi“ bloki, “O‘z-o‘zini nazorat qilish kundaligi“ bloki kabi beshta mustaqil blokdan iborat bo‘lgan tizimni kiritildi. Ko‘rsatkichlar boshqaruv tizimining asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari masalalari ochib berilgan. Jismoniy holatni kuzatish uchun avtomatlashtirilgan tizim taklif etiladi. Tizim modullik bilan ajralib turadi va integral yondashuvga asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:** takomillashtirish, tizim, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya, jismoniy holat, holat ko‘rsatkichlari, axborot texnologiyalari, integral yondashuv.*

***Abstract:** The article discusses the issues of improving and using systems for assessing the physical condition of schoolchildren in the educational process of physical education. Despite the interest in the introduction and use of physical monitoring systems in the physical rehabilitation of schoolchildren in recent years, as well as taking into account the low physical condition of children, the development and implementation of physical monitoring systems continues, and this process is very relevant for the modernization of these systems requiring solutions to these tasks and problems. In the course of the experiment carried out by the author, information*

indicators of the physical condition of schoolchildren are identified and confirmed. The author presented a system consisting of five independent blocks for regulating and determining indicators of monitoring the physical condition of children: a diagnostic block, an information block, a multimedia block, a "Sports ground" block, a "Self-control Diary" block. Indicators form the basis of the management system. The possibilities of using modern information technologies in the educational process in the process of physical education are revealed. An automated physical condition monitoring system is proposed. The system is modular and based on an integrated approach.

Key words: *improvement, system, health improvement, physical education, physical condition, condition indicators, information technology, an integrated approach.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning chuqur o'zgarishlari sharoitida maktab o'quvchilari nafaqat asosiy dasturda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallabgina qolmay, balki vujudga kelgan jismoniy va irodaviy sifatlarga ega bo'lgan yuqori darajadagi sog'liqqa ega bo'lishi, har tomonlama rivojlangan, ijodiy ishlarga tayyor bo'lishi kerak. [1].

Ko'plab mualliflar [4,5,6] jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning muvaffaqiyati bolalarning jismoniy holati (jismoniy va irodaviy sifatlar) darajasini yaxshilash diagnostika bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Chunki jismoniy holatni baholash maktab o'quvchilari sog'lig'ining holati va darajasining muhim ko'rsatkichi bo'lib, mashg'ulotlarni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqotchi mualliflar jismoniy tarbiya ishlarida nazoratni tashkiliy va uslubiy tizimini asoslashga bag'ishlangan ilmiy ishlari bilan tanilgandirlar. Ular jismoniy holatni doimiy ravishda kuzatib borish bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur degan fikrni bildirishadi [2].

Mutaxassislarining fikriga ko'ra avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi [7].

So'nggi yillarda maktab o'quvchilarining jismoniy tiklanishi jarayonida jismoniy holatni kuzatish tizimlarini joriy etish va ulardan foydalanishga qiziqish bo'lganiga qaramay va bolalarning jismoniy holatining pastligini hisobga olgan holda, jismoniy holatni kuzatish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish davom etmoqda va bu jarayon

o‘z navbatida modernizatsiya yo‘lidagi o‘ta dolzarb muammolarni hal qilish va yechimlarni topishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning maqsadi - jismoniy tarbiya jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish uchun maktab o‘quvchilarining jismoniy holatini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini nazariy asoslash va ishlab chiqish. Maxsus adabiyotlarni o‘rganish jarayonida muallif jismoniy tarbiya amaliyotida bolalarning jismoniy holatining tarkibiy qismlarini baholashda foydalaniladigan turli xil tizim va dasturlarni ko‘rib chiqdi va tahlil qildi.

Ko‘pgina mualliflar bolalar organizmining rivojlanishi va shakllanishi jarayonini tahlil qilish bilan shug‘ullanishgan, tanadagi funksiyalarni o‘rganishning alohida usullarini [9] va murakkab usullarni ishlab chiqishgan [1,8,10]. Ushbu ilmiy tadqiqotlar jarayonida mualliflar pedagogik va psixologik yondashuvlarning inson organizmining rivojlanishida murakkab funksiyalarga ta‘sir etishini ta‘kidlab o‘tishgan. Maktab o‘quvchilarining jismoniy holatini aniqlashda ularning jismoniy va irodaviy sifatlarini hisobga olish kerakligi ta‘kidlangan [5].

Tadqiqot usullari: maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimga yondoshish, bashorat qilish, omillarni tahlil qilish.

5-7 yoshdagi bolalarning jismoniy holati darajasini diagnostika qilish va baholash usuli A.A. Vetoshkina [3] tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy holatining integral ko‘rsatkichini aniqlashga asoslanadi va bu maktabda o‘qishga “jismoniy“ tayyorgarlikni tavsiflaydi. O‘spirinlar jismoniy va irodaviy holatini baholashda D.Y. Turdimurodov [4,5,6] pedagogik va psixologik ko‘rsatkichlarga tayangan holda bolalarning harakat qobiliyatlari darajasini aniqlash uchun taklif qilingan ko‘rsatkichlar tizimi - indekslar tizimidan foydalangan. Barcha ko‘rsatkichlar ballar bilan baholanadi.

Maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanish darajasi, jismoniy tayyorgarligi darajasi, kasallanish darajasi va o‘quv ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi me‘yorlari aniqlanadi, bu bolalarning maktabda o‘qishga tayyorligini belgilaydi. Sinovlar to‘plamiga quyidagilar kiradi: joyda turib uzunlikka sakrash, 30 sekund davomida devorga 1 m masofadan to‘pni otish va ushlab, qo‘llarga tayanib yotgan holda qo‘llarni bukish va yozish, arg‘amchi bilan sakrash, yotgan holda gavdani ko‘tarish va tushirish, o‘tirib turish. Ushbu testlar tizimi, muallifning fikriga ko‘ra, bolaning maktabda o‘qishga tayyorligini baholashga to‘liq imkon beradi.

Zamonaviy biomexanik metodologiyaning yutuqlari mushak-skelet tizimining buzilishlarini tuzatish vositalari va usullarini yanada takomillashtirish istiqbollarini ochmoqda. Shunday qilib, T.Yu. Krusevich [8] 7-16 yoshli maktab o'quvchilari tanasining fazoviy tashkil etilishini boshqarishning modulli texnologiyasini ishlab chiqdi. Nazorat ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: keng qamrovli tekshirish va maktab o'quvchilari tanasining fazoviy tashkil etilishinining nazorat qilish.

Jismoniy holatni baholashda kompleks yondashuvni N.D. Davidenko [7] amalga oshirgan. Unda baholash antropometrik, yurak-nafas olish tizimi, avtonom asab tizimini baholash, maksimal kislorod iste'molini baholash, jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bloklarda amalga oshiriladi. Olingan test natijalari tabaqalashtirilgan shkala bo'yicha baholanadi va ballarning umumiy sonini aniqlash uchun jamlanadi.

Boshlang'ich sinf bolalarining jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirishga differensial yondashuvni amaliy amalga oshirish vositalaridan biri N.M. Kustova [9] o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini ob'ektiv baholash zarurligini belgilaydi.

B.X.Landaning [10] sog'lik holatini ekspress-baholash uchta mezonni (salomatlik, ishlash, kayfiyat) besh balli tizimda baholashni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, salomatlik miqdori taxminan jismoniy salomatlik darajasini baholashning ball tizimi yordamida aniqlanishi mumkin. Bunday tizimlardan biri L. Apanasenko tomonidan taklif qilingan [1]. Jismoniy salomatlik darajasini ekspress baholash jismoniy salomatlikning "xavfsiz" darajasini aniqlashga imkon beradi. Ushbu usulda tana massasi indeksining ko'rsatkichlari, o'pka hajmi sig'iminining tana vazniga nisbati, qo'l kuchining tana vazniga nisbati, mashqdan keyin yurak urish tezligini tiklash vaqti va boshqalar hisobga olinadi.

Amaliy tajribani tadqiq etish va umumlashtirish asosida muallif sodda va osonlikcha erishiladigan ko'rsatkichlar orasida eng aniq ma'lumotli Robinson indeksi, Rufe indeksi, Kettle indeksi, Skibinskiy indeksi ko'rsatkichlariga tayandi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya jarayonini boshqarish, bolalarning jismoniy holati to'g'risida muntazam ma'lumot berish, ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'irlash orqali natijalarga ta'sir o'tkazishga vaqt ajratish uchun eng muhim mexanizm bu bolalarning jismoniy holatini nazorat qilishdir.

Ayni vaqtda, bir qator mualliflarning fikriga ko'ra [6,9], jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqishning dolzarb muammosi mavjuddir. Hozirgi vaqtda jismoniy tayyorgarlikni sinovdan o'tkazishning mavjud tizimi jismoniy rivojlanish darajasi, jismoniy salomatlik

darajasi, tana tizimlari va mushak-skelet tizimining funksional holati kabi ko'rsatkichlarni hisobga olmaydi.

NATIJARLAR

Jismoniy holatning tarkibiy qismlarini baholash va maktab yoshidagi bolalar jismoniy holatining tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishini aniqlash tizimlari va omillari tahlili o'tkazildi.

Tadqiqot davomida bolalarning jismoniy holatini belgilaydigan "umumiy" omillar aniqlandi: tananing tarkibiy tarkibi (20,3%), tana tizimlarining funksional holati (13%), jismoniy tayyorgarligi (12,3%), jismoniy rivojlanish (11,7%), mushak-skelet tizimining holati (8,5%). Ushbu omillarning umumiy dispersiyasiga qo'shgan hissasi 69,86% ni tashkil etdi.

MUHOKAMA

Omillarning tahlili natijalari bolalarning jismoniy holatini har tomonlama baholaydigan eng aniq ma'lumotli ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon berdi. Bular bola tanasining tarkibiy komponenti; jismoniy rivojlanish (tana uzunligi va vazni, ko'krak qafasi o'lchami, bel atrofi o'lchami, qo'l kuchi); turli o'lchov zonalarida teri haroratining qiymati; jismoniy tayyorgarligi (30 metrga yugurish, 4x10 metrga mokisimon yugurish va joydan turib uzunlikka sakrash, yelka va qorin mushaklarining kuch chidamliligi), tana tizimlarining funksional holati (nafas olish va nafas chiqarish paytida nafasni ushlab turish davomiyligi, belgilangan yuklamadan keyin yurak urish tezligi).

Ushbu qoidalar beshta mustaqil blokdan iborat bo'lgan bolalarning jismoniy holatini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

Avtomatlashtirilgan tizimning diagnostika bloki bolalarning jismoniy holatini baholash va jismoniy tarbiya jarayonida uning dinamikasi to'g'risida tezkor ma'lumot olish uchun ishlatiladi. Ushbu blokning mazmuni bolalarning jismoniy holatini baholash mezonlari bo'yicha maxsus adabiyotlarda mavjud bo'lgan qoidalar asosida tuzilgan.

Axborot blokida amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha vazifalar, jismoniy mashqlar komplekslarini, jismoniy tarbiya pauzalari va daqiqalarini, ertalab gigienik gimnastikani, individual dasturlarni va ularni sog'lomlashtirish tadbirlarida amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek nazariy bilimlar mavjuddir. Sog'lomlashtirish haqidagi darsliklarning dasturga kiritilganligi bolalarning jismoniy tarbiya va sport haqida bilimlari pastligi bilan izohlanadi.

“Sport maydonchasi“ blokida bola tanasiga ta’sirini diversifikatsiya qilish uchun qurilgan jismoniy mashqlar majmualari keltirilgan. Majmualar yosh va jins xususiyatlarini, jismoniy holatning boshlang‘ich darajasini hisobga olgan holda tuziladi va turli xil harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Murakkab harakatli tuzilishga ega bo‘lgan jismoniy mashqlar rasmlar, animasion slaydlar va videomateriallar ko‘rinishida namoyish etildi. Bu esa bolalarga jismoniy tarbiya jarayonining ko‘rgazmalilik prinsipini tushunish va yorqin hissiy rang berishini ta’minladi. “O‘z-o‘zini nazorat qilish kundaligi“ blokini kiritish zarurati bolaning e’tiborini ularning jismoniy faoliyatiga jalb qilish va sog‘lom turmush tarzini olib borish muhimligidan kelib chiqadi.

“O‘z-o‘zini nazorat qilish kundaligi“ blokida jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan bolalarda sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazishda ongli motivatsiyani shakllantirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan usullar to‘plami keltirilgan. “O‘z-o‘zini nazorat qilish kundaligi“ ning tarkibiy elementi “Keys texnologiyalari“ bo‘lib, u majburiy va ixtiyoriy qismlardan iborat o‘quv materialini o‘z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlari amaliyotida maktab o‘quvchilarining jismoniy holatini nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan dasturdan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, o‘quvchilar va ularning ota-onalari bir necha yo‘nalishda foydalanishlari mumkin: bular, bolalarning jismoniy holatini nazorat qilishni tashkil etish, mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish, maktab yoshidagi bolalarni sog‘lom turmush tarzini olib borish uchun bilim va motivatsiyasini oshirish va nazariy mashg‘ulotlarning asosiy yo‘nalishlari va jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirishni tashkil etish usullari bo‘yicha nazariy bilimlarni oshirish, ota-onalar faoliyatini takomillashtirishdir.

XULOSA

Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy holatini yaxshilash, uni baholashda kompleksli yondashuvni qo‘llash, keyin jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Ishlab chiqilgan dasturdan foydalanish o‘qituvchiga o‘quvchilarning jismoniy holati to‘g‘risida ma’lumot olishga imkon beradi va jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Keyingi tadqiqotlarning istiqbollari ushbu rivojlanishni boshqa yosh guruhlaridagi bolalarining jismoniy tarbiya jarayoniga yanada kengroq joriy etish va umumta’lim maktablarida o‘qish davrida jismoniy holatni doimiy ravishda kuzatib borish tizimini shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Апанасенко Г.Л. Эволюция биоэнергетики и здоровья человека / Г.Л. Апанасенко. – СПб.: МГП« Петрополис», 1992. – 124 б. (Apanasenko G.L. Evolution of bioenergy and human health / G.L. Apanasenko. - SPb .: MGP "Petropolis", 1992. – p. 124.)
2. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека / В.К. Бальсевич. – М.: Теория и практика физической культуры, 2000. – 275 б. (Balsevich V.K. Human Ontokinesiology / V.K. Balsevich. - М .: Theory and practice of physical culture, 2000. – p.275.)
3. Ветошкина Е.А. Повышение уровня физического состояния детей 5-7 лет в условиях дошкольного общеобразовательного учреждения на основе преимущественного развития выносливости: автореф. дис. .. канд. пед. наук: спец. 13.00.04 / Е.А. Ветошкина. – Смоленск, 2003. – 22 б. (Vetoshkina E.A. Increasing the level of physical condition of children 5-7 years old in a preschool educational institution based on the predominant development of endurance: author. dis. PhD: spec. 13.00.04 / E.A. Vetoshkina. - Smolensk, 2003.- p. 22.)
4. Турдимуродов Д. Й. Педагогические факторы внешней стимуляции влияющие на волевые усилия школьников при физических упражнениях разного характера / Д. Й. Турдимуродов // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. - № 9. Выпуск 3. – 21-25 б. (Turdimurodov D.Y. (2020) Pedagogical factors of external stimulation affecting the volitional efforts of schoolchildren during physical exercises of a different nature / D.Y. Turdimurodov // Innovations in pedagogy and psychology. No. 9. Issue 3. - pp. 21-25. ISSN 2181-9513 Doi Journal 10.26739/2181-9513)
5. Turdimurodov D. Y. Testing volitional qualities for students of high schools of secondary school / D. Y. Turdimurodov // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. Volume 3. Issue 03. - pp. 405 - 413. ISSN 2689-100X Scientific Journal Impact Factor SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI
6. Турдимуродов Д.Ю. Особенности проявления волевых усилий в процессе внешней стимуляции у школьников 10-12 лет. // Academic research in educational sciences. Volume 2, Issue 4, 2021. –pp. 1348 -1354. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 (Turdimurodov D.Y. Features of the manifestation of volitional efforts in the process of external stimulation in schoolchildren 10-12 years. // Academic research in educational sciences. Volume

2, Issue 4, 2021. –pp. 1348 -1354. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723)

7. Давиденко Д.Н. Соматическое здоровье и методы его оценки: учеб.-метод. пособ. / Д.Н. Давиденко, В.А. Пасичниченко. – Минск: БГТУ, 2006. - 44 б. (Davidenko D.N. Somatic health and methods of its assessment: study guide. manual. / D.N. Davidenko, V.A. Pasichnichenko. - Minsk: BSTU, 2006.- p. 44.)

8. Круцевич Т.Ю. Контроль в физическом воспитании детей, подростков и юношей/ Т.Ю. Круцевич, М.И. Воробьев. – К., 2005. – 196 б. (Krucevich T.Yu. Control in physical education of children, adolescents and youth / T.Yu. Krucevich, M.I. Vorobyov. - K., 2005.- p.196.)

9. Кустова Н.Н. Методика педагогического контроля в процессе физического воспитания учащихся компенсирующих классов начальной школы: автореф. дис. ... канд. пед. наук: спец. 13.00.01 / Н.Н. Кустова. – СПб, 1998. – 25 б. (Kustova N.N. Methodology of pedagogical control in the process of physical education of pupils of compensating classes of elementary school: author. dis. PhD: spec. 13.00.01 / N.N. Shrub. - SPb, 1998. -p 25.)

10. Ланда Б.Х. Организационно-управленческая модель комплексного педагогического мониторинга показателей здоровья и результаты ее внедрения в практику работы образовательных учреждений/ Б.Х. Ланда// Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2003. – №1. – 57 б. (Landa B.Kh. Organizational and managerial model of complex pedagogical monitoring of health indicators and the results of its implementation in the practice of educational institutions / B.Kh. Landa // Physical culture: upbringing, education, training. - 2003. - No. 1. - p. 57.)

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Eshmuradov Olmosbek Elamanovich

Jizzax viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash

va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

O'zbekiston Respublikasi

Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

olmosbekeshmuradov@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek oilasining mustaqillikdan keyingi holati, taraqqiyoti, jamiyatimizda mustaqillikdan keyin oila barqarorligini ta'minlash, oilalarni ijtimoiy himoyalashda olib borilgan ishlar, oila qonunchiligida yuzaga kelgan o'zgartirish va qo'shimchalar kabi masalalar bugungi kunda dolzarflik kasb etmoqda. Oilada baxtli hayot kechirishga har bir o'g'il va qiz bolani erta o'rgatish, buning uchun uning ongida oila muqaddasligi va qadrli ekanligi tushunchasini shakllantirishi zarur. To'g'ri, o'spirin yoshdagilarning bunday tasavvurga ega bo'lishi qiyin albatta, chunki oila-nikoh munosabatlarining o'ziga xosligini bilish, ikir-chikir muammolarini tushunish masalasi ko'pgina hayot tajribasi va bilimni talab qiladi. Biroq, u nikoh qurish yoshiga ancha yetmasdanoq oilaning asosiy mazmunini tashkil etadigan omillarni tushuna olishlari kerak.

Kalit so'zlar: oila, ijtimoiy ximoyalash, baxtli hayot, oiladagi sog'lom muhit.

FACTORS FORMING FAMILY STABILITY

Eshmuradov Olmosbek Elamanovich

Senior Lecturer of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies

*Retraining of public educators of Jizzakh region
and a regional center for their professional development*

Republic of Uzbekistan

Abstract: The post-independence status of the Uzbek family, its development, ensuring the stability of the family in our society after independence, the work carried out in the social protection of families, changes in family law and additional issues are on the agenda today. It is necessary to teach every boy and girl early to live a happy life in the family, to form in his mind the concept of the sanctity and value of the family. It is true that it is difficult for adolescents to have such an idea, of course, because it takes a lot of life experience and knowledge to know the specifics

of family and marriage relationships, to understand the intricacies of marriage. However, before they reach the age of marriage, they need to understand the factors that make up the family.

Keywords: *family, social protection, happy life, healthy family environment.*

KIRISH

Mustaqil o'zbek davlatchiligini va milliy huquqiy tizimini shakllantirishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'li boy ma'naviy-huquqiy negizlari asoslanadi. O'zbekiston davlati va huquqining poydevori – milliy davlatchiligimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkamdir. U uch ming yillik tarixga ega. Qadim Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida ravnaq topgan davlatlar jahon madaniyatini rivojlanishida yorqin iz qoldirgan.

Bizning davlatimiz ko'hna So'g'diyona va Xorazmdan boshlab, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va temuriylar davlatlari va o'zbek xonliklarining davlat boshqaruv tajribasini, xalqimizning butun milliy, tarixiy, huquqiy, ma'naviy amaliyotini hamda uning mustaqil davlatiga ega bo'lish kabi asriy orzularini o'zida mujassamlashtirgan. Hozir, XXI asr boshida O'zbekiston Respublikasi yangi davlatchiligining qaror topishida umumjahon va milliy davlatchilik taraqqiyoti qonuniyatlari uzviy ravishda uyg'unlashdi

Jamiyat hayotining o'zgarishi, ma'lum jihatdan oilaga, uning a'zolariga bog'liq bo'lganligi bois, bu muammoni o'rganish va tahlil etish dolzarb jarayon hisoblanadi. Har bir millat oila va u bilan bog'liq jarayonga alohida e'tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazib kelmoqdalar.

Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a'zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflanadi va o'rganiladi.

Oiladagi muhitning sog'lomligi avvalo ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma'sul bo'lgan onaga bog'liqdir. Bo'lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning "Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating" degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmi, tarbiyali hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo'lsa, oiladaga muhit ham sog'lom va oila mustahkam, farovon bo'ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma'naviy-

psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir.

METODOLOGIYA

Oila qadriyatlariga o'smirlik yoshidagi bolalarning munosabatini o'rganish uchun ularni kengroq ijtimoiy muhit doirasida o'rgandik va buning uchun biz Rokich tomonidan taklif etilgan qadriyatlarni o'rganish metodikasining o'zbek tiliga o'girilgan variantidan foydalandik. Ushbu metodika o'z ichiga olgan qadriyatlarga munosabat testini tanlovda ishtirok etgan to'liq va noto'liq oila farzandlariga taqdim etib, har bir qadriyatning ular uchun qanchalik qadriligi nuqtai nazaridan baholab berish vazifasini qo'ydik.

Insonning psixologik yetukligi bu o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan va imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yishi, turli yashash sharoitlariga moslashish, turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishidir. Albatta, bunday qobiliyatlar bir kunda shakllanmaydi. Ular oilada qizlarga berilgan tarbiya ta'sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qiz bola turmush qurgandan so'ng uning ijtimoiy muhitdagi mavqie tubdan o'zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o'z-o'ziga bo'lgan munosati o'zgarishi kuzatiladi. Mazkur o'zgarishga nisbatan o'zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o'z o'rniga ega bo'la oladi. Oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o'ynovchi omillardan biri bu - o'z-o'ziga yo'riqnoma berishi ya'ni, oilaga tayyorlik holatining har tomonlama o'stirish hisoblaniladi. Yangi kelinlik mavqega moslashish albatta, tajriba va bilimlarga asoslanadi. Shularga ko'ra, har qanday turmush qurish yoshiga yetgan qiz o'zining yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o'zi kelin bo'lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Sizningcha, oilani mustahkamligida qanday omillar muhim?" nomli savolga bergan javoblari ko'rsatgichi.

Sizningcha, oilani mustahkamligida qanday omillar muhim?		
№	Javoblar	%
A.	Oilada bir-birini tushuna olish	45%
V.	Moliyaviy farovonlik	2%
S.	Muhabbat va ehtiros	5%
D.	Mehr, ishonch, sadoqat	38%

E.	Mustahkam e'tiqod	5%
F.	Milliy qadriyatlar	3%
G.	Hammasi	2%
	Jami	100%

XULOSA

Yuqoridagilarni muhtasar qilib ta'kidlash mumkinki, tadqiqotimizda qatnashgan qizlarning oila haqidagi tushuncha va tasavvurlari mustahkam va barqaror oilaviy munosabatlarni ta'minlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy va psixologik jihatdan yetarli emasligi ayon bo'ladi. Ammo shunga qaramasdan, ularda mustahkam oila qurish istagi yuqoriligi kuzatiladi. Zero, ularning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari qanchalik realikka yaqin bo'lsa, oila mustahkamligini ta'minlash imkoniyati shuncha oshadi.

O'zbek oilasining taraqqiyoti va barqarorligi, nikohning qadriyat sifatida avloddan-avlodga o'tib kelish jarayoni tadrijiy tamoyillarga, jamiyat taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga bog'liq holda ro'y beradi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotiga doir tamoyillar va qadriyatlar oilalar rivojining ma'naviy-mafkuraviy asosi rolini o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // V.M. Karimova. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008 – 170 b
2. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. Toshkent: 2003.- B. 67-95. – 208 b.
3. S.B Qoraev, I.S Joldasov Kasb-hunar maktablari faoliyatini amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish orqali takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences 2
4. G'oziev E., To'laganova G. Pedagogik psixologiya asoslari: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: «Universitet», 1997. – 80 b.
5. Эйдемиллер Э.Г., Юстеский В.В. Семейная психотерапия. - Л., 1989. - 192с.
6. Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
7. S.B. Koraev Recommendations on Effective Organizing Training and Production Complexes at Secondary Educational Institutions. Eastern European Scientific Journal

8. Samaridin Barakayevich Qorayev, Marjan Smatillayevna Janbayeva. (2021). Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. *academic research in educational sciences*, 2(4).
9. Samaridin Barakayevich Qorayev, Sarvinoz Baxtiyorovna Allayorova. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
10. Қораев, С.Б. (2018). Умумий ўрта таълим муассасаларида ўқув-ишлаб чиқариш мажмуаларини ташкил этишнинг долзарблиги. *Таълим, фан ва инновация* 4, 28-31.
11. M. Tilakova, S. Qoraev. (2020). Recommendations for students'creative ability development. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4), 184-189.
12. Мавжуда Тилакова, Самариддин Қораев, (2020). Ўқувчилар креативлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича тавсиялар. *Academic research in educational sciences*, 4.
13. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. *Eurasian Education Science and Innovation Journal*, 1(22), 15-19.
14. Ахмедов, Б. А. (2021). Динамическая идентификация надежности корпоративных вычислительных кластерных систем. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(3), 495-499.
15. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель-программа для преподавателей образовательных учреждений). *Universum: технические науки*, 12-1 (81).
16. Akhmedov, B. A. (2021). Cluster methods for the development of thinking of students of informatics. *Academy*, 3(66), 13-14.
17. Akhmedov, B. A. (2021). Innovative cluster model for improving the quality of education. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(3), 528-534.
18. Akhmedov, B. A. (2021). Information technologies in Cluster systems: a competence approach. *Universum: технические науки*, 4 (85)
19. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *Eurasian Education Science And Innovation Journal*, 3(10), 97-100.

20. Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. Scientific progress, 1(3), 113-117.

TALABALAR SPORT TAYYORGARLIGINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISHNING IJTIMOY OMILLARI

Hayitov Tursun Shomurodovich

*Jizzax davlat pedagogika instituti, “Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrası
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Sport klublari sport faoliyatini tashkil qilish va o‘tkazishda muhim boshlang‘ich tashkiloti hisoblanadi. Maqola sport klublari ishidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning mazmunida jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlik va aholiga xizmat ko‘rsatish, yangi ish o‘rinlari yaratish bilan bog‘liq ma‘lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sport, sport klublari, jismoniy madaniyat, jismoniy tayyorgarlik, boshqarish.*

Аннотация: *Спортивные клубы - важная первичная организация в организации и проведении спортивных мероприятий. Статья посвящена проблемам в работе спортивных клубов и путям их решения, а также содержит информацию о предпринимательстве и государственных услугах в сфере физической культуры и спорта, создании новых рабочих мест.*

Ключевые слова: *спорт, спортивные секции, физическая культура, физическая культура, менеджмент.*

Abstract: *This article reveals the social implications of physical education and mass sports. A different approach assesses the social essences of sports, points out ways to improve the organization, and conducts various activities among different segments of the population, including youth.*

Keywords: *students, students, physical education, mass sports, theoretical and practical basis, training, recommendations.*

KIRISH

Oliy ta‘lim muassasalari o‘sib kelayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish va ularni bo‘lajak kasb bilan ta‘minlashda ulkan tashkiliy va boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilma hisoblanadi. Hozirgi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi insonlardan, ayniqsa yoshlardan o‘z hayotini namunali tashkil etish, boshqarish va hayot kechirish bilan bog‘liq turli talablarni qo‘yadi. Bular tibbiy-biologik, pedagogik-psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy talabalar atrofida jamlanadi va odamning butun bir hayotini ta‘minlashga qaratilgan

ehtiyotlar tizimini tashkil etadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada talabalar sport tayyorgarligini tashkil qilish va boshqarishning ijtimoiy omillari obyektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni metodologik manba sifatida olingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yosh avlodni jismonan barkamol, aqliy yetuk inson qilib yetishtirishda jismoniy tarbiya va sportning hissasi beqiyosdir. Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunini (2015 yil 4 sentabr, Yangi tahrir), "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2017 yil 3 iyundagi 3031-sonli Prezident Qarori) qabul qilinib, unda belgilangan vazifalarni amalga oshirishning asosiy konseptual yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Qonunda aholi jismoniy tarbiyasiga konseptual yondoshib, uzluksiz ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport orqali madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy- iqtisodiy vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish ko'zda tutilgan. [2]

Uning natijasi o'laroq sportchilarimiz ham jahon maydonida yildan-yilga yanada ulkan g'alabalarni qo'lga kiritib, mamlakatimizda sportni ommalashtirishga, uning ilmiy va uslubiy jihatdan yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shmoqda. Sport tayyorgarligi erishilgan natijalarni mustahkamlash, ularni keyingi yillarda yanada rivojlantirish bilan bog'liq ulkan vazifalarni qo'yadi. 2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Yozgi Olimpiada va XV Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan 69 ta O'zbekiston terma jamoasi a'zolari tarkibida 25 ta talaba sportchilar ham ishtirok etdi. Bu umum ishtirokchilar sonining 32.2 % ni tashkil etdi. Respublikamizda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va viloyatlardagi 15 ta jismoniy madaniyat fakultetlarida 18648 nafar talabalar tahsil olayotganligini hisobga olsak, olimpiadachi talabalar ularning 0.13 % nigina tashkil etishini guvohi bo'lamiz. Viloyatlardagi 15 jismoniy madaniyat fakultetlarining faqat 6 tasidan (UrganchDU, AnDU, SamDU, BuxDU, Qo'qon DPI, QarDU) vakillar olimpiada o'yinlarida ishtirok etdi. Qolgan 10 ta fakultetlardan biror vakil terma jamoa tarkibiga tusha olmagan. Bu holat ushbu fakultetlarda talabalar sport

tayyorgarligini tashkil qilish va boshqarish qoniqarsiz ekanligidan dalolat beradi. Tabiiyki, bu ko'rsatkich bizni qoniqtirmaydi va ishlarni qayta ko'rib chiqish, muammoni hal qilish uchun boshqa, optimal yo'llarni qidirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bu zaruriyat viloyatlardagi Jismoniy madaniyat fakultetlari talabalari va professor-o'qituvchilaridan iborat ulkan zahira kuchni harakatga keltirish, ular ishini zamonaviy talablar darajasida tashkil etish va boshqarishni talab etadi. Albatta, aytib o'tganlarimiz, yuqori toifali sportchilar tayyorlash jarayoniga taalluqli. Chunki yuqori toifali sportchilar tayyorlash jarayoni katta muskul zo'riqlari orqali kechadi. Masalan, yuguruvchilarning yillik yugurish hajmi 3000-3500 km dan 6500-7500 km ga yetdi. Alohida suzuvchilar yillik mashqda 3800 km, eshkak eshuvchilar 12000 km gacha, velosipedchilar 40000 km gacha mashq masofalarini o'tamoqdalar.

Jahon miqyosidagi musobaqalarda o'z darajasini tutib turadigan sportchilar kamida 7-8 yil mashaqqatli sport mehnatini o'taydilar. Chet el sport tajribasida yuqori toifali alohida bir sportchi uchun 8 kishi xizmat ko'rsatadi. Masalan, sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi bo'yicha murabbiy, maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy, psixolog, oshpaz, menedjer, massajist, shifokor va b.

Bular sport tayyorgarligi jarayonini shunchaki, intuisiya yoki o'zibo'larchilik bilan emas, balki ilmiy, nazariy va uslubiy tadqiqotlarning natijalari bilan isbotlangan tavsiyalarga mos ravishda tashkil etish va boshqarishni talab qiladi.

Shu o'rinda yuqori toifali sportchilar tayyorlash uchun, ulkan zahira kuch sifatida ommaviy sportning ham alohida o'rni borligini ta'kidlab o'tish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sport, sport klublari orqali amalga oshiriladi. Sport klublarining ish holatiga bugungi kun talablari hamda ilmiy va uslubiy jihatdan yondoshadigan bo'lsak, ularning foydali ish koeffitsientini aniqlashimiz uchun ma'lum ko'rsatkichlarga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Hozirda Respublikamizda 60 oliy ta'lim muassasalari, 7 ta xorijiy filiallar va 13 ta respublika oliy ta'lim muassasalarining filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Hammasini qo'shib hisoblaganda ular 80 ta. Ularda 271 000 nafardan ziyod talaba va 9000 nafardan ziyod magistrantlar tahsil olmoqda. Bu oliy ta'lim muassasalaridagi sport klublari jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatadi, ular moddiy mablag' manbaiga ega emas.

Shuning uchun ular aksari hollarda respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan talabalar sport musobaqalarga qatnasha olmaydi. Bozor iqtisodiyoti talabalaridan kelib-chiqib, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash maqsadida, xo'jalik sub'ektlari sifatida ba'zi oliy ta'lim muassasalarida yuridik asosda faoliyat

ko'rsatayotgan sport klublari ham mavjud. Lekin ularning soni juda kam, ular 10-11 % ni tashkil etadi. Bu holat ham oliy ta'lim muassasalarida talabalar sport tayyorgarligini tashkil qilish va boshqarishning asosiy yadrosi bo'lgan sport klublarini xo'jalik sub'ektlari sifatida, yuridik maqom berib tashkil etishdek katta muammoni keltirib chiqarmoqda. [3]

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha tarmoqlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga berilayotgan katta e'tibor va imkoniyatlar, imtiyozlar ta'lim tizimidagi jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligi jarayoniga ham ularni keng ko'lamda tadbiriq etish ehtiyojini talab qilmoqda. [4] Taraqqiy etgan ilg'or mamlakatlar tajribasidan kelib, chiqadigan bo'lsak, tadbirkorlik va biznes ham o'z navbatida talabalar o'rtasida sport-sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirishga katta turtki beradi. Masalan, eng rivojlanib borayotgan Xitoy, Koreya singari davlatlarda jismoniy madaniyat va sport uchun sarflanayotgan mablag'ning 40 % gina davlat byudjetidan sarf qilinadi. Qolgan 60 % mablag' o'z-o'zini ta'minlash orqali ishlab topiladi. Bu AQShdek davlatda 100 % tashkil etadi, ya'ni davlat aholi o'rtasida mustaqil sportni rivojlantirish uchun deyarli mablag' sarflamaydi. [5]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalar mustaqil sport tayyorgarligi jarayonini molyaviy-iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy muammolarini hal qilish uchun Prezident va Vazirlar Mahkamasining ko'plab qarorlari sohada tadbirkorlik va biznes uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishiga qaramasdan tizimda natijalar qoniqarsizligicha qolmoqda. Bularga qaramasdan, uch bosqichli tizim musobaqalari muntazam, har yili o'tkazilib turilsada, lekin mablag' yo'qligi sababli har bir bosqich oralig'idagi 2-2,5 yilda sport tayyorgarligida o'ziga xos uzilish sezilmoqda. Bularning asosiy sabablariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchiidan, sport sohasi mutaxassislarida bozor iqtisodiyoti talablariga mos huquqiy bilim, malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi.

Ikkinchiidan, talabalar mustaqil sport tayyorgarligini tashkil qilish va boshqarish tizimining bugungi kun talabalariga javob bermasligi, ularni moddiy mablag' manbaini yo'qligi.

Uchinchiidan, soha mutaxassislarda tashabbuskorlik va mustaqil sport tayyorgarligi orqali o'z iqtisodiy ahvolini yaxshilashga oid muhim hayotiy maqsadlarni yetishmasligi va b.

Talabalar mustaqil sport tayyorgarligi tizimida shart-sharoitlar yaratish, tayyorgarlik, musobaqalar va turli darajadagi yig'inlarni o'tkazish va ularda ishtirok

etish uchun moddiy mablag‘ manbaini topish katta muammolardan bo‘lib kelgan. Shuning uchun oliy ta‘lim muassasalarida tadbirkorlik va biznesga asoslangan yuridik maqomdagi sport klublarini ochish, ish o‘rinlari yaratish, ular ishini tashkil qilish va boshqarish hukumatimiz tomonidan qo‘yilgan muhim moddiy va ma‘naviy vazifalarni hal qilishga, xususan, talaba-yoshlarni jismonan yetuk, sog‘lom va uzoq yillar mustaqil sport faoliyatini davom ettirishlariga, sport orqali o‘z biznesi va tadbirkorligini yo‘lga qo‘yishga katta imkoniyalar yaratadi. Bu bugungi kun mutaxassislari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunini (2015 yil 4 sentabr, Yangi tahrir)Xalq so‘zi gazetasi, 2015 yil 5 sentyabr soni.
2. “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017 yil 3 iyundagi 3031-sonli Prezident Qarori). Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 4 iyun soni.
3. Зубарев Ю.А. Маркетинг физической культуры и спорта: Курс лекций. Волгоградская государственная академия физической культуры. - Волгоград - 2008 - 206 стр.
4. Васенков, Н.В. Динамика состояния физического здоровья и физической подготовленности студентов / Н.В. Васенков // Теория и практика физической культуры. – 2005. – № 5. – С. 91 – 92.
5. Дорошенко, С.А. Спортивно-видовой подход – путь к повышению эффективности процесса физического воспитания в вузе / С.А. Дорошенко // Журнал Сибирского Федерального Университета. – 2011. – № 9. – Т. 4. – С. 1334 – 1353.

INFORMASION GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING XUSUSIYATLARI

Abduraxmonov Ishaq
SamDU magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyatning xususiyatini falsafiy tahlili bayon etiladi. Maqolada raqamli iqtisodiyot axborotlashga jamiyatga xos xususiyat ekanligi hamda uning ijtimoiy turmush tarzidagi ijobiy jihatlari yoritilgan.*

Kalit soʻzlar: *Axborot, axborotlashgan jamiyat, axborot texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar.*

Аннотация: *В статье дается философский анализ природы информированного общества. В статье подчеркивается тот факт, что цифровая экономика - это специфическая для общества характеристика информации, а также ее положительные аспекты социальной жизни.*

Ключевые слова: *информация, информационное общество, информационные технологии, цифровая экономика, социальные отношения*

Abstract: *This article provides a philosophical analysis of the nature of an informed society. The article highlights the fact that the digital economy is a society-specific feature of information, as well as its positive aspects of social life.*

Keywords: *Information, information society, information technology, digital economy, social relations*

KIRISH

Kishilik jamiyati XXI asrda informatsion sivilizatsiya bosqichiga qadam qoʻydi. Jamiyat taraqqiyotining bu bosqichi axborot va kompyuter inqilobi kabi omillar asosida axborotning tovar mahsulotga aylanishi, jamiyatda kompyuter sohasida muhandis-texnik ziyolilar qatlamining vujudga kelishi, kompyuterlashtirish jarayonining ishlab chiqarish kuchiga aylanishi, internet tarmoqlarining ijtimoiy turmush tarziga tobora singib borishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, mazkur sivilizatsiya bosqichida globallashuv jarayonining imkoniyati tezlashdi va kengayib boradi. Mamlakatimiz ham jahon hamjamiyati singari informatsion sivilizatsiya bosqichiga kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalar va internet tizimi ishlab chiqaruchi kuchga aylanib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi tobora xalq xoʻjaligiga kirib bormoqda. Tadqiqotchilar tomonidan raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlarini falsafiy metodologik jihatdan tadqiqi etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola ham shu muammolarin tadqiq etishga bagʻishlangan.

METODLAR

Informasion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlarini yoritishda tizimli tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, taqqoslash va qiyosiy tahlil kabi usullardan keng foydalanildi.

NATIJALAR

Axborotlashgan jamiyatning asosiy xususiyatlari quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- Ixtiyoriy individ, guruhlar, korxonalar yoki tashkilotlar o'zlarining hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hohlagan informatsiya va bilimni pul to'lab yoki bepul ravishda istalgan vaqtda mamlakatning ixtiyoriy burchagida olish imkoniyati mavjud bo'lishi;

- Jamiyatda ixtiyoriy individ, guruhlar yoki tashkilotlar foydalana olishi mumkin bo'lgan zamonaviy informatsion texnologiyalar ishlab chiqarilishi va undan erkin foydalana olish imkoniyatining mavjud bo'lishi;

- Hozirgi murakkab globallashuv jarayonida informatsion jamiyat talablarini qo'llab quvvatlash va rag'barlantirish maqsadida Milliy informatsion resurs markazlari va ularning infratuzilmasini yaratish;

- Jamiyatda ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarining deyarli barcha yo'nalishlarini avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish jarayonining jadallashuvi;

-Ijtimoiy strukturada keskin o'zgarishlarning sodir bo'lishi, informatsion faoliyat va xizmat ko'rsatish sohaining kengayishi. Bu sohada aholining aksariyat qismi band bo'lishi.

Informatsion sivilizatsiya bosqichi va globallashuv jarayoni kishilik jamiyati taraqqiyotiga xos bo'lgan tabiiy-tarixiy jarayon bo'lib, uning ijobiy jihatlari «davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarini kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kashf etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi» bilan belgilanadi(1.112).

Jamiyatning kompyuterlashtirish jarayoni, uni ishlab chiqarish – qishloq xo'jaligi va sanoatda, ta'lim tarbiya tizimida, tibbiyotda, maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida shuningdek, kommunikativ aloqa va pochta tizimida ko'llanishi bilan namoyon bo'lmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarda raqamli iqtisodiyot tushunchasi muhim rol uynaydi. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati nimadan iborat? Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. 2016 yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma’ruza e’lon qildi (“Raqamli dividendlar”) (2).

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotning belgilari bir necha yil avval boshlangan edi. Xususan, savdo-sotiq munosabatlari va ishchi xodimlarning maoshlarni plastik kartochkalar orqali amalga oshirilishi, kommunal xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarning elektron tarzda joriy etilishi va hokazo bu kabi jarayonlar raqamli iqtisodiyotning muhim xususiyatlaridan biridir.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalarini joriy etishni yanada jadallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligini tashkil etildi. Mazkur vazirlikni tashkil etishdan maqsad xalqimiz hayot darajasi va sifatini yuksaltirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy kompyuter va internet tarmoqlaridan foydalanishni yanada qulayliklar yaratish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish chora tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo‘yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirishdir.

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini ishlab chiqish va tatbiq etish, axborot xavfsizligini ta’minlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqa sohalarida shunday ishlarni tashkil etishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligini tashkil etilishi mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat rivojlanishi va raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda yangi istiqbollarga imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning o‘tgan yili Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnimasida ta’kidlanganidek: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga

yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi»(3).

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli iqtisodiyot axborotlashgan jamiyatning hosilasi bo‘lib, tabiiy tarixiy jarayondir. Kishilik jamiyattiga xos bo‘lgan bu jaryoning turmush tarzimizda ko‘plab ijobiy jihatlari mavjuddir. Avvalo raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi ijtimoiy munosabatlarimizdagi eng salbiy illat – korrupsiyaning barham berishga yordam beradi. Shuningdek, «yashirin iqtisodiyot»ga qarshi kurashda ham qulay imkoniyat vujudga keladi. Eng muhimi raqamli iqtisodiyot sharoitida fuqarolarimizning vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi, xavfsizlik taminlanadi, masalan to‘lovlar uchun xarajatlar kamayadi, ya’ni, bankka borish uchun vaqt va yo‘lkira hamda boshqa resurslar tejaladi. Bundan tashqari mijoz tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.T. “Ma’naviyat”,2008, 112-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020yil 24 yanvar

**НЕКОТОРЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛАТИНСКИХ
АФОРИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДАНТЕ «НОВАЯ ЖИЗНЬ» И
«БОЖЕСТВЕННАЯ КОМЕДИЯ»**

Расулова Мунира Маратовна

Преподаватель кафедры «Испанского и итальянского языков»

Самаркандского государственного института иностранных языков

munira.rasulova92@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается сравнительный анализ классических латинских афоризмов в произведениях Данте «Новая жизнь» и «Божественная комедия».

Ключевые слова: латинские афоризмы, крылатые слова, интерпретация, власть, любовь, вечность

**SOME LINGUISTIC FEATURES OF LATIN APHORISMS IN THE
WORKS OF DANTE "NEW LIFE" AND "DIVINE COMEDY"**

Rasulova Munira Maratovna

Lecturer at the Department of Spanish and Italian Languages

Samarkand State Institute of Foreign Languages

munira.rasulova92@gmail.com

Abstract: This article presents a comparative analysis of classical Latin aphorisms that Dante Alighieri interprets in his works "New life" and "Divine comedy".

Keywords: latin aphorisms, winger words, interpretation, power, love, eternity

ВВЕДЕНИЕ

Данте - один из важнейших авторов итальянской литературы тринадцатого века. По мнению А. Н. Веселовского, «Данте Алигьери – величайший итальянский поэт, единственный из средневековых, которого мы не изучаем только, но и продолжаем читать, чьи образы и терцины живут в памяти каждого, запечатленные его личным чеканом». [Веселовский, 1909, с. 441]

Дантология сегодня – это обширный корпус критической литературы. Следует отметить издание «Дантовских чтений», в выпусках которых пристально анализируется как система персонажей, так и особенности лексики. И. К. Горский считает, что «Наследие Данте столь глубоко вошло в историю культуры, что в наше время уже не найдется ни одной национальной

литературы, которая не несла бы на себе печать его влияния». [Горский, 1973, с. 65] Личность Данте поражала современников своим величием. Он был широко образованным человеком, обладал волевым характером и большой эрудицией. Всё это предвосхищало в нём черты эпохи Возрождения, хотя он жил в период высокого средневековья. Об уровне образованности Данте и его интеллектуальном багаже говорит тот факт, что его приглашали читать лекции в Париже и Сорбонне. Данте мог дискутировать на любые темы и свободно цитировал в своей речи латинских философов. Великий поэт оставил неизгладимый след в истории литературы, создав слова и выражения, используемые и сегодня в итальянском языке: *abisso* (бездна), *bollire* (кипеть), *deludere* (разочаровать), *furia* (ярость), *l'impegnare* (сверкать), *sepolcro* (захоронение) и др. Умберто Эко, итальянский писатель, философ и литературный критик, подчеркивает, что «когда Данте начал писать «Божественную комедию», лексика итальянского языка составляла 60 процентов, а в конце века она была заполнена на 90 процентов. Это означает, что из 20 тысяч слов, необходимых для того, чтоб говорить на итальянском языке и понимать его, 1.800 присутствует в «Божественной комедии» Данте». [Есо У., 2008, р. 5]

Данте Алигьери считается одним из основоположников литературного итальянского языка. Он писал произведения не только на классическом латинском языке (*latino classico*), считавшимся официальным и очень престижным языком, но и на тосканском диалекте, произошедшем от народной латыни (*latino volgare*), который в ту эпоху был народным разговорным языком и впоследствии стал основой итальянского языка. Его знаменитые произведения, написанные на классическом латинском: *трактат «О народном красноречии»*, (*De vulgari eloquentia*) 1304-1306 гг., политический трактат «*Монархия*» (*De Monarchia*) 1310-1313 гг., «*Эклоги*» (*Egloghe*) 1319-1320 гг. Многие фразы из произведений Данте стали крылатыми словами, широко известными как в Италии, так и за ее пределами.

МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЛИТЕРАТУРЫ

В данной статье используется сравнительный метод исследования. Объектом исследования являются латинские афоризмы, встречающиеся в произведениях Данте Алигьери. Рассматривается их семантика, этимология и роль в современном итальянском языке.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Цель исследования предполагает решение следующих задач:

- изучение основных произведений Данте;

- исследование латинских афоризмов;

- проведение сравнительного анализа латинских афоризмов в произведениях Данте.

В рамках данной статьи интересно проанализировать латинские афоризмы, которые Данте либо взял в «чистом виде» и перевел на итальянский язык, либо интерпретировал.

Incipit vita nova (лат) - Начинается новая жизнь. - *Inizia la Vita nuova* (итал.) «La Vita Nova» - («Новая жизнь») - произведение Данте, написанное прозомерией в 1283—1294 гг., которое затрагивает тему любви к Беатриче. Слово *vita* (жизнь) восходит к *vidas* – это краткие биографии поэтов и писателей. Слово *nova* (новая) используется, потому что жизнь Данте обновляется любовью к Беатриче. «Новая» - уже не принадлежащая земному порядку вещей. Как отмечает американский автор и литературный критик работ Данте Ч. С. Синглтон, «суть «Новой жизни» - это путь поэта к вечному спасению через мистическую любовь к Беатриче». [Singleton, 1958, p. 102]

Название выражается в первых строках произведения, где Данте пишет: «In quella parte del libro de la mia memoria dinnanzi a la quale poco si potrebbe leggere, si trova una rubrica la quale dice: «Incipit vita nova» [Dante Alighieri, 1932, p. 1] («В том месте книги памяти моей, до которого лишь немного можно было бы прочесть, стоит заглавие, которое гласит: Incipit vita nova»). Можно согласиться с тем, что для Данте начинается новая жизнь. Прежде всего, «Новая жизнь» - это первое его произведение. В нем он впервые использует прозомерию – сочетание прозы, написанной в начале 90-х годов, и более ранней поэзии, сочетание, составляющее особенность «Новой жизни». В этом произведении впервые появляется образ Беатриче, через любовь к которой Данте приобщился к чудесному и необычному миру, по-новому осознал, что такое его любовь. Здесь же впервые возникает образ Амора, при описании которого Данте использует латинские фразы. Впервые Amor появляется в главе III, обрамляющей 1-ый сонет. Он предстает перед поэтом как существо необычайное и грозное. Н. Г. Елина, специалист по итальянской литературе, считает, что «описание должно вызвать чувство мистического страха, этому способствует и образ «огненного облака», и эпитет «устрашающий» в его

неожиданном сочетании с «великой радостью», и, наконец, неясность слов, произнесенных грозным богом на латинском языке». [Елина, 1973, с.174]

Ego dominus tuus. [Dante Alighieri, 1932, p. 3]. Я твой господь. Sono il tuo dio (итал).

Вторая латинская фраза следует за описанием дамы:

Vide cor tuum. [Dante Alighieri, 1932, p. 1]. Посмотри на свое сердце. Guarda il tuo cuore (итал).

Следует отметить, что билингвизм в средневековых памятниках имел стилистическую функцию, а в некоторых случаях билингвизм используется для украшения речи. В данной главе торжественная приподнятость речи - несомненна, и возникает она благодаря латыни. Соглашаясь с мнением Ч. С. Синглтона, «латинские фразы, которые встречаются в III главе «Новой жизни», придают повествованию профетический характер». [Singleton, 1946, с. 108]

Рассматривая дальше образ Амора, Данте представляет его несколько иным в XII главе. Вначале он говорит с Данте на латинском языке:

Ego tanquam centrum circuli, cui simili modo se habent circumferentie partes; tu autem non sic. [Dante Alighieri, 1932, p. 13] Смысл фразы: «Я, Amor, нахожусь в центре совершенной формы круга, ты же еще далек от истинного познания любви». Благодаря загадочным словам, произнесенным на латыни, сохраняется известное величие внеличной и неземной силы. Затем Данте пластично переходит на *volgare*: «Quella nostra Beatrice udio da certe persone di te ragionando, che la donna la quale io ti nominai nel cammino de li sospiri, ricevea da te alcuna nota». [Dante Alighieri, 1932, p. 13] Amor дает поэту совет, как вновь обрести милость Беатриче. В данной ситуации Amor менее величественен и более человечен: юноша в белой одежде, который вздыхает и плачет. Переход на народный язык и практическое наставление, которое он дает Данте, сближает его с Амором.

Центральный персонаж «Новой жизни» - Беатриче. В сцене, в которой она появляется, Данте также использует латинский язык. Во II главе поэт описывает, какое воздействие оказало на него появление Беатриче. Латынь и здесь выполняет ту же функцию, что и явление Амора, подчеркивает торжественность сцены появления его возлюбленной.

Esse deus fortior me, qui veniens dominabitur michi. [Dante Alighieri, 1932, p. 1] *Вот бог сильнее, чем я, который будет господствовать надо мной своим приходом.* Ecco un dio più forte di me, che mi dominerà col suo arrivo (итал).

Apparuit iam beatitudo vestra [Dante Alighieri, 1932, p. 1] - Вот явилось ваше блаженство. - Ecco che è apparsa la vostra beatitudine (итал).

В «Божественной комедии» также есть образ Беатриче, которая сменяет Вергилия в качестве проводника и сопровождает Данте в Раю. При ее описании Данте использует народный язык (volgare):

«Quando Beatrice in sul sinistro fianco
Vidi rivolta e riguardar nel sole:
guglia sì non li s'affisse unquanco». [Dante Alighieri, 1965, p. 322]

«Когда, налево обратясь лицом,

Вонзилась в солнце Беатриче взором;

Так не почитет орлий взгляд на нем». [Данте Алигьери, 1982, с. 464]

Помимо Беатриче, тема любви проявляется и в ситуации с Паоло и Франческой:

Amor, ch'a nullo amato amar perdona (итал) - Любовь, любить велящая любимым. Это один из самых известных стихов комедии Данте, посвященный Паоло и Франческе, двум влюбленным.

«Amor, ch'a nullo amato amar perdona,

mi prese del costui piacer sì forte,

che, come vedi, ancor non m'abbandona». [Dante Alighieri, 1965, p.28]

«Любовь, любить велящая любимым,

Меня к нему так властно привлекла,

Что этот плен ты видишь нерушимым». [Данте Алигьери, 1982, с. 46]

Афоризм Amor, ch'a nullo amato amar perdona означает, что любовь не позволяет ни одному любимому человеку не ответить на это чувство, любовь велит всем любимым любить. Он является интерпретацией фразы из трактата о любви Андреа Каппеллано «De amore», написанного в конце XII века на классическом латинском языке. В этом трактате автор пишет о нормах и канонах любви, перечисляет ряд правил, касающихся ее. Одно из них гласит:

Amor nihil posset amori denegare (лат.) - «Любовь не может отказать любви ни в чём». - Amore non può negare nulla all'amore (итал). Данте использует значение данной латинской фразы, интерпретируя ее в Amor, ch'a nullo amato amar perdona (итал), впоследствии ставшей известным афоризмом.

В ситуациях, связанных с проводником Вергилием, Данте подчеркнуто цитирует латынь:

Lasciate ogni speranza, o voi ch'entrate - Оставь надежду,

всяк сюда входящий. *Desine sperare qui hic intras* (лат.) - это заключительная фраза надписи, которая размещена над воротами Ада в «Божественной комедии»:

*«Dinanzi a me non fuor cose create
se non etterne, e io eterno duro.*

Lasciate ogne speranza, voi ch'intrate». [Dante Alighieri, 1965, p.14]

*«Древней меня лишь вечные созданыя,
И с вечностью пребуду наравне.*

Входящие, оставьте упования». [Данте Алигьери, 1982, с. 28]

Данте подчеркивает при помощи данного афоризма направленность путешествия с Вергилием и тему вечности. Как считает В. Я. Брюсов, «автор, очень предусмотрительно и тонко, не влагает в уста Вергилия никаких ободрений: герой поэмы должен быть человеком, отважимся на великий подвиг». [В. Я. Брюсов, 1971, с. 230] Ворота Ада символизируют границу, пересекая которую, можно войти к мученьям. Там на каждом шагу ждали опасности, угрозы, ужас.

Афоризм Данте *Lasciate ogne speranza, voi ch'intrate* «Оставь надежду, всяк сюда входящий» стали афоризмом, который также встречается у других писателей и поэтов. Смысл этой фразы заключается в том, что все души, не покаявшиеся в своих грехах, прежде чем умереть на Земле, должны будут оставить всякую надежду на то, чтоб увидеть Бога или отправиться покаяться в чистилище.

Продолжая тему вечности, Данте создает образ Манфреди ди Зевеия, который был помещен в Предчистилище. Несмотря на отлучение от церкви, он покался на смертном одре и, обращаясь к своим останкам, говорит:

*«L'ossa del corpo mio sarieno ancora...
...Or le bagna la pioggia e move il vento
Di fuor dal regno, quasi lungo il Verde,*

Dov'ei le trasmutò a lume spento». [Dante Alighieri, 1965, p. 175]

*Мои останки были бы сохранны
...Теперь в изгнание брошены они*

Под дождь и ветер, там, где Верде льется,

Куда он снес их, погасив огни. [Данте Алигьери, 1982, с. 256]

Афоризм **Or le bagna la pioggia e move il vento** (итал) – «Теперь их омывает дождь и движет ветер» является интерпретацией 362-го стиха Шестой

книги «Энеиды» Вергилия, который гласит: «*Nunc me fluctus habet versantque in litore venti*» (лат.) - Теперь меня несут волны и накрывает ветер на пляже - «*Ora mi tiene l'onda e mi avvolgono i venti sulla spiaggia*» (итал.). Такими словами Палинур, душа, застрявшая у входа в Ад, описывает Энею состояние своих останков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Делая выводы, можно сказать, что заслуга Данте Алигьери заключается не только в переводе некоторых классических латинских афоризмов на итальянский язык, но и их интерпретации, в их использовании в определенных контекстах. В настоящее время многие латинские афоризмы, цитируемые им, приобретают большую значимость и используются в различных языках мира.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Dante Alighieri. *La Divina commedia*. – Milano: Gruppo Ugo Mursia Editore S. p. A., 1965. – 489 p.
2. Dante Alighieri. *Opere minori. Tomo I parte II. Convivio*. A cura di Cesare Vasoli e Domenico De Robertis. - MilanoNapoli: Ricciardi, 1988. – 220 p.
3. Dante Alighieri. *Vita nuova. Edizione critica a cura di Michele Barbi*. - Firenze: Bemporad, 1932. – 65 p.
4. Singleton Ch. S. *An Essay on the «Vita Nuova»*. – Cambridge: Harvard University Press, 1958. – pp. 102-104
5. Singleton Ch. S. *The use of latin in the “Vita Nuova”*. // “Modern Language Notes”, vol. LXI, N 2. Febr. 1946. Baltimore - pp. 108-112
6. Umberto Eco. *Recitare Dante. // Il mio Dante*. - Torino: Giulio Einaudi editore s. p. a, 2008. – 5-11 p.
7. Брюсов В. Я. Данте – путешественник по загробью. // Дантовские чтения. Под общей редакцией Игоря Бэлзы. - М.: Издательство «Наука», 1971. – с. 229 - 233
8. Веселовский А.Н.. *Собрание сочинений. Серия II. Италия и Возрождение. Выпуск 1*. – СПб.: Тип. Имп. Академии наук, 1909. — Т. 4. — 611 с.
9. Горский И. К. Данте и некоторые вопросы исторического развития Италии в трудах и высказываниях А. Н. Веселовского. // Дантовские чтения. Под общей редакцией Игоря Бэлзы. - М.: Издательство «Наука», 1973. – с. 65-141
10. Данте Алигьери. *Божественная Комедия. Перевод М.Лозинского*. - М.: Издательство «Правда», 1982. – 887 с.

11. Елина Н. Г. Проза «Новой жизни». // Дантовские чтения. Под общей редакцией Игоря Бэлзы. - М.: Издательство «Наука», 1973. – с. 142-196
12. https://la.wikisource.org/wiki/De_Vulgari_Eloquentia

O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TASHKIL QILISH ASOSLARI

Maxsumova Risolat Qosimjon qizi

*O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi
rmakhsimova@gmail.com*

Annotatsiya: *Ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Maqolada shu xususdagi qarashlar va tadqiqotlar natijalari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Axborot erkinligi, matbaachilik, tahririyat, qonun hujjatlari, MChJ, ustav fondi, noshirlik, mulkdorlik huquqi.*

Аннотация: *Вопросы координации работы СМИ и издательств, укрепления материально-технической базы и кадровых ресурсов местных СМИ остаются актуальными. В статье обсуждаются взгляды и результаты исследований по этому поводу.*

Ключевые слова: *свобода информации, полиграфия, редакция, законодательство, ООО, уставный капитал, издательское дело, имущественные права.*

Abstract: *It is always important to coordinate the activities of the media and publishing houses, to strengthen the material and technical base, and human resources of local media. The article discusses the views and research findings in this regard.*

Keywords: *Freedom of information, printing, editorial, legislation, LLC, charter capital, publishing, property rights.*

KIRISH

Bugun jamiyatda demokratiyaga qanday amal qilayotganini axborot va so‘z erkinligi ta‘minlangani bilan baholanadi. Mamlakatimizda demokratik yangilashning bugungi bosqichidagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida axborot erkinligini ta‘minlash masalasiga e‘tibor berilayotganining ham boisi shundan.

Jurnalistika tarixiga nazar tashlar ekanmiz, jurnalist faoliyat erkinligining asosiy mezon sifatida matbuot erkinligi birinchi o‘rinda turganligiga guvoh bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ko‘plab davlatlarda milliy konstitutsiyalarning qabul qilinishi fuqarolarning huquq va erkinliklari tizimida axborotga bo‘lgan huquqining vujudga kelishiga va

mazkur institutning konstitutsiya qoi-dalari asosida mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida axborotga ega bo'lish huquqini kafolatlovchi norma mavjud bo'lib, unga ko'ra «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir».

Mazkur konstitutsiyaviy tamoyilga muvofiq, jamiyatning zarur axborotlardan xabardorligini ta'minlashga qaratilgan qator qonun hujjatlari va dasturlar qabul qilindi. «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» gi qonunlar shular jumlasidan.

Dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Jahon tajribasida OAV faoliyatini tashkil etish, yuritish, tugatish, umuman tizimdagi barcha hatti-harakatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari mavjud. Jumladan, O'zbekistonda ham ommaviy axborot vositalarini boshqaruv siyosatida mazkur qonun hujjatlari asosiy o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, noshirlik va matbaa faoliyatini rivojlantirish, so'z va axborot erkinligini ta'minlash borasida 10 dan ziyod qonun va 150 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilinib, sohada mustahkam huquqiy baza yaratildi.

Bugungi kunda yurtimizda 1991 yilga nisbatan ommaviy axborot vositalari qariyb 4 martaga, nashriyotlar 13 karra va matbaa korxonalarini 12 barobarga ko'payib, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati sezilarli darajada yaxshilandi.

MUHOKAMA

Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, bu tarmoqda miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, mamlakatimiz milliy media maydonida sog'lom raqobat muhiti, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini shakllantirish, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu haqda Davlatimiz rahbarining 2019 yil 6 avgustdagi "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida so'z yuritiladi¹⁷⁰.

¹⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 33-сон, 830-модда

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, matbuot va axborot sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va sohaga oid masalalarni hal etish vakolati berilgan O'zbekiston matbuot va axborot agentligi o'ziga yuklatilgan vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirmayotgani bois bozor munosabatlari sharoitida ommaviy axborot vositalariga uslubiy yordam ko'rsatish, ularning ishini prinsipial jihatdan kuzatish, baholash, tahlil qilib borish, zarur hollarda qo'llab-quvvatlash yoki iqtisodiy, huquqiy choralarni qo'llash kabi amaliy mexanizmlarning ta'siri deyarli sezilmadi.

Natijada ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar tomonidan o'zining nizom talablariga to'g'ri kelmaydigan, milliy qadriyatlarimizga zid, g'oyaviy hamda matbaa sifati past mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va matbaa korxonalarini ro'yxatga olish, noshirlik faoliyatini lisenziyalash hamda ularning faoliyatini monitoring qilish bo'yicha tegishli talabga amal qilinmayotganlik holati kuzatildi.

Shuning uchun so'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga doir qonunchilik ijrosini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari, noshirlik, matbaachilik va axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ommaviy axborot vositalari, noshirlik, matbaachilik va axborot-kutubxona faoliyatida qonun hujjatlari, davlat va tarmoq standartlariga rioya etilishi, so'z va axborot erkinligi kafolatlariga rioya etilishi borasida monitoring va nazoratni amalga oshirish choralari ko'rila boshladi. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ommaviy axborot vositalari uchun media bozorda teng sharoitlar yaratish bo'yicha zarur tadbirlar ishlab chiqish lozimligi oydinlashdi.

Birgina 2007 yil 15 yanvarda qayta tahrirdan chiqqan jami 40 moddadan iborat "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunda ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solish, tahririyatni tashkil etish, unda iqtisodiy menejment qonuniyatlari asosida boshqaruv siyosatini yuritish bo'yicha qator moddalar keltirilgan.

Qonun normalarida OAVning boshqaruv siyosati qat'iy qilib belgilab qo'yilgan. Jumladan, 8- moddada ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish huquqi yuridik va jismoniy shaxslarga berilgani aytiladi. 9-10-11-moddalarida muassis va tahririyat o'rtasida bajariladigan Ta'sis hujjati va ta'sis shartnomasi, tahririyat ustavi qanday bo'lishiga umumiy ta'rif beriladi.

12-13-14-moddalarda esa muassis va tahririyat o'rtasidagi shartnoma, muassisning huquq va majburiyatlari keltiriladi. Masalan, 15-moddada tahririyat faoliyatiga shunday ta'rif beriladi: "Tahririyat ommaviy axborot vositasining

chiqarilishini amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki jismoniy shaxsning tarkibiy bo'limidir. Tahririyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday shaklda tashkil etilishi mumkin. Tahririyat o'z kasb faoliyatida mustaqildir. U bosh muharrir va tahririyat xodimlaridan iborat. Tahririyat ommaviy axborot vositalari ro'yhatidan o'tganidan keyin o'z faoliyatini boshlashi mumkin"

Ommaviy axborot vositasini tarqatish bevosita tahririyat, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Bosma ommaviy axborot vositalari mahsulotini tarqatish ularga obunani tashkil etish, shuningdek chakana savdo tarmog'i orqali amalga oshiriladi. Ro'yhatdan o'tkazilgan davriy nashrlar adadini chakana savdo tarmog'i orqali shu jumladan qo'lda sotish nashrlar tahririyatlarining shtatdagi tarqatuvchilari tomonidan yoki savdo tarmog'iga ega bo'lgan yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qonun hujjatlariga belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

"Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida" gi qonunlar va boshqa bir qator qonunosti hujjatlari sohadagi hatti-harakatlarni tartibga soladi.

Ushbu huquqiy hujjatlar tahririyatlar faoliyatini tashkil etish va olib borishda amal qilinishi kerak bo'lgan huquq chegaralarini belgilab beradi. Tahririyat rahbaridan tortib eng kichik xodimgacha bo'lgan jamoa ularga amal qilishi shart. Normalarga rioya qilmaslik esa qonun oldida javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Quyidagilar ommaviy axborot vositalarining muassisi bo'lishi mumkin emas:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs;
- qasddan sodir etgani uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan yoxud sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs;
- faoliyati qonun bilan taqiqlangan nodavlat notijorat tashkiloti¹⁷¹.

Shuningdek, ustav fondida chet el investisiyalarining ulushi o'ttiz va undan ortiq foizni tashkil etgan yuridik shaxslar tomonidan ommaviy axborot vositalarini ta'xis qilishga yo'l qo'yilmaydi.

NATIJARLAR

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunda OAVlarning moliyaviy ta'minoti, uni yuritish tartibini belgilovchi norma ham nazarda tutilgan. Chunonchi,

¹⁷¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 3-сон, 20-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон)

15-modda ikkinchi qismiga muvofiq OAV tahririyati qonunchilikda belgilangan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi mumkin. Tahririyatning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash haqidagi qarorni yuridik shaxs sifatida mulk egasi qabul qiladi. Bosma OAV tahririyati yuridik shaxs maqomi bilan, xususiy korxonalar, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, unitar korxonalar, ochiq yoki yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, shuningdek, boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi va ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Xususiy korxonalar. Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonalar, deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir¹⁷².

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ). Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladi¹⁷³.

Aksiyadorlik jamiyati (AJ). Ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb e'tirof etiladi¹⁷⁴.

Unitar korxonalar. Mulkdor egasi tomonidan unga mulkdorlik huquqi berilmagan tijorat tashkiloti unitar korxonalar hisoblanadi. Unitar korxonalar mol-mulki bo'linmasdir va u ulushlarga (hissalar, pay) qarab taqsimlanishi (jumladan korxonalar xodimlari o'rtasida) mumkin emas.

Tahririyatning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash quyidagilarga bog'liq:

- biznesning turi va uning miqyosiga;
- bo'lg'usi ishbilarmon sheriklarning soniga, ular har birining ishtiroki va mas'uliyati darajasiga;
- tasarrufda mavjud mablag'lar va qonun bilan belgilangan ustav jamg'armasi miqdoriga;
- sheriklardan har birining ustav jamg'armasidagi ulushi miqdoriga;
- sanalgan yuridik shakllardan har birining xususiyatlariga.

¹⁷² Ўзбекистон Республикасининг «Хусусий корхона тўғрисида»ги қонуни. Тошкент ш.,2003 йил 11 декабрь,558-II-сон —<https://lex.uz/docs/53877>

¹⁷³ Ўзбекистон республикасининг “Масъулияти чекланган ҳамда қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги қонуни. Тошкент ш.,2001 йил 6 декабрь,310-II-сон — <https://www.lex.uz/acts/22525>

¹⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон

O‘zbekistonda bosma OAVlari tashkil qilish amaliyotida xususiy korxonalar, mas’uliyati cheklangan jamiyat va yopiq aksiyadorlik jamiyati kabi tashkiliy-huquqiy shakllar eng ko‘p qo‘llaniladi.

XULOSA

Bugun O‘zbekiston OAV ham zamonga moslashmoqda. Bir formatdan ikkinchisiga o‘tyapti. Bu o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan uning huquqiy asoslarini ham qaytadan ko‘rib chiqish lozimligini ko‘rsatadi.

«Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to‘g‘risida»gi qonun loyihasi ana shunday islohotlarning boshlanishi bo‘ldi. Unda ommaviy axborot vositalari mol-mulki, uning faoliyatini moliyalashtirish manbalari, tadbirkorlik faoliyati, tahririyat xodimini rag‘batlantirish kabi huquqiy me‘yorlar belgilanishi ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositasining ustav fondi, ustav faoliyatini amalga oshirish jarayonida olingan moddiy va nomoddiy aktivlar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromad va foyda, ommaviy axborot vositasining mol-mulkini shakllantirish manbalarining turlari ko‘rsatilishi mo‘ljallangan. Qolaversa, ommaviy axborot vositasining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq huquq va majburiyatlari belgilanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida uning ish samaradorligini oshirishda muhim asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007 yil, № 11, 589-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 12, 945-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 3-son, 20-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son)
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 33-son, 830-modda
5. O‘zbekiston respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh.,2001 yil 6 dekabr,310-II-son — <https://www.lex.uz/acts/22525>
6. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi qonuni. Toshkent sh.,2003 yil 11 dekabr,558–II-son —<https://lex.uz/docs/53877>

TASDIQ VA INKOR KATEGORIYALARINING NAMOYON BO‘LISHI XUSUSIDA

Shodmonaliyeva Yulduz Akramjon qizi

Termiz davlat universiteti lingvistika: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 1-kurs

Magistranti

+998936388116

Annotatsiya: Maqolada tasdiq va inkor kategoriyalarining xorij tilshunoslari va yurtimiz tilshunos olimlari tomonidan o‘rganilishi xususida so‘z boradi. Va tasdiq-inkor kategoriyalarining qay yo‘sinda namoyon bo‘lishi bir nechta misollar yordamida tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: Tasdiq kategoriyasi, inkor, UGM, logika, hukm, K.A. Anatolyevna

Аннотация: Статья посвящена изучению категорий утверждение и отрицание зарубежными лингвистами и отечественными учеными-лингвистами. И все проявления категорий утверждение-отрицание подвергались анализу на нескольких примерах.

Ключевые слова: Категория подтверждения, отрицание, UGM, логика, суждение, С.А. Анатольевна

Annotation: The article deals with the study of the categories of affirmation and denial by foreign linguists and linguists of our country. And the way in which the categories of affirmation and denial are expressed has been analyzed using several examples.

Keywords: Confirmation category, denial, UGM, logic, judgment, K.A. Anatolyevna

KIRISH

Inson o‘z hayotiy tajribalari, kuzatishlari natijasida jamiyat va tabiatda yuz beradigan hodisalarni, qonun-qoidalarni o‘rganib boradi. Kishi ongida aks etuvchi fikrlar hayotiy tajribalar asosida to‘plangan xulosalar bo‘lib, negativ xarakterdagi logik kategoriyaga xos hodisalardir. Negativ holdagi (reallashmagan) fikr pozitiv holatiga o‘tgach reallashadi. Boshqacha qilib aytganda, negativ fikr so‘zlovchi shaxsgagina ma’lum, tinglovchiga esa noma’lum bo‘lib, u pozitiv holatiga o‘tgach, tinglovchiga ham oydinlashadi. Pozitiv fikr tilda gap orqali reallashadi. Tasdiq-inkor kategoriyasi (qisq. TIK) kesimdan anglashilgan fikrning tasdiq yoki inkorini ifodalaydi. TIKning UGMsi “tasdiq, inkor ma’nolarini ifodalash bilan gap kesimni shakllantirishda ishtirok etish, uning hol valentligiga ta’sir qilish”dir.

1347

Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalashda nol shakl (tasdiq), -ma bo'lishsizlik shakli, emas, na yordamchi, yo'q mustaqil so'zlari (inkor) ishtirok etadi. Misollar: **Majlis yarim kechagacha cho'zildi** (O.Muxtor). **Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringunga qadar u amirning kelishiga ishonmagan edi** (Oybek). **Na xotin, na farzand ko'rmagan, kimsasiz bechora bir yigit** (Uyg'un). **Mening farzandim yo'q, gulbog'larim yo'q.** (S.Nur.)

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini TIKdan farqlash lozim. Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga xos va uning nokesimlik shaklidir. Bunda bo'lishsizlik shakli bo'lgan -ma ko'rsatkichining o'rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, -gan shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakllardek ko'p vazifali (polifunksional) dir. U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining UGMSidagi "gap kesimini shakllantirish" ma'nosini xususiylashtirganligi bilan bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko'p funksiyali lisoniy birliklar kabi – ma shakli ham birdan ortiq paradigmadan o'rin olishini ko'rsatadi.

Tasdiq va inkor kategoriyasiga doir falsafiy va mantiqiy qarashlar rus va amerika tilshunoslari tomonidan ancha keng yoritilgan. Va ularga keyinchalik filologik nuqtayi nazardan yondashish ham amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Maqolada tasdiq va inkor kategoriyalari xususida to'xtalib o'tilgan bo'lib, bunda bir nechta misollar orqali ular tarkibidagi leksik-semantik qarama-qarshilik xususiyatlari xususida so'z boradi. Jahon tilshunosligida tasdiq-inkor tadqiqiga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Adabiyot sifatida tasdiq va inkor kategoriyalarining lingvistik mohiyati bilan bog'liq bo'lgan ilmiy adabiyot, ilmiy maqola, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan. Ishimizda turli xil metodlar asos qilib olingan, xususan, tavsifiy metod va qiyoslash metodlari alohida o'rin egallagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rus tilshunosligida K.A. Anatolyevna tadqiqotining obykti tasdiq-inkorning tarkibiy-semantik kategoriyasi bo'lib, uning bevosita mavzusi ushbu toifaning gapning maqsadiga ko'ra ajratilgan har xil turdagi jumalarda ishlashidir[1].

Tasdiq-inkor kategoriyasi falsafa, mantiq va tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u voqelikning eng muhim xususiyatlari va tomonlari hamda uning bilish qonuniyatlarining aksidir. Bu tasdiq-inkor toifasini tilning eng

muhim toifalaridan biri sifatida tavsiflanadi. Ko'pgina tilshunos olimlar tasdiq-inkor kategoriyasini lingvistika(grammatika)dan alohida holda, ya'ni uni mantiq va falsafada o'rganishga urinib ko'rishgan. Va bu borada ancha-muncha ishlar qilingan. Strukturaviy va semantik yo'nalish sintaktik obyektlarni yaxlitligi, shakli va mazmuni birligida ko'rib chiqish bilan belgilanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy prinsiplariga ko'ra tasdiq-inkor kategoriyasi o'z tarkibiga va o'ziga xos lisoniy ifoda vositalariga ega bo'lgan tarkibiy-semantik kategoriya sifatida talqin etiladi. Ushbu kategoriyaning ko'p qirrali mohiyatini va uning mazmun tomonining ko'p qirraliligini tushunmasdan turib, lingvistik tasdiq-inkor mohiyatini bilish imkonsiz. Abstrakt grammatik ma'no turi sifatida tasdiq-inkor kategoriyasi predikativ yadro tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatni, subyekt-predikat munosabatlarining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini tavsiflaydi. Tasdiq-inkor kategoriyasi xususida rus tilshunosligida yana bir tilshunos olim S.B. Grigoryeva o'zining "Zamonaviy rus tilining sodda gaplarida tasdiq kategoriyasi" nomli ishida tasdiq kategoriyasining zamonaviy rus tilidagi sodda gaplarda falsafiy, lingvistik, mantiqiy, psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganishning asosiy yondashuvlarini ko'rsatib bergan[2].

O'zbek tilida inkor kategoriyasi haqida ba'zi bir ishlar qilingan. Bu ishlar inkorning grammatik xususiyatlari ifodalanishi va dialektal xarakter kabi masalalarga bag'ishlangan[3]. Inkor odatda til vositalari yordamida va ular ishtirokisiz ham ifoda etiladi. Shunga ko'ra inkor kategoriyasini lisoniy va nutqiy planda tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Logik tasdiq va inkor kategoriyalari gapda xabar berishning xarakterli xususiyatlaridandir [4]. Gapning asosiy belgilaridan biri bo'lgan hukm tasdiq yoki inkor yo'li bilan hosil qilinadi. Tasdiq va inkor fikrlar orasidagina bo'lmay, tushunchalar orasida ham mavjud. Boshqacha qilib aytganda, tasdiq va inkor gap doirasida ham, so'z semantikasida ham aks etadi. Lekin tushunchaga xos inkor gapda fikriy inkorni keltirib chiqarmaydi, gapning tasdiq mazmuniga ta'sir etmaydi. Masalan, **Aqlsiz kishgina shunday qilishi mumkin** gapida aqlsiz so'zining (inkor formaning) ishtiroki gapning tasdiq mazmuniga ta'sir etmaydi.

Hatto inkor munosabati hosil qiluvchi juftlarning (antonimlarning) har biri alohida gaplarning kesimi bo'lib kelganda har ikki gap ham tasdiq mazmunida bo'ladi (biri tasdiq, biri inkor emas). **"Darvin ta'limoti noto'g'ri", "Haqiqat shu qadar shirinki, totib ko'rging keladi. Shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi!"** (O'. Hoshimov) - tasdiq gap. Shunga ko'ra gapga xos tasdiq va inkor munosabatini tushunchalar orasidagi antonimik muposabat bilan ara lashtirmaslik kerak. Inkor kategoriyasi gapda kesim orqali shakllanadi. Uning kesimda namoyon bo'lishi butun

gapga xos bo‘lib, boshqa bo‘laklarda ifodalanishi o‘sha bo‘lakkagina xosdir. Ya’ni gapning kesimi inkor formada bo‘lsa, gapning o‘zi ham inkor mazmunida bo‘ladi. Boshqa bo‘laklardagi inkor formalar gapning tasdiq mazmuniga ta’sir etmaydi. “**Oyog’i yerdan uzilmaganlar odam bo‘lib qolgan**”. (O‘. Hoshimov) «Kesimdagi inkor mumiy bo‘lib, boshqa bo‘laklardagi inkor xususiydir»[5]. Qiyos qilaylik: “**Kiyik och qolmaslik uchun ko‘kat yeydi.**” (tasdiq gap). “**Ammo bir-birini o‘ldirmaydi**” — (inkor gap). Hukmga xos inkor odatda tasdiq gaplar zaminida lingvistik yoki nolingvistik vositalar yordamida hosil qilinadi. Tasdiqni ham turli xil vositalar bilan ifodalash mumkin. **Shaytonga hay bering, polvon, chiqing endi.** (T. Murod). Ushbu gapda tasdiq kategoriyasi ibora bilan ifodalangan.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, tasdiq til foydalanuvchilari o‘rtasida an’anaviy ravishda biron narsaga ijobiy munosabat, biror narsaga ruxsat, ijozat tarzida qabul qilinsa, inkor esa biror narsaga salbiy munosabatni anglatadi va bu kategoriyalar falsafa, mantiq va tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u voqelikning eng muhim xususiyatlari va tomonlarining aksi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Анатольевна К. А. Категория утверждения/отрицания в функциональных типах предложений в современном русском языке, диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.01, доктор филологических наук, 2011
2. Григорьева С.Б. Категория утверждения в простом предложении современного русского языка, УДК 81.367ББК 81.411.2-22Г 83
3. Нурмаханова А.Н. Тасдиқни билдирувчи дарак гаплар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. – №2. – Б. 52–57.
4. Rustamov T. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida inkor kategoriyasi. Kand. diss.— 1956; Jumanazarov Yu . O‘zbek tilining o‘g‘iz dialektnda inkor kategoriyasi. «O‘zbek tili va adabiyoti»
5. Peshkovskiy A. M. Russkiy sintaksis v nauchnom osvevde-pii, M ., 1963, s. 387,9
6. Мўминов К. Инкор категориясининг айрим стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. – №4, 27–30 б.
7. Нурманов А. Тасдиқ ва инкор конструкцияларининг сигнифинатив оппозициялари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. – №6, 28–31 б.
8. Худойберганова З. Инкор ва тасдиқ гапларда шаклий муносабат. Ўзбек ва турк тилларида содда гапнинг структур-функционал хусусиятлари II. – Тошкент: Фан, 2004. – 121 б.

9. Лутфуллаева Д.Э. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиклик: Филол.фан.ном....дис. – Тошкент, 1997. – 140 б.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY G‘OYA- MA’NAVIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Uralov Dilshodbek

*Samarqand veterinariya medisinasi institutining Toshkent filiali Yoshlar
masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun yoshlar tarbiyasida Milliy g‘oya, ma’naviyatning hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila va mahallaning ahamiyati haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyat, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, vatanparvarlik, erk, erkinlik, mafkuraviy jarayon.

Аннотация. В статье раскрывается роль национальной идеи, духовности, общенациональных и общечеловеческих ценностей в воспитании современной молодежи, роль семьи и общества в воспитании молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова. Духовность, воспитание молодежи, национальные ценности, духовные ценности, национальная идея, патриотизм, свобода, идеологический процесс.

Abstract: The article reveals the role of the national idea, spirituality, national and universal values in the education of modern youth, the role of the family and society in the education of youth in the spirit of patriotism.

Keywords. Spirituality, education of youth, national values, spiritual values, national idea, patriotism, freedom, ideological process.

KIRISH

Mamlakatimizda ma’naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash masalasi har doim davlat siyosatining muhim bir bo‘g‘ini bo‘lib kelgan. Shu paytgacha bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu islohotlar bugungi davr talablari darajasida keng qamrovli emasligi hamda ba’zi sohalarda kamchiligi ko‘rinib qolayotganligi hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida shunday deb ta’kidlagan edi: “...yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”[1]. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Yurt kelajagi ham ma’nan, ham jismonan

barkamol bo'lgan yoshlar qo'lidadair. Shuning uchun ham bu boradagi sa'yi-harakatlarni yanada kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada yangi o'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy g'oya- ma'naviy qadriyatlarning o'rni obyektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'z davrida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: O'zbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shunday ekan, ayni paytda bu sohada yo'l qo'yilgan har qanday sustkashlik, kamchilik kelajakka berilgan zarbaga teng, deyish mumkin. Buning ustiga XXI asr vabosiga aylangan terrorizmning turli-tuman ko'rinishlari xuruj qilib turgan bir paytda ogohlik va hushyorlik, qat'iyatlilik va mardlik talab etiladi. So'nggi yillarda g'oyaviy dushmanlarimiz o'zlarining manfur niyatlarini amalga oshirish uchun eng zamonaviy telekommunikatsiya yutuqlaridan, jumladan, internet tarmog'idan ham foydalanishga harakat qilayapti. Shu sababli ma'naviyatimizda bo'shliq hosil bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov – bunday bo'shliq yuzaga kelgan taqdirda uni yoshlarning ilmga, kasb-hunarga, sog'lom turmush tarziga, bunyodkorlik ishlariga qiziqishlari bilan hamohang bo'lgan yangicha hayot mazmuni, yangicha qadriyatlar bilan to'ldirish lozimligini o'z davrida qayta-qayta uqtirib o'tgan edilar. Yoshlarni turli qing'ir yo'llarga kirib ketishdan, nomaqbul oqimlar ta'siriga tushib qolishdan qanday himoya qilish mumkin? Bolalik, inson hayotining nihoyatda mas'uliyatli davridir. Ana shu pallada yigit-qizlarning har jihatdan garmonal rivojlanishi kuzatiladi. Xalqaro til bilan aytganda, ularning qat'iy rivojlanish maqomi yuzaga keladi. Bu faslda ularning qalbi va ongi faol rivojlanib, dunyoqarashi shakllanadi, uning bosqichlari oila, bog'cha, mahalla, maktab, litsey, va oliy o'quv yurtida rivoj topadi. Biroq, ming afsuslar bo'lsinki, inson hayotining aynan shu bosqichida, ba'zan turli salbiy odatlarga, xususan, ichkilikbozlik va giyohvandlik domiga tushib qolishlari mumkinligi haqiqat! Xo'sh bunday holatlarda qanday chora-tadbirlarni qo'llash mumkin. Eng avvalo, ta'lim-tarbiya asoslarini puxta egallashlari, ommaviy axborot

vositalaridan unumli foydalanish, falsafiy-huquqiy qarashlar, adabiyot va san'at ahli hamda ijodkor ziyolilar faoliyatini yoshlar tarbiyasiga yanada ko'proq yo'naltirish lozim. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan insonlarni, kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak" [2],-degan so'zlarini eslash kifoyadir. Ma'lumki, yoshlar tarbiyasi hamma vaqt dolzarb vazifalardan biri bo'lib, muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi XXI asrga qadam qo'yganidan keyin bu masala yanada dolzarb, yanada muhim, hayot-mamot masalalaridan biriga aylanib qoldi. Men,- deb yozgan edi Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov, - Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdir"[3]. Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa, bu masalada bo'shliq (ma'naviy bo'shliq) paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bugungi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama – qarshiliklar va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, fohishabozlik, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" va shu kabi boshqa xavf – xatarlar tobora kuchayib, insoniyat ming yillar davomida amal qilib kelgan milliy, diniy va oilaviy qadriyatlar, e'tiqodlarga putur yetmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida, ayniqsa yoshlar tarbiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi. Yoshlarimiz tarbiyasi – bu bir kishining ishi emas. Agar hammamiz birgalashib harakat qilsak, yoshlarimiz Vatan va el – yurt koriga yaraydigan insonlar bo'lib ulg'ayadilar. Yaxshi tarbiya insonga ma'naviyat kabi ona suti, ota na'munasi va ajdodlar o'giti bilan birga singadi. "O'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butunjahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining haqiqiy jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas"[4].

Bugungi globallashtan zamonda yurtimizdagi barcha ota – onalar ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek sharaflil bir vazifani sidqidildan uddalay olayaptilarmi? Farzandi tarbiyasini maktab, mahalla, kollej, oliy o'quv yurti yoki

jamiyat zimmasiga tashlab qo‘yganlar ozmunchami oramizda? Yoki bo‘lmasa o‘g‘li – qizi taqdiri bilan qiziqmay, peshonasida borini ko‘radi, deb hayotdan nolib yuradiganlar yo‘qmi oramizda? Tarbiya “yo hayot, yo mamot”ligini anglamayotganlar-chi? Inson hech bir zamonda jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi yoki jinoyatchi bo‘lib qolmaydi. Avval jinoyatga undovchi omillar, turtkilar paydo bo‘la boshlaydi. Yurish-turish, hatti-harakat, gap-so‘zda o‘zgarishlar yuz beradi. Nahotki, ana shunday kezlarda ota-ona hech narsani sezmasa, payqamasa? Mana shu “sezmaslik”, “payqamaslik”, birinchi Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, ichimizdagi xavfdir. U tashqi xavfdan ko‘ra xatarliroqdir. Chunki odam dushmani nima qilishini oldindan sezib, unga qarshi himoya vositalari bilan qurollanib turadi. Ichki xavfning esa qachon va qaysi tomondan kelishi va natijada nimalar yuz berishini bilish amrimahol. Eng achinarlisi shuki, ichki xavf hamisha tashqi xavfning qurboni bo‘lib qolaveradi. Uning yo‘rig‘iga yuradi, topshirig‘ini bajaradi, buning domiga tushib qolgan yoshlar esa, o‘z ota-onasi va yurtiga xiyonat qiladi. Farzandi tarbiyasi bilan shug‘ullanmagan ota-ona uni ko‘chaga berib qo‘yadi. Shuning uchun ham tarbiya oiladan boshlanishini sira ham unitmasligimiz kerak. Yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – mustaqillik yillarida yaratilgan milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash va bardavomligini ta‘minlashda faol ishtirok etadigan avlodni voyaga yetkazishdir. Zero, jahon hamjamiyatida tobora munosib o‘rnini topayotgan, barcha sohalarda barqaror taraqqiy etayotgan O‘zbekistonimiz o‘z istiqbolini hozirgi davr voqeligini to‘g‘ri anglaydigan yetuk avlodlar timsolida ko‘radi. Darhaqiqat, 1991 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari” to‘g‘risidagi qonunda, 2017 yil 15 sentyabrda e‘lon qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risi”dagi qonunda va 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab – quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonda ham ana shu ezgu maqsadlar ko‘zlangan bo‘lib, unda yoshlar siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Jumladan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining yettinchi ustuvor yo‘nalishida shunday deyiladi: -“yoshlarni, ayniqsa, ular uyushmagan qismining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga, ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga keng jalb etish yoshlarga oid faoliyatni tashkil etishda g‘oyaviy – uslubiy jihatdan ko‘mak beradi”[5]. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 67 foizini yoshlar tashkil etadi. Mehnatga jalb etilgan aholining asosiy qismi yoshlardir. Kelajakda bu ko‘rsatkichlar yanada ortib boradi. Yoshlarga xos bo‘lgan ijtimoiy

xususiyatlar – ularning dunyoqarashi, bilim doirasi, mutaxassislik darajasi, ma’naviyati, insoniy fazilatlarini, jamiyatning umumiy darajasi va taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi, shubhasiz. Ma’naviyatli xalqning madaniyati yuksalgan, istiqboli porloq bo‘lishiga shak-shubha yo‘q, albatta. Bu jihatdan o‘zbek xalqi o‘zining boy merosi, milliy va diniy qadriyatlari bilan har tomonlama faxrlansa arziydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning porloq kelajagini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli siyosatidan, yaratilayotgan keng imkoniyatlardan, samarali islohotlardan foydalangan holda yurtimiz yoshlari barkamol avlod sifatida, har bir o‘g‘il-qiz avvalo, chet tilini mukammal bilishi, kompyuter sohalarini chuqur o‘rganishlari, internetdan foydalana olishi, milliy va diniy qadriyatlarga amal qilishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari, fidoyi Yurt farzandi bo‘lishlari lozim. Bunday yoshlar yurtimiz tinchligini, osoyishtaligini ta’minlay oladigan insonlar bo‘lib, istiqbolni belgilashadi. Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, oldimizda turgan katta-katta muammolarni yechish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyiliga amal qilib yashashdek muhim vazifalarni yoshlarimiz o‘zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e’tiborga sazovordir. Barkamol yoshlarni tarbiyalashdek porloq niyatimiz uchun bizda ma’naviy asos bor. Mana shu ma’naviy meroslardan unumli foydalangan holda, o‘zbek yoshlari har qanday sohada yurtimizni dunyo tan oladigan Yurt sifatida himoya qilishlariga hamda har doim “O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmasligi”ga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 – son farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Toshkent shahri, 2017 yil 5 iyul.
3. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari” to‘g‘risidagi qonun. 1991 yil.
4. Karimov. I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T.: “O‘zbekiston”, 1998, 17 – bet.

HURMAT KATEGORIYASINING INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Kadirova Marguba Bo'riyevna

O'qituvchi

Jahon tillari va adabiyoti kafedrası

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hurmat kategoriyasining ingliz va o'zbek tilida lingvopoetik xususiyatlari muhokama etilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida hurmat kategoriyasini tahlil etishda, ushbu tillarda mavjud, murakkab jarayon hisoblanmish hurmat kategoriyasining mavjud yoki mavjud emasligi, uning o'rni, tarjima hodisasi, shuningdek, muloqot obykti ekanligini tahlil qilib o'rganish ifodalangan.

Kalit so'zlar: hurmat, lingvopoetika, tilshunoslik, fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika, badiiy nutq, badiiy asar.

LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF HONOR CATEGORY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Kadirova Marguba Burievna

Teacher

Department of World Languages and Literature

Uzbek State Institute of Arts and Culture

Annotation: This article discusses the linguopoetic features of the category of respect in English and Uzbek. The analysis of the category of respect in English and Uzbek also includes the study of the presence or absence of the category of respect in these languages, which is a complex process, its place, the phenomenon of translation, as well as the object of communication.

Key words: respect, linguopoetics, linguistics, phonopoetics, lexopoetics, syntactic poetics, artistic speech, artistic novel.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi

istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos holda o'rganish barchamiz uchun zarurdir.

Biron tilning so'z tarkibi hali u tilning to'liq tarkibini belgilab bermaydi. O'zlashgan so'zlar mazkur tilda qurilish manbasi singari aks etadi. Tilda ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'siri -muloqotni ifodalaydi. Muloqot odobi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos qadriyat, urf-odatlarini, va an'alarini hisobga olmasdan turib, o'rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda hurmat kategoriyasining o'z o'rnini bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til jamiyatda ijtimoiy harakterga ega va u kishilarning ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan o'zaro aloqa bog'lash, fikr almashishga xizmat qiluvchi vositadir. Shuningdek, u millatning ma'naviy qiyofasini ham o'zligini ifoda etuvchi muhim ramzlardan biri, insoniyat tafakkurining bebaho ko'zgusi hamdir.

Tilshunoslikda lingvopoetika konsepti mavjud bo'lib, u tilshunoslik va adabiyotshunoslik oralig'ida shakllangan soha hisoblanadi. Lingvopoetikaning boshqa sohalaridan farqi shundaki, uning manbai badiiy asarlar hisoblanadi. Adabiyotni til jihatidan o'rganiladi. Lingvopoetika badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Badiiy til keng qamrovli obyekt sifatida funksional darajalangan qismlarga fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega. Ammo, amalda ushbu obyektning fragmentlarini badiiy nutq tahliliga beriladi. Demak, badiiy nutq keng tushuncha bo'lib badiiy asar tili badiiy nutqning bir ko'rinishidir. U tilning ekspressiv vazifasini o'z ichiga olgani uchun til sistemasining barcha sath birliklarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, lingvopoetika fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo'linadi. Lingvopoetikaning vazifasi ushbu sohalarni alohida o'rganib, ularning o'zaro munosabatini yoritib berishdir.

Lingvopoetika tushunchasini o'rganar ekanmiz, "lingvo" lotin tilida lingua- til va poetika yunoncha "poietike" — poetik san'at ya'ni lingvopoetika tilning poetik san'ati ma'nosini ifodalaydi.

Hurmat kategoriyasini turli sohada quyidagi tadqiqotchilar turli yo'nalishlarda badiiy asarlarni tahlil etib o'rganishgan: Imamova X.K., Hojiyeva H., G'ulomov A. va boshqalar.

Olimlar humar kategoriyasiga quyidagi ta'rif berganlar:

Hurmatni axloqiy fikrlashning elementi deb hisoblash mumkin. (Graham).

Hurmat kosmosda joylashgan obyekt kabi tasvirlanadi. Ingliz tilida u xuddi vertikal o'qda "yuqoriga" va gorizonttal o'qlarda "o'ngda" bo'lganidek tasvirlanadi.(Richardson)

Hurmat, biz xohlasak ham, xohlamasak ham, biz xizmatdan bosh torta olmaymiz; biz uni namoyon qilmasligimiz mumkin, lekin ichkarida biz buni his qila olmaymiz. - I. Kant

Hurmat kategoriyasi bugungi kunda ingliz va o'zbek tillari badiiy asarlarda tahlil etilmagan. Hurmat tushunchasiga to'xtalib o'tar ekanmzi, ushbu tushuncha bolalikdan boshlab, hurmatli va e'tiborli insonlarni rivojlantirish maqsadida vujudga keladi, ular o'rnak ko'rsatib, odamlarga qanday munosabatda bo'lishni xohlasalar, shunday tutishadi.

O'zbek xalqi hurmat jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri deb hisoblashadi, chunki bu odamlarga birgalikda totuvlikda yashashga imkon beradi. Hurmat - boshqalarning farqlarini madaniy, diniy va mafkuraviy qabul qilish va odamlarni o'zlari uchun qadrlash demakdir. O'zbek xalqi kattalrga hurmat, kichiklarga izzat naqliga amal qilishadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek tilida har doim so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida baholash o'zaro hurmat va izzat shakllarini ifodalaydigan so'zlar ishlatiladi. So'zlovchining yoshi katta yoki tinglovchining yoshi kichik bo'lsa, unga "siz"(Yaxshimisiz?, ko'rinmaysiz?) deb murojaat etiladi. Yoki murojaat etilayotganda so'zga "-lar" (dadamlar, akamlar, oyimlar) affiks qo'shimcha qo'shib murojaat etiladi. Ya'ni hurmat kategoriyasi ma'nosini ifodalovchi so'z tanlanadi. Kichik va kattalarga murojaat etganda hurmat va erkalash ma'nosida -xon,-jon,-bek,-boy, -oy, xo'ja,-bonu singari kishi nomlari ko'rsatkichlari ismlarda qo'llaniladi.

Shuningdek, "*Kelingizlar*" so'zidagi *-ingiz* – hurmatni bildiradi, *-lar* esa ko'plikni ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida *siz* aslida tinglovchi ko'pligidir. Biroq yoshi, martabasi ulug', hurmati bor kishilarga ham *siz* deb murojaat qilinadi. Tilimizda "sizlab gapir", "senlab gapir" degan iboralar ham bor. Birinchisi hurmatni, keyingisi esa yaqinlikni, yosh va darajasi quyi kishilarga bo'lgan murojaatni, kerak

bo'lganda salbiy ohangda hurmatsizlikni, hatto mensimay so'zlashni ham bildiradi. Yuqoridagi misolda *dadamlar, oyimlar* deganda ko'plikni emas, ularga bo'lgan hurmatni ifodalangan. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo'shimcha qo'shib so'zlanadi. Masalan: *Dadajon, ovqatingizni yeb oling* gapini olaylik. *Ovqat* so'zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi - *ingiz* qo'shimchasini qo'shib *ovqatingiz* deyiladi. Keyingi *yeb oling*- fe'li ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida.

Ko'plik shakli hurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshg'ariy ham ta'kidlagan edi. Uning yozishicha, turklar sen so'zini kichiklarga, xizmatchilarga hamda so'zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo'lgan kishilarga nisbatan qo'llaganlar. O'zlaridan yuqori hurmatli kishilarni *siz* deganlar. O'g'uzlar esa, aksincha, kattalarga *sen*, kichiklarga *siz* deb qo'llaydilar. Ko'plikda ham shuni ishlatganlar

Ingliz tilida hurmat quyidagicha ifodalanadi:

Ism bilan murojaat qilayotganda, inglizlarning familiyasini tegishli nom bilan chaqirish hurmatni ifodalaydi. Agar ismini bilmasa, janob yoki xonim deb murojaat etish hurmat m'nosini ifodalaydi. Bundan tashqari ingliz xalqi madaniyatida hurmat qadrlanadigan muhim tushuncha bo'lib xizmat qiladi. Izzat va ehtiromdan tashqari, hurmat axloqiy qadriyat sifatida qaraladi, mahalliy aholini o'z madaniyati to'g'risida o'rgatadi. Ushbu axloqiy qadriyat jamiyatdagi ishtirokga ta'sir ko'rsatadigan va shaxslarning rivojlanishi va o'z madaniyati jamiyatiga qo'shilishida yordam beradigan jarayon sifatida qaraladi. Hurmatning qadr-qimmatini bolalik davrida o'rgatiladi, chunki mahalliy bolalarni o'z jamoalariga qatnashishi va ularni o'rganish jarayoni madaniyatning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, ingliz tilida hurmatni ifodalovchi qo'shimchalar yo'q lekin ular quyidagi ibora va so'zlardan foydalanishadi:

Qila olasizmi? (Can you.....?), Menchiman (I would like....) Siz qarshi emasmisiz? (Would you mind...?) (May/Could I...) maylimi? Mumkinmi va boshqalar.

Badiiy asarlarda hurmat kategoriyasini tahlil etar ekanmiz. Yozuvchi Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediya asarida quyidagicha hurmat kategoriyasi ifodalangan:

a) **F a r m o n.** Mana shular mening o'g'illarim

O' g' i l l a r. Assalomu alaykum!

F a r m o n. Hammasi meni hurmat qilishadi. Hozir so'rayman. Bolajonlarim!

O'g'illalar. (qo'llarini ko'ksiga qo'yib). Labbay, oyijon?

Ushbu asar parchasida o'g'illarning monologi hurmat kategoriyasini ifodalagan.

b) Nigora: Mulla akalar, men oyimni juda yaxshi ko'rib qoldim. U kishi juda ajoyib odam ekanlar. Hech kim o'z aybini bilmaydi, deganlaridek, oyimlar o'z ayblarini o'zlari bilmayaptilar.

Ushbu misolda so'zlarga qo'shilgan -lar affiksi hurmat kategoriyasini ifodalagan.

c) Ota esa ularni erkalab bag'riga bosadi. Yana dasturxon boshida hammasi jamuljam o'tirishadi. Ota bolalariga tikiladi. *Uning ko'zlariga hech kim tik qaramaydi.* U uzoq xayollarga cho'madi...

O'zbek xalqi madaniyatida ota-onaning ko'ziga tik boqmaslik, ota-onadan oldin gapirmaslik va ulardan oldin qaysidur ishni ruxsatsiz bajarmaslik hurmat ma'nosini ifodalaydi.

Ingliz asarlaridan Jane Austen asarini tahlil etar ekanmiz ushbu asardagi quyidagi parchada hurmat kategoriyasi ma'nosida savollar so'ralgan.

a) *"Can you possibly guess, Lizzy, who is meant by this?" "This young gentleman is blessed, in a peculiar way, with everything the heart of mortal can most desire, --splendid property, noble kindred, and extensive patronage.*

b) *Can you yourself, Lizzy, so wholly give him up, as to believe him capable of it?" "Not, perhaps, of neglecting his own interest; but of every other neglect, I can believe him capable.*

c) *"How could you begin?" said she. "*

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqi so'zlashuv xulqi, muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Yuqorida ko'rib chiqqan asar tahlillaridan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqi ham kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga juda katta ahamiyat berishadi. Ingliz xalq madaniyatida hurmat etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Hurmat kategoriyasi qonun-qoida sifatida qo'llaniladi. Hurmat kategoriyasi fikrni lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo'lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy go'zallik, o'ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda. Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Graham J., Haidt J., Koleva S., Motyl M., Iyer R., Wojcik S. Axloqiy asoslar nazariyasi: axloqiy plyuralizmning pragmatik asoslari. 2013.
2. Richardson D. S, Spivey M. J., Edelman S., Neapol A. D. Til fazoviy: aniq va mavhum fe'llarning tasviriy sxemalari uchun eksperimental dalillar.2001.
3. Zulfiyeva Y.-lar affiksining so'z tarkibidagi qo'llanish xususiyatlari// O'zbek tili va adabiyoti. –T.: 1972. 5 –son.
4. Zikrillayev G'.Fe'lning shaxs,son va hurmat kategoriyalari sistemasi.- Toshkent:Fan,1990 -163b.
5. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov). T. I-II-III. –T.: Fan, 1960-1963. I. –B. 326.
6. Said Akhmad. “Kelinlar qo'zg'oloni”.1970.
7. Shodiyor Hazrat Ismat. “Hol”hikoyasi
8. Jane Austen. Pride and Prejudice. 1813

FUNCTIONAL FEATURES OF OIL AND GAS TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE

*Mamanazarova Gulhayo Ilhamjanovna,
Master's student in linguistics (English), 2nd year,
Uzbek State University of World Languages
Scientific advisor, DSc Paluanova Halifa Daribayevna
Doctor of Philological Sciences
Uzbek State University of World Languages*

Abstract: *The article is based on the issues about some functional aspects of oil and gas terminologies. There are some special features of terminology in word order. While analyzing the function of terms we paid attention to the meaning of a word and what function of this word can do in word order. The oil and gas industry as an area of scientific knowledge over the past hundred years has allowed modern civilization to develop at an accelerating pace. The positive dynamics of the historical development of the oil and gas industry, as well as its role and significance for the life support of a modern person, the industry terminology designed to terminate the expanding conceptual apparatus of this area of scientific knowledge.*

Key words: *Oil and gas terms, function, word, word order, instructions, oil product, world oil market.*

Аннотация: *Статья основана на рассмотрении некоторых функциональных аспектов нефтегазовой терминологии. В порядке слов есть некоторые особенности терминологии. Анализируя функцию терминов, мы обратили внимание на значение слова и на то, какую функцию это слово может выполнять в порядке слов. Нефтегазовая промышленность как область научных знаний за последние сто лет позволила современной цивилизации развиваться ускоренными темпами. Положительная динамика исторического развития нефтегазовой отрасли, а также ее роль и значение для жизнеобеспечения современного человека, отраслевая терминология призвана положить конец расширяющемуся понятийному аппарату этой области научных знаний.*

Ключевые слова: *нефтегазовые термины, функция, слово, порядок слов, инструкции, нефтепродукт, мировой рынок нефти.*

INTRODUCTION

Oil and gas terms found that functional features defining a technical result were permissible in a claim if, from an objective viewpoint, such features could not otherwise be defined more precisely without restricting the scope of the invention,

and if these features provided instructions which were sufficiently clear for the expert to reduce them to practice without undue burden, if necessary with reasonable experiments. The board further pointed out that the effort to define a feature in functional terms had to stop short where it jeopardized the clarity of a claim as required by term, the state of the art does not stand in the way of using such functional and therefore general and broad terminology.

METHODS AND DISCUSSIONS

Oil and gas terminology distinguished between two types of functional feature: the first type of functional feature is related to process steps which are known to the man skilled in the oil and gas industry and may easily be performed in order to obtain the desired result; the second type of functional feature consists of process steps defined by the result which is aimed at. This is also allowable as long as the man skilled in the terms knows, without exceeding his normal skills and knowledge, what he has to do in order to obtain said result.

Example: *Use of oil in transport - half the world oil market and most of its expected growth is being reduced by competition from other industry.*¹⁷⁵

On the first step we have discussed about the structure of a word, next queue was semantic peculiarities of terms which belong to oil and gas terminology. At least it is turn to make specific work on terms' function in the discourse or utterance. Any term can come as subject, object, predicate, adverb and other part of speech.

A claim may broadly define a feature in terms of its function, i.e. as a functional feature, even where only one example of the feature has been given in the description, if the skilled reader would appreciate that other means could be used for the same function. For example, "terminal position detecting means" in a claim might be supported by a single example comprising a limit switch, it being evident to the skilled person that e.g. a photoelectric cell or a strain gauge could be used instead. In general, however, if the entire contents of the application are such as to convey the impression that a function is to be carried out in a particular way, with no intimation that alternative means are envisaged, and a claim is formulated in such a way as to embrace other means, or all means, of performing the function, then objection arises. Furthermore, it may not be sufficient if the description merely states in vague terms that other means may be adopted, if it is not reasonably clear what they might be or how they might be used.

¹⁷⁵ John Mitchel, "What next for the oil and industry". 2012, Chatham house, pp,7-8

It is clearly shown by the sentence that the word “oil” is represented as a determinant of the subject, at the first side the reader can catch that the word “oil” is the component of subject however in English and Uzbek languages there are head (hokim) and modifier (tobe) constitutes in word group (so’z birikmasi). But they specify any function in a sentence. In this example the term “oil” is the part of the subject, it means that the oil term is defined as subject function in the sample. The second compound word “world oil market” is another subject in the sentence. So this means that when the term comes as the component of the compound word it has another meaning by the context you can easily clarify what kind of meaning is used to make a sentence. In Uzbek language has the same grammatical features. If we take the same example: *Neftning transport soxasida ishlatilishi – yarim dunyo neft bozorlari va bu bozorda neft savdosini asosiy qismi, boshqa sanoat hom ashyolari raqobati sabali kamaytirilib borilmoqda.* In this example “oil” (neft) comes as object of participle (sifatdosh), in Uzbek language the participle identify the verb’s component, it means that sometimes the participle of verbal adverb can function as the subject of the sentence. In the former part of the sentence “dunyo neft bozori” (world oil market) is also the subject, but the word “neft” (oil) is adjective of the noun. The noun is “bozor” (market) and the word which is clarify the noun is called the adjective. It means that in both languages there are some criteria to analyze the order of the sentence.

*The vehicle industry is replacing oil with more efficient vehicles, and biofuels are replacing oil products as liquid fuels.*¹⁷⁶ In this example “oil” is the object of the verb. It means that it is the part of the predicate. The term “oil” confirms the verb as determinant (aniqlovchi) and the verb is itself determinatum (aniqlanmish). The letter part is clearly analyzed and in the other part of the sentence, you can see that “oil product” is not a compound word it is word group which two component has their own meaning and can be answered different questions, so that means, each parts of a word belongs to one part of speech and keeps the independent meaning. “oil” is the adjective of a noun, “product” is noun itself. However, these adjective and noun come as the function of object. We know that there are direct and indirect objects by their function. In this very sentence it is shown that direct object determines the predicate.

¹⁷⁶ Jacqueline Noga, “The oil and gas discourse from the perspective of the Canadian and Albertan governments, non-governmental organization and the oil and gas industry”, Energy-2014, pp. 316-317

Transport sanoatida, neft o'z o'rnini boshqa ko'proq samarali vositalarga bo'shatib bermoqda, bioyoqilg'i esa neft maxsulotlarini, suyuq yoqilg'i sifatidagi o'rnini egallamoqda. This is the same example which we have just analyzed in English. However the research shows that, there are some different investigations in Uzbek example. The sample is illustrated with the term “oil” (neft), and the word is the noun in Uzbek instance, it means that “oil” is the subject in the word order, it is active as the main function. In the second part of the sentence there is the utilization of the term “oil products” (neft maxsulotlari) comes as direct object of the utterance, the predicate is always provided with the direct object as participle.

RESULTS AND ANALYSIS

A claim combining functional definitions limited to features, which a skilled person would have no difficulty in determining on the basis of common general knowledge, and a structural definition of the essential contribution of the applicant is not objectionable under oil and gas terminology.

In this example the board emphasized with regard to technical features expressed in general functional terms that the function must be able to be verified by tests or procedures adequately specified in the description or known to the skilled person. That meant not only that a feature in the claim must be comprehensible, but also non-ambiguous in that it could be determined without any ambiguity whether the claimed functional requirement was satisfied or not. Hence, means of distinction were mandatory in order to allow a definition by a function instead of by a structure in a claim.

*In the power sector (which now consumes about 40% of world gas production) the market for gas depends on government policies for coal, nuclear and renewables rather than on factors intrinsic to the gas industry.*¹⁷⁷ Let's analyze this sentence which is supported with the full oil and gas terminologies, even the terms which is not terms are coming as the part of defining the main meaning of other terms. “The market for gas depends on government” is the part which we are going to verify, in this sample the word “gas” clarifies as adverbial modifier of cause and reason. We can define that the markets which is based with gas belongs to government. There is the question. What market are they? What is the reason for making such markets? What is the cause to build and support such markets? The answer is shown “for gas” and you can easily find that this part of the sentence is the adverbial modifier of the

¹⁷⁷ Havard Devold “Oil and gas production handbook An Introduction to oil and gas production, transport, refining and petrochemical industry” ABB-2012, pp 38-39

reason. “On factor intrinsic to the gas industry”, this is the adverbial modifier of purpose. It is clearly understandable by the meaning of the sentence. For what purpose do they build? What is the goal? This is easy to determine that part of the sentence is clarified as adverbial modifier of purpose.

In Uzbek this sample is translated as “*Kuchli soxada (hozirda 40% gaz maxsulotlari bilan dunyo bozorlarini ta’minlayotgan), gazga ixtisoslashgan do’konlar davlat tasarrufida bo’lib ko’mir uchun moslashtirilgan, gaz sanoati tabiatning bir omili sifatida yadroviy va yangilanayorgan moyildir*” this is the sentence which we analyzed in previous paragraph. You can see that there are some similarities in both language function of usage. In this Uzbek models the same function do “gas terms” identify. In both languages both part of the sentence which gas is the main term of them is similar. At the letter part it is realized that adverbial modifier of reason in the former part the word gas comes as the modifier of purpose. As we know that all types of modifier clause help to define the predicate not subject.

*Rural areas have been gasified since 1971 when it was normally gaseous from the well but condense out as liquid during the production periods.*¹⁷⁸ In this sample the word “gasify” comes as predicate of the sentence, in past form, it is the transitive verb which is used in active voice, it keeps the present continuous tense and by reading the sentence the reader easily catch the idea. The word “gasify” means “to convert into gas”, when it comes as transitive verb, however due to grammatical features we have another type of verb, it is called intransitive verb. And when the term “Igasify” comes as intransitive word it clarify the idea of “to become gaseous”, in this very instance you can see that the notion “gasify” defines as intransitive verb. The second gas term is “normally gaseous” it is gerund (ravishdosh) and it helps to identify the predicate function in the sentence. In this example “normally” is the adjective of the “gaseous”, but the real word gaseous is also adjective, so can we know that which word is adjective and determines the main meaning and which one is determinatum. In this sample the word “normally” is adverb and the gaseous is determined by the help of adverb.

1971 yildan buyon qishloq joylar gazlashtirilmoqda, bu quduqlardan odatiy gazlashtirish edi, lekin suyuqlikday suyuqlashtirish ishlab chiqarish jarayonida amalga oshadi. This is the Uzbek version of the sample and you can see that there are some similarities within using the same term in both languages. The term “gasify”

¹⁷⁸ Jacqueline Noga, “The oil and gas discourse from the perspective of the Canadian and Albertan governments, non-governmental organization and the oil and gas industry”, Energy-2014, pp. 321-322

(gazlashtirilmogda) is the predicate in this sentence, however in Uzbek language there are only three tenses at all. Due to translating the utterance into Uzbek you can see that the tense has been changed and it is present tense in Uzbek sample. Second usage of the term is “normally gaseous” (odatiy gazlashtirilgan edi) this example also shows that past tense is used while defining present action. The term “odatiy” (normally) is adjective but in this sentence it comes as adverb as English sample, “gaseous” (gazlashtirilgan edi) is not predicate in English version however in Uzbek language it is the predicate which determine what happened while action is going.

In term it was stated that a functional feature was allowable if that feature provided a clear instruction to a skilled person to reduce it to practice without undue burden. In the feature "being present in amounts and proportions just sufficient to arrest bleeding" was held to be a functional feature which defined a technical result which also constituted a testable criterion to be satisfied by the claimed pharmaceutical composition. Because such testing involved only routine trials, the adopted functional language was allowable. The introduction of a reference to specific amounts and/or proportions of the components would limit the claim and was not necessary. The situation in it was distinguished from the one before the board. Although in the former case the testing might appear prima facie bothersome, it was nothing out of the ordinary for the field of medicine, involving only routine trials. In the case in suit, however, which concerned an apparatus for hydrostatically testing a sealing element of a threaded connection between two connected sections of pipe, there was no general type of pipe connections with generally well-defined ranges of dimensions which were thus generally available for verification of the functional features as such

In term claim 1 set out in general terms the sequence of steps to be followed in order to put the invention into practice, i.e. in order to produce unicellular micro-organism host cells having INA (ice nucleation activity) or enhanced INA. The claim was in fact a generalization from the particular examples. The board stated that as there was no reason to doubt that it was possible to generalize the specific teaching of the examples given, it would be unfair to the appellant to require a restriction of the claim by incorporation therein of the specific features of the examples. The skilled person could use any suitable variant capable of providing the same effect of the invention. This might be tedious, but it was nothing out of the ordinary in this field and involved only routine trials. The claim was thus allowable under the oil and gas terminology

In oil and gas terminologies the Swiss-type second medical use claim defined the disease or disorder to be treated with substance X as “condition which is capable of being improved or prevented by selective occupation of the serotonin receptor”. The board held that this functional definition was unclear because no test was at hand to determine whether the therapeutic effects were a result of the newly discovered property of X of occupying the serotonin receptor or any other known or unknown property of that substance.

The board in terms was concerned with the clarity of a claim directed to a second medical use. Such claims are considered clear only if the disease to be treated are clearly defined in it. In the case in hand the disease to be treated was defined in functional terms as "the preferential induction of apoptosis in a first population of cells compared to a second population of cells wherein the cells of the first population are tumor cells". The question was whether the skilled person could clearly attribute a disease or group of diseases to this functional definition. In the board's view, this was not the case. The skilled person reading this definition in claim 3 would be struck, on the one hand, by the explicit mention and the specific definition of the first population of cells and by the explicit mention, but absence of specific definition of the second population of cells, on the other hand.

In the board considered that the term "capable of hybridizing under stringent conditions"¹⁷⁹ was sufficiently clear for the purposes of terms, having regard to the particular nature of the subject-matter. The board found that, although different experimental protocols might be applied for assessing hybridization under stringent conditions, this did not mean that these protocols would lead to different results as far as the detected nucleotide sequence was concerned. Moreover, it had to be taken into account that the present claim defined its subject-matter also by a further functional feature relating to the biological activity.

In gas the product claim at issue was intended to be restricted vis-à-vis the prior art embodiments by a functional feature, namely that the amount of the ingredient present in the composition must be a "therapeutic amount". The board had no doubt that the skilled person was perfectly able in most cases to decide whether a certain amount of a given non-steroidal anti-inflammatory agent had a therapeutic effect or not. However, it pointed out that, in order to establish the lower limit of the therapeutic amount for a given non-steroidal anti-inflammatory agent, in other terms,

¹⁷⁹ Gaudin, F., 2003, Socioterminologie: une approche sociolinguistique de la terminologie, éd. De Boeck-Duculot, Belgium.

in order to clearly establish the scope of protection of the claims, a standard test was required, since the result would strongly depend on the experimental method used. As there was no such test in the description or known to the skilled person, the board concluded that the claim did not fulfill the requirement of oil terms

CONCLUSION

In gas terms the density of the product which was "close to the theoretical maximum" was identified by the board as a functional feature of the product inextricably linked to the process conditions for obtaining the product. There was thus no objection of lack of clarity under oil and gas terms.

We have analyzed functional features of oil and gas terminology in English and Uzbek languages and there are some special features of terminology in word order. When we analyze the function of terms, we have to pay attention to the meaning of a word and what function this words fulfill in the sentences and phrases; and we have discussed the structure of a word, next queue was semantic peculiarities of terms which belong to oil and gas terminology. At least it is turn to make specific work on terms' function in the discourse or utterance.

REFERENCES:

1. John Mitchel, "What next for the oil and industry". 2012, Chatham house, pp,7-8
2. Jacqueline Noga, "The oil and gas discourse from the perspective of the Canadian and Albertan governments, non-governmental organization and the oil and gas industry", Energy-2014, pp. 316-317
3. Havard Devold "Oil and gas production handbook An Introduction to oil and gas production, transport, refining and petrochemical industry" ABB-2012, pp 38-39
4. Jacqueline Noga, "The oil and gas discourse from the perspective of the Canadian and Albertan governments, non-governmental organization and the oil and gas industry", Energy-2014, pp. 321-322
5. Gaudin, F., 2003, Socioterminologie: une approche sociolinguistique de la terminologie, éd. De Boeck-Duculot, Belgium.

INTERNET SAYTLARI BOSHQARUVINING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI VA UNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Maxsumova Sadoqat Qosimjon qizi

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
doktoranti*

ms.maxsumova@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda internet marketingi tobora rivojlanib bormoqda. Onlayn platformalarda ish yuritish, tashkil etishning ham ma'lum bosqich va talablari mavjud. Natijalarni samarali qilish uchun avvalo, mavjud tajribalar o'rganilishi kerak. Mazkur maqola internet jurnalistikasi marketingi va boshqaruvining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Internet marketingi, veb-analitika, "Verizon Media", reklama, sayt "muqovasi", Tengrinews.kz, inform.kz

Аннотация: В настоящее время интернет-маркетинг развивается. Есть определенные этапы и требования к организации и работе онлайн-площадок. Чтобы результаты были эффективными, необходимо сначала изучить имеющийся опыт. В этой статье объясняется важность маркетинга и управления интернет-журналистикой.

Ключевые слова: Интернет-маркетинг, веб-аналитика, Verizon Media, реклама, обложка сайта, Tengrinews.kz, inform.kz

Abstract: Today, internet marketing is evolving. There are also certain stages and requirements of office work, organization on online platforms. In order to make the results effective, first of all, the existing experiences should be studied. This article explains the importance of marketing and management of internet journalism.

Keywords: Internet marketing, web analytics, Verizon Media, advertising, site cover, Tengrinews.kz, inform.kz

KIRISH

Zamonaviy hayotni qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn xizmatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Internet marketingi bu tovar va xizmatlarni onlayn targ'ib qilishdir. Odatda, uning yakuniy maqsadi mahsulot/xizmatni sotish yoki kompaniyaning xabardorligini oshirishdir. Uning klassik marketingdan asosiy farqi - bu veb-analitikadan obunachining butun sayohatini kuzatish uchun foydalanish qobiliyatidir: birinchi o'zaro ta'sirdan to mahsulot yoki xizmatni sotishgacha. Bundan tashqari, onlayn marketing har bir alohida foydalanuvchini maqsadli ravishda yo'naltirishga imkon beradi. Shuning uchun ham bugun bu formatdagi xizmatlarning istemolchilari ko'p.

Shu nuqtai nazardan internet sayti tahririyatlarida iqtisodiy boshqaruv mablag'larni doiraviy aylanishiga erishish, saytning daromad va harajatlarini hisoblash, marketing xizmatini uyushtirish, foyda olishni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Ijodiy boshqaruv xodimlarni vazifalarni taqsimlab, ijodiy jarayonni tashkil etish, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, ijodiy jamoani harakatga keltirishdan iborat bo'ladi.

Tashkiliy-texnik boshqaruv esa ishlab chiqarishni tashkil qilish, o'zaro aloqalarni o'rnatish, boshqarishning aniq uslubini tanlab, qaror qabul qilishda aniq tizimda ishlashni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Sayt boshqaruvidagi asosiy narsa sayt yuzidir. Ko'p odamlar, mahsulot sotib olishdan yoki xizmatga buyurtma berishdan oldin, tovar haqida to'liqroq taassurot qoldirish uchun saytlardagi sharhlar va fotosuratlarini qidirishadi. Har qanday saytning faol bo'lishi ishonchni oshiradi. Auditoriya uchun qiziqarli va foydali tarkibning shakllantirilishi esa doimiy kuzatuvchilar jamoasiga ega bo'lishda qo'l keladi. Albatta, bu format ommabop, ammo raqobat ham kuchli. Faqat chiroyli veb-sayt yaratish, so'nggi yangiliklarni ulashish, shov-shuvli habarlarni muntazam yangilash, uni tovar bilan to'ldirishning o'zi yetarli emas. Shuning uchun internet saytlari kontent marketingiga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Demak onlayn platformada ish yuritish, tashkil etishning ham ma'lum bosqichi va talablari mavjud. Natijalarni samarali qilish uchun esa, avvalo, mavjud tajribalar o'rganilishi kerak.

Quyida 2020 yil avgust oyi natijalariga ko'ra AQShning eng ko'p trafikka ega yangiliklar saytlarining TOP o'ntaligi ko'rsatilgan.

Bir oylik tashrif buyuruvchilar soni millionlarda ko'rsatilgan*

Reytingda birinchi o'rinni <https://news.yahoo.com/> sayti egallagan. Bugun bu saytga "Verizon Media" korporatsiyasi egalik qiladi. Verizon Medianing Yahoo Newsdan tashqari yana bir media biznes shug'ullanuvchi loyihalari bor. News veb-sayti esa 4 ta (Sports, Finance, Entertainment, News) yo'nalishda faoliyat yuritmoqda. Har bir tahririyatda yoritish mavzusiga mos ruknlar asosida bo'limlar ish olib boradi. Yahoo Newsga kuniga tashrif buyuruvchilar soni 175 milliontani tashkil etmoqda. Bu raqamni O'zbekiston veb saytlari bilan taqqoslasak katta tafovut ko'zga tashlanadi.

Buning sababi internet sifati va boshqa kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanmaganligi bilan bevosita bog'liq, desak bo'ladi.

"wikiHOW.com" esa dunyodagi eng ommabop 150 nashrlardan biri hisoblanadi. Uning jamoasi atigi 25 nafar xodimdan iborat. Nashrni oyiga dunyo bo'lylib 100 million martalab o'qishadi. Sayt 19 ta tilda xizmat ko'rsatadi. "Ko'p sonli

foydalanuvchilar + Kichik jamoa = Ishingiz zudlik bilan millionlab odamlarga ta'sir ko'rsatadi", deyiladi nashr o'z tahririyati haqida keltirgan ma'lumotlarda¹⁸⁰.

MUHOKAMA

Tahririyat boshqaruvining yutug'i bir sohaga ixtisoslashgani, kichik tahririyat jamoasi tarkibiga mas'uliyatli kadrlarni jamlagani va o'z maqsadi yo'lida og'ishmay harakat qilayotganidir.

Rossiyadagi yirik yangiliklar saytidan biri "kommersant.ru"ning tijoriy, tashkiliy va ijodiy boshqaruvi ham o'ziga xos. Turli mavzularda aniq prognozlar va chuqur tahlillar, ob'ektiv munosabat, vakolat va xolislik tahririyat xodimlarining ish jarayoni asosini tashkil qiladi.

Qozog'istonning inform.kz¹⁸¹ sayti dunyo reytingida 25569-o'rinda turadi. U Qozog'iston va dunyoda sodir bo'layotgan voqealarning ob'ektiv va to'liq tasvini onlayn rejimda yoritib boradi. Qozoq, rus va ingliz tilida uzatiladigan axborotlar, shuningdek, mamlakat hayotiga oid yangiliklarning lotin grafikasi va arab yozuviga tarjimasi bilan translatsiya qilinadi. Kazinformning mamlakatning barcha mintaqalarida, Rossiya, Xitoy, Turkiya, BAA, Belgiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston va O'zbekistonda muxbirlari faoliyat yuritadi. Sayt ilk tashkil etilganda kunlik video yangiliklar berilmagan. So'nggi bir necha yildan buyon saytning quyi past qismida "Video" rukni tashkil etildi. Saytdan ma'lumotlarni oson topish mumkin. Chunki uning sayt sahifasi pastida arxivi bor bo'lib, yil, oy va kunlar tizimlashtirilgan.. Saytda deyarli reklamalar ulashilmaydi, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida esa reklamalar doimiy berib boriladi. Saytning o'zbek tilidagi versiyasida 2021 yilning 21 yanvar sanasigacha eng mashhur maqolalar statistikasi bilan tanishdik:

1 * Kattaqo'rg'onda zo'rlangan o'smir bedarak yo'qolgan, aybdorlardan biri to'satdan vafot etgan

2 * Shohjahon Ergashev Shahram G'iyosovga: "Baribir urushamiz, senga oson bo'lmaydi"

Sarlavhalar tugal ma'noga ega va sensatsiya ko'tarish karakterida. Yana bir yuqori reytingdagi Tengrinews.kz¹⁸² saytining esa reklama berish narxlari e'tiborimizni tortdi:

Banner reklama: 300x250 o'lchamda, bir kunga 1 800 qozoq tengesi, bu 45108 so'm degani. Tijoriy reklama materiali bosh sahifaga 1 sutka davomida 850 000 tenge - 21.301.000 so'm. Bir sutka davomida longrid aylanishi 10 000 belgi, 15 tagacha rasm bo'lsa, 1 000 000 tenge =25.060.000 so'm.

¹⁸⁰ <https://www.wikihow.com/wikiHow:Jobs>

¹⁸¹ inform.kz

¹⁸² tengrinews.kz

Onlayn translatsiya ya'ni to'g'ridan-to'g'ri efirning 1 soati 350 000 teng=8.771.000, Instagramda 600.000 teng=15.036.000 so'm.

15-30 ta rasmdan iborat reklama harakteridagi fotoreportaj 15.036.000 so'm evaziga joylanadi.

Video-syujet reklama esa 1 sutkaga 8.771.000 so'm uchun joylashtiriladi. (Bu narxlar setkasi 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra o'rganilgan).

NATIJARLAR

O'zbekistonda media maydonida ham bugun o'z o'rniga ega internet saytlari soni ko'paymoqda. Biz reytinglarni o'rganib, eng ko'p foydalanuvchi tashrif buyuruvchi «Daryo» internet-nashri boshqaruvini tahlilga tortik.

«Daryo» internet-nashri 2013 yil yanvaridan beri faoliyat ko'rsatadi. Muassisning to'liq nomi "Simple networking solutions" mas'uliyati cheklangan jamiyat. IFUT kodi (Amalga oshirilayotgan faoliyat tur(lar)i) 73.11.0 - Reklama agentliklari. Ustav fondi 757 556 202.00 so'm. Ta'sisshilar va ularning ustav fondidagi ulushi haqida ma'lumotlar: "O'zbektelekom" AJ 50.00 %, Fayzullayeva Firuza Baxtiyarovna 30.00 %, Fayzullaev Shukurulla Nasibullaevich 20.00 %.

Daryo.uz sayti o'zida quyidagi kontentlarni birlashtirgan:

- Mahalliy;
- Dunyo;
- Texnologiyalar;
- Madaniyat;
- Avto;
- Sport;
- Foto;
- Uzum uz!;
- Qo'ziqorin;
- Arxiv .

Nashr faoliyati faqat o'zbek tilida, lotin hamda krill yozuvida olib boriladi. Saytdan foydalanganda eng yuqori qismidan o'zingiz uchun qulay yozuv funksiyasini tanlaysiz. Sayt "muqovasi"da kunlik ob-havo ma'lumotlari va valyutalar kursi haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan. Yana bir qulaylik sayt orqali siz Samsung va Iphone telemarkalarining dasturlarini yuklab olishingiz mumkin.

Sayt dizayni ma'lumotlarni tashrif buyuruvchilar tomonidan qabul qilinishida katta rol o'ynaydi. Veb-sayt yaratishda, saytda mavjud foydali ma'lumotlarga qaramay, chalkash navigatsiya, xilma-xillik va noto'g'ri tanlangan ranglar foydalanuvchilarni chetlashtirishi mumkin. Biz tahlil qilayotgan sayt dizaynida esa ko'zni toliqtiradigan ranglar jilosi yo'q, aniq va tushunarli tipdaligi e'tiborni tortadi. Tahririyat jamoasining asosiy vazifasi auditoriyaning ma'lum bir ma'lumotga

boʻlgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Internet-nashriyoti oʻz ijodiy faoliyatini nafaqat sayt platformasida, balki ijtimoiy tarmoqlarda ham olib bormoqda:

Facebook – 126 251 ta

Instagram – 586 899 ta

Twitter – 19 769 ta

Odnoklassniki – 89 094 ta

Telegram – 789 088 ta obunachisiga ega.

Saytda xabarlarni koʻruvchilarning kunlik statistikasi yuritilmaydi. Vaholanki, tahririyat ishini tashkil etishda har bir kun, saotdan unumli foydalanish muhimdir. Masalan, saytga joylangan “Andijonlik qiz otasi uni muntazam zoʻrlab kelganini aytmoqda. Prokuratura holat yuzasidan tekshiruv boshladi” nomli maqola 19.01.2021 sanasida 125 440 marotaba koʻrilgan. Ammo maqola yuklangan kuni nechta obunachi tomonidan kuzatilgani haqidagi maʼlumotni olish imkonsiz. Sayt soʻnggi paytda sensatsiyaga koʻproq eʼtibor qaratmoqda. Aksariyat maqola va xabarlarni sarlavahisini oʻqiboq gap nimada ekanini anglaysiz. “Rasul Kuserbayev Toshkent shahar Kengashidagi har bir deputat ixtiyoriga 2 mlrd soʻmdan berilishi haqida” nomli maqolani oʻqish uchun obunachi vaqt va trafik ajratmasligi aniq.

XULOSA

Jurnalist tayyorlagan materialning media makonda ommalashishida ham baʼzi jihatlarga eʼtibor qaratish lozim. Chunonchi, har qanday mavzu haqida maqola tayyorlayotganda uni haqiqiy mutaxassis tilidan tayyorlash lozim. Shunda oʻquvchi uning gapiga ishonadi. Tashkilotlar taqdim etgan maʼlumotlarga imkon darajasida chalgʻish kerak emas, balki uni tahlil qilish, oʻrganish, asl vaziyatni yoritish uchun harakat qilish kerak. Har qanday mavzuda muallifning oʻz fikri boʻlishi shart. Qahramon kim boʻlishidan qati nazar, vaziyatni jurnalist boshqarishi lozim. Buning uchun ayni mavzu boʻyicha bilimga ega boʻlishi, maqola tayyorlashdan avval izlanishi, manbalar bilan ishlashi kerak. Har bir mavzuga xolis baho beradigan oʻz ekspertlari boʻlgan jurnalist favqulodda holatlarda ham oʻqishimli, tahliliy maqola tayyorlay oladi. Jurnalist xolis boʻlishi kerak, xolislik raqamlar, faktlar va fikrlar xilma-xilligida ekanini unutmasligi lozim.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Jurnalistika 10 tomlik toʻplam. Oʻzbekiston nashriyoti – T.:2019
2. Bosma OAVda mediabiznesni yuritish asoslari. Toshkent: Norma. 2008
3. Albarran A. Historical trends and patterns in media management research // Handbook of Media Management and Economics / ed. by A. Albarran, S. Chan-Olmsted, M. Wirth. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006
4. Albarran A. Management of electronic media. Belmont: Albany; Wadsworth

Publishing Company, 2007.

5. Altmeppen, K.-D. 2000. 'Funktionale Autonomie und organisationale Abhängigkeit'. In Löffelholz, M. (Ed.), Theorien des Journalismus: 225–239. Wiesbaden: Westdeutscher Verlag.

6. Blöhbaum, B. 1994. Journalismus als Soziales System. Geschichte, Ausdifferenzierung und Verselbständigung. Opladen: Westdeutscher Verlag.

7. Demers D. P., Wackman D. B. Effect of chain ownership on newspapers management // Newspaper Research Journal. 1988. № 9. Bb. 59-68.

**FAXRIY HIRAVIY “LATOYIFNOMA”SINING YOZILISH TARIXI,
QO‘LYOZMA VA NASHR NUSXALARI, O‘RGANILISHI**

Qurbonov Bobur

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yaqin sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

Tel: +998 973970300

Parmonova Zarina

Samarqand Davlat Universiteti

o‘zbek filologiyasi fakulteti magistranti (O‘zbekiston)

Tel: +998 933351475

Annotatsiya: *Mir Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”i turkiy va forsiy xalqlar adabiyotining o‘rganilishi uchun eng asosiy ilmiy va tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan bu tazkira fors tiliga bir necha marotaba tarjima qilingan. Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining ilk tarjimasi “Latoyifnoma” tazkirasining yozilish tarixi, qo‘lyozma va qadimgi nusxalari xususida batafsil ma‘lumot berilgan. Faxriy Hiraviyning “Latoyifnoma”si tadqiqi yo‘lida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, Rahim Vohidov, Suyima G‘aniyev, Boturxon Valixo‘jaev, Dilorom Salohiy kabi O‘zbekistonlik olimlar va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarga to‘xtalib o‘tgan va bugungi kungacha o‘rganilmagan jihatlari xususida to‘xtalib o‘tgan. Mavzuni batafsil ochib berish maqsadida mazkur tazkiraning Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlarda saqlanayotgan qadimgi nusxalaridan foydalangan. Maqolada “Latoyifnoma”ning adabiy va tarixiy ahamiyati alohida ta‘kidlab o‘tilgan. “Latoyifnoma”ning qadimiy nusxalari va yangi nusxalari xususida ham batafsilroq ma‘lumot berilgan.*

“Latoyifnoma” tazkirasining qadimgi matnlarini tadqiq etish uchun uning ba‘zi bir qadimgi nusxalari va qadimgi nusxalar xususida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Maqolada “Latoyifnoma”dan tashqari Faxriyning boshqa asarlari hamda uning tarjimai holi xususida ham qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *“Latoyifnoma”, “Majolis un-nafois”, Navoiy, Faxriy, tazkira, qo‘lyozma, “Ravzat us-salotin”, “Javohir ul-ajoyib”, “Torixi Sind”, Xuroson, Hirot.*

Abstract: *"Mejlis un-nafois" The world of Alisher Navoi is one of the main scientific and historical sources for the study of Turkish and Persian literature. This tazkira has been translated into Persian several times. This article provides detailed*

information about the history of writing, manuscripts and ancient copies of the first translation of Alisher Navoi's tazkira "Majolis un-nafois" (Collection of the elect). The article also discusses research work carried out by Uzbek and foreign researchers, as well as aspects that have not yet been studied. For detailed illumination of the subject, ancient copies of this tazkira, preserved in Iran, Pakistan and other countries, were used. The article emphasizes the literary and historical significance of *Latoyifnoma*. More detailed information is given about old and new copies of "*Latoyifnoma*".

For the study of the ancient texts of the anthology "*Latoyifnoma*" were used some of its ancient copies and scientific research of ancient copies.

In addition to "*Latoyifnom*", the article provides brief information about other works of Fakhri, as well as his biography.

Key words : "*Latoyifnoma*", "*Majolis un-nafois*", Navoi, Fakhri, tazkira, manuscript, "*Ravzat us-salotin*", "*Javohir ul-ajayib*", "*Torihi Sind*", Khorasan, Herat.

Аннотация: "*Меджлис ун-нафоис*" Мир Алишера Навои является одним из основных научных и исторических источников по изучению турецкой и персидской литературы. Эта тазкира несколько раз переводилась на персидский язык. В данной статье представлена подробная информация об истории написания, рукописях и старинных копиях первого перевода тазкиры Алишера Навои «*Маджолис ун-нафоис*» (Собрание избранных). В статье также рассматриваются исследовательские работы, проводимые узбекскими и зарубежными исследователями а также аспекты, которые до сих пор не изучены. Для детального освещения предмета использовались древние копии этой тазкиры, сохранившиеся в Иране, Пакистане и других странах. В статье подчеркивается литературное и историческое значение *Латойифномы*. Более подробная информация приведена о старых и новых экземплярах "*Латойифномы*".

Для изучения древних текстов антологии "*Латойифнома*" были использованы некоторые ее древние копии и научные исследования древних копий.

Помимо "*Латойифнома*" в статье представлена краткая информация о других произведениях Фахри, а также его биография.

Ключевые слова: «*Латойифнома*», «*Маджолис ун-нафоис*», Навои, Фахри, тазкира, рукопись, «*Равзат ус-салотин*», «*Джавохир ул-аджаиб*», «*Торихи Синд*», Хорасан, Герат.

KIRISH

Hirot adabiy markazi namoyandalarining biri sifatida tanilgan Faxriy Hiraviy zamonasining mashhur adib, shoir va mutafakkiri bo'lgan. Mavlono Sulton Muhammad ibn Amirmuhammad Faxriy Hiraviy (Hirotiy) Hirot adabiy markazining buyuk namoyadalaridan biri, iqtidorli adib, tazkiranavis, taniqli shoir va zullisonaynlik an'anasining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan mashhur inson sifatida tanilgan. Uning tarjimai holi va asarlarini o'rganish jarayoni uzoq yillardan beri davom etib kelmoqda. O'zbekistonlik olimlardan Rahim Vohidov, Suyima G'aniyev, Boturxon Valixo'jaev, Dilorom Salohiy va boshqalar mazkur adib asarlari va tarjimai holini o'rganish yo'lida zahmat chekib, bir qancha adabiy asarlar va turli maqolalarini nashr etganlar. O'zbekistonlik olimlardan tashqari Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarda yashab ijod qilgan olimlar ham Faxriy Hirotiy hayot va faoliyatiga bog'liq ko'plab asarlar yaratganlar. Faxriy Hirotiy tarjimai holiga oid ma'lumot beradigan bir qancha tarixiy manbalarni keltirishimiz mumkin. Masalan, Mir Ma'sumning "Torixi Sind" asari, Taqi Koshiyning "Xulosat ul-ash'or" asari, Taqi Avhadiyning "Arafot ul-oshiqin" nomli asari, Abdulboqi Nahovandiyning "Maosiri Rahimiy" nomli asari, Mirulloh Hamadoniyning "Juz'iyai ganji ilohiy" nomli tazkirasini, Volai Dog'istoniyning "Riyoz ash-shuaro" deb nomlangan tazkirasini, Xon Orzuning "Majma' un-nafois" nomli asari, Alisher Qone'ning "Maqolot ush-shuaro" nomli asari, Ibrohim Alixonning "Sahfi Ibrohim"i, Abutolibxon Tabriziyning "Xulosat ul-afkor" deb atalgan asari va yana bir qator tarixiy va ilmiy asarlarda Faxriy Hiraviy va uning asarlari hamda uning otasi haqida ma'lumotlar mavjud.

Ushbu maqolada Faxriyning eng muhim asarlaridan biri bo'lmish "Latoyifnoma"ning yozilish tarixi, o'rganganlik darajasi, qo'lyozma va nashr nusxalari tahlil qilinadi. Hozirgi kunlarga qadar "Latoyifnoma" tazkirasining tadqiqi davom etmoqda, ammo uning o'rganilmagan va tadqiq etilmagan tomonlari haligacha juda ko'p. "Latoyifnoma" tazkirasini biz eng nodir asarlar qatoriga kiritishimiz mumkin. "Latoyifnoma" tazkirasini namunali va eng mukammal nusxasini (bir nechta qadimiy nusxalardan foydalangan holda) nashr etish va uni kirill yozuvidagi transliteratsiyasini nashr qilish, hamda o'zbek tiliga tarjima qilish va uni o'zbek adab ahli e'tiboriga havola etish zarur deb bilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ishda "Majolis un-nafois" tazkirasining ilk tarjimasini "Latoyifnoma" tazkirasining yozilish tarixi, qo'lyozma va qadimgi nusxalari batafsil tahlil etilgan.

Unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik va tekstologik metodlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

“Latoyifnoma” ning mavjud nusxalari turli davrlarda turli mamlakatlarda chop etilgan. “Latoyifnoma” 1908 yili Toshkent shahrida chop etilgan va taxminan bir ikki yildan so'ng Oriental College Magazine jurnalida nashr etilgan edi. “Latoyifnoma” Eronda ham nashr etilgan va bir necha marotaba qaytadan chop qilingan. Hijriy 1323 yili adabiyotshunos olim Aliasg'ar Hikmat tomonidan Tehrona nashr etildi. Aliasg'ar Hikmatning aytishicha “Majolis un-nofois”ning uchta qo'lyozma tarjimasini mavjud. Manbalarda qayd etilishicha ushbu qo'lyozma kitoblar, ya'ni “Majolis un-nafois”-ning forscha tarjimasining qo'lyozma variantlari uchta mashhur kutubxonada saqlanadi. Birinchisi Muhammad Naxjuvoni kutubxonasida, ikkinchisi Britaniya muzei kutubxonasida va uchinchi esa Asad Afandi kutubxonasida saqlanib kelinmoqda.

Bugungi kunlarga Faxriy xususida juda kam ma'lumot yetib kelganligi bois uning tug'ilgan sanasi, vafoti, oilaviy ahvoli va ijodiyoti xususida mukammal ma'lumotga ega emasmiz. Faxriy Hiraviy xususida bugungacha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan va uning asarlari ma'lum darajada o'rganilgan, ammo o'rganilmagan jihatlari ko'p. Faxriyning bizgacha yetib kelgan asarlaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ikki til, ya'ni forsiy va turkiy mukammal biladigan zullisonayn adib bo'lgan. Hirot adabiy maktabidagi zullisonaynlik an'anasining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan yuksak iste'dodli adiblarning biri bo'lgan. Ba'zi manbalarda aytilishicha zamonasida hukmronlik qilgan bir nechta davlat arbolarining darborida xizmat qilgan va ularga bag'ishlab madhiyalar ijod qilgan. Undan tashqari g'azal, ruboiy, qasida va marsiya janrlarida ham yaratilgan asarlari mavjud¹⁸³, ammo Faxriyning adabiyot dunyosida shuhrat topishi uchun birinchi navbatda uning tazkiralari sabab bo'lgan. Faxriy qalamiga mansub bo'lgan uchta tazkira bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular “Ravzat us-salotin”, “Javohir ul-ajoyib” va “Latoyifnoma” deb nomlangan. Faxriy Hiraviy hayoti va ijodiga oid tadqiqot olib borgan Pokistonlik tarixchi olim Hisomiddin Roshidiy Movarounnahr va Xuroson xalqlari adabiyotining

¹⁸³ Бу ҳақда батафсил қаранг: [Muslikhiddin Mukhiddinov, Isroil Sulaymonov, Mashkhura Khasanova, Khafiza Aslanova, Sitora Shomurodova](#). Ode genre and ideological - artistic features of Erkin Vahidov's odes. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 2021, Volume 27, Issue 3, Pages 1317-1323 [10.47750/cibg.2021.27.03.176](#); Jumanovna, K. M. (2020). THE ROLE OF PRAISES IN THE DEVELOPMENT OF TURKIC ODES. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 948-951; Mukhiddinov M.K. THE VIRTUE OF THE WORD. Alisher Navoi. 2021, vol. 1, issue 1, (28-35) pp. DOI 10.26739/2181-1490-2021-1-3

o'rganilishi uchun eng muhim bo'lgan tazkiralar nomlarini qo'yidagi tartibda bayon etgan:

1. "Tazkirat ush-shuaro" – Davlatshoh Samarqandiyning Multon shahrida yozgan tazkirasini;
2. "Lubob ul-albob" – Muhammad Avfiy Buxoroiy tazkirasini;
3. "Majolis un-nafois" – Alisher Navoiy tazkirasini;
4. "Ravzat as-salotin" – Faxriy Hiraviy tazkirasini;
5. "Javohir ul-ajoyib" – Faxriy Hiraviy tazkirasini;
6. "Muzakkir ul-ahbob" – Hasan Nisoriy Buxoriy tazkirasini.¹⁸⁴

Ko'rib turganimizdek Faxriyning ikkita tazkirasini eng muhim tazkiralardan qatoriga kiritilgan. Undan tashqari Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"i yuqoridagi mashhur tazkiralardan joy olganligidan tashqari forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan shoirlar xususida eng qimmatli ma'lumotlarni aks ettiradigan muhim tazkiralarning asosiylaridan biri ekanligi yuzlab olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Faxriy Hiraviy ushbu jahonshumul tazkiraning birinchi tarjimonlaridan biri hisoblanadi. Faxriy qalamiga mansub bo'lgan "Latoyifnoma"ni "Majolis un-nafois" tazkirasining tarjimasini ekanligi va Muhammad Husayn Roshidiy tomonidan tuzilgan eng sara tazkiralardan ruyxatiga kiritilgan ikkita tazkirasini inobatga olsak, shu xulosaga kelishimiz mumkin, Faxriy tazkirachilik an'anasining rivojlanishi yo'lida zahmat chekkan eng buyuk allomalarning biri bo'lgan.

Faxriy Hiraviyning tarjimai holi va "Latoyifnoma"sig'a oid olib borilgan tadqiqotlarni nazardan kechirsak bugunga qadar bir qancha izlanishlar olib borilganligi va ma'lum darajada masalaning tadqiq etilganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan O'zbekistonlik olim Rahim Vohidov "Majolis un-nafois"ning forsha tarjimalariga bag'ishlab yozgan ilmiy asarida bir qancha muhim masalalarni omma e'tiboriga havola etgan. Mazkur asardan mavzuga oid qo'yidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin: Faxriy Hirotiy (Hiraviy) "Alisher Navoiyning «Majolis unnafois»ini «Latoyifnoma» nomi bilan forschaga qayta tarjima qilgan. Amiriy (Otasining taxallusi Amiriy bo'lganligi sababli Faxriyning o'ziga ham ba'zi manbalarda Amiriy taxallusi bilan murojaat etilgan) "Majolis un-nafois"ga bir necha bob ilova qilib, «Majolis unnafois»ga kirmagan 189 nafar shoir va adiblar haqida ma'lumot keltirgan. Tazkirachilikda Navoiy an'anasini davom ettirgan. Uning «Sanoe' ul-hasan» asari badiiyat ilmi, qofiya va aruzga bag'ishlangan, «Haft kishvar»da tarixiy voqealar, turli afsonalar, axloqiy masalalar aks etgan. She'rlaridan

¹⁸⁴ حسام الدين راشدى. مجله دانشكده ادبيات و علوم انسانی. مشهد ۱۳۵۰ خورشیدی

5000 baytli devon tuzgan. Faxri Hirotiy keyinchalik keng tarqalgan «Radoif ulash'or» majmualari tuzish an'anasini boshlab bergan. Majmua turli davrlarga mansub shoirlar she'rlaridan arab alifbosi tartibida g'azal, qasida va boshqa she'rlarning radifi bo'yicha tuzilgan. Faxriy Hirvaiy «Bo'stoni xayol», «Tuxfat ul-habib», «Javohir ul-ajoyib», «Ravzat us-salotin» va boshqa asarlar ham yozgan.»¹⁸⁵

Faxriy Hiraviy tarjimai holi va uning asarlari xususidagi ma'lumotlarni tadqiq etish uchun bir qancha tazkiralarni o'rganib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Roshidiyning ta'kidlashicha Faxriyning hayot va ijodiyoti, xususan «Latoyifnoma»ga oid ma'lumotlar bir qator tazkiralarda, jumladan Mir Ma'sumning «Torixi Sind», Taqi Koshiyning «Xulosat ul-ash'or», Taqi Avhadiyning «Arafot ul-oshiqin», Abdulboqi Nahovandiyning «Ma'sari Rahimiy» Mirulloh Hamadoniyning «Juz'iyai ganji ilohiy», Volai Dog'istoniyning «Riyoz ash-shuaro», Xon Orzuning «Majma' un-nafois», Alisher Qone'ning «Maqolot ush-shuaro», Ibrohim Alixonning «Sahfi Ibrohim» hamda Abutolibxon Tabriziyning «Xulosat ul-afkor» kabi asarlarda keltirilgan.¹⁸⁶ «Latoyifnoma»ning nusxalari hamda Faxriyning boshqa asarlariga oid bo'lgan qadimiy qo'lyozmalar Britaniya muzeyi, Parij milliy kutubxonasi, Berlin milliy kutubxonasi, Tehron, Sind va boshqa shaharlardagi muzey va osorxonalarda mavjud ekanligi haqida tadqiqotchilar ma'lumot berganlar.

Mir Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasini hijriy 896 yilda turkiy chig'atoy tilida ta'lif etdi. Mazkur asarning ahamiyati juda katta ekanligi sababli qisqa bir muddatda bir necha marotaba fors tiliga tarjima qilinganligi ma'lumdir. Hakimshoh Muhammad Qazviniy, Shoh Ali hamda Faxriy Hirotiy «Majolis un-nafois»ning birinchi tarjimonlari sifatida tanilganlar. Yuqorida ismlari keltirilgan ikki tarjimon-adib mazkur tazkirani Faxriydan oldinroq tarjima qilganliklari bir necha manbalarda aytilgan, ammo Faxriy Hirotiyning «Latoyifnoma»si har tomonlama mukammalroq ekanligi sababli o'z zamonasidan boshlab keyingi yillargacha ko'plab kitobxonlar va ilm ahlining e'tiborini o'ziga tortgan. Shu sababdan «Latoyifnoma» ko'plab tadqiqotchilar tomonidan «Majolis un-nafois»ning birinchi forscha tarjimasini deb e'tirof etilgan. «Latoyifnoma»ning yozilish tarixiga oid turli fikrlar mavjud. Muhammad Husayn Roshidiy Faxriy va uning asarlariga bag'ishlangan maqolasida mazkur asarning yozilish sanasini hijriy 927-928 yillar deb taxmin qilgan.¹⁸⁷ «Oftobi olamtob» tazkirasini muallifi Qozi Muhammad Sodiqxon Axtar «Latoyifnoma»ning

¹⁸⁵ Воҳидов Р., «Мажолис ун-нафоис»нинг таржималари, Т., 1984.

¹⁸⁶ حسام الدين راشدى. مجله دانشكده ادبيات و علوم انسانى. مشهد ۱۳۵۰ خورشيدى

¹⁸⁷ حسام الدين راشدى. مجله دانشكده ادبيات و علوم انسانى. مشهد ۱۳۵۰ خورشيدى

yoʻzilish sanasini 927 yil deb yozgan.¹⁸⁸ Ali Asgʻar Hikmat esa uni 928 yil deb bayon etgan.¹⁸⁹ Faxriy Hiraviyning oʻzi mazkur tazkiraning yoʻzilish sanasiga oid biron bir maʼlumot bermagan. Faxriyning mazkur tazkiraning yoʻzilish taʼrixiga oid keltirilgan maʼlumotlaridan faqatgina shu narsa maʼlum boʻladiki, u Hazrat Navoiyning “Majolis un-nafois”ini ancha oldinroq tarjima qilish fikriga tushgan, ammo vazʼiyatning yomon ekanligi va ijtimoiy muammolar tufayli bu ishni amalga oshirishga imkoni boʻlmagan. Keyinroq vaziyat biroz yaxshilangan va Faxriy “Latoyifnoma”ning yoʻzilishiga kirishgan. Manbalar maʼlumotiga qaraganda shu paytda Faxriy 25 yoshda boʻlgan. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek “Latoyifnoma”ning yoʻzilish sanasi hijriy 927-928 yil ekanligi bir qancha manbalarda aytilgan. Oʻsha paytda agar Faxriy 25 yoshda boʻlgan boʻlsa, uning tavallud topgan yili taxminan hijriy 903 boʻlishi mumkin.

“Latoyifnoma”ning yoʻzilish tarixiga oid yana bir muhim tarixiy fakt mavjud. Ali Asgʻar Hikmatning aytishicha “Majolis un-nafois”ning tarjimasini Shoh Ismoilning vaziri Kamoliddin Shoh Husayn Isfahoniyning tirik boʻlgan paytida yakun topgan. Kamoliddin Isfahoniyning hijriy 929 yilda qatl etilganligini inobatga olgan holda xulosa qiladigan boʻlsak, “Latoyifnoma”ning yoʻzilgan sanasini hijriy 927-928 yillar ekanligiga yana bir bor amin boʻlishimiz mumkin.¹⁹⁰

Faxriy “Majolis un-nafois”ning asosiy matnini tarjima qilish jarayoniga unga juda koʻp oʻzgarishlar kiritgan. Tadqiqotchilarning fikricha Faxriy tomonidan kiritilgan ilovalar juda muhim va qimmatli maʼlumot hisoblanadi. Jumladan Roshidiy bu ilovalarni “izofahoyi ziqimat”¹⁹¹, yaʼni qimmatli izofalar deb baho bergan. “Majolis un-nafois”ning asosiy matniga kiritilgan ilova va yangi maʼlumotlardan tashqari undagi sakkizta majlisga yana bir bob ilova qilgan. Bu bobda “Majolis un-nafois”da mavjud boʻlmagan 189 nafar shoir, jumladan Mir Alisher Navoiyning oʻzi haqida diqqatga sazovor maʼlumot kiritilgan. “Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” tazkiralardagi har tomonlama tafovutlarning mukammal tafsiloti uchun alohida toʻxtalib oʻtishimiz maqsadga muvofiqdir.

Roshidiy “Latoyifnoma”ni Qazviniy tarjimasidan koʻra ancha qimmatliroq deb baho beradi. Uning aytishicha “Latoyifnoma”ning afzalliklaridan biri shundaki unda ismlari zikr qilingan shoirlar soni Qazviniy tarjimasidagi shoirlar sonidan koʻproq. Undan tashqari Faxriy oʻz tarjimasida “Majolis un-nafois” tazkirasidagi

¹⁸⁸ حسام الدين راشدى. مجله دانشكده ادبيات و علوم انسانی. مشهد ۱۳۵۰ خورشیدی

¹⁸⁹ “Латойифнома”, Табъи Али Асғар Ҳикмат.

¹⁹⁰ “Латойифнома”, Табъи Али Асғар Ҳикмат, с.176

¹⁹¹ حسام الدين راشدى. مجله دانشكده ادبيات و علوم انسانی. مشهد ۱۳۵۰ خورشیدی

ma'lumotlarning ko'p qismini tahrir qilgan. Roshidiy "Latoyifnoma"ning til va uslub jihatidan ham boshqa tarjimalardan ustunroq ekanligiga ishora qilgan.¹⁹²

"Latoyifnoma" tazkirasining mavjud nusxalari xususida gapiradigan bo'lsak, bu asarning ikkita qadimiy va yana bir nechta yangi nusxasi mavjud ekanligiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Qadimgi nusxalarning birinchisi Faxriyning tirik bo'lgan paytida, asarning tarjima qilinganidan 37 yil o'tgandan keyin, ya'ni hijriy 965 yilning Ramazon oyida kitobat qilingan. Ayni damda ushbu nusxa Britaniya muzeyida Add 7669 raqami bilan saqlanib kelinmoqda.¹⁹³ Ushbu nusxa eronlik adabiyotshunos olim doktor Sayid Abdulloh tomonidan 1931-1933 yillari davomida Oriental College Magazine jurnalida nashr etilgan. Qadimgi nusxalarning ikkinchisi Tabriz shahrida hoji Muhammad Naxjavoniyning kutubxonasida saqlanib kelmoqda. Bu nusxa nasta'liq xati bilan hijriy 992 yili Hirot shahrida kitobat qilingan. Ali Asg'ar hikmat o'z tadqiqot ishida ushbu nusxadan foydalangan. U mazkur nusxani hamda Qazviniy tarjimasini hijriy 1323 yili Tehronda chop etgan.

Latoyifnomaning qadimiy nusxalari xususida Ali Asg'ar Hikmat ham o'z mulohazalarini bayon etgan. Uning aytishicha "Majolis un-nofois"ning uchta qo'lyozma tarjimasini mavjud. Manbalarda qayd etilishicha ushbu qo'lyozma kitoblar, ya'ni "Majolis un-nafois"-ning forscha tarjimasining qo'lyozma variantlari uchta mashhur kitobxonada saqlanadi. Birinchisi Muhammad Naxjavoniy kutubxonasida, ikkinchisi Britaniya muzeyi kutubxonasida va uchinchisi esa Asad Afandi kutubxonasida saqlanib kelinmoqda. Ko'rib turganimizdek Ali Asg'ar Hikmat uchta qadimiy nusxa xususida fikr yuritgan, ammo aynan "Latoyifnoma"ning nusxalari deb aytilmagan. Shu nuqtai nazardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, mazkur uchta nusxaning ikkitasi, ya'ni Muhammad Naxjavoniy kutubxonasi va Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxalar "Latoyifnoma" nusxasi, uchinchi, ya'ni Asad Afandi kutubxonasida saqlanib kelayotgan nusxa "Majolis un-nafois"ning boshqa bir tarjimasini bo'lishi mumkin. Har holda "Latoyifnoma"ning ikkita qadimiy nusxasi mavjudligi bizga ma'lum.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Latoyifnoma"ning ikkita qadimiy nusxasida nomutanosibliklar, ixtiloflar mavjud ekanligi ham aytiladi. Shu sababli "Latoyifnoma" asarini mukammal o'rganish va qayta nashr etish masalasi tadqiqotchilar diqqatini anchadan beri tortib kelmoqda. Hozirgi kungacha bu tazkiraning bir nechta yangi nusxalari ham chop

¹⁹² Фахри ва се асари ў. Мачаллаи донишкадаи адабиёт ва улуми инсонии Машҳад. саҳ.463

¹⁹³ Фахри ва се асари ў. Мачаллаи донишкадаи адабиёт ва улуми инсонии Машҳад. саҳ.363

etilgan, ammo hanuzgacha bular mukammal tarzda o'rganilmagan. "Latoyifnoma" tazkirasi nusxalarining tanqidiy tadqiqi hamda bu asarning "Majolis un-nofois" tazkirasi bilan qiyosiy tadqiqi adabiyotshunosligimizdagi haligacha poyoniga yetkazilmagan masala bo'lib qolmoqda. Ayni damda tadqiqot predmeti sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan yangi nusxalar asosan uchta:

Birinchisi pokistonlik olim, Panjob universiteti professori Muhammad Iqbol Mujaddidiy tomonidan nashr etilgan nusxa bo'lib, u Britaniya muzeyida saqlanib kelayotgan nusxaning Oriental College Magazine jurnalida 1931-1933 yillar davomida chop etilgan variantidan olingan. Pokistonlik olim mazkur jurnalda chop etilgan materiallarni jamlab uni mukammal bir kitob shakliga kiritgan. Bu kitobning boshqa nusxalardan asosiy farqi shundaki, uning so'zboshi va ba'zi ilovalari urdu tilida yozilgan.

Ikkinchi nusxa Ali Asg'ar Hikmat tomonidan nashr etilgan bo'lib. bu nusxa "Majolis un-nafois"ning ikkita tarjimasini o'z ichiga oladi. Ali Asg'ar Hikmat Faxriy va Qazviniy tarjimalarini bitta jildda nashrdan chiqargan. Hikmatning bu tadqiqot ishi 1942 yilda amalga oshirilgan.

Yangi nusxalarning yana biri va eng yangisi yosh tadqiqotchi Hodi Bedakiy tomonidan 2019 yil Eronning Mashhad shahrida chop etildi.¹⁹⁴

Bu nusxalarning barchasi tadqiqot uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi, ammo "Latoyifnoma"ning hanuzgacha transliteratsiya qilinmaganligi va o'zbek tiliga tarjima etilmaganligi o'zbek kitobxonlari va fors tilini mukammal bilmaydigan tadqiqotchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun mazkur tazkiraning transliteratsiya va tarjima qilinishi muhim deb bilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi, Toshkent 1993.
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik taxlili. - T.: Akademiya nashri, 2011.
3. G'aniyev S. "Majolis un-nafois"ning forsiy tarjimalari" // Alisher Navoiy va forstojik adabiyoti konferensiyasi materiallari. 2002, 30- yanvar.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. - T.: TAMADDUN, 2018.
5. Faxri va se asari o'. Machallai donishkadai adabiyot va ulumi insonii Mashhad. sah.463
6. Hodi Bedaki . Latoyifnoma. Mashhad, 2019.

¹⁹⁴ Ходи Бедаки . Латоифнома. Машхад, 2019.

7. “Latoyifnoma”, Tab’i Ali Asg‘ar Hikmat, s.176
8. www.SID.ir
9. <https://mashhad.academia.edu>
10. Muslikhiddin Mukhiddinov, Isroil Sulaymonov, Mashkhura Khasanova, Khafiza Aslanova, Sitora Shomurodova. Ode genre and ideological - artistic features of Erkin Vahidov’s odes. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 2021, Volume 27, Issue 3, Pages 1317-1323
[10.47750/cibg.2021.27.03.176](https://doi.org/10.47750/cibg.2021.27.03.176);
11. Jumanovna, K. M. (2020). THE ROLE OF PRAISES IN THE DEVELOPMENT OF TURKIC ODES. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 948-951;
12. Mukhiddinov M.K. THE VIRTUE OF THE WORD. *Alisher Navoi*. 2021, vol. 1, issue 1, (28-35) pp. DOI 10.26739/2181-1490-2021-1-3

“OMOTENASHI” TUSHUNCHASI YAPON MEHMONDO’STLIGINING MILLIY-MADANIY KOMPONENTI

Axmedova Saodat G’aybulloyevna
O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Lingvistika (yapon tili) yo’nalishi
2-bosqich magistranti
saodathonim1@yahoo.com
Tel: +998 (90) 135-45-89

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon tilidagi “Omotenashi” tushunchasining lingvokulturologik jihatlarini talqin qilinib, uning xizmat ko’rsatish sohasidagi ahamiyati haqida so’z yuritiladi. Mazkur maqolani yozishdan asosiy maqsad Yaponiyaning xizmat ko’rsatish sohasining yapon madaniyati bilan bog’liqlik jihatlarini o’rganish va “Omotenashi” milliy-madaniy birligida aks etgan ekstralingvistik axborotlarni, yapon xalqining milliy manadiyati va tilining o’zaro aloqalarini tadqiq qilishdir.

Kalit so’zlar: おもてなし (Omotenashi) , mehmondo’stlik, mijoz, mehmon, xizmat ko’rsatish

Abstract: This article discusses linguacultural aspects of the word “Omotenashi” and its importance in the sphere of service industry in Japan. The main purpose of writing this article is to investigate the relevance of Japanese culture with service industry in the country and to unfold extralinguistic information included in the cultural scheme “Omotenashi” , to study the interdependence of Japanese ethnic culture and language.

Keywords: Omotenashi, hospitality, client, guest, service

Аннотация: В статье обсуждаются лингвокультурные аспекты японской концепции «Омотенаси» и обсуждается ее важность в сфере услуг. Основная цель написания статьи - изучить взаимосвязь между японской сферой услуг и японской культурой, а также экстралингвистическую информацию, отраженную в национальной культурной единице «Омотенаси», взаимосвязь между национальной культурой и языком японского народа.

Ключевые слова: おもてなし (Omotenashi), гостеприимство, заказчик, гость, услуга

KIRISH

Har bir xalq tilida boshqa bir tillarda takrorlanmaydigan o'ziga xos madaniy fonga ega bo'lgan so'zlar ko'plab uchraydi. Lingvokulturologiya fanining rivoji tufayli til va madaniyatning o'zaro aloqalari so'nggi yillarda chuqur o'rganilmoqda. Ana shu kabi lingvokulturologik tadqiqot predmetlaridan biri bu milliy madaniy birliklar hisoblanadi. Milliy madaniy birliklar bu muayyan xalqqa xos milliy madaniyat elementlarini aks ettiruvchi birliklardir. Bunday birliklar muayyan xalqqa xos etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlar, milliy an'analar, udumlar, odob-axloq, muloqot me'yorlari kabilarni anglatadi. Bu kabi ekstralingvistik ma'lumotlarni o'zida jamlagan leksik birliklarni milliy-madaniy markirlangan leksika yoki milliy-madaniy birliklar deyish mumkin.

Yapon tili ham ana shu kabi milliy madaniy birliklarga boy tildir. Mazkur maqolada Yaponiyaning xizmat ko'rsatish sohasining asosini tashkil qiluvchi おもてなし (Omotenashi) so'zining lingvomadaniy qirralari yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqola tahlilida lingvokulturologik tahlil metodlaridan komponent tahlil va semantik funksional tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullari ham qo'llanildi. Maqolaning ilmiy asosi sifatida yapon va boshqa xorij olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, yapon tili izohli lug'atlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

“おもてなし” yapon xalqining o'ziga xos mehmondo'stlik ruhiyatini aks ettiruvchi tushunchadir. Ushbu so'zning negizida yapon xalqining milliy mentaliteti, samimiy ruhiyati, tarixiy ildiz chuqur bo'lgan qadriyatlarini yotadi. “おもてなし” tushunchasi bilan ifodalanuvchi yapon xalqining mehmondo'stligi hozirgi kunda dunyo e'tiborini ham o'ziga tortmoqda.

Hozirgi kunda yaponiyada “おもてなし” so'zi bilan birgalikda ingliz tilidan o'zlashgan サービス (service-xizmat)、ホスピタリティ (hospitality-mehmondo'stlik) so'zlari keng iste'mol qilinmoqda. Yaponlar “おもてなし” deganda ko'proq an'anaviy taniq taomlar restorani yoki yaponcha uslubdagi mehmonxona-ryokan kabi yaponcha uslubdagi xizmatni tushunishadi.

おもてなし、サービス、ホスピタリティ — ushbu uch so'zning har biri ma'nodosh so'zlar bo'lsada, ularning har biri o'ziga xos madaniy komponentni o'z

ichiga qamrab oladi. Shu yerda mana shu uch so'zning kelib chiqishi va ma'nosini tahlil qilishni lozim topdik.

サービス so'zi lotin tilidagi "Servitus" so'zidan olingan bo'lib, "qul, xizmatkor" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, xizmat ko'rsatilayotgan shaxs xo'jayin bo'lib, xizmat ko'rsatayotgan shaxs esa unga bo'ysunuvchi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun サービス standardlashgan bo'lib, yo'riqnoma darajasidagi asosi quriladi. Bunga ko'ra "サービス" da xo'jayin va xizmatkor munosablari vujudga kelgani uchun, uni iqtisodiy ratsionallikning asosi bo'lgan "xizmat qilish, mijozga xizmat ko'rsatish" sifatida tushunish mumkin.

Biroq, ホスピタリティ so'zi yapon tilida "samimiylik bilan siylamoq" deb tarjima qilinadi. Bu so'z lotin tilidagi "Hospes" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "mehmonga vasiy bo'lgan shaxs" degan ma'noni anglatadi. Ushbu so'z o'rta asrlarga kelib sayohatchi va ziyoratchilar dam oladigan cherkov, tunaydigan joyga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Sayohatchi kasallik yoki sog'lig'idagi muammolar tufayli sayohatini davom ettirmagan paytda shunday joylarda tunab parvarishlanganidan kelib chiqib, o'sha paytdagi davolash muassasalari umumiy tarzda "hospes" deb ataladigan bo'ldi. Cherkovda parvarish bilan shug'ullanadigan ruhoniyning ko'rsatgan samimiy xizmatini ホスピタリティ deb atab, mana shu so'zdan hozirgi kunda "kasalxona" ma'nosini ifodalovchi "hospital" so'zi kelib chiqqan. Bundan ko'rinib turibdiki, ホスピタリティ so'zida asosan tibbiyot ma'nosi kuchli aks etadi. Biroq, so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilayotgan ホスピタリティ so'zi mijozning manfaatlari e'tiborga olinib, mijozning istagini qondirish uchun qilinadigan hatti-harakatlar ma'nosini o'zida mujassam etmoqda.

おもてなし so'zining o'zagi "持て成す" fe'li bo'lib "日本国語大辞典" da bu fe'lning 7 xil ma'nosi keltirilgan:

1. 意図的に、ある態度を取ってみせる。わが身を処する。 Ya'ni, ataylab o'zini biror holatga solib ko'rsatmoq. O'zini ko'rsatmoq
2. 見せ掛けの態度を取る。見せかける。 O'zini ko'z ko'z qilmoq
3. 何とか処置する、対応してとりさばく。 Muammoni, ishni hal qilmoq
4. 相手を取り扱う。待遇する。 あしらう。 Birov bilan muomala qilmoq, munosabatda bo'lmoq
5. 大切に扱う。大事にする。 Ehtiyot qilmoq, avaylamoq
6. 手厚く歓待する。ご馳走する。 Siylamoq, mehmon qilmoq
7. 取り上げて問題にする。もてはやす。 Ko'klarga ko'tarmoq, alqamoq, maqtamoq

おもてなし so'zi “「モノ」を持って「コト」を成し遂げる” “Odam” ning “narsa” bilan “ish, amal” ni maromiga yetkazish degan ma'noni bildiradi. Mana shu hurmat ifodasidan おもてなし so'zi kelib chiqqan deyiladi. Mana shu yerdan “表裏なし” (oldi orqasi yo'q) degan ma'noda tushunila boshlagan. モノ va 表 shaklga ega, ko'zga ko'rinadigan turli mahsulotlar va muomala odobini ko'rsatib, コト va 裏 ko'zga ko'rinmaydigan, mezbonning ortida yashiringan g'amxo'r qalb va ko'ngilni ovlash ma'nosini anglatadi. Mana shu oldida (tashqi tomondan) ko'rinmaydigan orqa (ichki) dagi コト おもてなし tushunchasidagi eng muhim xususiyat hisoblanadi.¹⁹⁵¹⁹⁶

おもてなし so'zini “表なし” so'zi bilan ham bog'lashadi. Bu jumladagi 表 (おもて) yuzi, old qismi” degan ma'noni “なし” esa “yo'q”, ya'ni “oldi yo'q”, boshqacha qilib aytganda “oldi orqasi yo'q, ikki tomoni ham bir xil” degan ma'noni bildiradi. Bu tushunchada inson bironvga shunchaki uning ko'zo'ngida yaxshi ko'rinish uchun emas, balki chin yurakdan, samimiylik bilan hurmat ko'rsatishilozim degan ma'no yotadi. Mehmon yoki mijozni faqat uning ko'z oldida emas, balki u yo'qligida ham unga nisbatan samimiy bo'lish, uning yo'g'ida ham uning hurmatini saqlash lozimligini anglatadi. おもてなし da mezbon, xizmat ko'rsatuvchi mehmon(mijoz)ga oldi orqasi bo'lmagan samimiy qalb bilan yuzlanishi lozim. Ya'ni mehmonga sidqidildan hurmat ko'rsatib uning ko'nglini ovlashi, uni xursand qilishi, hatto u bo'lmagan joyda ham unga nisbatan ehtiromli bo'lishi nazarda tutiladi. Bu xizmat ko'rsatuvchi va mijoz turgan joyda qulay muhit yaratishda ham muhim sanaladi. Foydalaniladigan xonaning bezatilishiga, tashqaridan ko'rinadigan hovligacha e'tibor qaratiladi. Muhit ham mehmon kutishda asosiy element bo'lib, ushbu tushuncha しつらえ (xonani bezash, tartibga solish) deb atalib, bu おもてなし tushunchasining ajralmas bo'lagidir. Shuningdek, yapon an'analaridagi おもてなし da faqat mezbon tomon emas, balki mehmon ham odob axloq me'yorlariga amal qilishi talab etiladi. Yaponiyadagi おもてなし tushunchasi

¹⁹⁵ 精版 日本国辞典 小学館 2006

¹⁹⁶ 「接客マナーは心の礎

日本文化「おもてなし」を紐解くー5 (もてなしの語源と作法) <http://projectishizue.blog60.fc2.com/blog-entry-890.html>

yaponlarning o'zgalarni o'ylaydigan qalbidan tug'ilgan bo'lib, hozirgi kunda yaponlar faxrlanadigan madaniyatga aylangan.

おもてなし（御持て成し）so'zidagi old qo'shimcha お（御）hurmat ko'rsatiladigan odam bilan bog'liq holatlar, tinglovchiga nisbatatan hurmat tuyg'usini ifodalashda ishlatiladi. Ilgari yapon mehmonxonalari (ryokan) va restoran biznesida asosiy maqsad odamlar xavfsiz tunash mumkin bo'lgan joy topib qornini to'yg'izishi bolgan. Ammo hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasida shunchaki ehtiyojni qondirish bilan cheklanib qolmay, iliqlik va ruhiy quvonch kabi tuyg'ularni his qilish talab etila boshlandi. So'nggi yillarda Yaponiyaning mehmondo'stligiga bo'lgan e'tibor ortida xizmat ko'rsatish bilan birga "iliqlik, mehr", ya'ni ko'ngilni ovlash, shuningdek, "ruhiylik" ya'ni, o'zi turgan joyning madaniyo'ziga xosligini his qilishga bo'lgan talab turganligini aytib o'tish joiz.

おもてなし madaniyatining kelib chiqishi haqida bir nechta taxminlar mavjud. Hisamatsu(2007)ning fikriga ko'ra, Yaponiyaning おもてなし(mehmondo'stlik) madaniyati choy marosimi madaniyatidan shakllangan bo'lib, yaponlarning turmush tarziga ham o'z-o'zidan ta'sir ko'rsatgan va Yaponiyaning o'ziga xos odob-axloq me'yorlarining shakllanishiga turtki bo'lgan. Yamaue (2008) ham Yaponiyaning Omotenashi madaniyati 茶道 sado-choy marosimi asosida kelib chiqqan bo'lib, choy marosimi madaniyatining xususiyatlari Yaponiyaning o'ziga xos milliy-madaniy komponentlaridan biri hisoblanib, bu tushuncha g'arb madaniyatida me'vjud emas deb ta'kidlaydi. Choy marosimiga yaponlarga xos madaniy xususiyat sifatida qarab, shuningdek, omotenashi mana shu choy marosimi madaniyatiga asoslanadi deb hisoblaydigan bo'lsak, おもてなし ning o'zida ham Yaponiya madaniyati aks etadi deb aytish mumkin.

Shunday ekan, おもてなし ning asosi hisoblangan 茶道 choy marosimi bilan bog'liq mulohazalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan yapon faylasufi Okakura Tenshin o'zining "茶の本" ("Choy haqida kitob") asarida shunday jummalarni keltiradi:

「日本のおもてなしの精神は、主人と客人が一つになる場で「心の癒し」を生み出すことにある。身のこなし、食事、空間、言葉遣い、あらゆるものに気を配り、客を癒す。これを技芸として磨きぬき、一種の美的な宗教の域まで高めたのが茶の湯（茶道）だ」¹⁹⁷

¹⁹⁷ 岡倉天来 茶の本 角川文庫 2005

(“Yaponiyaning mehmondo’stlik ruhiyati mezbon va mehmon birlashadigan joyda “ko’ngil olish” nining vujudga kelishidir. O’zini tutishi, taom, muhit, muomala, har qanday narsaga e’tibor qilib, mehmonning ko’ngli olinadi. Choy marosmi uni san’at sifatida shakllantirib, bir turdagi estetik din darajasiga ko’targan.”)

Kumakura (1998) Yaponiyaning an’anaviy madaniyati bo’lmish choy marosimi, san’atga insoniylikni shakllantiruvchi “道”, ya’ni ta’limotni olib kirib, mehmonni choy bilan siylash odoblari ichida yaponlarning go’zallikni idrok etishi va etika, odob axloq me’yorlarini o’zida mujassam qilgan insoniy munosabatlarni ifodalaydi deb aytadi. Choy marosimi Yaponiyaga Azuchi-Momoyama davrida (1568-1603 yillar) Senno Rikyu degan choy ustasi tomonidan Xitoydan olib kirilgan¹⁹⁸. Senno Rikyu o’z ta’limotida “和敬清寂”(Wakeiseijaku) tushunchasini yoqlab, u choy marosimi ruhiy dunyosining asosini ifodalashini uqtirgan. 和敬清寂 odatda choy marosimida insonning samimiy qalbi, o’zgaga bo’lgan e’tibori, ya’ni axloq odob me’yorlari deb tushuniladi (Kumatsu, 2007). Shuningdek, bu so’z mehmon va mezbonning o’zaro ko’ngil so’rab bir birlarining dillarini yumshatib odob saqlab, bir birlariga hurmat ko’rsatishlari, choy tayyorlanayotgan xonadagi buyumlar va muhitni toza va ozoda saqlashni anglatadi. Bu so’zda ishtirok etgan har bir iyeroglifning ma’nosini qarab chiqadigan bo’lsak, ularni quyidagicha sharhlash mumkin:

“和” (わ) -va- bir-biriga qalbini ochib ko’ngil so’rab, ko’ngliga yo’l topib unga yaqinlashish bo’lib, uning boshida sokin qalb va muhit borligini ifodalaydi.

“敬” (けい) -kei- bir-birini o’zaro hurmat qilib, izzat-ikrom ko’rsatish

“清” (せい) - sei – faqat ko’zga ko’rinadigan narsalarnigina emas, balki qalbni ham zarracha dog’siz pokiza saqlash holati, shubha va g’uborlardan xoli ko’z bilan inson va narsalarga boqish, yuzlanish orqali asl siymo va voqelikning asl mohiyatini ko’rish mumkinligini anglatadi.

“寂” (じゃく) -jaku – har qanday vaziyat yoki paytda ham o’zgarmas, tebranmas muqim qalbni ifodalaydi. Har qanday holatda ham o’zgarmaydigan muvozanatli qalbgaga ega bo’lish orqali xotirjam munosabatga kirisha olish mumkinligini anglatadi.

¹⁹⁹ Ushbu so’zdan mehmondo’stlik va o’zaro hurmat va ehtiromga yo’g’rilgan qalbni o’rganish mumkin.

¹⁹⁸ “Britanika xalqaro katta ensiklopediyasi”, 2011 eletron versiyasi

¹⁹⁹ 温故遊今 <http://www.7b.biglobe.ne.jp/~onnko-yu-kon/tea/spirit1.html>

Okamoto(2008) ushbu 和敬清寂 (wakeiseijaku) deb ataluvchi samimiy ehtiromni jismda ifodalash uchun mehmonni kutib oluvchi mezbonda samimiy his tuyg'ular mujassam bo'lmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Okamoto yana aytadiki, mezbonning o'zi samimiy qalb bilan, chin yurakdan choy tayyorlab o'zi uni mehmonga uzatish hatti harakati mehmonga izzat ikrom ko'rsatadigan qalb sifatida ifodalanadigan bo'ldi. Shunga ko'ra, choy marosimi choy tayyorlash qoidalari orqali ruhiyatni poklashning bir yo'li bo'lib, inson amal qilishi lozim bo'lgan odob axloqni o'zlashtirib,

おもてなし ruhiyatini tarbiyalab boradigan udum sifatida tan olinadi. Mana shu ruhiyat mijozlar bilan muloqotdagi insoniy munosabatlarning asosini tashkil qilishi ta'kidlanadi.

Omotenashi 3 ta asosiy element(unsur) dan tashkil topgan: しつらい shitsuray, 振る舞い furumay, va しかけ shikake. Shitsuray bu xizmat ko'rsatilayotgan moddiy muhitni anglatadi. Bunda xizmat ko'rsatilayotgan xonaning, jihozlar va buyumlarning nafisligi, tozaligi, bezatilishi kabilar nazarda tutiladi. Furumay tortiladigan choy yoki taom, yoki ko'rsatiladigan xizmatning tayyorlanish jarayoni va mezbonning mehmon/mijoz ehtiyojlarini ko'ra olishi orqali mas'uliyatni bo'yniga olish irodasi, jur'atini anglatadi. Shikake bu mehmonning ko'rsatilayotgan xizmat jarayonida ishtirok etish va zavqlanish holatidir. Bu elementlar choy marosimi jarayonlaridan shakllangan.

Yaponlar omotenashi tushunchasini mehmondo'stlikni ifodalovchi klishe sifatida uch darajada qabul qilishadi: uyga tashrif buyuruvchi do'stlar va qarindoshlar bilan bog'liq mehmondo'stlik, yaponcha xizmat ko'rsatish darajasidagi mehmondo'stlik, shuningdek, madaniyatlararo muloqot darajasidagi mehmondo'stlik.

Omotenashi tushunchasi Yaponiyaning mehmondo'stlik sanoatida juda keng tarqalgan. U tom ma'noda turizm sohasiga, yapon mehmonxonalariga, restoranlariga va muzeylariga kirib boradi . So'nggi bir necha yil ichida omotenashi tamoyili turli xil faoliyat turlariga (avtoulavlarni sotish, havo yo'lovchilariga xizmat ko'rsatish, metro binolarini bezatish, yo'lovchilar uchun xatti-harakatlar qoidalarini amalga oshirish, metroda yo'lovchilarning qoidalarini o'rnatish, savdo avtomatlarini takomillashtirish va ularga ehtiyotkorlik bilan xizmat ko'rsatish, ko'zi ojizlarga qulaylik uchun piyodalar yo'laklari va platformalarni jihozlash , jamoat hojatxonalarini jihozlash) tadbiiq etildi.

Omotenashi yaponlarning milliy fe'l-atvoriga xos an'analar majmuiga asoslanadi. Omotenashi so'zining ma'nosi (mazmuni) ba'zan "yapon mehmondo'stligining yuragi" deb ta'riflanadi yoki "xizmatga munosabat" iborasi bilan tarjima qilinadi.

Omotenashi falsafasining ma'nosini tushunish yapon tilida "mehmon" va "mijoz" tushunchalari o'rtasida farq yo'qligini anglashga yordam beradi.

Yaponiyaning mehmondo'stlik falsafasidagi muhim tamoyil "mijoz sizdan yuqori" degan tushunchadir. Bu mijozga nisbatan pastroq yoki yomonroq xizmat ko'rsatadiganlarni anglatmaydi. Mijozga bo'lgan hurmatni oshirish orqali, o'z qadr-qimmatini his qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu tamoyil qandaydir tanish-bilishchilikning namoyon bo'lishini istisno qiladi.

"Yaponiya mehmondo'stligi" falsafasining yana bir tamoyili buddizmdagi "hamma narsada uyg'unlik" falsafasidan kelib chiqadigan "barcha narsadan ustun standartlar" dir. Har qanday standartlashtirilmagan jarayon betartiblikni keltirib chiqarishi mumkin, bu kelishmovchilik va stressni keltirib chiqaradi. Shuning uchun yaponlar juda ko'p rejalar tuzishadi va hamma narsada tartibni saqlashadi. Rejalashtirish va standartlar tartibsizliklarni bartaraf qilish uchun zarurdir. Jarayon ma'lum bir ketma-ketlikda o'tishi kerak, hamma bu ketma-ketlikni va undagi o'zining mas'uliyatini biladi, bu esa tavakkalchilikka barham beradi va asosiy narsaga e'tibor qaratib, ahamiyatsiz narsalar haqida tashvishlanmaslikka imkon beradi.

"Yaponiya mehmondo'stligi" falsafasini amalga oshirish uchun "rasmiy odob-axloq qoidalariga" ham rioya qilish shart. Mijoz bilan har qanday uchrashuvda xizmat ko'rsatuvchi xodim e'tibor va xushmuomalalik bilan salom beradi va ta'zim qiladi. Ushbu ta'zimlar ustida ishlanib mashq qilinadi. Kundalik mashg'ulotlar bilan mukammallikka erishiladi. Yaponlar har kuni bolalar bog'chasidan keyin maktabda va ish joyida bosh egib, salomlashishni mashq qilishadi. Do'konlarda, kafelarda, hamma joyda ta'zim va odatiy iboralarni uchratish mumkin: “こんにちは！ いらっしやいませ！ ありがとうございます！ またお越しく ださいませ！” (Konnichiva, irashshaimase, arigato gozaimashita (“Salom! Xush kelibsiz!”, “Rahmat! Yana keling!”))

Omotenashi har doim 気遣い (kizukay) tamoyiliga asoslanadi. Bu mijozning talab va istaklarini ilg'ay olish va e'tibor berish demakdir.

Omotenashi tushunchasi 2013 yildan keyin Tokio Yozgi Olimpiada o'yinlariga mezbon shahar sifatida tanlangandan so'ng yanada keng qo'llanila boshladi. Yaponiyadagi mashhur teleboshlovchi Kristel Takigava “omotenashi” tushunchasini yapon mehmondo'stligi tamoyillarini aks ettiruvchi tushuncha sifatida keltirib o'tdi.

Uning so'zlarida nafaqat Yaponiyaga kelgan mehmonlarga nisbatan yuqori darajada xizmat ko'rsatishga tayyorlikni ifodalaydi, balki ochiq va samimiy munosabatlarga prinsipial tayyorlikni ham anglatadi. Takigavaning so'zlaridan keyin "omotenashi" so'zi 2013 yilda Yaponiyada 流行語(ryukogo) urfdagi so'z, yil so'ziga aylandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yapon milliy madaniy komponenti hisoblangan omotenashi tushunchasi bu yaponlarga xos mehmondo'stlikning ko'rinishi, mehmonni yoki mijozni ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, unga xursandchilik va xizmatdan chin dildan qoniqish hissini baxsh etish, u kutgandan ortig'ini taqdim etish, uning istaklarini o'zi aytmasdan turib ilg'ay olish va bajo keltirish, unga faqatgina yuzaki emas, balki chin qalbdan, samimiylik bilan munosabatda bo'lish, u yo'qligida ham unga nisbatan hurmat ehtiromda bo'lish kabilarni anglatar ekan. Omotenashining boshqa mamlakatlar mehmondo'stlik tushunchasidan farqi shundaki, unda mehmonga bo'lgan munosabat faqat so'zdagina emas, balki xizmat ko'rsatuvchining barcha hatti harakatlarida, butun vujudida namoyon bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. 山上徹『ホスピタリティ精神の進化』法律文化社、2008
2. 岡倉天心。『茶の本』角川ソフィア文庫、2005
3. 熊倉功夫『日本文化のゆくえ』淡交社、1998
4. 岩本英和、高橋謙輔。日本のおもてなしと西洋のホスピタリティの見解に関する考察. 城西国際大学紀要。2015-03
Hidekadzu Ivamoto, Kensuke Takaxashi .Yaponiyaning Omotenashi (mehmondo'stlik) tushunchasi va Yevropaning "hospitality" tushunchalari talqini// Josey xalqaro universiteti ilmiy nashri 17-26 betlar <https://ci.nii.ac.jp/naid/40021314135>
5. Abdullelah Al-alsheikh. The Origin of Japanese Excellent Customer Service//Studies in Business and Accounting. Scientific Journal. Vol.8
6. 岡村知香。世界に注目される日本の「おもてなし」/桃山学院大学/学年論文 Okamura Chika. Dunyo nazariga tushgan Yaponiya mehmondo'stligi/ Momoyama Gakuin Universiteti. Bitiruv malakaviy ishi. 2013
7. Бессонова, Е. Ю. Японские устойчивые выражения в контексте культуры гостеприимства / Е. Ю. Бессонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 23.1 (157.1). — С. 2-5. — URL: <https://moluch.ru/archive/157/44277/> (дата обращения: 25.12.2020).

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLARGA SODIQLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.

Yusufaliyev Orzumurod Odilovich

Amanov G'ofur Adilovich

*Guliston davlar universiteti, Miliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrası*

E-mail: orzumurodyu85@mail.ru +998994788508

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba'zi dalillar va ularning nazariy asoslarini keltiradi. Yevropa madaniyatini emas, balki o'zimizning milliy madaniyatni targ'ib qilish uchun zarur bo'lgan omillar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Urf-odat, an'ana, Navro'z, qadriyat, ro'za, poklik, insonparvarlik, milliy, millat.

Abstract: In this article, the author presents some facts and their theoretical foundations on educating our youth in the spirit of loyalty to our national values. The factors necessary to promote our own national culture, not European culture, are indicated.

Keywords: Customs, traditions, Navruz, values, fasting, purity, humanity, nationality, nation.

Аннотация: В статье автор представляет некоторые факты и их теоретические основы по воспитанию нашей молодежи в духе верности нашим национальным ценностям. Указываются факторы, необходимые для продвижения нашей собственной национальной культуры, а не европейской.

Ключевые слова: обычаи, традиции, Навруз, ценности, пост, чистота, человечность, национальность, нация.

KIRISH

Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va er usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Yoshlarni milliy urf-odat va an'analar ruhiyatida tarbiyalash- dolzarb vazifalardan biridir. Urf odat va an'analarsiz millat bo'lmaydi. Ular millatning muhim belgilarini tashkil qiladi. Urf - odat va an'analar millat bilan birga shakllanib va rivojlanib keladi. Shuning uchun ham, millat shakllanishining har bir tarixiy bosqichida yangi urf - odatlar va an'analar shakllanib, eskilari taraqqiyot ehtiyojlariga javob bermaydiganlari asta tarixga aylanib boradi. Lekin, millatning zaminlari bilan bog'liq bo'lgan urf - odat va

an'analar barcha tarixiy bosqichlari uchun ham muhim ma'naviy manbaa vazifasini bajarib keladi.

Shu ma'noda milliy urf - odat va an'analarni yoshlar ongiga singdirish har qanday millat uchun o'z taraqqiyotning maqsad va vazifasi bo'lib qolgan. Mustaqillik yillarida milliy urf - odat va an'analarni tiklash, zamon ehtiyojlari asosida boyitish va yangilarini shakllantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Shuning bilan birga ularni yoshlar ongiga singdirish borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, to'y va boshqa marosimlarni o'tkazish an'analari tiklandi, ota- onalar bilan farzand o'rtalarida avlod - ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan munosabatlarni : ota-onaning oiladagi roli, farzandning ular oldidagi burchlarini anglash kabi an'analarga e'tibor oshdi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida bir qator bayramlarning tiklanishi va yangilarining shakllanganligi alohida ahamiyatga molik bo'ldi. Jumladan, ro'za va Qurbon hayitlarini o'tkazish an'anasining, "Navro'z" bayramini nishonlash, va mustaqillik bayramini o'tkazishning an'anaga aylanishi millatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. Ular bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatining ajralmas boyligiga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda qadim tarixdan bizga me'ros bo'lib kelayotgan bu betakror an'ana, qadriyat va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldida muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'ygan.

Bu borada yoshlarni milliyligimiz bilan tarbiyalab borish, yevropa madaniyatini keng tarqalib ketishini oldini olish mavzularida J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xullas, bu yo'nalishda sezilarli vazifalar amalga oshirildi. Ammo, hali bu borada qilinadigan ishlarning ko'lami ham kengayib bormoqda.

Birinchidan, millatimiz tarixi bilan bog'liq bo'lgan urf – odat va an'analarni tiklash, ularni yoshlarimiz ma'naviy boyligiga aylantirish;

Ikkinchidan, millatimiz istiqboli, uning xususiyatlari oldida turgan vazifalarini xal qilishga xizmat qiladigan yangi urf – odatlar va an'analarni shakllantirish ;

Uchinchidan, milliy xususiyatlarimizga zid bo'lgan, tashqaridan yopirilib kelayotgan urf-odat va an'analardan yoshlarimizni asrash kabilardir.

Tashqaridan qaraganda ular oddiy jarayon sifatida sodir bo'layotganday ko'rinsada, aslida ularning yoshlar ongida "joylashib" olishi kelajakda tuzatib bo'lmaydigan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, bugun yoshlarimiz xorijliklarning kiyinishi, yurish turishi, muomala madaniyatlarini ko'r - ko'rona o'zlashtirib olayotganligi milliylikimizga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligi xavotirli jarayon ekanligini alohida ta'kidlash lozim²⁰⁰.

Albatta, gap bugungi yoshlarimizning o'z ota - bobolari kabi kiyinishi yoki ulardan tashqariga chiqmasligi haqida borayotgani yo'q²⁰¹. Hamma muammo yoshlar o'zgalarning kiyinishi, muomala qilish, yurish - turish odatlarini ko'r - ko'rona qabul qilmasligi lozim ekanligi haqida bormoqda.

Aslida yoshlarimizning o'z milliy kiyinishimizni zamon ruhiyati va ehtiyoji talabidan kelib chiqqan holda rivojlantirish va uni jahonda ommaviylashuviga o'z hissalarini qo'shishlari zarur. Biz jahondagi ko'pgina xalqlar ega bo'lmagan buyuk davlatchilik tariximiz, o'z ajdodlarimiz, urf- odatlarimiz va an'alarimizga, qadriyatlarini bilan dunyoda alohida o'ringa ega bo'lgan xalqmiz.

Mustaqiligimiz sharofati bilan ularni qayta tiklayotgan bir sharoitda o'zgalarning urf-odat, an'ana va kiyinish madaniyatini qabul qilishga intilish, boy milliy ma'naviyatimizga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Jumladan, kiyinish insonning ichki dunyosini, ruhiyatini o'zida aks ettiradi. To'g'ri, hamma chiroyli kiyinganlar ma'naviyati yuksalgan komil insonlar, - deb bo'lmaydi²⁰². Ammo, did, farosat, hayo bilan kiyinish insonning ichki dunyosi bilan bog'liqligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Yoshlarimizning milliy urf - odat va an'alarimizni egallashlarida turli vaqtli matbuot, radio va televideniening rolini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Maqsad bitta - xalq qadriyatlarini e'zozlash, poklikni asrash- avaylash, poraxo'rlik, davlat lavozimini suiiste'mol qilish, talon-taroj, ko'zbo'yamachilik kabi illatlardan xalos bo'lish, halol va kelajagi buyuk bir jamiyat yaratish.

Yoshlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish va ularning ongida shu qadriyatlarga mas'ullik hissini uyg'otish maqsadida quyidagi takliflarni beramiz:

²⁰⁰ О,П,Умурзоқов. Умуминсоний қадриятлар: миллий анъана ва урф-одатлар такомиллашмоқда. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1992 №2.

²⁰¹ Э.Ю.Юсупов. Қадриятлар ва уларнинг жамият ҳаётидаги аҳамияти. Т.: 1994 й. 86-87-б.

²⁰² Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси) Т; "Академия". 2011 й. 54-б.

1. “Milliy qadriyatlarning kelib chiqishi va uning o’rni”.
2. “Ota-ona qadri”.
3. “Ota-ona xizmatini qilish har bir farzandning burchi”.
4. “Ota-onaning haqqini ado qil”.
5. “Oila – jamiyatning tayanchi”.
6. “Inson manfaatlari – ezgulik timsoli”.
7. “Islom dinida ota-onani hurmatlashning talqin qilinishi”.
8. “Hadis”da ta’lim-tarbiya”.
9. “To’ylarimiz haqida o’ylarimiz”.
10. “Kelin-kuyov axloqi”.
11. “Yigitlik sha’ni, qizlik iffati”.
12. “Qo’shnilar munosabati, mahalla odobnomasi”.
13. “Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi”.
14. “Inson ma’naviy kamolotida vatanparvarlik, yuksak odob-axloq tarbiyasining ahamiyati”.
15. “O’zbek xalq milliy an’analarini va qadriyatlarining ma’naviy zaminlari”.
16. “Ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat va g’amxo’rlik – shaxs ma’naviyatining yuksak odobi”.
17. “Vatanparvarlik va insonparvarlik – inson ma’naviy qiyofasining asosiy mezoni”.
18. “Milliy o’z-o’zini anglash, milliy g’urur va millatga sadoqatlilik – yuksak burch”²⁰³ kabi mavzularda davra suhbatlari, turli uchrashuvlar, ushbu milliy qadriyatlarga oid madaniy tadbirlar orqali yoshlarni milliylikka chorlash yanada mukammalroq bo’lishiga ishonamiz.

Nafaqat milliy qadriyatlar, balki an’anaviy qadriyatlarning ham ijtimoiy, ham yoshlar ongiga ijobiy ta’siri va foydasi bor albatta.

O’zbek xalk an’anaviy kadriyatlarini, madaniyatlarini xususan, xalk pedagogikasi, ogzaki ijod, uning tarkibidagi pandnomalar, ugitlar, nasixatlar, olkish-duolar xar kuni, xar dakika jonli jaraenlarda yashab, turmush tar-zimizni bezab, ayniksa farzandlarimizning tugri bulish, tugri yashash va axlok-odobi joyida bulishligini eslatib turuvchi, da’vat kiluvchi manbalardir²⁰⁴. Ularning xayotiyli-gi, ijtimoiy-tarbiyaviy xamda umumbashariy axamiyati xam ana shunda! Kiskasi, sharkona, xususan uzbekona kadriyatlarimizni xalk an’anaviy madaniyati avlod-ajdodlardan

²⁰³ Алломаларимиз миллий қадриятлар ҳақида, Милли ва умуминсоний қадриятлар мақоласидан. Тошкент оқшоми, 38-сон.

²⁰⁴ Х.Алимов «Миллийлик ва ижтимоий рухият» Т. 1992 й. 74-б.

suyak surib kelishdan tashkari betinim kaynab, oshib-toshib turuvchi, buloklari chankok kalblar chankogini kondiruvchi, jamiyatga kuch-kuvvat, kurk va ma'naviy bezak, tabiat-ga jon ato etuvchi musaffo chashmadir.

Xalqimizda oila, katta oila, mahalla-kuy, ya'ni jamoatchilik bilan yashash an'anasi, aytish mumkinki, hayotimizning mazmunini tashkil etadi. Mahalliy jamoatchilik deganimizda nafaqat mahalla, balki atrof tanish- bilishlar, ishxonadagi jamoa ham nazarda tutiladi albatta. Mahallada har bir oilaning obro'si shu oila a'zolarining mahalladagi, qolaversa, jamiyatdagi egallagan mavqei bilan ham o'lchanadi.

Har qanday zamonning o'ziga xos dardi, talab va ehtiyojlari bo'ladi. Mustaqillik jamiyat taqdiriga taalluqli juda ko'p jumboqlarni echish bilan birga milliy ma'naviyatimiz oldida turgan bir qator muammolarni ochib tashladi. Ayniqsa axloq-odob masalalari, inson deb atalmish tabiat gultojiga boshqacha nigoh bilan qarash uchun o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlarni bilmog'i kerakligi tan olindi. Ba'zi odamlarni aldash mumkin bo'lsa ham butun bir millatni uzoq vaqt laqillatib bo'lmasligini tushunib etdik.

Qariyb 130 yil davom etgan mustamlakachilik siyosati bizni o'zligimizdan ayirishga harakat qildilar. Buyuk bobokalonlarimizga, xalqimizning asl farzandlari Qodiriy va Cho'lpon kabi ziyolilarimizga "boshqacha" nigoh bilan qarashdi. Lekin baribir maqsadlariga erisholmadilar. Haqiqat egilsa ham, hech qachon sinmasligi yana bir bor ayon bo'ldi.

Yaxshi hulq va barkamol axloqning shakllanishida "Vatan" deb atalmish muqaddas makon bilan uning jonli va jonsiz hilqati, quyoshi- yu havosi bilan ko'z ochgan buloqlari bilan hamnafas bo'lishi lozim. Agar bizning axloqiy fazilatlarimiz millat va uning ravnaqi uchun xizmat qilsagina boshqalarda havas tuyg'ularini uyg'otadi. Ana shundagina millat o'z o'tmishini, urf-odatlarini unutmaydi.

Dunyoda hech qachon o'qib tugatib bo'lmaydigan bir kitob, oxirigacha ijro etib bo'lmaydigan bir musiqa borki, u ham bo'lsa vatan va millat taqdiri hamda urf-odatlaridir.

Har bir inson o'z shaxsiy muammolari bilan birga zamon va millat qadriyatlariga quloq tutishi, xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'ymog'i shart. Ijtimoiy harakat ilg'or va olijanob milliy fazilatlarga qanot bag'ishlasa, xalq ommasi ruhiyati va orzulari bilan yo'g'rilgan bo'lsa, millat va milliy o'ziga xosliklar gullab yashnaydi. Hech qachon shaxsiy g'araz va shuhratparastlik

ilinjida aytilgan soʻzlar yurakka etib bormaydi. Qilingan ishlar milliy qadriyatlar koʻrkini oshirmaydi.

Odamlarning boshini qovushtiradigan, bir tan, bir jon boʻlib mehnat qilishga jalb etadigan “hashar” deb nomlangan udumlarimiz borki, u har qanday millat odamlarini hayratga soladi.

Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qon-qarindoshlik kabi maʼnaviy ziynatlarimizni, oʻzbek xalqining milliy fazilatlarini ulugʻlovchi A.Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” romani koʻz oldimizga keladi. Oʻzini oʻzbek deb bilgan, madaniyatimizga, maʼnaviyatimizga befarq boʻlmagan har bir inson kitobni hech boʻlmaganda bir marta oʻqib chiqqan boʻlsa kerak deb oʻylayman.

Sevimli adibimiz zamon muammolari bilan bir qatorda haqiqiy oʻzbek oilalariga xos boʻlgan jihatlarni mohirona aks ettirgan. Jumladan, Yusufbek hoji bilan Oʻzbek oyimning yolgʻiz farzandini oʻz bagʻrida boʻlishini xohlashlari, ikki oʻt orasida qolgan Otabek qalb amriga qarshi borib, Oʻzbek oyimning “orzu-havas”iga rozi boʻlishi, yoki Kumushbibining oʻz umr yoʻldoshini chimildiqda ilk bora koʻrganida “Siz oʻshami?” deya hayo bilan soʻylashlari tahsinga loyiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shu narsani taʼkidlamoqchimanki, biz yoshlar internetdagi turli chorlovlarga ishonsak, chet elning jangari va axloqiy buzuvchi filmlari tamosha qilsak, asab va qonni junbushga keltiruvchi ajnabiy musiqalarini tinglasak oʻzligimizdan yiroqlashib boraveramiz. Aksincha oʻz bilimlarimizni doimiy ravishda mustaqil taʼlim hisobiga oshirib borsak, boy maʼnaviy merosimiz, anʼanalarimiz, qadriyatlarimizni chuqur oʻrgansak va albatta mutaxassis sifatida ularni keng targʻib qilsakkina vatanimiz, millatimiz, xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni ado etgan boʻlamiz. Ilk tarbiya oiladan boshlanadi. Qush uyasida koʻrganini qiladi deyishadi. Qolaversa bir bolaga etti mahalla ota-ona deb bejizga aytilmagan. Bola yosh nihol hisoblanadi, qayoqqa egsa shu tomonga qarab oʻsaveradi.

Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasida quydagilarni taklif qilish mumkin:

1. Yuksak maʼnaviyatili halqimiz tarixidagi milliylikning bugungi kun qilgan solishtirma usuldagi darslarni, davra suhbatlarini, qisqa muddatli koʻrsatuvlarni koʻpaytirib borish;
2. Yoshlarimizni tarixiy obidalarimizga sayohatlarini tashkil qilish hamda milliy kiyim-kechaklarimiz, buyumlarimiz bilan doimiy tanishtirib borish;
3. Tariximizdagi milliy bayramlarimiz urf-odat, anʼanalarimiz toʻgʻrisida

yoshi ulug' insonlar bilan suhbat jarayonlarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 592 b.
3. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
4. Mo'minova X. “Yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirish” Xalq ta'limi 2003 yil № 1.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma'naviyat. 2007. 238 b.
6. A.Allayarov, G'.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

AFROSIYOB (TALGO-250) ELEKTROPOEZDINI AKKUMLYATOR BATERAYALARNI ISHLASH JARAYONI BILAN TANISHISH

*Jamilov Shuhrat Farmon o'g'li,
Toshkent davlat transport universiteti
shuhratjamilov@mail.ru*

*Shoimqulov Asror Abdunabiyevich
Toshkent davlat transport universiteti
Abdulatipov Ulug'bek Islomjon o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti
ulugbek69719497@gmail.com*

Annotatsiya: Bu maqolada Afrosiyob (Talgo-250) elektropezdni akkumlyator batareyasini kuchlanish zanjir sxemasi, taqsimlash tamoyillari, ta'minlash tizimi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Akkumlyator batareya, nikel-kadmiy, zanjir, kuchlanish, kontaktor.

Аннотация: В статье анализируются принципиальная схема напряжения, принципы распределения, система питания аккумуляторной батареи электропоезда Афросиаб (Тальго-250).

Ключевые слова: аккумуляторная батарея, никель-кадмиевый, цепь, напряжение, контакттор.

Abstract: The article analyzes the voltage schematic diagram, distribution principles, power supply system of the battery of the Afrosiab electric train (Talgo-250).

Keywords: Accumulator battery, nickel-cadmium, circuit, voltage, contactor.

KIRISH

Elektr transportida bu yordamchi energiya manbai emas, balki asosiy hisoblanadi. Bunday batareyalar odatda tortish akkumlyator batareyalari deb ataladi. Biz bu maqolada Afrosiyob (Talgo-250) elektr poezdini akkumlyator batareyalarini ishlash jarayoni, kuchlanish zanjiri, taqsimlash tamoyillari va favqulotda elektr bilan ta'minlash tizimi bilan yaqindan tanishib olamiz. Bundan tashqari akkumlyator batareyalarni foydalanishdagi kamchiliklari va ularni bartaraf qilish usullari haqida haqida bir nechta takliflar berib o'tamiz.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Akkumlyator batareya ramka ostidagi korpusga o'rnatiladi. U nikel-kadmiy turiga kiradi va energiya zaxiralari miqdorini ko'paytirish uchun 86 ta elementga ega. Uning quvvati 105 Ah.

Akkumlyator batareya zaryadlash moslamasi 3 x 400 V quvvatga ega. Diotlarning parallel ulanishi orqali kuchlanish to'g'irlanadi. Taxminan 600 V bo'lgan doimiy oqim kuchlanishi konvertori yordamida 125 V ga aylanadi. Yuqori funksional chastotasi 12 kHz bo'lganligi sababli, zaryadlovchi juda engil bo'lib, quvvati taxminiy atrofida 13 kVt ga teng.

Akkumlyator batareyani zaryadlovchi qurilma yashik ko'rinishida bo'lib, relsdan tepa qismida va BAC kamerasida joylashadi. Qo'shimcha o'rnatilgan ventilyator kerak bo'lganda yo'lda yoqiladi. Akkumlyator batareyani zaryadlovchining boshqaruv elektronikasi to'g'ridan-to'g'ri MVB ga ulangan.

Quyidagi rasmda kuchlanish zanjirini ko'rsatilgan. Iste'mol qiluvchi qurilmalarga chiqishi bilan ketma-ket diot batareyaning boshqa manbadan nazoratsiz quvvat manbai bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.



1-rasm – Akkumlyator batareyaning kuchlanish zanjiri sxemasi

Filtro EMC – Filtr EMC

+ Bateria – Batareya


+ Red 110 V – manba 110 V

- Ubat – Kuchlanish batareyasi

Akkumlyator batareya zaryadlash moslamasining boshqaruv elektronikasi, odatda batareyaning o'zi tomonidan quvvat oladigan bo'lsa, to'liq zaryadsizlangan batareya bilan ishlashni boshlash uchun favqulodda holatlarda 3 x 400 V tarmoqdan (avtomatik ravishda) quvvat olish mumkin.

Quyidagi rasmlarda tarqatish jarayoni ham, tarqatish kanalining ishlash jarayoni ham ko'rsatilgan. Energiya iste'mol qiladigan qurilmalar ikkita asosiy guruhga bo'linadi: har doim quvvatga muhtoj bo'lganlar (pozitsiya va ichki lampalar, boshqaruv elektron ulanish zanjiri, sirpanishga qarshi uskunalari, radio ...) va

poezdning ishlashi uchun quvvat kerak. Birinchisi, batareyaga alohida o'chirish to'xtatuvchisi orqali ulangan, boshqalari esa poezd uzilib qolsa, batareyani ortiqcha yuklamaslik uchun elektron boshqaruvli kontaktorlar orqali quvvat bilan ta'minlangan.



2-rasm - 110 V taqsimlanish tamoyillari

Deteccion derivacion masa – ommaviy tarmoqlarni aniqlash

Armario cargador de bateria - batareyani o'rnatish shkafi

Controlado por electronica central - markaziy elektronika tomonidan boshqariladi

Cargas no controladas por electronica central – kuchlanish, markaziy elektronika tomonidan boshqarilmaydigan: yoritish, sirpanishga qarshi uskuna

Bus 110 Vcc, lateral izq. - kanal 110 V (doimiy) yon tomondan chapga


Bus 110 Vcc, lateral dcho - Kanal 110 V (doimiy) yon tomondan o'ngga

Armario - javon

Bus de tren - poezd kanali


MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu jihoz quyidagi rasmda ko'rsatilgandek, yon devorlar bo'ylab joylashgan akkumulyator kanali orqali energiya bilan ta'minlanadi. Ushbu iste'mol qiluvchi qurilmalarda o'zlariga o'rnatilgan termomagnitlar mavjud. Barcha termomagnitlar yordamchi kontaktlar yordamida nazorat qilinadi va ularning holati raqamli kirish modullari orqali boshqaruv elektronikasiga uzatiladi.



3-rasm - 110 V li kanali orqali shkafni elektr bilan ta'minlash jarayoni

Boshidagi uzatma zaryadlovchi qurilmasi ishlamay qolganda, u avtomatik ravishda aytilgan boshning 110 V tarmog'i orqali 110 V li poezd liniyasiga {} kontaktori orqali qo'shni vagonga ulanadi.



4-rasm - 110 V li poezd kanali orqali bosh uzatmaning favqulotda elektr ta'minoti

- Cab. Motriz – bosh uzatma
Coche – vagon
Bat. – akkumulyator batareya
Carg. – zaryadlash moslamasi

XULOSA

Shuni ta'kidlash kerakki, buning teskarisi qo'llanilmaydi: qo'shni vagondagi zaryadlovchisiga zarar yetganda, barcha vagonlar akkumulyator batareyalar orqali zaryad oladi, eng tashqi vagonda joylashgan zaryadlash moslamasi kuchlanishni oladi. Boshidagi uzatma yordam bermaydi.

Nikel-kadmiyli akkumulyator batareyalari afzalliklari:

- keng ishlaydigan harorat oralig'i;
- chiqarilgan holatda uzoq muddatli saqlash imkoniyati;

- bo'shatish va zaryadlash davrlarining ko'pligi;
- Sovuqda barqaror ish, salbiy haroratlarda quvvatni pasaytirmaydi (ma'lum chegaralarga qadar);

Nikel-kadmiyli akkumlyator batareyalarini ishlatganda, har qanday holatda, xususiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu o'zgarishlarga quyidagilar kiradi:

- suv va kislorodni yo'qotish;
- elektrolarning foydali maydonini kamaytirish;
- elektrolit hajmi va tarkibidagi o'zgarishlar;
- elektr energiya oqimini yo'qolishi.

Bu o'zgarishlarga hech narsa qilish mumkin emas, ammo to'g'ri ishlash bilan ushbu jarayonlar sezilarli darajada sekinlashadi. Xususan, ular to'liq zaryadsizlanishi va qayta quvvatlanishi kerak va ishlab chiqaruvchining barcha tavsiyalariga amal qilish kerak.

Noto'g'ri ishlatish va keyinchalik quvvatni yo'qotish holatlarida nikel-kadmiyli akkumlyator batareyalarini tiklash mumkin. Buning uchun turli usullar mavjud. Eng sodda - odatdagi rejimda to'liq quvvatlanishi va quvvat, bu bir necha marta takrorlanishi mumkin. Bu "xotira effekti" ni olib tashlashga yordam beradi, ammo imkoniyatlarni to'liq tiklamaydi.

Ko'rib turganingizdek, haqiqiy va xavfsiz qayta tiklash usuli, ya'ni to'liq quvvatlanishi va quvvat davrlari hisoblanadi. Boshqalar samarasiz va xavfli bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Д.А. Хрусталаев Аккумуляторы. Год издания: Москва, 2003
2. В.С. Лаврус Батареи и аккумуляторы. Год издания: Москва, 2005
3. В.И. Болотовский, Вайсгант З.И. Эксплуатация, обслуживание и ремонт свинцовых аккумуляторов. Год издания: Ленинград, 1988

УДК (UDC) 656.212.5.073

**YO‘LOVCHI VOKZALLARI VA TO‘XTASH PUNKTLARIDA
YO‘LOVCHILARGA SERVIS XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH
TARTIBI**

*Xusenov O‘tkir O‘ktamjon o‘g‘li– Toshkent davlat transport universiteti,
“Transport harakatini tashkil etish” kafedrasida assistenti,
otkirkusenov@mail.ru*

*Toxtaxodjayeva Mafratxon Maxmudovna– Toshkent davlat transport
universiteti, “Transport harakatini tashkil etish” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
mafirat.toxtaxodjayeva.66@mail.ru*

Annotatsiya – Ushbu maqolada temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish marketingi elementlari hisoblanuvchi transport turlari imkoniyatlarini va yo‘lovchilarning transport turlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini o‘rganildi. Yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan temir yo‘l transporti bilan bog‘liq bo‘lgan servis xizmatlarni baholash me‘zonlari va yo‘lovchilarning servis xizmat ko‘rsatishdan qanoatlanish darajasi tahlil qilindi. Xizmat ko‘rsatishning indekslari ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar – temir yo‘l vokzali, yo‘lovchi poyezdi, temir yo‘l chiptasi, yo‘lovchi tashish marketingi, to‘xtash punkti, tashish xarajatlari.

**ORDER OF IMPROVING THE QUALITY OF PASSENGER SERVICE IN
PASSENGER STATIONS AND STOPS**

*Khusenov Utkir Uktamjon ugli – Assistant of the Department “Organization
of traffic on transport”, Tashkent state transport university,
e-mail: otkirkusenov@mail.ru*

*Toxtaxodjayeva Mafratxon Maxmudovna – Senior lecturer of the Department
“Organization of traffic on transport”, Tashkent state transport university,
e-mail: mafirat.toxtaxodjayeva.66@mail.ru*

Abstract – This article examines the possibilities of modes of transport, which are elements of the marketing of passenger transportation by rail, and the degree of passenger satisfaction with the activities of modes of transport. The criteria for evaluating the services provided to passengers related to rail transport and the level of passenger satisfaction with the services provided are analyzed. Service indexes were specified.

Key words – passenger station, passenger train, railway ticket, passenger transport marketing, stopping point, transport costs.

1408

KIRISH

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” OAJ ning oldida yo‘lovchilar tashishda servis xizmatlarini takomillashtirish, yo‘lovchilarning ehtiyojlarini qondirish, tashishning yangi servis xizmatlarini joriy qilish, amaldagi xizmat turlarini saqlab qolish orqali yo‘lovchilar oqim zichligini yanada oshirish vazifalari mavjud. Yo‘lovchilar o‘z manzillariga chipta sotib olib yo‘lovchi poyezdga chiqishdan, boradigan manziliga yetib olguniga qadar: ya'ni, harakat vaqtining barcha bosqichlarida xizmat sifati va yo‘lovchilarning ehtiyojlari o‘rtasida o‘zaro muvofiqlikka erishish zarurati paydo bo‘ladi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Barcha transport sohasi va yo‘lovchilar manfaatlari uchun ishlab chiqilgan marketing tadqiqotlarini o‘tkazishdan kelib chiqadigan ma’lumotlardan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega. Transport xizmatlari bozorida marketingga umumiy yondashuvni qo‘llash yo‘lovchilarning odatda keng qamrovli transport turlari avtomobil, havo transporti xizmatlariga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lib, yo‘lovchilarga manzillariga yetib olishida qulayliklar yaratilishi uchun temir yo‘l boshqa transport turlari bilan hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


Yo‘lovchi tashish marketingining eng muhim elementlaridan biri transport turlari imkoniyatlarini o‘rganishdir. Buning uchun birlamchi va ikkilamchi darajali ma’lumotlar ishlatiladi. *Birlamchi ma’lumotlar* yo‘lovchi tashish transporti servis xizmatlari sifati qanoatlantirilganligi darajasini baholashni shakllantirish jarayonida bevosita yo‘lovchilardan olinadigan ma’lumotlar. *Ikkilamchi ma’lumotlar* turli xil hisob va statistik tahlillar qilingan hujjatlarda mavjud bo‘lib ular temir yo‘l tuzilmalari va mintaqaviy sub’ektlarning ixtiyorida bo‘ladi [2].

II Yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish indekslarini aniqlash tartiblari

Temir yo‘l transporti yo‘lovchi tashishni amalga oshirishda boshqa transport vositalari bilan sog‘lom raqobatning turli shakllarini faollashtirish va yo‘lovchilarga barqaror foydalanish imtiyozlarini shakllantirishga yordam berib, temir yo‘llarning boshqa transport vositalari bilan raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Yo‘lovchilarga qulaylik yaratish uchun bajaradigan vazifasiga ko‘ra bir xil bo‘lgan transport turlari faoliyatini o‘zaro bir biriga uzviy bog‘liqlikda tashkillashtirish yo‘lovchilarning manzillariga yetib borish vaqtini qisqartiradi va ko‘rsatiladigan servis xizmatlarini sifatini oshiradi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” OAJ da yo‘lovchilarga servis xizmat ko‘rsatishdan yo‘lovchilarning qanoatlanish darajasini yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning

indekslari orqali aniqlash mumkin. Servis xizmat ko'rsatish indekslari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Temir yo‘l transportida yo‘lovchilarga servis xizmat ko‘rsatish indekslar

Belgilangan me'zonlarga temir yo‘l transporti orqali ko'rsatiladigan servis xizmatlaridan yo'lovchilarning qoniqish indeksini quyidagi formulaga asosan aniqlanadi.

$$K_{iy} = \frac{\sum A_{o'rt}}{n} \quad (1)$$

bu yerda K_{iy} – ballardagi mezonlarga muvofiq qoniqish darajasi;

$A_{o'rt}$ – belgilangan omillardan qoniqishning o‘rtacha qiymati, ballarda;

n – belgilangan mezon ichidagi omillar soni, ballarda.

Belgilangan barcha me‘zonlarga asosan temir yo‘l transporti orqali ko‘rsatiladigan servis xizmatlaridan yo‘lovchilarning o‘rtacha qoniqish indeksini quyidagi formulaga asosan aniqlanadi.

$$K_y = \frac{\sum K_{iy}}{n} \quad (2)$$

bu yerda K_y – ballardagi barcha mezonlarga muvofiq o‘rtacha qanoatlanish darajasi;

K_{iy} – belgilangan omillardan qoniqishning o‘rtacha qiymati, ballarda;

n – belgilangan mezon ichidagi omillar soni, ballarda;

i – me‘zonlar turi;

n – me‘zonlarning umumiy soni.

Belgilangan barcha me‘zonlarga asosan temir yo‘l transporti orqali ko‘rsatiladigan servis xizmatlaridan yo‘lovchilarning o‘rtacha qoniqish indeksini foizlarda quyidagi formulaga asosan aniqlanadi.

$$K_{y(\%)} = \frac{K_y \cdot 100\%}{X} \quad (3)$$

bu yerda K_y – yo‘lovchilarning qanoatlanish darajasi, foizlarda;

K_y – belgilangan omillardan qoniqishning o‘rtacha qiymati, ballarda;

X – belgilangan mezonlarni baholashga ajratilgan maksimal ball.

Yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan temir yo‘l transporti bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni quyida keltirilgan me‘zonlarga muvofiq baholash taklif etiladi [2]:

xizmatlarning mavjudligi: biletni sotib olish tartibi, yo‘lovchi poyezdi va uning tarkibidagi vagonlardagi kerakli xususiyatlarga ega biletning mavjudligi;

xizmatlar darajasi: vagonlarning sanitariya va tozalik holati, oziq-ovqat bilan ta‘minlanishi, vagonlarning ichki holati, choyshablar va aksessuarlar bilan ta‘minlanganligi, harakat xavfsizligini ta‘minlash, “xizmat sifati narxi” nisbati va boshqalar.

III Yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni baholash

Uzoq muddatli transport turi hisoblangan temir yo‘l transporti segmentlarida har chorakda tadqiqotlar o‘tkazib “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” OAJ ning filiallari tomonidan amalga oshirilib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Temir yo‘l vokzallari va to‘xtash punktlari boshqarmalari tomonidan har chorakda yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari to‘g‘risida yo‘lovchilar bilan so‘rovnomalar o‘tkazishi va natijalarni baholab borishi yo‘lovchi vokzallariga yo‘lovchilarni jalb qilish uchun muhim omil hisoblanadi

Quyidagilar yo‘nalishlar tadqiqotlar o‘tkazilishi kerak:

- kutish zallari,
- bilet kassalari,
- saqlash kameralari,
- axborot punktlari,
- ovqatlanish joylari (restoran, kafelar va h.k),
- yordam ko‘rsatuvchi ishchilari,
- xavfsizlik va jamoat tartibi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma‘lumotlar asosida, vokzallarda va to‘xtash punktlarida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish, yangi xizmat turlarini joriy qilish zarurlari to‘g‘risida tasavvur shakllanib “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ ning filiallari faoliyatini yaxshilash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Temir yo‘l stansiyalarini, to‘xtash punktlarini jamoat va individual transport stansiyalarini o‘zaro uzviy bog‘liqlikda joylashtirish uchun zarur hududlarni aniqlash va ularni joylashtirish hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Yo‘lovchilarni ommaviy almashish punktlari sifatida temir yo‘l stansiyalarini rivojlantirishga katta e‘tibor talab qilmoqda [3].

XULOSA

Ko‘plab transport turlari yo‘lovchilar tashish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda ishtirok etadi. Ushbu tashishlarning asosiy maqsadi yo‘lovchilarning tashishlarga bo‘lgan talabini maksimal tarzda qondirish hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan muhim omollarning ijro etilishi asosida yo‘lovchi vokzallarida yo‘lovchilarga servis xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali temir yo‘l transportida yo‘lovchilar oqimini oshiriladi. Yo‘lovchilarning temir yo‘l transportiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib boradi va yo‘lovchi tashish transportining ravnaqini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Расулов М.Х. Организация железнодорожных перевозок: теория и практика: монография. – Ташкент: «Ilm-ziyo-zakovat», 2019. – 400 с.
2. Шманёв Т.М. Метод повышения стабильности соблюдения графика движения пассажирских поездов. Диссертация канд. техн. наук. ПГУПС – 2019. – 183 с.
3. Xusenov O‘.O‘. Shahar atrof poyezdlari to‘xtash punktlarining oraliq masofalarini aniqlash tartiblari / O‘.O‘. Xusenov, D.B. Butunov, Sh.X. Bo‘riyev // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. – 2021. №2 (3). – С. 890-895.

QORA METALLURGIYADA HOSIL BO'LGAN CHANGLARDAN RANGLI METALLARNI AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

*Sunnatov J.B «Metallurgiya» kafedrası mudiri ToshDTU OF,
Qarshiyev X.K assistant «Metallurgiya» kafedrası ToshDTU OF.*

Аннотасија. Hozirgi vaqtda qora metallurgiyada hosil bo'layotgan changlarning miqdori sezilarli darajada ko'payishi bilan bog'liq muammo mavjud. Har yili ushbu metallurgik korxonalarda tarkibidagi rux miqdori yuqori bo'lgan changlar chiqindixonaga chiqarib yuboriladi, ularning massasi ishlab chiqarilgan metall umumiy massasiga nisbatan 5 – 10 % ni tashkil qiladi. Dunyo bo'ylab tarkibida rux saqlagan changning yillik umumiy miqdori 10-15 million tonnani tashkil etadi. Bunday changlarda rux miqdori juda keng diapazonda o'zgarib turadi: 2 dan 20% gacha; Ruxdan tashqari, chang tarkibida temir oksidlari (30-60%) va jami 20% gacha qo'shimcha oksidlar (kremniy, kaltsiy va qo'rg'oshin) mavjud. Yuqorida keltirilgan tarkibli changni to'g'ridan-to'g'ri asosiy metallurgik ishlab chiqarishga qaytarish texnologik jarayonning buzilishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi paytgacha kashf qilingan usullar bilan bunday changlarni qayta ishlash unchalik samara bermayapti shu sababli ko'pchilik metallurgik zavodlar bu turdagi changni shunchaki yig'ib qo'yishmoqda. Ushbu maqolada esa bu changni qayta ishlashning bir qancha zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi.

***Kalit so'zlar:** Ikkilamchi resurslar, texnogen chiqindilarni qayta ishlash, rux saqlagan changlar, qora metallurgiya chiqindilari, ferroqotishma, Fastmet, Fastmelt, Охусип, Primus, PaulWurth, Contop, Elektr yoyli pech, С-briкет.*

Аннотация. В настоящее время существует проблема значительного увеличения количества пыли, образующейся в черной металлургии. Эти металлургические предприятия ежегодно сбрасывают на полигон высокоцинковую пыль, масса которой составляет 5-10% от общей массы произведенного металла. Во всем мире общее годовое количество цинксодержащей пыли составляет 10-15 миллионов тонн. Количество цинка в таких порошках колеблется в очень широком диапазоне: от 2 до 20%; Помимо цинка, порошок содержит оксиды железа (30-60%) и до 20% дополнительных оксидов (кремний, кальций и свинец). Возврат порошка указанного состава непосредственно в основное металлургическое производство может привести к нарушению технологического процесса. Обработка такой пыли открытыми до сих пор методами не очень эффективна, поэтому многие металлургические предприятия просто собирают такую пыль. В этой статье обсуждается ряд современных способов утилизации этой пыли.

***Ключевые слова:** Вторичные ресурсы, переработка техногенных отходов, цинксодержащая пыль, отходы черной металлургии, ферросплав,*

Fastmet, Fastmelt, Oxycup, Primus, PaulWurth, Contop, Электродуговая печь, С-брикет.

Abstract: *There is currently a problem with the significant increase in the amount of dust generated in ferrous metallurgy. Every year at these metallurgical enterprises, dusts with high zinc content are discharged into the landfill, the mass of which is 5-10% of the total mass of the metal produced. Worldwide, the total annual amount of zinc-containing dust is 10-15 million tons. The amount of zinc in such powders varies in a very wide range: from 2 to 20%; In addition to zinc, the powder contains iron oxides (30-60%) and a total of up to 20% additional oxides (silicon, calcium and lead). Return of the powder with the above composition directly to the main metallurgical production can lead to disruption of the technological process. The processing of such dusts by the methods discovered so far is not very efficient, so most metallurgical plants simply collect this type of dust. This article discusses a number of modern ways to recycle this dust.*

Keywords: *Secondary resources, man-made waste recycling, zinc-containing dust, ferrous metallurgical waste, ferroalloy, Fastmet, Fastmelt, Oxycup, Primus, PaulWurth, Contop, Electric arc furnace, C-briquette.*

KIRISH

O‘zbekistonda elektr yoyli pechlarda po‘lat eritish AJ O‘zmetkombinatda boshlangan. Unda 13-fevral 1978-yilda birinchi nomerli e.p.e. pechni ishga tushurilgan. O‘sha yili dekabr oyda 2 e.p.e. pech ishga tushdi. 1979- yil sentabr oyda 3 e/p/e pech ishga tushdi. Va nihoyat 2002-yil avgust oyida AJ “O‘zmetkombinat” eng zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan DSP100-UMZ ishga tushurildi. Pechlarni hajmi 100 t tashkil qiladi.

DSP pech dunyo talablariga javob beradi, 1 sutkada 22 po‘lat eritish imkoniyatiga egadir. Pech AKOS agregati bilan birga ishlaydi va 1 yilda 550-600 ming tonna po‘lat eritish qobiliyatiga egadir. Hamma pechlarni ishga tushurilsa, kombinat 1 yilda 1,5-2 mln tonna po‘lat ishlab chiqarish O‘zbekiston talabini to‘liq bajarilsa bo‘ladi. AJ “O‘zmetkombinat” boshqa elektr yoyli pechlar Navoiy KMK (5ta pech), Olmaliq KMK (2ta pech) va bir qancha Mashinasozlik zavodlarida muayyan ishlab turibdi. 2010-2012- yilda Toshkent shahar Sergeli tumanida O‘zbekiston, Xitoy, Rossiya va AQSH qo‘shma truba ishlab chiqarish zavodida 3 elektr pechi qurilishi rejalashtirilgan va qurulyapti. Ko‘rilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, elektr pechlarida po‘lat va ferroqotishmalar olish butun dunyo bilan ham ohangda O‘zbekistonda ham keng tarqalmoqda va bu texnologiya kelajagi porloqdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Yusupxodjayev A.A., Muhametdjanova Sh.A larning o‘quv qo‘llanmalari metodologik manba sifatida olindi. Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Maqolada qora

metallurgiyada hosil bo'lgan changlardan rangli metallarni ajratib olish texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilish obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har qanday metallurgik korxonalar to'xtovsiz faoliyati davomida o'zi joylashgan hudud ekologiyaga va insonlar salomatligiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan po'lat va ferroqotishma eritish jarayonlarida atrof muhitga turli xil ko'rinishdagi chiqindilar ajralib chiqadi. Bu chiqindilardan biri changdir. Chang o'zining judayam kichik o'lchamli ekanligi va tarkibida og'ir rangli metallarning oksidlarini saqlagan holda zararli chiqindilar qatoriga kiradi. Bu turdagi chang inson nafas olish organi orqali oshqozonida to'planib og'ir kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Buni oldini olish uchun esa hozirda changni qayta ishlashning bir qancha usullari taklif etilmoqda.

Metallni chang bilan yo'qotilishi korxonani yillik ishlab chiqarishida 2-5 % yo'qotilishga olib keladi. Agar metallurgik korxonada yiliga 1 mln tonna po'lat ishlab chiqarsa undan hosil bo'ladigan chang esa 32 ming tonnani tashkil etishi mumkin [2].

Ko'p hollarda bu turdagi changlar tarkibida temir oksidi miqdori yuqori bo'lsa ham ular qayta ishlanmasdan shlam saqlovchi maydonlarda yig'ilmoqda. Ayni paytda bu turdagi chiqindi changlar ikkilamchi xomashyo ham hisoblanadi. Changni qayta ishlashning asosiy muommasi shundaki birinchidan jarayondan ajralib chiqayotgan changlarni har xil kimyoviy tarkibli ekanligi va uning dispersligi. Ikkinchidan esa tarkibida rux metalining yuqoriligi va amalda birmuncha qiyin masala bo'lgan ho'l usulda tutib qolingan shlamdan changni ajratib olish hisoblanadi. Elektr yoyli po'lat eritish pechlarining gazni tozalash tizimida 15-25 kg/t chang tutib qolinadi [3]. Bu changlarda nafaqat noorganik moddalar [4] balkim yuqorida ta'kidlaganimizdek (Pb,Zn,Cu) metallar mavjudligi uni qayta ishlashda alohida e'tibor talab qiladi.[5] Bu changlarni xavflilik darajasi esa uning tarkibidagi og'ir metall birikmalarining suvda erishi va chang zarralarining o'lchamiga bog'liq.

1-jadval

Elektr yoyli po'lat eritish pechlarida hosil bo'lgan changlarni tarkibi va ulushi, % da [6].

No	Element	Elektr yoyli po'lat eritish pechi
1	Fe	20-55
2	Zn	2-35
3	C	0.2-5
4	Pb	0.5-8
5	Na	0.5-1.8

6	K	0.3-1.2
7	Cd	0.05-0.2
8	Mn	2-4.5
9	Ca	1-12
10	Si	0.7-5.6
11	Mg	0.6-16
12	Al	0.1-5
13	P	0.01-0.3
14	Cl	0.3-6.8
15	F	0.2-0.5
16	S	0.02-3

Yuqorida ta'kidlanganimizdek bu turdagi changlarni qayta ishlash usullarining foydasi bir muncha past hisoblanadi. Mavjud texnologiyalarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh – Changdan ruxni ajratib olmasdan turib uni aglomeratsiyalash jarayoniga yuborib undan olingan aglomeratni domna pechiga eritishga yuborish hisoblanadi. Bu metodda faqatgina changda rux miqdori o'ta kam bo'lgan hollardagina foydalanish mumkin [7,8] .


Ikkinchi guruh – Ruxni pirometallurgik qayta ishlash usuli bilan ajratib olish hisoblanadi. Bu usulga velslash va FASTMET, FASTMEL, Oxycup, PRIMUS, PaulWurth va boshqa texnologiyalar kiradi. Keltirilgan texnologiyalarning asosini rux oksidlarini turli xildagi uglerod saqlagan reagentlar yordamida yuqori haroratda tiklash yotadi. Jarayondagi asosiy muommo bu tiklovchi materiallarni ko'p miqdorda sarflanishi,pech futerovkasini yemirilishi hisoblanadi. Shuningdek yana ruxni xlorid holatida uchirish ham taklif etilgan. Xloridli usulda ruxni temirdan ajratish yuqoriligi bilan ajralib turadi ammo texnologiyada reagent sifatida HCl ishlatilishi xavfli va zaharlidir [9] .

Uchinchi guruh – Turli xil eritmalar bilan changni gidrometallurgik qayta ishlash. Bu usulda kislotali hamda ishqoriy tanlab eritishni qo'llash mumkin. Kislotali tanlab eritishda changdan ruxni yuqori darajada eritmaga o'tqazish mumkin shu bilan birga eritmada qo'shimchalar shu jumladan temir tuzlari ham ko'p miqdorda bo'ladi. Eritmadan esa ruxni elektroliz usulida ajratib olish mumkin dastlab eritmani qo'shimchalardan tozalash zarur va bu birmuncha sarf xarajatni talab etadi[10]. Erituvchi sifatida odatda sulfat kislota qo'llanilib u anchayin arzon hamda nitrat va xlorid kislotalarga qaraganda ruxni ajratib olish darajasi yuqoriroq [11-14].

Ayni paytda elektr yoyli po'lat eritish pechidan ajralib chiqayotgan changlarni qayta ishlashning laboratoriya va sanoat usullari qolaversa bir qancha patentlar ishlab chiqilmoqda.

Changni qayta ishlashni eng keng tarqalgan usuli esa bu Vels jarayoni bilan qayta ishlash hisoblanadi. Bu jarayonda aylanma quvurli pech ishlatiladi, pechda ishlab chiqarishda hosil bo'lgan changni qariyb 80 % ga yaqini qayta ishlanmoqda [15,16].

Jarayon asosida shixtani dastlab qumochlanib (60 % gacha) so'ng Zn,Cd va Pb larni tiklashga asoslangan. Shuningdek shixta tarkibida 25 % koks kuli hamda 15 % flyus ham bo'ladi. Pechga yuklangan shixta 4 soat davomida harorat 1200 °C da ushlab turiladi.[14] Rux hamda boshqa qimmatbaho komponentlar gaz fazasiga vozgon holatida uchib ketadi. Bu gazlar sovitilganda metall bug'lari kichik dispersli chang holatiga o'tib qoladi. Gaz tozalash tizimida chang elektrofiltrda tutib qolinadi va bu rux oksidi (50-60 %) yoki vels oksidi deb ataladi. Va bu yangi chang tarkibida ko'p miqdorda Pb va Cd saqlaydi va rux ishlab chiqarishga yo'naltiriladi qolgan chiqindi esa qurilish materiallari yoki yo'l qurilishida ishlatish uchun yo'naltiriladi [17].



1 – chizma. “Chelyabinsk rux zavodi” OAJning texnologik sxemasi [18, 19]

Yuqoridagi texnologiya AQSH, Ispaniya, Fransiya, Germaniya, Meksika kabi davlatlarda qo'lanilib kelinmoqda. Jarayon kamchiliklari: Yoqilg'ining ko'p miqdorda sarflanishi, shixtani yiriklashtirish, shixtada ruxning miqdori 4 % dan kam bo'lmashligi kerak, shixta tarkibi hamda haroratni boshqarishni murakkabligi, ekspluatatsion sarf xarajatning yuqoriligi, yakuniy mahsulot toza holdagi rux emas balkim rux oksid holida olinishi va b [20-22].

Sanoat miqyosida ilk marotaba Fastmet va Fastmelt jarayonlarini KobeStell hamda Midrex direct reduction corporation firmalari tomonidan ishlab chiqilgan[23]. Birinchi Fastmet jarayoni 1995 yilda Yaponiyaning Kakogava shahridagi zavodda ishga tushirilgan. Jarayon aylanma quvurli pechda temirni tiklashga asoslangan. Dunyoda atigi 7 % chang aynan ushbu usulda qayta ishlanayapti. Shixta tarkibida esa koks kuli hamda qumochlangan chang bo'ladi. [24] Tiklanish harorat 1300 °C da 8-10 daqiqa davom etadi. Jarayon natijasidagi mahsulotlar esa: tiklangan temir (metallashish darajasi 75-94 %) va rux oksidi (rux 50-65 %).

Fastmel jarayonining Fastmet jarayonidan asosiy farqi bunda elektr pechdan foydalanish hisoblanadi. Asosiy yutug'i esa temirni ajratib olish 98 % ni tashkil qiladi. Texnologiya o'zini sarf xarajatini yiliga 200 ming tonna changni qayta ishlagandagina oqlay oladi [16].


Jarayon kamchiliklari [15] : qayta ishlanayotgan changga yoqilg'ining ko'p miqdorda sarflanishi 100 m³; Qayta ishlanayotgan chang miqdori 200 ming tonnadan kam bo'lmashligi kerakligi; rux oksidini chiqish darajasi kamligi va tiklangan temirni nostabil tarkibi.

Paul Wurth firmasi tomonidan tarkibida rux 5 % dan ortiq bo'lgan changni Primus jarayoni yordamida qayta ishlash texnologiyasi taklif qilingan. Jarayon 2 bosqichli bo'lib bunda ikki xil pechdan ko'p tubli (MHF) va elektr yoyli pechlarda qayta ishlash hisoblanadi. Ushbu jarayonda asosan domna va kislorod konvertor hosil bo'ladigan shlamlar,prokatlash jarayonidan chiqqan okalina,Elektr yoyli pechdan chiqqan changlar qayta ishlanishi mumkin. Tiklovchi sifatida esa ko'mir ishlatiladi [25].

Harorat 1100 °C dan oshmaydi. CO is gazini to'liq yonishidan (ekzotermik reaksiya natijasida) hosil bo'lgan issiqlik zarur energiyani ta'minlab beradi. Rux va qo'rg'oshin oksidlari gaz fazasi bilan birgalikda yangli filtrlarda tutib qolinadi [26] Yakuniy mahsulot esa cho'yan,rux oksidlari (55-60 %li Zn saqlagan) va shlak (keyinchalik qurilish va yo'l qurilish materiallari tayyorlashga yo'naltiriladi) olinadi. Primus jarayoni sanoatda: 2003 yildan – Lyuksemburdagi Primores zavodida (yiliga 60000 tonna chang utilizatsiya qilinmoqda), 2009 yildan Tayvandagi Dragon Stell zavodida (yiliga 100000 t chang utilizatsiya qilinmoqda) [27] .

Kuttner firmasi metallurgik chiqindilarni Oxycup jarayonida qayta ishlashni taklif etishmoqda. Dispers holdagi chiqindilarni (chang va shlam) tiklovchi qo'shib


C-briket holdida flyus hamda temir saqlagan chiqindilar (shlak va skraplar) bilan shaxtali pechga yuklanadi [28] .



2-chizma. Oxycup firmasining jarayoni: a – jarayonning texnologik sxemasi, b – shaxtyali pechning sxemasi

Shixta pechning yuqori qismidan yuklanadi aynan ushbu qismdan chiqindi gazlar chiqishi hisobiga shixta qisman qiziydi. Metallarni tiklanish jarayoni 1000 °C dan boshlanadi. Mahsulotlar metal va shlak tinimsiz ravishda pechdan chiqarib turiladi. 1500°C haroratda tarkibida 4 % uglerod saqlagan cho'yan quyib olinadi. Rux esa koloshnik gazlari tarkibida ajralib chiqadi hamda keyinchalik ikkilamchi xomashyo bo'lib xizmat qiladi [29].


Changni ZincOx Resources [30] firmasi tomonidan yaratilgan sxema bo'yicha qayta ishlashni taklif qilmoqda. Bu jarayonda ham Fastmet jarayonida qo'llaniladigan tubi aylanuvchi pech qo'llaniladi. Asosiy farq shundaki Zinc Ox da flyus qo'llanilmaydi.



3 – chizma. ZincOx elektr pechida po'lat eritishda hosil bo'lgan changni utilizatsiya qilish tizimi


Changni Pizo jarayoni yordamida qayta ishlash natijasida rux oksidi, cho'yan va shlak olinadi. Jarayon bir bosqichli bo'lib, temirni cho'yanga o'tkazish 95 %ni rux oksidi tarkibida esa ruxni ulushi 65-70 % ni tashkil qiladi [31].

Siemens VAI Metals Technologies firmasi tomonidan CONTOP jarayoni taklif etildi. Jarayon 1800-2000 °C da suv bilan sovutiluvchi siklonda olib boriladi. Shixta siklonga yoqilg'i va kislorod bilan birga purkaladi. Suyuq faza (shlak) va rux saqlagan gaz bilan birgalikda markazga qarab harakatlanadi[32,33]. Alohida kamerada gaz faza shlak faza bilan alohida ajratiladi. Rux esa rux oksid holida filtrda ajratib olinadi.



4 – chizma. PIZO jarayoni

Izoh: EYPEP – elektr yoyli po'lat eritish pechi




5 – chizma eritish siklon sxemasi: a – sxema; b - HarzerZink GmbH, Goslar larda o'rnatilgan siklon

Jarayon yutug'i – ajralib chiqayotgan gazlarni issiqligidan olingan elektr energiyasini turbinani aylantirish uchun qo'llanilishi [16].

Shuningdek rux va qo'rg'oshin saqlagan changlarni plazmali usulda qayta ishlashning bir qator texnologiyalari mavjud. Bular quyidagilardir:


Tetronics, Scandust va Arcfume. Mintek, SKF, Davy, Mannesman – Demag kompaniyasining texnologiyalari va b.



6 – chizma ScanDust jarayonining texnologik sxemasi

ArcFume jarayoni rux oksidini tiklashga asoslangan bo'lib, Norvegiyaning Heyanger shahridagi zavodda qo'llanilib kelinmoqda yiliga ushbu zavodda 50 000 tonna chang qayta ishlanmoqda.

Buyuk Britaniya olimlari tomonidan taklif etilayotgan yana bir alternativ usul Tetronics jarayoni hisoblanadi [34].



7 – chizma Tetronics firmasi jarayoni texnologik sxemasi

XULOSA

Yuqorida biz po'lat ishlab chiqarishdan hosil bo'layotgan changlarni asosan pirometallurgik qayta ishlash usullarini ko'rib chiqdik va ular orasida changni plazmalı texnologiya yordamida qayta ishlash usuli o'zining bir muncha afzalliklari bilan ajralib turadi.

Xususan mazkur plazmalı texnologiya bir bosqichli bo'lib bir yoki bir nechta elektrod yordamida pechga argon va doimiy tok berish orqali olib boriladi. Shixta materiallar tarkibida chang, flyus va koks bo'ladi. Tiklanish jarayoni harorat 1450-1550 °C da kechadi va jarayon mahsulotlari cho'yan, shlak va rux oksidi olinadi.

Umumiy xulosa sifatida biz ushbu texnologiyaning quyidagi yutuqlarni keltiramiz:

- Atrof muhitga kam ta'sir qilish;
- Boshqarish va xizmat ko'rsatishni soddaligi;
- Kapital qo'yilma va ekspluatatsion xarajatlarning minimal miqdori;
- Texnologiyaning barcha turdagi chng chiqindilarni qayta ishlash mumkinligi va b.

Tetronics kompaniyasining plazmalı texnologiyalari Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya va Janubiy Koreya davlatlarida ham qo'llanilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- [1] Yusupxodjayev A.A., Muhametdjanova Sh.A Po'lat va ferrosplav elektrometallurgiyasi fanidan ma'ruza matni. –ToshDTU, 2015, 108 – bet.
- [2] Большина Е.П. Экология металлургического производства [Текст] / Е.П. Большина // Курс лекций. – Новотроицк: НФ НИТУ «МИСиС», 2012. – 155 с.
- [3] Guézennec A.-G., Huber J.-Ch., Patisson F. et al. Dust formation in Electric Arc Furnace: Birth of the particles // Powder Technology. – 2005. – Vol. 157. – P. 2–11.
- [4] Sammut M.L., Rose J., Fiani E. Determination of zinc speciation in basic oxygen furnace flying dust by chemical extractions and X-ray spectroscopy // Chemosphere. – 2008. – Vol. 70. – P. 1945–1951.
- [5] Machado. J. G.M.S., Brehm F. Andrade, Mendes Moraes C. A. et al. Chemical, physical, structural and morphological characterization of the electric arc furnace dust // J. of Hazardous Materials. – 2006. – V. 136. – P. 953–960.
- [6] Доронин И.Е. Экспериментальное исследование испарения компонентов сталеплавильной пыли [Текст] / И.Е. Доронин, А.Г. Свяжин // Металлург. – 2014. - № 10. – С. 37-41.
- [7] Валавин В.С., Юсфин Ю.С., Подгородецкий Г.С. Поведение цинка в агломерационном процессе // Сталь. 1988. №4. С. 12 – 17.
Заслуживает внимания использование цифровых технологий в деятельности различных фирм, например, Adidas. На сегодня в данной фирме разрабатываются свежие технологии, начиная от невесомых подушек в спортивной обуви, заканчивая системой Polar. Компании Adidas и Polar совместили современные технологии в общем проекте Fusion. Это партнерство сводит технологии Adidas в одежде и обуви и технологию Polar RS800 Running Computer, которые позволяют измерять частоту пульса, частоту дыхания, скорость передвижения, число сожженных калорий, дистанцию в км и число пройденных шагов занимающегося и т.п.

Современные информационные технологии помогают спортивным поклонникам видеть все отчетливые подробности матчей. К примеру, в футболе внедрение HD-технологий позволяет исключить неоднозначные решения судей во всевозможных матчах. Эти HD-технологии в 5 раз яснее обычных изображений. Профессиональные спортсмены все чаще используют цифровые технологии, датчик которого вживляется в тело и, к примеру, дает возможность замерить линию движения и мощь удара, вследствие чего можно детально разглядеть итоги движения на экране.

В настоящее время довольно принципиальным является создание опережающей информационной среды физкультурного образования в вузе, которая имела бы возможность пользоваться базами данных, разработанных в ведущих вузах страны. Основу этих баз данных составляли бы результаты по диссертациям в области физической культуры и спорта, современным учебникам и учебным пособиям по различным видам спорта, положениям межвузовских, Всероссийский и Международных конференций, программным оболочкам по разработке электронных учебников по спортивным дисциплинам и оздоровительной работе, приготовленным и применяемым в учебно-тренировочном процессе мультимедийным изданиям и т.д. [5, 6]

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Сегодня невысокая техническая оснащенность вузов является основной причиной недостаточно использования цифровых технологий в образовательном процессе по дисциплине «Физическая культура». В настоящее время не у всех вузов имеются компьютерные классы, объединенные Интернет-сетями и вероятностью выхода в онлайн режим образования, нет собственных веб-сайтов, что затрудняет обмен информацией. Поэтому дальнейшее изучение данного вопроса будет способствовать цифровизации образовательного процесса и повышению качества подготовки будущих специалистов.

ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES):

1. Баталов, А.Г. Спортивный дневник как форма учета и контроля спортивной нагрузки квалифицированных лыжников-гонщиков: методические разработки для студентов ИФК / А.Г. Баталов, А.В. Кубеев. – М.: РГАФК, 1995. – 95 с
2. Бушма, Т.В. Организация и содержание самостоятельной работы студентов специализации «Аэробика»/Т.В. Бушма, Л.М. Волкова, Е.Г. Зуйкова // ТиПФК. 2015. – № 2. – С. 24 – 26.

3. Волков, В.Ю. Компьютерное тестирование (программа «Fitness»). Методические указания/ В.Ю. Волков, Л.М. Волкова// Санкт-Петербург, 1996. – 40 с.
4. Волков, В.Ю. Физическая культура. Печатная версия электронного учебника / В.Ю. Волков, Л.М. Волкова, Ю.М. Высоцкий// Санкт-Петербург, 2009. (2-е изд. испр. и доп.). – 322 с.
5. Волкова, Л.М. Современные информационно-диагностические технологии в практике физического воспитания / Л.М. Волкова, В.Ю. Волков // Физическая культура, спорт и здоровье. – 2014. – № 23. – С. 17 – 20.

RUS ILMIY JAMIYATLARI TOMONIDAN TURKISTON ETNOGRAFIYASINING O'RGANILISHI

*Abdujabbor Qambarov,
Namangan davlat universiteti
Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan yevropalik olimlar, ularning tarix xususan, O'rta Osiyo etnografiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan. Bunda asosan ularning sart etnik tushunchasi, sart etimologiyasi haqidagi qarashlari o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** Sart, ilmiy jamiyat, o'lka, ko'chmanchi, o'troq, din, aholi, mashg'ulot, xususiyat, asar, esdaliklar, hudud, Sirdaryo, fors, xonlik.*

THE STUDY OF TURKESTAN ETHNOGRAPHY BY RUSSIAN SCIENTIFIC SOCIETIES

*Abdujabbor Kambarov,
teacher at the Department of National Idea and Law Education
Namangan State University*

***Annotation:** This article analyzes the history of European scientists who worked in the late 19th century to early 20th century in Turkestan, and their researches on the ethnography of Middle Asia. The article mainly studies their views on the Sart ethnic concept and Sart etymology.*

***Key words:** Sart, scientific society, country, nomad, sedentary, religion, population, occupation, character, novel, memories, area, Syrdarya, Persian, khanate.*

KIRISH

O'lkani o'rganish barcha sohalar bo'yicha olib borildi. Turkiston xonliklariga yuborilgan elchilar bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xonliklarning iqtisodiy, moliyaviy, xo'jalik holatini, harbiy soha, siyosiy vaziyat, davlat boshqaruvni o'rgandilar. Tabiatshunos, geograf, etnograf olimlar esa, hududning tabiiy imkoniyatlari, aholining turmush tarzi, mahalliy hokimiyatga munosabati va boshqa jihatlarni o'rganib, ma'lumotlarni to'pladilar hamda ushbu ma'lumotlarni umumlashma xulosalar tarzida podsho hokimiyatiga yetkazib turdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TAJRIBA METODI

Tarixiy voqelikka nazar tashlansa, Rossiya imperiyasi mutasaddilari Turkiston o'lkasini o'rganishni hali u bosib olinmasidan ancha avval boshlaganliklarining guvohi bo'lamiz[1].

Turkiston o'lkasining zabt etilishida rus olimlarining avvaldan berib borgan ushbu ma'lumot-axborotlari ham o'ziga xos rol o'ynaganligini unutmazlik kerak.

O'лка rus hukumati tomonidan bosib olingach, turli yo'nalishdagi ilmiy jamiyatlar tashkil etildi va ularning faoliyati yo'lga qo'yildi.

Tan olib aytish kerakki, mazkur ilmiy jamiyatlar tomonidan talaygina ishlar ham amalga oshirildi. Tegshli sohalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi, kitoblar nashr qilindi.

Bu borada ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha tashkil etilgan Turkiston etnografiya jamiyati, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi, Sharqshunoslar jamiyati va boshqalarni alohida ta'kidlab o'tish joiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur jamiyatlar oldiga qanday vazifa qo'ygan bo'lishidan qat'iy nazar, ular qoldirgan ilmiy ma'lumotlar bugungi kundagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhimligi bilan ajralib turadi.

Yevropalik olimlar tomonidan tashkil etilgan ilmiy jamiyatlarda faoliyat yuritgan V.P. Nalivkin bu borada sezilarli ishlarni amalga oshirgan. Olim o'zining maqola va asarlarida mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlarini, kiyinish madaniyati, hududlar aholisining shevalari, aholining etnik tarkibi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni bergan.

Jumladan, Turkiston aholisi mazkur davrda o'troq sartlar, ko'chmanchi qirg'izlar, yarim ko'chmanchi aholi (Sirdaryo viloyatining Toshkent ue'zdidagi quramalar, Samarqand viloyatidagi o'zbeklar, Farg'ona viloyatining qipchoq va qoraqalpoq aholisi), tatarlar va mahalliy yahudiylardan iborat ekanligini yozadi[2].

1867 yil qabul qilingan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqaruvi to'g'risidagi muvaqqat Nizomda Turkistonning mahalliy aholisi "Sart" va "Qirg'iz"larga ajratilib talqin qilingan bo'lsa, 1886 yil qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqaruvi haqida"gi Nizomda esa, aholi "O'troq" va "Ko'chmanchi" lar toifasiga ajratilib talqin etilgan.

N. R. Ostroumov aholini bu tarzda toifalarga ajratilishi Qo'qon xonligi davrida ham amal qilganligini yozadi. Ya'ni, Toshkentda hukmronlik qilgan qo'qonlik beklarbegi[3] amaldorlarining farmoyishlarida mahalliy aholiga "Sart" va "Qirg'iz" lar, deb murojaat qilganliklarini keltirib o'tgan[4].

N.R. Ostroumov sart so'zining kelib chiqishiga ham atroflicha to'xtalib o'tgan. Bu borada ushbu so'zning kelib chiqishi-etimologiyasini chuqur tahlil qilgan. Buning uchun nodir sharq qo'lyozmalari, arab, fors va turkiy tildagi manbalardan iqtiboslar keltirgan. Jumladan, Rashididdin Fazlullohning "Jom'e at tavorix" kitobidagi "Mo'g'ullar tarixi" bo'limidan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"

asaridan, Alisher Navoiyning asarlaridan foydalanib o‘z fikrlarini asoslashga harakat qilgan.

Olim sartlar va ularning etnik xususiyatlariga aniqlik kiritish uchun O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat qilgan rus sayyohlarining asarlari-esdaliklaridan ham foydalangan. Masalan, maxsus missiya bilan Xivaga kelgan podpolkovnik G.I. Danilevskiyning esdaliklari, 1793-1794 yillarda Xivaga tashrif buyurgan vrach Blankennagelning xotiralari, XVII-XVIII asrlarda o‘lkaga sayohat qilgan rus sayyohlarining yodnomalaridan ham kerakli o‘rinlarda foydalangan.

Aslida buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar ham o‘z asarlarida sartlar va ularning til xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tganlar. Masalan, o‘rta asrlarda Xurosonda sart atamasi forsiy tili aholiga nisbatan qo‘llanilgan. Bu borada Alisher Navoiy turkiy tilni forsiy (sart) tili bilan qiyoslab, o‘z asarida tahlil qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida esa, Marg‘ilon aholisini “...Eli sortdir”, deb ataydi[5]. Ayni paytda Isfara aholisini ham sart, deb ataydi.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida ham sort (sart)larni forsiy tilda so‘zlovchi xalq sifatida ta’riflab, quyidagi izoh bergan edi: “Hatto turk shuarosikim²¹⁵, forsiy til bila rangin²¹⁶ ash’or va shirin guftor zohir qilurlar²¹⁷. Ammo sort ulusining arzolidin ashrofig‘acha va omiysidin donishmandig‘acha hech qaysi turk tili bila takallum²¹⁸ qila olmaslar va takallum qilg‘onning ma’nisin ham bilmaslar. Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o‘rganib so‘zki aytsa ham, har kishi eshitsa bilur va aning sort ekanin fahm qilur”[6]. Bu bilan Alisher Navoiy turkiy xalq vakili forsiy (sortcha)da erkin gaplasha olagan holda, forsiylar turkiychada erkin so‘zlay olmasliklarini bayon qilgan.

Demak, bu o‘rinda sart atamasi rus ilmiy jamiyatlarining vakillari bayon etgani kabi, o‘troq mahalliy aholiga nisbatan qo‘llanilgan. Tadqiqotchi G.Lerx sartlarning o‘sha davrlarda Sirdaryo (Yaksart)ning o‘rta va quyi oqimlari, shuningdek, Xiva xonligi hududida keng tarqalganligini yozadi[7].

Yevropalik olim E.S. Vulfson esa, tadqiqotlarida sartlarning diniy e’tiqodlari xususida fikrlar bildirgan. Jumladan, sartlar deyarli hammasi Islom diniga e’tiqod qilishi, qat’iy ravishda Qur’oni Karim ko‘rsatmalariga amal qilish, ularning turmush tarzi ham shu asosda tashkil etiganligini bayon qilgan[8].

Akademik A. Middendorf o‘zining “Ocherki Ferganskoy dolini” nomli kitobida sart aholisining qushlar parvarishiga e’tiborliliigi, uyining to‘risiga in qurayotgan

²¹⁵ Shoirlari.

²¹⁶ Turli xil.

²¹⁷ Shirin so‘zlaydilar.

²¹⁸ So‘zlay olmaslar.

qaldirg‘ochga xayrixohlik ko‘rsatishini Yevropaning ayrim xalqlaridagi shu xususiyatlar bilan qiyoslab bayon etgan. “Rus qishloqlaridagi qaldirg‘ochlarni ham hech kim bezovta qilmaydi. Balki, barcha ularni mushuklardan himoya qilish uchun harakat qiladi”[9]. Bu bilan bunyodkor g‘oyalar dunyoning barcha millat va elatlari uchun xos xususiyat ekanligiga urg‘u bermoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan rus ilmiy jamiyatlari O‘rta Osiyo aholisining etnik tarkibi, etnologiyasi, etnopsixologiyasi, etnomadaniyati xususida talaygina ishlarni amalga oshirganlar. Mazkur tadqiqotlarni sinchiklab tanqidiy holatda o‘rganish, bugungi kunda o‘lkamizning haqqoniy tarixini yoritish uchun o‘ziga xos omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Савельевъ П. Бухара в 1835 году.-С.Петербург: Издательство Н.Греча, 1836.; Татаринов А. Семимесячный плен в Бухари.-Санкт Петербург: Издание Маврикия Осиповича Вольфа, 1867.; Ханыков Н. Описание Бухарскаго ханства.- Санкт Петербург: Типография Императорского Академии Наук, 1843.; Мурвьев Н. Путешествие в Туркмению и в Хиву в 1819-1820 годах. Часть первая.-Москва: Типография Августа Семёнова, 1829.
2. Наливкин П.В. Туземцы раньше и теперь.-Ташкент: Типография Туркестанского Товарищества Печатного Дела, 1913.-С.3,5.
3. Бекларбеги-хонликлар давридаги амал. Бек атамасидан фарқи шуки, агар бек ўз даврида маълум туман ёки маъмурий бирлик устидан рахбарлик қилган бўлса, Бекларбегининг ваколат доираси ва у бошқарадиган худуд хажми ҳам бекниқидан анча миқдорда юқори бўлган. Шу сабабли барча беклар устидан рахбар бўлганлиги боис ҳам у бекларбеги, деб аталган.
4. Остроумов Н. Р. Сарты. Этнографические материалы. Издание второе, дополненное. -Ташкент: Типо-Литография торгового дома «Ф. и Г. Бр. Каменского», 1896.-С.3.
5. Захириддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”.-Тошкент: Юлдузча, 1989.-Б.8.
6. Алишер Навоий мукаммал асарлар тўплами. Муҳокамат ул луғат айн. XVI том. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти –Тошкент: Фан, 2000.-Б.8.
7. Остроумов Н. Р. Сарты. Этнографические материалы. Издание второе, дополненное. -Ташкент: Типо-Литография торгового дома «Ф. и Г. Бр. Каменского», 1896.-С.29.

8. Вульфсон Э.С. Как живут сарты.-Москва: Издание книгоиздательства А.С.Панафидиной, 1908.-С.11.
9. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины.- Санкт Петербург, Спб, 1882.-С.

YOSHLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA AMALIYOTLARNI O'RNI

Abdiyeva Dilfuza Kurbanovna.

Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti, Qarshi.

***Annotatsiya:** Hozirgi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, o'sib kelayotgan yoshlarga zamonaviy ta'lim berish hamda makalarini shakllantirish borasida ijobiy natijalarga erishib kelmoqda.*

O'zbekistonda joriy qilingan uzlusiz ta'lim tizimi iqtidorli yoshlarning ko'payishiga zamin yaratdi. Ular o'zlarining qiziqish va qobiliyatiga qarab, ta'lim olishmoqda. Yoshlarimizning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, o'zini o'zi rivojlantirishlari uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berilmoqda.

***Kalit so'zlar:** Tafakkur, sog'lom tafakkur, shaxs, o'quvchi, boshqarish, tashabbuskorlik, faollik.*

***Аннотация:** В настоящее время наша страна добивается положительных результатов в воспитании гармонично развитого поколения, современном образовании молодежи и формировании ее навыков.*

Введенная в Узбекистане система непрерывного образования создала основу для роста талантливой молодежи. Они получают образование в соответствии со своими интересами и способностями. Наше государство создает все условия и возможности для нашей молодежи получить образование, получить профессию и развиваться.

***Ключевые слова:** мышление, здоровое мышление, личность, студент, менеджмент, инициатива, активизм.*

***Abstract:** At present, our country is achieving positive results in educating a harmoniously developed generation, modern education for young people and the formation of their skills.*

The system of continuing education introduced in Uzbekistan has created a basis for the growth of talented youth. They are educated according to their interests and abilities. Our state creates all conditions and opportunities for our youth to get an education, acquire a profession and develop themselves.

***Keywords:** Thinking, healthy thinking, personality, student, management, initiative, activism.*

KIRISH

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog‘liqdir. Yoshlarni hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, o‘z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta‘minlash doimo davlatimizning diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik, erkinlik, bunyodkorlik asosan ijodiy, amaliy, nazariy tashabbusda namoyon bo‘ladi. Tashabbus iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning, insonlarning yangi talabiga mos keladigan moddiy, ma‘naviy mahsulotlar yaratishga qaratilgan taklif, g‘oya, fikr yoki amaliy jarayondir. Biror sohada tashabbus ko‘rsatish uchun har kishi o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan sohani mukammal bilishi, bu sohani mahsuliy jarayonida nimalar taraqqiyotga, rivojlanishga, mahsulot sifati, turi, narxiga to‘siq bo‘layotganini aniq bilishi bu kamchiliklarni tugatishga qaratilgan aniq texnologiya g‘oya, amaliy takliflarga ega bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Maqolada yoshlarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliyotlarni o‘rni obektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda X. Rashidov va N.Xo‘jayev asarlari asos sifatida olingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tashabbuskorlik sifati insonlarning ichki faollik omillari: birinchidan, har bir kishining o‘z qiziqishi, o‘quv qobiliyatiga mos hayot yo‘lini topish orqali o‘z qadrini ro‘yobga chiqarish bo‘lsa, ikkinchidan shaxsiy manfaatdorlik, shaxsiy mulkning faqat moddiy emas, balki ma‘naviy qadriyatlarni ishga tushirish orqali o‘zini va davlat, jamiyat va olamni takomillashtirishga hissa qo‘shishdan iborat.

Bunda albatta yoshlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, qobiliyati, qiziqishlarini hisobga olish lozim. Bu ularda kasbga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Yoshlarda kasbiy bilim olishga motivatsiyani shakllantirish uning kelgusidagi kasbiy faoliyati haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi – bu uning mutaxassis sifatida ongli ravishda o‘zini-o‘zi maqsadga yo‘naltirilgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon kasbiy faoliyat samaradorligini ta‘minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarni, shaxsiy va kasbiy sifatlarini mustaqil takomillashtirishni o‘z ichiga qamrab oladi va quyidagi tashkil etuvchilardan iboratdir:

- shaxsiy sifatlarni kamol toptirish;
- intellektual rivojlanish;
- kasbiy rivojlanish;
- jismoniy komillik.

Yoshlarimiz o‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirishi uchun qator zarur sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasbiy masalalarni yechishga ichki motivatsiyani shakllantirish;
- kasbiy masalalarni yechish jarayonida yuqori natijalarga erishishga intilish;
- kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning mazmunini tushunish va metodik asoslarini bilish.

O‘quvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish usullaridan biri bu ishlab chiqarish amaliyotlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy maqsadi kichik mutaxassislarni kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va malakalarini oshirishdan iborat bo‘ladi.

O‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti bo‘lajak mutaxassilarga kasbiy soha bo‘yicha aniq ko‘nikma va malakalarni o‘rgatishdan tashqari ularni tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga ham tayyorlash, ya’ni ularni jamoaning dastlabki bug‘inlariga rahbarlik qilish ko‘nikmalarini ta’minlash uchun amaliyot jarayonida ularni nimaga, qanday vositalar yordamida, qanday qilib o‘rgatish masalasani hal etish lozim bo‘ladi.

Ishlab chiqarish amaliyotlari ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi va an’anaga ko‘ra, o‘quv rejalari va dasturlarida nazarda tutilgan o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutiladi;

- olingan nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- ishlab chiqarish xodimlari bilan aloqalar o‘rnatish va ularni rivojlantirish, ish yuzasidan muloqot qilish, guruh yoki jamoada hamkorlikda ishlash, axborot almashish tajribasini egallash.

Ishlab chiqarish amaliyoti ta’limning uzviy tarkibiy qismidir. Kasbiy bilimlarni egallash o‘quv faoliyatining shunday yo‘nalishini nazarda tutadiki, bunda uning butun mazmuni, bevosita yoki bilvosita tanlangan mutaxassislik bo‘yicha ta’lim oluvchilarning mehnat faoliyatiga tayyorlashga qaratiladi.

Ishlab chiqarish amaliyotining o'rgatuvchi imkoniyatlarini aniqlash uchun har bir amaliyotning maqsadlari va vazifalarini, amaliyotchilar faoliyati sohasini, bunda olinadigan amaliy bilimlar va ko'nikmalarini, yechilayotgan masalalar doirasini va turlarini yechish usullarini, har amaliyotda masalalarning izlanuvchanlik yo'nalishini ko'rib chiqish juda muhimdir.

Amaliyotchining kasbiy faoliyati maydonini yanada to'la tavsiflaydigan bilim va ko'nikmalar hajmini shakllantirish zarur deb tasavvur qilinadi. Amalda birlamchi kasbiy malakalarni hosil qilish uchun bunday maydon ish o'rni bo'ladi. Binobarin, amaliyotning asosiy vazifasi amaliyotchida ish o'rni, unda ishni tashkil etish, mazkur ish o'rning boshqalari bilan o'zaro aloqasi, uning ishlab chiqarishning umumiy tuzilmadagi o'rni to'g'risida to'liq tasavvur yaratish bo'lishi kerak. Bu masalalar amaliy malakalarni o'zlashtirishdan ko'ra ancha keng ekanligi ko'rinadi. Kasbga tayyorlashning juda muhim jihatlaridan biri amaliyotchining ish o'rni uchun xos bo'lgan barcha faoliyat turlariga kiritilganligi va albatta ulardan xabardorligi amaliyotchining asosiy vazifalari va rollarini o'zlashtirganligi hisoblanadi.

Amaliyot davrida quyidagi xulosalar chikariladi.

- dastlabki kasbiy malakalarni hosil qilish uchun amaliyot o'quvchilarni o'qitishda, ularga amaliy malakalarni singdirishda va korxonada, tashkilot to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilishda kata imkoniyatlarga ega;

- odatda amaliyotchilik faoliyati yechiladigan masalalarning tor doirasi bilan cheklangan, ya'ni amaliyotni mazkur ish o'rniga xos bo'lgan faoliyatning barcha turlariga to'liq darajada kirishmaydi;

- amaliyotlar dasturida yechimning yechilishi amaliyotchining izlanish faoliyatini va uning olingan nazariy bilimlardan foydalanishni amalga oshiradigan real ishlab chiqarish vaziyatlarini hisobga olib, ularning ijodiy masalalarini bajarishlari nazarda tutilmagan;

- olinayotgan ma'lumotlar hajmi ularni umumlashtirishga va tahlil qilishga, ish o'rnini tashkil etishda ma'lum bir qonuniyatlarni aniqlashga imkon bermaydi.

Barcha aytilganlar amaliyotni o'tkazish mazmunini va metodikasida tub o'zgarishlar zarurligini dalillar bilan yana bir bor isbotlaydi. Bu ayniqsa zamonaviy ishlab chiqarishda dolzarbdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda

muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, taxlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassisllarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi.

Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari amaliyotlarda ishtirok etish jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda kelajakda mustaqil ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning amaliyotlarini to'g'ri tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish zarur ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Rashidov X va boshqalar "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) Toshkent 2007-yil.
2. N.Xo'jaev va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2007.
3. Abduquddusov O. A, Rashidov x. f. "Kasb-hunar pedagogikasi" Toshkent-2009-yil.
4. Mirzoulug'Mirsaidovich, M., & Buriniyozovna, E. S. (2021). OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 100-404.

THE PROBLEMS OF SOCIAL AND ETHNIC CONFLICTS

Turaeva Sanobar Khalimovna

Mamasoliyev Mirzoulug' Mirsaidovich

Karshi engineering-economic institute (Uzbekistan)

Abstract: *It is available to study social reality objectively only by searching and detecting of permanent changing in it. The purpose of finding of substantial «order» in society gives rise to distance with social reality, takes away the searcher from veritable of state of affairs. Scientific studying of social reality run through rivalry, competition, exertion and antagonism assumes to emphasize the phenomenon which is the subject of scientific discussions and it demands rapt attention. This is the phenomenon of social and ethnic conflict.*

Keywords: *social class, ethnic, local, conflict, Emil Durkheim*

Аннотация: *Объективно изучать социальную реальность можно только путем поиска и выявления в ней постоянных изменений. Цель нахождения содержательного «порядка» в обществе порождает дистанцию с социальной реальностью, уводит искателя от истинного положения вещей. Научное изучение социальной реальности, проходящей через соперничество, соревнование, напряжение и антагонизм, предполагает акцентировать внимание на явлении, которое является предметом научных дискуссий и требует пристального внимания. Это явление социального и этнического конфликта.*

Ключевые слова: *социальный класс, этнический, местный, конфликт, Эмиль Дюркгейм.*

INTRODUCTION

What is the nature of social conflict? What is the ethnic conflict? What is the role of conflict in society? Isn't it the cause of the social contradictions? Should the society solve this social conflict or get used to living in the conditions of it? Does the social conflict promote the development of society or does it hinder it?

These and many other questions demand deep comprehension and defining of social conflict, the reasons of its origin, means of its solution and, in the upshot, revealing of the ' role and significance of social conflict in society.

Commonly, the conflict is a resisting and struggle. The ethnic conflict is the variety and particular form of the social conflict. Social conflict is the result of such social system, in which the aims and intentions of its element become incompatible.

According to this statement, the clash in society is inevitable phenomenon which it is necessary to make adequate relations with.

The problem of the nature of conflict has interested the thinkers from the high antiquity. When the elucidation of the nature of conflict it has formed at least two points of view in the history: Aristotle's and Hobbes's. According to Aristotle's point of view the reason of the conflict is social system and the character of distribution of goods. In Hobbes's opinion the conflict is due to the natural equality of people. The equality of people in their pretensions gives a rise to the clash, because the objects of claims cannot belong to everyone at the same time.

REFERENCES AND METHODS

In this work, the logical, historical, coherent, objective methods of cognition were used, and descriptive, comparative methods were used to cover the topic. In the course of the research, the problems of social and ethnic conflicts were covered objectively, while A.G. Zdravomyslov's work "Sociology in Conflict" was taken as a methodological source.

DISCUSSION AND RESULTS

The problems of social and ethnic conflicts in the structure of the modern theoretical knowledge take a peculiar place. This situation was contributed by the ideas expressed by Max Weber, Emil Durkheim, Talco Parsons, Neil Smelser, Ralf Darendorf and others.

The peculiar interest and requirements in studying of social and ethnic conflicts is connected with that situation in the 1990s after the disintegration of Soviet Union when new social and political formations embarked on difficult reforms where most often used the concepts of market and democracy. Exactly for market and democracy the conflict protrudes as a general concept, «New interests of individuals, groups, organizations, social institutes and social strata are formed by means of conflict» [1].

The studying of social conflict is not in vain. Abroad has accumulated vast experience in this matter. In advanced researches of scholars abroad the problem of social conflicts has elaborated in the context of the theory of human demands. If in the past such leading figures of the science of conflict as Darendorf, Cozer, Deutch and others asserted that in the foundation of all conflicts was the question of power and authority, conflicts exist in connection with distribution of resources and in consequence of differences in purposes, the cause of conflict among the groups of people can be claims of dominating of those values, in the newest literature the problem of nature of the social conflict and its solution mostly examined through the

prism of the satisfaction of human requirements.

At any level of social life natural and universal requirements of a person and social and national groups is a solid root cause of all conflict and controversial situations which begin from problems of mode of life and ending with international difficulties. Furthermore, the requirement of security, confession, identity, social belonging, prosperity, freedom are inherent to every individual, social groups, ethnic formations, societies and countries.

The vast majority of researchers consider that not only requirements can be the source of conflicts. The cause, according to the researches, is in the deficiency and in scantiness of adequate means or methods of satisfaction of existing demands.

For having a solution of social and ethnic conflicts a big importance has a following circumstance: in connection with the decision of the needs of structuring of problems it is arisen many questions, among them important the issue of hierarchy of needs. Ordering the structure of needs most researchers distinguish fundamental (central, essential) and second (derivative, peripheral) components.

The importance of indicated distribution of needs to the degree of significance is in the process of solving the conflict. Its clearing up the issue of degree of satisfaction of needs in V the dependence of its place in hierarchical staircase and also according to the depth of solution of disputable problem.

In terms of classification of needs, A. Maslow emphasized that the highest and social requirements are closely connected with the physiological needs. As noted N. Kuznetsov, «based on the ideas of the human person and the integrity of its development, Maslow builds the hierarchy of needs, convincingly showing the value of satisfaction of the physiological needs: it gets rid the organism of its predominance and gives the opportunity of the development and displaying of other, more social requirements» [2].

In ethnic relations the fundamental questions are the needs in ethnic identity, safety, freedom and well-fare, and derivative components are the needs in acknowledgement, esteem, social membership and self-actualization.

The ethnic identification is a peculiar social and psychological mean of ethnos protection from alien cultural influence and preservation of it as an independent ethno-cultural unit.

Psychological factors take an important place in interethnic relations. To a marked degree psychological (ethno-psychological) stereotypes are Irrational and unverified, they can be neither proved nor disproved, and any reasonable arguments

and attempts of the reassurance usually are powerless. For that reason, in the conditions of domination of consciousness stereotypes peaceful and mutually acceptable solution of problems extremely difficult. Nevertheless, management of such situations is possible. For this, it is necessary to know psychology of intergroup relations.

The ethnic (ethno-psychological) stereotype advocates as a kind of system-status indicator of the state of interim ethnic relations. It is such a form, which psychologically rejects and regulates interethnic relations. The ethnic stereotype explaining an ordinary level of ethnic relations is extremely emotionally saturated and doesn't submit to arbitrary change and also has powerful psychic energy. As a concrete manifestation of the ethnic stereotype it is can be given examples of well-known Osh events, Fergana tragedy. Here the ethnic stereotype assumed the role of the unifier of the community rallying and directing it against the other community. Because of its spontaneity, ungovernability ethnic stereotypes, as evidenced by the well-known tragic events in our country, are extremely dangerous and lead to the negative consequences in interethnic relations. In this respect it is detected the correlation of ethnic stereotype with national self-awareness and it can lead to the interethnic imbalance.

CONCLUSION

Ethnic stereotype is a specific concept, referring to the more general generic concept of an ethnic image, which is called to fix characteristic features of an ethnic psychology. As an every image, ethnic image is objective according to its source-the object of reflection, and it is subjective according the way of existence. The bearer of an ethnic image is ethnic community.

The main component of the national self-awareness is national or ethnic self-identification, which is self-selection on the basis of comparison. This peculiarity was noticed by famous anthropologist Dj.de Vos, according whom ethnic community is realizing itself the group of people, which adheres to common traditions, which aren't associated with other groups relating with.

In present conditions of raising of the national self-awareness, national revival in Uzbekistan it is risen significance distinguishing function of ethnic-psychological factors, which influence on interethnic relations and the necessity of close inspection and influence on social development and become more actual.

REFERENCES:

1. Здравомыслов А.Г. «Социология конфликта» - М.: Аспект-Пресс, 1996.

2. Кузнецов Н.С. «Человек: потребности и ценности» - Свердловск: Изд-во Урал. Ун-та, 1992.
3. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 204-206).
4. Мамасалиев, М. М., & Нематов, Д. С. (2019). ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-4), 70-72.
5. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).
6. Очилова, Н. Р., & Мамасалиев, М. М. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКИ ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *Проблемы науки*, 43.
7. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. *Вестник науки*, 3(11), 5-8.
8. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TAVATABAI. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 106-109).

**IBN RUSHDNING “KITAB FASL AL-MAQĀL VA-TAQRIR MA BAYNA
ASH-SHARI‘AH VA AL-HIKMAH MIN AL-ITTISĀL” ASARIDAGI
MULOHAZALAR TAHLILI**

Ikramova Iroda Rixsivayevna

irodasadoyi@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Rushdning falsafa va diniy mulohazalar o‘rtasidagi bog‘liqlikka bag‘ishlangan “Kitab fasl al-maqāl va-taqrir ma bayna ash-shari‘ah va al-hikmah min al-ittisāl” asaridagi mulohazalarini atroflicha o‘rganishga harakat qilingan. Shuningdek, Ibn Rushd “Fasl al-maqāl” asarida falsafa va diniy mulohazalar o‘rtasida bir-biriga qarshi bo‘lmagan ko‘plab misollar mavjudligini ta’kidlab o‘tganligini ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad falsafa va diniy bitiklar o‘rtasidagi uyg‘un munosabatni o‘rganishdir.

Kalit so‘zlar: Ibn Rushd, Averroes, G‘azzoliy, din, diniy mulohazalar, falsafa, hikma, “Fasl al-maqāl”.

Аннотация: В статье анализируются комментарии Ибн Рушда о связи между философскими и религиозными соображениями в Kitab al-Maqal wa-taqrir ma bayna ash-shari‘ah wa al-hikmah min al-ittisāl. Также считается, что Ибн Рушд в Fasl al-Maqal отметил, что существует множество примеров между философскими и религиозными соображениями, которые не противоречат друг другу. Основная цель написания этой статьи - изучить гармоничную взаимосвязь философии и религиозных писаний.

Ключевые слова: Ибн Рушд, Аверроэс, Газали, религия, религиозные соображения, философия, мудрость, “Fasl al-maqāl”.

Abstract. This article analyzes Ibn Rushd's comments on the connection between philosophical and religious considerations in Kitab al-Maqal wa-taqrir ma bayna ash-shari'ah wa al-hikmah min al-ittisāl. It is also considered that Ibn Rushd in Fasl al-Maqal noted that there are many examples between philosophical and religious considerations that do not contradict each other. The main purpose of writing this article is to study the harmonious relationship between philosophy and religious writings.

Keywords: Ibn Rushd, Averroes, Ghazali, religion, religious considerations, philosophy, wisdom, Fasl al-maqal.

KIRISH

Bugungi ilm-fan rivojlanayotgan davrda turli xil ziddiyatlar yuzaga kelishi albatta tabiiy xol. Ayniqsa, bu ziddiyat din bilan bo'lsa, bu nafaqat ilm-fan rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki jamiyat hayotiga ham negativ ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Aslini olganda, fan va din o'rtasidagi bunday kelishmovchiliklar bir necha asrlar avval ham bo'lgan, asrlar davomida ham bo'lib kelmoqda. Ilmiy tafakur tarixi shuni ko'rsatadiki, din va ilm-fan, o'zaro tafovutlarga qaramay, ijobiy yo'llarda o'zaro ta'sir o'tkazishlari mumkin. Bu kelishmovchiliklarni bartaraf qilish yo'lida bir qancha faylasuf-olimlar kurash olib borganlar. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Galileo Galiley va boshqalar falsafa va dinni o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qilganlar. Albatta ularga qarshi chiquvchilar ham topilgan. O'rta asrlar ilohiyotshunoslari va huquqshunoslari faylasuflarning qarashlariga zid bo'lgan pozitsiyalarni egallashgan. Masalan, G'azzoliy "Faylasuflarni rad etish" ("Tahafut ul-falasifa") asarida Ibn Sinoni islom dinini aristotelizm va neoplatonizm ta'limotlari bilan yarashtirish maqsadidagi harakatlari uchun tanqid qilgan. Keyinchalik Ibn Rushd o'z navbatida "raddiyani rad etish" ("Tahafut ut-tahafut") asarida G'azzoliyning dalillarini tanqid qiladi va o'zining ilmiy yondashuvini asoslashni zarur deb topadi [6,102].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ibn Rushdning falsafiy qarashlari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, "Ikki haqiqat" haqidagi qarashlari rus olimlari, Yevropa olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Maqolada Ibn Rushdning din va falsafa uyg'unligi borasidagi qarashlari bu borada fikr bildirgan faylasuflar qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda aynan shu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borayotgan olimlar ishlaridan qiyosiy tahlil uchun foydalanilgan.

Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, germeneytik va sinergetik metodlardan hamda to'ldiruvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu jarayonda Forobiy va Ibn Sino oshkorlik yo'lini tanlamagan bo'lsalar, Ibn Rushd bu boradagi o'z mulohazalarini ochiq oydin bildirgan. Ibn Rushdning falsafa va diniy mulohazalar o'rtasidagi bog'liqlikka bag'ishlangan "Kitab fasl al-maqāl va-taqrir ma bayna ash-shari'ah va al-hikmah min al-ittisāl" (keyinchalik "Fasl al-maqāl") asarida o'z mulohazalarini atroflicha yoritishga harakat qilgan.

Ibn Rushd “Fasl al-maqāl” asarida falsafa va diniy mulohazalar o‘rtasida bir-biriga qarshi bo‘lmagan ko‘plab misollar mavjudligini ta’kidlab o‘tgan. Aslini olganda, Ibn Rushdning mazkur risolasidagi maqsadlardan biri – falsafa va diniy mulohazalar haqiqatni ifodalashda bir-biriga mos va uyg‘un fikrlash usullari sifatida talqin qilishdir [7,34]. Falsafa (hikma) va oyatlarni (ya’ni diniy bitiklarni) o‘zaro mos bo‘lgan va bir-biriga zid bo‘lmagan munozarali shakllar sifatida tavsiflash bu dastlabki tavsif hisoblanadi. Biroq, bu Ibn Rushdning bu munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning o‘ziga hosligini ifodalamaydi. Masalan, bu umumiy bayonot falsafa yoki diniy bitiklar ierarxik bog‘liqlikning bir shakli sifatida, bu ikki taklifning biri haqiqatni anglash va yolg‘ondan saqlanishning eng ishonchli yo‘li sifatida emas, balki Ibn Rushd fikridagi kabi diniy bitiklar va falsafa bir-biriga parallelligini va bir-biriga zid bo‘lmagan o‘zaro teng mantiqiy nuqtai-nazar sifatida bir xil hodisalarning natijasidir [7,34]. Bu xulosalariga asoslangan faylasuf o‘zining “Ikki haqiqat” konsepsiyasini keltirdi.

Falsafa va diniy mulohazalar o‘rtasidagi bog‘liqlikka bag‘ishlangan “Fasl al-maqol”da Ibn Rushd falsafani mavjudotlarni tahlil qilish o‘rganishdan iborat faoliyat sifatida baholaydi. Falsafiy tadqiqotlar mavjud bilimlarga asoslanadi va faylasufga mavjudotlar haqidagi bilimlarni kengaytiradigan xulosalar chiqarishga imkon beradi. Falsafiy munozaraning o‘ziga xos xususiyati shunlan iboratki, tasavvurning namoishiy nutqi sifatida va mavjudot haqidagi fikrlarning tasdiq topishi ekanligidadir.

“Fasl al-maqol” risolasining bir qismida mulohaza va konsepsiyalarni shakllantirish uchun vosita sifatida dialektik va ritorik mulohazalarga nisbatan namoishiy mulohazalarning ustunligi bayon etiladi. O‘z maqsadlari nuqtai nazaridan fikrlashning ushbu uchta shakli bir-biridan farq qilmaydi, chunki har biri fikr va tushunchalarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Nutqning (fikrlashning) namoishiy, dialektik va ritorik shakllari o‘rtasidagi farq natijasi falsafa va boshqa munozara usullari o‘rtasidagi o‘ziga xos ma’qullash va konseptualizatsiya turlarini yaratishga qodir.

Ibn Rushd falsafiy munozaralarning tugashini va konsepsiyalarning bir avlodi sifatida tasvirlashda yagona emas. Debora Blekning ta’kidlashicha, “Tasavvur” va “Tasdiq”ning epistemologik aloqasi Islom Arastuchilari qarashlarida markaziy rol o‘ynaydi. Shunday qilib bu juftlikni o‘rganish Ibn Rushd uchun boshqa munozara usullariga nisbatan falsafaning epistemologik farqini tushunish uchun muhim edi [3]. D.Blek tasavvurning tuzilishini ong biror narsaning “mohiyatini (ma’nosini)

anglaydigan faoliyat sifatida tasvirlaydi. O‘z navbatida Tasdiq haqiqat qiymati berilishi “mumkin” bo‘lgan aniq bir hukmdan iboratdir. Misol sifatida: ot (hayvon) ma’nosini, mohiyatini tavsiflovchi tushuncha tasavvurni tashkil qiladi, lekin bu tushuncha aniq haqiqat sifatida ishlatilganda (masalan, “Bu ot” yoki umumiy holda “Otlar mavjud”) biz tushuncha shakllanishidan haqiqatga olib keladigan fikrlarga o‘tamiz [3]. Xuddi shunday, X.A.Volfson Ibn Rushd Aristotelning “Kategoriya” asarining sharhidagi misollarning birida u Aristotel konsepsiyasini “so‘zlar” tavsifini hukm bilan, yoki “fikrlar”ni tasdiq bilan bog‘laganini ko‘rsatadi [8,118]. Majid Fahriy tasavvurni atamaning ma’nosi sifatida (masalan, “ot to‘rt oyoqli sutemizuvchi hayvon”), tasdiqni esa mavjud bo‘lgan tasdiq sifatida izohlaydi (masalan, Mening otim to‘rt oyoqli sutemizuvchi – sodiq va olijanob mavjudot) [5,34-35]. Charlz Buttervort tasavvur so‘zini “sura” so‘zidan kelib chiqqan deb hisoblaydi va uning fikricha, Ibn Rushd uni “biror narsaning hayoliy tasviri” ma’nosida, tasdiqni esa mavjudlikni tasdiqlash, yoki biror narsani inkor etish ma’nosida deb tushungan [2,47].

Ibn Rushdning “Fasl al-maqol” risolasida munozaraning boshqa usullariga nisbatan falsafaning epistemologik ustunligini, namoyishiy fikrlash (nutq) mulohaza va konsepsiyalarni narsalar bilan aniq bog‘liqligini yaratishga imkon berishi ko‘rsatilgan. Namoyishiy fikrlash (nutq) faylasufga u o‘rganayotgan mavjud bo‘lgan narsalarga “mos keladigan” tushunchalar va qarashlarni shakllantirishga imkon beradi.

Ammo, o‘rganilayotgan ob‘ekt yoki mavjudotlar bilan tushuncha yoki hukmning “mos kelishi” nimani anglatadi, degan savol tug‘iladi. “Fasl al-maqol”da Ibn Rushd tushunchalarni shakllantirishning 2 ta asosiy usuli borligini ta’kidlaydi. Bu turlarning biri orqali “narsa o‘zida”ni anglansa, ikkinchisi orqali esa, tushunchani belgilar orqali tushunish mumkin bo‘ladi [1,64]. Namoyishiy fikrlashda ishlatiladigan tushunchalar “narsa o‘zida”ga tayanadigan bo‘lib, bu tushunchalar “narsaning o‘zini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlash” deganidir. Blekning konseptualizatsiya tavsifi nuqtai nazaridan, namoyishiy fikrlashda ishlatiladigan tushunchalar o‘rganilayotgan ob‘ektning haqiqiy mohiyatini anglatadi. Shuningdek, namoyishiy etuvchi mulohazalar keltiradigan hukm va tasdiqlar o‘rganilayotgan ob‘ektga mos keladi, Ibn Rushd ta’kidlaganidek: “Namoyishiy orqali biz tasdiqqa binoning ichiga kirish orqali erishgandek erishamiz, chunki ongimiz ularni tashqi ko‘rinishiday tasvirlaydi”. Namoyishiy yo‘nalish ongsiz mavjudotlar va ob‘ektlar ifoda etadigan sezgilarga mos keluvchi aqliy va mantiqiy ma’nolardan iborat. Bu shunchaki inson aqli va ongi

o'rganayotganligini aks ettirish uchun "mukammal oyna" bo'lib xizmat qiladi, deb ta'kidlash uchungina emas. Buning o'rniga, Ibn Rushd Aristotel kabi haqiqiy bilimni "biluvchi" va "bilim" o'rtasidagi ontologik munosabatlarga asoslanganligini ta'kidlaydi. Fikr ob'ekti va fikrning o'zi nafaqat o'xshash, balki ular qaysidir ma'noda bir-biri bilan "bir xil" sanaladi [2,47]. Blekning fikricha, Ibn Rushd uchun aqliy faoliyatning barcha bosqichlarida muvofiqlik (*ittisaal*) tushunchasining asosiy mohiyati aqliy faoliyatning bilish sub'ekti va bilish ob'ekti o'rtasidagi ontologik bog'liqlikka olib kelishidir. Bundan tashqari, namoishiy mulohaza yuritishda ishlatiladigan tahminlar va mulohazalar ehtimollikni emas, balki zaruriyatni o'z ichiga oladi [3,160]. Demak, namoishiy tushuncha yoki hukmning ontologik munosabatda bo'lishi vaqtinchalik yoki o'zgaruvchi fenomen emas. Aksincha, namoishiy mulohazalar o'z ichiga o'rganilayotgan ob'ektga asos bo'lgan zarur "sabablarni" o'z ichiga oladi [5,336-349).

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Ibn Rushd din va falsafa uyg'unligi borasidagi qarashlarini alohida bir konsepsiya qilib barchaga ma'lum qildi. Agar biror bir hodisaga murojaat qiladigan maqsadimiz nazariy tushunish bo'lsa, unda falsafiy ma'ruza va mulohaza bizning poydevorimiz bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy mulohaza yuritadigan "nuqtai nazar", bizning maqsadimiz haqiqat va borliqni nazariy jihatdan tushunish bilan chegaralanar ekan, bu boshqa barcha nuqtai nazarlardan ustundir. Ammo bu pozisiya amaliy va axloqiy muammolar haqida mulohaza yuritish va bayon etishning bir necha usullarining to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Binobarin, "Fasl al-maqol"da falsafa va oyatlar o'rtasidagi o'zaro uyg'un va bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan aloqani eng yaxshi "shartli ierarxiya" deb ta'riflash mumkin. Mavjudlikni nazariy jihatdan o'rganishda falsafa barcha boshqa munozarali uslublardan ustundir, chunki u o'z ichiga narsalarni "xuddi ular" kabi ifodalash qobiliyatini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Averroes. *On the Harmony of Religion and Philosophy*. Translated by George F. Hourani. Gibb Memorial Trust, Oxford: Oxbow Books, 2012.
2. Butterworth, Charles E., ed. *Averroës' Three Short Commentaries on Aristotle's "Topics," "Rhetoric," and "Poetics."* Albany: SUNY Press, 1977
3. Deborah Black, "Logic in Islamic Philosophy," ed. Edward Craig, *Routledge Encyclopedia of Philosophy Volume 5* (New York: Routledge, 1998), 708.

4. Deborah L. Black, “Conjunction and the Identity of Knower and Known in Averroes,” *American Catholic Philosophical Quarterly* 73, no. 1 (1999): 160.
5. Fakhry, Majid. *Averroes: His Life, Works, and Influence*. Oxford: Oneworld, 2001.
6. Francesco Malaguti. Philosophical Perspectives on the Relationship Between Religion and Science: Averroes, Maimonides, Thomas Aquinas and Galileo. *Jewish-Muslim Relations*. 101-117.
7. Nauman Faizi. Averroes on the Relationship between Philosophy and Scripture: A Conditional Hierarchy// *The Journal of Scriptural Reasoning*. P. 34.
8. Wolfson, Harry A. “The Terms Taṣawwur and Taṣdīq in Arabic Philosophy and Their Greek, Latin and Hebrew Equivalents.” *The Muslim World* 33, no. 2 (1943): 114–28.

THE ARTISTIC WORLD OF ESHKOBIL SHUKUR

Ernazarova Iroda

doctorate researcher

Samarkand state university

UZBEKISTAN

ernazarov.zohid@gmail.com

Abstract: *The article explores the peculiarities of Eshqobil Shukur's art world. The occasionalisms encountered in the poet's work are grouped. The role of occasionalisms in enriching the vocabulary is highlighted. There is also a cognitive analysis of the origin of the author's word creativity and its importance in the literary text. The fact that the analyzes are based on concrete examples has increased the importance of scientific opinions. The scientific work reveals the features of the poet's artistic world. The importance of new artistic discoveries created by the poet in the text is highlighted. The article concludes that Eshqobil Shukur's thinking is broad-minded and is clearly reflected in the poetry of the poet.*

Keywords: *artistic text, the poet's opinion, artistic world, occasionalism, word formation, author's word creativity, innovation, new meaning of the word, the function of the word in the literary text*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ МИР ЭШКОБИЛЯ ШУКУРА

Эрназарова Ирода

докторант-исследователь

Самаркандский государственный университет

УЗБЕКИСТАН

ernazarov.zohid@gmail.com

Аннотации. *В статье исследуются особенности художественного мира Эшкобиль Шукур. Сгруппированы окказионализмы, встречающиеся в творчестве поэта. Подчеркивается роль окказионализмов в обогащении словарного запаса. Также проводится когнитивный анализ происхождения авторского слова творчества и его значения в художественном тексте. Тот факт, что анализ основан на конкретных примерах, повышает важность научных мнений. Научная работа раскрывает особенности художественного мира поэта. Подчеркивается важность новых художественных открытий, созданных поэтом в тексте. В статье делается вывод о том, что мышление*

Эшқобил Шукура является широким кругозором и ярко отражено в стихах поэта.

Ключевые слова: художественный текст, мнение поэта, художественный мир, окказионализм, словообразование, авторское словообразование, инновация, новое значение слова, функция слова в художественном тексте

ESHQOBIL SHUKURNING BADIY OLAMI

*Ernazarova Iroda
Mustaqil tadqiqotchi
Samarqand davlat universiteti
O'ZBEKISTON
ernazarov.zohid@gmail.com*

Annotatsiya. *Maqolada Eshqobil Shukur badiiy olamining o'ziga xos tomonlari tadqiq etilgan. Shoir ijodida uchraydigan okkazonalizmlar guruhlangan. Okkazonalizmlarning til lug'atini boyitishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, muallif so'z ijodkorligining yuzaga kelishi, badiiy matndagi ahamiyati kognitiv tahlil qilingan. Tahlillar aniq misollar asosida keltirilganligi ilmiy fikrlarning ahamiyatini oshirgan. Ilmiy ishda shoirning badiiy olami xususiyatlari ochib berilgan. Shoir tomonidan yaratilgan yangi badiiy topilmalarning matndagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada Eshqobil Shukur tafakkuri keng ijodkor ekanligi va bu shoirning she'rlaridagi badiiyatda yaqqol aks etib turganligi xulosalangan.*

Kalit so'zlar: *badiiy matn, shoirning fikri, badiiy olam, okkazonalizm, so'z yasash, muallif so'z ijodkorligi, innovatsiya, so'zning yangi ma'nosi, so'zning badiiy matndagi vazifasi*

INTRODUCTION.

The artistic world of Eshqobil Shukur is unique. The author's word creativity plays an important role in his work. Author's word creativity is a concept that arises from the creator's new approach to certain language possibilities. Language, with its richness of vocabulary, serves the creator of the text. It is the word creators from the creators of the text who, in a sense, enrich the vocabulary of the language, discovering new aspects of the meaning of words. When a creator looks up a dictionary, he or she looks for a word that matches the instantaneous expression. And when you can't find that word, the creator needs a new unit. It is the product of the author's thinking, created out of this need, that determines the author's word creativity. Linguistics uses a variety of terms in relation to such unity, such as

occasionalism, linguistic innovation, authorship, speech creation, creative fabrication, unconventional fabrication, individual word formation, poetic neologism, random unity, and natural innovation. In our view, the units (or occasionalisms) that express the author's word creation are words, word meanings, phrases, or expressions that are the product of the creator's creative-linguistic thinking. In linguistics, it is known that such units are studied in several groups, such as phonetic, lexical and phraseological.

In linguistics, there is a two-pronged approach to the product of authorship. The first is a set of views that the author considers word creativity as a positive phenomenon, which enriches the vocabulary of a unit based on creativity, further expands its possibilities, the author advocates the scientific study of word creativity, the second such units are language it is a collection of negative attitudes that distract users, lead to a violation of the literary norm, and thus make it difficult to learn a particular language. We want to focus on another aspect of the study, namely, how well the author was able to express his views on the world through word creation, and how effectively he was able to use such units to express his existing knowledge.

THEORETICAL BASIS.

The issue of word creation has been of interest to linguists as an unusual phenomenon. Since the middle of the last century, in Russian linguistics, and later in Uzbek linguistics, there have been studies on the author's skill in the use of words, to highlight the aspects of the use of words in the style of the creator. we can see. Although the term authorship is not used in lexicographic sources, we can find explanations for terms such as "random word," "neologism," and "occasionalism." The dictionary of Uzbek linguistic terms defines "occasionalism" as follows: Occasionalism is a word based on a non-productive pattern, used only in the text itself, a neologism of individual style [1, P.70].

In the dictionary of T.V. Jerebillo we can find interesting information about the author's word creation [2, P.262, 263, 289]. That is, both neologism and occasionalism have aspects of authorship.

A similar approach exists in Uzbek linguistics, and in the initial research on the subject we can find the following ideas: Individual-stylistic neologisms are more specific to poetic speech and are associated with the style of the poet. Appropriate and purposeful, individual-stylistic neologisms, created in full compliance with the laws of language development, show the originality and uniqueness of the creator in the use of words. It testifies to the height of his poetic talent, his ability to delicately feel the precious riches of language. Demonstrates the creativity of the creator in the matter of artistic expression [2, P.31]. Much of the research on this topic has focused

on the distinction between occasionalism and neologism [3; 4; 5; 6]. For example, linguist Y.N. Nesvetaylo tried to explain that neologism and occasionalism are different terms with definitions in modern Russian dictionaries. Proof that neologism is related to language and occasionalism is related to a particular author is the conclusion of the work. The linguist also argues that the creation of random units is a positive phenomenon that provides expressiveness for the text [4, P.148]. O. Tukhtasinova's research is one of the most important researches in Uzbek linguistics. Linguist's interpretation of occasional units in dictionaries, the basis of various views around the term, the difference between occasionalism and neologism, the specificity of occasional words and their impact on the literary norm, the formation and classification of occasionalisms in terms of word groups, as well as occasionalisms in the text. studied significant theoretical data on the issues of artistic and aesthetic function [5].

While some of the existing research addresses the question of how the author's word creativity manifests itself, another group addresses the importance of occasionalisms in the creative style [7; 8; 9].

In Uzbek linguistics, the issue of the fact that many creators such as Chulpon, Gafur Gulom, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Usman Azim and Iqbal Mirzo make use of the opportunities of the Uzbek language and enrich the language on the basis of word creativity has been scientifically studied.

In general, the theoretical basis of the issue, which we are focusing on in essence, is created in linguistics in this or that form. But in the work we will focus on linguistic-cognitive analysis, in which the author distinguishes himself from the above aspects of word creativity. That is, we will cover the question of to what extent the author's word creativity can reveal his views on the olam. The scientific views on the bases of cognitive analysis have also revealed a large-scale layer of linguistics [11;12].

In essence, the analysis of traditional theoretical views in the work from the point of view of modern linguistics is considered the main issue.

RESULTS

On one creative example, we consider the issue of linguistic-cognitive analysis of the author's word creativity. Eshkobil Shukur poems, which are distinguished by the skill of using a specific word in Uzbek poetry in the article, serve as an obyekt in order to reveal the creativity of the author.

To begin with, let's focus on the aspects in which the author determines the creativity of the word:

- 1) the ability of the author to make new units with the help of existing verbs in the language and the opportunity to express meaning in them;
- 2) skill of creating new units by composition method;
- 3) the opportunity to express their worldview and knowledge in the text from units that do not have a meaning in dictionaries, annotations;
- 4) the aspect of efficient use of inactive units in the literary language;
- 5) ability to upload new meaning in addition to the meaning of the existing unit in the language.

The analysis of phonetic, lexical, phraseological and syntactic units, applied by creative skill according to the above characteristics, as a linguistic representative of the author's knowledge accumulation, is the basis for a cognitive assessment of author's word creativity. That is, the creator re-works and enriches the thinking of language units, as a result of which the new unit he created is considered the product of his thinking. How skillfully he can apply such a unit, and how much he will be able to convey in the text a new unit, is associated with his knowledge of the world, of course.

As already mentioned above, the enrichment of the language dictionary is also the result of the processes of the word-building speech. The new word is created on the basis of the general stable linguistic rule and rhythm by the new units. At present, any unit occurs on the basis of the linguistic ability and ability of a person (or persons) to manifest well in speech conditions and needs of a certain period [12, P.10]. Such units determine the author's word creativity. For example, in the poetry of the creator Eshkobil Shukur we will witness this:

-boz is used in the formation of units that are formed from the declension of the original Persian-Tajik word and are more negative semantic (sarcasm, sarcasm) [13].

The author knows that what some people do is very bad, but it is impossible to do this simply in simple words "bad", and uses exactly the same suffix when making the following expressions:

Oyning atrofidan to'fonlar kechayotir,

So'zbozlar, pulbozlar va vatanbozlar

Qo'rchoqboz poyida muk tushayotir.

YUKSAL, EY ZARRA [14, P.132]

The creation of four unusual units at once in this place clearly demonstrates the emotional mindset expressed in the creative text. As is known-the base person represents the meanings of "darda player", "gambling player" in legacies such as

dorto player, gambler as an addition to horse-maker. But individuals who play with the concepts of word, money and vatan tend to provoke the emergence of various vices in society. The poet says by taste that they will not have a particle of dignity, because there will not be a consonant in them, and the lowland “falls” even before people.

In the poetry of the creator, we can see that the Uzbek language is trying to make effective use of the opportunity to make words. In particular, along with the use of quality and horse – drawn leggings, it also creates new leggings from the same size. The contextual function and expression of meaning in the poetic text of such lentils as air, soil, dream, skyscraper [14, P.8] are reinforced by the creativity's skill. "The Zero word-building andose itself is also a method of linguistic expression of the human zero (social) experience. The creation of a new lentil on the basis of a specific word-building andose or a clear pattern (word) can be called a specific expression of human language creativity [13, P.10]. In this regard, the literal expression of another yasalma, created on the basis of a clear pattern, bases the above scientific thought. It is known that the yasovchi of La Fe'l is a very active yasovchi in the Uzbek language. In one poem by Eshkabil Shukur, this concoction served to construct a unity that would reveal the creative knowledge to the reader:

U bitlar bahaybat bitlar edilar,
Qopqoniga to‘ldi xalqlar, vatanlar.
«Daho» — Bitlar **xalqlab** ketdi — dedilar,
Qutqaring bitlarni, ketdi **vatanlab** [2, P.89]


This place is talking about the category of people who, like bit, suck the blood of people and want to wash the borders of the people and nation. They fought with the idea that “everyone's homeland is one, all nations must live in obedience to one people.” The poet, a true connoisseur of the historical process, the situation in which a person respects a person, uses the expressions “by nation”, “by homeland” in relation to the behavior of people in such an evil. And if the author did not have full details about this, he would not have created such a lentil either.

In addition to the words spoken in the morphological way in the creativity of Eshkobil Shukur, the words spoken in the syntactic way also occupy a significant place. As you know, in linguistics, the word spelling is also denoted by the term “lexemization” - the word + word = the word andose. In the studies created in this regard, it was noted that the combined words are all derivative, and such conjunctions

are of great importance in enriching the vocabulary of the language. In particular, the researcher B. Kholmukhamedov points out: "joint words are considered to be a derivative word, regardless of the way in which they are formed, the composition of which is related to the categories of words, and a large part of them is the product of the phenomenon of lexification, and the Uzbek language contributes to the continuous enrichment of the composition of the dictionary [15, P.13].

The world of thankful contemplation is a wide creator. The poet further demonstrates the linguistic ability, the creativity of the word in the reduction of his knowledge about the scientist into poetry. For example, in our language there is a question "quot; kunbotar", which means exactly the West, but the meaning of the words "oybotar", "yilbotar", which the creator used as a rhyme to this word, is not familiar to the reader, and they have the meaning of religious expression in the text. In the same place, the use of joint words of exactly the same form at the beginning of the Egyptians also marked the poetic skill of the creator:

Figure 1.



Kunbotarda bir bahodir bo'loyin,
Oybotarda laylatul qadr bo'loyin.
Yilbotarda Ollohday sir bo'loyin,
Oybodomda Oy ko'ngli ne biloyin.[14, P.69]

These units are not found in spelling and explanatory dictionaries, but have their place in the text [16]. Also lentils do not necessarily contradict existing word-building patterns [13]. They occurred in connection with the speech development of joint words. The main thing that is characteristic of the poet's proverbs in the compositional way is that they are written in accordance with the existing pattern, focusing on the sides of the narrative and content. That is, this aspect proves that the author has a deep level of knowledge about each question that he uses in the text:

Tog'da jilg'a kabi jildiragan yo'l,
Sen asli yo'lmisan, **yo'lovchimi** yo?
Xarsanglar ko'ksida hilpiragan gul,
Sen o'zi gulmisan, **gulovchimi** yo?

It turns out that the composition Yasal of the goulash (horse+horse), used in the poem, is made in a form similar in rhyme and morphemic to the passenger word, which was used in the previous paragraph. In this place, the morpheme structure of the word passenger attracts attention. Because it is natural that the question arises whether this word is a simple derivative word or a compound word. Yola+vchi (person horse maker supplement) / Yola+Hunter (horse+horse) any Ikal of morpheme content also does not contradict existing laws and in essence there will be no violation. And the contextual approach shows that in the text the passenger suffix is a joint word. The creator gives a special hint to the basis of the joint words: Road - passenger, in the style of a flower - Goulder. It is also in this text that the author is loading a new meaning into the word "Hunter" from the point of view of the level of thought.

There is also a poem by the poet, created only on the basis of joint words, the name of the poem is also called "Do not add". It turns out that the author's interest in creating a new word in this way is special. In the poem, we can see that the creator's scientific views on the spelling of joint words are also reflected, that is, all joint words are written together:

Momomehrim,momoso'zlimsan,
Singildilim,singilyuzlimsan,
O'tardunyo,kelardunyoda
Ko'ngiltilim,ko'ngilko'zlimsan [17, P.322].

In the poem, which begins with the above Egyptians, the Word creator skillfully placed 32 joint words into sixteen Egyptians. Interestingly, three of the units that are written with the addition of all units and are used in the poem (mother tongue, eye, time) are active units in the language. Another aspect is that the creator logically connects one of the new lentils with the other so that in the poem there will be no need for another tool, in a whole text there will be proof of our opinion that one "and" connector " " is used. Created on the basis of such creative skill, okkazionalyasalmas are significant in the work of Eshkabil Shukur, as well as in the fact that they show the author's knowledge in various fields. In this sense, such units are significant in that they give new knowledge to students as a window of author's thinking.

Below we illustrate the grouping of words created on the basis of the author's word creativity in the only poetic collection of Eshkabil Shukur:

Table 1.

New joint words made by the poet	<i>qizg'aldoqhol, kapalakruh, yilbotar, gulovchi, ruhsuluv, chaqmoqqalb, ko'zgavhar, to'rtovora</i>
Unusual units of the poet, made from improvised parts, available in the language	<i>havodosh, tuproqdosh, xayoldosh, berkli, so'zboz, pulboz, vatanboz, qo'rchoqboz, vatanlamoq, xalqlamoq, suygunchik, turkli</i>
Dialect words, which penetrated into the creativity of the poet with its own artistic charm	<i>ko'kay, orbonglamoq, charnamoq, to'dana, elanmoq, bovir, chochmoq, cho'ja</i>
Words used in the poet's creativity in other meanings than the subtleties of the meaningalaydigan	<i>zubarjad, davlar, do'nmoq, risolat, minqor, sim-siyoh, mazallat, taraq-taraq, emranmoq, kungira-kungira, chiroz, zirqillamoq, bilqillamoq, chip, quruqshoq</i>
Units that do not meet in the dictionary, but represent a certain meaning in the poet's creativity	<i>singramoq, inchkir, suvaydo, saygul, uvuq, tatamlamoq, sinsila-sinsila, to'lponmoq, sulb, changaroq</i>
Historical, obsolete words that reveal the artistic skills of the creator	<i>aflok, taqaddum, potini, charnovuq, cho'qmor, turob</i>
Masterfully used assimilation words in poet's poetry	<i>sarbasar, sarjin, poshikasta, sayron, tiramoh, saxtiyon, tarahhum, so'zona, bargrezon, sak</i>

The researcher who studies conditional grouping the author's skill can also refine, enrich it again by relying on the sources. An in-depth study of the author's words, looking at the interpretation of these words from different dictionaries and bringing it to the reader, together with the readability of the text of the work, will help to understand the creativity, that is, it will be the basis for carrying out cognitive analysis. Proceeding from the essence of linguistic analysis, it is clear that understanding that the creator expresses his views, knowledge about the scientist

through the word means understanding of the text. Hence, by understanding the author's words in the text, the reader first increases his knowledge and skills, and secondly, enrich his vocabulary and the possibility of his own expression kengaytiradi. This means that the development of certain principles for the study of the individual vocabulary of the language user, especially the creators, is among the actual tasks of linguistics. And the survival of the communion, which is made on the basis of word creativity, is also associated with the burden of meaning that it bears on its own.

CONCLUSION

1. The study shows that the author has approaches to the issue of word creativity from the point of view of such sections of linguistics as phonetics, lexicology, word-building, none of which can reveal the full essence of the author's word creativity. Therefore, this issue should be studied from a cognitive point of view.

2. Cognitive analysis, which is a modern direction of linguistics, the author clarifies the question of when and how word creativity occurs. Because the author's word creativity is created by the creator when cognitive processing into the language unit. Therefore, the study of the author's author's words, introducing them into dictionaries is of great importance in the enrichment of the language dictionary.

3. The author's word creativity arises from the fact that a certain creator does not know the literary norm, not because he did not pay serious attention to it, but because he could not fit his thoughts into a certain mold. The essence of this issue is revealed when the researcher becomes aware of the level of knowledge of the text creator, his thoughts about the scientist in a certain sense.

4. Only Eshkabil serves to study the views expressed in the example of Shukur poetry on the basis of clear principles in a broader context, to create a dictionary of words created on the basis of author's word creativity, to understand the concept of author's word creativity, which is the basis of major research in World linguistics, and to use the author's Studying the language skills of all speech artists, creators, poet writers, studying, generalizing, generalizing the units brought back into our language by them with new subtleties of meaning, as well as words that are based on existing laws and demonstrate the new aspect of meaning, is of particular importance in ensuring the survival of the language and enriching the vocabulary of the language.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Zhrebilo T. V. Dictionary of linguistic terms and concepts. Ed. 6th, ISPR. and additional – Nazran: pilgrim, 2016. - 610 p.

2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. Word aesthetics. –T.: Fan, 1981. - 59 p.
3. Lopatin V. V. The birth of the word // Neologisms and occasional word formation. Moscow: Nauka, 1973.150-152-p.
4. Nesvetailo Yu. n. Interpretation of the concepts of "neologism" and "occasionalism" in the modern scientific paradigm. Bulletin of Stavropol state University. 55/2008.144-148- p.
5. Tukhtasinova O.Y. Lexical occasionalisms in the Uzbek language and their artistic and aesthetic features. Avtoref.dis. ... Fil.fan.nom. Tashkent. 2007. - 94 p.
6. Merkurieva N.M. Occasionalisms and new words-composites in the dictionary of complex words of the Russian language. RUDN Bulletin, series Theory of language. Semiotics. Semantics, 2016, No. 2
7. Samadov Q. Some issues of Oybek language skills: Candidate of Philological Sciences ... dis. - T., 1967. - 246 p.
8. Normurodov D. Language features of Shukur Kholmiraev's works: Philol. candidate of sciences ... dis. avtoref. – T., 2000. –33 p.
9. Muhiddinov M., Karimov S. The poetic mastery of Ghafur Ghulam. Monograph. - S.: SamSU Publishing House, 2003. -126 p.
10. Hojiev A. Explanatory dictionary of linguistic terms. - T.: O'zME, 2002. - 70 p
11. Demyankov V. Z. Kognitivnaya semantiya. Kratkiy slovar kognitivnyx terminov. –M.: 1996. - 30 - p.
12. Safarov SH. Cognitive linguistics. –Jizzax: Sangzor, 2006. - 28 -p.
13. Toshaliyeva S.I. Occasional word formation in Uzbek language: Philol. candidate of sciences ... dis. - T., 1998. - 170 p.
14. Hojiev A. Uzbek word formation system. -T.: "Teacher", 2007. -166 p.
15. Eshqobil Shukur. Carriage porch. Poems and epics. - Tashkent: "SHarq" Publishing and Printing Joint-Stock Company, 2002. - 318 p.
16. Kholmukhamedov B. Lexemes in the Uzbek language. Autoref. dis. ... Fil.fan. Doctor of Philosophy (phd) .Samarkand .2020. - 48 p.
17. Annotated dictionary of the Uzbek language. 5 volumes. -T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2006-2008.
18. Eshqobil Shukur. Bobo on the word trail. Conversation with words. - Tashkent: "Mashhur-Press" publishing house, 2018. - 336 p.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK FANINING TARIXIY VA NAZARIY NEGIZLARI

Amonova Mahbuba Olimovna,

*Buxoro Davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, Lingvistika: ingliz tili
yo'nalishi I bosqich magistranti*

Annotatsiya. Hozirgi kunda xalqlar o'rtasida iqtisodiy ,madaniy va ilmiy aloqalar yanada mustahkamlashgan. Shunday qilib , aloqalar tilning madaniyat va til bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Madaniyat va tilni tadqiq etuvchi olimlar XX asrdayoq bu sohalarning yangi fanga asos bo'la olishini anglagan edilar . Ushbu soha ular tomonidan lingvomadaniyatshunoslik deya nom oldi. Ya'ni til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi fan. XX asrda ushbu soha uch muammo:til ,madaniyat va inson shaxsiyati orqali tadbiq etila boshlandi. Maqsad til va madaniyat haqidagi bilimlarni faollashtirish edi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyatshunoslik, antroposentrik, komponent, lingvomadaniy o'lkashunoslik.

HISTORICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF LINGUOCULTUROLOGY

Amonova Makhbuba Olimovna,

*Bukhara State University, Faculty of Foreign Philology Linguistics: English
language Level 1 master*

Abstract: Today, economic, cultural and scientific ties between the peoples have been further strengthened. Thus, relationships show that language is interrelated with culture and language. Scholars studying culture and language had already realized in the twentieth century that these fields could be the basis for a new science. This field was called by them linguoculturology. That is, a new science in modern linguistics that combines language and culture. In the twentieth century, this field began to be applied through three problems: language, culture, and the human personality. The goal was to activate knowledge about language and culture.

Key words: Linguoculturology, anthropocentric, components,linguoculture lexicography.

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Амонова Махбуба Олимовна,

*Бухарский государственный университет, Факультет иностранной
филологии Лингвистика: Английский язык мастер 1 уровня*

Аннотация: Сегодня экономические, культурные и научные связи между народами еще более укрепились. Таким образом, отношения показывают, что язык взаимосвязан с культурой и языком. Ученые, изучающие культуру и язык, уже в двадцатом веке осознали, что эти области могут стать основой новой науки. Это направление было названо ими лингвокультурология. То есть новая наука в современной лингвистике, сочетающая язык и культуру. В двадцатом веке эта область начала применяться через три проблемы: язык, культура и человеческая личность. Целью было активизировать знания о языке и культуре.

Ключевые слова: Лингвокультурология, антропоцентрической, компонент, лингвокультурный лексикография.

KIRISH

Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o`zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o`rinda tilsiz mukammal namoyon bo`la olmaydi.

Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o`rganilishi bilan bog`liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo`nalishlar qo`lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko`rmoqdalar.

Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o`rin tutishini aniqlash bo`lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o`rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e`tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog`liq bo`lgan lingvomadaniy masalalari ko`pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo`lsa-da, biroq to`laqonli o`z yechimini topgan emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o‘rganilgan.

Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, tili jtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi *lingvokulturologiya* jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda

yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondoshuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Ma‘lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning fikricha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”²¹⁹. Lison va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. Ya’ni, til va madaniyat.

“Til va madaniyat” muammosining o‘rganilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondoshuv faylasuf olimlar (S.A. Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta’siridan borliqning o‘zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o‘zgarish yuz beradi, degan g‘oya yotadi²²⁰.

Navbatdagi yondoshuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondoshuvning asosiy g‘oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt,A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya’ni har bir xalq borliqni o‘z ona tilisi orqali ko‘radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g‘oya yotadi²²¹. Bu g‘oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni “O‘tkinchi dunyo”, ya’ni “borliqni anglash”, muayyan “mavjudlik va tafakkur” sifatida qaraluvchi g‘oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko‘pchilik olimlar

²¹⁹ Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.:НЛ.в.1.М.,1960.

²²⁰ Вуhaqdaqarang: Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1.М.,1960

²²¹ Nurmonov A.Sepir-Uorfninglingvistiknisbiyliknazariyasihaqidamulohazalar

tomonidan inkor etilgan bo'lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo'lgan hodisalarni anglashga yordam berdi. Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy va izdoshlarining lingvoantropologik yo'nalishdagi ishlari buning isbotidir²²². Uchinchi yondoshuv to'g'ridan-to'g'ri til va madaniyatning o'zaro ta'siri va aloqadorligi g'oyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini o'zida namoyon etadi. Boshqa tomondan "madaniyat tilda" joylashgan, ya'ni u matnda to'laligicha o'z ifodasini topadi.

"Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliyava, V.V.Vorobyov, V.A.Maslovava boshqalarning ishlarida ko'rindi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar²²³. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi²²⁴. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarashlarga ko'ra, til nafaqat madaniyat bilan bog'liq, balki u o'zida madaniyatning o'sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o'zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta'minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma'naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallari real yaratiladi.

Ana shu g'oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvomadaniyatshunoslik vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **Lingvomadaniyatshunoslik** yorqin madaniy aloqalarni, lingvo madaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o'z ichiga oladigan alohida sotsial guruh.

2. **Diaxronik lingvomadaniyatshunoslik**. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o'tish vaqtining o'zgarishlarini o'rganadi.

²²² Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика.- М.,1987.

²²³ V.Gumboldtningtilvashaxshaqidagifikrlarito'g'risidaqarang: Nurmonov A.

Ovropodaumumiyvaqiyosiytilshunoslikningmaydongakelishi. NurmonovA.Tanlangan asarlar.2- jildlik.-Toshkent: Akademnashr, 2012. - B.23-40.

²²⁴ Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.

3. *Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik.* Lingvomadaniyatda paydo bo'ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug'ullandi.

4. *Tavsifiy lingvomadaniyatshunoslik.* Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning "Rus tilida so'zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti" nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obykti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g'oya va boshqalar olingan.

5. *Lingvomadaniy leksikografiya.* Lingvo o'lkashunoslik lug'atlarini tuzish bilan shug'ullanadi. Lingvokulturologiyaning bu yo'nalishi hozirgi kunda boshqa yo'nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo'lkashunoslik lug'atini keltirishimiz mumkin. Bu lug'at 25 bobdan iborat. Unda Olmon realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o'simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an'analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to'y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyutatizimining rivojlanishi; uzunlik, og'irlik, hajm, yuza; savdo-sotiqishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan.

Yuqoridagilardan shuni aytishimiz mumkinki, bunday lingvoo'lkashunoslik lug'atlarini yaratishda til hamda madaniyat munosabatini to'g'ri belgilash muhim sanaladi.

XULOSA.

Xulosa qilib ta'kidlay olamizki, lingvomadaniyatshunoslik har ikkala sohaga taaluqli madaniyat va til haqidagi fan. Bu bilimlarning shubhasiz birligini anglatib, millatning mentaliteti, madaniy xususiyatlari va ularning tilda namoyon bo'lishini ifodalaydigan bu sohaning birlamchi maqsadi tilni o'rganish, madaniyatni saqlash hamda ularni birlikda mujassamlashtirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. 1 см.: Америка. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. -- Смоленск, 1996;
2. Рума.Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;
3. Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1998;
4. Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1997;
5. Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1995;

6. Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. -- М., 1999;
7. Томахин Г.Д. США: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;
8. Франция: Лингвострановедческий словарь / Под ред. Л. Г. Ведениной. -- М., 1997. 14

MEVA VA REZAVOR MEVA EKINLARIDA SELEKSIYA ISHLARI

*Anvarbekova Charos Anvarbek qizi
Toshkent davlat agrar universiteti
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Seleksiyada chatishtirish uchun ota-ona juftlarini tanlash prinsiplari. Atsetokarmin eritmasida chang donachalarining ranglanishi. Chang donachalarini urug'chi tumshuqchasida o'stirib ko'rish.

Kalit so'zlar: chang, urug'chi, duragay, changlanish, seleksiya, ekologiya.

SELECTION WORKS IN FRUIT AND VEGETABLE CROPS

*Anvarbekova Charos Anvarbek qizi
Tashkent State Agrarian University
3rd year student*

Annotation: Principles of selection of parent pairs for crossbreeding in selection. Coloring of powder grains in acetocarmine solution. Growing dust grains in the seed pods.

Keywords: dust, seed, hybrid, pollination, selection, ecology.

СЕЛЕКЦИОННЫЕ РАБОТЫ НА ФРУКТОВЫХ И ОВОЩНЫХ КУЛЬТУРАХ

*Анварбекова Чарос Анварбек кизи
Ташкентский Государственный Agrарный Университет
Студент 3 курса*

Аннотация: Принципы отбора родительских пар для скрещивания при селекции. Окрашивание зерен порошка в растворе ацетокармина. Выращивание пыльников в семенных коробках.

Ключевые слова: пыль, семена, гибрид, опыление, селекция, экология.

KIRISH

Duragaylash seleksiyada, dastlabki, material yaratishning asosiy usullaridan biridir. Duragaylash dastavval ota-ona juftlarini tanlashdan boshlanadi. Duragaylashning muvaffaqiyati ota-ona juftlarini to'g'ri tanlashga bog'liq. Duragay organizm o'z ota-onasining irsiyati asosida vujudgakeladi, lekin belgi va xususiyatlari bilan ma'lum darajada farq qiladi. Buning qonuniyatlarini tushunish uchun chatishtirishga olingan o'simliklarning belgilari muayyan sharoitda bo'g'indan bo'g'inga qanday o'tishini bilish kerak.

Seleksiyada chatishtirish uchun ota-ona juftlarini tanlash prinsiplari:

1. Ekologo-geografik prinsip.
2. Hosil elementlariga qarab tanlash.
3. Ayrim rivojlanish fazalarining davomiyligiga qarab.
4. Kasallik va zararkunandalarga chidamliligiga qarab.
5. Diallel chatishtirishlar asosida.

Bu usullar yordamida ota-ona juftlari tanlangach, chatishtirishlar o'tkaziladi. Buning uchun chatishtirish tartibini bilish kerak. Chatishtirish tartibi o'simlik gulining tuzilishi (bir yoki ikki jinsli, oddiy gul yoki tupgul), gullash biologiyasi (ochiq yoki yopiq gullash) va changlanish xiliga (o'fzidan yoki chetdan changlanish) bog'liq.

Chatishtirish uchun birinchi navbatda o'simlikning gullash davri davomiyligi, gulning ochilish xossasini, changchi va urug'chining hayotchanligi, changning qancha vaqt saqlanishini hisobga olish lozim. Chunki bu xususiyatlar turli navlarda tuproq-iqlim hamda ob-havo sharoitiga qarab har xil bo'ladi.

Sun'iy chatishtirish tartibi bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda va ketma-ket bajariladigan 3 xil ishdan iborat:

- gulni chatishtirish uchun tanlash va changlashga tayyorlash;
- ona sifatida olingan o'simlik gulini bichish (kastratsiya);
- changlash.

Chatishtirish uchun eng yaxshi rivojlangan navga xos sog'lom o'simliklar tanlab olinadi. Har bir o'simlikda chatishtirish uchun yaxshi rivojlangan gullar qoldiriladi, boshqalari yulib tashlanadi (daraxt ekinlarida novdadagi).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida meva va rezavor meva ekinlarida seleksiya ishlari obyektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda. D.T.Abdukarimov, T.S.Safarov, T.E. Ostonaqulovlarning "Dala ekinlar seleksiyasi, urug'chiligi va genetika asoslari" nomli asari metodologik manba sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'pchilik o'simliklarda gullar gulto'plamlarda joylashgan bo'ladi va har xil rivojlangan bo'ladi, bir vaqtda ochilmaydi, ulardan hosil bo'lgan urug'lar ham bir xil sifatli bo'lmaydi. Shuning uchun ham ulardan yuqori sifatli duragaylar olish uchun chatishtirish vaqtida barcha choralami ko'rish kerak. Ana shunday

tadbirlardan biri tupgulni chatishtirishga tayyorlashdir. Meva ekinlarining to'pgulida markaziy gul (yaxshi rivojlanadi) qoldirilib, keraksiz gullar qaychi yoki qisqich (pinset) yordamida olib tashlanadi.

So'ngra gul o'zidan changlanib qolmasligi uchun ona o'simlikdagi gulning changdonlari terib olinadi. Changdonlarni yulish vaqtida urug'chiga shikast yetkazmaslik choralari ko'rish kerak. Novdadagi kerakli gullar bichib bo'lingach, unga darhol suvda ivimaydigan, yorug'likni yaxshi o'tkazadigan yupqa pergament qog'ozlardan yasalgan xaltacha (izolyatorlar) kiygiziladi. Xaltachaga qalam bilan gul bichilgan kun va bu ishga mas'ul kishining familiyasi yozib qo'yiladi. Bichilgan gullar voyaga yetgan, yaxshi rivojlangan sog'lom ota o'simlikdan yig'ib olingan changlar bilan changlatiladi. Changlar silkitish usuli bilan, changdonlarni yig'ish usulida, ba'zi o'simliklarda esa novda bilan kesib olinib, suvga solib qo'yish usullari bilan yig'iladi (shisha idishlarda) va quruq, quyosh tegmaydigan sharoitda 18—22 ° S haroratda saqlanadi. Gullar yetilgach, changlar ularga uchi kengaytirilgan ignalar, cho'tkalar, yumshoq rezinalar orqali solinadi. Changlatilgandan keyin izolyatorlar yana kiygizib qo'yiladi va tushib ketmasligi uchun mis simlardan paxta qo'yib, asta bog'lab qo'yiladi. Changlanish (urug'lanish) bo'lgan yoki bo'lmaganligini bilish uchun 3—6 kundan keyin qog'oz xaltachaga ustidan gullar yonboshidan sekin barmoqlar bilan bosib ko'riladi. Agar barmoq novdaga tegmasa changlanish o'ftgan hisoblanadi. Aksincha bo'lsa, changlanish takrorlanadi.

Changlash turlari:

1. Erkin changlash.
2. Majburiy changlash.
3. Cheklangan erkin changlash.

Ikki jinsli gulli o'simliklarda (anor, anjir, yong'oq) chatishtirishlar bichishsiz amalga oshiriladi. Hasharotlar yordamida changlanadigan o'simliklarda umumiy izolyator ichiga hasharotlar qo'yiladi, shamol yordamida changlanadigan o'simliklarda maxsus puflanadigan moslamalar qo'yiladi.

Izolyatsiya usullari:

Masofa izolyatsiyasi — chatishtirishdagi o'simliklar ma'lum masofada alohida maydonlarda ekiladi.

Vaqt izolyatsiyasi — keraksiz formalardan changlanishi mumkin o'simliklar bir-biri bilan changlanmasligi uchun har xil vaqtda ekilishi lozim.

Chang donachasi sifatini aniqlash usullari va uning ahamiyati. Chang donachalarini nam kamerada o‘stirish. D. A.Tarankovskiy usulida chang donachalarini nam kamerada ocstirish usuli, asetokarmin eritmasida changlarning ranglanishi va changlami urug‘chi tumshuqchasida o‘stirib ko‘rish asosida chang sifatini aniqlash usullari. Bu usullarning ahamiyati va mohiyati.

Chatishtirishlardan oldin chang donachasining urug‘chi tumshuqchasida o‘sa olish qobiliyatini aniqlash uchun chang donachasining sifati tekshirib ko‘riladi. Buning uchun chang donachasi urug‘chi tumshuqchasida o‘stirib ko‘rish, saxaroza yoki glukoza eritmasida o‘stirib ko‘rish, asetokarmin ta’sirida ranglanishi va chang fermentlari (piroksidaza, suksindegidraza)ning aktivligini tekshirib ko‘rishga asoslangan usullar qo‘llaniladi. Bu usullarning hech qaysisi ham hamma ekinlar uchun qo‘llaniladigan universal xarakterga ega emas. Shuning uchun ham bularning biri yaxshi samara bermasa, boshqasini qo‘llash kerak.

Van-Tigem usulida chang donachalarini nam kamerada o‘stirish: Mikroskopda qarash uchun moslangan qoplama oyna ustiga shisha tayoqcha yordamida saxaroza bilan agar-agar eritmasidan bir tomchi quyiladi. Eritma harorati, havo haroratidan 2— 5° S yuqori bo‘ladi. Uning ustiga skalpel bilan chang donachalari sepilib, oynacha ag‘darilib chang donachalarini o‘stirish kamerasiga qo‘yiladi. Namlikni saqlash uchun kamera ustiga distillangan suv tomiziladi. Kamera harorati 22—26°S bo‘lgan termostatga qo‘yilib har bir soatda chang donachasining o‘sganligi kuzatib turiladi. O‘sgan va o‘smagan chang donachalari sanaladi. Bunda chang o‘simtasi uning diametriga teng bo‘lishi kerak. Chang donachalari uchun ozuqa muhiti sifatida 0,5—1% agar-agarining distillangan suvdagi eritmasiga 5—40% saxaroza (uning konsentratsiyasi ko‘p meva va rezavor meva ekinlari uchun 10—15%) solinadi. Agar saxaroza boclmasa toza quritilgan shakardan ham foydalanish mumkin. Eritmani ma’lum darajada qizdirish kerak (bunda ko‘p qizdirib yubormaslik kerak). Eritma har kuni yoki bir kundan keyin tayyorlanib turishi kerak (yangiligicha qo‘llaniladi).Chang donachasining o‘shishini tezlatish maqsadida eritma ichiga yangi uzilgan changlanayotgan o‘simlikning urug‘chisini ham qo‘shish mumkin.Chang donachasini o‘stirish davomida harorat 12—26 °S bo‘lishi kerak. O‘sgan chang donalari sonidan tashqari chang naychasining uzunligi foizlarda va ballarda aniqlanadi.

Meva va rezavor meva ekinlarida chang naychasining uzunligi (chang diametriga nisbatan)

Ballar	Urug‘li	meva	Danakli	meva
--------	---------	------	---------	------

	ekinlarida	ekinlarida
1 — juda qisqa	10 ta chang donasi diametriga teng	1 ta chang donasi diametriga teng
2 — qisqa	21-30	5-10
4 — uzun	30-40	11-20
5 — juda uzun	41 dan ziyod	20 va ziyod

Bu usul haqiqiy chang donachasining sifatining pastroq natijasini ko'rsatadi, sun'iy ozuqa muhitida yaxshi o'smaydigan ekinlarni chang donachalari uchun qo'llab bo'lmaydi. D.A. Tarankovskiy usulida chang donachalarini nam kameralarda o'stirish. Predmet oynachaga 3—4 tomchi eritma quyilib chang sepiladi. Ulaming namligini saqlash uchun bakteriologik chashkalarga filtr qog'ozlar solinib, ular namlanadi va unga oynachalar solinadi. Hisob-kitob ishlari oldingi usuldek.

Atsetokarmin eritmasida chang donachalarining ranglanishi: predmet oynachaga 3—5 tomchi atsetokarmin eritmasi quyilib, chang sepiladi, tomchilar qoplama oynacha bilan sekin yopiladi va 30 daqiqadan bir soatgacha qo'yiladi. Keyin chang donachasi sifati aniqlanadi. Agar oynacha 2—3 marta yoqilgan spirtovka ustidan olib o'tilsa, bu vaqtni biroz kamaytirish mumkin. Normal chang donalari asetokarmin eritmasida qizil rangga bo'yaladi.

Chang donachalarini urug'chi tumshuqchasida o'stirib ko'rish. Oldin changlanadigan g'unchalar bichiladi va izolyatsiya qilinadi. 1—2 kundan keyin changlanadi. Yetarli natijalar olish uchun urug'li o'simliklarda 20-30 ta, danakli o'simliklarda 15—25 ta, rezavor mevalarda 8—10 ta gulni changlatish yetarli bo'ladi. 12, 24, 36, 48, 60, 72 soatdan keyin gullar uzib olinadi. Ular kapron xaltachalarga etiketkalar bilan solinib, formalin yoki etil spirtining glitserin (7/3) eritmasida to tekshirilguncha saqlanadi. Predmet oynachaga ko'k metilen eritmasidan (1/1000 — 1/10000) quyib, uning usti-dan urug'chi qo'yilib, so'ng qoplama oynacha qo'yib eziladi. Agar urug'chilar katta bo'lsa, ular maydalanadi.

Bunda chang donalari va naychasi moviy yoki ko'k rangga bo'yaladi, urug'chi to'qimalari esa ranglanmaydi. Shunga asoslanib o'sgan va o'smagan chang donalari sanalib, foizlari hisoblanadi. Changning urug'chida o'sishini kuzatish uchun ML—2 mikroskopi yordamida (changlatilgandan keyin 12, 24, 36 soatdan keyin) urug'chi Kamua eritmasi bilan ishlanadi. Bunda faqat chang naychasi och sariq — yashil rangga kiradi. Bu esa changning o'sishi davomida kuzatish imkonini

beradi. O'sgan chang donalarining flauoroxrom akridin eritmasida malla- rangga kirishi, generativ hujayra va sporalarni ko'rish imkonini beradi.

XULOSA

Ba'zi oddiy usullarda yashovchanligini yo'qotgandek ko'ringan chang donachalari boshqa nozikroq usullarda changlash qobiliyati-ni yo'qotmaganligini ko'rsatadi. Chang donachalarining bo'yalishi yoki uning o'sa olish qobiliyati ulaming sifat belgisidir.

Har bir kombinatsiyadan pishib yetilishi bilan mevalar yig'ib olinadi, sanalib natijalar judvalga yozib boriladi. Laboratoriya sharoitida meva belgilari yoziladi: pishish vaqti, kattaligi, massasi, shakli, rangi va boshqa morfologik va degustatsion belgilari qayd etilib, navning tipik belgilariga changlovchi navning ta'siri o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdulkarimov D.T., Safarov T.S., Ostonaqulov T.E. «Dala ekinlar seleksiyasi, urug'chiligi va genetika asoslari». Toshkent, «Mehnat», 1989-y.
2. Bo'riev X.Ch. «Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi». Toshkent, 1999-y.
